

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Hakimova M.F., Musaxanova G.M.

KASBIY PEDAGOGIKA

Darslik

TOSHKENT – «IQTISODIYOT», – 2019

УЎК: 005.95(075.8)

КБК 67.404.1

Hakimova M.F., Musaxanova G.M. Kasbiy pedagogika. Darslik. – T. TDIU, 2019 y. - 339 b.

Taqrizchilar: p.f.d. prof. Sh.S.Shodmonova, p.f.n., dos. N.S.Fayzullayeva

Bugungi kunda oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biri zamonaviy ta'limiy-kasbiy dastur asosida yuqori samarali ta'lim jarayonini va malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlash hisoblanadi. Ushbu o'quv qo'llanmada kasbiy pedagogika kursining fanlar tizimida tutgan o'ni, mazmuni, maqsad va vazifalari, kasbiy ta'lim pedagogikasi qonuniyatlari, kasb ta'limi tamoyillari, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti, o'quv jarayonida o'qitish vositalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, talaba yoshlarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash vazifalari va uning imkoniyatlari kabilari o'rin olgan.

Mazkur o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan.

Хакимова М.Ф., Мусаханова Г.М. Профессиональная педагогика. Учебник. – Т. ТГЭУ, 2019 г.- 339с.

Рецензенты: д.п.н. проф. Ш.С.Шодмонова, к.п.н., доц. Н.С.Файзуллаева

Одна из основных задач современного высшего образования считается подготовка профессиональных кадров и высокого эффективного процесса обучения на основе современных образовательно-профессиональных программ. В данном учебном пособии курса «Профессиональной педагогики» нашли свое отражение цель, задачи, содержание, место данного курса в системе наук, закономерности профессиональной педагогики, принципы профессионально образовательной педагогики, государственные образовательные стандарты профессионального обучения, приёмы обучения в процессе образования, современные педагогические технологии, задачи воспитания у студентов духовно-нравственных традиций и их возможности.

Данное учебное пособие предназначено для студентов высших учебных заведений.

Xakimova M.F., Musaxanova G.M. Professional Pedagogy. Textbook. – T. TSUE, 2019. – 339p.

Reviewers: d.p.s. Shodmonova Sh.S., k.p.s. Fayzullaeva N.S.

Training of professional cadres and provision of high efficiency in the learning process based on contemporary educational and professional programs is considered as one of the main objectives of modern higher education. Goals, objectives, content, place of the course in the system of sciences, patterns of professional pedagogy, principles of professional educational pedagogy, state educational standards regarding professional education, learning techniques in education and modern educational technologies, the task of educating students' spiritual and moral virtues in the traditions and their capabilities have found their reflections in this tutorial of the course - "Professional Pedagogy".

This tutorial is intended for students of higher educational institutions.

ISBN: XXXXXXXXXX

УЎК: 005.95(075.8)

КБК 67.404.1

MUNDARIJA

	KIRISH	6
I BOB	ЎZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING YANGI BOSQICHIDA KASBIY PEDAGOGIKA.....	8
1-mavzu:	Ўzbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida kasbiy pedagogika.....	9
II BOB	PEDAGOGIKA TARIXI.....	19
2-mavzu:	Pedagogika fanining metodologik asosi.....	20
3-mavzu:	Ўzbek xalq pedagogikasi. Uning ta'lim-tarbiyada tutgan orni.....	29
4-mavzu:	VII – IX asrlarda Movarounnahrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar...	34
5-mavzu:	Sharq uy'gonish davri va bu davrda pedagogik fikr taraqqiyoti.....	42
6-mavzu:	XIV – XV asrlarda Temur va temuriylar davrida ijtimoiy hayot, madaniyat, ta'lim-tarbiya	56
7-mavzu:	Markaziy Osiyoda XIX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy hayot, ta'lim-tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti.....	62
8-mavzu:	Jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi.....	71
9-mavzu:	Yevropa mutafakkirlari ta'lim – tarbiya haqida.....	78
III BOB	KASBIY PEDAGOGIKADA TARBIYA NAZARIYASI.....	84
10-mavzu:	Kasb ta'limida tarbiya nazariyasi.....	85
11-mavzu:	Oilada tarbiya asoslari. Hozirgi zamon o'zbek oilalaridagi tarbiyaning xususiyatlari.....	111
12-mavzu:	Ўsmirlik davrida xarakterning individual xususiyatlari va unda tarbiyaning roli.....	124
13-mavzu:	Oliy o'quv yurtlarida tarbiyaviy ishlar nazariyasi va amaliyoti.....	130
IV BOB	KASBIY PEDAGOGIKADA TA'LIM NAZARIYASI.....	148
14-mavzu:	Kasbiy pedagogikada ta'lim jarayoni.....	149
15-mavzu:	Kasbiy pedagogikada ta'lim mazmuni.....	161
16-mavzu:	Kasbiy pedagogikada ta'lim metodlari.....	168
17-mavzu:	Ta'lim jarayonida o'qitish vositalarining orni.....	182
V BOB	KASBIY PEDAGOGIKADA INNOVASION TEXNOLOGIYALAR.....	196
18-mavzu:	Kasbiy pedagogikada innovasion texnologiyalar.....	197
19-mavzu:	Kasbiy fanlarni o'qitish jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.....	218
VI BOB	KASB-HUNAR TA'LIMI TIZIMI BOSHQARUVI FAOLIYATINI TASHKIL QILISH SHART-SHAROITLARI, TAMOYILLARI VA USULLARI.....	241
20-mavzu:	Kasb-hunar ta'limi tizimi boshqaruvi faoliyatini tashkil qilish shart – sharoitlari, tamoyillari va usullari.....	242
21-mavzu:	Ўzbekiston Respublikasining globallashuv sharoitida kasb ta'limi muassasasini boshqarish.....	263
	GLOSSARIY.....	278
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	280

СОДЕРЖАНИЕ

	ВВЕДЕНИЕ.....	6
ГЛАВА I.	ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИКА В НОВОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЕ ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	8
1-Тема:	Профессиональная педагогика в новом этапе развитие образования в Республике Узбекистан.....	9
ГЛАВА II.	ИСТОРИЯ ПЕДАГОГИКИ.....	19
2-Тема:	Методологические основы предмета педагогики.....	20
3- Тема:	Узбекская народная педагогика. Его учебно-воспитательная роль.....	29
4- Тема:	Воспитание, школа и педагогические мысли в Мовароуннахре в VII – IX веках.....	34
5- Тема:	Период восточного ренессанса и развитие педагогической мысли.....	42
6-Тема:	Общественная жизнь, культура, учебно-воспитательная деятельность во времена Темура и Темуридов в XIV-XV веках.....	56
7-Тема:	Общественная жизнь, учебно-воспитательная деятельность и развитие педагогической мысли во второй половине XIX века в Центральной Азии..	62
8-Тема:	История развития международного предмета педагогики.....	71
9-Тема:	Европейские мыслители об учебно-воспитательной деятельности.....	78
ГЛАВА III.	ТЕОРИЯ ВОСПИТАНИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКЕ	84
10-Тема:	Теория воспитания в преподавании специальности.....	85
11-Тема:	Основы воспитания в семье. Особенности воспитания в современных узбекских семьях.....	111
12-Тема:	Индивидуальные особенности характера в отроческие годы и роль воспитания.....	124
13-Тема:	Теория и практика воспитательных работ в высших учебных заведениях....	130
ГЛАВА IV.	ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ТЕОРИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКЕ.....	148
14-Тема:	Образовательный процесс в профессиональной педагогике.....	149
15-Тема:	Образовательное значение в профессиональной педагогике.....	161
16-Тема:	Образовательные методы в профессиональной педагогике.....	168
17-Тема:	Роль обучающих средств в образовательном процессе.....	182
ГЛАВА V.	ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКЕ.....	196
18-Тема:	Инновационные технологии в профессиональной педагогике.....	197
19-Тема:	Применение трудных технологий в процессе обучения профессиональных предметов.....	218
ГЛАВА VI.	УСЛОВИЯ, ТЕНДЕНЦИИ И МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ СИСТЕМЫ СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	241
20-Тема:	Условия, тенденции и методы организации деятельности управления системы среднего специального образования.....	242
21-Тема:	Управление специализированным учебно-воспитательным учреждением в условиях глобализации Республики Узбекистан.....	263
	ГЛОССАРИЙ.....	278
	СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	280

TABLE OF CONTENTS

	INTRODUCTION.....	6
CHAPTER I.	PROFESSIONAL PEDAGOGY IN THE NEW STAGE OF EDUCATION DEVELOPMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	8
1-Theme:	Professional pedagogy in the new stage of education development in the Republic of Uzbekistan.....	9
CHAPTER II.	HISTORY OF PEDAGOGY.....	19
2- Theme:	Methodological basis of the subject of pedagogy.....	20
3- Theme:	Uzbek folk pedagogy. Its tutoring and educational role.....	29
4- Theme:	Education, school and pedagogical thought in Transoxiana in VII – IX centurie.....	34
5- Theme:	Eastern Renaissance period and the development of pedagogical thought.....	42
6- Theme:	Public life, culture, tutoring and educational activities in the days of Temur and the Timurids in the XIV-XV centuries.....	56
7- Theme:	Public life, tutoring and educational activities and the development of pedagogical thoughts in the second half of the XIX century in Central Asia...	62
8-Theme:	History of international development of the pedagogy subject.....	71
9- Theme:	European thinkers on tutoring and educational activities.....	78
CHAPTER III.	THEORY OF EDUCATION IN PROFESSIONAL PEDAGOGY.....	84
10- Theme:	Education theory in teaching the specialty.....	85
11- Theme:	Fundamentals of education in the family. Features of education in contemporary Uzbek families.....	111
12- Theme:	Individual character traits in adolescent years and the role of education.....	124
13- Theme:	Theory and practice of educational works in higher educational institutions.....	130
CHAPTER IV.	EDUCATIONAL THEORY IN PROFESSIONAL PEDAGOGY.....	148
14- Theme:	Educational process in professional pedagogy.....	149
15- Theme:	Educational value in professional pedagogy.....	161
16- Theme:	Educational methods in vocational pedagogy.....	168
17- Theme:	Role of learning tools in the educational process.....	182
CHAPTER V.	INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PROFESSIONAL PEDAGOGY.....	196
18- Theme:	Innovative technologies in professional pedagogy.....	197
19- Theme:	Application of sophisticated technologies in teaching vocational subjects.....	218
CHAPTER VI.	CONDITIONS, TRENDS AND METHODS OF MANAGEMENT ORGANIZATION OF SPECIALIZED SECONDARY EDUCATION SYSTEM	241
20- Theme:	Conditions, trends and methods of management organization of specialized secondary education system.....	242
21- Theme:	Management of specialized educational institutions in the conditions of globalization of the Republic of Uzbekistan.....	263
	GLOSSARY.....	278
	REFERENCES.....	280

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda.

Mustaqillik yillarida ta'lim sohasi, xususan, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini rivojlantirishga berilayotgan e'tibor har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalash maqsadini ko'zlaydi. Bugungi kunda o'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalar keng joriy etilmoqda, ta'lim va tarbiyada mukammal vositalardan samarali foydalanilmoqda.

Mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim xizmatlarining ochiqligi va sifati masalalariga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'tgan yillarda kasb-hunar ta'limini rivojlantirish, ta'lim jarayonini modernizatsiyalash va mazmunini yangilashni ta'minlash maqsadida uning huquqiy bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi, iqtidorli yoshlarning xalqaro va respublika olimpiadalari hamda tanlovlarda salmoqli natijalarga erishishlarida ularni manzilli qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator tizimli chora-tadbirlar ko'rildi¹.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida 2017-yil 7-fevralda "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga ko'ra mamlakatimizda 2017-2021-yillarda "...iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institushional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiyl mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish ko'zda tutilgan"².

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariyl qadriyatlar asosida, zamonaviyl

¹ Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – T., 2018-yil 25-yanvar.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. //Xalq so'zi. 2017-yil 8- fevral.

madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Kasbiy pedagogika jahon miqyosida tan olingan eng ilg'or metodlar va yo'nalishlar bilan boyib bormoqda. Bugungi kunda o'zining keng tatbiqini kutib yotgan, fanning boshqa sohalari bilan bog'liq ravishda ishlab chiqilgan yangi konsepsiyalar va nazariyalar rivojlantirilmoqda.

“Kasbiy pedagogika” fani nisbatan yosh va ko'p sohalarda rivojlanib borayotgan umumiy pedagogikaning bir bo'g'ini sifatida kasbiy-texnik ta'limning rivojlanishi bilan o'zaro uyg'unlikda taraqqiy qilib bormoqda.

Respublikamizda ta'limni rivojlantirishning bugungi bosqichida “Kasbiy pedagogika” fanining asosiy maqsadi - jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha oladigan, iqtisodiyotimizni buyuk davlat darajasiga ko'taradigan mutaxassislarni tayyorlash va bu jarayonda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini emas, balki ijodiy yondashuvni shakllantirish, mustaqil fikrlash va tadbir qilish sifatlarini tarbiyalash kabi ulug'vor vazifalarga qaratilishi zarur.

Fanning vazifasi quyidagilardan iborat:

- turli xil (tashkilotlarda) korxonalarda samarali mehnat faoliyatini amalga oshirish;

- aniq bir ishlab chiqarishning nafaqat texnik-texnologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy istiqbollarini belgilash;

- zaruriyat tug'ilganda, boshqaruv va ijro funksiyalarini birgalikda olib borish, ish qidirish davomida mehnat bozorida to'g'ri yo'l tanlash va xususiy ishlab chiqarishni yo'lga qo'ya bilish.

Shuningdek, bo'lajak iqtisodchi-pedagoglar «Kasbiy pedagogika» kursida mutaxassislik bo'yicha bilimlarini kengaytiradilar hamda yangi tushuncha va qarashlar bilan qurollanadilar.

“Kasbiy pedagogika” darsligini tayyorlashda R.Mavlonova, O.To'rayeva, K.Holiqberdiyevlarning “Pedagogika” darsligi, O'.Q.Tolipov, M.Barakayev, Sh.S.Sharipovlarning “Kasbiy pedagogika” ma'ruzalar matni, A.Q.Munavvarovning “Pedagogika” o'quv qo'llanmasi, I.Y.Tursunov, U.N.Nishonaliyevlarning “Pedagogika kursi” darsligi, N.N.Azizxo'jayevaning “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” o'quv qo'llanmasidan keng foydalanildi.

Ushbu o'quv qo'llanmada pedagogikaning rivojlanish bosqichlari, kasbiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, hozirgi paytda keng qo'llanilib kelinayotgan metodlar, “Kasb pedagogikasi” fanini o'qitishdagi xorijiy mamlakatlarda to'plangan ilg'or tajribalar ham hisobga olingan.

I bob

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING YANGI BOSQICHIDA KASBIY PEDAGOGIKA

Bobning qisqacha mazmuni

O'zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida kasbiy pedagogika. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta'lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'zbekistonda kasb ta'limi islohoti. Bugungi kunda jamiyat hayotida yuzaga kelayotgan iqtisodiy muammolar. Soha mutaxassislaridan juda katta bilim va malaka talab etilishi. Bo'lg'usi iqtisodchilar bugungi davr talablariga javob berish uchun o'z bilim va malakasini tinimsiz oshirib borishi.

Kasbiy pedagogikaning rivojlanish bosqichlari. O'zbekistonda kasb ta'limi islohoti. Kadrlar tayyorlash jarayonidagi kasbiy-malakaviy o'zgarishlar; kasblarni tahlil qilish metodlari. Kasb ta'limining vazifalari. Kadrlar tayyorlashdagi kasbiy-malakaviy o'zgarishlar.

Globallashuv sharoitida har tomonlama yetuk va yuqori malakali xodimlarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar. Globallashuv sharoitida kasbiy ta'lim shakllanishining o'ziga xos jihatlari. Kasb ta'limi tizimini rivojlantirishdagi asosiy yo'nalishlar.

Oliy kasbiy ta'lim va uning rivojlanish darajasi. Oliy o'quv yurtlarda kasbiy ta'limni tashkil qilish, alohida bo'lim va fakultetlarning tashkil etilishi. Yangi konsepsiya va nazariyalarning yuzaga kelishi.

I BOB. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING YANGI BOSQICHIDA KASBIY PEDAGOGIKA

1-mavzu. O`zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida kasbiy pedagogika

Reja:

- 1.1. O`zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida kasbiy pedagogika.
- 1.2. Kasbiy pedagogikaning rivojlanish bosqichlari. O`zbekistonda kasb ta'limi islohoti.
- 1.3. Kadrlar tayyorlash jarayonidagi kasbiy-malakaviy o`zgarishlar; kasblarni tahlil qilish metodlari.
- 1.4. Globallashuv sharoitida har tomonlama yetuk va yuqori malakali xodimlarni tayyorlashga qo`yiladigan talablar.
- 1.5. Oliy kasbiy ta'lim va uning rivojlanish darajasi.

1.1. O`zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida kasbiy pedagogika

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo`lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo`ljalni to`g`ri ola bilish mahoratiga ega bo`lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo`naltirilgandir.

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro`yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o`zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o`z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Bugungi kunda ulg`ayib kelayotgan avlodni barkamol etib tarbiyalash, iste'dodli, izlanuvchan, tashabbuskor yoshlarni izlab topish va ularga o`z salohiyatini to`la namoyon etishida ko`maklashish borasida katta ishlar olib borilmoqda. Jumladan, yangi ta'lim maskanlarini barpo etilishi, ularni zamonaviy mebel, o`quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlanishi, ularda kompyuter sinflari va lingafon xonalarni tashkil etilganligi, o`quvchi va talabalarning zamonaviy bilim olishini ta'minlash bilan birga, ularning maishiy sharoitini yanada yaxshilash, sport bilan muntazam shug`ullanishi bo`yicha aniq rejalar hayotga keng tatbiq etilayotgani bunga aniq misol bo`la oladi.

O`zbekiston taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy, milliy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so`nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega.

Xususan, bugungi kunda bo`lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini va metakasbiy sifatlarini mehnat bozori talablari asosida kvalimetrik yondashuv asosida baholash katta ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro pedagogik tajribalarga ko`ra, bo`lajak kasb ta`limi o`qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini belgilovchi bitiruv malakaviy ishining sifatini haqqoniy va obyektiv baholashda pedagogik o`lchovlar va mezonlarning validligi zarur va muhim hisoblanadi. Bu, birinchidan, jamiyatimizdagi yangilanishlar, oliy ta`limdagi islohotlar, ikkinchidan, ta`lim mazmuni va ishlab chiqarish munosabatlaridagi o`zgarishlar, texnologik jarayonlarni boshqarishga qodir bo`lgan mutaxassislarni tayyorlashga qo`yilayotgan zamonaviy talablar bilan uzviy bog`liqdir. Shu nuqtai nazardan bo`lajak kasb-ta`limi o`qituvchilarining bitiruv malakaviy ishini tayyorlash hamda himoya qilish jarayoni sifatini kompleks baholash metodikasini kvalimetrik yondashuv asosida takomillashtirish ta`lim sifati va samaradorligining oshishiga zamin yaratadi. “Respublikamizda bugungi kundagi bo`lajak mutaxassislar ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida zamonaviy kadrlar va yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo`lishi zarurligi”¹ ustuvor vazifalar sirasiga kiritilgan. Jumladan, oliy ta`lim muassasalarida talabalarning kasbiy tayyorgarligini baholash va nazorat qilishda tegishli mutaxassisliklar bo`yicha “nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish maqsadida ularni ijodiy ishlash, hal etilayotgan masala bo`yicha qaror qilishda mas`uliyatni his etishga o`rgatish hamda mustaqil faoliyatga tayyorligini ta`minlash”² dolzarb hisoblanadi. Mazkur islohotlar borasida “yakuniy attestatsiyalar malaka talablaridan kelib chiqib, o`quv dasturlarida nazarda tutilgan materiallarni talabalar tomonidan o`zlashtirganlik darajasini aniqlashga yo`naltirilgan bo`lishi” zarurligi bitiruv malakaviy ishlari mazmuniy sifatlarini etarli darajada obyektiv baholashda amaldagi mavjud pedagogik va texnologik metodikalarni takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Hozirgi tub islohotlarni amalga oshirish, bozor munosabatlarini shakllantirish ko`p jihatdan iqtisodiy ta`limga bog`liqdir. Kishilarda iqtisodiy tafakkurni shakllantirmasdan turib, chuqur o`zgarishlarni amalga oshirib bo`lmaydi.

Mustaqil taraqqiyotimizning bosib o`tgan yo`liga nazar tashlar ekanmiz milliy xo`jaligimiz iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, inqiroz holatidan chiqarilganligi, ko`pgina sohalarda barqaror o`sishga erishilganligining guvohi bo`lamiz. Bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirildi, hozirgi kunda esa iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni har taraflama erkinlashtirish amalga oshirilmoqda. Eng muhimi shu davr ichida milliy istiqloq g`oyasi va mafkurasi shakllanib, kishilarimiz ongiga singib bormoqda.

Bugungi kunda xalqning boy zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida mutaxassislar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish mamlakatimiz siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biriga aylangan. O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta`kidlaganidek: «... bugungi kunda oldimizga qo`ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu

¹ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017- yil 22- dekabr. <http://uz24.uz>

² O`zbekiston Respublikasi Oliy ta`lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestaSiyasi to`g`risidagi Nizom”. Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 2009- yil 22- maydagi 160-sonli buyrug`i.

niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz»¹.

Respublikamizning eng nufuzli universitetlari qatorida bo'lgan va jahonning ko'pgina nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan diplomatik aloqada bo'lib kelayotgan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida iqtisodiy ta'limga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-nazariy anjumanlarning muntazam ravishda o'tkazilib kelinayotganligi fikrimiz dalilidir.

Kasbiy ta'lim fani bizga, O'zbekiston mustaqilligining birinchi yillaridan kirib keldi. Chunki, qo'llanayotgan tajribalar kasbiy ta'limning asosi bo'lib xizmat qiladi. Talabalarimizga kasbiy ta'lim, kasbiy tarbiya berish muammolari ko'zga tashlanib qoldi. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov: «Bozor munosabatlariga o'tish davrida kasbiy bilimlarni berishimiz maqsadga muvofiqdir»¹, - deb ta'kidlagan edi.

Har bir insonning hayoti asosini iqtisodiy faoliyat tashkil etar ekan, u albatta har bir odamdan iqtisodiy fikrlashga o'rganishni talab qiladi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida bu talab yanada kuchayadi. Shuning uchun ham iqtisodchilarga yoshlikdan boshlab iqtisodiy fikrlashni o'rganishlari uchun, mamlakatimizda o'rta umumta'lim maktabidan boshlab, iqtisodiy bilim asoslarini o'rganishga kirishildi.

Oliy o'quv yurtining talabalari, ayniqsa iqtisodiy yo'nalishdagi o'quv yurtining talabalari esa iqtisodiy fikrlashni o'rganibgina qolmay, keng doiradagi iqtisodiy muammolarni aniqlash, tahlil qilish, iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga baho berish, bu o'zgarishlar kelajakda qanday natijalarga olib kelishini ko'z o'ngida keltira bilishni o'rganishi zarur.

Shunday qilib, bugungi kunda jamiyat hayotida yuzaga kelayotgan iqtisodiy muammolarni o'z vaqtida anglab yetgan holda ularni oqilona hal qilish uchun zaruriy chora-tadbirlar belgilash soha mutaxassislari juda katta bilim va malakani talab etadi. Bo'lg'usi iqtisodchilar bugungi davr talablariga javob berish uchun o'z bilim va malakasini tinimsiz oshirib borishi, zamonaviy tajribalarni qunt bilan o'rganishi, izlanishi lozim. Bu nafaqat bugungi kun kishilari, balki kelajak avlod oldida ham juda katta mas'uliyatni bo'yniga olish demakdir.

1.2. Kasbiy pedagogikaning rivojlanish bosqichlari. O'zbekistonda kasb ta'limi islohoti

Kasb ta'limi uzoq davrlar mobaynida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilib borildi, biroq ushbu tadbir bitiruvchilarning kasbiy mahoratini shakllanish darajasining pasayishi hisobiga amalga oshirildi. Bu holat kasbiy mahoratni va layoqatni oshirish, insonning butun umri davomida o'z bilimini takomillashtirib borish va o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojini oshirishga xizmat qilmas

¹ Karimov I. A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori - T.: «Sharq» nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1997.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.: O'zbekiston, 1995.

edi. Shu sababali kasbiy mahorati yetishmaydigan, ijodiy izlanishlardan yiroq, ta'lim-tarbiya, kasb-hunar ishida no'noq kishilar ham shu sohaga aralashib qoldilar. Oliy ta'lim tizimida yo'l qo'yilgan bunday xato va kamchiliklar ijtimoiy hayotimizda o'zining salbiy oqibatlarini namoyon qildi. Respublikamizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida kasbiy ta'lim ishchi kasblariga maxsus tayyorlash masalasiga, ta'lim oluvchi shaxsida kasbiy mahorat va layoqat sifatlarini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Ma'lumki, **kasb mahorati deyilganda**, bitiruvchining yuqori darajadagi kasbiy ko'nikma va malakalarni egallaganligi tushuniladi, u shaxsning mehnat bozorida egallayotgan kasbi bo'yicha raqobatbardoshlik darajasida o'z aksini topadi. Kasbiy mahorat ishchi kuchlarining yuqori darajada moslashuvchanligini va yangiliklarni tez o'zlashtirishi, yangi ishlab chiqarish sharoitlariga oz vaqt ichida o'ta olishi, faoliyat sohasini mustaqil tanlay olishi kabi sifatlar bilan belgilanadi.

Respublikamizda ta'limni rivojlantirishning bugungi bosqichida "Kasbiy pedagogika" fanining asosiy vazifasi sifatida jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha oladigan, iqtisodiyotimizni buyuk davlat darajasiga ko'taradigan mutaxassislarni tayyorlash va bu jarayonda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini emas, balki ijodiy yondoshuvni shakllantirish, mustaqil fikrlash va tatbiq qilish sifatlarini tarbiyalashga e'tibor qaratish lozim. Kasbiy ta'limga bo'lgan e'tiborning ortib borayotganligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

1. Oliy o'quv yurtlarida kasb ta'limini tashkil qilish, alohida bo'lim va fakultetlarning tashkil etilishi;

2. Kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan yanada jipsroq bog'lanib borishi, istiqbolda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan, bilim sohalari tutashuvida yangi konsepsiya va nazariyalarning yuzaga kelishi;

3. Oliy ta'lim muassasalarida aholiga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish turlarining ortib borishi, o'z bazasida tayyor mahsulot ishlab chiqarish va unga xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yishi, mehnatni tashkil qilishning ilg'or shakllarini joriy etishi va boshqalar¹.

Kasbiy pedagogika talabalarning ta'limi, tarbiyasi, o'qishi hamda rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi, ta'lim-tarbiya, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash mezonlarini ishlab chiqadi, kasb ta'limi muassasalari turlarini va ularni boshqarish tizimini asoslaydi. Ushbu fan insonni kasbiy faoliyatga tayyorlash, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, malakali ishchi kuchini yangi talablar darajasiga moslab borishni ko'zda tutadi.

1. 3. Kadrlar tayyorlash jarayonidagi kasbiy-malakaviy o'zgarishlar, kasblarni tahlil qilish metodlari

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy maqsadi – yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini barpo etish strategiyasi hamda asosiy yo'nalishlarini uning komponentlari: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish vazifalarini hisobga olgan holda ishlab chiqishdan iboratdir. Bu

¹Tolipov O'.Q., Barakayev M., Sharipov Sh. Kasbiy pedagogika. (Ma'ruzalar matni). –T.: TDIU, 2001.

masalani ilmiy-pedagogik jihatdan to'g'ri hal etish, hozirgi kundagi tadqiqot ishlarining mavzusi va tadqiqotchilarning mashaqqatli mehnati tufayli amalga oshiriladigan muammodir.

Shuning uchun iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida hamda ta'lim tizimini o'rganish asosida mamlakatimiz iqtisodiyotida erishilgan yutuqlarni atroflicha tahlil etish, mavjud muammo va kamchiliklarni batamom bartaraf etish hamda iqtisodiyotni rivojlantirish usullarini ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish orqali amalga oshirish, ta'lim tizimini yanada takomillashtirish masalalari ilgari suriladi. Bunda, asosiy e'tibor O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuvi jarayonini jadal sur'atlarda rivojlantirishga qaratiladi. Bu esa mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatini erkinlashtirish borasida kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Iqtisodiyot shunday xo'jalik tizimiki, u zarur hayotiy ne'matlarni yaratish yo'li bilan odamlar va jamiyat ehtiyojini qondiradi, xo'jalik yuritish faoliyatini yaxshilaydi, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlaydi. Demak, inson birinchi navbatda, moddiy talab-ehtiyojini qondirishga iqtisodiy faoliyat orqali erishadi, o'z rizq-ro'zini yaratadi. Bunga erishish uchun iqtisodchi mutaxassislarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirish orqali ularni:

- jamiyat iqtisodiy qonunlarini o'rgatuvchi bilimlar bilan qurollantirish;
- jamiyatning iqtisodiy siyosatini to'g'ri anglab etadigan mutaxassis-shaxsni shakllantirish;
- ishlab chiqarishdagi faol iqtisodiy faoliyatda ishtirok etish, mehnat qilishning ilg'or shakl va metodlarini o'rganib olishga yo'llaydigan dastlabki malakalarni egallab olish.

Bozor iqtisodiyoti islohotlarini amalga oshirishda qanday chora-tadbirlar ko'rilishidan qat'iy nazar, malakali mutaxassislarni etishmas ekan, qo'yilgan maqsadga erisha olmasligimiz mumkin. Malakali mutaxassislarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish vaqti keldi. Bu jarayonni amalga oshirishda xorijiy tajribalardan samarali foydalanish va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining dastlabki bosqichlarini amalga oshirish, shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida kadrlar tayyorlash muammolarini o'rganish ushbu mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Bu kabi muammolarning oqilona hal etilishi esa har tomonlama bozor munosabatlari talablariga javob bera oladigan iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashga bog'liqdir. Chunki, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mustaqil respublikamiz oldidagi yangidan-yangi maqsad va vazifalarni chuqur anglab yetgan, har tomonlama yetuk, zamon talablariga mos keluvchi bilim va tajribaga ega bo'lgan iqtisodchi mutaxassislarga mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shishi mumkin. Biroq, yangi sharoitda samarali faoliyat yurita oladigan iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash borasidagi muammo va kamchiliklarning mavjudligi tufayli, yuqorida aytib o'tilgan xususiyatlarni o'zida mujassam etgan mutaxassislarni tayyorlashda bir qator to'siqlar yuzaga kelgan bo'lib, ularning oqilona yechimini topish bevosita mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini belgilab beruvchi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

«Kasbiy pedagogika» fanining asosiy tushunchalari, mazmun-mohiyati kasbiy ta'limning turli tizimlarida quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

- o'qituvchilarning yangi va yanada murakkab tadbirlarni amalga oshirish maqsadida o'z kasbiy mahoratini oshirishi;
- kasbiy-texnik ta'limning yangi konsepsiyalarini amalga oshirish vosita va yo'llarini yaratishga alohida e'tibor qaratish, faol-ijodkor shaxsni tarbiyalash;
- pedagogik bilimlarni egallashga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish;
- ta'lim-tarbiyaning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish;
- rivojlanib boruvchi yangi pedagogik jarayonlarni loyihalash, ta'lim oluvchilarning barcha imkoniyatlari va qobiliyatlarini ishga solishi uchun sharoit yaratish, kasbiy mahoratni egallashi uchun sarflanadigan vaqtni qisqartirishga erishishdan iborat.

1.4. Globallashuv sharoitida har tomonlama yetuk va yuqori malakali xodimlarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar

Mamlakatimizda barcha sohalarida bo'layotgan islohotlar, ijtimoiy o'zgarishlar, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlarda ham o'z aksini topmoqda. O'zbekistonda odob-axloq ilmiga, ma'naviyat masalalariga katta e'tibor berilmoqda, ayniqsa yoshlarning ma'naviy qiyofasini mustaqillik mafkurasi, uning insoniy tamoyillari asosida shakllantirishga bosh vazifa sifatida qaralayotgani bejis emas. Eng quvonarlisi shundaki, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga, ularning bilim va kasb mahoratini oshirish masalalariga alohida e'tibor berib kelmoqda. Chunki mustaqilligimizning uch tayanchi - mustaqil siyosat, iqtisodiy qudrat va xalq ma'naviyati bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning uyg'un rivoji ta'minlansagina O'zbekiston buyuk yurt sifatida jahon hamjamiyatida o'z munosib o'rnini topa oladi.

O'zbekistonning buyuk kelajagini bunyod etish asosan bugungi yosh avlodning zimmasida ekan, ularni bilimli, madaniyatli, mehnatsevar, tashabbuskor, izlanuvchan etib shakllantirish hayot tajribasiga ega, qiyinchiliklarda toblangan yoshi ulug'larimiz, faxriylarimizning, shu bilan birga mazkur ishga da'vat etilgan tarbiyachilar, muallimlar, olimlarning va umuman barchaning asosiy vazifasi bo'lib qoladi. Bu borada yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yoshlar muammolari instituti, iste'dodlarni tanlash markazlarining tashkil etilishi yoshlarni ma'naviy va jismoniy shakllantirish, iqtidorli yoshlarni tanlash, rag'batlantirish borasida davlatimiz olib borayotgan siyosatning namunasidir. Shu boisdan ham kelajak borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturida yoshlar tarbiyasiga alohida ahamiyat, e'tibor berish, ularni jamiyatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida faol ishtirok etishlarini ta'minlash har bir fuqaroning burch va vazifalari hisoblanadi. Mazkur holatda, eng avvalo, yoshlarimiz ongida ma'naviyat va axloqiylik kabi yuksak fazilatlarini tarbiyalashimiz zarur bo'ladi, ya'ni yoshlar tarbiyasi sohasidagi siyosatni keng jabhada olib borilishi jumladan, oiladagi tarbiya poydevorini ta'lim maskanlarida ham uyg'un ravishda mustahkam qo'yilishiga e'tibor qaratilish kerakdir.

Yoshlar jamiyatda sodir bo'ladigan har qanday voqealarga o'zgacha, ruhiy his-kechinmalar doirasida munosabat bildiradilar, qiyinchiliklar vujudga kelganda esa

ehtirolarga beriladilar. Shuning uchun bizning oldimizda turgan muhim masala – yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash, bunda oiladagi tarbiya bilan birgalikda jamoatchilikning uzviy hamkorligini ta'minlash taqozo etiladi. O'sib kelayotgan yoshlarimizning salomatligini mustahkamlash, ularni Vatanimizning munosib farzandlari etib tarbiyalash masalasi borasida mahalliy dasturlarni ishlab chiqib ularni amalga oshirish zarur.

Bugungi kunda biz mustaqillik tufayli jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy asoslarini mustahkamlash borasida ko'pgina ishlarni amalga oshirdik. Ularni davom ettirish esa yoshlarimiz qo'lidadir. Shu sababdan ham mavjud imkoniyatlarimizdan to'liq foydalanib, Barkamol avlod yilida yoshlarimizga bo'ladigan e'tiborni yanada kuchaytirishimiz darkor. Zero, yoshlar tarbiyasiga burch va ma'suliyat nuqtai nazaridan yondashish kelajagimizni shakllantirish garovi bo'lib qoladi.


Shuning uchun iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida hamda ta'lim tizimini o'rganish asosida mamlakatimiz iqtisodiyotida erishilgan yutuqlarni atroflicha tahlil etish, mavjud muammo va kamchiliklarni batamom bartaraf etish hamda iqtisodiyotni rivojlantirish usullarini ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish orqali ta'lim tizimini yanada takomillashtirish masalalari ilgari suriladi. Bunda, asosiy e'tibor O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi jarayonini jadal sur'atlarda rivojlantirish, buning uchun mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatini erkinlashtirish borasida kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratiladi.

Globalashuv sharoitida mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash tizimini zamon talablari darajasida qayta tashkil etish maqsadida iqtisodiy ta'limning xalqaro andozalaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, dunyoning rivojlangan va bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan mamlakatlarning deyarli barchasi yangi mexanizmning keskin o'zgarishlariga moslasha oladigan va har qanday sharoitda raqobatlasha oladigan iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash borasida zamonaviy iqtisodiy ta'lim tizimiga egadirlar¹.

Oliy ta'limning respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy rivojini ta'minlashda o'zi tanlagan mutaxassis bo'yicha bozor iqtisodi sharoitida ishlashga layoqatli, yuqori malakali, iqtidorli, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Bo'lajak kadrlarda chuqur va mustahkam bilimlarni shakllantirish, milliy istiqlol g'oyalariga sadoqatini, Vatanga muhabbatini, bu yo'ldagi fidoyilikni tarbiyalashni davom ettirish ham oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridandir.

Iqtisodiyot bilan shug'ullanishning birinchi vazifasi talabalarning iqtisodiy bilim saviyasini oshirish bo'lsa, keyingisi ana shu bilim asosida malaka va ko'nikmalar hosil qilishdir. Iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni quyidagicha kechadi: bilim-ko'nikma-malaka. Bu jarayon mexanizmi quyidagicha amalga oshirilishi mumkin

¹Xo'jayev N., Hasanboyev J. Iqtisodiy pedagogika. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2002.



1-rasm. Iqtisodiy bilim va ko`nikmalarni rivojlantirish jarayoni

Hozirgi paytda tayyor bilimlarni o`zlashtirish asosiy maqsad bo`lmay, eng asosiysi talaba-yoshlarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko`nikmasini hosil qilish obyektiv zaruriyatga aylandi.

Ma`lumki, iqtisodiyotdagi tarkibiy o`zgarishlar, o`z navbatida, mutaxassislar malakasi va mahoratini yuqori bo`lishini, mutaxassislarga bo`lgan talabning o`zgarishiga moslashuvchan, o`z malakasini oshirishga intiluvchan bo`lishni talab etadi. Buning uchun iqtisodchi mutaxassislarni mustaqil izlanish, fikrlash, turli qarashlarni taqqoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarishga o`rgatish lozim.

1.5. Oliy kasbiy ta`lim va uning rivojlanish darajasi

O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, rivojlanishning o`ziga xos va o`ziga mos yo`lini tanlab oldi hamda huquqiy demokratik davlat, ochiq fuqarolik jamiyatini qurishni amalga oshira boshladi. Bunday davlatda jamiyatning ma`naviy yangilanishi, ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodini shakllantirish jahon hamjamiyatiga uyg`unlashtirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo`ladi.

Umuminsoniy qadriyatlar o`zbek xalqining ko`p asrlik ilmiy va madaniy an`analarini, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika hamda jamiyatning rivojlanish istiqbolini e`tiborga olgan holda ta`lim sohasida olib borilayotgan aniq maqsadlarga erishishning muhim shartlari bo`lib hisoblanadi.

Mohiyati jihatidan mutlaqo yangi bo`lgan Kadrlar tayyorlashning milliy modeli “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”dan iborat qonunlarning qabul qilinishi va joriy etilishi ijodkor, ijtimoiy faol, ma`naviy jihatdan boy shaxsni shakllantirish hamda yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarni oldindan qayta tayyorlashdan iborat strategik maqsadga erishish uchun nazariy asos bo`lib xizmat qilmoqda.

Bu o`zgarishlarni maxsus dasturlar asosida amalga oshirish, xo`jalik yuritishning zamonaviy usullarini joriy etish, kompyuterlashtirish, ham xorijda, ham o`z yurtimizda oliy ta`lim muassasalaridagi yosh mutaxassislarni jadal tayyorlashni tashkil etish, bular barchasi, Prezidentimiz, davlatimizning diqqat markazida turibdi. Respublikamiz hukumati tomonidan umuman moliyalash tizimini, xususan, ta`lim tizimidagi moliyalashni takomillashtirishni talab etilmoqda.

Mamlakatimizda yetarli mablag`ga ega bo`lmasdan turib ko`zlangan maqsadga erishib bo`lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan oliy ta`limni moddiy qo`llab-quvvatlash o`quv yurtlarining noshirlik, ishlab chiqarish, ilmiy xizmat ko`rsatish va ustavga muvofiq amalga oshiriladigan boshqa faoliyatlar hisobiga o`quv yurtlari daromadini oshirish bilan chambarchas bog`liq holda olib borilishi lozim. Bular ta`lim muassasalarida zamonaviy texnika vositalari, jihozlar, yangi texnologiyalarga xususan, axborot texnologiyalariga bo`lgan ehtiyojni ta`minlaydi, ular mustaqilligini oshiradi, fanning ta`lim bilan uyg`unlashuvining ta`sirchan vositalarini ishlab chiqish va joriy etish imkonini beradi va oqibat natijada oliy ta`lim tizimiga yangi kuch baxsh etadi. Bu sa'y-harakatlar o`zlarida ilmiy bilim bilan garmonik jihatdan mukammal inson bo`lishini mujassamlashtirgan, oila, jamiyat, davlat oldida o`z mas'uliyatini chuqur his etadigan fidoyi mutaxassislarni tayyorlashni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishi shubhasizdir.

Bizning mamlakatimiz uchun kadrlar tayyorlash va yangi ta`lim ustuvorliklariga alohida e'tibor qaratib etgan va takomillashgan jamiyat barpo etishga alohida e'tibor qaratiladi.

Ayni paytda, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda mustahkamlab qo'yilganidek, ta'lim sohasidagi davlat siyosati ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik va dunyoviy xarakterini, uning uzluksizligi va izchilligi, ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi, jinsi, tili, yoshi, irqi, milliy mansubligi, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeidan qat'i nazar, bilim olishda teng huquqlarni kafolatlash va ta'minlashdek prinsiplarga asoslangan holda rivoj topib borishi uning g'oyaviy, tarbiya jarayonidagi o'rni, mavqei va imkoniyatlari doirasi kengligini belgilab beradi".¹

Ta'limning eng muhim vazifasi bo'lib, jamiyatni zamonaviylashtirish, mamlakatni rivojlanishining oldingi o'rinlariga olib chiqishga qodir mutaxassis xodimlar bilan mustahkamlash, sog'lomlashtirish, yangilash va to'ldirish hisoblanadi. Bunda zamonaviy bozor iqtisodiyoti mutaxassislari tayyorlashga yangi talablar qo'ymoqda. Har bir ish o'rnida ishlab chiqarishni rivojlantirishda ishtirok etish, o'z tavsifi va texnologiyaviy jihatiga ko'ra ancha murakkab mahsulotning tez o'zgaradigan yuqori sifatlilikini ta'minlash, ashyolar tannarxi oshib borishini ishlab chiqarish usullarini takomillashtirishi va sarflarni kamaytirish yo'li bilan tizginlashdan iboratdir.

Asosiy masala shundaki, bozor iqtisodiyoti sharoiti har bir ishtirokchiga faol iqtisodiy fikrlashga erishish talabini qo'ymoqda. innovatsiya strategiyasida bu ayniqsa yuqori ahamiyat kasb etadi. Gap shundaki, bozor iqtisodiyoti garchi yangilikka qulaylik bersa-da, lekin o'zi bunga shart-sharoit yarata olmaydi. Shuning uchun bozor munosabatlariga jalb etilgan barcha mutaxassis xodimlarda strategik fikrlash, iqtisodiy rivojlanish qonunlarini tushunish, yangilikni baholay bilish, mustaqil qaror qabul qilish, yuzaga kelgan qiyinchilikni eng bilish, zarur bo'lganda o'z qarorini asoslab tushuntirib berish va isboti bilan ifodalash muhim sifat bo'lib hisoblanadi.

¹ Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O'zbekiston, 1997. 20-21 betlar.

Qisqa xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda kasb ta'limi islohotlarini amalga oshirishdan asosiy maqsad ta'lim-tarbiya jarayonini yuqori cho'qqilarga olib chiqishdir. Islohotlarni amalga oshirish zaruriyati kasb pedagogikasi fani oldiga ko'proq ijodiy xarakterdagi ilmiy tadqiqot ishlarini yaratish vazifasini qo'ymoqda. Hozirgi zamon har tomonlama yetuk mutaxassis kadrlarni o'qitish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirishni talab etadi. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun ta'limning eski usullaridan voz kechish, faqat muayyan bilimlar majmuigagina ega bo'lgan yosh kadrlarni tayyorlashdan o'zining butun bilim va imkoniyatini namoyon etishga qodir, yuksak axloqli, har tomonlama yetuk insonni tayyorlashga o'tish kerak. Kasbiy pedagogikaning jahon miqyosida erishgan yutuqlari darajasini, axloqiy-estetik me'yorlar rivoji ustuvorligi hisobga oluvchi milliy maktabga tayanuvchi, milliy madaniyat o'chog'i hisoblanuvchi, shu bilan birga madaniyatlarning oqilona dialogini olib borishga qodir uzluksiz ta'limni rivojlantirish strategiyasi haqidagi masala dolzarb bo'lib qoldi. Bunday ta'lim umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalarida rivojlantirilishi va mustahkamlanishi lozim.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. O'zbekistonda kasb ta'limi islohoti qachondan boshlangan?
2. Kadrlar tayyorlashdagi kasbiy-malakaviy o'zgarishlar haqida fikr bildiring?
3. Keng qamrovli va yuqori malakali xodimlarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
4. Kasb ta'limi vazifalariga nimalar kiradi?
5. Kasbiy mahorat deganda nimani tushunasiz?
6. Kasbiy ta'limning shakllanish jarayoni haqida Sizning fikringiz?
7. Kasb ta'limi tizimini rivojlantirishdagi asosiy yo'nalishlar nimalardan iborat?
8. Mamlakatimiz iqtisodiyotida qanday o'zgarishlar amalga oshirilyapti?
9. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimidagi ustuvorliklar nimalardan iborat?
10. Oliy kasbiy ta'lim va uning rivojlanish bosqichlari haqida so'zlab bering?

II BOB.

PEDAGOGIKA FANI TARIXI

Bobning qisqacha mazmuni

Pedagogika fanining metodologik asosi. Umumiy pedagogika fanining predmeti, hozirgi zamon pedagogikasining maqsad va vazifalari, pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi, asosiy pedagogik kategoriyalar kabi mavzular yoritilgan va shu bilan birga pedagogika fanining metodlari va ularni qo'llanilishi haqidagi fikrlar ham keltirib o'tilgan.

O'zbek xalq pedagogikasi. Uning ta'lim-tarbiyada tutgan o'rnini. Xalq pedagogikasi haqida ma'lumot, o'zbek xalq pedagogikasi, uning ta'lim-tarbiyadagi o'rnini, milliy qadriyatlar va uning barkamol insonni tarbiyalashdagi roli.

VII – IX asrlarda Movarounnahrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar. Islom dini haqida. Islom dini ma'rifatga asoslanganligi. Hadislar va ularning tarbiyaviy ahamiyati.

Sharq uyg'onish davri va bu davrda pedagogik fikr taraqqiyoti. Sharq uyg'onish davri haqida ma'lumot. Ilm-fan rivojiga, ma'naviy hayotni yaxshilanishiga olib kelish uchun xizmat qilgan olimlar ijodiyoti haqida.

XIV – XV asrlarda Temur va temuriylar davrida ijtimoiy hayot, madaniyat, ta'lim-tarbiya. O'zbek xalqining o'ziga xos bo'lgan ma'naviy boyliklari, Temur va temuriylar davrida yashab, ijod etgan mutafakkirlar Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiylarning pedagogikaga, ta'lim-tarbiyaga qo'shgan ulkan hissalari.

Markaziy Osiyoda XIX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy hayot, ta'lim – tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti. Jadidchilik harakatini Markaziy Osiyoga kirib kelishi, ularning ta'lim – tarbiya borasidagi beqiyos xizmatlari, yangi usul maktablarning tashkil topishi, sinf – dars tizimidagi dars jarayonlarini joriy etilishidagi jadidchilarning beqiyos xizmatlari.

Jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi. Jahon pedagogika fani taraqqiyoti haqida. Qadimda Yunonistonda ilk maktablarning paydo bo'lishi va shakllanishi, Sparta va Afina maktablaridagi o'ziga xos ta'lim – tarbiya.

Yevropa mutafakkirlari ta'lim-tarbiya haqida. Jahon pedagogika fani taraqqiyoti haqida. Pedagogikani rivojiga ulkan hissa qo'shgan Ya.A.Komenskiy, Pestalohhi, J.J.Russolarning ijodi va ilmiy faoliyati.

2 - mavzu. Pedagogika fanining metodologik asosi

Reja:

- 2.1. Pedagogika fanining predmeti, maksadi va vazifalari.
- 2.2. Umumiy pedagogika fanining asosiy tarmoqlari.
- 2.3. Asosiy pedagogik kategoriyalar.
- 2.4. Pedagogika fanini boshqa fanlar bilan aloqasi.
- 2.5. Kasbiy pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.

2.1. Pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Kelajagi buyuk davlatni qurayotgan kishilarning tafakkuri, yangi iqtisodiy munosabatlarni tiklashga, moddiy ne'matlar ishlab chiqarishga astoydil kirishib doimo yonib yashash hissi bilan sug'orilgan bo'lishi lozim. Mana shunday ijobiy xislatlarga boy insonni tarbiyalash pedagogika o'quv yurtlarining, o'quv muassasasi, litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Buyuk alloma A.Avloniy ta'kidlaganlaridek: «Tarbiya bizlar uchun yo hayot. yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir». Haqiqatan ham inson hayotini saodatga, sof insoniy faoliyatga erishishda tarbiyaning roli nihoyatda muhim.

Yoshlarni tarbiyalashda biz uchun qadrli bo'lgan milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz, o'chmas merosimizga mehr-muhabbat ularga sodiqlik ruhini shakllanitira olsak har birimiz uchun ijobiy natija bajarayotgan ishlarimizning mahsuli ekanligi bilinadi.

Buning uchun avvalo milliy g'urur, milliy ong, milliy g'oya, ma'naviyat, yuksak madaniyat egasi kabi tushunchalarni yoshlarning ongiga singdirishimiz lozim. Chunki tarixni bilmasdan, o'rganmasdan undan ruhiy, ma'naviy ozuqa olmasdan turib, kelajakni, kelajakdagi orzu umidlarga erishib bo'lmaydi.

Demak, pedagogika fanining predmeti, o'qitishning, ta'lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalari bilan kishilarni, yoshlarni, mutaxassislarni qurollantiruvchi fan bo'lganligi uchun ham uning metodologik asoslari maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma'naviy rivojida shaxs kamoloti uyg'unligi qonuniyatlari va davlatning zamonaviy siyosatidan kelib chiqadi.

Tarbiya jamiyatning vazifasi bo'lib, u faqat ishlab chiqarish munosabatlari ta'sirida emas, balki turli tarixiy davrlarda ilgari suriladigan u yoki bu tarbiya nazariyasining g'oyalari ta'sirida aniq shaklga ega bo'ladi, shuning uchun ham ko'p jihatdan ma'rifatchi va pedagoglar faoliyatining natijasini ifodalaydi. Agar tarbiya alohida mustaqil vazifa sifatida kishilik jamiyati paydo bo'lishi bilan birga tarkib topgan bo'lsa, ta'lim nazariyasi fan sifatida bir muncha keyinroq shakllangan.

Tarbiya jamiyat hayotida sezilarli rol o'ynaydi. Jamiyatda tarbiya jarayonida to'plangan tajribani umumlashtirish ehtiyoji tug'ilib, o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga tayyorlash imkonini beradigan maxsus o'quv yurtlarini ochish zaruriyati paydo bo'lishi bilan birga, ta'lim nazariyasi ham fan sifatida rivojlana boshladi.


Ibtidoiy jamoa davrida ham ijobiy tarbiya tajribasini ommalashtirishga urinish kurtaklari bo'lgan. Masalan, kattalar va yoshlar o'rtasidagi munosabatlar bilan,

keyinroq turli odat va marosimlar bilan bog'liq o'zini tutishning ba'zi bir ko'rinishlari shakllana boshlagan.

Qadimiy va O'rta Sharq adabiyoti namoyondalari orasida nazariy-pedagogik tusga ega qator ilmiy qarashlar mavjud bo'lgan. Ular orasida Al-Farobiy, Alisher Navoiy va boshqalarning asarlarini misol keltirish mumkin.

Feodalizm davrida tarbiya asosan din ta'sirida bo'lgan. Shuning uchun ham ta'lim nazariyasining asosiy g'oyalari diniy ilm orqali ifodalangan.

Tarbiya nazariyasining g'oyalari ancha oldindan ilgari surilgan bo'lishiga qaramay pedagogik ilmiy bilim-fan sifatida bir oz keyin shakllangan.



Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy nomi bilan bog'liqdir. Komenskiy tomonidan taklif etilgan tamoyillar, ta'lim jarayonining shakl va uslublari «Pedagogika»ning oltin fondiga kirgan. Uning mashhur «**Buyuk didaktika**» asari pedagogika nazariyasi va amaliyoti sohasida birinchi muhim ilmiy asar hisoblanadi.

Ya.A.Komenskiy (1592 -1670)

Har qanday fan o'rgatilishi mobaynida pedagog tarbiyalanuvchilar dunyoqarashini shakllantiradi, madaniy xulq-atvorini tarbiyalaydi.

«Pedagogika» atamasi qadimiy Yunonistondan kelib chiqqan. Bu erda quldorlar farzandlarini o'quv muassasasiga kuzatib qo'yadigan, olib boradigan odamlarni «paydagogos» deb atashgan (ya'ni «PAYDOS» - bola, «**AGO**» – etaklovchi ma'nolarini anglatgan). Keyinchalik bu atamaning ma'nosi birmuncha o'zgardi. Maxsus tayyorgarlik ko'rgan va tarbiya bilan shug'ullangan shaxslar «**PEDAGOG**» deb atala boshlagan. Ko'p vaqtlar pedagogika ilmiy fan sifatida faqat o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasini o'rganadi, deb qaralgan. Ammo hayot amaliyoti tarbiyasiga emas, balki kattalar tarbiyasiga ham taalluqli ekanligini ko'rsatdi. Shuning uchun ham keyingi paytlarda pedagogikani yosh avlodni va katta yoshdagi odamlarni tarbiyalash va o'qitish, ularga ma'lumot berish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan, deb belgilash odatga aylandi.


Oldiniga tarbiya jarayoni kattalar tomonidan bevosita mehnat faoliyatida amalga oshirilgan bo'lsa, jamiyat rivojlana borgan sari bunday yo'l talabga javob bermay qo'ydi. Endi tarbiya bilan bilimdon, tajribasi etarli odamlar shug'ullana boshladi. Mashg'ulotlar tobora tashkiliy shakllarga, ko'rinishlarga ega bo'lib bordi va sekin-asta o'quv muassasalari paydo bo'ldi.

Umumiy pedagogika shaxs ta'limi haqidagi fan bo'lib, pedagogik jarayonning qonuniyat, tamoyil, mazmuni, usul va shakllarini tushuntirib beradi. Hozirgi zamon pedagogikasi ikki asosiy elementdan tashkil topgan. Birinchi element pedagogik nazariya bo'lib, pedagogik jarayon qonuniyatlarini tadqiq etish yo'li bilan g'oyalar, ta'riflar, qoidalar, shart-sharoitlar tarzida ifodalanadi. Yaratilgan ilmiy g'oya,

qarashlar umumiy pedagogikani fan sifatida shakllanishi va taraqqiyotida muxim rol o`ynaydi.

Ikkinchi element esa, pedagogik tajriba bo`lib, iqtidorli o`qituvchilar, tarbiyachilar pedagogik faoliyatida shakllangan ko`nikma, malakalar yigindisidir.

Pedagogikaning stukturasini quyidagi 2 – rasm orqali ifoda etamiz:



2-rasm. Pedagogikaning strukturasini

2-rasmni izohlab aytish mumkinki, pedagogikaning insonni tarbiyalanuvchi va tarbiyachi sifatida o`rganuvchi qismi *pedagogik antropologiya* deb ataladi. Pedagogik antropologiya inson tabiati va kishilar hamjamiyati hamda inson va kishilar guruhini tarbiyalash va o`qitish haqidagi savollarga javob beradi. Shuning uchun u imorat poydevoriga qiyoslanadi.

Har bir mustaqil fan o`zining predmeti va metodik asosiga ega bo`lgani kabi Pedagogika fani ham fan sifatida shakllanib, o`z predmetiga ega bo`ldi. Barcha ijtimoiy fanlar kabi jamiyatdagi o`zgarishlar, inqiroz, yuksalishlar Pedagogika fanining metodologiyasi, o`qitish jarayoni, g`oyalar rivojiga ham o`z navbatida ta`sirini ko`rsatadi. Lekin insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hamma davrlarda pedagogik faoliyat, tarbiyaviy jarayon mavjud bo`lgan. SHu sababli ham tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qarash, hamda oldin tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib, insoniyat hayotidagi buyuk o`zgarishlarni, jamiyatni rivojlanishini, farovon turmush tarzini tasavvur qilish qiyin.

Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot ishlar, pedagogik g`oyalar, ilmiylikka asoslangan natijalar jamlanmalari, ilmiy ishlanmalar, tajribalar, tavsiyalar asosida bir qator ilmiy pedagogik qo`llanmalar, darsliklar chop etilgan.

Hozirgi zamon pedagogika fani jahon pedagogikasining etakchi bir qismi bo`lib, pedagogika fani tarixi bilan mustahkam bog`liqdir. Pedagogika fanining tarixi esa, pedagogikaning qismlaridan biri, uning maxsus tarmog`i hisoblanadi.

Pedagogikaning bosh masalasi tarbiyadir. Tarbiyadagi keng ma`no ta`lim, rivojlanish, ma`lumot bilan bog`langan holda barkamol insonni voyaga etkazishdir.

Pedagogika fanining maqsadi:

- Respublikamizda komil insonni voyaga etkazishning bir butun holatdagi muammolarini hal qilish;
- Ta'lim-tarbiya samaradorligini tinmay oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish masalalariga ijodiy yondashish;
- Umuminsoniy qadriyat va milliy madaniyatning asoslarini e'tiborga olib, ta'lim-tarbiya mazmunini, milliy mafkurani shakllantirib borish imkonini yaratish;
- Pedagogika-tarbiyashunoslik qoida, qonunlarini ilg'or tajribalar asosida boyitib borish va yangi ish shakllarini izlashga tadbirlar belgilash;
- Uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlashtirish muammolarini hal qilish;
- "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ni amalga oshirish.

Pedagogika fanining vazifalari:

- Sharq va G'arbda xalq yaratgan xalq og'zaki ijodiyoti, pedagogikasi, mutafakkir, ma'rifatparvar, pedagog va olimlarning tarbiyashunoslikka doir ilg'or g'oyalarini o'rganib, tahlil qilib, komil insonni tarbiyalash jarayonini o'rganish;
- Komil insonni tarkib toptirishning qonuniyat, qoida va zaruriy sifatlarini aniqlash;
- Pedagogikadagi ta'lim-tarbiya nazariyasini hozirgi davr xususiy metodikasi bilan uzviylik muammolarini ishlab chiqish va yangi pedagogik texnologiya qonunlariga amal qilish;
- Ta'lim-tarbiya nazariyasidagi qoida, qonun, tamoyil, metod va usullarini maktab amaliy hayoti bilan bog'lab, bulajak o'qituvchilarga o'rgatish;
- Xalq ta'limini boshqarish va rahbarlik masalalarini chuqur o'rganib bo'lajak o'qituvchilarni qanday tayyorlash muammolarini hal qilish.

Pedagogika fanining mazmuni, maqsadi, vazifalari, tamoyil, usul va vositalari umuman, har bir inson uchun zarur bo'lgan tarbiyaviy ta'sirlar yangicha asosga ega bo'lishi kerak.

Pedagogika tarixi pedagogik ta'limotning tarixi va tarbiyaning rivojlanish masalalarini ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq etuvchi pedagogik g'oyalarning salbiy pedagogik g'oyalarga qarshi kurashi tarixini, hukmron tabaqalarning demokratiyaga qarshi siyosatini ochib tashlaydi, ilg'or pedagogik g'oyalar, hur fikrlar, ta'lim qonuniyatlarining ayrim olingan tarixiy davrdagi rivojlanish tamoyillarini tahlil qiladi, muhim umumiy xulosalar chiqaradi va bugungi kun uchun dolzarb muammolarni o'rta tashlaydi.

2.2. Pedagogika faning asosiy tarmoqlari

Tarixiylik tamoyili har qanday fan rivojlanishining zarur tamoyili hisoblanadi. Zero o'tmishni hozirgi davr bilan qiyoslash faqat hozirgi hodisalarning asosiy rivojlanish bosqichlarini yaxshi kuzatib borishga yoki o'tmishning bebaho tajribasi hamda erishilgan yutuqlardan foydalanishga yordam berib qolmay, shu bilan birga, bu sohada xatolarga yo'l qo'yishdan saqlaydi va kelajakka yo'naltirilgan amaliy takliflar, maqsadli izlanishlarni amalga oshirishga ko'p darajada asos bo'ladi. Jamiyat hayotini qayta qurish, o'sib kelayotgan yosh avlodni shuningdek, hamma mehnatkashlar tabaqalarini tarbiyalashni kuchaytirishni talab etadi. Bunday sharoitda pedagogikaning tadqiqot sohalari doirasi kengayadi. Hozirgi kunda pedagogikani asosiy tarmoqlari sifatida quyidagilarni keltirib o'tamiz.

Yosh davrlari pedagogikasi mazkur guruhlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy-tashkiliy ishlarning qonuniyligini tadqiq etadi hamda eng avvalo, ularni tarbiyalanuvchilarning o'quv muassasalari shart-sharoitlarida amalga oshirish dasturini ishlab chiqadi.

Katta yoshdagilar pedagogikasida oliy o'quv yurti shart-sharoitlarida yoshlarni tarbiyalashning nazariy masalalari va metodikasini ishlab chiqadigan pedagogika tarmog'i sifatida oliy o'quv yurti pedagogikasining shakllanayotganligi, uning aniqlashib borayotganligi ko'zga tashlanadi.

Milliy armiyamiz uchun mutaxassislar tayyorlaydigan harbiy o'quv yurtlarida yoshlarga ta'lim berish hamda tarbiyalash muammolari bilan **harbiy pedagogika** sohasi shug'ullanadi.

Bulardan tashqari **oila pedagogikasi** bugungi kundagi dolzarb vazifalardan birini tashkil etib, oilalarda, oila markazlarida, mahallalarda, jamoat tashkilotlarida, oila-nikoh muassasalarida amalga oshirilayotgan tadbirlarda namoyon bo'ladi.

Umumiy pedagogikada tarbiyalanuvchilar orasida mafkuraviy targ'ibot va madaniy-ma'rifiy ishlar ham o'ziga xos tarmoqlariga egadir. Bu mehnatkashlarni tarbiyalash ishlariga munosib hissa qo'shadi va belgilangan pedagogik g'oyalarga suyanadi. Pedagogika fanining hamma tarmoqlari o'zining turli rivojlanish, taraqqiyot bosqichlariga egadir: ularning ayrimlari aniq shakllanib bo'lgan va etarli darajada keng ishlab chiqilgan boshqalari o'zining shakllanish jarayonini boshdan kechirmoqda (masalan, oliy ta'lim muassasasi pedagogikasi, ishlab chiqarish pedagogikasi) ba'zi bir tarmoqlar pedagogikasining ajralib chiqishi endigina boshlanmoqda. Umumiy o'rta ta'lim o'quv yurtlarida emas, balki maxsus maktablarda shug'ullanishlari mumkin bo'lgan shaxslar ya'ni, ko'rish, eshitish, so'zlash a'zolarida kamchiliklari bo'lgan shaxslarni mehnat faoliyatiga tayyorlash, tarbiyalash va ta'lim berishning o'ziga xos tomonlarini tadqiq etuvchi fanlar pedagogika fanining maxsus guruhini tashkil etadi. Pedagogikaning bu maxsus tarmoqlari defektologiya yoki maxsus guruhga birlashtirilgan.

Defektologiya fanlari o'z navbatida alohida mustaqil bo'lgan tarmoqlarga bo'linadi:



Tiflopedagogika - ko'zi ojiz tarbiyalanuvchilar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Oligofrenopedagogika - aqli zaiflar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Surdepagogika - kar va gung tarbiyalanuvchilar ta'lim-tarbiyasi masalalari bilan shug'ullanadi.



Logopediya – nutqida nuqsoni bor bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Bunday ilmiy ishlar bilan shug'ullanadigan institutlar Respublikamizda turli tavsiyalar berish, metodikani ishlab chiqish bilan bir qatorda ilmiy izlanishlar, tajriba almashinish bilan ham samarali tadbirlarni olib borishadi.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida maxsus tashkil etilgan Defektologiya yo'nalishlarida munosib mutaxassislar tayyorlanayotganligi fikrimizning dalilidir.

2.3. Asosiy pedagogik kategoriyalar

Bizga yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ldiki, pedagogika fani ta'lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o'zgarishini o'rgatadi, tarbiyaning tarkibiy qismlarini va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni ochib beradi. SHu asnoda ta'lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollari, yo'llarini ko'rsatib beradi. Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga tarbiya, ta'lim, ma'lumot kiradi. Lekin, hozirgi pedagogikani taraqqiy etib borishida, asosiy pedagogik kategoriyalar qatoriga rivojlanish va shakllanishni ham kiritsa bo'ladi.

Tarbiya - o'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot – dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va mas'uliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya bola tug'ilgandan kunidan boshlab umrining oxirigacha oilada, maktabda va jamoatchilik ta'sirida shakllanib boradigan jarayondir.

Pedagogikada «tarbiya» tushunchasi keng va tor ma'noda qo'llanishi mumkin.

Keng ma'noda qo'llanishi deganda – katta avlod vakillari o'zlari to'plagan hayotiy tajribalarini yosh avlodga qoldirishlarini tushunish mumkin.

Tor ma'noda qo'llanishi deganda – maxsus ta'lim muassasalari orqali shaxsda aniq bilim, dunyoqarash, ichki hissiyotlarini, umuman hayotga tayyorgarligini rivojlantirish tushuniladi. SHu erda savol tug'iladi: qaysi ta'lim muassasasi boshqasiga nisbatan tarbiya taqdiriga ko'proq ta'sir ko'rsatadi? Bola tarbiyasini buzilishiga faqat tarbiya muassasalari va pedagoglar ko'proq sababchimi? degan savollar insoniyatni doimo qiziqtirib keladi.¹

Ta'lim – maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilim, qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir. Ta'lim jarayoni o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, ikki tamonlama xarakterga egadir. O'qituvchining faoliyati tufayli ta'lim puxta o'ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida olib boriladigan jarayonga aylanib, kutilgan natijani beradi. Ta'lim jarayonining mazmunini bilim, ko'nikma va malaka tashkil qiladi.

Bilim – o'quvchilar o'qish orqali bilim bilan qurollanadilar. Bilimni hayotda ko'p unum beradigan qilib qo'llay olish uchun bilim bilan birga ko'nikma va malaka hosil qilish lozim.

Ko'nikma – mashq qilish natijasida beriladigan harakatlar yig'indisidir.

¹ Подласый И.П. Педагогика.- Владос, 2007. 25-стр.

Iqtidor va ko`nikma mashq qilish va takrorlash orqali **malakaga** aylanadi.

Bilim asosida ko`nikma va malaka paydo bo`ladi. Bilim bahsda kerak bo`lsa, ko`nikma mehnatda, dunyoni o`zlashtirishda zarur.

Ma'lumot – ta'lim–tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko`nikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidir.

2.4. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi

Pedagogika insonlar orasidagi munosabatlarni va ijtimoiy muhitning insonga ta'sirini tadqiq etuvchi fan sifatida iqtisodiyot, madaniyat rivojlanishining o`ziga xosligi hamda ularning inson shaxsi shakllanishiga ta'sirini o`rganadi. SHu bilan birga, pedagogika o`quv muassasasi tizimining tashkiliy jihatlaridagi ko`pgina masalalarni hal etishga, shaxslarni tarbiyalashda o`quv muassasasi, oila va jamoatchilikning o`zaro hamkorlikda ish olib borishiga yordam beradi.

«Pedagogika» tarbiya jarayonini ijtimoiy hodisa sifatida o`rganar ekan, tabiiy ravishda jamiyatdagi barcha fanlar bilan bog`liqdir. «Falsafa» fan sifatida insoniyat jamiyati, tabiat rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini tashkil etadigan, ya'ni pedagogikaning taraqqiy etib borishiga imkon beradigan ilmiy manbaidir. Shu bilan birga, faylasuflar va pedagogika fanlari vakillari tomonidan ishlab chiqilgan bir qator umumiy masalalar falsafada ham, pedagogikada ham barobar mavjuddir.

Bular jumlasiga tarbiya bilan boshqa ijtimoiy xodisalar orasidagi o`zaro aloqalar; dunyoqarashni, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani shakllantirish masalalari; shaxs va jamoa munosabatlari; ta'lim jarayoni mohiyatini tushunish hamda bilishning dialektik nazariyasini ishlab chiqish bilan bog`liq bo`lgan gneseologik masalalar va boshqa muammolar kiradi.

Pedagogikaning aniq masalalarini ishlab chiqishda falsafaning soSiologiya, etika, estetika kabi tarmoqlari katta ahamiyatga egadir.

Etika falsafaning axloqiy va tarbiya masalalari bilan bevosita bog`liqdir. Ularni hal etishda pedagogika axloqning umuminsoniy qadriyatlariga suyanadi.

Estetika (nafosat tarbiyasi) insonning estetik ideallarini shakllantirish, madaniyatga va voqelikka estetik munosabatlari umumiy qonuniyatlarini o`rganadi va estetik tarbiyani ilmiy jihatdan asoslash uchun xizmat qiladi. Bu asoslarni pedagogika fani ishlab chiqadi, yoshlarni go`zallikni his qila olish, tushunishga o`rganish vositalari va yo`llari belgilab beradi.

Pedagogikaning falsafa va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog`liqligini, hal etadigan ilmiy masalalarning umumiylikini pedagogikaning ijtimoiy xususiyati, uning mafkuraviy yo`nalishga ega ekanligini ta'kidlab turadi. Tarbiyaning hamma muammolarini boshqa siyosiy, ijtimoiy masalalar bilan bir qatorda hal etish zaruriyatini ko`rsatib beradi.

Jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida pedagogikaning iqtisodiyot fanlari bilan aloqasi mustahkamlanib bormoqda. Ijtimoiy fanlardagi ma'lumotlarga suyanib, pedagogika jamiyatning tarbiyaga bo`lgan obyektiv ehtiyojini va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini o`rganadi.

Insonning aqliy rivojlanishi qirralarini, jihatlarini o`rganadigan boshqa fanlardan farqli o`laroq, pedagogika inson shaxsi, uning taraqqiyot bosqichlari bilan shug`ullanadi.

Pedagogika psixologiya va fiziologiya bilan ham bevosita va bilvosita bog'liqdir. Fiziologiya pedagogika hamda psixologiyaning tabiiy ilmiy bazasi hisoblanadi. Pedagogika fiziologiyaning oliy asab (nerv) faoliyatining rivojlanishi, asab sistemasining o'ziga xosligi, birinchi va ikkinchi signal sistemalar haqidagi, shuningdek sezgi organlarining, tayanch harakat apparatlarining, yurak, kon-tomir hamda nafas olish sistemalarining faoliyati, rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarga suyanadi.

Psixologik hodisalarning fiziologik asoslarini bilish pedagogika uchun tarbiya va ta'limning ba'zi bir omillarini yaqqol, aniq bilib olish, tushunish imkoniyatini yaratadi hamda ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishning ko'pgina muammolarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

Psixologiya pedagogikaning boshqa fanlar tomonidan aniqlangan bilimlar, o'sib kelayotgan insonning shaxsini shakllantirish, ichki jarayonlarini yuz berish omillari va shart-sharoitlari haqidagi bilimlar bilan qurollantiradi.

Keyingi vaqtlarda pedagogika boshqa yangi rivojlanayotgan fanlar bilan, jumladan, murakkab dinamik tizimlarni rejali boshqarish haqidagi fan bo'lgan kibernetika bilan mustahkam aloqada rivojlanmoqda. Bularning barchasi pedagogika o'zining predmeti va tadqiqot sohasiga ega bo'lib, boshqa bir qator fanlar bilan juda mustahkam bog'liqlikda ekanligini ko'rsatadi.

Hozirgi sharoitda o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida umuminsoniy qadriyatlarni, umuminsoniy ijobiy xislatlarni rivojlantirish O'zbekiston hukumatining qarorlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev asarlarida, nutqlarida o'z aksini, tasdig'ini topgan.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'z yo'li, tamoyillari tarbiya jarayonida hali avvalgi keksa avlod oldida turmagan yangi masala va muammolarni echish uchun zarur bo'ladigan xislat va sifatlar shakllantirilishini taqozo etadi.

Bugungi kunda ta'lim va tarbiyada umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy o'ziga xoslik nisbati, muvozanati alohida ahamiyatga ega. Yana bir tomondan ta'lim nazariyasini, ta'lim-tarbiya mazmunini, shaklini va uslublarining asosiy jihatlari Sharqda ishlab chiqilib, Yevropa orqali o'zgarib, rivojlanib yana Sharqqa qaytib kelganini va dunyo pedagogik jarayonini bir butunligini hisobga olinsa, quyida keltiriladigan tushunchalarda xususiy milliylikdan ko'ra, umuminsoniylik jihatlarning ko'pligi ko'zga tashlanib turadi.

2.5. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari

Pedagogika fani o'z mazmunini boyitishda, yangilashda mavjud bo'lgan pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan usullari bilan o'rganadi. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot usullari qanchalik to'g'ri qo'llansa, ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi. Lekin ilmiy tadqiqot metodlarining aniq chegaralangan tizimi hozirgacha fanda yaratilgan emas. Pedagog pedagogik jarayonda o'z auditoriyasi tarbiyalanuvchilari xarakter-xususiyatlaridan kelib chiqqan, ularni psixologiyasini chuqur o'rganib bir qator metodlarni qo'llash mumkin. Chunki pedagogning asosiy

maqsadi, dars jarayonini tarbiyaviy ta'sirini oshirish hisoblanadi. Buning uchun quyidagi pedagogik ilmiy tekshirish metodlarni keltirib o'tish lozim bo'ladi.

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Anketa, suhbat, test usuli (yakka tartibda, guruh bilan)
3. Bolalar ijodini o'rganish usuli.
4. Ma'lumotlarni tahlil qilish usuli.
5. Pedagogik tajriba-sinov usuli.
6. Loyihalash va modellashtirish.
7. Matematik-statistik usul.

Ta'lim usullarini tanlash bilan bir katorda o'qituvchi darsdagi talabalarni yosh va individual xarakter xususiyatlarini o'rganishi hamda tahlil qilishi shart.

Bu kabi metodlardan foydalanib ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish faqatgina pedagog uchun emas, iqtisodiyot jabhalarida faoliyat yuritayotgan boshqaruvchi xodimlar, oilada farzand tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi ota-onalar uchun ham, jamoa bilan ishlaydigan mas'uliyatli shaxs uchun ham zaruriy shart bo'lgan usullardan biridir. Zero, inson tarbiyasidek murakkab jarayonga hech qachon e'tiborsiz bo'lmaslik zarur.

Qisqa xulosa

Ushbu ma'ruzada pedagogika fanining predmeti, hozirgi zamon pedagogikasining maqsad va vazifalari, pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi, asosiy pedagogik kategoriyalar kabi mavzular yoritilgan va shu bilan birga pedagogika fanining metodlari va ularni kullanilishi, jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida pedagogikaning iqtisodiyot fanlari bilan aloqasi mustahkamlanib borayotganligi, ijtimoiy fanlardagi ma'lumotlarga suyanib, pedagogika jamiyatning tarbiyaga bo'lgan obyektiv ehtiyojini va ularni amalga oshirish shart-sharoitlari o'rganilayotganligi kabi fikrlar ham keltirib o'tilgan.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Pedagogika fani nimani o'rganadi?
2. Pedagogika fanining vazifalari nimalardan iborat?
3. Sharq pedagogikasi namoyondalaridan kimlarni bilasiz?
4. Bugungi kunda tarbiya masalalariga qanday e'tibor qaratilmoqda?
5. Uzluksiz ta'lim nima?
6. Ma'lumot olish qanday amalga oshiriladi?
7. Ta'lim va tarbiya jarayonida muhim metodlarni qo'llashning ahamiyati nimada deb o'ylaysiz?
8. Ta'lim va tarbiyaning birligi deganda nimani tushunasiz?

3 - mavzu: O`zbek xalq pedagogikasi. Uning ta'lim-tarbiyada tutgan o`rni


Reja:

- 3.1. Xalq pedagogikasi haqida ma'lumot.
- 3.2. O`zbek xalq pedagogikasi. Uning ta'lim-tarbiyadagi o`rni.
- 3.3. Milliy qadriyatlar va uning barkamol insonni tarbiyalashdagi roli.
- 3.4. O`zbek xalq pedagogikasining asosiy manbasi.
- 3.5. Xalq og`zaki ijodining janrlari.

3.1. Xalq pedagogikasi haqida ma'lumot

Xalq pedagogikasi mazkur xalq paydo bo`lgan kundan boshlanib, bu nihoyatda keng qamrovli va serjilo, serqirra bo`ladi. Ma'lumki, xalqning pedagogik qarashlari uzoq asrlar davomida shakllangan va ular bizga asosan xalq og`zaki ijodiga kiruvchi turli janrlardagi asarlarda va Qur'oni Karim hamda payg'ambarimizning hadislarida o`z ifodasini topgan. Demak, Xalq pedagogikasi hozirgacha yashovchanligi asosan og`zaki tarzda bo`lib, u har bir avlod unga o`z tajribasini, qarashlarini, fazilatlarini qo`shgan holda bizgacha etib kelgan.

Xalq pedagogikasida tarbiyaning birlamchi-ikkilamchisi bo`lmaydi: Hamma narsa hisobga olinishi, hech bir soha chekkada qolmasligi, ayni chog`da tarbiyaning nixoyatda nozik, injiq, murakkab tamonlari e`tiborga olingan holda, etti o`lchab bir kesishga amal qilinadi, shuningdek Xalq tarbiyasida kecha, bugun va ertani o`ylab ish tutadi, ya'ni tarbiyani o`tmishni unutmaslik, bugunning kadriga etishlik, kelajakka umid asnosida olib boriladi. Unda hayot, tabiat va jamiyatdagi har bir voqea-xodisa, predmet, ko`rinish qisqasi jonli va jonsiz neki bor, undan mukammal foydalanadi. O`zbek xalq pedagogikasining ta'lim tarbiyadagi o`rnini biz 3 - rasm orqali ifoda etamiz.



3-rasm. O`zbek xalq pedagogikasining ta'lim tarbiyadagi o`rnini

Xalq pedagogikasida ishonitirish, isbotlash, ta'sir, ibrat namunasi, tajriba natijalari, tasdiqlash kabilar tarbiyada muhim o`rin tutadi. Masalan, dov-daraxt, tog`-

tosh, parranda-darrandalarga bag'ishlangan folklor namunalari bularning zaminida ekologik tarbiya yotadi.

Shuningdek, xalq bisotidagi eng yaxshi tabarruk so'zlar duo olqishlar ham tarbiyaga qaratilgan bo'lib, ulardan asosan duo-olqishlarning ta'sir kuchi, tarbiyaviy ahamiyati, inson ma'naviy ustivorligi, imon-e'tiqod butunligi, kabi insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashning roli va o'rni e'tibor qaratilgan.

Xalqimizning xalq pedagogikasi g'oyalariga tayanib, uni o'rganib, to'la amal qilgan barcha farzandlari doim el-yurt nazariga tushgan va olqishiga sazovor bo'lgan. Xalq pedagogikasining bunchalik darajada ta'sir kuchi uning yashovchanligi, boyib borishi, vatan taqdirida hal qiluvchi rol o'ynashiga asosiy sabablar quyidagilardan iborat:

1. Xalq pedagogikasining beqiyosligi, ta'sirchanligi serqirra, serma'noligidir.

2. Xalq pedagogikasining bevosita xalq tomonidan mavjud hayot davomida jonli an'analari yaratilishi, yashashi, hayot, inson muammolari o'z ichiga qamrab olishidir.

3. Xalq pedagogikasi umuminsoniy va umumbashariy g'oya-maqсадlarga qaratilganligi.

Shu bois xalq pedagogikasi tarix tufonlari-yu, ur-yiqitlariga, to's-to'polonlariga bardosh berib, tajriba sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tib, toblanib, siyqallashib, hech bir payt, hech bir davrda-u qanchalik og'ir, murakkab qiyin bo'lmasin baribir faol xizmat qilib, avlodlar kamolati borasida hal qiluvchi rol o'ynab kelmoqda.

3.2. O'zbek xalq pedagogikasi. Uning ta'lim-tarbiyadagi o'ri

Xalq pedagogikasining ajralmas qismi bo'lgan "O'zbek xalq pedagogikasi" O'zbek xalqi paydo bo'lgan va yashab kelayotgan butun davrni o'z ichiga oladi. Jumladan ijtimoiy va maishiy-axloqni hayotning barcha tomonlarini, Xalq og'zaki ijodi, qadrshunoslik, udumshunoslik va marosimshunoslikning etakchi yo'nalishlarini, diniy axloqiy ta'limotni o'z ichiga oladi. Demak, O'zbek xalq pedagogikasi - bu dono xalqimizning ta'lim tarbiya, axloq, odob, insoniy qadriyatlar va uning ma'naviy ustivorligi, imon e'tiqodi, butunligi sohasidagi dunyoqarashi, ommaviy faoliyati, usul-metodlari, an'analari, tajriba xulosalarining lo'nda, bag'oyat teran, donishmandnoma tarzda ifodalanishidir.

Hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri ta'lim tizimiga "O'zbek xalq pedagogikasi" an'analari kiritishdir. Chunki bu milliy istiqlol mafkurasini yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi. Bunga erishish uchun:

1. Yosh avlodni milliy odob-axloq tarbiyasida folklor, shuningdek, qadimiy qadriyatlarimizda ifodalangan milliy va umumbashariy fazilatlar asosida tarbiyalashga erishish;

2. Ta'lim tizimini mukammallashtirish;

3. Xalq og'zaki ijodining barcha shakllaridan ta'lim tizimining barcha bug'inlaridan unumli foydalanish;

4. O'zbek xalq pedagogikasining xalq an'anaviy sporti, jismoniy tarbiya va folklor o'yinlarining, jumladan bayram-sayllarining, yoshlar jismoniy, aqliy, axloqiy

tarbiyasi, baquvvatligi, chaqqonligi, epchilligini ta'minlash uchun xizmat qiladigan an'analardan to'g'ri va oqilona foydalana bilishdir.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida "O'zbek xalq pedagogikasi" namunalaridan keng foydalanish insonni har tomonlama kamol toptirish, ma'naviyatimizning ustuvorligi, iymon-e'tiqodlarimizning butun bo'lishi va qadrlı qadriyatlarimizning garovidir.


3.3. Milliy qadriyatlar va uning barkamol insonni tarbiyalashdagi roli

O'zbek xalq pedagogikasi an'alarida farzandlarni estetik idroki, hissiyoti va tasavvurlarini rivojlantirish hamda mukammallashtirish; tarbiyalanuvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va kamol toptirish, estetik did asoslarini shakllantirish va takomillashtirish; estetik tarbiyada tarbiyalanuvchilar o'yin folklorining o'rni va ahamiyati, tarbiyalanuvchilar folklor-etnografik dastalari - estetik tarbiya markazi ekanligi, vorislik, ustoz-shogirdlik an'alarining pedagogik, axloqiy-estetik ahamiyati, yoshlarni shaxs sifatida shakllantirish hamda badiiy-estetik tarbiyalashda xalq ommaviy tomosha san'ati - hirk, dorbozlik, askiya, baxshi-shoirchilik, dostonchilik, ertakchilik, qiziqchilik, taqlidgo'ylik, maddoslik, qiraotxonlik, qissaxonlik, otunlik, voizlik, bo'zaxo'rlik alyorlari kabi san'atlarining tutgan o'rni va pedagogik-tarbiyaviy ahamiyatini bilishlari zarur.

Shuningdek, xalq an'anaviy sporti, fizikulturası - farzandlar jismoniy baquvvatligi va yetukligining garovi ekanligi, chaqqonlik, epchillik va har tomonlama garmonik rivojlanishning sinalgan vositasi ekanligi, tarbiyalanuvchilar o'yin folklorining pedagogik tarbiyaviy ahamiyati, xalq pedagogik tarbiyasida turizm va sayohatning, savdo-sotiq va tijoratning o'rni, jismoniy tarbiya va sport ko'nikmalarida xalq qiziqarli tomosha san'ati, axloq-odob va ta'limning uyg'unligi va o'ziga xosligi; xalq sport va jismoniy tarbiyasida jinsiy tafovutlarga ahamiyat berishning axloqiy-aqliy ahamiyati; xalq an'anaviy pedagogikasida tabiat va inson uyg'unlashuvi muammolari, tabiat va tarixni e'zozlash, saqlash va qadrlashning ahamiyati, hayvonlar dunyosi, qushlar olami hamda dov-daraxtlar, o'simliklar va giyohlarga; ruxsat, suv, borliq-atrofga insoniy munosabat-xalq pedagogikasining ekologik tarbiyasi asoslari bo'yicha ko'nikmalar shakllanishi kerak.

Xalqimizning odatlari, udumlari, rasm-rusumlari, marosimlari, irim-sirimlar, qarg'ish va olqish-duolar, tabiat, diniy bayramlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati, xalq ommaviy bayram-sayllari "Navro'z", "Mehrjon", "Hayit-ro'za", "Hayit bayrami" va boshqalarning, tarbiyalanuvchining dunyoga kelishi, qulog'iga azon aytish, tish chiqishi, ilk qadami, beshikka solish, birinchi kiyim-bosh kiydirish, besh, etti kun, o'n bir kunligi, bir yilligi, uch, to'rt, besh yilligining alohida bayram qilinishi, o'quv muassasasiga borishi, sunnat qilinishi, kokil qo'yish, kokil oldirish, mo'ylov oshi, uylanish-nikoh to'yi, birinchi farzand ko'rish, qirq, ellik, oltmish yoshlar tantanalari, payg'ambar yoshi, etmish, sakson, to'qson yillik yubileylari, kumush to'y, oltin to'y, marvarid to'y va boshqa bayram-sayllar, to'y-tomoshalar, odatlar, udumlar, marosimlar va an'alarining ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik yo'nalishi, ahamiyati va shu kabilar.

Milliy qadriyatlarni tashkil etuvchi omillarni biz 4-rasm orqali aks etib o'tamiz.



4-rasm. Milliy qadriyatlar.

3.4. O'zbek xalq pedagogikasining asosiy manbasi

O'zbek xalq pedagogikasining manbalarini asosan uch turga bo'lib o'rganish mumkin. Bular quyidagilar:

1. Xalqimizning buyuk mutafakkirlari tomonidan meros qilib qoldirilgan nasriy va nazmiy asarlar, odobnoma va pandnomalar;
2. Xalqimiz tomonidan yaratilgan xalq og'zaki ijodi va folklori namunalari, xalqimizning qadriyatlari, urf-odatlar va turli xil marosimlari;
3. Islom dinining muqaddas kitobi "Qur'oni Karim", Payg'ambarimizdan meros qilib qoldirilgan hadis namunalari va buyuk islomiy ta'limotlarning namunalari.

Endi biz shular xususida o'zimizning fikr-mulohazalarimizni bildirib o'tmoqchimiz. Xalqimizning buyuk mutafakkirlari bo'lmish Imom al-Buxoriy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Baxouddin Naqshbandiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Bobur, jadidchilar vakillari Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Botu, Mahmudxo'ja Behbudiy va boshqa shu kabi ko'plab buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviyat sarchashmalari o'zining tarbiyaviy ahamiyatiga, ma'rifatni targ'ib etish xususiyatlariga va ibratlilik xususiyatlariga ega ekanligi tufayli hozirgi kunga qadar o'z qadr-qimmatini yo'qotmay kelmoqda. Bular jumlasiga Imom -al

Buxoriyning “As sahih” hadislar to’plamini, Navoiyning mashhur “Hamsa” sini, Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” kabi ko’plab yuksak qadr-qimmatga ega asarlarni kiritishimiz mumkin. Xalqimiz tomonidan yaratilgan qadriyatlar va urf-odatlar hamda xalq og’zaki ijodi namunalari bevosita xalqimiz ruhiyati asosida shakllangan bo’lib, ular ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashda eng muhim ahamiyatga egadir. Ushbu qadriyatlar o’z navbatida yuqorida sanab o’tilgan buyuk mutafakkirlarimizni ham tarbiyalab voyaga etkazgandir. Shunday ekan, biz buyuk xalqimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Bizning burchimiz bunday qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni izchil ravishda takomillashtirib borishdir.

Ma’lumki, xalqimizning salkam ming yillik tarixi Islom dini bilan chambarchas bog’langandir. Shuning uchun xalqimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarning aksariyati va mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviyat sarchashmalari ham aynan ana shu din asosida shakllanib, rivoj topib kelgan. Biz bu dinning urf-odatlariga oqilona yondashib, ularni to’g’ri anglab olishga harakat qilishimiz kerak. Chunki, islom dini yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lib, doimo millatlar o’rtasidagi tinchlik-totuvlikni va insoniyatga nisbatan qilinadigan har qanday zo’ravonlikka qarshi harakatlarni hamda behuda qon to’kilishiga qarshi g’oyalarni targ’ib etib kelgan.

3.5. Xalq og’zaki ijodining janrlari

Xalq og’zaki ijodi - bu yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash va tarbiya usullari, insoniy qadriyatlar va yurtsevarlik tarbiyasi bo’lib, do’st-birodarlik, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat; yaxshilik va yomonlikning oqibati; halollik, to’g’rilik, oliyjanoblik tarbiyasi; adolat insof va insofsizlik, do’st-birodarlik, og’a-inichilik va qon-qardoshchilikning ahamiyati; botirlik va qo’rqoqlik, odob va odobsizlik, mehmon va mehmondo’stlik, saxiylik, baxillik va kamtarlik, sabr-qanoat va sabrsizlikning oqibati; qadr va qadrsizlik, muhabbat, vafo va bevafolik, tajribakorlik, kaltabinlik va ishonchsizlik, or-nomus va nomussizlik, samimiylik va nosamimiylik, andisha va andishasizlik, farosat va farosatsizlik, tejamkorlik va isrofgarchilik, reja va rejasizlik, me’yor va me’yorsizlik, mas’uliyat va mas’uliyatsizlik, vaqt va fursat, foyda va zarar, tabiatni e’zozlash, dehqonchilik va chorvachilik qadriyatlari: kattaga hurmat, yoshga mehr-shafqat, yo’l va yo’ldosh, sevinch va g’am, to’y va motam, farzand va farzandsizlik, kiyinish, so’zlash, yurish-turish, salomlashish, ko’cha odobi, ovqatlanish madaniyati kabi udumlar, rasm-rusmlar, odatlar, marosimlar, an’analardan iboratdir. Xalq pedagogikasining asosini tashkil etadigan Xalq og’zaki ijodi bir qancha janrlarni o’z ichiga oladi.

1. Epik ijod namunasi - Bu qahramonlik, ishqiy-romantik, tarixiy dostonlar bo’lib, ular ishq-muhabbat vafo qanday bo’lishligi, o’zligini tanish, or-nomus, burchni anglash, iymon-e’tiqodli bo’lish, inson va hayvonot dunyosi, qiyinchiliklar va mushkul ahvollarni mardona eng a olish, qat’iyatlik, iroda, matonat kabi xislatlardan iboratdir.

2. Qo’shiqlar - lirik, marosim, mavsum qo’shiqlari; “Yor-yorlar”; “Allalar”, yig’i-yo’qlovlar; sog’im, o’lim, yanchiq, bayram-sayllar qo’shiqlari; tarbiyalanuvchilar folklorlari namunalari va boshqalardan iborat bo’lib, ular go’zallik,

samimiyat, mehr-shafqat, orzu-umid, quvonch-shodlik, g`am-g`ussa kabilarni tarannum etish orqali kishilarda chuqur insoniy tuyg`ularini o`stiradi. Insonlarda hayotga, tabiatga, insonga cheksiz muhabbatni kamol toptiradi.

3. Ertak - bu orqali kishilar sirli-sehrli olam bilan tanishadi hamda unga oid bilimi, tushunchalari boyiydi, yaxshi odamlardagi yaxshi xislatlar, yomonlardagi badxulqlar bilan xabardor bo`lib, yaxshilikka mehri toblanadi, yomonlikka nafrati ortadi.

**4. Maqollar, matallar, hikmatlar, qayroqi so`zlar, aforistik iboralar** - Bular xalq donishmandchiligining yuksak badiiy timsoli bo`lib, ular qisqa, sodda ammo har birining ma`nolari juda keng bo`ladi.

5. Asotirlar, afsona va rivoyatlar - bular donolar donoligi, ibratli, tabiatni asrab-avaylash, qadriga etish, saqlash, chiroyiga chiroy qo`shishga bo`lgan ishtiyoqni o`stirish, ekologik tarbiyani yo`lga qo`yish va kamol toptirishda muhim rol uynaydi.

Qisqa xulosa

Ushbu mavzuda xalq pedagogikasi haqida ma`lumot, o`zbek xalq pedagogikasi, uning ta`lim-tarbiyadagi o`rni, milliy qadriyatlar va uning barkamol insonni tarbiyalashdagi roli, o`zbek xalq pedagogikasining asosiy manbasi hamda xalq og`zaki ijodining janrlari xususida atroflicha fikr yuritilgan va eng asosiysi talabalarga tushunarli tarzda bayon etilgan.

O`z – o`zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. O`zbek xalq pedagogikasi va uning paydo bo`lishi.
2. O`zbek xalq pedagogikasining milliy tarbiyada tutgan o`rni.
3. O`zbek xalq pedagogikasidan manbalar.
4. O`zbek xalq pedagogikasidan namunalar.
5. “Alpomish” dostoni. Unda “Vatanparvarlik” g`oyasining qo`llanishi.
6. O`zbek xalq ertaklarida yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik kabi tushunchalar.
7. Milliy qahramonlarimizdan faxrlanish hissi sizda qay darajada?
8. Maqollarning inson tarbiyasiga ta`siri qanday?

4 - mavzu.VII – IX asrlarda Movarounnahrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar

Reja:

- 4.1.Islom dini g`oyalarini ta`lim – tarbiyaga ta`siri.
- 4.2.Hadis ilmini paydo bo`lishi.
- 4.3.Al-Buxoriyning xadis ilmini rivojidadagi xizmatlari.
- 4.4.At - Termiziyning hadis ilmiga qo`shgan hissasi.

4.1.Islom dini g`oyalarini ta`lim – tarbiyaga ta`siri

VII asrda Arabistonda shakllangan islom dini VIII asrga kelib Markaziy Osiyoda keng yoyildi. Markaziy Osiyo Arablar tomonidan bosib olindi. Markaziy Osiyoda arab davlati – xalifaligi o`rnatilib, “Qur`on“ qonun – qoidalari amalga oshirila boshlandi.

Islom dunyoviy din sifatida vujudga kelishi va boshqa dinlar o`rnini olishi

tarixan ijobiy rol o'ynadi. Chunki unda avvalgi dinlarning ijobiy xususiyatlari o'z ifodasini topdi. Chunonchi, islom va uning asosiy kitobi bo'lmish "Qur'on"da axloq – odob, iymon, insonni ulug'lash, jamiyatga xizmat qilish, oilani mustahkamlash, ota-onaga hurmat kabi masalalar ravshan aks etdi. Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim Abu Iso Muxammad ibn at-Termiziy, Abu Lays Samarqandiy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviy to'plagan hadislar ham ta'lim –tarbiyada muhim ahamiyat kasb etdi.

VIII asr oxiri, IX asr boshida arab halifaligining markazi ilm–fan rivojlandi, yunon olimlaridan Platon, Aristotel, Sokrat, Gippokrat, Galen, Evklid kabilarning asarlari arab tiliga tarjima etildi. Xalifa Xorun ar-Rashid o'limidan so'ng uning o'g'li al-Ma'mun halifa etib tayinlandi. U Bog'dodda ilmiy Markaz – akademiya tashkil etib, unga barcha musulmon o'lkalarining fozillarini to'pladi. Bu Markazda Movarounnahr, Xurosondan kelgan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Marvaziy, Javhariy kabi olimlar Bog'dod akademiasining jahonga mashhur qilishda juda katta faoliyat ko'rsatdilar.

Islom va uning huquqshunoslik, hadisshunoslik sohalari rivojlandi. Bu davrda Markaziy Osiyo jahon ilm–fanining, kishilik jamiyatining rivojiga, shuningdek, islom dinining axloqiy–huquqiy tarbiyadagi mavqeiga katta hissa qo'shadi. IX–XII asrlar davomida Markaziy Osiyo jahonga Xorazmiy, Farg'oniy, Ismoil al-Buxoriy, at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ismoil Jurjoni, Marg'iloniy, Zamahshariy, Mahmud Qoshg'ariy kabi ulkan olimlarni taqdim etdi. Bu olimlar o'z ijodlari, asarlari bilan o'z xalqlarining, umuman, Markaziy Osiyoning shuhratini butun olamga yoydilar.



Qur'oni Karim

Islom jahonga keng yoyilgan dindir. Uning ta'limotlari Alloh tomonidan payg'ambarimiz Muhammad Mustafo salallohu alayhi vassalamga nozil etilgan – Qur'oni Karimda bayon etilgan.

Qur'oni Karim musulmon ahlining dunyoqarashi falsafasi, ma'naviyati, axloqi, xulqining asosi bo'lib, unda ilohiyot, diniy e'tiqod masalalari bilan birga, insonparvarlik, insonlar o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyat – nizolarning oldini olish, ular orasida adolat o'rnatish kabi axloqiy muammolar ham ifodalangan.

Islom Qur'oni Karimdan keyin mo'tabar sanalgan payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalomning "Hadisi Sharif"larida musulmonlarning moddiy va ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishlarini orzu qilib ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, o'zaro ahil bo'lish, mehr-oqibat, ehson, sabr-toqat, kamtarlik, vafosadoqat, poklik kabi insoniy sifatlar haqidagi nasihatlar va yaxshi fazilatli inson bo'lish yo'llari bayon etilgan.

Qur'oni Karimda ta'kidlanishicha, ota-ona bilan muloqotda bo'ladigan farzand besh narsani bilishi kerak. Muloqot chog'ida u:

➤ Ota – onalari qattiq – qurum gapirib yuborganlarida ham ularga malol kelib “uff” demasliklari;

➤ Ota – onani xafa qiladigan soʻz soʻzlamasliklari;

➤ Ota – onalariga doimo ehtirom bilan yaxshi soʻzlarni aytishlari;

➤ Ota – onalariga doimo rahm-shafqat koʻrsatib, oʻzlarini ularning oldida kamtar tutishlari;

➤ Allohdan ota-onalariga rahmat tilab duo qilishlari lozim ekanligi uqtiriladi.

Ota – onalar bolani dunyoga keltirishga sabab boʻlganligi uchun emas, balki uni odobli, xayoli, axloqli qilib voyaga etkazganliklari uchun olqishga sazovardirlar. Paygʻambarimiz Muhammad s.a.v.: “Kishi oʻz bolasiga odobdan koʻra afzalroq narsa ato etolmaydi” - deydilar.

Islom dinida onalar moʻtabar zot sifatida ulugʻlanadi va sharaflanadi hamda islom dinida mehnat qilish ibodat qilish bilan barobarligi, mehnat qilishdan uyalmaslik kerakligi aytiladi. Zero, mehnat – inson hayotining koʻrki, bezagi hisoblanadi. Mehnat insonni uch balodan saqlaydi: yurak siqilishidan, axloqiy buzilishdan, muhtojlikdan.

Islom dini ilm talab qilinishini ibodat darajasiga koʻtaradi, ilm talabini ixtiyoriy ibodatdan yuqori qoʻyadi. Islom taʼlimotiga koʻra, ilm olishda erkak ham, ayol ham teng huquqlidir.

Ilm – ulugʻ hikmat, ilm – iymon, eʼtiqod. Din asosini, Qurʼonning mazmuni va mohiyatini bilish, anglash uchun ham ilmi boʻlish, uni mukammal egallash kerak. Paygʻambarimiz s.a.v. aytadilarki: “Bir soat ilm oʻrganish kechasi bilan nomoz oʻqib chiqqandan afzaldir. Bir kun ilm oʻrganish uch oy roʻza tutgandan yaxshiroqdir”, Qurʼonda “ehson” soʻzi “yaxshilik” maʼnosida kelgan. Yaʼni Alloh seni inson qilib, hamma aʼzolaringni oʻz vazifasini bajaradigan qilib yaratdi, endi sen ham shu ehsonlar evaziga unga imon keltirishing, ungagina ibodat qilishing lozim.

Maʼlumki? saxiylik qoʻli ochiq, oliy himmatlik demakdir. Saxiylik goʻzal xulqlarning eng aʼlosidir. Qoʻli ochiq saxiy odam har kimning qoshida hurmatli va qadrlidir. Saxiy boʻlish uchun boy boʻlish shart emas, oz narsa bilan ham saxiylik qilish mumkin. Muhammad s.a.v. ummatlarini ogohlantirib: “englar, ichinglar, kiyininglar, sadaqa qilinglar, ammo isrof qilmanglar, magʻrurlanmanglar” deydilar va chanqagan kishiga suv berish ham sadaqa boʻlishini aytadilar.

Islom taʼlimotida sabr axloqiy fazilat, musulmon kishining ruhiy tayanchlaridan biri hisoblanadi. Sabr musulmonlar qalbiga sukunat va xotirjamlik baxsh etadi, alam berayotgan dardiga malham boʻladi. Islom dinida insonlarni sadoqatlilik, vafodorlik, kamtarlik, halollik kabi fazilatlar ham sharaflanadi. Baxillik, manmanlik, riyo kabi illatlar qoralanadi.

4.2. Hadis ilmining paydo boʻlishi

Islom dini taʼlimotida “Qurʼoni karim”dan keyin asosiy manba hadislardir. Hadis ilmi bilan shugʻullanish asosan VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, unga eng bilimdon, moʻtabar shaxslargina taʼrif bergan. Maʼlumotlarga qaraganda, VIII-XI asrlarda toʻrt yuzdan ortiq muhaddis hadis ilmi bilan shugʻullangan. Biz bu manbalarning koʻpi bilan tanish emasmiz. Keyingi yillarda Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyati hamda uning diniy-axloqiy koʻrsatmalarini oʻz

ichiga olgan hadislar, Imom Ismoil al-Buxoriyning “Al-Jome’ as-sahih”, “Al-adab al-mufrad” asarlari tarjima qilinib nashr etildi. At-Termiziyning “Ash-Shamoili an-Nabaviya” asari hamda ularga yozilgan soʻzboshilar, baʼzi kichik risola va maqolalar chop etildi. Biz ana shu manbalarga tayangan holda fikrlarimizni bayon etamiz.

“Hadis” yoki “sunna” soʻzlari bir maʼnoni anglatib, Rasulullohning hayoti va faoliyati hamda diniy va axloqiy koʻrsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat. Muhammad alayhissalomning ibratli ishlari, eʼtiqod, poklik va insonga xos maʼnaviy-axloqiy xislatlarini ifodalovchi soʻzlari va pand-nasihatlarini uning nomi bilan bogʻliq hadislarida mujassamlangan.

Hadislar dastlab yozib borilmagan. Chunki paygʻambarimiz Qurʼoni Karim nozil boʻlgan vaqtlarda arab boʻlmagan kishilarning hadislarini Qurʼon oyatlaridan deb oʻylashlaridan choʻchib, uni yozib borishlariga ruxsat etmaganlar. Lekin paygʻambarimiz Muhammad sallallohu alayhivasallam huzurida sahobalar boʻlib, ular Rasuli akramdan eshitgan hadislarini yodlab borganlar. Masalan, Hazrati Abu Hurayra shunday moʻʼtabar kishilardan boʻlib, butun umrini hadislarini yodlashga baxsh etgan. Mazkur hadislar toʻgʻri, ishonarli (sahih) boʻlgan.

Lekin, hadislarini yod olgan kishilar tobora kamaya borgani hamda asta-sekin ular unutilib ketishining oldi olinib, xalifalar ishonarli hadislarini toʻplashga farmon berdilar. Islomshunos olimlar bu ishni boshida turgan dastlabki xalifa Umar ibn Abdulaziz ekanligini taʼkidlaydilar.

Hadislarini birinchi marta yozish bilan mashgʻul boʻlgan muhaddislar Rabee bin Sabeh, Said bin Abi Aruba, Molik bin Anas, Abdumalik bin Jurayj Makkiy, Abdurahmon al-Avzoiy Shoshiy, Sufyon Savriy Kufiy va boshqalar deb koʻrsatiladi.

VIII-IX asrlar hadis ilmi uchun “oltin davr” xisoblanadi. Bu davrga kelib, islom ulamolari tomonidan hadislarining qay darajada toʻgʻriligi, qanday manbalarga tayanganligi tadqiq etila boshlanadi. Chunki, baʼzi soxta, ishonchsiz hadislar ham paydo boʻla boshlagan, ularni tekshirib, asl hadislarini tiklash va yozma ravishda qayd qilish zamon talabi boʻlib qolgan edi. Shuning uchun ham birinchidan, hadislarini yoddan biluvchi haqiqiy bilimdon, oʻtkir muhofazali kishilarning asta-sekin kamayib ketayotganligi, ikkinchidan, hadislarining haqiqiy, ishonarli, yaʼni sahihlarini saqlab qolish maqsadida hadislar tekshirilib, asl holiga qaytarilib, yigʻila boshlangan. Ana shu tarzda hadis ilmi rivojlangan.

Islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb sanalgan oltita ishonchli toʻplam (as-sahih as-sitta)ni yaratgan muhaddislar ham vatandoshlarimiz boʻlib, hadis ilmi rivojlangan IX asrda yashab ijod etganlar. Bular Abud Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 194 (810) - 256 (870), Imom Muslim ibn al-Hajjoj 206 (819) - 261 (874), Imom Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy 209 (824) - 279 (892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoni 202 (817) - 275 (880), Imom Ahmad an-Nasoiy 215 (830) - 303 (915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Mojja 209 (824) - 273 (886) kabi allomalardir.

Olimlar “Al-kutub as-sitta” (olti kitob)ni quyidagilardan iborat deb koʻrsatadilar.

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tomonidan yozilgan “As-Sahih”.

2. Imom Muslim an-Nishopuriy (Imom Muslim ibn al-Hajjoj) tomonidan yozilgan “As-Sahih”.

3. Imom Ibn Mojja tomonidan yozilgan “Sunnan”.

4. Imom Abu Dovud Sulaymon-Sijistoni tomonidan yozilgan “Sunnat”.

5. Imom ibn Iso at-Termiziy tomonidan yozilgan “Aj-jami al-kabir”.

6. Ahmad an-Nasoiy tomonidan yozilgan “Sunnan” kabi to`plamlardir.¹

Hadis ta’lif etishda asosan, uch yo`nalish paydo bo`lgan.

1. “Musnad” yo`nalishi. Bunda turli mavzudagi hadislar, bir joyda keltirilib, alifbo tartibida joylashtirilgan. Abdulloh ibn Muso, Imom Ahmad ibn Hanbal hadislarini ana shu yo`nalishda to`plaganlar.

2. “Sahih” (ishonchli) yo`nalishi. Bunga Imom Buxoriy asos solganlar. Bularga to`g`ri, ishonarli hadislar kiritilgan.

3. “Sunnan” yo`nalishidagi hadislar. Mazkur yo`nalishdagi hadislarga to`g`ri, ishonarli hadislar bilan bir qatorda, “zaif” hadislar ham kiritilgan. Abu Dovud, Iso at-Termiziy, an-Nasoiy, ibn Mojjarlar shunday yo`nalishdagi hadislarini to`plagan muhaddislar.

Movarounnahrda birinchi bo`lib hadis to`plagan muhaddis Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy sanaladi. Yana vatandoshlarimizdan Imom Ahmad ibn Hanbal al-Marvaziy, Ishoq ibn Rahovayh al-Marvaziy, Imom al-Haysam ibn qulayb ash-Shoshiy, Hofiz al-Xorazmiy, Imom Abdulhasan Ahmad ibn Muhammad as-Samarqandiy va boshqalardir.

Hadislarda insonning kamolga etishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan bo`lib, bular mehr-oqibat ko`rsatish, saxiylik, ochiq ko`ngillilik, ota-ona va kattalarga, qarindoshlarga g`amxo`rlik, hurmat, faqir-bechoralarga muruvvat, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug`lash, halollik, poklik, o`zaro do`st, tinch-totuv bo`lish va boshqalardan iboratdir. Bundan tashqari, insonning o`zini yomon illatlardan tiyish, yaxshilik sari intilish kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o`z ifodasini topganki, bularning barchasi Qur’oni Karim ko`rsatmalaridan kelib chiqadi va komil insonni shakllantirish mezoni sanaladi. Avvalo, islom aqidasiga binoan har bir musulmon iymonli bo`lishi kerakdir. Qur’oni Karimda ta’kidlanganidek, hadisning ham birinchi kitobi iymon kitobidir. Islomdan murod iymon demakdir. Iymonning mukammal bo`lmog`ining uch sharti ko`rsatiladi:

- to`g`ri e’tiqodli bo`lmoq;

- kishilar bilan yaxshi munosabatda bo`lmoq;

- kishi o`z ustida ishlamoq`i va o`zini ibodat va itoatga chiniqtirmoq`i kabilar.²

Iymon daraxtga tenglashtiriladi va uning 60 dan ortiq shoxlari bor deb, iymon belgilari sanab o`tiladiki, bularning har biri inson ma’naviy qiyofasining mukammallashuviga ta’sir etuvchi xislatlardir. Bular quyidagilardan iborat: “qo`li bilan va tili bilan o`zgalarga ozor bermagan kishi musulmondur”; “O`zi yaxshi ko`rgan narsasini birodaringizga ravo ko`rmaguningizcha hech biringiz chinakam

¹ Azimov A. Islom va hozirgi zamon. - Toshkent, O`zbekiston, 1991, 13-bet.

² Abu Abdulloh Muxamad ibn Ismoil al-Buxoriy. Xadis, 1-jild al-Jome’ as-saxih (Ishonarli to`plam). Toshkent. Qomuslar Bosh tahririyati, 1991, 14-bet (Boshqa manbalar ham ushbu kitobdan olindi).

mo`min bo`la olmaysiz” (3-,4-,6- boblar); “Uchta xislatni o`zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo`lgaydir:

- insofli va adolatli bo`lmoq;
- barchaga salom bermok;
- kambag`alligida ham sadaqa berib turmok”.

Bundan tashqari, kishilar uchun xos bo`lmagan munofiqlik illatlari ham ko`rsatib o`tiladi: Rasulloh sallalohu alayhi vassallam aytganlar: “quyidagi to`rtta illat kimda bo`lsa, aniq munofiq bo`lg`aydir, kimdagi ulardan bittasi bo`lsa, uni tark etmaguncha munofiqlikda bir illati bor ekan, deyiladir:

- omonatga xiyonat qilgaydir;
- so`zlasa yolg`on so`zlagaydir;
- shartnoma tuzsa, shartida turmagaydir;
- urishib qolsa, kek saqlagaydir va nohaqlik qilgaydir”.

4.3.Al-Buxoriyning hadis ilmini rivojidadagi xizmatlari



“Sahih” yo`nalishining asoschisi, eng yetuk va mashhur muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. Imom Buxoriy hadis ilmida “Amir ul-mo`minin”, U “Imom al-muhaddisiyn” (“Barcha muhaddislarning peshvosi”) degan sharaflı nomga sazovor bo`lgan.

Imom Al-Buxoriy(810 - 870)

U 810- yil, 13- mayda (ba`zi manbalarda 810- yil, 20- iyulda) (hijriy 194- yil shavvol oyining 13- kuni) Buxoroda tug`ilgan. Go`dakligida otadan etim qolgan. O`quv muassasasida savod chiqargan, 10 yoshidanoq arab tili kitoblarini yodlay boshlaydi. Al-Buxoriy hadis ilmini katta qiziqish bilan o`rganishga kirishadi. Yoshlik chog`idan boshlab turli roviylardan eshitgan hadislarini yodlab borar edi. Abdulloh ibn al-Muborak, Vaqi` ibn Jarroh kabi olimlar to`plagan hadislarini yod olgan, hadis rivoyatchilari haqidagi bahslarda qatnashgan.

Al-Buxoriy 825- yilda, o`n olti yoshida onasi va akasi bilan Hijozga safar qiladi. Makkayu Mukarrama va Madinayu Munavvarada bo`lib, haj ibodatini ado etadi. Balx, Barsa, Kufa, Bog`dod, Xume, Damashq, Misr, Makka va Madinada bo`lib, safar jarayonida muhaddislardan hadis o`qir edi. Olti yil Hijozda qolib, hadis ilmidan ta`lim oladi. Shu bilan birga, Damashq, Qohira, Basra, Bog`dod shaharlarida mashhur olimlardan fiqh ilmidan dars oladi, o`zi ham bahs va munozaralarda qatnashadi, tolibu ilmlarga dars ham beradi.

Imom Buxoriy iste`dodli, o`tkir muhofazali, ziyrak olim bo`lgan. “Manbalarga ko`ra, Bog`dodda istiqomat qilgan paytida ko`pincha oyning nurida ijod qilib, qorong`i kechalari sham yorug`ida kitob o`qir ekan. Agar tunda behosdan biror-bir

fikr-mulohaza kelib qolsa, shamni yoqib darhol fikrini qog`ozga tushirar, shu taxlitda ba`zi kechalari shamni yigirma martagacha o`chirib-yoqar ekan”.¹

Imom Buxoriyning o`tkir zehn egasi ekanligini qo`yidagi misoldan ham bilish mumkin.

Rivoyatlarga ko`ra “U qaysi bir kitobni qo`lga olib, bir marotaba mutolaa qilsa, hammasi yod qolaverardi”. Imom Buxoriyning o`z so`ziga ko`ra, yuz ming sahih (ishonchli) va ikki yuz ming g`ayri sahih (ishonchsiz) hadisni yod bilar ekan. O`z shogirdlaridan Amir ibn Fallos “Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyga ma`lum bo`lmagan hadis, albatta ishonchli hadis emasdur”, - deydi. Ustozi Imom Ahmad ibn Hanbal al-Marvaziyning aytishicha, “Butun Xurosondan Muhammad ibn Ismoil kabi olim chiqqan emas”.

Imom Buxoriyning o`tkir zehni haqida shunday rivoyat keltiriladi: “Imom Buxoriy bilan Basrada hadis darsiga qatnashgan sheriklaridan biri Hoshid ibn Ismoil aytadi: “Imom Buxoriy bizlar bilan ustozning darsini eshitardi. Ustoz rivoyat qilgan hadislarini biz yozib olar edik, ammo Buxoriy faqat quloq solibgina o`tirardi. Shu tarzda qancha kunlar o`tib, orada ustoz qariyb 15 ming hadis rivoyat qildi. Shunda biz Buxoriyga: “Sen nega hadislarini yozmaysan?” - deb ta`na qilgan vaqtimizda: “Sizlar yozib borayotgan hadislarini men ustoz og`zidan yodlab olayotirman”, - dedi-da, ustoz rivoyat qilgan hamma hadislarini bir chekkadan yoddan o`qib berdi. SHundan keyin biz yozib olgan hadislarimizdagi xatolarni uning yodlaganidan tuzatib oladigan bo`ldik”.²

Imom Buxoriy juda ko`p zabardast olimlardan ta`lim oladi. Manbalarda uning ustozlarini to`qsonga yaqin deb ko`rsatishadi. Muhammad ibn Yusuf al-G`artobiy, Ubaydulla ibn Musa al-Abasiy, Abu Bakr Abdulla ibn az-Zubayr al-Hamiydiy, ibn Rahavayx nomi bilan mashhur imom Ishoq ibn Ibrohim, Imom Ahmad ibn Hanbal, Ali ibn al-Madiyniyalar uning ustozlaridir.

Imom al-Buxoriyning o`zi ham yirik va mashhur olimlar Ishoq ibn Muhammad al-Ramoziy, Abdulloh ibn Qutayba, Ibrohim al-Harbiy, Muhammad ibn Abu Iso at-Termiziy, Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy, Muslim ibn Al-Hajjojlarga o`z vaqtida ustozlik qilgan.

Imom Buxoriy o`ta kamtar, insonparvar, xulq-odobda tengsiz, saxovatli inson ham bo`lgan. U hadis ilmining yetuk olimi bo`lsa ham, vaqti kelganda zamondoshlari, shogirdlaridan ham o`rgangan. Imom Buxoriy bir ming saksonta muhaddisidan hadis eshitgan. Undan to`qson ming kishi ishonarli hadisni to`plagan, 100 ming “sahih” va 200 ming “g`ayri sahih” hadislarini yod olgan.

Imom al-Buxoriy uzoq safardan ona yurti Buxoroga qaytgach, talabalar va ulamolarga hadis ilmidan saboq beradi va uning targ`ibotchisiga aylanadi. Rivoyatlarga ko`ra, xalifaning Buxorodagi noibi Holid ibn Ahmad ibn Holid az-Zuhaliy uni saroyiga kelib hadis ilmidan saboq berishga taklif etadi. Ammo Imom Buxoriy bu taklifni qabul qilmaydi va: “Men ilmni xorlab sultonu amirlar eshigiga

¹ Uvatov U. Hadis ilmning sultoni. O`zbekiston adabiyoti va san`ati. 2001, 29 oktyabr, № 43-44.

² Al-Buxoriy haqida zamondoshlarining xotiralari. SHamsiddin Boboxonovning Imom Ismoil al-Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” kitobi tarjimasining muqaddimasidan olindi. qarang: Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). Tarjima, muqaddima va izohlar muallifi SHamsiddin Boboxonov. Toshkent, O`zbekiston, 1990, 6-8 betlar.

olib bormayman. Agar amirga ilm kerak bo'lsa, tarbiyalanuvchilarni (ikkinchi rivoyatda saroyidagilarni) uyimga yoki masjidimga yuborsin", - deb javob beradi. Al-Buxoriy bilan amir Holid ibn Ahmad az-Zuhalliy munosabatlariga rahna tushadi. Bunga ba'zi hasadgo'y shaxslarning ig'volari ham sabab bo'ladi. Amir buyuk allomani shahardan chiqib ketishga farmon beradi. Uni Samarqand ulamolari o'z yurtlariga taklif etadilar. Imom Buxoriy yo'lga chiqadi. Ammo Samarqandga yaqin Haftang qishlog'ida (hozirgi Poyariq tumani) betob bo'lib qoladi va shu erda hijriy 256 yili ramazon oyining oxirgi kuni (milodiy 870 yil 1 sentyabr) 62 yoshida vafot etadi va shu erga dafn etiladi.

4.4. At-Termiziyning hadis ilmiga qo'shgan hissasi

Mashhur muhaddislardan yana biri vatandoshimiz Abu Iso at-Termiziy bo'lib, u 824-yilda Termiz yaqinidagi Bug' (hozirgi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida) qishlog'ida tug'ilgan. Uning oilasi va ota-onasi haqida ma'lumotlar yo'q. Ba'zi tadqiqotchilar uning asli Marvlik bo'lgan deb qayd etadilar.

U bolaligidan ilmga qiziqqan bo'lib, ayniqsa hadis ilmini chuqur egallagan. At-Termiziy 950 yildan qator mamlakatlarga safar qiladi. Hijozda bo'lib, Makka va Madinani ziyorat qiladi, Iroq, Xurosonda hadis ilmi, fiqh, ilmi al-qiroat, bayon, tarix va boshqa ilmlarni o'rganadi. Mana shu safarda at-Termiziy hadislarni to'play boshlaydi. Hadis ilmini o'rganishda mashhur muhaddis at-Termiziy ustozini al-Buxoriyni alohida hurmat qiladi. Hatto manbalarda at-Termiziy ustozining vafoti tufayli ko'p yig'laganidan ko'zi ko'r bo'lib qolgan, degan fikrlar ham mavjud.

At-Termiziyning o'tkir zehni, xotirasi, yodlash qobiliyatining kuchliligi tufayli al-Buxoriy ham uni faqat shogird sifatida emas, o'ziga hamkor do'st sifatida ham hurmat qilgan.

At-Termiziy uzoq safarida hadislarni to'plab, kitoblar ta'lif qila boshladi. U 863-yilda o'z vataniga qaytdi va o'zi ham shogirdlarga ta'lim berib, xam kitoblar yozdi.

At-Termiziyning o'ndan ortiq asarlar yaratganligi ma'lum. Bular "Al-Jom'e as-sahih" ("Ishonchli to'plam"), "Ash-Shamoil an-Nabaviya" ("Payg'ambarning alohida fazilatlarini"), "Al-ilal fi-l-hadiys" ("Hadislardagi illatlar va og'ishlar haqida") asarlari mashhurdir.

At-Termiziyning yozib qoldirgan asarlaridagi hadislar ham al-Buxoriy hadislari kabi insonni halollik, adolat, e'tiqod, diyonat, poklik, mehnatsevarlik, muruvvatlilik, mehr-shafkat, kattalarga, ota-ona va qarindoshlarga hurmat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Qisqa xulosa

Demak, hadislar Muhammad payg'ambarning sunnatlari bo'lib, mazmunan har bir mo'minning ishonchini, e'tiqodini mustahkamlaydi va shu bilan insonni ma'naviy kamolotga da'vat etadi. Islom dini ma'rifatga asoslangani uchun ham har bir shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy jihatdan kamolga etkazishga oid e'tiqod va imondan iborat bo'lib, faqat ezgulikka xizmat qilish, olijanob bo'lish, pokiza yurish, bir burda luqmani halol qilib eyish, jaholat va jaholatparastlikka yo'l qo'ymaslik, o'z birodarining, qarindosh-urug'larining, millatining va vatanining qadriyatlarini

asrashdan iboratdir.”

O`z – o`zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

- 1.Hadis ilmining paydo bo`lishi.
- 2.Hadisshunoslik va ta`lim-tarbiya.
- 3.Hadis ilmining rivojlanishida Imom al-Buxoriyning o`rni.
- 4.Buxoriyning hadislari, ularning tahlili.
- 5.Imom At-Termiziyning hadislari va ularning tarbiyaviy ahamiyati.
- 6.“Sahih” hadislar deganda nimani tushunasiz?
7. Hadislar tarbiyalanuvchilarga ta`lim berishda qanday ahamiyat kasb etadi?
- 8.“G`ayri sahih” hadislar deganda nimani tushunasiz?

5 - mavzu: Sharq uyg`onish davri va bu davrda pedagogik fikr taraqqiyoti

Reja:

- 5.1. Sharq uyg`onish davri haqida umumiy tushuncha.
- 5.2. Abu Nasr Forobiyning pedagogik qarashlari.
- 5.3.Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-ma`rifiy qarashlari.
- 5.4. Abu Ali ibn Sinoning pedagogikaga qo`shgan hissasi.
- 5.5. Yusuf Xos Xojibning «Qutadg`u bilig» asari ta`lim-tarbiyaga oid asar sifatida.

5.1. Sharq uyg`onish davri haqida umumiy tushuncha

Hozirda ta`lim-tarbiya jarayonida ajdodlarimiz yaratgan bebaho ma`naviy-pedagogik merosdan foydalanish muhim ahamiyatga ega. IX-XII asrlarda Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyat, ma`naviy-pedagogik meros yosh avlodni axloqiy jihatdan tarbiyalashda muhimdir. Ular tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlar, ma`naviy meros, mutafakkirlarning pedagogik qarashlari, g`oyalari, didaktik asarlari yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs sifatida shakllantirish, ularga to`g`ri ta`lim-tarbiya berishga xizmat qiladi. Mutafakkirlarning tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lgan merosini o`rganish, tahlil qilish va oliy ta`lim tizimida o`quv-tarbiya jarayoniga olib kirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

XX asrga qadar davrlardagi ijtimoiy va madaniy hayot tarixidan shu narsa ma`lumki, ta`lim-tarbiyada ma`naviyatli, ma`rifatli barkamol yoshlarni etishtirishda xalq pedagogikasining o`rni va mohiyati katta bo`lgan. Ming yillar davomida shakllanib, rivojlanib kelayotgan xalq pedagogikasi milliy pedagogika tarixining zamini bo`lgan.

Umuminsoniyat tarixida IX-XV asrlarda – Sharq uyg`onish davrida ijtimoiy – madaniy hayotda katta o`zgarishlar yuz bergan. Ayniqsa Amir Temur asos solgan saltanat davrida ijtimoiy hayot yuksalgan, ilm-fan gurkirab rivojlangan. Bu davrda yashab ijod etgan Al-Buxoriy, At-Termiziy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg`ariy, Yassaviy kabi buyuk daholar jamiyat tarixi va jahon madaniyati rivojiga benazir hissalarini qo`shganlar. Bu buyuk mutafakkirlar turli

fanlarga oid yaratgan asarlarida ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarning ilmiy-falsafiy asoslarini ishlab chiqdilar, ular asrlar davomida ta'lim-tarbiya sohasida ajdodlarimiz ortirgan tajribalarining kuchli qudratga ega ekanligini va xalqchilligini o'z asarida ifodaladilar.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining taniqli rahbarlari Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi ma'rifatparvarlar madaniyatni rivojlantirish uchun ma'rifatparvarlikka asoslanish, ta'limni isloh qilish zarurligi g'oyasini olg'a surib, Turkistonda ijtimoiy ong taraqqiyotini boshlab berdilar.

1991-yil O'zbekiston mustaqil bo'lishi bilan milliy ong, ma'naviyatimiz manbai tarixiy-madaniy qadriyatlarimizni o'rganish va tiklashga musharraf bo'ldik. Bu esa tarixni, ota-bobolarimizni bilishga katta ta'sirini ko'rsatmoqda.

Ko'rinib turibdiki, har bir davrda ilm-fanga, ma'naviyatga, madaniyatga va ta'lim-tarbiyaga o'zlarining hissalarini qo'shgan olimu fuzalolar, shoirlar etishib chiqqan.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov aytganlaridek, "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". Hayot rivojlanib borar ekan, har bir sohada tarixga nazar solmasdan turib, ya'ni o'tgan davrda kelajakni ko'ra olish juda mushkul jarayon xisoblanadi.

5.2.Abu Nasr Forobiyning pedagogik qarashlari



Forobiyning pedagogik ta'limotlari o'z davri uchun ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'lib, insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. Uning uqtirishicha, insonni baxt-saodatga eltuvchi jamoa yetuk jamoa bo'la olishi mumkin. Komil insonni yaratish, uni baxt-saodatga eltish har qanday davlat jamoa boshlig'ining vazifasi bo'lishi darkor.

Abu Nasr Forobiy (873 – 950)

Forobiyning ta'kidlashicha, insonni tarbiyalash ikki xil usul yordamida olib borilishi mumkin. Tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda zaruriy aqliy va axloqiy xislatlarni – bilimli bo'lishga, to'g'rilikni, haqiqatni sevishga jasur do'stlarga sadoqatli bo'lish kabi fazilatlarni egallashga intilmog'i lozim. Bunday insoniy fazilatlarga ega bo'lish uchun baxt-saodatga eltuvchi jamoa bo'lishi kerak.

Olim ta'lim faqat so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa, amaliy ish va tajriba bilan amalga oshirilishini aytadi va tarbiyani har bir xalq, millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga o'rganishdan iborat deb hisoblaydi.

Tarbiya esa amaliy faoliyatda namoyon bo'ladi, yoshlarga u ma'lum ish-harakat, kasb-hunar, odob orqali singdiriladi.

Talim-tarbiya jarayonida nazariy bilim bilan amaliy harakat-odat, malaka, faoliyat birlashib boradi, yetuklik shu birlashuvning darajasiga qarab yuzaga keladi.

Forobiy insonga xos bo'lgan va uning ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etuvchi tafakkur va nutqning rivojlanishini ta'lim-tarbiyaning asosini tashkil etuvchi muhim jarayon deb hisoblaydi.

Forobiy insonni dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk yakuni deb biladi. Shunga ko'ra, u o'z asarlarida insonga ta'lim va tarbiya berish zarurligini aytadi va bunda ta'lim-tarbiya usullarida kutilgan maqsad asosiy o'rinda bo'lishini aytadi.

Forobiy insonning ma'naviy hayotida, asosan, uning ikki tomoniga: aqlu-ongiga va axloqiga (xulq-atvoriga) e'tibor beradi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya, uning fikricha, insonni aqliy tomondan ham, axloqiy tomondan ham yetuk mukammal kishi qilib etishtirishga qaratilmog'i lozim. Demak, ta'lim-tarbiyaning birdan bir vazifasi jamiyat talablariga to'la-to'kis javob bera oladigan va uni bir butunlikda, tinchlikda, farovonlikda saqlab turish uchun xizmat qiladigan komil inson tayyorlashdir. «Baxt - saodatga erishuv haqida» nomli risolasida olimning bu fikrlari aniq ifodalangan.

Forobiy ta'lim-tarbiya ishiga kirishish, uni boshlashdan avval odamlarning shaxsiy xislatlarini bilish lozimligini aytadi. Uning fikricha, insonning xohish, ixtiyor, ifoda, yaxshilik va yomonlik kabi xislatlarini, nimaga qobiliyati borligini bilmay turib, ishga kirishish kutilgan natija bermaydi.

Ikkinchi yo'l – majbur etish yo'lidir. Bu usul gapga ko'nmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroi xalqlarga nisbatan ishlatiladi. Chunki ular o'z istaklaricha so'z bilan g'ayratga kiradiganlardan emasdir. Ammo ulardan qaysi biriki, nazariy bilimlarni o'rganishga astoydil kirishsa hamda fazilati yaxshi bo'lib, kasb-xunarlarni egallasa va juz'iy san'atlar majbur etmaslik kerak. Maqsad ularni fazilat egasi qilish va kasb-hunar ahllariga aylantirishdir.

Tarbiya berish usuli, Forobiyning fikricha, ikki xil bo'ladi. «Avvalgi usul-san'atni o'z rag'batlari bilan o'rganuvchilarga ishlatadigan usul. Ikkinchi usul esa, majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul. Bolalar ustida turgan odam esa, muallim bo'lib, u bolalarga tarbiya berishda turli tarbiya usullaridan foydalanadi».

5.3. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-ma'rifiy qarashlari



Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy X asrning ikkinchi yarmi va IX asrning boshlarida, g'oyat murakkab tarixiy davrda yashadi va ijod etdi. Beruniy (milodiy 973-yil 4-sentyabr) Xorazmning Qiyot (Kot) shahrida dunyoga keldi.

Berun so'zining ma'nosi «tashqari» degan ma'noni anglatadi.

Abu Rayhon Beruniy (973 - 1048)

Sayohatchi Yoqut Hamaviyning aytishicha, vatanidan tashqariga ketgan har bir kishini xorazmliklar «Beruniy» laqabi bilan atashgan. «Abu Rayhon» esa «marhamatli», «rahmdil» degan ma'noni anglatadi.

Abu Rayhon Beruniy boshlang'ich ta'limni tugatgach, o'sha davrda fan-madaniyat taraqqiy etgan Xorazmning peshqadam olimlaridan saboq oladi.

Beruniy o'z didaktik qarashlarida tabiat, jamiyat hodisalariga, turmush voqealariga holisona baho berish – inson tabiatini bildiruvchi omil ekanini ta'kidlab, kishilarni voqealarga mustaqil va ongli munosabatda bo'lishga undaydi.

Olimning ta'kidlashicha, sezgi o'z qo'zg'atuvchi a'zolari orqali yuzaga keladi. Qo'zg'atuvchilar bir me'yorda bo'lsa, yoqimli va zararsiz, agarda me'yordan ortiq bo'lsa, dardli va halokatli bo'ladi.

Ko'rish sezgisini nur qo'zg'adi, eshitish, hidlash havo orqali burunga uriladigan hidlar paydo bo'ladi, ta'm – ozuqaning mazasi bilan vujudga keladi. Bu to'rt sezgini his etuvchi maxsus a'zolar tanada mavjuddir.

Beruniy inson ana shu xususiyatlari bilan barcha mavjudotlardan ustunligini ta'kidlab, insonning asosiy vazifasi mehnat orqali ko'zlangan maqsadga erishish, yaxshilik ko'rishdir, degan g'oyani olg'a suradi.

Beruniy «Mening qalbim ikki biqinim o'rtasida turib, ko'zlarning ko'rgani, quloqlarning eshitganini anglaydi», - der ekan, u bilim eshitish va ko'rish orqali egallanishi va u qalbga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Beruniy yaratgan har bir ishining kishi ruhiyatiga, qobiliyatiga mos, uni toliqtirmaydigan bo'lishiga e'tibor beradi.

Beruniy mehnatni ulug'laydi, ayniqsa olimlar mehnati tufayli ilmiy yodgorliklar bunyod etilishini ta'kidlaydi. Uningcha yozish xabar turlarining biri bo'lib, uni boshqa xabarlardan ko'ra sharafliroq sanash mumkin: qalamning azaliy izlari bo'lmaganda, xalqlarning xabarlarini bilib bo'lmaydi.

Beruniy kishilar hayotidagi yomonliklarni qoralaydi. Uning fikricha, bu illatni yo'qotishning asosiy yo'li uning ildizlarini topish va kesib tashlashdir. Yomonlikning shaxobchalari ko'p, ammo ularning asosi uch narsa: ta'ma, g'azab, yuz ilmsizlikdir. Agarda bu asoslar qirqib tashlansa, shaxobchalar quriydi. Bu asoslarning negizi esa, ishtaha va g'azabdir. Ishtaha insonga eng halokatli va eng kuchli dushman bo'lib, insonni ovqatlarni tanavvul qilish va o'ch olish zavqi bilan aldaydilar. Olimning

tushuntirishicha, bu illatlar, ranj va gunohga olib keladi. Ularning ta'siriga berilib ketgan kishi insonlik qiyofasini yo'qotadi.

Beruniy rostgo'ylikni, to'g'ri so'zlikni ulug'laydi, yolg'onchilikni odamlar o'rtasiga nizo soluvchi illat sifatida qoralaydi. Beruniy rostgo'ylikni adolat bilan barobar qo'yadi. Uning fikricha, xalq adolatni sevgani kabi, rostgo'ylikni ham sevadi. Ammo uning mohiyatini, yoqimlilikini bilishni istamaydigan kishi uni sevmaydi.

Beruniyning ma'rifat va bilimdonlik darajasi, kishilarning mulohaza yuritish holati to'g'risida bildirgan fikriga ko'ra, har bir narsani aniq, sinchiklab o'rganish, bilish, bundan so'nggina bir xulosaga kelish kerak. Beruniy bu ishda tajribaga asoslanishini alohida uqtiradi, nodonlik, erinchoqlik, ilmsizlikni tanqid qiladi.

Beruniy muruvvat va futuvvatni eng yaxshi insoniy fazilat deb hisoblaydi. Uning fikricha, muruvvatli kishi o'z qobiliyati, xushmuomalaligi, shafqatlilik, qat'iyatlilik, chidam, fazilat va kamtarlik hislatlari bilan ajralib turadi.

Abu Rayhon Beruniy ilm-fanning buyuk homiysi va muxlisi sifatida mamlakatning obodonchiligi, ilm-fanning gullab-yashnashida, odamning baxti esa uning bilim va ma'rifatida deb biladi. Yaratgan asarlarida har bir inson o'z qalbining farmoyishiga ko'ra xayr-ezgulikka intilishi, sun'iy obro', shuhrat qozonish uchun muruvvat va shafqat ko'rsatmasligi kerakligini ta'kidlaydi.

5.4.Abu Ali ibn Sinoning pedagogigaga qo'shgan hissasi



Sharqda «Shayx ar-Rais» nomi bilan mashhur bo'lgan allomalardan biri, o'rta asrning buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sino O'rta Osiyo madaniyati va ilm-fanning rivojiga katta hissa qo'shdi. Abu Ali ibn Sino 980-yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida kichik amaldor oilasida tug'iladi.

Keyinroq uning oilasi Buxoroga ko'chib o'tgach, u boshlang'ich maktabda o'qiy boshlaydi. Ibn Sinoning otasi Abdulloh hamda uning do'stlari bilimdon kishilar bo'lib, ularning ilmiy munozaralari o'tadigan oilaviy muhit yosh ibn Sinoga ham ta'sir etadi. Shu bilan birga uning bolalik va o'smirlik yillari o'tgan Buxoro shahri Somoniylar davrining yirik madaniy markazi bo'lib hisoblanar edi. Buxoroda ko'plab maktab, madrasa, kasalxona va nodir kitoblar saqlanadigan kutubxona bo'lgan.

Ustozlaridan hind hisobi, fiqhdan bilim olgan. Keyin esa faylasuf Abu Abdulloh Notiliydan falsafa, mantiq, handasa va boshqa fanlardan ta'lim oladi. Shundan so'ng ibn Sino o'zi mustaqil holda barcha fanlar bilan shug'ullana boshlaydi. U ayniqsa tib ilmini chuqur egallab oladi, bu sohada unga ta'lim bergan kishi buxorolik Abu Man-Kamariy bo'ldi.

«Tib ilmi, - deb yozadi Ibn Sino o'z tarjimai holida, qiyin ilmlardan emas, shuning uchun men qisqa bir muddatda bu fanda juda ilg'orlab ketdim, endi, hatto,

bilimdon tabiblar ham kelib huzurimda tib ilmidan dars ola boshladilar. Kasallarni ham ko`ra boshladim va orttirgan tajribalarim natijasida muolaja eshiklari menga shu qadar (keng) ochilib ketdiki, uni tasvirlashdan o`jizman», - deydi.

Ibn Sino 17 yoshidayoq Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida dong chiqaradi. O`sha kezlarda Somoniylar davlatining boshlig`i Nuh ibn Mansur kasal bo`lib, saroy tabiblari uni davolashda o`jiz edilar. Buxoroda yangi chiqqan yosh tabibning ovozi saroyga etib borgach, uni amirni davolashga taklif qilganlar va u boshqa tabiblar bilan birgalikda tez fursatda bemorni oyoqqa turg`izgan. Buning evaziga Ibn Sino saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo`lgan, bu kutubxona o`sha vaqtda O`rta va Yaqin Sharqda eng katta, boy kutubxonalardan sanalgan. Bir necha yil davomida kecha-kunduz tinmay mutolaa qilish natijasida Ibn Sino o`z bilim doirasini mislsiz darajada kengaytirganki, o`sha paytda shu qadar bilimga ega bo`lgan boshqa biron kishini topish mushkul bo`lgan.

Abu Ali ibn Sinoning fan va madaniyat taraqqiyotiga qo`shgan buyuk hissasi uchun ham Sharqda unga «Shayx-Urays» (Olimlar boshlig`i), Yevropada «Olimlar podshosi» degan hurmatli unvon berdilar.

IX asr oxiri - X asr boshlariga kelib, o`lkada siyosiy-ijtimoiy vaziyat murakkablashdi. Shu tufayli ibn Sino Xorazmga - Urganchga ko`chib o`tadi. Xorazmda u bir qator olimlar bilan hamkorlikda Abu Rayhon Beruniy boshqarayotgan «Ma`mun akademiyasi»da ilmiy ish bilan shug`ullana boshlaydi. Xorazmda o`zining yirik asarlari - «Tib qonunlari», «Ash-Shifo» kitobi ustida ish olib boradi.

Mahmud G`aznaviy 1017-yilda Xorazmni o`ziga qaram qilib olgach, nufuzli olimlarni ham o`z saroyiga chaqirib ola boshlaydi. Ibn Sino Mahmud G`aznaviy saroyiga bormay, boshqa yurtlarga ketishga majbur bo`ladi. Gurganjda, Rayda, keyin esa Hamadonda va umrining so`nggi yillari Isfaxonda yashaydi. Ibn Sino 1037-yilda vafot etadi. Allomadan keyingi avlodlarga 250 dan ortiq ilmiy asar boy meros bo`lib qoldi. Abu Ali ibn Sinoning «Al-Qonun», «Hay ibn Yakzon», «Risalat at-tayr», «Risalat fi-l-ishq», «Ishq haqida risola», «Risalat fi mohiyat as-salot» («Nomozning mohiyati haqida risola»), «Kitob fi ma`no ziyorat» («Ziyorat qilishning ma`nosi haqida»), «Risalat fi-daf al-g`am min al mivt» («O`limdan keladigan g`amni daf qilish haqida risola»), «Risalat al-qadr», «Najot», «Ash-Shifo», «Donishnoma», «Kitob ash-ishorat» va «At tanbihot» asarlari shular jumlasidandir. Ma`lumki, ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o`zining ta`lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog`liq holda ifodalagan, maxsus risolalar talqin etgan. Shuningdek, fanlarni tasnif etadi. Bunda u birinchi o`ringa tibbiyot fanlarini qo`yadi. Falsafani esa ikki guruhga, ya`ni nazariy va amaliy guruhlarga bo`ladi. Nazariy guruh kishilarni o`zidan tashqaridagi borliq holati haqidagi bilimlarni egallashga yo`llasa, amaliy qism bizga bu dunyoda nimalar qilishimiz kerakligini o`rgatadi, deydi. U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinchi guruhga fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o`rganuvchi barcha fanlarni kiritadi.

Abu Ali ibn Sino bilimsiz kishilar johil bo`ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo`lmagan kishilar qatoriga qo`shadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta`kidlaydi.

U haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo'lish kerakligi, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson o'z bilimining haqiqiyligini bilishi uchun mantiqni ham bilishi zarurligini uqtiradi. Ibi Sinoning ta'lim metodlari haqidagi ta'limoti asosida ham bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak degan g'oya yotadi.

Ibn Sino bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish kerakligini ta'kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda engildan og'irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.¹

Bu talablar hozirgi davr ta'lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir. Yuqoridagi masalalarga o'zining «Tadbiri manzil» asarida maxsus bo'lim bag'ishlaydi. «Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash» bo'limida ta'lim va tarbiya jarayonini ochib beradi. Yuqoridagi tamoyillar esa bolalarni engil-elpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishiga yordam beradi.

Talabaga bilim berish o'qituvchining mas'uliyatli burchidir. Shunga ko'ra, Ibn Sino o'qituvchining qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, shunday yo'l-yo'liqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimning o'quvchilar qanday o'zlashtirganiga e'tibor berishi;
- ta'limda turli metod va shakllardan foydalanishi;
- o'quvchining xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- fanga qiziqтира olishi;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
- bilimlarni o'quvchilarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;
- har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishishi zarur, deydi olim².

Ibn Sino ta'limotida bilishda qaysi metodlardan foydanilmasin, u og'zaki ifodami, bilimlarni tushuntirishmi, tajribalarmi, baribir talabada haqiqiy bilim hosil qilish mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bo'lgan.

Abu Ali ibn Sino iqtisodiy tarbiya yuzasidan fikr yuritar ekan, bolada dastlabki iqtisodiy tushunchalar va munosabatlar shakllanishi oilada boshlanishini ta'kidlaydi. «Oila a'zolari - deb yozadi u, – kunlik oziq-ovqatlar uchun etarli


¹ Xoshimov K., Nishonova S., Inomova M. va boshqalar. Pedagogika tarixi. -T.: O'qituvchi, 1996. - 90-91 betlar.

² Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida. -T.: O'qituvchi, 1967, –75 b.

mahsulotlarni oldindan tejamkorlik bilan sarf qiladi. Har bir kishi bug`doy, guruch, mevalarni saqlash yo`llarini bilishi kerak. Extiyojga yaroqli narsalarga tejamkorlik munosabatida bo`lishi lozim. Ota-ona uvol qilish gunohligini farzandiga yoshligidan nasihat yo`li bilan o`rgatadi».

Bolalarni hayotga tayyorlash uchun ularga xunar o`rgatish kerak deb uqtiradi. Inson hunarni puxta o`rganishi shart. Chunki hunar unga kelajakda ro`zg`or tebratish uchun asqotadi. Iqtisodiy tarbiya zaminida mehnatsevarlik yotadi. U shunday olib borilishi kerakki, bola o`z mehnati natijalaridan g`ururlansin. Mehnat jarayonida bola hisob-kitob qilishga o`rganadi, ishbilarmonlik, tashabbuskorlik hususiyatlarini rivojlantiradi. Ibn Sino oilada bolaga yuklanadigan mehnat bolaning yoshiga va imkoniyatlariga to`g`ri kelishi lozim ekanligi haqida ham fikr yuritadi. Mehnat va jismoniy mashqlarning me`yorlarini topa bilish masalasini ilgari suradi.

Ibn Sino jismoniy tarbiyani inson kamolotidagi o`rnini nazariy va amaliy jihatdan tahlil etadi, nimjon bolalar va sog`lom bolalar uchun jismoniy harakatlar tizimini ishlab chiqadi. U insonni ruhiyatini jismoniy tanasini yaxshi bo`lganligi sababli har bir inson oldiga qo`yiladigan to`rt talabni ishlab chiqadi. Ushbu talabni quyidagi chizmada ko`rish mumkin.



5-rasm. Abu Ali ibn Sinoning to`rt talabi

Birinchi talab ovqatlanish madaniyatini o`z ichiga oladi. Ma`lumki, inson ochiq tizim bo`lib, oziq moddalarni qabul qilib turishi lozim. Ammo oziq moddalar kimyoviy tarkibiga ko`ra inson organizmidagi kimyoviy moddalardan farq qilib, o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`ladi va organizm bu moddalarni o`ziga mos moddalarga aylantirishi kerak. Bu jarayonni o`rganar ekan, Ibn Sino ovqatlanishda mo`tadillikka rioya qilish lozim degan fikrni ilgari suradi va ovqatlanishni mijozlarga xos turlarini ishlab chiqadi.

Ibn Sino aqliy mehnat bilan jismoniy mehnatni almashtirib turishni tavsiya etadi. Jismoniy harakatlar organizmda qonni yurishtiradi va keraksiz moddalardan tozalanishga yordam beradi.

Axloqiy tarbiya masalasini ibn Sino inson ruhiyati va sog`lig`i bilan bog`liq holda talqin etadi. Bu masala ibn Sinoning eng yirik shoh asari «Kitob al-Qonun fit-tibb»da (Tib qonunlari kitobi) bayon etiladi. Bu asarda inson sog`lig`i va kasalliklarga oid bo`lgan barcha masalalar mantiqiy tartibda to`la bayon etilgan. Ibn Sinoning bu asari ko`p o`tmay Yevropaga ham yetib kelgan. XII asrdayoq bu asar lotin tiliga tarjima qilindi. Unda sog`liqni saqlash madaniyati, bir necha tizim

talablariga rioya qilish, hayotiy voqeliklarga bo'lgan munosabat masalalari, ruhiyat masalalari tahlil etiladi. Aytish joizki, Ibn Sino ta'lim-tarbiya va axloqqa oid bir necha asarlar yaratgan: «Risoi fi ilm al-axloq» (Axloqqa oid risola), «Risola fi al-ahd» (Burch haqida risola), «Risola fi tahkiyat annafs» (Nafsni pokiza tutish to'g'risida risola). Ibn Sinoning «Axloqqa oid risola» asari 1908-yili Misrda «Hikmat va tabiatga oid to'qqiz risolasi» kitobi ichida nashr qilingan. Ushbu axloqqa bag'ishlangan risolasida ibn Sino axloqiy xislatlardan iffat, qanoat, saxiylik, shijoat, sabr-toqat, muloyimlik, sirni saqlay bilish, ilmi va ma'rifatli bo'lish, ochiqlik farosatlilik, do'stlik, kamtarlik, adolatlilik kabi axloqiy fazilatlarga ta'rif beradi. U axloqiy tarbiya insonning kamol topishida juda muhim o'rin egallashini ta'kidlaydi.

Ibn Sinoning yana bir axloqqa bag'ishlangan risolasi – «Burch risolasi» deb ataladi. Bu asarda Ibn Sino kishi o'zini qanday tarzda pokiza tutishi lozimligi, nimalarga amal qilishi kerakligi, odamlar bilan qanday muomalada bo'lish kabi masalalarni tahlil qiladi. Uning fikricha, yer yuzida barcha madrasalaru, masjidlar Ollohning o'chog'i bo'lsa, inson tanasi inson ruhining o'chog'idir. Shuning uchun ham tanani, ham ruhni pokiza tutmoq eng oliy burchdir. Har bir insonning sog'lig'i ham eng oliy mukofot bo'lib, uning qadriga etish va asrash burch qatoriga kiradi. Bu fikr inson tanasi va uning ruhi o'rtasida murakkab bog'liqlik borligini e'tirof etadi. U o'z tajribalarida inson ruhiyatini o'rganar ekan, ruhiyatdagi buzilishlar o'z aksini jismoniy tanada topishini aniqlaydi.

Ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» asarida insonning axloqiy fazilatlari va aqliy rivoji uning sog'lig'i va taqdiriga ta'sir etuvchi omil ekanligini aytib o'tadi. Uning fikricha, ijodiy fikrlash, inson miyasining faol ishlashi ruhiyatga ijobiy ta'sir etadi va ruhiyatni yangilanishiga yordam beradi. Ruhiyatning yangilanishi esa jismoniy tanani sog'lomlashtiradi. XX asrning 80-yillarida olib borilgan psixologik tekshirishlar shuni tasdiqladiki, aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi ayollar jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi ayollarga nisbatan nafaqat tashqi ko'rinishlaridan, balki fiziologik jihatdan ham o'rtacha besh yilga yoshroq ko'rinishga ega ekanlar. Bu tadqiqotlar ibn Sinoning yuqorida keltirilgan fikrini to'la isbotlaydi. Haqiqatdan ham inson ongi va uning qarishi orasida ma'lum bog'liqlik borligi boshqa fanlar o'tkazayotgan tajribalarda ham tasdiqlanmoqda (fiziologiya, biologiya, genetika, gerontologiya).

Ibn Sinoning ta'kidlashicha, insonlarda bor bo'lgan ezgu niyat, himmat, saxovat, shijoat, adolat, pokizalik, bilimdonlik xislatlari bilan birga xasislik, o'g'rilik, aldanchilik, qo'rqqoqlik, ig'vogarlik, yalqovlik, munofiqlik kabi salbiy xislatlar ham xosdir. Axloqiy tarbiya jarayonida mumkin qadar salbiy xislatlarning salmog'ini kamaytirish va axloqiy xislatlarni tarbiyalashga harakat qilish lozim. Hissiy axloqiy fazilatlardan biri qanoatdir, agar inson ochko'zlikdan o'zini tiysa, ovqatlanishda mo'tadillikka rioya qilsa, o'zidagi hirsni engadi. Shu yo'l bilan axloqiy fazilat salbiy fazilat ustidan g'alaba qozonadi. Umuman, ibn Sinoning fikricha, inson barcha salbiy xislatlarni engish kuchiga ega, faqat u o'z imkoniyatlarini ongli sarflashi kerak bo'ladi.

Ibn Sino bola tarbiyasida ota-onaning o'rnini, ta'sirini tahlil qilar ekan, ularning ham ruhiy jihatdan, jismoniy jihatdan mukammal inson bo'lishga chaqiradi. Ota-ona farzand ko'rishdan oldin o'z ruhiyatini poklashi, o'z ma'naviyati

ustida ishlashi lozimligini ta'kidlaydi. Ibn Sinoning tarbiyaga oid fikrlari bugungi kunda ham dolzarb tusga ega. Ayniqsa, uning tarbiya jarayonida me'yorni topa bilish haqidagi g'oyalari muhim. Ibn Sinoning fikricha, har bir insonning sog'lig'i ma'lum darajada shu shaxsning axloqiy tarbiya darajasi bilan bog'liq. Chunki insonning ma'naviyati, ichki dunyosi uning ruhiyatiga ta'sir etadi, ruhiyat esa insonning sog'lig'iga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilish kuchiga ega. Shuning uchun ham sog'lom hayot kechirish faqat ovqatlanish va jismoniy tarbiya talablariga rioya qilishgina emas, balki axloqiy yetuklikka intilish, doimo o'z ichki dunyosi ustida ishlashni ham o'z ichiga oladi.

Olimning fikricha, kishi aqliy hamda jismoniy jihatdan qanchalik yetuk bo'lmasin, agar undagi bilim va kuch axloq me'yorlariga mos tushmasa, bunday kishi jamiyatning haqiqiy a'zosi hisoblanmaydi va u jamiyatga foyda keltira olmaydi. O'zi uchungina yashamasdan xalq uchun, umum manfaati uchun yashashga intiluvchi kishilarni ibn Sino yaxshi axloqli insonlar deb hisoblaydi. Ibn Sino tana bilan insonning ruhiy dunyosini o'zaro murakkab bog'liqligini ta'kidlab, mukammallikka erishish uchun ikkalasiga ham barobar e'tibor berish zarur degan fikrlarni ilgari surgan birinchi olim, u xulqning muvozanatda bo'lishi salomatlikni saqlashini uqtiradi. Qiziqarlisi shundaki, keyingi vaqtda ko'pgina psixologlar, shifokorlar va fiziologlar insonning ichki dunyosini tashqi dunyo bilan bog'lanish xususiyatlarini o'rganar ekanlar ibn Sinoning yuqorida aytilgan fikrlarini to'g'ri ekanligini tan olmoqdalar.

Uyqu jarayonini ham inson organizmiga ta'sirini o'rganib, ibn Sino uxlash tartibiga amal qilish sog'liqni saqlashga xizmat qilishini ta'kidlab o'tadi. U uzoq muddatli va qisqa muddatli uyquning zararini tahlil etadi va bu borada ham ma'lum me'yorlarni taklif etadi. Inson umrining uchdan bir qismi uyquda o'tishi, ya'ni 60 yoshdan 20 yil uyquga sarflanishi aniqlangan.

O'rta asrda markaziy Osiyoda pedagogik fikrlarning shakllanishi bilan tanishar ekanmiz, albatta ularning filogenezig, ya'ni asta-sekin uzviylikda va o'zaro bog'liqlikda rivojlanganligiga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq. Chunki har bir yangi g'oya o'zidan oldingi ilmiy bazaga asoslangan. Agar Forobiyning ilmiy ishlari Abu Rayhon Beruniy uchun asos bo'lgan va keyinchalik olim tomonidan yanada kengaytirilgan bo'lsa, Abu Rayhon Beruniyning ilmiy ijodi Abu Ali ibn Sino tomonidan quvvatlangan hamda ilmiy asosda isbotlangan. Agar Abu Nasr Forobiy ta'lim-tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi roli haqida gapirgan bo'lsa, Abu Rayhon Beruniy shu ta'lim-tarbiyani qanday qilib amalga oshirish haqida fikr yuritib, tavsiyalar beradi. Xuddi shu fikrlarni Abu Ali ibn Sino ilmiy asosda, ya'ni anatomik fiziologik jihatdan tushuntirib berib, yanada kengaytiradi.

Olimlarning fikriga ko'ra, ibn Sino hammasi bo'lib fanning turli sohalariga oid 450 dan ortiq ilmiy asar yaratgan, lekin bizning davrimizgacha ulardan 240 tasi yetib kelgan. Bu asarlarning ellikdan ortiq qo'lyozmalari Sharqshunoslik institutining kitob fondida saqlanib kelinmoqda. Ibn Sino birinchi navbatda mashhur tabib sifatida tanildi. Bu boradagi uning bebaho mehnatini butun dunyo olimlari tan olgan.

5.5.Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig” asari ta’lim-tarbiyaga oid asar sifatida

Yusuf Xos Hojibning pedagogik qarashlarida xalq bilan birga bo`lish, adolatparvarlik g`oyalari asosiy o`rin tutadi. U har bir kishining yuksak kamolot cho`qqisiga – etishishni orzu qiladi.

Yusuf Xos Hojib “Qutadg`u bilig” asarida XI asrdagi ijtimoiy va oilaviy tarbiya, maktablardagi fan tarmoqlari, o`qitish tizimining o`ziga xos xususiyatlarini aqliy, axloqiy, mehnat va jismoniy, nafosat tarbiyasiga doir fikrlari asosida bayon etilgan. Shoirning fikricha, bilim bir bosh bog` yoki jilov kabidir. U kishini har xil noloyiq ishlardan asraydi. Shu xususiyati tufayli bilim aziz va mo``tabardir.

Adib ta’lim tizimi, ta’lim nazariyasi va amaliyotiga, ta’lim mazmuniga oid bir qator jiddiy fikrlarni aytadi. U ayrim fanlarni o`qitishdagi izchillikni ham ko`rsatib o`tgan. U Hansa (Geometriya), ta’zif (karra), tansif (bo`lish), adaz jazri (ildiz topish), jam`u tafrik (qo`shish va ayrish), jabru muqobil (algebra), Uqlidus (Evklid) matematika nazariyasi haqida ma’lumot beradi.

Yusuf Xos Hojib tilni avaylab asrash zarurligini ta’kidlaydi. Ko`p so`zlik lozim. Zero, kishi so`z tufayli qadr topishi yoki aksincha boshi egik bo`lishi mumkin.

Yusuf Xos Hojibning uqtirishicha, har bir kishi jamiyatga munosib bo`lib kamol topmog`i kerak. Buning uchun u, tug`ilgan kunidan boshlab zarur tarbiyani olmog`i lozim. Ulug` shoir ota-onalar nazoratida bo`lgan bolaning mas’uliyati hissi rivoj topadi, shu sababli ham bola tarbiyasida ota-onaning mavqei alohida ahamiyatga egadir, ular tanlagan to`g`ri yo`l farzandlarining kelajagi, kamoloti uchun nihoyatda muhimdir. Yusuf Xos Hojib ota-onalarni bola tarbiyasiga e’tibor berishga da’vat etar ekan, jamiyat farzandlar xulq-atvoriga qarab ota-onalariga baho berishni aytib, ularni ogohlantiradi.

Yusuf Xos Hojib aqliy tarbiyaning baland mavqe tutishini eslatadi. Adib tarbiyaning barcha turlari bir-biri bilan uyg`un bo`lishini talab etadi, shundagina insonning aqlan barkamol, jismonan yetuk, axloqiy-ma’naviy boy bo`lishiga ishonadi. Farzandlarga turli bilim va hunarlarni o`rgatish, ularni go`zal axloqli qilib, voyaga etkazish ota-onaning burchidir. Yusuf Xos Hojib tarbiyada kattalar namunasi ajdodlar tajribasi alohida ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Yusuf Xos Hojibning Sharq ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy, hamda badiiy tafakkuri taraqqiyotiga qo`shgan hissasi beqiyosdir. Allomaning pedagogik qarashlari ham bu sohadagi ulkan merosdir. Ular tarix nuqtai nazari bilangina emas, bugungi kunimizga xizmat qilishi bilan ham katta ahamiyat kasb etadi.

**Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig” asarida yetuk insonni kamolga etkazish masalalari.** Mazkur asarda insonning jamiyat va hayotda tutgan o`rni, burchi va vazifalari haqidagi muammolar o`ziga xos bir tarzda bayon etiladi.

Mutafakkir kitobning an’anaviy boshlanmasidan keyinroq insonning haqiqiy baxti bilimda ekanligini bayon etadi. Yana ilm zakovatning ahamiyati haqida qator boblarda ham fikr yuritish bilan birga unga alohida boblar ham bag`ishlanadi. Lekin olim faqat ilm-ma’rifatning ahamiyatini ko`rsatibgina qolmaydi, u bilim va zakovatning amaldagi o`rnini ham yoritadi.

U bilimni buyuk, uquvni ulug` deb ta’riflaydi. Chunki zakovatli inson ulug` bo`ladi, bilimli kishi buyuk bo`ladi, deb ilmi kishilarni asl toifadagi kishilarga

qo`shadi. Olim ezgu ishlarning barchasi ilm tufayli amalga oshirilishi mumkinligini aytadi. O`sha davrda olim “Bilim hatto osmon sari yo`l ochur” deb bashorat ham qiladi. U dunyoda odam paydo bo`libdiki, faqat bilimli kishilargina ezgu ish qilib, adolatli siyosat yurgizib kelgan deb, inson yaratilgandayoq unga bilim, uquv va zakovat berilganligi, ana shu bilim va zakovati tufayli kishilar razolatdan poklanganligini uqtiradi. Hatto hukmdorlar ham yurtini, davlatni aql, ilm, zakovat bilan idora etsa, el-yurt farovon bo`ladi, to`q va tinch hayot kechiradi, deydi. U kuch va qurolni aql va bilimdan keyingi ikkinchi o`ringa qo`yadi.

Yusuf Xos Hojib ilmli, ma`rifatli kishilarni qadrlash kerak, chunki ular mash`al kabi yo`lni yoritib, to`g`ri yo`l ko`rsatadi. Yaxshi-yomonni farq etishni o`rgatadi, deydi. Dunyoda inson bilim va zakovat tufayli orzu-tilaklariga, ulug`likka erishishi mumkinligini aytadi. Lekin shunday bilim va zakovatning qadriga faqat xuddi o`zlariga o`xshagan donolar va zakovatlilar etadi. Johil va telbalar bunday xislatlarga ega emas, deydi. Chunki jamiyatdagi barcha xatolar bilimsizlik, nodonlik, jaholat tufayli sodir bo`lishidan u qayg`uga tushadi, hayotda nodon va johillar ko`payib ketganligidan afsuslanadi. U yurtini idora etuvchi va xalqni boshqaruvchilarni ikki toifaga bo`lib, birinchisi adolatli, siyosatni yurituvchi beklar va ikkinchisi dono olimlar deydi. Chunki siyosatchilar yurtini boshqarsa, olimlar ma`rifiy yo`l-yo`riq ko`rsatadi.

Olim bilimni ziyoga, tengi yo`q javohirga o`xshatib, u insonni yuksaltiradi, jahonning sir-asrorlarini bilib olishga yordam beradi, deydi. Insoniyat nimaga erishgan bo`lsa, bilim tufayli erishganligini ta`kidlaydi. Ammo bu boylikni hech kim o`g`irlay olmaydi deb, bilim va zakovatni muqaddas do`st, mehribon qarindosh, kiyim va ozuqa sifatida ta`riflaydi. Chunonchi Yusuf Xos Hojib ilm-fanni egallashni targ`ib etibgina qolmaydi, uni hayotga tatbiq etish va amalda qo`llay bilishga ham da`vat etadi.

Yusuf Xos Hojib insonga “xizmat etmagan ilmni dengiz tubidan foydalanilmay yotgan injuga o`xshatadi. Shuningdek, yer ostida yotgan oltinni ham qazib olinsa, beklar boshiga toj bo`lganidek, ilmni ham foydali narsalarga sarf etishga da`vat etadi”. Inson bilimsiz, nodon, johil bo`lsa, yaramas ishlar qilishi mumkinligini aytib, aksincha bilimli, dono, zukko bo`lsa ezgu ishlarni ro`yobga chiqarishni ta`riflash bilan kishilarni tinmay ilm olishga undaydi.

Yusuf Xos Hojib insonga bilim nechog`lik zarur bo`lsa, kasb-hunar egallash ham shunchalik muhimligini asarda alohida ta`kidlaydi. SHunga ko`ra u asarda turli toifali kishilar borasida fikr yuritir ekan, hunarmandlar haqida ham iliq fikrlarni bayon etadi. Yusuf Xos Hojibning o`sha davrda kosib-hunarmandlarning naqadar xayrixohligini ta`kidlash o`z-o`zidan emasdi. Chunonchi davlatning tinchoqchilikligi, chet davlatlardagi mavqei, davlatning boyligi va xalqning farovonligi ana shu toifadagi kishilarga bog`liq edi. Zero, kasb-hunar egallash jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, moddiy va madaniy taraqqiyotining o`lchovi birligi sanalardi.

Yusuf Xos Hojib jamiyatda taraqqiyoti va xalq farovonligida muhim o`ringa ega bo`lgan dehqonlar chorvadorlar savdogarlar, tabiblar, olimlar haqida ham muhim fikrlar bayon etadi va har birining jamiyatga o`rnini ko`rsatib beradi. Chunonchi, dehqonlar va chorvadorlar ham ijtimoiy, iqtisodiy hayotda tutgan o`rnini yuqori baholadi va ular eng halol, sharaflil, muqaddas ekanligini ta`riflaydi. Ko`rinib

turibdiki, olim jamiyatning rivojlanishiga hissa qo'shgan har bir kasb-hunar egasini ulug'laydi va ularni qadrlash zarurligini ta'kidlaydi.

Yusuf Xos Hojib insonni kamolga etkazishning yana bir va eng muhim tomoni uni axloqiy kamol toptirish deb qaraydi. Bu axloqiy xulq-odob tamoyillari, talab va vazifalar butun asar davomida qahramonlarning o'zaro munozaralari asosida ifodalanadi. Unda Elig (xon), uning xizmatidagi barcha tabaqa va toifa vakillari, ijtimoiy guruhlarining o'zaro munosabati, axloqiy, muomalasi talablari bayon etiladi. Turli kasb egalariga xos xislatlar, odatlar yoritiladi.

U inson hayoti qilgan ishi bilan yo yaxshi nom qoldiradi, yoki yomon nom oladi, - deydi. Asarda olim barcha ezgulikning boshi til deb qaraydi. Asarning birinchi bobi til odobi, uning foyda va zararlariga bag'ishlanadi. Til insonning qadr-qimmatini oshiradi yoki shu til orqali inson yuz tuban ham ketishi mumkinligini ta'kidlaydi. Kishi ikki narsa bilan hayotda mangu qoladi: biri xushxulqlik bo'lsa, ikkinchisi yaxshi so'zdir. Uning til va so'z haqida aytgan fikrlarining har biri hikmatli so'zga aylanib ketgan. Kumush va oltin tugaydi, ammo so'z muomalaga kiritilsa, oltin va kumush qozoniladi, oz so'zlash, lekin ko'p tinglash kerak. Hech kim ko'p so'zlab olim yoki dono bo'lmagan, qizil til qora boshning yovi, avval o'ylab keyin so'zlash kerak kabi fikrlarni u o'z asarida keltirib o'tadi.

Insoniy munosabatlarning eng oliy mezoni sanalgan hurmat va ehtiromni tarkib toptirishning barcha ko'rinishlari asarda o'z ifodasini topgan. Yusuf Xos Hojib jamiyat taqdirini hal etuvchi eng ulug' mansabdorlardan tortib, oila a'zolarigacha bir-biriga bo'lgan muomala munosabat masalalarini ham hayotiy masalalar vositasida yoritadi. Katta yoshdagilarning kichiklarga, kichiklarning ulug'larga, amaldor va mansabdorlarning o'z xizmatchilariga, xizmatchilarning o'z xo'jalariga, turli ijtimoiy guruh a'zolarini bir-birlariga, oilada oila a'zolarining bir-birlariga muomala madaniyatining eng oddiy ko'rinishlarigacha tasvirlab, kishining ko'z oldida yaqqol namoyon etadi. Buni biz farzand tarbiyasiga, uning tug'ilganidan boshlab, xulq-odob qoidalarini bilim va hunarni o'rgatish, buning uchun pok va bilimli muallim – murabbiy tanlash, farzandlarning hatti-harakatini doimo nazoratda saqlash, kabi masalalarning bayon etilishidan ham bilsak bo'ladi.

Olim ulug' va kichiklar o'rtasidagi xulq-odob qoidalari haqida gapirar ekan, shu asnoda kamtarlik, salomlashish odobi, talablari va qoidalarini ham tavsiya etadi.

Ayniqsa, Yusuf Xos Hojibning amaldorlar axloqi haqidagi o'g'itlari diqqatga sazovor va uning bu fikrlari hozirgi davrda ham qimmatli sanaladi. Olimning beklar, hojiblar, vazirlar, saroyboshilar, elchilar, lashkarboshilar, devon boshilar, xazinadorlar, sarkotiblar kabi ko'plab amaldorlarning xatti-harakatlari, ish yuritishlari, xulq-odob haqidagi amaliy o'g'itlari va yo'l-yo'riqlari har bir amaldor uchun dastur sanaladi. Masalan, har bir amaldorning o'z ishini ustasi, ilm-fanni egallagan, uning turli sohalar borasida fikr yurita oladigan, so'zga chechan, zehnli, fahm-farosatli, himmati baland, ko'zi to'q, ochiq qo'l, saxiy, tadbirli, zukko, jiddiy, qanoatli, jasur, sog'lom, samimiy, sadoqatli, o'zi so'zi ustidan chiqadigan, andishali, she'r bahsida ishtirok etib, o'zi ham she'rlar to'qiy oladigan, turli tillarni biladigan va o'zi shu tillarda gaplasha oladigan, turli yozuvlarni biladigan va yoza oladigan, nard, shatranj, chavgon o'yinlarda o'ynay oladigan, merganlik kabi xislatlarga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, har bir insonning kamolga etishida to'sqinlik

qiladigan yomon illatlar, nuqson va kamchiliklardan birinchi navbatda el-yurt xizmatida bo'lgan amaldorlar ham holi bo'lishi lozimligi uqtiriladi: ishratparastlikka berilish, kek, gina, adovat, nizo, xusumat, fisqu-fasod, maishiy buzuqlik, mayparastlik, kayfu safoga berilish, mutakabbirlik, xiyonat, davlat ketidan quvish, manfaatparastlik, xudbinlik, boshqalarning haq-huquqlarini toptash, ta'magirlik, haqorat kabilar shunday illatlar ediki, buning natijasida davlatning rivojiga putur etkazib, jamiyatni ma'naviy qashshoqlikka olib boradi, deb bunday yomon illatlardan tiyilishni maslahat beradi.

Yusuf Xos Hojib oilaviy maishiy turmush muammolariga ham katta e'tibor beradi. U kishilarni uylanib, oila qurishdan boshlab, farzandni tarbiyalash, oilaning moddiy ta'minotini yuritishgacha bo'lgan eng zarur vazifalarini birma-bir bayon etadi. Shuningdek, yigitlik va keksalik fasllari haqida ham fikr yuritib, yigitlikni ehtiyot qilish, yigitlik davrida qarilikning g'amini eyish kabi eng zarur narsalar haqida ham tavsiyalar beradi. U insonning haqiqiy kamolga etishida aqliy va axloqiy tomondangina emas, jismoniy tomondan ham sog'lom bo'lishi kerakligiga katta e'tibor beradi.

Shuningdek, olim insonning turli marosimlar, yig'inlar, uchrashuvlar, ziyofatlarda o'zini tutishi, xulq-odob qoidalariga rioya etishi haqida ham fikr yuritib, insonning mezbonlik va mehmonlik qoidalari, shartlari va tartib intizomlari haqida ham muhim o'gitlar beradi. Masalan, "Qutadg'u bilig"dagi elchilar (diplomatlar) huzurida, shohlar saroyida, to'y va azalarda qilinadigan mehmondorchiliklarda kishi o'zini qanday tutishi, hatti-harakati, odobi masalalari hozirgi davrda ham o'ta dolzarbdir.

Yusuf Xos Hojibning o'zi kishilarga munosabatida o'rtamiyona yo'l tutishni tavsiya qiladi. Shunda do'st dushmanga aylanmaydi, ezgu ishlar amalga osha boradi, deb ta'lim beradi. "Qutadg'u bilig"da yana jumboqlarni echish uslubidan ham foydalanilgan. Bu uslub o'quvchini asarga nisbatan qiziqishini oshiradi, uni o'qishga undaydi. Hozirgi davrda bu muammoli ta'lim deb yuritiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, asar insonni baxt-saodatga yo'llovchi barcha ezguliklarning yo'llari, usullari va uslublarini bayon qilishi bilan birga ta'lim-tarbiya tarixida birinchi yirik darslik sifatida o'z o'rniga ega.

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Xos Hojibning biz tahlil etgan mazkur asari insonni har tomonlama kamolga etkazishning barcha masalalari o'zining badiiy ifodasini topgan yirik ta'limiy-axloqiy dostonidir. Olim insonni kamolga etishi uchun quyidagilarni nazarda tutadi:

- Aqliy kamolot-bilim va zakovat, uquvga ega bo'lish.
- Axloqiy kamolot.
- Jismoniy kamolot.

Umuman olganda, Yusuf Xos Hojib insonning kamolga etishining yo'l-yo'riqlari, usullari, chora-tadbirlarini yuksak badiiy mahorat bilan yoritib beradi. Bu usul yo'l-yo'riqlar, fuqarodan tortib, yurt boshlig'i Eliggacha zarur bo'lgan, hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Shuning uchun ham bu asar o'zining ilmiy, ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyati bilan beqiyosdir.

Qisqa xulosa

Ushbu mavzuda Sharq uygʻonish davri haqida maʼlumot beriladi. Ilm-fan rivojiga, maʼnaviy hayotni yaxshilanishiga olib kelish uchun xizmat qilgan olimlar ijodiyoti haqida maʼruzada toʻliq maʼlumotlar berilgan. Bundan tashkari Al-Xorazmiyning ilmiy faoliyati, Ibn Sino asarlarida taʼlim-tarbiya masalalari va ularning tarbiyaviy ahamiyati aniq koʻrsatib berilgan.

Ushbu mavzuda Yusuf xos Hojibning hayotiy faoliyati, uning mashhur «Kutadgʻu bilig» asarining yaratilish tarixi haqida maʼlumot beriladi. Yusuf Xos Hojibning «Kutadgʻu bilig» asari oʻzbek xalq pedagogikasi tarixida taʼlimiy-axloqiy usulda yozilgan barcha asarlarning tamal toshi boʻlib xizmat qiladigan bu boʻyicha toʻliq maʼlumotlar berilgan.

Oʻz-oʻzini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Milliy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
2. Abu Ali Ibn Sinoning oʻzbek xalq pedagogikasiga qoʻshgan hissasi hakida nimalarni bilasiz?
3. Abu Rayhon Beruniyning yozgan asarlari haqida gapiring.
4. Yusuf Xos Hojibning hayoti va faoliyati haqida maʼlumot bering.
5. «Kutadgʻu bilig»ning yaratilish tarixi haqida gapiring.
6. «Kutadgʻu bilig» asarida yetuk insonni kamolga yetkazish masalalari.
7. «Kutadgʻu bilig» asari yaratilgan tarixiy muhit haqida gapiring.
8. Asarning tuzilishi va syujeti qanday ifodalangan?
9. Asarda adolatli podsho timsoli qanday tasvirlangan?
10. Asarda ota va oʻgʻil munosabatlarini tasvirlanishini gapirib bering.

6 - mavzu. XIV – XV – asrlarda Temur va temuriylar davrida ijtimoiy hayot, madaniyat, taʼlim-tarbiya

Reja.

- 6.1. Oʻzbek milliy taʼlim-tarbiyasi anʼanalari tarixidan.
- 6.2. Amir Temurning taʼlim-tarbiyaga qoʻshgan hissasi.
- 6.3. Mirzo Ulugʻbekning ilm-maʼrifat sohasidagi xizmatlari.
- 6.4. Alisher Navoiy asarlarining tarbiyaviy ahamiyati.

6.1. Oʻzbek milliy taʼlim-tarbiyasi anʼanalari tarixidan

Bugungi kunda jismonan va maʼnan barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi islohotlarimiz jamiyatning boshqa sohalari bilan ham chambarchas bogʻliq holda tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Oliy oʻquv yurtlarida talaba-yoshlarni maʼnaviy shakllantirish jarayonida ularda ijtimoiy jamiyat taraqqiyotining asosiy yoʻnalishi hamda gʻoyasi xususidagi bilimlar haqida muayyan tasavvurni hosil qilish, maʼnaviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, milliy istiqlol gʻoyasiga sodiqlik tuygʻusini qaror toptirish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini taʼminlash ishiga munosib hissa qoʻshishga yoʻnaltirilgan faoliyatni tashkil etish borasidagi koʻnikma va malakalarni shakllantirish, pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

Zero, pedagogik ta'limning asosiy vazifasi har tomonlama rivojlangan, yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Fan va madaniyat rivojlanishi ta'lim-tarbiya ishlarining qay darajada olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. Shunday ekan, O'zbekiston mustaqillikka erishganiga endigina 28 yil bo'lishiga qaramay, ta'lim-tarbiya masalalariga alohida o'rin ajratilgan. Mana shu yillar davomida ta'lim-tarbiya sohasida milliy axloq-odobni qayta tiklash borasida milliy urf-odatlar, turli-tuman an'analarni joy-joyiga qo'yish, milliy qadriyatlarni rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burilishlar bo'lmoqda.

O'zbekistonda pedagogik tafakkur va ta'lim-tarbiya taraqqiyoti tarixiga nazar tashlab, uni shartli ravishda uch davrga bo'lib o'rganish mumkin.

1. Oktyabr to'ntarishigacha bo'lgan davr (1917-yilgacha)
2. Sho'rolar tuzumi davri (1917-1991yy.)
3. Mustaqillik davri (1991-yildan keyin)

1-davrda Zardushtiylik dinining chuqur ildiz otishi va shu dinning muqaddas kitobi «Avesto» ning Markaziy Osiyo va Eron kabi mamlakatlar o'rtasida yoyilishi, islom dinini Markaziy Osiyoga kirib kelishi, tarqalishi va aholini bu dinni qabul qilishi bilan boshlanadi. Biror dinga nisbatan e'tiqodni keng xalq ommasiga majburan singdirish qiyin. Targ'ib qilinayotgan din xalq ruhiga mos tushsa, uning o'tmishdagi e'tiqodi, qadriyati va odob-axloq, tarbiya an'alariga mos bo'lsagina qabul qilinishi mumkin. Bu fikrimiz islom dinining Avestoda o'z ifodasini topgan g'oyalariga yaqinligi, har tomonlama mukammalligi xalqparvarligi, insonparvarligi bilan izohlanadi.

2-Sho'rolar tuzumi davri.

3-O'zbekiston Mustaqillikka erishgandan so'nggi davrda fan, madaniyat, ta'lim-tarbiya.

6.2.Amir Temurning ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissasi



Markazlashgan, buyuk davlatga asos solgan Amir Temur Kurogon ibn amir Tarag'ay 1336-yilning 9-aprelida o'sha paytdagi Kesh (Shahrisabz)ga qarashli Xo'jailg'or qishlog'ida tavallud topdi. Otasi amir Tarag'ay o'ziga to'q, badavlat kishi edi. Onasi Tegina begim asli Buxorolik bo'lgan.

Amir Temur (1336 - 1405)

Biz tarixdan bilamizki, Amir Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnahr tarixida alohida o`rin egallaydi. Chunki bu davrda Samarqand, Hirot shaharlarida madaniyat, ilm-fan, hunarmandchilik rivojlangan.

Sohibqiron (Bu unvon bo`lg`usi jahongirga u tug`ilmasdan turib oq din ahllari tomonidan bashorat tariqasida berilgan. «Sohibqiron» atamasining lug`aviy ma`nosi «yulduz burjlarining baxtli kelishi (Kuron)da tug`ilgan farzand demakdir. «Temurnoma» muallifining ta`kidlashicha, «kuron» ya`ni yulduz burjlarining baxtli kelishi har sakkiz yuz yilda bir marta sodir bo`ladi. Insoniyat tarixida «Avval Iskandar Zulqarnay hazratlari, ikkinchi Muhammad Rasul akrom sallollohu alayhi vassallom saidimiz, uchinchi Amir Temur xonimiz» shu soniyada dunyoga kelganlar). Amir Temurning yoshligi Keshda kechdi. Yetti yoshga to`lgach, otasi uni o`qishga berdi. Amir Temur yoshlik chog`idanoq maxsus murabbiylar nazorati ostida chavondozlik, ovchilik, kamondan nishonga o`q uzish kabi mashg`ulotlarni puxta egalladi.

Amir Temur odob-axloq, iymon, e`tiqod, ta`lim-tarbiya sohasida o`zi yuksaklikka, mutafakkirlikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun bobomizning o`zi tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid dasturlarini, o`gitlar, pand-nasihatlarini, shuningdek, Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko`zdan kechirish kifoya. «Tuzuki Temuriy» («Temur tuzuklari»), «Marfuzaota Temuriy» («Temurning aytganlari») va «Vakioti Temuriy» («Temurning boshidan kechirganlari») nomi bilan jahonga mashhur bo`lgan asarlarida Amir Temurning ibratli, hayotiy pand-nasihatlari va purma`no o`gitlarining har biri mazmun va ma`no kengligi, kuchliligi, teranligi, ta`siri, umuminsoniy qadriyatlar asosida qurilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asarlarni qadrlı xazina odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz.

Bu asarlar Sohıbqironning juda mashaqqatli va sertashvish: goh muvaffaqiyatli, goho quvonchli, goho sertashvish umrining ijodiy mevasidir. Asarlardagi barcha o`gitlar xalqlarni bir maqsad sari birlashtirgan, jipslashtirgan, muvaffaqiyatlarga erishtirgan, sehrli tarbiyaviy kuchga ega bo`lgan durdona-pedagogikadir. Bu pedagogika buyuk Sohıbqironning davlatni boshqarish va uni idora qilish, g`olibona harbiy yurishlar qilish, mamlakatda osoyishtalik o`rnatish, fan va madaniyatni rivojlantirish, xalqlar o`rtasidagi buzilmas do`stlik, mehr-shafqat, odamiylik va axloq-odobni tarbiyalash kabi muammolarni hal qilishga bag`ishlangandir.

O`zbekiston mustaqillikka erishgach, «Amir Temur» nomi yodlashtirildi. Ko`plab shaharlar va qishloqlardagi shoh ko`chalar, maydonlar, o`quv muassasalari uni nomi bilan atala boshlandi. O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov tashabbusi va rahnomaligida Toshkent, Samarqand, Shahrisabz kabi shaharlarning markaziy maydonlarida Amir Temurning haykallari o`rnatildi. Toshkent shahridagi Amir Temur xiyobonida 1996-yilda «Temuriylar davri» muzeyi barpo etildi, 1996-yilda «Amir Temur» ordeni ta`sis etildi. («Amir Temur» ordeni - O`zbekiston Respublikasining davlat mukofotlaridan biri hisoblanadi. Bu orden bilan davlatchilikni mustahkamlashdagi ulkan xizmatlari, me`morchilikni, ilm-fan, adabiyot va san`atni, harbiy mahoratni rivojlantirishga qo`shgan ulkan hissaları uchun O`zbekiston Respublikasi fuqarolari mukofotlanadilar. Ushbu orden bilan

davlatlararo hamkorlikni, tinchlikni, hamda xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga alohida hissa qo'shganlik uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslar ham mukofotlanishi mumkin. Ushbu orden 1996-yil 26-aprelda ta'sis etildi. Orden tilla qoplangan 925 darajali kumush qotishmadan tayyorlanib, 8 qirrali yulduz ko'rinishida bo'lib, Amir Temurning ulug'vor qiyofasi kumush rangda tasvirlangan. Muallifi-O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov.

1996-yilda Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda YUNESKO rahbarligida hazrat Sohibqiron tavalludining 660 yilligi keng nishonlandi).

6.3.Mirzo Ulug'bekning ilm-ma'rifat sohasidagi xizmatlari



Mirzo Ulug'bek Markaziy Osiyo xalqlari ilm – fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqqan, Markaziy Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ulug' siymolardan biridir.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek (1394 - 1449)

Mirzo Ulug'bek Amir Temurning uchinchi o'g'li bo'lib, Xuroson hukmdori, ma'rifatli, ilmga qiziqqan shohlardan edi.

Mirzo Ulug'bek, avvalo yosh avlodning aqliy va ma'rifiy tarbiyasiga katta ahamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarni egallashga da'vat etadi, faqat rivojlangan fan va madaniyat inson tafakkurining kamol topishini ta'minlashiga ishonadi. Olimning fikricha, yoshlar olgan bilimlarni axamiyatini, bu bilimlardan maqsad nima ekanini aniq anglab, bilimlarini takomillashtirib borishlari, ularni hayotga tatbiq etish yo'llarini bilishlari, jamiyat va xalq farovonligi yo'lida zarur kasb-hunarlarni egallab olishlari lozim. Shu bois Ulug'bek bilimlarni nafaqat kitoblardan, balki bevosita hayotning o'zidan ham olishlari lozim deb aytgan.

Ulug'bekning fikricha, bolaning bilim olishiga bo'lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o'rinni egallaydi. Oilada ota-onalar, ayniqsa, o'qimishli ota-onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishlari lozim.


Ulug'bek o'z pedagogik qarashlarida bolalarning jismonan sog'lom, harbiy hunarni puxta egallagan, jasur, mard bo'lib etishuviga alohida ahamiyat bergan. Ulug'bekning fikricha, odam sog'lom va baquvvat bo'lishi uchun yoshlik chog'idanoq jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishi, ta'lim-tarbiyada poraxo'rlik, qalloblik bo'lmasligi uchun mudarrislar odil va halol bo'lishi kerak deb ta'kidlaydi.

Mirzo Ulug'bek Markaziy Osiyoda pedagogik fikr va ma'rifat taraqqiyotida o'ziga xos salmoqli o'rinni egalladi, umuminsoniyat tamonidan kashf etilgan

ilmlardan baxramand bo'lib, jahon faniga mislsiz hissa qo'shdi. Uning ilmlarni o'rganish yo'llari haqidagi ta'limoti, shaxsiy namuna bo'lish usullari pedagogik ta'limda g'oyatda muhimdir. Ulug'bek olg'a surgan ta'lim – tarbiyaviy fikr va g'oyalar o'z mohiyati bilan hozirgi davr pedagogika tarixi taraqqiyotiga ham xizmat qiladi.

Mirzo Ulug'bekning katta xizmati yana shundaki, u bevosita ilmiy pedagogik qarashlari bilan ham odamlarni ilmi va ma'rifatli bo'lishga da'vat etadi. O'zining falsafa tarixi, astronomiya, matematika, geografiya, adabiyot fanlariga oid ko'p jildlik asarlarida o'z davri uchun muhim bo'lgan ilg'or pedagogik fikrlarni ilgari surdi, odamlarni o'zaro do'st va birodar, mehnatsevar va insonparvar, tinchliksevar va adolatparvar bo'lishga targ'ib etdi.

6.4. Alisher Navoiy asarlarining tarbiyaviy ahamiyati



O'zbek adabiyotining asoschisi, shoir, olim, ma'rifatparvar, faylasuf, musiqashunos davlat arbobi Nizomiddin Alisher Navoiy Hirotida tug'ilib, shu yerda yashab, ijod etgan. Alisher Navoiy o'zining asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifoda etgan.

Alisher Navoiy (1441 - 1501)

Alisher Navoiy o'zining «Xamsa», «Mahbub ul-qulub» kabi yirik ta'limiy-axloqiy asarlarida, shuningdek, «Munojot», «Vaqfiya», «Majolisun nafois», «Muhokamat ul-lug'atayn» asarlarida hamda Abdurahmon Jomiyning «Arba'iy» nomli asari tarjimasi «Chixil hadis» («Qirq hadis») kabilarda tarbiyaga oid o'z qarashlarini ifoda etadi. Alisher Navoiy badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ta'limiy-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo'llari, usullarini bayon etadi.

Alisher Navoiy inson tafakkuri, aqli, bilimni va ilmiy bilimlarini yuksak qadrlagan. U «Bilim va donishmandlik insonning bezagidir» deb yozadi. Alisher Navoiy farzand tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, tarbiyalanuvchini «hayot chirog'i» deb ta'riflaydi. Farzand oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyodir. Uning fikricha, shaxsga kichik yoshligidanoq bilim, ma'lumot va tarbiya berishlikni ko'rsatib, o'g'il-qizlarni 6 yoshdan tarbiyachiga, muallimga berish lozim deb hisoblaydi.

Shuningdek, Navoiy hayotda o'z ilmiga amal qilish, o'rganganlarini hayotga tatbiq etish masalasiga alohida e'tibor beradi. Masalan, u «Mahbub ul-qulub» asarida ilm o'qib uni ishlatmagan kishi, shudgor qilib dehqonchilik qilmagan yoki urug' sochib hosildan bahra olmaganga o'xshaydi, deydi.

Alisher Navoiy bilim olishda barcha fanlarni o`rganishni targ`ib etadi. Bunda u olimu fozillarni yig`ib, ular orqali ilm-fanni taraqqiy ettirishga e`tibor beradi.

Alisher Navoiyning fikricha, bilimlarni tinmay uzluksiz o`rganish zarur, bunda har qanday qiyinchiliklarni engib o`tish muhimligini, qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan kurash, uni oxirigacha etkazish, chidam va sabot bilan o`rganishni ta`kidlaydi. Demak, buyuk alloma ilm olish tamoyillarini o`z davrida to`g`ri ifodalab, hatto ta`lim tizimini belgilab beradi: ya`ni Alisher Navoiy ta`lim tizimini o`z davrida o`quv muassasasi, madrasalarda o`qish, olim, hunarmand, san`atkorlarga shogird tushib yoki mustaqil holda ilm olish imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etadi.

Alisher Navoiy yoshlarga chuqur bilim berishda muallimning, mudarrislar, hamda ustoz murabbiylarning o`zlari ham bilimli va tarbiyali bo`lishi zarurligini uqtiradi. U nodon, mutaasib, johil domlarni tanqid qiladi va pedagog ma`lumotli, o`qitish yo`llarini biladigan muallim bo`lishi zarur deydi. Bunday muallimlar shogirdlarni yonida yuzlari yorug` bo`lib, doimo izzatda, hurmatda bo`ladilar, deb ta`kidlaydi.

Shunday qilib, biz Alisher Navoiyni pedagog-mudarris deb atashimiz mumkin. Chunki ta`lim-tarbiya masalalariga alohida e`tibor berib, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko`rsatib o`tadi. U ta`limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib olgan buyuk pedagogdir.

Mana shunday mutafakkirlarning ijodini o`rganish uchun Mustaqillikka erishganimizdan keyin ancha yo`llar ochildi. Endilikda uning ijodini aslicha, mohiyatini tushunib o`rganish imkoniyatlari yuzaga keladi. 1991-yilda Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi, 2001-yilda, 560 yilligi va 2011-yilda 570 yilligi tantanali ravishda nishonlandi. Mamlakatimizda Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti ta`sis etildi. Oliy ta`lim muassasalari talabalari uchun Navoiy stipendiyasi tashkil qilingan. Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi va rahbarligida Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy bog`i barpo etildi va bu bog` o`rtasida shoirning haykali o`rnatildi. Shu bilan birga kitobxonlarga shoirning 20 jildli mukammal asarlar to`plami nashr etila boshlandi. Har yili Alisher Navoiy tug`ilgan kun 9-fevralda ilmiy-an`anaviy konferensiya o`tkazilib, Alisher Navoiy merosini o`rganish sohasida qilingan yillik ishlarga yakun yasaladi.

Qisqa xulosa

Ushbu mavzuda o`zbek xalqining o`ziga xos bo`lgan ma`naviy boyliklari, Temur va temuriylar davrida yashab, ijod etgan mutafakkirlar Mirzo Ulug`bek, Alisher Navoiylarning pedagogikaga, ta`lim-tarbiyaga qo`shgan ulkan hissalarini, Sohibqiron Amir Temurning juda mashaqqatli va sertashvish: goho muvaffaqiyatli, goho quvonchli, goho sertashvish umrining ijodiy mevasi aks etgan asarlari, bu asarlardagi barcha o`gitlar xalqlarni bir maqsad sari birlashtirgan, jipslashtirgan, muvaffaqiyatlarga erishtirgan, sehrli tarbiyaviy kuchga ega bo`lgan durdona-pedagogika ekanligi, Ulug`bek olg`a surgan ta`lim – tarbiyaviy fikr va g`oyalar o`z mohiyati bilan hozirgi davr pedagogika tarixi taraqqiyotiga ham xizmat

qilayotganligi, Alisher Navoiyning asarlarida ta'lim-tarbiya masalalarining ulug'lanishi haqidagi ma'lumotlar talabalarga tushunarli tarzda bayon etilgan.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. O'zbekistonda pedagogik tafakkur va ta'lim-tarbiya taraqqiyoti necha davrga bo'lib o'rganiladi?
2. A. Temurning ta'lim-tarbiyaga oid o'g'itlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Alisher Navoiyni biz nimaga asoslanib mudarris-pedagog deb atashimiz mumkin?
4. Mustaqillikka erishgandan so'ng, A. Temur va A. Navoiyning nomlarini abadiylashtirish uchun qanday ishlar olib borildi?
5. Navoiy asarlaridagi insoniylik g'oyalarining ifodalanishini pedagogik asoslarini tushuntirib bering?
6. Sharq mutafakkirlari asarlarida iqtisodiy tafakkur tushunchasining yoritilishini tushuntirib bering?
7. Mirzo Ulug'bekning hayoti va ijodiy faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
8. Mirzo Ulug'bekning pedagogikaga qo'shgan hissi nimalardan iborat?

7 - mavzu: Markaziy Osiyoda XIX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy hayot, ta'lim-tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti.

Reja:

- 7.1. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi.
- 7.2. Mahmudxo'ja Behbudiyning ijtimoiy - pedagogik faoliyati.
- 7.3. A. Avloniyning ilmiy - pedagogik faoliyati.
- 7.4. A. Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida komil inson tarbiyasiga oid ilgari surilgan g'oyalar.

7.1. Jadidchilik harakatini vujudga kelishi

Jadidlar, jadidchilik haqida so'nggi yillarda ko'plab maqolalar, ilmiy – tadqiqot ishlari yuzaga keldi, ancha narsalar oydinlashdi. Eng avvalo, “Jadidchilik nima uchun yuzaga keldi? Uning mohiyati nimada?” degan savollar tug'ilishi tabiiy.

Ma'lumki, ijtimoiy hayot tarzining muayyan davrdagi holati jamiyat a'zolarining aksariyatini qoniqtirmay qoldi. Natijada, ular ijtimoiy tuzumni o'zgartirish yoki uni turg'un, qotib qolgan holatdan chiqarish uchun yo inqilob qilish, yo isloh qilish harakatiga tushadilar. Jadidlarning yuzaga kelishi ham muayyan ijtimoiy voqelikdan qoniqmaslik oqibatida sodir bo'lgandi. Arab tilidagi “yangi” ma'nosini anglatuvchi “jadid” so'zi ularning ijtimoiy atamasiga aylandi. Shu tariqa Misr, Turkiya, Kavkaz, Turkiston va boshqa o'lkalarda jadidlar ona Vatanlarini mustaqil, ozod holda ko'rishni o'zlarining bosh maqsadlari deb bildilar.

Turkiston jadidlari ozodlikni osonlik bilan qo'lga kiritish olmasliklarini, ibtidoiy qurollar bilan Rossiya saltanati changalidan qutilishlari mumkin emasligini yaxshi tushunganlar. Shu bois ular milliy istibdodga tushib qolishining sabablarini tahlil etib, bularning tub ildizini yo'q qilib tashlash lozimligini anglab etadilar. Natijada, jadidlarning xalqqa hamma narsadan burun ma'rifat berish lozim, degan g'oyasi yuzaga keladi. Shundagini xalq o'z ahvoliga razm solishi, qulligini anglashi,

milliy ongi uygʻonishi mumkin edi. Ana shundan keyingina izchillik bilan milliy – ozodlik sari kurash olib borsa boʻlardi.

Jadidlar maʼrifati haqida gap ketganda, dastavval Qrimlik Ismoil Gaspirinskiyni (1852–1914) tilga olish kerak. U Rossiya musulmonlari orasida birinchi boʻlib “maktabi usuli jadidi”, yaʼni “yangi usul maktabi”ga asos soldi. Gaspirinskiyning taʼsiri Turkistonga ham yoyila boshladi. Jadidlar ham, eng avvalo, oʻqitishning eski usuli yaramasligini, yoshlarga zamonaviy ilmlarni oʻrgatish zarurligini tushunishlari bilan birga oʻquv dasturida ona tilidagi darslar nisbatini oshirish ularda vatanparvarlik, xalqparvarlik tuygʻularini tarbiyalaydi, oxir – oqibatda esa bu yoshlarda milliy – ozodlik kurashi uchun zamin hozirlaydi, degan xulosaga keladilar. Ana shu harakat zahirida jadidlarning pedagogik qarashlari ham shakllanib, takomillashib bordi. Muhimi ularning pedagogik qarashlari ijtimoiy hayotning talabi, ehtiyoji orqasida tugʻildi.

Bu maʼrifatparvar – pedagoglar keng omma oʻrtasida ilm – maʼrifat, madaniyat tarqatish uchun qizgʻin kurash olib boradilar, oʻz davrining ilgʻor, peshqadam pedagoglari sifatida xalqqa, jamiyatga tanildilar. Ular tatar, ozarbayjon, rus va boshqa xalqlar pedagoglari bilan aloqada boʻlib, maktabda oʻquvchilarga yangi usulda ona tilini oʻqitish bilan birga, geografiya, tarix kabi gumanitar va aniq fanlarni oʻqitadilar, taʼlim-tarbiyaga oid darsliklar va qoʻllanmalarni yozib, nashr ettiradilar.

7.2.Munavvar qori Abdurashidxon oʻgʻli va Mahmudxoʻja Behbudiyning ijtimoiy-pedagogik faoliyati

Jonkuyar pedagoglardan biri Munavvar qori Abdurashidxon oʻgʻli yigirmanchi asrning birinchi choragida faqat Turkistondagina emas, Rusiya musulmon ziyolilari orasida ham mashhur edi. Jamoatchilik uni yangi usul maktablari asoschisi, mohir muallim, darslik va oʻquv kitoblari muallifi, noshir va jamoat arbobi sifatida hurmat ila tilga olib, Qori aka deb eʼzozlar edi.

Munavvar qori 1901-1904-yillarda qrimlik doʻsti Rasm Keshod yordamida Toshkentda “usuli savtiya” maktabini ochadi. U maktabni avval oʻz hovlisida, keyin boshqa joylarda ochishga harakat qiladi. U maktabni isloh qilmay turib, odamlarning ongida oʻzgarish yasab boʻlmashligini yaxshi tushunib etgan edi.

Munavvar qori ziyoli yoshlarni chet elga yuborishni, u erda ilm-fanni oʻrganishni targʻib qiladi. U 1917-yilda inqilobdan keyin yangi oʻrta maxsus va oliy taʼlim asoschilaridan, Toshkent dorilfununining poydevorini qurganlardan biridir. Uning homiyligida bir nechta yoshlar Germaniyaga oʻqishga yuboriladi.

Munavvar qori fors, arab, rus, turk tillarini mukammal bilgan u koʻp ulugʻ adiblarning asarini mutolaa qilgan. Munavvar qori oʻlkaning qoloqligi sababini axtara ekan: “Bizning Turkiston mamlakati tuproq, suv va havo jihatidan eng boy mamlakatlardan boʻla turib, suv va havo jihatidan eng boy mamlakatlardan boʻla turib, na uchun oʻzimiz bundan foydalana olmaymiz?” deb afsus – nadomatlar qiladi.

U Toshkentda “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Surʼat”, “Osiyo”, “Haqiqat”, roʻznomalarini nashr etib, ularda mustamlakachilik, xalq erki haqidagi fikrlarini bayon etdi. 1908-yilda “Sabzavor”, “Yer yuzi”, “Tavjid” kitoblari nashr etildi.

Munavvar qori Toshkentda birinchilardan boʻlib, usuli jadid – yangi usul maktabini ochdi va uning uchun 1907-yilda “Adibi avval” alifbe va “Adibiy soniy”

o`qish kitoblarini nashr ettirdi. O`z xalqini, vatanini jonu dilidan sevgan Munavvar qori Abdurashidxon o`g`li shaxsga sig`inishning dastlabki qurbonlaridan biri bo`ldi. U avval Toshkentda, so`ng Moskvada tergov qililib, otib o`ldirishga hukm etiladi.

Mahmuxo`ja Behbudiy XX asr bo`sag`asidagi Turkistonning orzu – armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o`z davrining ijtimoiy– siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyondasi, yangi zamon o`zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidchilarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g`oyasining yalovbardori, yangi maktab g`oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o`zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi.

Sharq xalqlarining ma`naviy hayotida, maktab-maorifida chinakam to`ntarish yasagan, turkiy qavmlarning chinakam iftixori bo`lgan Ismoilbek G`aspirali tomonidan ishlab chiqilgan “usuli jadid”ida nomi tarixda katta o`rin tutgani singari, Behbudiyning nomi ham Turkiston maktab-maorifida katta o`rin egallaydi. U birinchi bo`lib o`lkada bu yangicha usuldagi maktablarni tashkil etishni targ`ibotchilaridan hamda amaliyotchilaridan biri hisoblanadi.

Behbudiy “usuli jadid” maktabining zarurligi, uning qonun-qoidolari, maktabda o`tiladigan darslar, qanday imtihonlar olinishi, maktabning qay tarzda tuzilish, unga qanday asbob-uskunalar kerakligi, muallimlarning vazifalari, ularningta`minot masalalari va boshqa ko`p jihatlarini G`aspiralidan va uning asarlari hamda maqolalaridan o`rgandi. Shular asosida Turkistonda “usuli jadid”maktablarini tashkil etish uchun bor kuchini sarfladi. U Samarqandning eski shahar qismida bepul kutubxona, qiroatxona, o`z hovlisida maktab ochdi. Mashhur pedagog Abdulqodir Shakuriyning yangi usuldagi maktabini o`z hovlisiga ko`chirib keldi.

Behbudiy 1899 – 1900-yillarda haj safariga chiqadi. Safar unda yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbusi bilan 1903-yilda Samarqandda Xalvoyi (Siddiqiy), Rajabamin (Shakuriy) qishloqlarida tashkil qilingan maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi; “Risolai asbobi savod” (1904), “Risolai jug`rofiyai umroniy” (1905), “Risolai jug`rofiyai Russiy”(1905), “Kitobatul atfol” (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kitoblarini yozadi.

Behbudiy Turkistonning kelajagini uning yangi kadrlarida, mutaxassislarida va o`qimishli yoshlarida, deb bilardi. SHuning uchun ham u yozgan maqolalarida yangi taraqqiyotga javob beradigan kadr tarbiyalab etishtirish masalasini qo`yardi.

1903 – 1904-yillarda Moskva, Peterburgda, 1907-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda, Misr va Turkiyada bo`ladi. U yerlarda ta`lim-tarbiya sohasida erishilgan yutuqlarni Turkistonda tashviq etadi.

Behbudiyning jahon xalqlari o`rtasida do`stona aloqa o`rnatish, millatlarning o`zaro samimiy munosabatlarini rivojlantirish borasidagi ta`limoti – o`zbek pedagogikasi, xalq ta`limi tarixiga qo`shilgan salmoqli hissadir. U mazkur ta`limotni oldinga surish bilan cheklanmasdan, o`zining amaliy faoliyatida, turmushga tatbiq eta boshlagan.

7.3. Abdulla Avloniyning ilmiy – pedagogik faoliyati

Taniqli o'zbek pedagogi va olimi Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida, mayda hunarmand-to'quvchi oilasida dunyoga keldi. Ota-onasi savodli kishilar bo'lganlar. Abdulla Avloniy eski usul maktabini tamomlagandan so'ng, 12 yoshida madrasaga o'qishga kirdi. U yozda ishlab o'tonasiga yordam qilar, boshqa vaqtlarda o'qir edi. O'ta iqtidorli bo'lgan Abdulla Avloniy 15 yoshida she'rlar yoza boshladi. Dastlabki she'rlari "Tarjimon" gazetasida bosiladi. U o'zining dastlabki she'rlarida va "Hijron" nomli maqolasida xalqni yangi usul o'quv muassasalarida o'qib- o'rganishga targ'ib qildi. A. Avloniy keyinroq "Sadoyi Turkiston" (1914-1915), "Turon" (1917), "Ishtirokiyun" (1918) gazetalarida, "Kasabachilik harakati" (1921) jurnalida muharrir bo'lib ishlaydi. Shundan so'ng, u o'zbek matbuotining zabardast vakili, o'zbek matbuotining asoschilaridan biri sifatida taniladi.

A. Avloniy xalq orasida ilg'or fikrlarni tarqatishda, ilm va ma'rifatni tashviq qilishda gazeta, jurnallarning roli g'oyat katta ekanligini yaxshi bilar edi. Abdulla Avloniy 1907-yilda "Shuhrat" va "Osiyo" nomli yangi gazetalarni chiqarib unga muharrirlik qiladi, lekin chor amaldorlari tez orada gazetalarni yoptirib qo'yadi. Gazetaning birinchi sonida matbuotning roli, gazetaning vazifasi haqida fikr yuritib, "Matbuot har insonga o'z holini ko'rsatuvchi, ahvol-olamdan xabar beruvchi, qorong'i kunlarni yorituvchi, xalq orasida ilm, ittifoq, himmat g'oyalarini yoyuvchidir", deb aytadi.

XX asr boshlarida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida va pedagogik fikrlarning rivojida Abdulla Avloniy alohida o'rin egalladi, butun faoliyati davrida u o'z xalqiga xizmat qiladigan komil insonni tarbiyalash, uning ma'naviyatini shakllantirishga alohida e'tibor berdi.

Abdulla Avloniy o'zbek xalqining san'ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta'limi ishlarini yo'lga qo'yishda katta xizmatlar qilgan adib, jamoat arbobi va iste'dodli pedagogdir. A. Avloniy o'zbek ziyolilari orasida birinchilardan bo'lib, o'zbek xalq teatrini professional teatrga aylantirish uchun 1913-yilda "Turon" nomli teatr truppasini tashkil qiladi. Biroq bu truppaning professional teatrga aylanishi uchun katta to'siqlar bor edi. Chor hukumatining mustamlakachilik siyosati xalqning ijtimoiy ongining uyg'onishiga yordam ko'rsatuvchi teatrlarning barcha shakllariga qarshi edi. Teatrga ana shunday salbiy munosabat bo'lgan bir paytda Avloniyning teatr truppasini tashkil qilishi va ijtimoiy mazmundagi p'yesalarni sahnalashtirishi uning xalq ma'rifati yo'lidagi zo'r jasorati edi. M. Rahmonov Avloniyning teatrchilik faoliyati haqida quyidagilarni keltiradi: "Avloniy truppa uchun "Advokatlik osonmi?", "Pinak", "Ikki muhabbat", "Portug'oliya inqilobi" kabi dramalarni yozdi, "Qotili Karima", "Uy tarbiyasining bir shakli", "Xiyonatkor oilasi", "Badbaxt kelin" asarlarini tatarcha va ozarbayjonchadan tarjima qiladi", ammo uning bu asarlari nashr qilinmadi.

1916-yili ozarbayjonlik mashhur aktyor Sidqiy Ruhillo Toshkentga kelib, "Turon" trupпасi bilan birga "Layli va Majnun" spektaklini qo'yadi. Avloniy bu spektaklda Qaysning otasi rolini ijro etadi. Truppa a'zolari bilan Avloniy 1914-1916-yillarda Farg'ona vodiysida gastrollarda bo'ladi.

Abdulla Avloniy 1917-yil to'ntarishiga qadar, Turkistonda juda katta ijtimoiy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko'zga ko'ringan namoyondalaridan edi. Avloniy ilg'or ziyoli kishilar bilan hamkorlikda teatr tomoshalari va matbuotdan tushgan mablag'larga dunyoviy ilmlarni o'qitadigan "Usuli jadid", ya'ni yangicha ilg'or usuldagi o'quv muassasalarini ochadi va bu o'quv muassasalarda oddiy xalq bolalarini o'qitdi. U o'z millatlaridan yetuk olimlar, bilimdon mutaxassislar, madaniyat arboblari etishib chiqib, yurtni obod, Vatanni ozod, farovon etishlarini orzu qildi va bu yo'lda fidoyilik ko'rsatdi.

Abdulla Avloniy 1907-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagi o'quv muassasalarni ochdi. O'quv muassasalardagi asbob-jihozlarni o'zgartirdi, o'z qo'li bilan doska va partalar yasadi. O'quv muassasasiga qabul qilingan tarbiyalanuvchilarning asosiy qismini kambag'al kishilarning bolalari bo'lganligi uchun kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftar-qalam bilan ta'minlash maqsadida, do'stlarining ko'magida "Jamiyati hayriya" tashkil etadi va bu jamiyatga o'zi raislik qiladi. "Nashriyot" shirkati tuzib, Xadrada "maktab kutubxonasi" nomli kitob do'konini ochdi. Avloniyning maktabi o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga ko'ra mashg'ulotlarni sinf-dars tizimi asosida o'z ona tilida olib borilishi bilan eski usul maktabidan farq qiladi. U o'z o'quv muassasasida tarbiyalanuvchilarga geografiya, tarix, adabiyot, til, hisob, handasa, hikmat kabi fanlardan muayyan ma'lumotlarni beradi. Abdulla Avloniyning ilk toliblaridan biri, Toshkent davlat universitetida uzoq yillar dars bergan taniqli pedagog, marhum Yusuf Tohiriy Avloniy Mirobodda tashkil qilgan o'quv muassasasi haqidagi xotiralarida shunday deb yozgan edi:

Shaharning qarama-qarshi chekkasida temir yo'l ishchilari istiqomat qiladigan Mirobodda yangi tipdagi o'quv muassasasi ochilganligi haqida eshitib qoldik. Tez orada bu o'quv muassasasining fazilatlari haqida shov-shuvlar, uning muallimi Avloniyning dovrug'i butun shaharga tarqaldi. Hammaning tilida: "Miroboddagi maktab 6 oyda o'qish-yozishni o'rgatarmish", - degan gap yurardi. Bizga juda sirli tuyulgan bu maktabni va uning donishmand muallimini ko'rishga oshiqardik. Nihoyat bir kuni uch-to'rttamiz borishga jazm qildik.

O'quv muassasasi pastakkina, nim qorong'u bo'lib, masjid yo'lagiga joylashgan edi. Xonaning tepasidagi yorug'lik uchun qoldirilgan tuynukdan qish va bahorda qor bilan yomg'ir tushib turardi. Lekin xonada o'quvchilar va domlarning shogirdlari ko'p edi. Xayolimizda domlarning allaqanday bir sirli tomoni bor edi. Bizni qotmagina, kichik jussali, qorachadan kelgan, istarasi issiq, cho'qqi soqol bir kishi kutib oldi. Bu nomi tilga tushgan muallim Avloniy edi. O'qishga kabul qilindik. Ko'p o'tmay ko'z oldimizda yangi bir dunyo ochilganiga to'la ishonch hosil qildik. Bolalarimizning oldi bir necha yildan beri o'quv muassasasiga qatnab yurgan bo'lsalar ham mirobodliklar oldida uyalib qoldik. Ular o'qish-yozishda, hisob masalalarini hal etishda, tabiat hodisalaridan xabarlar bilan hammamizni lol qoldirishdi. Ayni zamonda bizning eski o'quv muassasamiz bo'shab, Miroboddagi Abdulla Avloniy o'quv muassasasi bizdan borgan tarbiyalanuvchilar bilan liq to'ldi. Shu tariqa bu o'quv muassasasi tobora shuhrat topib bordi".

Abdulla Avloniy "Usuli jadid" o'quv maktablari uchun to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" hamda "Birinchi muallim" (1912), "Turkiy guliston

yoxud axloq” (1913), “Ikkinchi muallim” (1915), “Maktab gulistoni”(1917) kabi darslik va o`qish kitoblarini yaratdi. Bu asarlarida hamda publiSistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifni ulug`lab, o`z xalqini ilmi, madaniyatli bo`lishga chaqiradi.

Asrimiz boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida “Birinch muallim” kitobi ham o`ziga xos o`rniga ega; “Birinch muallim” kitobi 1917 yil to`ntarishiga qadar 4 marta nashr etilgan. Avloniy uni yozishda mavjud darsliklarga, birinchi navbatda Saidrasul Aziziyning “Ustoz avval”iga suyanadi (dars berish jarayonida orttirgan tajribalaridan samarali foydalanadi). Avloniyning “Ikkinchi muallim” kitobi “Birinch muallim” kitobining uzviy davomidir. Biz birinchi kitobini, shartli ravishda, alifbe deb, ikkinchi kitobni xrestomatiya deb atasak joiz bo`lar, desak xato bo`lmas.

Kitobdagi berilgan dastlabki ikki hikoya “Saxiylik” va “Baxillik” deb nomlangan. Birinchi hikoyada o`sha davr turmushiga xos bo`lgan voqea tasvirlanadi. Said ismli tarbiyalanuvchining otasi har kuni o`g`liga o`quv muassasasiga ketishi oldidan unga 10 tiyin ovqat puli berardi. Bir kuni Said o`quv muassasasi yo`lida faqir bir kishini uchratadi.

“O`g`lim, ikki kundan beri ochman, taom olib ey desam ustimdagi yirtiq chopondan boshqa hech narsam yo`q”,- deydi u. Said qo`lidagi 10 tiyini beradi va o`sha kunni ovqatlanmasdan o`tkazadi. Otasi o`g`lining olijanobligidan mamnun bo`ladi, “Saxiy Saidim” deb olqishlaydi. Ertasi kuni 20 tiyin berib yuboradi.

“Baxillik” hikoyasida bir badavlat kishi misolida uning baxilligi, xasisligi, ziqnaligi va pastkashligi ko`rsatiladi.

“Bir baxil kishining uyiga bir necha do`stlari mehmon bo`lib keldi. Baxil mehmonlarni ziyofat qilish o`rniga behuda so`zlarni so`zlab o`tirdi. Oradan ko`p vaqt o`tgandan so`ng xizmatchisini chaqirib: “Bor taom pishgan bo`lsa, olib kel” - dedi. SHul vaqt xizmatchi bir toboqda pishgan xo`rozni olib kelgan zamon, baxil xizmatchisiga boqib: “Boshini nima qilding?”-dedi. Xizmatchi:- Afandim! Nima qilur edim, tashladim, - dedi. Baxil:- He nodon, kishi xo`rozni boshini ham tashlarmi? Agar bir kishi tovuqning oyog`ini tashlasa, men borib olur edim. Bosh a`zolarining xo`jasidir. Xo`roz ul bosh ila anday yaxshi qichqirar edi. Marjon kabi toji ham boshida edi. Eng shirin a`zolaridan sanalgan tili, eng ulug` a`zolaridan miyasi, ikki shahlo ko`zi, barchasi boshida edi. Bor, topib kel, biz emasak mehmonlarga edirurmiz , dedi”¹.

7.4. «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida komil inson tarbiyasiga oid ilgari surilgan g`oyalar

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida “Turkiy guliston yoxud axloq” asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikr taraqqiyotini o`rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir.

“Turkiy guliston yoxud axloq” asari axloqiy va ta`limiy - tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlardan qaytaruvchi bir ilm-axloq haqida fikr yuritiladi. Shu jihatdan qaraganda bu asar Yusuf Xos Hojibning

¹ Abdulla Avloniy.” Ikkinchi muallim”, 7- bet

“Qutadg`u bilig”, Nosir Xisravning “Saodatnoma”, Sa’diyning “Guliston” va “Bo`ston”, Jomiyning “Bahoriston”, Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Axmad Donishning “Farzandlarga vasiyat” asarlari shaklidagi o`ziga xos tarbiyaviy asardir.

Abdulla Avloniy pedagog sifatida tarbiyalanuvchi tarbiyasining roli haqida fikr yuritib, “Agar bir kishi yoshligida nafs buzulib, tarbiasiz, axloqsiz bo`lib o`sdimi, allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq, erdan turib yulduzlarga qo`l uzatmak kabitur”,- deydi. Uning fikricha, tarbiyalanuvchilarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va tarbiyalanuvchining atrofidagi kishilar g`oyat katta ahamiyatga ega.

O`zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogikaga “Pedagogiya”, ya`ni tarbiyalanuvchi tarbiyasining fani demakdir, deb ta`rif berdi. Tabiiy, bunday ta`rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi. Abdulla Avloniy tarbiyalanuvchi tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to`rt bo`limga ajratadi:

1. “Tarbiyaning zamoni”.

2. “Badan tarbiyasi”.

3. “Fikr tarbiyasi”.

4. “Axloq tarbiyasi” va bu haqida hamda uning ahamiyati to`g`risida fikr yuritadi.

“Tarbiyaning zamoni” bo`limida tarbiyani yoshlikdan berish zurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta`kidlaydi. “Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” deb uqtiradi, -Avloniy.

Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdur. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo`lishi avlodlar tarbiyasiga ko`p jihatdan bog`liq, deydi adib. Tarbiya zurriyot dunyoga kelgan kunidan boshlanib, umrining oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan; uy, bog`cha, o`quv muassasasi va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan. Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma`noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo`ymaydi. U birinchi navbatda tarbiyalanuvchining sog`ligi haqida g`amxo`rlik qilish lozimligini uqtiradi.

Avloniyning fikricha, sog`lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma`rifatga ega bo`lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. “Badanning salomat va quvvatli bo`lmog`i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o`qumoq, o`qutmoq, o`rganmoq va o`rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir”.

Abdulla Avloniy badan tarbiyasi masalasida tarbiyalanuvchini sog`lom qilib o`stirishda ota-onalarga murojaat qilsa, tarbiyalanuvchini fikr tomondan tarbiyalashda o`qituvchilarning faoliyatiga aloohida e`tibor beradi.

Tarbiyalanuvchilarda fikrlash kobiliyatini o`stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug`ullanishi benihoya zarur va muqaddas bir vazifa hisoblanadi. Binobarin, u muallimlarning “diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur... Negaki fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog`liqdur”<sup>1</sup>. Ayni zamonda adib ta`lim va tarbiya bir-biri bilan uzviy bog`liq ekanligini ham ta`kidlaydi: “Dars ila tarbiya orasida biroz farq bor bo`lsa

¹ Abdulla Avloniy. “Ikkinchi kitob”, 14- bet.

ham, ikkisi bir-biridan ajralmaydurgan, birining vujudi biriga bogʻlangan jon ila tan kabidur” – deydi muallif. Avloniyning fikricha, inson butun borliqning koʻrki va sharafigidir. Inson oʻz goʻzalligi va murakkabligi bilan koinotdagi barcha mahluqotlardan afzaldir. Butun mavjudot insonga xizmat qilishi kerak, chunki inson uning sohibidir. Chunki insonning aqli bor. U shu aql tufayli ilm egallaydi, ilm orqali dunyoni boshqaradi: “Aql, - deydi Avloniy, - insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir, ruh ishlovchi, aql boshqaruvchidir. ...insonni hayvonlardan soʻz va aql ila ayirmishdur. Lekin inson aql va idroki soyasida oʻziga keladigan zarar va zulmlardan saqlanur. Er yuzidagi hayvonlarni asir qilib, boʻynidan boylab, iplarning uchini qoʻllarga bergan insonlarning aqlidur”. Avloniy insonga va uning aqliga ana shunday yuksak baho beradi. “Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari najotidir. Agar aqlingning qoʻli nafsingni jilovini ushlasa, sani yomon yoʻllarga kirmoqdan saqlar. Har narsa koʻp boʻlsa, bahosi arzon boʻlur, ammo aql esa ilm va tajriba soyasida qancha koʻpaysa, shuncha qimmatbaho boʻlur”².

Adibning “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobi maʼrifatparvarlik gʻoyalarini targʻib qiladi. Avloniy kitobda ilm toʻgʻrisida bunday deydi: “Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun gʻoyat oliy muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga oʻz ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi koʻrsatur. Zehnimizni, fikrimizni kilich kabi oʻtkir qilur, ... Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur.... Avloniy ilmni umuman emas, balki uning amaliy va hayotiy foydalarini aytib, “Bizlarni jaholat, qorongʻulikdan qutqarur. Madaniyat insoniyatni maʼrifat dunyosiga chiqarur, yomon feʼllardan, buzuvchi ishlardan kaytarur, yaxshi xulq va odob sohibi qilur... Alhosil butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, gʻayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilm ila bogʻliqdur”¹.

Adibning obrazli ifodasiga koʻra, ilm bamisoli bodomning ichidagi magʻiz. Uni qoʻlga kiritish uchun mehnat qilish, yaʼni chaqib uni poʻchogʻidan ajratib olish kerak. U ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham u, yoshlarni ilm sirlarini bilishga, hodisalar mohiyatini echishga, kitob mutolaa qilishga chaqiradi. Uning fikricha, ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, xalq farovonligi yoʻlida qoʻllanmasa, u oʻqlikdir. Avloniy oʻz ilmini amalda qoʻllay oladigan kishilarga yuksak baho beradi, ularni dono insonlar, deb ataydi.

Abdulla Avloniy oʻtmish mutafakkirlari kabi yoshlarni foydali kasb-hunarlarini egallashga chaqiradi. Adib boylik ketidan quvuvchilarni, ularning odamgarchilikka toʻgʻri kelmaydigan ishlar bilan shugʻullanayotganini koʻrib, ulardan nafratlanadi. Avloniy yoshlarni boylikka ruju qoʻymaslikka undaydi. Boylikni oʻtkinchi bulutga oʻxshatadi. Avloniy mehnatsiz kun kechirishni barcha yomon sifatning ibtidosi, deb hisoblaydi. Shuning uchun ham u mehnatni ulugʻlaydi, mehnat kishining eng goʻzal fazilatidir, deydi. Bu jihatdan uning “Aqli bogʻbon” hikoyasi xarakterlidir.

Hikoyada aytilishicha: “bir bogʻbonning uch oʻgʻli boʻlib, ular dangasa va ishyoqmas boʻlganlar. Odatda ularga meros qoladigan tanga, tillo yoʻq. Ota umri tugayotganini sezib, farzandlari taqdiridan tashvishga tushadi. Oʻylab-oʻylab shunday yoʻl tutadi. Har uchala oʻgʻlini yoniga chorlaydi. Koʻzim ochiq ekan sizlarga

¹Abdulla Avloniy. “Ikkinchi kitob”, 17- bet.

¹ Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq, 1998 . 22-23- betlar.

vasiyatimni aytib ketay. Mehnatu mashaqqat ila bir ko`za oltin yiqqanman. Uni mana shu boqqa, toklarning birini tagiga ko`mganman. U -sizlarniki. Biroq bu ishga ko`p yil bo`ldi. Uni o`zlaringiz izlab topinglar va o`zaro bo`lishib olinglar, deydi. Bir ko`za tilla daragini eshitgan uch ishyoqmas uni izlashga tushib ketadi. Bog`ning hamma erini kovlab chiqishadi. Sirli ko`za chiqmaydi. Yana erinmay kovlashga tushadilar. Kutilgan natija hamon yo`q. Shu taxlit bog` ichi bir necha qayta ag`dar - to`ntar qilinadi. Yerlar qazilaverib tuprog`i upaga aylanib ketadi hamki, oltinli ko`za topilmaydi. Bu orada uzumzordagi toklarning eng chuqur ildizlarigacha ochib ko`riladi. Bog`da o`sha yili chunonam hosil bo`ladiki, undan bir necha ko`zani to`ldirgulik oltin oladilar. Uch dangasa o`g`illar ota gaplarining ma`nosini, oltin - mehnatda ekanini tushunib etadilar”¹.

Adib ushbu hikoyachasi bilan mehnatni ulug`laydi, o`quvchi qalbida mehnatga muhabbat uyg`otadi. Kishi baxt va saodatga faqat mehnat orqaligina erishishi kerakligini uqtiradi. Avloniy o`z asarida sabr-toqat, sabot va matonat masalalariga to`xtalib, “Har bir ishda sabr ila harakat qilmoq lozimdur. Sabr insonlar uchun buyuk bir fazilatdir, maqsadga etish yo`lidir. Nafsini sabr ila rom qilgan kishi har ishda oshiqmay, ohista harakat qilur. Nafsini halokatdan, g`ururdan saqlar. Sabr shunday bir kuchli narsadurki, shahvatni iffatga, g`azabni shijoatga, shiddatni ilmga, kattalikni tavozu`ga, yomonlikni yaxshilikka aylanturmoqqa quvvati etar... Sabr shodlig`ning kalitidur...”².

Avloniy intizomni inson xarakterini tarbiyalovchi, mukammallashtiruvchi manba, deb biladi, hamda unga doim rioya qilish kerakligini ta`kidlaydi: “Intizom qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o`z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo`lmasa edi, insonlar bir daqiqa ham yashay olmas edilar. Har bir millatning taraqqiysi va toliysi ishlarini vaktida, nizomdan chiqmay tartibla yuritilmog`iga bog`liqdur...Chunki tartib va intizomni rioya qilmagan kishilarning ishlari hamma vaqt notamom, o`zlari parishon bo`lurlar. Ammo ishlarini tartib uzra yuritgan kishilarning ishlari erida, o`zlari tinch va rohatda umr o`tkazurlar” .

Vatan tuyg`usi eng insoniy va mo``tabar tuyg`ulardan biri. Vatanni shunchaki sevish mumkin emas, uning dardi bilan faxrlanmoq kerak. Avloniy Vatan va uning oldidagi burchni shunday tushunadi: “Har bir kishining tug`ilib o`sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug`ilgan, o`sgan erini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi - tuyg`usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o`z vatanidan, yurtidan ayrilsa, o`z eridagi kabi rohatda yashamas.

Biz turkistonliklar o`z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik, issiq cho`llarini, eskimo`lar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik erlarini boshqa erlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson erlarga o`z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi. Bobolarimiz “Kishi yurtida sulton bo`lguncha, o`z yurtida cho`pon bo`l, demishlar”,- deydi Avloniy.

Avloniy idrok deb ochiq fikrni, xushtabiat, ziyrak bo`lmoqni tushunadi. U

¹ Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.1998.226- bet.

² Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: 1998, 228-229- bet.

idrok va zakoni ma'rifatparvarlik bilan bog'lab, "yoshlikdan boshlab zehn va idrokimizni quvvatlanturmoq uchun aziz umrimizni o'yin-kulgu, safsata, molol kabi behuda so'zlar ila o'tkarmay, har xil kitob, gazeta va jurnallarni o'kub, fikrimizni ochmoq, zehnimizni quvvatlandurmoq lozimdur".

Bu esa Avloniy xalqni ma'rifatga tashviq qilganidan dalolat beradi.

Avloniyni fikricha, axloq - bu xulqlar majmuidir. Xulq esa, kishida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma'lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug'ilishda yomon bo'lib tug'ilmaydilar, ularni muayyan sharoit yomon qiladi.

Avloniyni ta'kidlashicha, axloq tarbiyasi xususiy ish emas. Bu tarbiya ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liqlikdir.

Tarbiya bola tug'ilgan kundan boshlanadi va umrining oxiriga qadar davom etadi. Ana shundagina biz komil insonni ko'z oldimizda namoyon bo'lganini ko'ramiz.

Qisqa xulosa

Ushbu mavzuda o'zbek xalqining o'ziga xos bo'lgan ma'naviy boyliklari, Sharq mutafakkirlarining asarlarida ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari, ularning ijodi va ilmiy faoliyati, jadidchilik harakatini Markaziy Osiyoga kirib kelishi, jadidchilik faqat maorif sohasida keng tus olib qolmay, balki madaniyat, san'at va inqilobiy harakatlar sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazishi, ularning ta'lim-tarbiya borasida, yangi usul maktablarni tashkil qilishdagi beqiyos xizmatlari, sinf-dars tizimini joriy etilishida jadidchilik harakati vakillarining ulkan hissasi, ota-ona va farzand o'rtasidagi tarbiyaviy munosabatlar, jadidchilarning ta'lim-tarbiyaga qo'shgan ulkan hissalari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Milliy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
2. Avloniy o'z asarlarida ko'proq insonning qanday xislatlarini ochib berishga harakat qilgan?
3. «Turkiy guliston yoxud axloq» asaridagi komil inson qiyofasi qanday aks etgan?
4. Jadidchilar ta'lim sohasida qanday o'zgarishlarni olib keldilar?
5. Islom dinida ta'lim-tarbiyaga oid qarashlar haqida nimalar bilasiz?
6. Behbudiy «Padarkush» asari orqali qanday insonlar qiyofasini ochib berdi?
7. Jadidchilik harakatining asoschisi kim va u haqida nimalar bilasiz?
8. Islom dinida ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar qay tarzda ifodalangan?

8 - mavzu. Jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi

Reja:

8.1. Qadimgi Yunonistonda tarbiya, maktab va pedagogika sohasidagi fikrlar. Sparta va Afina maktab tizimi va tarbiyaning tarkibiy qismlarini vujudga kelishi.

8.2. Qadimgi Yunonistonda pedagogika nazariyasining tug'ilishi. Sokrat, Platon va Arastularning faoliyati.


8.1. Qadimgi Yunonistonda tarbiya, maktab va pedagogika sohasidagi fikrlar. Sparta va Afina maktab tizimi va tarbiyaning tarkibiy qismlarini vujudga kelishi

Tarixiy taraqqiyotning keyingi davrlariga kelib, ibtidoiy jamoa tuzumi o'rnini yangi ijtimoiy formahiya - quldorlik tuzumi egalladi. Kadimiy Sharqda birinchi sinfiy jamiyatlar paydo bo'ldi, hamda moddiy va ma'naviy madaniyatga asos solindi. Ayniqsa, qadimgi Yunoniston va Rim xalqlari bu madaniyatni rivojlantirishda o'zlarini katta hissasini qo'shdilar. Darhaqiqat, tarixiy taraqqiyot davomida turli mamlakatlar va xalqlar jahon madaniyatiga turlicha yondashdilar va rivojlantirdilar. Masalan, Xitoyda hisoblashning o'nlik sistemasi kashf etildi. Mesopotamiyada Yer kurrasini graduslarga, sutkani soatlarga, minutlar va daqiqalarga bo'lish o'ylab topildi.

Eramiz boshlanishidan oldin O'rta Osiyoning janubiy chekkasiga yaqin bo'lgan joyda O'rta dengiz bilan Hindistonni birlashtiruvchi karvon yo'li qurildi. So'ngra O'rta Osiyo orqali Xitoydan O'rta dengizga tomon «Buyuk ipak yo'li» ochildi. Natijada O'rta Osiyo xalqlari savdo-sotiq markaziga aylandi. Bu esa o'z navbatida O'rta Osiyo vohalarida madaniyatning rivojlanishiga ta'sir etdi, yozuvning tarqalishiga yordam berdi.

Ayniqsa, qadimgi Yunonistonda madaniyat, maktab va dastlabki pedagogik fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan juda erta rivojlandi.

Yunoniston unchalik katta bo'lmagan bir qancha quldorlik davlatlardan tashkil topgan. Uning mo'tabar shaharlaridan Lakoniya (Bosh shahri Sparta) va Attika (bosh shahri Afina)dir. Bularning har qaysisida tarbiyaning alohida tizimlari vujudga kelib, Sparta usulida va Afina usulidagi tarbiya deb ataladigan bo'ldi. Ammo ikkala davlatda ham quldorlik tuzumi hukmron edi.



Yunonistonda qullarni «gapiradigan ish quroli» deb hisoblar edilar.

Lakoniya (Sparta)da kemalar to'xtaydigan qulay gavanlar bo'lmaganligi tufayli qullar mehnatiga asoslangan dehqonchilik hukmron edi.

Sparta maktablaridagi jangovorlik darslari


9 ming oiladan iborat bo'lgan quldorlar 250 mingdan ko'proq aholiga hukmronlik qilardi. Sparta qullari shafqatsiz ta'qib ostiga olinar edi. Tarbiya ishlari esa davlat ixtiyorida bo'lib, uning asosiy maqsadi Spartaliklarning bolalarini baquvvat, jismoniy sog'lom, bardoshli, chiniqqan jangchilar qilib tarbiyalash va bo'lajak quldorlar etkazishdan iborat edi. Spartaliklarning bolalari 7 yoshgacha uyda yashar, keyin «agella» deb ataluvchi davlat muassasida 18 yoshga etguncha tarbiyalanardi. Ular «pedonom» rahbarligida jismoniy sog'lom bo'lish uchun turli

mashqlar bilan chiniqtirilar, sovuqqa, ochlikka va chanqoqqa chidashga, og'riqqa bardosh berishga o'rgatilgan edi.

Qadimgi yunon tarixchisi, faylasuf olim Plutarx Sparta maktablardagi ta'lim-tarbiya haqida gapirib shunday deydi: «O'qish va yozishda bolalarga faqat ularning eng zaruri o'rgatilar edi, tarbiyaning qolgan qismi esa bitta maqsad: hech so'zsiz itoat qildirishni, chidamli bo'lishni va engish ilmini o'rganishni ko'zda tutadi».

Spartada ta'lim-tarbiyaning yana bir muhim vazifasi yoshlarni qullarga nisbatan shafqatsiz, ularni mensimaydigan qilib tarbiyalashdan iborat bo'lgan. Shu maqsadda yoshlar «Kreptiyalar»da, ya'ni kechalari qullarni tutish mashqlarida qatnashar, shubhali bo'lib ko'ringan har qanday illatni (qulni) o'ldirar edilar.

Yoshlarga axloqiy tarbiya berishda davlat rahbarlari maxsus suhbatlar o'tkazib, shu yo'l bilan ularga axloqiy va siyosiy tarbiya berar edilar. Shuningdek, bolalarni savol-javob jarayonida aniq, qisqa va lo'nda javob berishga o'rgatib borilgan. Spartada bola 18-20 yoshga etganda «efeblar» guruhida harbiy xizmatni o'taganlar.



Afinada esa hayot, tartib, intizom,
maktab tizimi va undagi ta'lim-
tarbiya

Spartanikidan butunlay farq qilar edi.
Afinada eramizdan ilgari V-IV
asrlarda madaniyat barq urib o'sdi.

Fan,

ma'morchilik va haykaltaroshlik
taraqqiy topdi.

Afina maktablari

Afinada eng ko'rkam va barkamol inson deb ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan yetuk kishini o'zlarining «ideali» deb hisoblar edilar. Bu ideal faqatgina yuqori tabaqali quldorlarga xos bo'lgan, jismoniy mehnat esa faqat qullarning qismati deb hisoblanardi.

Afinada bolalar 7 yoshga etguncha uyda tarbiyalanar, o'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab maktabga katnar, qizlar esa oilada ona ko'magida uy-ro'zg'or ishlariga o'rgatilardi. Afinada xotin-qizlarning hayoti uy doirasidan chiqmas, asosan ichkarida o'tar edi.

Afinada dastlab bolalar (7 yoshdan 13-14 yoshgacha) «grammatist» (grammatika mutaxassisligi demakdir, savdo o'qituvchisi ma'nosida) va «Kifarist» (grekcha muzika demak, muzika o'qituvchisi ma'nosida) maktablarda o'qitilardi, bu kabi maktablarda «didaskal» deb atalgan o'qituvchilar mashg'ulot olib borar edilar. O'g'il bolalarni maktabga qullardan biri boshlab borar, bunday qul pedagog deb atalar edi (pays-bola, agogeyn-etaklab borish degan so'zlardan olingan).

O'g'il bolalar 13-14 yoshga etganlaridan keyin «polestra» (kurash maktabi) deb atalgan o'quv yurtiga o'tar edilar. Yoshlarning badavlat oilada bo'lgan qismi polestrani tugatgach, gimnaziya (gimnaziya shu so'zdan kelib chiqqan) kirib o'qir


edilar. Maktabni bitirgan yoshlar davlatni boshqarishda qatnashishlari mumkin bo'lgan, shuning uchun ularga falsafa, siyosat, adabiyot fanlari o'qitilgan.

Nihoyat, Spartada bo'lgani kabi, Afinada ham 18 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan yoshlar efeblar qatoriga o'tib, harbiy xizmatda tayyorlanar va o'zlarini siyosiy bilimlarini oshirishni davom ettirganlar.

Aholining ko'pchilik qismi bolalarni maktablarda o'qita olmaganligi sababli ularga kasb-hunarga o'rgatish odat tusiga kirgan edi, ayrim xat-savodi bor otalar bolalarga o'qishni o'zlari o'rgatganlar. Bu kabi tartib davlat tomonidan qonunlashtirilib bechorahol tabaqaga mansub ota-onalar o'z bolalariga biror kasbni o'rgatishga majbur edilar. Aks holda ularning bolalari kelgusida keksayib qolgan ota-onalari to'g'risida g'amxo'rlik qilishdan ozod etilardi. Quldor zodagonlar mehnat bilan shug'ullanuvchi erkin aholiga nafrat bilan qarardi. Qullarni esa «gapiradigan ish quroli» deb hisoblaganlar.

8.2. Qadimgi Yunonistonda pedagogika nazariyasining tug'ilishi. Sokrat, Platon va Arastularning faoliyati

Qadimgi Yunoniston olimlari va faylasuflari Sokrat, Platon, Aristotel hamda Demokrit o'zlarining ilmiy asarlarida, nutqlarida tarbiya va ta'lim haqidagi fikirlarini ilgari surdilar.




Sokrat o'zining demokratik ijtimoiy chiqishiga qaramay (u kambag'al hunarmand o'g'li edi), konservativ aristokratlarning ideologi edi. Bu albatta, uning falsafiy va pedagogik qarashlarida o'z aksini topdi.

Sokrat. Erramizdan avvalgi 469-399 yillar.

Sokratning fikricha, tarbiyadan asosiy maqsad, dunyoning tuzilishini, buyumlarning fizik holatini o'rganish bo'lmay, balki odamlar o'zlarini bilishi, axloqini kamol toptirishi lozim deb hisoblar edi. Sokrat jamoat to'planadigan joylarda axloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar o'tkazar ekan, tinglovchilarni savol javoblar yo'li bilan «haqiqat»ni o'zlari fikr yuritib, o'ylab topishlariga undar, shu yo'l bilan odamlarni haqiqatni izlashiga o'rgatar edi, suhbatning bu metodi o'sha paytda «Sokrat metod» deb yuritilgan. «Sokrat metod»dan keyingi davrlar metodikasida suhbatni «fikr qo'zg'ovchi savollar metodi» yo'li bilan o'tkazish kelib chiqdi.

Umuman, Sokrat yaratgan axloqiy etika maktabi umumiy fazilat va xususiy fazilatlardan tashkil topdi. U har bir fazilatni u yoki bu turdagi bilimlardan iborat ekanligini asoslab berdi va inson eng avvalo umumiy etika mezonlarini, inson uchun muqaddas bo'lgan barchaga xos umumiy fazilatlarni bilishi zarur, deydi. Uning fikricha, insonlardagi fazilat, ya'ni axloqiy fazilatlar fan tufayli, ta'lim berish bilan qo'lga kiritilganligi tufayli, axloqiy rivojlanish axloq asosini tashkil etar ekan.

Sokratning axloqiy qarashlarida tengsizlikni yaqqol sezish mumkin. Uning fikricha, axloq faqat imtiyozli «mumtoz»largagina xos, «mumtoz» kishilar haqiqiy axloqning yagona egalari bo'lganliklari uchun hokimiyat ham ularning qo'llarida bo'lmog'i kerak deydi.



Platon eramizdan ilgari (427-347 yillar) - idealist faylasuf, Sokratning shogirdi, obyektiv idealizm nazariyasining asoschisi. U “g`oyalar dunyosi”ni birlamchi, his qilinuvchi narsalar dunyosini ikkilamchi deb hisobladi.

Platon eramizdan ilgari (427-347 yillar)

Platon olamni hadislar dunyosi va g`oyalar dunyosi deb ikkiga bo`ldi. Uning fikricha, g`oyalar abadiy va o`zgarmasdir. Uning nazarida, narsalar va g`oyalar olamning soyasidir, holos. Afina aristokratiyasining namoyondasi bo`lgan Platon, aristokratlarning abadiy hukmronligi haqidagi nazariyasini ilgari surdi. Uning fikricha, ideal aristokratik davlat uch xil ijtimoiy guruh: faylasuflar, jangchilar, hunarmandlar va dehqonlar guruhidan iborat bo`lishi lozim. Faylasuflar davlatni boshqaradilar, jangchilar himoya qiladilar, uchunchi guruh esa mehnat qilib, ikki guruhni boqadilar. Shuningdek, u qullarni ham saqlanib qolishini aytib, ularni hamda hunarmandlar, dehqonlarni huquqsizligi g`oyasini ilgari suradi. Platonning fikricha, davlatning maqsadi oliy ezgulik g`oyasiga yaqinlashishdir: bu g`oya, asosan, tarbiya yo`li bilan ro`yobga chiqishini ta`kidlaydi. Tarbiya deydi Platon, - davlat tomonidan tashkil etilmog`i va hukmron guruhlarning, faylasuflar va jangchilarning manfaatlarini ko`zlamog`i lozim. Platon o`zining pedagogik sistemasida Sparta va Afina sistemasining ba`zi bir belgilarini birlashtirishga intiladi. Platonning fikricha, bolalar 3 yoshdan boshlab 6 yoshgacha davlat tomonidan tayinlab qo`yilgan tarbiyachilar rahbarligida maydonchalarda turli o`yinlar bilan shug`ullanishlari lozim. U o`yinlarni maktabgacha tarbiya vositasi deb hisoblab, ularga katta ahamiyat beradi. U bolalarga eng yoshlik chog`idanoq ijtimoiy tarbiya berish tarafdori edi. Bolalar 7 yoshdan 12 yoshgacha davlat maktablariga qatnab, o`qish, yozish, hisob, musiqa va ashulalar o`rganishlari, 12 yoshdan 16 yoshgacha odatdagi badan tarbiya mashqlari o`rganiladigan palastrada, ya`ni jismoniy tarbiya maktabida, uni bitirgandan so`ng o`spirinlar 18 yoshgacha hisob, geometriya va astronomiyani o`rganishi, 18 yoshdan 20 yoshgacha yigitlar “efebiya”da tarbiyalanadilar, ya`ni harbiy gimnastika bilan shug`ullanadilar. Qobiliyatli o`tkir yigitlar 30 yoshga qadar falsafa, shuningdek, hisob geometriya, astronomiya va musiqa nazariyasini o`rganadilar. Bularning bir qismi mansab boshqarishga ketsalar, boshqa eng iste`dodli yigitlar falsafa ilmini o`rganishni yana 5 yil (35 yoshga kadar) davom ettiradilar. Shundan so`ng, 35 yoshdan 50 yoshgacha davlatni boshqaruvchi kishilar bo`lib qoladilar. Platon ham xotin-qizlar tarbiyasi xususida fikr yuritib, Spartadagi tarbiyani maqullaydi. Platon sistemasida butun tarbiya jismoniy mehnatdan g`oyat nafratlanish ruhi bilan sug`orilgan. Bo`ljak faylasuflar, jangchilarni mehnat qilishi ta`qiqlangan. Qullarning bolalarini o`qitmagan ma`qul degan g`oyani ilgari surgan. Biroq, Platon maktabgacha tarbiya to`g`risida, davlat tomonidan izchillik bilan olib borilishi lozim

boʻlgan tarbiya sistemasi toʻgʻrisidagi fikrlari ijobiy oʻrnak namunasida tarbiyalash kabi fikrlar pedagogik jihatdan muhimdir.



Aristotel (Eramizdan ilgari 384-322)

Aristotel (Eramizdan ilgari 384-322) Platonning shogirdi boʻlgan, Makedoniyalik Iskandarni tarbiyalagan, u qadimgi Yunonistonning yirik idealist faylasufi va olimi edi.

Platon olimni gʻoyalari dunyosi va hadislar dunyosi deb ikkiga boʻlgan boʻlsa, uning shogirdi Aristotel olamni yaxlit deb bildi va narsalarning gʻoyalarini narsalarning oʻzidan ajratib boʻlmaydi, deydi. Aristotelning fikricha, gʻoyani shaklga oʻxshatish mumkin. Har qanday buyumda biz uning moddasini va formasini koʻrishimiz mumkin. Moddada narsalar boʻlishi uchun imkoniyat bor. Modda biron forma olgandan soʻnggina narsa boʻlib qoladi. Chunonchi, marmarning oʻzi bir moddadir, ammo unga maʼlum forma berilsa, haykal tusini olishi mumkin. Butun hayot taraqqiyot jarayonidir. Bu jarayon Aristotelning fikricha, tashqi kuchlarning taʼsiri ostida sodir boʻlmaydi, balki ichki taraqqiyotning oʻzidir. Eng muhimi shundaki, Aristotel shakl bilan mazmunning birligini koʻrsatib oʻtdi, taraqqiyot gʻoyasini olgʻa surdi. Aristotel odamda tana va jon bor, tana bilan jon materiya bilan shakl tariqasida bir-biridan ajralmagan holda mavjuddir, deydi. Uningcha, uch xil jon bor: oʻsimlikdan tarkib topgan jon oziqlanishida va urchib koʻpayishda namoyon boʻladi, hayvonotdan tarkib topgan jon esa, oʻsimlik xossalaridan tashqari sezgilarda va istaklarda namoyon boʻladi, aqlning ifodasi boʻlgan jon, oʻsimlik va hayvonot xossalaridan tashqari, u tafakkur yoki bilish xislatlariga ham egadir. Insondagi jonning hayvoniy qismi aqlga tobe boʻlganligi sababli, uni iroda deb atash mumkin. Aristotelning fikricha, jonning mana shu uch xiliga muvofiq uch xil tarbiya: jismoniy, axloqiy, aqliy tarbiya boʻlishi kerak. Tarbiyaning maqsadi, uning fikricha, jonning oliy tomonlarini, aql va irodani kamol toptirishdan iboratdir. Har bir moddada rivojlanish imkoniyati bor boʻlganidek, insonga ham tabiat faqat qobiliyatlarning boshlangʻichini beradi, insonda kamol topish imkoniyati tabiatda mavjuddir va bu imkoniyat tarbiya vositasi bilan roʻyobga chiqariladi. Tabiat jonning uch xilini bir-biri bilan chambarchas bogʻlab qoʻygan, biz ham tarbiyada tabiat belgilab bergan yoʻldan borib jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani bir-biri bilan chambarchas bogʻlab olib borishimiz lozimligini uqtiradi.

Arastuning fikricha, davlat hamma fuqarolarga bir hilda tarbiya berilishini taʼminlashi lozim. Bu davlatning asosiy vazifasi boʻlishi kerak, deb aytganda qullarni nazarda tutmagan. Arastu pedagogika tarixida birinchi boʻlib, yoshni davrlarga boʻlishga urinib koʻradi. U insonning yoshlarini uch davrga boʻlib oʻrganadi: 7 yoshgacha boʻlgan davr; 7 yoshdan 14 yoshgacha boʻlgan davr (jismoniy balogʻat davrining boshlanishi) va jismoniy balogʻat davrining boshlanishidan 21 yoshgacha

boʻlgan davr. Uning fikricha, bunday davrlarga boʻlish tabiatga mos boʻlib tushadi. Bolalar 7 yoshgacha oilada, 7 yoshdan boshlab davlat maktablarida oʻqishlari lozim, deydi. Ularga aqliy tarbiya berishdan ilgari jismoniy tarbiya berilishi, jismoniy tarbiya esa avvalo, gimnastika muallimlari tomonidan olib borilishi zarur deydi.

Aristotel jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya bir-biri bilan bogʻlangan deb hisoblaydi. Arastu xotin-qizlarning tarbiyasi erkaklarning tarbiyasiga oʻxshab ketmasligini, chunki ularning tabiati mutloq erkaklardan farq qilishini aytadi. Arastu oʻz pedagogik qarashlarida aqliy tarbiya, axloqiy koʻnikmalarga katta ahamiyat beradi. Tabiiy isteʼdod, koʻnikma va aql- bular axloqiy tarbiyaning uch manbaidir, deydi. Arastuning qayd etishicha, har qanday istak va faoliyat kamchilik, ortiqchalik va oʻrtachilik, faqat muvozanat yaxshi va foydalidir. Demak, hamma narsada ortiqchalik ham, kamchilikka ham yoʻl qoʻymaydigan xatti-harakatlar yaxshilikning nishonasidir. Mana shunday xatti-harakat hosil qilmoq uchun koʻprok mashq kilish kerak, degan fikrlarni olgʻa suradi. Arastu Platondan farq qilib, oilani tarbiyadan chetlashtirmaydi, axloqiy tarbiya berish, asosan, oilaning zimmasida boʻlishi kerak, deydi. Arastuning qarashlari antik pedagogikaning taraqqiyotiga katta taʼsir oʻtkazdi. Ayniqsa uning «Nikomah etikasi» va «Siyosat» asarlari axloq masalalarini nazariy ishlab chiqishga bagʻishlandi. Arastu, axloqning jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini taʼkidlab: «Tabiat inson qoʻliga qurol, aqliy kuch bergan, ammo u shu qurolni teskari tomonga nisbatan ham ishlatishi mumkin. Shu sababli axloqiy tayanchlari boʻlmagan odam eng insofsiz va yovvoyi, oʻzining jinsiy va did moyillarida eng tuban mavjudot boʻlib qoladi», - deydi. Odam jamiyatda yashagani sababli uning axloqiy fazilatlarini hech qachon sof, holis holda namoyon boʻlmaydi, balki faqat ijtimoiy faoliyatidagina amalga oshadi. Shuning uchun barcha axloqiy fazilatlar ijtimoiydir, deydi Arastu.

Umuman antik faylasuflar Sokrat, Platon, Arastular oʻzlarining nazariyalarida odam har bir narsada oʻz huzurining quli boʻlib qolmasligi, balki har bir narsada meʼyor boʻlmogʻi lozimligini uqtirib oʻtgan edilar. Ular axloq insonning baxtga erishish vositasi deb qaraganlar.

Qisqa xulosa

Ushbu mavzuda jaxon pedagogika fanining taraqqiyoti haqidagi maʼlumotlar keltirilgan bulib, qadimda Yunonistonda ilk maktablarning paydo boʻlishi va shakllanishi, Sparta va Afina maktablaridagi oʻziga xos taʼlim–tarbiya oʻchogʻini vujudga kelishi, antik faylasuflar Sokrat, Aristotel va Platonlarning oʻz nazariyalarida komil inson shakllanishida muhim hisoblangan xislatlar haqidagi fikrlari, pedagogik qarashlari mavzuda aniq va toʻliq bayon etilgan.

Oʻz-oʻzini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Qadimgi Yunonistondagi taʼlim-tarbiya oid qarashlarni izohlang?
2. Afina bilan Sparta maktablari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
3. Qadimgi Yunonistonda “Pedagogika nazariyasini» tugʻilishini izohlang?
4. Sokratning pedagogikaga qoʻshgan hissasi qanday?
5. Aristotelning ilmiy faoliyati haqida gapiring?

9 - mavzu. Yevropa mutafakkirlari ta'lim-tarbiya haqida

Reja:

- 9.1. Yan Amos Komenskiyning ijtimoiy pedagogik faoliyati.
- 9.2. Jan Jak Russoning ta'lim – tarbiya borasida olib borgan ishlari.
- 9.3. I.G.Pestalohhining pedagogik nazariyasi va didaktik ta'limoti.

9.1.Yan Amons Komenskiyning ijtimoiy pedagogik faoliyati



Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy 1592 yil 28 mart Moraviyaning «Ugorskiy Brod» degan qishlog'ida tegirmonchi oilasida dunyoga keladi.

Komenskiy ota-onasidan yosh ajralib ancha vaqt o'qimaydi. 16 yoshida «Chex qardoshlari» jamoasining yordami bilan lotin maktabiga o'qishga kiradi.

Yan Amos Komenskiy 1592-1670 yil

Bu yerda u tarbiya tizimining yomonligini, o'quv metodlarining yaxshi rivojlanmaganligini ko'radi va tushunadi. Maktabni tugatgach, Germaniyadagi Garibaris va Geydelberg universitetlarida ta'lim oldi. U Geydelberg universitetida ma'ruza kursini tinglaydi, bu universitetda o'sha davrda ilg'or professorlar ishlar edi. Komenskiy Avstriya, Gollandiyada bo'lib iktisodiy, siyosiy va madaniy turmushni o'rganadi. Shuningdek, o'zini ilmi va dunyoqarashini ham kengaytirib boradi.

Yan Amos Komenskiy «Buyuk didaktika», «Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi», «Fizika», «Falakiyot», «Onalar maktabi», «Lotin tili muqaddimasi», «Tillarning eng yangi metodi», «O'yin-maktab», «Hislar bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari», «Tinchlik farishtasi», asarlarida o'zining muhim pedagogik g'oyalarini ifoda etdi.

1632-yilda Komenskiy «**Buyuk didaktika**» degan katta pedagogik asarini yaratadi. U bu asarida «pan sofiya ideyasini» (pan grekcha-butun, hamma, sofiya-donolik, aqllilik) **hamma narsani bilish, hamma uchun bilim berish demakdir**. Maktab bu muassasa, u yerda «hammani har narsaga o'rgatmoq kerak», «Biz hamma kishilar uchun ta'lim berishni ta'kidlaymiz» degan fikrlarni u o'z asarida olg'a suradi.

«Buyuk didaktika» jahon pedagogikasining nodir asarlaridan biridir. Unda ta'lim nazariyasiga oid fikrlar bilan birga maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalash usullari ham bayon etilgan. Barcha o'g'il va qizlarga ta'lim berish uchun maktablar ochish, bolalarni o'z ona tilida o'qitish, tarbiyalash, amaliy hayotga, turmushga tayyorlash, xususiy metodikalarni takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Shuning bu asarda ta'lim-tarbiyaning maqsadi, shart-sharoitlari, imkoniyatlari tva amaliy ahamiyati ham keng tahlil qilingan.

Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida o'qitish tabiat talabiga buysunishi kerak degan g'oyani ilgari suradi. Bolaning aqliy va jismoniy o'sish jarayoni tabiatdagi o'sish jarayoniga o'xshagan bo'ladi, deb fikrlaydi.

«Buyuk didaktika» asarida didaktik prinsiplar berilib, dars jarayonida o`qituvchi qo`llashi kerak deb hisoblaydi. Bu tamoyillarga quyidagilarni kiritadi: ta`limda ko`rsatmalilik prinsipi, onglilik prinsipi, tizimlilik prinsipi, izchillik prinsipi.

Komenskiy o`z asarlarida tarbiyaning maqsadini ko`rsatadi. Tarbiyaning maksadi kishining manguilik dunyosiga tayyorlashdan iboratdir. Buni uch xil tarbiya orqali amalga oshirish mumkin:

1. Axloqiy tarbiya.

2. Aqliy tarbiya.

3. Diniy tarbiya.

Bu maqsad bolaning tug`ilganidan to 24 yoshgacha amalga oshadi, bu davr ichida bola to`rt maktabni o`qib tugatishi, har birida 6 yil o`qishi kerak, deb hisoblaydi.

1. Tug`ilgandan 6 yoshgacha – ona maktabi. Bu davrda bolaning sezish organlarini o`stirishga, bolaning qabul qilishini, atrofdagi dunyo bilan tanishtirishga katta ahamiyat beradi. Bolani mehnatga o`rgatish, o`z-o`ziga xizmat qilishga jalb etish kerak. Ona bolada axloqiy tarbiyaning asoslarini, to`g`rilik va boshqa xislatlarni rivojlantirishga qaratishi zarur. U bu davrni tabiatga bog`lab, erta bahorga kiyoslaydi.

2. 6-12 yoshgacha xalq maktabi yoki ona tili maktabi. Bu davrda o`quvchi esda saqlashi, so`zlashga o`rganishi, yozish, boshlang`ich maktab ko`nikmasini hosil qilishi kerak bo`lib, buning uchun geometriya, tabiyot fanlarini o`rganishi lozim. Bu davrni tabiatga bog`lab, yoz fasliga qiyoslaydi.

3. 12-18 yoshgacha - gimnaziya. Bu o`quv yurtining vazifasi bola tushunchasini, tafakkur qobiliyatini o`stirishdan iborat bo`lib, unda klassik tillar, tabiat bilimlari, axloq, xudoguylik o`qitilishi kerak. Bu davrni tabiatga bog`lab, kech kuzga qiyoslaydi.

4. 18-24 yoshgacha universitet, akademiya. Bu o`quv yurtlari o`quvchining irodasini, shaxsini bir butun o`stirishi kerak. U bu davrni tabiatga bog`lab, qish fasliga kiyoslaydi.

Sinf – dars tizimi. Komenskiy o`qituvchi butun sinf bilan jamoa bo`lib ish olib borishini, ya`ni sinf –dars tizimida o`qitishni olib borishni tavsiya etadi. Komenskiy sinf – dars tizimini ishlab chiqdi. Dars vaqtida o`tgan mavzularni takrorlash, yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish kerakligini ko`rsatdi. Darsni rejalashtirish va olib borish bo`yicha ko`rsatmalarni berdi. Maktabda o`quv yili va uni o`quv choraklariga bo`lish, ta`tillar berilishini kiritdi. O`quv kunini (ona tili maktabida 4 soat, lotin maktabida 6 soat) belgilab berdi. O`quvchilar maktabga bir vaqtda qabul qilinib, o`qish kuzda (sentyabrda) boshlanishi kerak deb hisobladi. Bundan tashqari u darslik kanday bo`lishi haqida ham qimmatli fikrlarini aytib o`tdi.

9.2. Jan Jak Russoning ta'lim – tarbiya borasida olib borgan ishlari



Jan Jak Russo 1712 yilda Jenevada hunarmand - soatsoz oilasida tug'ildi. U yoshlik yillarida izchillikda bilim ololmaydi. Ko'p vaqtini Fransiya va Shveytsariyada o'tkazdi, turli hunarlarni o'rganishga urindi. 30 yoshga to'lgan paytida Parijga kelib, o'sha davr adib va faylasuflari, tabiatshunoslari bilan tanishdi, muloqotda bo'ldi.

Jan Jak Russo 1712-1778 yillar

1754-yilda u «Odamlar orasida tengsizlikning kelib chiqishi», 1762-yilda «Ijtimoiy shartnoma» asarlarini yozdi. Bu asarlarida Russo inson huquqini himoya qildi, davlat xalqqa xizmat qilishi kerak degan g'oyasini olg'a surdi.

Russo 1762-yilda yaratgan «Emil yoki tarbiya to'g'risida» nomli romanida ozod, yangi odamni tarbiyalash yo'llarini ko'rsatdi. Russo shu roman tufayli chet elga ketishga majbur bo'ldi. Parijning markaziy maydonlaridan birida bu kitob yoqib yuborilgan. Butun hayotini u darbadarlikda o'tkazib, 1778-yilda Parijda vafot etdi. Russo bola tug'ilgan kundan boshlab iste'dodning rivojlanishi uchun yaxshi sharoit yaratish to'g'risida g'amxo'rlik qilish zarurligini aytadi. Tarbiyachi bolaga o'zining fikr va mulohazalarini, tayyor axloqiy qoidalarni majburan qabul qildirmasligi, tabiatiga ko'ra o'sish va erkin rivojlanishga imkoniyat yaratish kerak. Tabiiy tarbiya – bu erkin tarbiyadir.

Tabiiy tarbiya nazariyasi Russo pedagogik qarashlarining asosini tashkil etadi. Russo o'z qarashlarida, bolani sinchiklab o'rganishni, uning yoshi va o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor berishni ta'kidlaydi. Uning fikricha, tarbiyachi bolaga o'zining fikr va mulohazalarini majburan qabul qildirmasligi, uning erkin rivojlanishiga imkoniyat yaratishi kerak deb hisoblaydi. Tabiiy tarbiya - bu erkin tarbiyadir. Bola o'zining noto'g'ri ishlari natijasini, shu ishlar tufayli paydo bo'ladigan zararli oqibatlarni his qilishi lozim. Tarbiyachi o'z oldida turgan vazifa haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi zarur. Russo bolaning shaxs sifatida tarkib topishida tarbiyachining mavqei kattaligini aytadi. U bolaning yoshlik xususiyatini hisobga olgan holda, tarbiyani 4 davrga bo'ladi:

I-davr --- tug'ilganidan 2 yoshgacha nutq paydo bo'lgan davr. Bu davrda bolani jismoniy tarbiyalashga e'tibor berish kerak.

II-davr ---2 yoshdan 12 yoshgacha «aql-idrok uyquasi». Bu davrda bolaning tashqi olamni his qilish qobiliyatini rivojlantirish lozim.

III-davr--- 12 yoshdan 15 yoshgacha. Bu davrda bolaning aqliy va mehnat tarbiyasiga e'tibor berish kerak.

IV-davr---15 yoshdan balog'atga etguncha. Bu davrda axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor berish zarur.

Russo 2 yoshgacha bo'lgan bolani parvarish qilish, ovqatlantirish, tozaligini saqlash, chiniqtirishdan iborat ekanligini aytadi. Bu davrda bola haqida, asosan, ona g'amxo'rlik qiladi. Bu davrda bola erkin harakatlar qiladi. Bunda uning insoniy

chiniqishiga e'tibor beriladi. Bola sog'lom bo'lishi, tabiiy extiyojlari qondirilishi zarur. Lekin bolaning har qanday istaklarini bajarmaslik kerak. Agar barcha istaklari bajarilaversa, unda bolada rahmsizlik hislari kelib chiqishi mumkin.

2 yoshdan boshlab bola hayotida yangi davr boshlanadi. Bu davrda asosiy e'tiborni uning sezgi a'zolarini rivojlantirishga qaratish zarur. Russoning fikricha, bola nutqini rivojlantirishni sun'iy ravishda tezlashtirmaslik kerak. Bu holat so'zni noto'g'ri talaffuz qilishga, gap mazmunini tushunmaslikka olib kelishi mumkin. Bola 2 yoshdan 12 yoshgacha tabiiy holda va shaxsiy tajribasi asosida ijtimoiy hodisalar haqida tasavvurga ega bo'lishi, o'yin va jismoniy mashqlar jarayonida faollik ko'rsatishi, qishloq xo'jalik ishlarida ishtirok etishi kerak. Bola uchun 12 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan davr, Russoning fikricha, o'qish uchun eng yaxshi vaqtdir. Bu davrda u o'zi qiziqqan fanlarni tanlaydi. Russoning fikricha, bola bu davrda tabiat haqidagi fanlar, geografiya, astronomiya, fizika, tabiatshunoslik fanlarini o'rganishi lozim.

Russoning fikricha, axloqiy tarbiyaning maqsadi bolada fanlarga qiziqish va muhabbat uyg'otishdan, unga bilimlarni egallash usullarini o'rgatishdan iborat bo'lishi kerak. Bola o'zi yashayotgan joy, qishloq va shahar bilan tanishib, geografiyaga oid bilimlarni egallaydi; yulduzlar harakati, quyoshning chiqishi va botishini kuzatib astronomiyani o'rganadi; tajribalar o'tkazib fizikani bilib oladi.

12-15 yoshda o'smir o'qish bilan birga mehnat tarbiyasini ham olishi kerak. Russoning fikricha, bola kattalar mehnatida ishtirok etishi zarur. Shundagina u, mehnat ahllariga hurmatda bo'ladi. 15 yosh bolaning yashash va ishlashga, hayotga tayyorlanadigan davridir. Russo qizlarni tarbiyalash to'g'risida xam alohida aytib o'tgan. Uning fikricha, ayolning vazifasi ona bo'lish, uy xo'jaligini boshqarish, oilada saranjom-sarishtalik yaratishdan iborat. Shunga ko'ra, qizlar tarbiyasi, o'g'il bolalar tarbiyasidan farq qilib tarbiyalanishi kerak.

9.3.I.G.Pestalohhining pedagogik nazariyasi va didaktik ta'limoti



Johan Genrix Pestalohhi 1746

Iogan Genrix Pestalotsi 1746 yilda Shveytsariyaning Tyurix shahrida shifokor oilasida tug'ildi. U otadan yoshligida judo bo'lib, onasi tarbiyasida o'sdi. Boshlang'ich, so'ngra o'rta maktabda o'qidi, ijtimoiy yo'nalishdagi oliy o'quv yurtida ta'lim oldi.

Pestalotsi 1774- yilda Neygof shahrida «Kambag'allar muassasasi»ni tashkil qilib, unga turli yoshdagi bolalarni jalb qildi, ularga o'qish, yozish va hisobni o'rgatdi. Bolalar o'qishdan tashqari vaqtda qishloq xo'jaligi fermasida, yigiruv va tikuv ustaxonalarida ishladilar.

Pestalotsi Burgdorf shahrida kichik yoshdagi o'g'il va qiz bolalar uchun ochgan maktabida tajribalar o'tkazdi. Ta'lim nazariyasini, o'quv predmetlarini o'rganish, nutq malakasini rivojlantirish usullarini ishlab chiqdi.

Pestalotsi tashabbusi va hokimiyatning yordami bilan 1800-yilda shaharda institut tashkil topdi. Ko'p o'tmay, institut Shveytsariyaning fransuzlar yashaydigan Mverdonga ko'chirildi, bu joyda o'qish 1825 yilga qadar davom etdi va jahonga mashhur bo'ldi. Pestalotsi 1818-yilda Neygoor shahriga qaytib keldi, o'zining so'nggi «Oqqush qo'shig'i» asarini yozib tugalladi. Bundan tashqari, Pestalohhi «Gertruda o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi», «Onalar kitobi», «Lingard va Gertruda» kabi asarlar muallifi hamdir. Pestalotsi 1827-yilda vafot etdi.

Pestalotsi tarbiyaning maqsadi bolalarda «Haqiqiy insoniylikni» namoyon ettirishdan iboratligini aytadi. Uning fikricha, tarbiya uyg'un tarzda amalga oshirilishi kerak. «Ko'z – ko'rishni, quloq – eshitishni, oyoq – yurishni, qo'l-ushlashni istaydi. Shuningdek, qalb ham ishonishni va sevishni istaydi. Aql esa, fikrlashni istaydi» - deydi Pestalotsi. Pestalotsining fikricha, axloqiy tarbiyaning maqsadi - bolalarda kishilarga muhabbat uyg'otishdan iborat. U bolaning o'z onasiga bo'lgan muxabbatini axloqiy tarbiyaning uzviy qismi deb hisoblaydi. Onaning g'amxo'rligi unda onaga nisbatan minnatdorlik va muhabbat hissini hosil qiladi. Bu o'zaro muhabbat rivojlanib, ona va bola o'rtasida samimiy aloqa yuzaga keladi.

Pestalotsi axloqiy tarbiyada tarbiyachining bolalarga shaxsiy namuna bo'lishiga alohida ahamiyat beradi. Tarbiyachi go'zal axloqli, axloqiy tarbiya haqida to'liq tushuncha va bilimga ega bo'lishi kerak. Pestalotsining ta'kidlashicha, ta'lim vazifasi bolani muayyan bilimlarga ega qilishdangina emas, balki unda aqliy qobiliyatni xam rivojlantirishdan iboratdir. Pestalotsi ta'lim aniq qat'iy kuzatishlarga asoslanishini tavsiya qiladi, ko'rgazmalilikni ta'limning oliy sharti deb hisoblaydi.

Pestalotsi bolaga ona tilini o'rgatishda avval uning og'zaki nutqini o'stirish, so'ngra o'qishni o'rgatishni tavsiya qildi. Uning ta'kidlashicha, nutqni o'stirish tovushlarni mashq qilishdan boshlanadi. Pestalotsi maktabda bolalarga arifmetikani o'rganish uchun kerak bo'lgan jadval ko'rinishdagi didaktik material yaratdi. Uning izdoshlari bu materialni «arifmetika eshigi» nomi bilan maktab tajribasiga joriy etdilar. Tarbiyada ona va oilaning o'rni haqida Pestalohhi, ona o'z bolasining nimani his qilishini, nimalarga qodirligini, nimani istashini boshqalardan ko'ra yaxshi biladi. Shu sababli ham, u yoshligidan boshlab, xususiyatlarini hisobga olgan holda, bolasiga to'g'ri tarbiya berishi kerak.

Pestalotsi oilada bolaga yoshligidan boshlab beriladigan tarbiya mazmunini, vazifalari va usullarini ishlab chiqdi. U yoshligidan boshlab bola jismonan baquvvat, sog'lom qilib tarbiyalanishi kerakligini ta'kidladi.

Qisqa xulosa

Ushbu mavzuda jahon pedagogika fani taraqqiyoti haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, qadimda Yunonistonda ilk maktablarning paydo bo'lishi va shakllanishi, pedagogikani rivojiga ulkan hissa qo'shgan Ya.A.Komenskiy, Pestalohhi, J.J.Russolarning ijodi va ilmiy faoliyati haqida aniq ma'lumotlar keltirilgan va tushunarli tarzda bayon etilgan.

O`z-o`zini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Jahon pedagogika fani taraqqiyoti haqida nimalarni bilasiz?
2. Afina va Sparta maktablaridagi o`xshashlik va tafovutlar qanday?
3. Konfuhiy ta`limoti haqida nimalarni bilasiz?
4. Ya. A. Komenskiyning pedagogikaga qo`shgan hissasi haqida nimalar bilasiz?
5. Komenskiy bolaning rivojlanishini necha davrga bo`ladi?
6. Jan Jak Russoning pedagogikaga qo`shgan hissasi haqida gapiring.
7. Pestalohhining pedagogikaga qo`shgan hissasi haqida nimalarni bildingiz?
8. Ya.A.Komenskiy sinf-dars tizimini qanday tarzda tashkil etdi?

III BOB

KASBIY PEDAGOGIKADA TARBIYA NAZARIYASI

Bobning qisqacha mazmuni

Kasbiy ta'limda tarbiya nazariyasi. Tarbiya nazariyasi haqida tushuncha. Barkamol shaxsni shakllantirish yo'lida O'zbekiston Respublikasining amalga oshirayotgan siyosati. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. SHaxsning rivojlanishida yosh va individual xususiyatlar. Tarbiya usullari haqida tushuncha. Tarbiyaning turlari.

Oilada tarbiya asoslari. Hozirgi zamon o'zbek oilalaridagi tarbiyaning xususiyatlari. Oilada bola tarbiyasi, hozirgi zamon oilalarining mavjud jamiyat bilan uzviy bog'liqligi. Hozirgi zamon o'zbek oilalaridagi tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Bugungi kunda oiladagi dolzarb muammolar. O'zbek mutafakkirlarining oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari.

O'smirlik davrida xarakterning individual xususiyatlari va unda tarbiyaning roli. O'smirlik davrining o'ziga xos xislatlari. O'smirlik davrida xarakter va uning o'zgaruvchanligi. Guruh rahbarini o'smirlar bilan axloqiy tarbiya jarayonini tashkil etishi.

Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar nazariyasi va amaliyoti. Ma'naviy-axloqiy, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy odatlarini tarbiyalash-ning vazifalari. Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ishlarning asosiy mohiyati. Talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti. Yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashning ma'naviy-axloqiy, madaniy-maishiy yo'nalishlari. Talabalarda kasb madaniyatini shakllantirish. Kasb ta'limi muassasalarida axloqiy tarbiya muammosi. O'qitish jarayonini ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil etish.

10 - mavzu. Kasbiy ta'limda tarbiya nazariyasi

Reja.

- 10.1. Barkamol shaxsni shakllantirish yo'lida O'zbekiston Respublikasining amalga oshirayotgan siyosati.
- 10.2. Tarbiya jarayoni haqida tushuncha.
- 10.3. Shaxsning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.
- 10.4. Shaxs rivojlanishida yosh va individual xususiyatlar.
- 10.5. Tarbiyaning usullari haqida tushuncha.
- 10.6. Tarbiyaning turlari.

10.1. Barkamol shaxsni shakllantirish yo'lida O'zbekiston Respublikasining amalga oshirayotgan siyosati

Bugungi kunda mamlakatimiz erishayotgan, dunyo tan olayotgan ulkan natijalarning negizida turgan asosiy omil - inson omili ekani, tarixni doxiylar emas, balki ongli va bunyodkor inson, xalq yaratishi, har qaysi unib-o'sib kelayotgan yosh avlodning o'z ota-bobolari an'analarini davom ettirib, ularning xotirasi, bebaho merosiga nisbatan hurmat-ehtirom, g'urur-iftixor hissi bilan yashashi, tarixiy xotira va avlodlar o'rtasidagi vorislik tuyg'usining uzviy bog'liqligi ham inson omiliga bo'lgan e'tiborning amaliy ifodasi ekanligi hammamizga sir emas.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bu borada fikr – mulohaza yuritib: “Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish,¹- zarurligini alohida ta'kidladilar.

Ta'lim-tarbiya o'quvchi-talaba shaxsini rivojlantirish maqsadlarini ta'limning mazmuni, pedagog va ta'lim oluvchining faoliyati orqali ifodalash, bu sohada kutilayotgan natijalar haqida aniq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

“... barkamol avlodni shakllantirish uchun axborot-kommunikahiya texnologiyalarini joriy etish, o'quv yurtlarida o'quv laboratoriyalari bazasini takomillashtirish, o'qituvchi-murrabiylar mehnat faoliyatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning samarali tizimini yaratish muhim vazifalardan biridir.

Professor R.Mavlonovanning fikricha, “...barkamol shaxs tushunchasining o'zi keng qamrovli, serqirra tushuncha. Barkamol shaxs - komil inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ayni vaqtda barkamol shaxs tushunchasi sog'lom avlod tushunchasi bilan ham bog'lanib ketadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar alohida-alohida ishlatilsa-da, mohiyatan ularning hammasi inson axloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobiy xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo'lgan munosabatlaridan tortib, toki oilaga, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi” [36].

Mustaqillikka erishib, ma'naviyat va ma'rifat masalalariga birinchi darajali ahamiyat berishimiz, mustaqillikni mustahkamlash vazifalari, tarbiya sohasida sog'lom avlod, barkamol shaxs, komil inson kabi tushunchalarga izoh berishni,

¹ 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi 2017 yil 7 fevral.

ularning mohiyatini ochib berishni taqozo etmoqda. YUqorida aytganimizdek, ular mohiyati birday tushunchalar hisoblanadi. Insonni to'g'rilikka, halollikka, poklikka, vatanparvarlik va insonparvarlikka, ezgulikka va qo'yingki, yuksak axloqlikka yo'llash bu tushunchalarning mohiyati va mazmunini tashkil etadi. Hozirgi kunda bu masalalarga birinchi darajali ahamiyat berishimizning boisi - iymoni, e'tiqodi va axloqiy fazilatlari – ya'ni, ma'naviyati kuchli, milliy mas'uliyat tuyg'usi qalbida chuqur ildiz otgan, ma'naviy barkamol fuqarolarga ega mamlakatgina mustaqil va barqaror rivojlana oladi. Buyuk kelajak barkamol shaxslarga tayangandagina yaratiladi, qad ko'taradi.

Mustaqil O'zbekistonda ma'naviyatga bo'lgan talab va ehtiyojning kun sayin o'sib borishining asosiy sababi, kelajagi buyuk davlatning barkamol avlodni voyaga etkazish, ularni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bilan bevosita bog'liqligi ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan. Ma'naviyat insonning falsafiy-huquqiy, diniy-axloqiy tasavvurlarini aks ettiruvchi manba hisoblanadi, shunga asosan u kishilarni birbirlariga yaqinlashtiradigan va ularni hamjihatlikka erishishga yordam beradigan, hamkorlikning yangi qirralarini ochadigan boylikdir.

Professor J.Hasanboevning fikricha, "Boshqacha aytganda, ma'naviy barkamol insonlarga buyuk kelajakni yarata oladilar. SHuning uchun ma'naviy barkamol insonni, sog'lom avlodni tarbiyalash muhim va dolzarb masaladir".

Bu masalada O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimovning quyidagi sabog'i ibratlidir: «Biz sog'lom avlodni tarbiyalash, voyaga etkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki Sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz». Bu fikrlardan ko'rinib turibdiki, Sharqona odob-axloq va umumbashariy g'oyalarni ongiga singdirib olgan kishi yuksak ma'naviyatli, ya'ni barkamol shaxs, komil inson hisoblanadi. Barkamollik insonning dunyoqarashi, e'tiqodi, ruhiyati, xulq-atvor normalari, axloq-odobi va bevosita aloqadorligi bilan ajralib turadi. Ma'naviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, vatan taqdiri va uning ravnaqini o'ylaydilar. Ular mutelikda, qaramlikda yashashni istamaydilar.


Sog'lom avlod deganda, biz faqatgina jismonan baquvvat farzandlarimizni emas, balki ma'naviy boy avlodni, aqliy rivojlangan, axloqiy pok, ma'rifatli farzandlarni, avlodni tushunmog'imiz kerak. Bunday kishilar o'zlarida xalqimizning eng ardoqli fazilatlari - iymon va insof, mehr-oqibat, shafqat va rahmdillik, uyat va andisha, or-nomus, o'zaro hurmat, yuksak Vatanparvarlik, o'z eliga va xalqiga sadoqat kabi qadriyatlarni va g'oyalarni mujassamlashtirgan bo'lishlari lozim.

Ma'naviy barkamol inson shon-shuhrat, mansab, moddiy boylik ketidan quvmaydi, moddiy qiyinchiliklarga duch kelganda qaddi bukilmaydi, ba'zan uyushtirilgan tuhmatu-fitnalar uning ruhini tushira olmaydi. Demak, har qanday taqdir va qismat pokiza, mard, ma'naviy barkamol inson ma'naviyatini buza olmaydi, balki mustahkamlaydi, chiniqtiradi. Yuksak darajadagi ma'naviyatga ega inson - fidoyilik, jasorat, mardlik, o'z xalqini sevish, Vatanni qadrlash, ajdodlaridan faxrlanish kabi olijanob fazilatlari bilan ajralib turadi.

G.Sultonovanning fikricha,- "Barkamol shaxs o'z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, tilini, istiqbol manfaatlarini bilmagan, qadrlamagan, milliy mansubligini unutgan, o'z millatining istiqboli uchun qayg'urmaydigan,

kurashmaydigan kishilarda milliy g'urur ham, millat bilan faxrlanish ham, millatparvarlik ham bo'lmaydi. Bunday kishilarni barkamol shaxs deya olmaymiz"¹.

Insonning insonligi, birinchi navbatda uning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi. Ma'naviy-axloqiy barkamollikning asosiy qirralariga yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, quyidagilarni kiritish mumkin: ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, xullas butun oila a'zolari, qo'ni-qo'shnilari, mahalla-kuyi, qishloqdoshlari va butun mamlakat xalq farovonligi haqida qayg'urish; tevarak-atrofdagi insonlar unga kerak bo'lganligi singari, o'zi ham ularga kerakli bo'lishga intilishida ko'rinadi. Uning odob-axloqi, fe'l-atvorini yoqimli qilishni insoniy burch deb hisoblash; ota-bobolardan, ajdodlardan yodgor bo'lib qolgan madaniy merosni qadrlash; milliy qadriyatlarni e'zozlash va ularga sodiq bo'lib qolish; vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularining barqaror bo'lishi; o'zaro muomala-munosabatda o'rnak bo'lishga moyillik, birovning og'irini engil qilishni odat qilish; umumxalq ma'qullagan va hukumat tomonidan qonuniy qabul qilingan Konstitutsiyani hurmat qilish va unga sadoqat namunalarini amalda ko'rsatishidadir. O'z Vatanini himoya qilish, boshqacha aytganda, harbiy-vatanparvarlik tuyg'ulari bilan yashash; diyonat va adolat, mehr-shafqat va ezgulikni himoya qilish; va'daga vafoli bo'lish kabi xislatlarning mujassamligi bilan belgilanadi. Biz quyidagi rasm orqali ma'naviy barkamol shaxs tushunchasi va uning mohiyatini yoritib o'tamiz.



6-rasm. Ma'naviy barkamol shaxs tushunchasi, uning mohiyati

Komil inson tushunchasi ma'naviy barkamol shaxs tushunchasi bilan hamohangdir. Ma'naviy barkamollikka erishmay komil inson darajasiga etish

¹ G.Sultonova. Barkamol avlodni shakllantirishda tarbiya jarayonining ahamiyati. - TDIU. 2009. -41 bet.

mumkin emas. Demak, barkamollikka intilish - bu komil inson darajasiga erishish uchun intilishdir. Komillikka inson butun umri davomida erishib boradi. Uchala tushuncha: sog'lom avlod, barkamol shaxs, komil inson - darajama-daraja chuqur ma'noni kasb etadi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, komil inson bo'lishning aniq cheki va chegarasi yo'q. Bizning qo'hna tariximizda yuzaga kelgan, xalq, mamlakat tarixida katta ma'naviy-axloqiy tarbiya rolini o'ynagan tasavvuf ilmi komil inson nazariyasi haqidagi, uni tarbiyalash, voyaga etkazish, ta'limot va amaliyot haqidagi fan sanaladi. Mazkur savolni tasavvuf ta'limotidan kelib chiqqan holda bayon etishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Hammamizga ma'lumki, azaldan ota-bobolarimiz ilm-fanni rivojlantirish, yosh avlodni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratib kelishgan. Bunga misol qilib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobokalonlarimizning bu borada amalga oshirgan ishlarini keltirishimiz mumkin. Buyuk ajdodlarimizning barkamol shaxsni shakllantirish borasidagi orzulari bugungi kunda ham davom ettirilib, barkamol avlod tarbiyasi masalasiga davlat siyosati darajasida qaralmoqda. «Agar kelajagimizni o'ylab ish qilmoqchi bo'lsak, kelajakda ishimizni davom ettiradigan bugungi yoshlarimizga sharoit yaratib, ularning hayoti haqida qayg'uradigan bo'lsak, avvalo, mahalliy yoshlarni tarbiyalash ishiga munosabatimizni mutlaqo o'zgartirishimiz kerak. Iqtisodiyotimizni, hayotimizni o'zgartirish ana shularga bog'liq bo'ladi. Agar shuni qilmasak bu yurishimizda katta yo'lga chiqishimiz qiyin bo'ladi».

Sharq muttafakkirlari tomonidan barkamol shaxs haqida tasavvuf adabiyotida ko'p asarlar bitilgan. Ana shunday kishilardan biri XIII asrda yashagan Aziziddin Nasafiy bo'lib, «Insoni komil» nomli risolasida barkamol, komil insonga ta'rif berib shunday yozadi: «Bilgilki, barkamol komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, barkamol, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolatga etgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif»¹. Bu sifatlar bilan ziynatlangan odam yolg'on, riyo va badkirdorlikdan chekinadi, hamma vaqt ezgu niyat bilan yashab, ezgu ishlarga tayyor turadi.

Barkamollikning belgisi haq yo'lidan borib, xalqqa foyda keltirishdir. Kishi o'z so'zi, amaliy ishlari, niyati bilan qanchalik odamlarga foyda keltirsa, yomonlarni to'g'ri yo'lga solsa, haq yo'lida fido bo'lsa, u shuncha barkamol bo'ladi.

Komil, barkamol insonni tarbiyalash, voyaga etkazish haqida musulmon Sharqi axloqi tarixida inson hayoti uchun dasturamal, ko'llanma vazifasini o'tagan ko'p pandnomalar, xalq kitoblari mavjud bo'lgan. Shulardan ba'zilarini sanab o'tamiz. Chunonchi, Kaykovusning «Qobusnoma», Sa'diyning «Guliston», «Bo'ston», Amir Temurning «Temur tuzuklari», Abduraxmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbub-ul-qulub», Husayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy» va boshqalarni ko'rsatishimiz mumkin. Bu asarlarning ko'pchiligida odil shoh va adolat, halollik, soflik, poklik, to'g'rilik, rostgo'ylik, insonparvarlik, ma'rifatli bo'lish kabi insonning Sharqona fazilatlarini berilgan.

¹ Xoshimov K. Pedagogika tarixi. -T.: O'qituvchi., -2008. -169 b.

Alisher Navoiyning «Nasoyimul muhabbat» asarida barkamol insonga xos xususiyatlar, uning Sharqona fazilatlarini sanab oʻtilgan. Bular qatoriga ulugʻ mutafakkir quyidagilarni kiritadi: tavba, halol luqma bilan qanoatlanish, oʻz kasbi orqali kun oʻtkazish, shariatga rioya etish, barchadan oʻzini kam deb bilish, hatto farzandlari, xizmatkorlariga qoʻpollik qilmaslik, yaxshi, muloyim tilli boʻlish, rahmdil, saxiy boʻlish, mard, xalimlik, xushxulq boʻlish, rizo-rozilik bilan kun oʻtkazish, sabrli, sadoqatli, vafoli boʻlish, riyoat chekishdan qoʻrqmaslik va boshqalar”.

Shu tariqa oʻtmishda, barkamol shaxsning oʻziga xos axloq kodeksi ishlab chiqilgan boʻlib, bu sifatlarga ega boʻlish har bir odamning orzu-armoni deb qaralgan. Barkamol inson haqidagi gʻoyalar katta ijtimoiy-axloqiy ahamiyatga ega boʻlgan. U insonni sharaflil, ezigulik va insoniylik ruhida tarbiyalash, mehru muhabbat, vafo va sadoqatni kuchaytirishga xizmat qilib keldi. Har zamon, har lahzada insonlarga ularning insonligini eslatib, yovuz, qabih ishlar, nojoʻya xatti-harakat va qiliqlardan saqlanishga koʻmaklashdi, ularda iymon va vijdon binosining paydo boʻlishini taʼminlaydi.

Barkamol, komil inson, iymon va eʼtiqodlilik, halollik va poklikning oliy timsoli hisoblanadi. Biz hammamiz shunga intilib yashamogʻimiz lozim. Mustaqil Oʻzbekistonning bozor munosabatlariga oʻtish sharoitida iymonli boʻlish, halollik va poklik, vijdonli va diyonatli boʻlish nechogʻlik zarur ekanligi hammamizga ayon. Mana shuning uchun ham Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev barkamol shaxs tarbiyasida yoshlarimizni elini, oʻz vatanini sevuvchi inson qilib tarbiyalash ishiga alohida ahamiyat berib kelmoqdalar.

Barkamollikning shakllanganligi darajasini xarakterlovchi eng muhim fazilatlar esa quyidagilardir: aqliy zukkolik, huquqiy komillik, axloqiy yetuklik, siyosiy teranlik, mehnatga halol munosabat, yuksak madaniy, maʼnaviy saviya, professional iftixor, milliy va umuminsoniy gʻurur va boshqalar.

Yuqoridagilarni hozirgi mustaqil hayotimiz, turmush tarzimiz, kishilarning, ayniqsa, yoshlarning intilishlari bilan bogʻlab barkamol shaxs chizgilariga quyidagi xislat va fazilatlar kirishini umumiy tarzda bayon etishimiz mumkin:

Barkamol shaxsning umumiy xislatlari: yoqimlilik, koʻrkamlilik, jozibadorlik, salobatlilik, hurmatga sazovorlik, shoironalik, ulugʻsifatlik, oʻziga xoslik, yetuklik, jiddiylik, madaniyatlilik, tarbiyalanganlik va boshqalar;

Barkamol shaxsning axloqiy fazilatlarini: insonparvarlik, doʻstlik, gʻamxoʻrlik, jonkuyarlik, samimiylik, odamiylik, bolajonlik, iymonlilik, fidokorlik, xushmuomalalik, boʻladlilik, iltifotlilik, kechirimlilik, mehmondoʻstlik, halollik, toʻgʻrilik, diyonatlilik, haromdan hazar qilish, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va hokazolar;

Ishbilarmonlik xislatlari: ishchanlik, tirishqoqlik, serharakatlilik, masʼuliyatlilik, insoflilik, halollik, malakalilik, epchillik, uddaburonlik, saranjom-sarishtalik, tadbirkorlik, aniqlik, tejamkorlik, barkamollik, tavakkalchilik va boshqalar;

Zukkolik, idroklilik fazilatlarini: zehnlilik, bamaʼnilik, xotirjamlik, sogʻlom fikrlilik, donishmandlik, sezgirlik, zakovatlilik, topqirlik, notiqlik, tanqidiylik, dadillik, omilkorlik, savodxonlik, qiziquvchanlik, ishqibozlik kabilar;

Sobitlik xislatlari: faollik, qat'iyatlilik, tezkorlik, jo'shqinlik, sabotlilik, bir so'zda turishlik, barqarorlik, botirlik, dovyuraklik, intizomlilik, jiddiylik, nafsni tiyishlik, o'zini yo'qotmaslik, sovuqqonlik, o'ziga talabchanlik, kamsuqumlik, o'zini o'zi idora qila bilish va boshqalar.

Ehtirolilik xislatlari: ko'tarinkilik, tantanavorlik, kulib turuvchanlik, xazinlik, kelajakka ishonch, ezgulik, kek saqlamaslik, olijanoblik, otashinlik, nozik tabiatlilik, xayolilik, hijolatpazlik, iffatlilik va hokazolar.

Bizningcha, ayni shu xislat va fazilatlarini yoshlarimiz ongiga singdira borilishi ularni barkamol, sog'lom va komil inson ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk allomalarimiz tomonidan yaratilgan og'zaki, yozma ijodiyot, Hadisi sharif, xalq kitoblari, pandnomalarida avloddan avlodga o'tib kelayotgan iymon-e'tiqod sirlarining nazariy va amaliy jihatlarini haqidagi bilimlar bilan yoshlarni qurollantirish lozim.

Demak,

- barkamol inson uchun zarur bo'lgan ijobiy fazilatlar mohiyati va mazmunini to'g'ri tushunish hamda tahlil qilib munosabat bildirish;

- jamoada yashash, mehnat qilish malakalarini egallash;

- barkamol inson modulini tasavvur etish, uning ma'naviyatidagi zaruriy sifatlarni shakllantirish, shakl va yo'llarini izlash.

O'quvchi-talabalarni ma'naviy boy, jismoniy jihatdan sog'lom qilib tarbiyalash maqsadida dastlab ularning tarbiyaviy darajasini aniqlash lozim.

Tarbiya - ma'naviy manbalar va hozirga zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir, degan qoidaga amal qilish zarur.

Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari o'qituvchi-pedagog tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi:

- a) talabaning qaysidir xislatini shakllantirish yoki yo'qotish maqsadida rejalashtiriladi.

- b) shu xislatlarni tarbiyalash yoki yo'qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi.

- v) belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlatish rejalashtiriladi. Bunday rejaga solinib olib borilgan tarbiya mohiyatini ta'lim-tarbiya tizimi, jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyati tashkil qiladi.

Mustaqillik ruhida yangicha fikrlaydigan fozil, komil inson, eng avvalo, fuqarolik burchini a'lo darajada his etadigan shaxs bo'lishi darkor. Sodda qilib aytganda, har qaysi barkamol shaxs, har birimiz: «Shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi?» deb emas, balki: «Men o'zim Vatanimga, elu yurtimga nima berdim?» deb o'ylashimiz va har dam shu aqida bilan yashashimiz kerak.

10.2. Tarbiya jarayoni haqida tushuncha

Tarbiya jarayonining mohiyati nimadan iborat? Bu oddiy savol bo'libgina qolmay, pedagogika rivojlanishi shu vaqtga qadar ushbu muammoni yechish

yuzasidan ko'pgina qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Avvalo shu narsani bilib olish lozimki, tarbiya tushunchasi har xil mavzuda qo'llanishi lozim. Masalan, tarbiya deganda, yosh avlodni kelajak hayotga tayyorlash tushuniladi. Lekin, bu tayyorlash maxsus tashkil qilingan tarbiya faoliyatlari bilan amalga oshirilishi mumkin.

Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq shakllantirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, o'quvchi-talabaning shaxsiga muntazam va sistemali ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki yoqlama faoliyatni ya'ni, pedagog va talaba faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy aloqalarga xizmat qiladigan xulqiy odatlari hosil qilinadi.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonning mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi va mushohada qilish aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharaflı mehnat va qunt, irodani talab etadi. Buning uchun o'sib kelayotgan yosh avlodning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ma'naviy, insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi va bolalarga bo'lgan munosabat muhim rol o'ynaydi. Ota-onalarimiz va atrofdagilarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini ko'rgan bola shunga qarab shakllana boradi. Ular avval kattalarga taqlid qiladilar. So'ng sekin-asta qilayotgan ishlarining mohiyatini anglaydilar. Bolalarni to'g'ri tarbiyalashda ota-onaning ongi, ma'naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya o'qituvchi-pedagogning tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir ko'rsatishi emas, balki ustoz-murabbiylar va o'quvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o'zaro ta'sir ko'rsatishi alohida ta'kidlanadi.


Tarbiya jarayonida o'quvchi-talabalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida inson kamolatida tarbiyaning rolini alohida ta'kidlab shunday degandi: «Janobi haq insonlarning asl hilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga etkazmoq tarbiya vositasida bo'ladi. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuv xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o'ssa, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har xil buzuv ishlarni qiladigan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo'lib qoladi. Tarbiya qiluvchilar Tabib kabi, Tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berib, katta qilmog'i lozimdir. Zeroki, amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmoqqa amr qilinganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasi tarbiyadir. Axloqimiz binosining go'zal

va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordir"¹.

Pedagogikada tarbiyaning maqsadi, mazmuni, shakl va usullari tarbiyalanuvchi shaxsining qaror topishi bilan mustahkam bog'liq holda qarab chiqiladi. Tarbiya jarayonida shaxsni shakllanish jarayonini quyidagi 7-rasm orqali ko'rsatib o'tamiz.

Tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash bilan mustahkam bog'langan. O'z-o'zini tarbiyalash kishining o'z shaxsini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatidir. O'z-o'zini tarbiyalash to'g'ri tarbiya berish bilan birga sodir bo'ladi va ayni vaqtda to'g'ri tarbiya natijasi hisoblanadi. O'z-o'zini tarbiyalashning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'quvchi-talaba o'zini to'g'ri baholay bilishga o'rganishi, hayotda o'zi intilishi lozim bo'lgan idealni aniq tushungan holda o'zidagi ijobiy sifatlarni va kamchiliklarni ko'ra olishi muhim ahamiyatga ega.

Psixologik va pedagogik tadqiqotlarga qaraganda shaxsga tashqi omillar ta'siri u xoh ijobiy, xoh salbiy ta'sir ko'rsatsin, tarbiyalanuvchi tarbiyasida ular ta'sir ko'rsatadi.



7-rasm. Tarbiyada shaxsni shakllantirish jarayoni

Tarbiyalanuvchining shaxsiy tajribasi va ehtiyojlari tashqi ta'sirga munosabatni belgilab beradi va uning xulqiga ta'sir etadi. Shuning uchun tarbiyalanuvchi faoliyatini uyushtirishning o'zigina kifoya qilmaydi. To'g'ri tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qalbidan paydo bo'ladigan munosabatni, turli xil kechinmalarni qanday anglashni, his qilishni hamda ulardan o'zi uchun nimalarni maqsad qilib olganligini bilish zarur.

Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongiga emas, balki uning his-tuyg'ularini ham o'stira borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun talabaning ongiga (ta'lim jarayoni asosida) hissiyotiga (darsda va darsdan tashqari ishlarda) va irodasiga (faoliyatni uyushtirish, hulqini idora qilish

¹ Avloniy A Turkiy guliston yoxud axloq. – T., 1992. 43-bet.

jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir qilib boriladi. Talabani tarbiyalashda bularning birontasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetda qolsa maqsadga erishish qiyinlashadi. Shuning uchun tarbiya jarayoni ko'p qirrali va murakkab jarayon deb yuritiladi.

Bir butun pedagogik jarayonda ta'lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, unga tayyorlanishdek mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyaning vazifalari ko'p qirralidir. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchi-talabalarni bilimlar bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiyada o'quvchi-talabaning jamiyatimizda qabul qilingan axloq-odob qoidalariga mos keladigan e'tiqodini, axloqiy malaka va ko'nikmalarini, ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirish muhimdir.

10.3.Shaxs va uning rivojlanishi haqida tushuncha

Har qanday jarayon o'z natijasiga erishishga qaratilgan qonuniy va izchil harakatlar tizimidan iborat bo'ladi. Tarbiya jarayonining eng asosiy natijasi har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib uyushtirishni va rahbarlikni ham, tarbiyalanuvchi shaxsning o'zi faollik ko'rsatishini ham talab etadi. Chunki, u tarbiyaning umumiy maqsadlarini amalga oshirish dasturini ishlab chiqadi, tarbiya shakllari, metodlari va usullarini asosli tarzda tanlab oladi va tatbiq etadi.

Sharqda ham azaldan farzand tarbiyasiga katta e'tibor bilan qarab kelingan. Yurtga, vatanga muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob insoniy fazilatlarni asrab, avaylash va yanada takomillashtirish, farzandlarimizni ozod va demokratik O'zbekistonning munosib o'g'il - qizlari qilib tarbiyalash masalasi tarbiya sohasidagi ishlarimizning asosiy yo'nalishini tashkil etmog'i kerak. Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan quroli ekan, undan oqilona foydalanish, tarbiyalanuvchilarni vatanparvarlik, rostgo'ylik, xalqsevarlikka o'rgatish kerak bo'ladi. Aslida olganda axloq ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik xushmuomalalikdangina iborat emas, balki axloq -bu insof va adolat tuyg'usi, iymon va halollik deganidir.

Qadimda ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini zamonaviy tilda aytsak, Sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar.

Sharq tarbiyasida islom dinining roli muhimdir. «Islom dini-bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik. Ana shu ma'rifatli kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladigan va yaxshi o'gitlarga amal qiladilar. Mehr-oqibatli, nomusli, oriyatli bo'lishiga izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar». Islom dini har qanday davrda ham insonlarni poklikka undagan, yaxshi xislatlarni ko'paytirib yomon xislatlardan xalos etishga chorlagan.

Pedagogika tarbiyalanuvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun zarur bo'lgan eng samarali shart-sharoitlarini o'rganadi va aniqlaydi. Bu masalani hal qilish uchun avvalo «shaxs» degan umumiy tushunchaning ma'nosini va shaxsning rivojlanish qonuniyatlari, rivojlanishning ko'rsatkichlarini shaxsning shakllanishida ayrim muhim omillar rolini bilish, individning rivojlanish jarayoni bosqichlarini aniqlash, shaxsni shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning shaxs faolligi rolini o'rganish kerak bo'ladi.

Birinchi galda rivojlanish tushunchasining ma'nosini ochib berish lozim. Bu masala filosofik jihatdan baho berish bilan asoslanadi. Filosofiya rivojlanishni tabiat, jamiyat va tafakkurning xususiyati deb quyidan yuqori tomonga bo'lgan harakat deb, yangining tug'ilishi va eskining yo'q bo'lishi yoki tubdan o'zgarishi deb hisoblaydi.

Shuning uchun pedagogikada shaxsning rivojlanish jarayoniga inson shaxsini takomillashtirishning murakkab va ziddiyatli yo'li deb qaraladi.

Murakkab bo'lgan tushunchani tahlil qilganda turli olimlar turli xususiyatlarni asosiy tomonlar deb ko'rsatib kelganlar. Aql, hissiyot va irodani shaxsning uch asosiy tomoni deb ajratib ko'rsatish eng dastlabki urinishlardan edi. Keyinchalik pedagog olimlar shaxsni o'rganishga boshqacha yondasha boshladilar. Shaxs doim bir butun, murakkab hodisa bo'lib unda insonning biologik xususiyatlari ham, ijtimoiy xususiyatlari ham gavdalanadi. Bir shaxsda uning hamma tomonlari, xususiyatlari ham sifatlari bir-biri bilan bog'langan bo'ladi. Bu bog'lanishlar nihoyatda xilma-xil bo'lib, turli kishilarda turlicha sodir bo'ladi. Ba'zan ular bir-biriga zid va o'zgaruvchidir. Shuning uchun ham kishilarning har bir sifati, masalan irodasi, xotirasi yoki xarakter xususiyati uning qanday tilak va orzular bilan yoki boshqa sabablar bilan kirishganiga qarab mutlaqo har xil ahamiyat va qimmat kasb etadi. Xayol boyligi kishining ijodiy faoliyati uchun zarur bo'lgan qimmatli xususiyatdir ammo, odam xayolida o'ylab turgan narsalarini amaliy faoliyatida ro'yobga chiqarmasa, bu xayol boyligi salbiy xususiyat bo'lib qoladi. Musiqaga qobiliyati bo'lgan kishi uni yaxshiroq o'rganish uchun intilmasa va mehnat qilmasa, uning qobiliyati o'smaydi¹.

Turmushda kishi o'zidagi ba'zi zaif tomonlarni, odatlarni kuchliroq sifatlari bilan qoplashga harakat qiladi. Biror narsani uncha tez tushunib ololmaydigan odam astoydil harakat qilib va zo'r berib uni tushunib oladi va mehnatini to'g'ri tashkil etadi. Har bir kishi juda ko'p odamlar bilan xilma-xil munosabatlarga kirishganda o'zining turli xususiyatlarini namoyon qiladi.

Shaxsning eng barqaror va ahamiyatli xislatlari uning boshqa odamlarga, mehnatga, Vatanga bo'lgan turli munosabatlarida ifodalanadi. Bu xislatlar kishidagi ayrim psixik jarayonlarning kechish xarakterini ham ko'p jihatdan belgilab beradi.

Pedagogika fani shaxsni biologik va ijtimoiy xususiyatlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan bir butun narsa deb hisoblaydi. Kishining yoshi, sog'ligi, kasalligi, uning faoliyatidagina emas, balki turmush tarziga ham ta'sir qiladi. Lekin shaxsning butun qiyofasini belgilab beradigan unga o'z jismoniy kamchiliklarini xarakteridagi salbiy xususiyatlarni yo'qotish kuch bag'ishlaydigan sabablar, qiziqishlar, maqsadlar, ya'ni ijodiy hayot natijalari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shaxs tushunchasi ijtimoiy foydali faoliyatda qatnashishga ehtiyoj sezishini va faol ishtirok etishini, har bir kishining boshqa odamlar bilan munosabatda bo'lish ehtiyojini, bu munosabatning mazmuni va shakllarini, shaxs bilan uning atrofidagi kishilar o'rtasidagi munosabatlar tizimini, uning tabiatga, tevarak-atrofdagi dunyoga munosabatini shaxsning asosiy xususiyatlari deb ajratish mumkin. Shaxsning ko'p sohali va har tomonlama faoliyatida turli xil odamlar bilan aloqada shaxsning hamma

¹ Ochilova G.O., Musaxanova G.M. Pedagogika. –T.: TDIU, 2017. -36 b.

qiziqishlari namoyon bo`ladi, uning odamlarga umumiy ishga, o`z malakasiga va o`ziga bo`lgan munosabatlari shakllanadi. Biroq shaxs ijtimoiy turmush mahsuli bo`lish bilan birga tirik organizm hamdir. Organizmning hayoti biologik qonunlarga bo`ysunadi. Birinchi galda nerv tizimining xossalari mavjudga keltiradigan temperament xususiyatlari tufayli insonning butun xulq-atvori alohida xarakterga ega bo`ladi. Shaxsning tarkib topishi va xulq-atvorida ijtimoiy va biologik jihatlar munosabati nihoyatda murakkab bo`lib, kishi tarakqiyotining turli davrlarida uning boshqa odamlar bilan bo`lgan aloqalarining turli vaziyat va ko`rnishlarida har xil keskinlikda namoyon bo`ladi.

Shaxsga avvalo uning ijtimoiy qiyofasiga, kishining o`z atrofidagi odamlar hayoti bilan bog`liq holda ifodalanadigan qiyofasiga qarab baho beriladi, kishi tevarak atrofidagi odamlar bilan xilma-xil munosabatlarga ba`zan o`ziga bog`liq bo`lmagan munosabatlarga kirishib o`zining mohiyatini namoyon qiladi. Shaxsning barcha xislatlari atrofda kishilar bilan munosabatida shakllanadi. Shaxs odamlar orasidan tashqarida yashay olmaydi va shakllanmaydi.

Hozirgi davrda shaxsni ma`naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash davlat siyosatining bosh mezoni hisoblanadi. Shaxs rivojlanishiga to`g`ri yondashish uchun shaxsning tabiatini, tuzilishini uning xulq-atvorini va unga ta`sir ko`rsatish vositalarini bilish zarur.

Tug`ilgan inson shaxs bo`lib shakllanishi lozim. Bu jarayon bir qancha omillar ta`sirida sodir bo`ladi va muayyan qonunlarga bo`ysunadi. Odatda shaxs shakllanishi uchun uchta asosiy omillar tan olinadi. Bular **irsiyat, atrof-muhit va tarbiyadir**. Ushbu omillarning hech biri vaziyat va sharoitlarga bog`liq bo`lmagan holatda mustaqil ravishda shaxs shakllanishiga ta`sir eta olmaydi. Bundan tashqari ba`zi omillar faolroq, muntazamroq ta`sir ko`rsatadi va kishilarning ongli irodasiga bo`ysunadi boshqalari esa boshqarilishi qiyin bo`lgan omillardir. Ba`zi omillarning ta`siri stixiyali ravishda sodir bo`ladi va shaxs tarbiyasi bilan shug`ullanuvchi ayrim kishilarning irodasiga, tashkilotsizlik qobiliyatlarida va boshqalarda bog`liq bo`lmaydi.

Tarbiyaga shaxsning his-tuyg`ularini, xarakterini, jismoniy rivojini, xulq-atvorini muayyan yo`nalishda shakllantirish maqsadida kishilar bir-biriga ta`sir ko`rsatadigan ijtimoiy hodisa deb qarash lozim. Pedagogika sohasining yetuk olimlari ijtimoiy omilning hal qiluvchi ahamiyatiga ega ekanligini himoya qiladilar, shaxs yaxshi yoki yomon bo`lib tug`ilmaydi. Balki, tarbiyaning ta`siri ostida yaxshi yoki yomon bo`lib o`sadi deb isbotlaydilar. Xo`sh shaxs tarbiyasi uchun ta`sir etuvchi omillar qaysilardan iborat? Bu asosan uchta omilni tashkil etadi. Biologik omil, atrof - muhit va tarbiyadagi omillardan iboratdir.

Biologik omil. Bu omilning ta`sirini avvalo shuning uchun e`tiborsiz qoldirib bo`lmaydiki, shaxs tirik organizmdir, uning hayoti biologiyaning umumiy qonunlariga ham, yoshlar anatomiyasi va fiziologiyasining maxsus qonunlariga ham bo`ysunadi. Hayotning muayyan davrlarida shaxsning ayrim organlari va butun bir organlar sistemasining tuzilishida va funksiyalarida o`zgarishlar yuz beradi. Shaxsning sog`liq holati va bu holat ko`p yoki oz muddat buzilib turishi biologik omilga taalluqlidir. Shaxs hayotida nerv faoliyatining individual va tipologik xususiyatlari, yosh va jinsiy jihatdan bo`lgan tafovutlar katta rol o`ynaydi, ular irsiy

omillar emas, balki tug`ma xususiyat va tafovutlardir. Organizmning biologik etilishi qonunlarga asoslanadi. Bu qonun muhitning ba'zi bir tarbiyaviy ta'sirlariga turli darajada bo'ysungan holda amal qilishi kerak. Lekin shaxs organizmning biologik hayoti uning psixik rivojlanishini bevosita belgilab bermaydi va shu bilan birga, unga nisbatan mutlaqo betaraf va befarq hodisa bo'lib ham qolmaydi. Biologiyaning asosiy tushunchasi bo'lgan irsiyatning roli olimlar tomonidan jiddiy muhokama qilib kelinmoqda. Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, ota-ona organizmining uzoq muddat bir xil sharoitda yashashi natijasida mustahkam o'rnatib qolgan xossalari irsiyat yo'li bilan o'tadi.

Muhit. Biologiya fani muhitni organizm yashaydigan joy deb, muhitning ta'siri esa organizm bilan bog'liq bo'lgan muhit o'rtasidagi assimiliyahiya va dissimiliyahiya yoki moddalar almashish qonuni asosida amalga oshadi, deb tushuntiradi. Bu qonunga binoan organizm yashab turgan muhit bir butun narsadir. Tabiiy muhit yorug'lik, issiqlik, ovqat, havo kabi komponentlari shaxsning organizm sifatida rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Ammo shaxsning shaxs sifatida shakllanishi uchun bu mutlaqo etarli emas. Shaxsning yashab turgan muhitida odamlar, birinchi navbatda tarbiyalanuvchiga yaqin kishilar, ya'ni oz sonli oila a'zolarigina emas, balki unga uzoqroq bo'lgan kishilar uning qo'ni-qo'shnilari, mahallasi, tarbiyalanuvchilar bog'chasidagi o'rtoqlari, so'ngra esa u birga o'qiydigan, o'ynaydigan, birga ishlaydigan, turli aloqada bo'ladigan o'rtoqlari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Hozirda tarbiyalanuvchilar ommaviy axborot vositalari orqali o'zlariga notanish avlod-ajdodlarining jonli obrazlariga duch keladilar. Bu obrazlar yosh avlodning fikr va hislariga uning voqea-hodisalariga beradigan baholariga va intilishlariga ta'sir ko'rsatadi. Bunday ta'sir ijobiy yoki salbiy o'tadigan birdan-bir yo'l shaxsning tevarak - atrofidagi odamlar bilan munosabatda bo'lishidir, shaxs munosabatda bo'lgan kishilar uning muhitidir. SHaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'ziga xos modda almashish tipi bo'lgan aloqa orqaligina shaxs o'tmish - avlodlarining qimmatli tajribasini o'zlashtira olishi eng yaxshi katta kishilardan namuna ola bilishi mumkin.

Faqat munosabatda tarbiyalanuvchilarning tarbiyachilari kattalarga emas, balki tarbiyalanuvchilarning o'zlari ham faol qatnashadigan mana shu aloqadagina, faqat ana shu ikki yoqlama jarayondagina shaxs xilma-xil bilim oladi juda ko'p malakalarni va ish usullarini egallaydi, o'zining sezgi organlari orqali idrok qilgan narsalarini anglab olishga tashqi dunyodagi voqea va hodisalarga turli xil his-tuyg'ular fikr va tasavvurlar bilan javob berishga o'rganadi.

Odamlar bilan munosabatda u nima yaxshiyu nima yomonligini nimani qilish va qilmaslikni bilib oladi, u muayyan maqsad ko'zlab aqlga muvofiq ish tutishni hamda insonlarga va ularning fe'l-atvorlariga tanqidiy baho berishni o'rganadi. Odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida shaxs yaxshi fazilatlar bilan boshqa shaxslar o'rtasida ajralib tura boshlaydi, o'zi yashab turgan jamiyatda qabul qilingan axloq me'yorlarini boshqalarga va o'ziga nisbatan qo'llab, ularni o'z ishida mezon qilib ola boshlaydi. Demak, **birinchidan, muhit shaxsni rivojlantiruvchi omil** sifatida tarixan o'zgaruvchi ijtimoiy hodisadir, chunki muhit, hatto shaxs dunyoga kelgan dastlabki kunlardan uning hayoti o'tadigan eng tor muhit ham, ya'ni shaxsning oilasi ham jamiyatning bir uyasi, hujayrasidir. Tarixiy taraqqiyotning har bir davrida yangi kishini tarbiyalashning maqsadlari va vositalari o'zgaradi, axloq me'yorlari,

madaniyat boyliklari, katta yoshdagi odamlarning did va qiziqishlari, fikr yuritish usullari o'zgaradi.

Ikkinchidan, tarbiyalanuvchi o'z faolligi tufayli, moddiy, tabiiy va ayniqsa ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqaga kiradi. Faqat ana shu sharoitdagina muhit o'sib kelayotgan shaxsni rivojlantiruvchi omil bo'lib qoladi. Inson tarbiyasida muhit muhimmi yoki tarbiya degan savolni qo'yish mantiqan to'g'ri bo'lmaydi. Bu narsa g'ayriqonuniydir. Ammo muhit shaxsga ma'lum darajada tarbiyalovchi ta'sir ko'rsatgan taqdirdagina rivojlantiruvchi omil bo'la oladi. Bu ta'sir stixiyali, tartibsiz ko'rinishda bo'lishi mumkin, bunday holda shaxsning rivojlanishi ham muayyan maqsadga qaratilmagan bo'ladi, natijada shaxsda jamiyat uchun ham, shaxsning o'zi uchun ham zararli bo'lgan shaxsiy fazilatlar vujudga keladi.

Tarbiyalanuvchining o'z atrofidagi moddiy va ijtimoiy muhit bilan aloqada bo'lishi, uni rivojlantiruvchi asosiy sabab ekanini tushunish munozarali bir masalani, shaxsning psixik taraqqiyotida eng muhim narsa biologik omilmi yoki ijtimoiy omilmi degan masalani hal qilish imkoniyatini beradi. Shaxs hayotda va kattalar bilan munosabatda o'z individualligini tashkil etgan jismoniy va psixik sifatlarining butun majmui bilan harakat qiladi. Shunday qilib biologik va ijtimoiy omilni biri-biriga qarama-qarshi qo'ymaydi.

Pedagogikada tarbiyalanuvchining rivojlanishini uning faoliyati va shu faoliyat tufayli yuz beradigan, shaxsning tevarak-atrofdagi voqelikka bo'lgan munosabatlarida, bilish jarayonlari va xarakter xususiyatlarini rivojida hosil bo'ladigan sifat o'zgarishlardan iborat murakkab jarayon deb hisoblaydi. Faoliyatsiz rivojlanish bo'lmaydi. Shaxsdagi rivojlanish mohiyati avvalo shundan iboratki, uning faoliyati o'zgarib va takomillashib boradi, faoliyat turlari (o'yin, o'qish, mehnat va boshqalar) ko'payadi, har xil faoliyat turlarining o'zaro nisbati, ularning natijalari o'zgaradi va shu o'zgarishlar jarayonida shaxsning rivojlanishi yuqoriroq darajaga ko'tariladi. Shunday qilib, bilish jarayonlarida ham tarbiyalanuvchining dunyoga bo'lgan munosabatida ham, uning turli faoliyatida ham murakkab sifat o'zgarishlari sodir bo'ladiki, bu shaxs rivojlanishining mohiyatini tashkil etadi.

Faoliyatning har xil turlarida shaxsning individual xususiyatlari shakllanadi. Bu xususiyatlar faoliyatning maqsadlarida, faoliyatga undagan sabablarda kishi o'z oldiga qo'ygan maqsadni amalga oshirish uchun foydalanadigan yo'l, usul va vositalarni va uning o'z ishiga, o'z faoliyatiga, o'zi va boshqalarning yutuq va muvaffaqiyatsizliklariga qanday qarashida namoyon bo'ladi.

Kishi o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishda foydalanadigan vositalarga qarab ham shaxsga baho berishi mumkin. Bunda odam o'zidagi bilimini, o'zi yaxshi bilib olgan ish usullari, malaka va ko'nikmalarni qo'llaydi, qobiliyatlar ham shaxsning imkoniyatlaridandir. Kishining imkoniyatlari aksariyat hollarda o'zi o'ylaganidan ko'ra, ancha ko'p yoki oz bo'ladi. Talabchanlik darajasi ochiq ifodalangan sabab vaziyatning murakkabligi va masalani hal qilish yo'lini topish zarurligi unda bo'lgan yashirin imkoniyatlarini oshirib ko'rsatadi.

Shaxsning o'zi yutuq va kamchiliklariga munosabati, beradigan bahosi bu boradagi ruhiy kechinmalari ham uning onglik darajasini ko'rsatadi. O'z yutuqlariga takabburlik yoki kamtarlik bilan baho berish, muvaffaqiyatsizlikka uchraganda umidsizlanish yoki masalani hal etish yo'lini topishi uchun yana ham ko'proq sabr,

matonat bilan harakat qilish bu turli xil ruhiy kechinmalarning hammasi kishining o'ziga va boshqalarga bo'lgan talabchanligini, o'ziga-o'zi baho berishini va bu bahoning qanchalik asosli ekanini har xil tarzda yaqqol namoyon etadi.

Shunday qilib, shaxsning eng muhim xususiyati uning tevarak-atrofidagi dunyoga bo'lgan munosabatlari tizimidir. Kishi qancha ko'p bilsa har - xil odamlar bilan aloqada bo'lib turli xil ishlarda bo'lsa, shaxs sifatida unda o'z mamlakatining fuqarosi, yangi jamiyatning faol quruvchisiga xos eng yaxshi xislatlar shuncha yorqinroq ifodalangan bo'ladi.

Shaxsning shakllanishi uchun zarur bo'lgan omillardan yana biri bu tarbiyadir. Tarbiya bu aniq maqsadga yo'naltirilgan, muayyan vazifalar belgilangan, shuningdek, shaxsga ta'sir o'tkazishning aniq yo'l, vositalari ko'rsatilgan va maqsadga muvofiq tashkil etilgan jarayondir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi – shaxsning aqliy, axloqiy, his-tuyg'uli va jismoniy rivojlanishi, qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish, imkoni boricha qulay sharoitlar yaratishdan hamda yosh avlodni o'z xalqining hayotini yaxshilashga, Vatanining gullab-yashnashiga sarflashni biladigan, istaydigan a'zolari qilib tayyorlashdan iboratdir.

Tarbiya shaxsning rivojlanishini ta'minlashi uchun shaxsdagi rivojlanish mohiyatini tushunish, uning bilish va aloqa boshlash faoliyatining o'zgarish sabablarini aniqlashi zarur. Tarbiyachi shaxsni rivojlantiruvchi eng muhim omilni ham bilishi, stixiyali ta'sir ko'rsatayotgan faktorlarni bartaraf etishi, shaxsda dunyoqarashni shakllantirish, uning o'sishi va rivojlanishining muayyan yosh bosqichlariga oid tarbiya qonunlarini aniqlashi kerak. Tarbiyaning shaxsni rivojlantirishdagi roli to'g'risida turli xil nuqtai nazarlar bo'lganligi pedagogika fanining taraqqiyoti tarixidan ma'lumdir. Pedagogika tarbiya omiliga faol rol ajratadi va shaxsning jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik rivojlanishiga to'g'ri tashkil etilgan tarbiyagina yordam beradi. Shu bilan birga tarbiyaga ikki yoqlama jarayon deb qaraladi, unda faqat katta yoshdagilar emas, balki kattalar tajribasini o'zlashtiruvchi shaxslar ham faol rol o'ynaydilar.

Tarbiyaviy ishda talabaning kuchi va qobiliyatlarini hisobga olmaslik kabi jiddiy kamchilik ham uchrab turadi. Har bir shaxsning o'z ehtiyoj va qiziqishlari bor. U aqlli tarbiyachining izidan borishi yoki belgilangan yo'nalishda faol harakat qilishi, ba'zan esa tarbiyachiga e'tiroz bildirishi, kattalar bilan turli xil aloqada bo'lishi yoki boshqalarga qo'shilmay, passiv holda yurishi mumkin. Tarbiyalanuvchi o'z rivojlanishining obyekti va sub'ekti sifatida harakat qilganda bu jarayon eng muvaffaqiyatli boradi. Shu bilan birga shaxsning faolligi, tashabbuskorligi, mustaqilligi ancha oshadi va uning o'zini o'zi tarbiyalashida namoyon bo'ladi.

Pedagogika fanining asoschisi Ya.A.Komenskiy: «Har bir hunarmand buyumni yasashga yaroqli materialning xossalarini o'rgangani singari, o'z oldiga insonni barkamol qilib tarbiyalash vazifasi turgan pedagog ham shogirdining qanday xislatlarga ega ekanligini bilishi kerak» - degan edi. Albatta pedagog qaysi fandan dars bersa o'sha fanni, talabalarning shu fanni to'g'ri o'zlashtirishlariga yordam beradigan uslublarni yaxshi bilishlari lozim. Ammo talabaning ehtiyojlari, qobiliyatlari qiziqishlari va ularning chin ko'ngildan xohlab chidam va matonat bilan o'qishga tayyormi-yo'qmi ekanligini hisobga olinmasa, o'qish qoniqarli natija

bermaydi, pedagogning mehnati og'ir kechadi. SHaxsning fikrlash qobiliyati va xarakter xususiyatlarini nazarda tutgan holda olib borilgan ta'lim talabalarni bilim olishga rag'batlantiradi, o'qishning muvaffaqiyatini ta'minlaydi, pedagog va talabalar faoliyatini zavqli ijodiy ishga aylantiradi.

10.4. Shaxs rivojlanishida yosh va individual xususiyatlar

Tarbiyalanuvchilar kattalarga ko'ra o'zgacharoq fikr yuritishlari, his qilishlari va yurish-turishlari hammaga ma'lum. Tarbiyalanuvchidagi o'sish va rivojlanishning yosh bosqichlari masalasi yuzaki qarashda oddiy masala bo'lib ko'rinadi. Ma'lum bo'lishicha, bu jarayon bir tekisda bormay, sakrashlar bilan notekis holda borar ekan, har qaysi yosh davrining o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari bor. Anatomiya, fiziologiya va psixologiya fanlari sohasida, tananing ayrim organlarining rivojlanish qonuniyatlarini ham bu organlar butun tizimining faoliyatini ham ochib beruvchi g'oyat ko'p dalilli material to'playdi. Tadqiqotchilar tananing ayrim organlari va qismlari ko'pincha bir-biridan o'zib ketib, o'zaro kelisha olmay o'sishi va rivojlanishini ko'rsatdi. Bu hol shaxsning yoshini davrlarga bo'lishda alohida qiyinchiliklar tug'diradi.

Tarbiyachi albatta tarbiyalanuvchini aqlli va odobli qilib tarbiyalashi uchun bor kuch va imkoniyatni ishga soladi. Tarbiya jarayoni haqidagi tasavvurda tarbiyaning inson shaxsini shakllantirishda katta imkoniyatlar va buyuk roli borligini tasdiqlovchi to'g'ri fikr bayon etilgan. Ammo bu tasavvur aniq emas. U tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladigan obyektning o'ziga xos xususiyatini, ya'ni uning rivojlanayotgan, jonli mavjudod ekanligi e'tiborga olinmaydi. Shaxs doimo tarbiya jarayonining faol ishtirokchisidir. U pedagogik ta'sirlarni yaxshi qabul qilishi mumkin, biroq ularga qarshilik ko'rsatishi, ularni qabul qilmasligi ham mumkin. Shaxs tarbiyachining maslahati, iltimosi va topshirig'ini bajarishni xohlaydi. Tarbiyalanuvchi pedagogning uyga bergan darsini tayyorlashga moyil bo'lishi kerak. Ularning faoliyati asosan beixtiyor faoliyatdir yoki tabiiy yoki ijtimoiy muhit ta'siriga berilgan javobdir. O'smirlik davrida insonning faoliyatiga ko'p darajada ichki sabablar tufayli sodir bo'ladi.

Shunday qilib shaxs rivojlanishidagi uning intellektual qobiliyatlari va ijtimoiy ongi o'sishidagi muayyan bosqichda shaxs o'zi uchun tashqi bo'lgan maqsadlarnigina emas, balki o'z shaxsiy tarbiyasining maqsadini ham anglay boshlaydi. U o'ziga sub'ekt deb qarashga o'tadi. Shaxsning ichki sabablari shaxsning o'z nuqsonlarini yo'qotish va eng yaxshi insoniy fazilatlarini hosil qilish vazifasini o'z oldiga qo'yishining asosidir. Shaxsning o'z bilim va malakasini oshirishi, o'zini-o'zi tarbiyalashi uning obyektiv maqsadni o'z faoliyatining sub'ektiv zarur motivi deb anglashi va qabul qilishdan boshlanadi. Shaxs o'z xulq-atvori yoki faoliyatini sub'ektiv ravishda muayyan maqsadga qaratishi ifodasini ongli suratda ishga soladi, ertangi kunning rejasini tuzish masalasini qo'yadi. Bu maqsadning amalga oshirilishida obyektiv va sub'ektiv qiyinchiliklar yuz berishi muqarrardir.

Tarbiya san'ati shaxsda o'zini-o'zi takomillashtirishga intilishini mumkin qadar ertaroq uyg'otish va unga o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni amalga oshirish yo'lini ko'rsatib, yordam berishdan iboratdir. Bu ishda pedagoglar, ota-onalar hamma vaqt va hamma joyda kuchli va yaxshi bo'lishni istaydigan shaxsning o'ziga tayanishlari

kerak. Tarbiyalanuvchilarning o`shish bosqichlari asosan uch bosqichda rivojlanib boradi.

O`quv muassasasida tizimli ravishda o`qishga borganidan keyin hayot tarzi butunlay o`zgarib boradi. Endilikda u qiziqarli bo`lmagan ammo kerakli narsalarni bilib oladi. O`qish o`quv muassasasigacha davrda egallangan hali ilmiy bo`lmagan hayotiy tushunchalarga qator o`zgartirishlar kiritadi.

O`spirinlik yoshining eng xarakterli belgisi - tarbiyalanuvchining katta odamga aylanishi ya`ni balog`atga etishidir. O`spirin xuddi shaxsga o`xshab barcha taassurotlarni jon jahdi bilan o`zlashtiradi, jismoniy va ma`naviy jihatdan voyaga etadi, bo`ysunishini idrok qiladi, undan o`zi uchun kuch va jasorat oladi, lekin o`z kuch-qudratining chegarasini o`zi hali bilmaydi. O`spirin nisbatan ko`proq darajada kattalar hayotining ishtirokchisi hisoblanadi, oiladagi ancha ma`suliyatli vazifalar uning zimmasida bo`ladi. Tevarak-atrofidagilar ham o`spiringa nisbatan boshqacha munosabatda bo`la boshlaydilar. Lekin uning ma`naviy va jismoniy kuchlarini kattalarga tenglashish uchun, o`zining porloq rejalarini amalga oshirish uchun hali etarli darajada aniq emas. O`spirinlik yoshining ichki ziddiyatlari ana shulardan iborat. O`zining jismoniy taraqqiyotini anglash o`spirinda xususiy qadr-qimmatini tanqid qilish istagini, mustaqillik sari intilishni keltirib chiqaradi. O`spirin biron bir darajada o`zini ko`rsatishini xohlaydi. Bularning hammasi uning faolligini kuchaytiradi, ijodiy tashabbuskorligini rivojlantiradi, uni ijtimoiy hayotga olib kiradi, mas`uliyat va burch tuyg`usini oshiradi. Aytib o`tilgan xususiyatlar o`quv muassasasi talabasining ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirish uchun o`spirinlik yoshini ayniqsa maqbul qilib qo`yadi. Ushbu davrda ayrim yomon illatlar ham shaxsda borligi yaqqol ko`zga tashlanishi mumkin.

Yoshlik davri - bu shaxs balog`atga etishi va shakllanishining yakunlovchi bosqichidir. Bu eng avvalo, mustaqillikning rivojlanishida namoyon bo`ladi. Hali o`spirinlik yoshidayoq shaxsda o`zini qaror toptirishga munosabati bilan o`zining va uning xususiyatlariga katta qiziqish uyg`onadi. Yosh yigit va qiz xuddi o`spirin kabi o`zining nimaga qodirligi bilishini istaydi. Lekin endilikda u erishgan natijada hayotiy timsol haqidagi umumlashgan tasavvur bilan taqqoslangan holda o`z faoliyatini boshlaydi. Yigit va qizlar tafakkurining falsafiy yo`nalishi ularni o`zicha tahlil qilishga, o`zicha kuzatishga va o`zicha belgilashga olib keladi.

10.5. Tarbiya usullari haqida tushuncha

Tarbiya jarayoni to`xtovsiz va tizimli davom etadigan jarayon bo`lib, unga pedagog, tarbiyachi rahnomalik qiladi va tarbiyaning ayni vaqt uchun zarur bo`lgan maqsadini, shu maqsadni hal etishga xizmat etadigan faoliyatni belgilaydi. Tarbiyalanuvchilarning ushbu faoliyatga faol ishtirok etishini ta`minlab, ular o`rtasida ijtimoiy, jamoa, o`rtoqlik aloqalari va munosabatlari uchun sharoit yaratadi.

Tarbiyani yaxshi yo`lga qo`yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini, tarbiya jarayoni manbaini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bu tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklardan iboratdir. Masalan, tarbiyalanuvchining odobliligi, yetukligi bilan unga qo`yiladigan talab o`rtasidagi farq tarbiyachi va jamoa ta`siriga shaxsning o`z pozitsiyasi, ya`ni munosabati tarbiya jarayonining ichki qarama-qarshiligi bo`lsa, tarbiyachining talablari bilan shaxs mikro muhit ta`siri

o`rtasidagi uzilish tashqi qarama-qarshilikdir. Yana shuni e`tiborga olish kerakki, tarbiyada tarbiyalanuvchining tarbiyalanganlik darajasini ham e`tirof etish lozim. Bordi-yu, bu masala unutilib qo`yilsa, tarbiya jarayonida yana qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Masalan, tarbiyalanuvchilarning faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta`minlash uchun shu faoliyat nima uchun, qaysi maqsadda, qancha muddatda bajarilishini ularning ongiga etkazish, bajarish usuli va natijasini hisobga olishda esa o`zlariga havola qilish ma`qulroqdir. Bordi-yu, yaxshi faoliyat turi tavsiya qilinganda ularning onglilik va ishni bajarishga tayyorgarlik darajasi hisobga olinmasa, uni bajarish istagi uyg`otilmasa, tarbiyachining o`rinishlari befoyda bo`ladi, talabalar passiv, behafsala bo`lib qolaveradilar.

Tarbiya usullarida har tomonlama shaxsni shakllantirish maqsadida shaxs ongi, his tuyg`ulari, irodasi va munosabatlar tizimiga ta`sir ko`rsatish usulini tushunish kerak.

Tarbiya usullari ham ma`lum bir elementlarga bo`linib tarbiya usullari deb yuritiladi. Masalan, pedagog tarbiyalanuvchiga biror bir vazifani topshirdi. O`z navbatida bu vazifani bajarish uchun ko`rsatmalar beradi. Bu ko`rsatmalar va tushuntirish maxsus holda metodik usul sifatida namoyon bo`ladi. Tarbiya usullari va vositalari o`zaro mustahkam bog`liqdir. Tarbiya usullari shaxsga ta`sir ko`rsatishdan iborat emas. Tarbiya ikki tomonlama jarayon bo`lib pedagog tarbiyachi faoliyati bilan talaba faoliyatini birlashtiradi.

Talabalarning tarbiyaviy ta`sirga faol tayyor bo`lishiga erishish uchun buni muayyan sharoitga qo`yish, uning faol faoliyatini tashkil etish lozim. U yoki bu tarbiyaviy vazifalarni hal etishning muvofiq tashkil etilgan metodik yo`llari tarbiya vositalari deb yuritiladi. Talabalar bilan tarbiyaviy ishda foydalaniladigan vositalar bunda televidenie, radio, kitoblar shaxslar jalb qilinadigan faoliyat turlari tarbiya vositalari bo`la oladi.

Pedagogning jonli nutqi, shaxslarning o`yinlari, jamoatchilik, havaskorlik to`garaklari tarbiya vositasi vazifasini bajaradi. Ammo tegishli tarbiyaviy vazifalarni hal etish uchun ularni albatta pedagog ishining muayyan tizimiga kiritish kerak. Tarbiya natijasining samarali bo`lishi tarbiyaviy jarayonni tashkil etish usullari, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga va ularni qo`shib olib borishga bog`liq.

Tarbiya usulini tatbiq etish muayyan yoshdagi shaxs faoliyatiga mos kelsa muvaffaqiyatli bo`ladi. Tarbiyaning umumiy usullari asosan 4 guruhga bo`linadi.

1. Ijtimoiy ongni shakllantirish usuli.
2. Ijtimoiy axloqni shakllantirish usuli.
3. Rag`batlantirish usuli.
4. O`z-o`zini tarbiyalash.

Ijtimoiy ongni shakllantirish usullari - talabalarning ongi, his-tuyg`usi va irodasiga har tomonlama ta`sir ko`rsatish usullarini umuman shaxs ongiga ta`sir ko`rsatishni o`z ichiga oladi.

Ijtimoiy ongni shakllantirish usullari **tushuntirish, suhbat va o`rnak ko`rsatish** qismlaridan iboratdir.

Tushuntirish - talabalarda e`tiqod hosil qilishning eng keng yoyilgan usulidir. Tushuntirish usulidan ko`zlangan maqsad shaxsga hatti-harakatlar, voqealar va

hodisalarga u yoki bu talablarning ma'naviy, estetik, mazmunini ochib berish, unga hulq-atvorga va insoniy munosabatlarga to'g'ri baho berishni shakllantirishda ko'maklashishdan iboratdir.

Hikoya va suhbat pedagogning jonli so'zi asosida shaxsni g'oyaviy va ma'naviy shakllantirishning ta'sirchan usuli hisoblanadi. Hikoya qilinadigan mavzu talabalar uchun dolzarb, shaxslarni ma'naviy ishonch, ijobiy his-tuyg'ular vujudga keltirishga olib kelishi kerak. Suhbat xilma-xil mavzularda olib boriladi, masalan, ma'naviyat, etika, estetika mavzusida ya'ni insonni yurish-turishi, atrofdagi voqealar, hulq-atvor, go'zalligi, davlatning ichki va tashqi siyosati, bilim olishi, talabalarining bilim doirasini kengaytirish va boshqa mavzularda olib boriladi. Suhbat vaqtida talabalar passiv tinglovchilar emas, balki muhokama qilayotgan faol ishtirokchilarga aylanadi. Suhbat vaqtida pedagog, tarbiyachilar tarbiyalanuvlarni tajribasiga, ularning bilimiga tayanishi lozim. O'tkazilayotgan suhbat talaba uchun ahamiyatligini hisobga olish zarurdir. Yangi materiallarni tanlash, tarbiyalanuvchini o'ylashga, mazkur masala bo'yicha o'z bilimlarini orttirishga yordam beradi. Pedagogning o'zi qanchalik kam gapirsa, talabalar dunyosiga shunchalik yaxshiroq kirib borishi, ular bilan ajablanishi, quvonishi lozim, shunda suhbat muvaffaqiyatli olib boriladi.

Suhbat natijasida qabul qilingan axloqiy me'yor keyinchalik talabalar hulq-atvori va faoliyatida amalga oshirilishi lozim. Va keyingi davrga mo'ljallangan o'z hulq atvorini kuzatishlar bilan bog'liq bo'lgan topshiriqlar berish imkoniyati tug'iladi.

Tarbiyalanuvchi hayotiy faoliyatga intilar ekan, kattalar hurmat qiladigan kishilarni o'ziga namuna qilib oladi, ularga taqlid qiladi. Taqlid qilishga moyillik ko'p sabablar bilan izohlanadi. Chunonchi, tarbiyalanuvchilarning hayotiy tajribasi hali kam, barqaror hulq-atvor ko'nikmasi yo'qligidir. Tarbiyalanuvchilarning faolligi taqlid xarakteriga ega. Talaba kattalar tajribasini o'zlashtira borar ekan, ko'pincha o'zi hurmat qiladigan, o'ziga yoqtiradigan kishilarning hulq-atvori obrazlaridan foydalanadi, ulardan nusxa ko'chiradi. Taqlid ularda bir muncha tanlash xarakteriga ega. Ularni boshqa kishilarning xarakteridagi ma'lum xislatlar jalb qiladi.

Yoshlikdagi taqlid va ishtiyoq doirasi namunalar yordamida kengayib boradi. Taqlid qilish uchun ijobiy namunalar tanlashda axloqiy, g'oyaviy, siyosiy omillarning ahamiyati kattadir. Tarbiyalanuvchilar va o'smirlarning taqlid qilishga moyilligi ko'pincha salbiy odatlarni ham o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Ba'zan tarbiyalanuvchilarni o'quv muassasasi tartibini buzuvchilar, ularning qo'polliigi va soxta jasurligi jalb qiladi. Ota-onalar va pedagoglar farzandiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan o'rtoqlari bilan aloqa qilishini ta'qiqlasa, bu aksincha tarbiyalanuvchining oldingi tarbiyalanuvchi bilan birga bo'lish istagini yanada kuchaytiradi. Eng muhimi, yomon ta'sirga ijobiy namunani qarama-qarshi qo'yish, oilada va o'quv muassasasida faoliyatni shunday tashkil etish kerakki, toki bu faoliyat unga zerikarli, mazmunsiz, majburiy bir narsa bo'lib tuyulmasin.

Tarbiyalanuvchi bo'ladigan muhitga ham imkoni boricha ijobiy ta'sir ko'rsatmog'i zarur. Tarbiyada taqlid qilish va nusxa ko'chirish bilan cheklanib qolmaslik balki, har bir shaxsning o'ziga xos tarzda alohida takrorlanmaydigan shaxs

bo`lib uyg`onishiga erishmoq kerak. Namuna onglilikni, ijobiy faollik va mustaqillikni rag`batlantirib turgandagina bunga erishsa bo`ladi. Kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilar uchun oilada ota-ona, aka-uka, sevimli pedagog namuna bo`la olishi mumkin.

**Rag`batlantirish** uslubi biron-bir omilning tarbiyalanuvchiga ta`sirini kuchaytirish hamda tarbiyalanuvchining shaxsini, hatti-harakatlarini faollashtirish maqsadida qo`llaniladi.

Rag`batlantirish harakat qilishga ilhomlantirishdan iboratdir. Tarbiyaviy ishlarning shakli har qaysi tarbiyalanuvchining xususiyatiga qarab o`zgaradi. Istiqbolga doir talablar tarbiyalanuvchi faoliyatini faollashtiradi. Istiqbolni qo`yish har bir insonning ulg`ayishi uchun ham, jamoa uchun ham muhimdir. Rag`batlantirish usullari orasida musobaqa katta o`rin tutadi. O`quv muassasasi hayotida musobaqa ishlarini ommaviylashtirish muhimdir. Musobaqaning mohiyati qoloqlarni ilg`orlar darajasida etkazish va ishning umumiy yuksalishiga erishishdir. Musobaqa har bir talabaning imkoniyatlarini ko`ra olish va baholashda olg`a harakat qilishda, kuchi etadigan istiqbolni belgilashda iroda va xarakterni tarbiyalashda yordam beradi.

Rag`batlantirish talabaga shunday ta`sir ko`rsatsinki, bunda pedagog alohida bir talabaning xatti-harakatiga, xulq-atvoriga ijobiy baho bera olsun. Jamoa talablarining bajarilishini rag`batlantirishi uchun asos deb hisoblash kerak, shundagina rag`batlantirish insonga yashayotgan va ishlayotgan jamoaning undan mamnunligini ko`rsatadi.

Jamoa to`g`ri xulq-atvor ko`nikmalarini mustahkamlash va salbiy ko`nikmalariga barham berishi mumkin. Rag`batlantirish tarbiyalanuvchining takomillashuviga, xulq-atvor va xatti-harakat bobida qanday yo`l tutish kerakligini anglab olishga imkon beradi. Talabani qanday va nima bilan rag`batlantirishni pedagog bilmog`i lozim.

Masalan, o`quv yili oxirida yakun yasaladi va baholash nimaga asoslanishi kerak, o`qish natijasigami, yoki talabaning o`quv mehnatiga, munosabatigami?

Istiqbolni tasvirlash talaba faoliyatini rag`batlantiradi, bu narsa quvonch bilan kutish kayfiyatini oshirib, qo`ygan maqsadga erishish uchun butun kuchini sarflashga beradi. Istiqbolni tasvirlash har bir tarbiyalanuvchining rivojlanishi uchun ham, jamoa uchun ham zarur.

Maqtov rag`batlantirish usulidir. Maqto

pedagogning alohida olingan shaxs xususiyatlariga ijobiy baho berishidir. Talaba tarbiyalanishida maqto

vning o`rni muhimdir. Maqto

v shaxsni ijobiy xislatlarini tarkib topishiga yordam beradi. Lekin maqto

v ham talaba hissiyotlari rivojlanishini tezlashtirib yuboradi, unda manmanlik, xotirjamlik tuyg`ularini keltirib chiqaradi.

Jazolash usuli

Jamoa talabaning axloqidan uning ishga munosabatidan, muomalasidan mamnun bo`lmasa, shaxsning o`z hulqini tuzatib olishda yordam ko`rsatish uchun jazo usullaridan foydalanadi. Maqto

v singari jazo ham talabaning o`zini noqulay sezishga, uyalishga majbur qiladi. Tarbiyalanuvchilarni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda jazolash ham me`yor darajasida bo`lishi shart. Chunki buning natijasida

tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning bir qator usullari ishlab chiqilishi lozim¹.

O'z-o'zini tarbiyalash usullari

Tarbiya jarayonida talaba o'z-o'zini tarbiyalashi, ya'ni o'z ustida ishlab, faol ish olib borsagina tarbiyani samarali deb aytish mumkin.

Talaba o'z-o'zini tarbiyalash borasida istiqbolini yaratishga intilishi, hayotda ma'lum mustaqillikka intilishda namoyon bo'ladi. O'z-o'zini tarbiyalash oilada va o'quv muassasasidagi tarbiyaviy ishlarning ta'siri ostida ro'y beradi. O'z-o'zini tarbiyalash jamoadagi shaxslarda faolroq amalga oshishi mumkinligi ularda iroda, tirishqoqlik intizomni tarbiyalaydi. O'z-o'zini tarbiyalash shaxslarning o'z oldida muayyan vazifa qo'ya olishini, uni bajarishida ichki ishtiyoq bilan shu vazifani bajarishi mumkinligini anglashni, nima qilganligi haqida hisobot berilishini nazorat qilishni va to'plangan vazifalarning aniq natijalariga baho berishni o'z ichiga oladi. O'z-o'zini tarbiyalash shaxsiy majburiyat, o'z ishi haqida hisobotlarni tahlil qilish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'ziga baho berish usullariga bo'linadi.

10.6. Tarbiya turlari

Har bir ishning o'ziga xos, ma'lum qonun-qoidalari bo'lganidek, inson tarbiyasining ham o'ziga xos bir qator muhim tamoyillari, qonun-qoidalari mavjud, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo'lishini ta'minlaydi:

Tarbiya jarayonining tamoyillari quyidagilar:

- tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan mamlakatimizning mustaqilligi, gullab-yashnashi yo'lida qilinayotgan fidoyi ishlar bilan bog'lanishi;
- shaxsni jamoada, jamoa orqali tarbiyalash;
- tarbiyada shaxsni hurmat qilish va unga talabchanlik;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi hamda birligi;
- tarbiyada shaxsning yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kabilardir.

Yuqoridagi tamoyillar va qonun-qoidalarga amal qilib, yangi ijodiy uslublarni qo'llab, rivojlantirib tarbiyaviy jarayonni tashkil etish maqsadga erishishning eng samarali yo'lidir.

Aqliy tarbiya. Biz O'rta Osiyo mutafakkirlarining axloqiy tarbiya xususidagi fikrlarini o'rganar ekanmiz, ularni axloqiylik haqidagi zamonaviy bilimlarimiz va tasavvurlarimiz bilan solishtirishga va bog'lashga harakat qildik. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu borada fikr yuritib: "...o'zbek xalqi dunyo maydonida kuni kecha tasodifan paydo bo'lib qurilgani yo'q. Biz – boy tarix, yuksak madaniyat, buyuk ma'naviyat vorislarimiz"² - deb ta'kidlab o'tdilar.

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida kelib chiqayotgan yangidan-yangi muammolarni ilmiy asosda hal qila oladigan shaxsni tarbiyalash bosh masala hisoblanadi. Buning uchun esa aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish, aqliy mehnat qilish madaniyatiga o'rgatish zarur. Aqliy tarbiyani shakllantirishda faqat tushuncha va

¹ Ochilova G.O., Musaxanova G.O. Pedagogika. - T.: TDIU, 2017.-49 b.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2010. - 163 b.

faktlardan foydalanishning o'zi etarli emas, buning uchun fikrlash, isbotlash, xulosa chiqarish, umumlashtirish, sistemalashtirish, taqqoslash, asosiy ma'lumotni ajratib olish kabi jarayonlarni ham faol qo'llash lozim bo'ladi. Bularning hammasi dars vaqtida amalga oshirib borilishi va aqliy mehnatni to'g'ri tashkil qilish malakasini shakllantirish bilan bog'liq. Aqliy mehnatni to'g'ri tashkil qilish, talabalarga mustaqil bilim olishda eng muhim element bo'lib hisoblanadi. Aqliy tarbiya o'quvchilarda aqliy mehnatni to'g'ri tashkil etish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini nazorat qilish, malakasini hosil bo'lishiga ko'maklashadi. Aqliy tarbiya talabalarda didaktikani jamlab olish xususiyati, xotirasini mustahkamlash, fikrlash operaSiyalarini rahional o'tkazish kabi malakalarni o'stiradi.

Aqliy tarbiyasi yetuk, o'tkir zehnli, zukko va zakovatli insonlarni xalqimiz donishmand kishilar deb ataydilar. Donishmandlik - bu donolik. Donolik - bu insonning eng buyuk va oliyjanob fazilatidir. Donolik shunday bir noyob ne'matdirki, u har kimga ham nasib etavermaydi. SHuning uchun bo'lsa kerak, xalq donoligida «Aql toji oltindan, oltin har kimda ham bo'lmas», - deyiladi.

Axloqiy tarbiya. «Axloq», «hulq» va «atvor» so'zlari arabcha so'z bo'lib, ular o'zbek tilida ham o'z ma'nosida qo'llaniladi. Ayrim odatlarda «axloq-kishilarning har bir jamiyatga xos xulq me'yorlari majmui» desa, boshqalar esa «axloq-ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, hamma sohalarida kishilarning xatti-harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi» deyishadi.

Axloq me'yorlari hulq atvorning regulyatori sifatida odat me'yorlariga zid xatti-harakat axloqsizlik harakati deb qaraladi. Shunisi ham borki, huquq majburiy bo'lsa axloq ixtiyoriydir.

Axloqiy tarbiya odamlarni nomusli, vijdonli, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar bo'lishga o'rgatish bilan profilaktika ishlarini ham olib boradi. Axloqiy tarbiyada yaxshi hulqni takomillashtirish uchun kurashiladi. Ta'lim tizimida o'qitish tarbiyalanuvchilarning axloqiy mukammallashishi bilan bog'liq bo'ladi. Ularda ong bilan xulq birligi tarbiyalanadi. SHaxsning jamoat va vatanga, mehnatga, kishilarga, o'z hulqiga munosabatlari quyidagilarda o'z aksini topgan:

- a) jamiyatga, vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash;
- b) mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash;
- v) atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat, yuqori muomala madaniyatiga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish;
- g) shaxsning o'ziga, o'z hulqiga, axloqiy munosabatni tarbiyalash.

Dars va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonini Alpomish, To'maris, Shiroq kabi xalq qahramonlari; Amir Temur, Ulug'bek, Bobur singari davlat arboblari va sarkardalarimiz, Ibn Sino, Beruniy kabi olimu fuzalolarimiz qarashlariga tez-tez murojaat qilishimiz, yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash ishniing asosini tashkil qiladi. Shu bilan birgalikda tarbiya borasidagi jahon standartlariga ham e'tiborni qaratmog'imiz lozim. Estetik tarbiya ancha keng ma'noga ega bo'lib, shaxsni tabiat va jamiyatdan go'zalliklarni ideal nuqtai nazardan idrok etishga o'rgatadi.

Tarbiya turlarining hammasi bir-birlari bilan o'zaro uzviy bog'liq, lekin shunga qaramasdan o'z mazmunidan kelib chiqqan holda, ular o'z spehifikasiga ham egadir. Endi biz quyidagi: aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, ekologik tarbiya,

huquqiy tarbiya, estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi kabi tarbiya turlarining har biriga alohida-alohida to'xtalib o'tamiz.

Inson kundalik hayotida undan (axloq normalaridan) norma sifatida foydalanadi. Axloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo'ladi. Axloqiy tarbiyada kishi axloqiy bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, balki har qanday vaziyatlarda o'zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilargina axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi. Axloqiy tarbiyalangan kishida barqaror ma'naviy motivlar shakllangan bo'ladi. Bu motivlar esa o'sha kishini jamiyatda munosib xulq-atvorga rag'batlantiradi.

Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o'ziga munosabatni ochib beruvchi ma'naviy fazilatlarga muvofiq ravishda tarbiyalash - tarbiyalanuvchi shaxsni, axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Axloqiy bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirib olishgina o'quvchilarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi. Axloqiy tushunchalarning turli yosh davrlarida shakllanish darajasi turlichadir. Jumladan:

1. Axloqiy onglilik.
2. Axloqiy qadriyatlar.
3. Axloqiy his-tuyg'ular.

Ekologik tarbiya. Ekologiya so'zi «tom» yoki «uy» degan ma'noni anglatib, nemis olimi Ernest Gekkel tomonidan birinchi bor fanga kiritilgan. Ekologiya fani hozirgi bozor munosabatlari davrida ko'pgina tarmoqlarga ega: o'simliklar ekologiyasi, zoologiya, tuproq ekologiyasi, inson ekologiyasi va boshqalar. Ekologiya fani tanlab olingan bir yoki bir necha obyektning yashash sharoitini yoki normalarini o'rganadi va yashashning optimal darajasini aniqlashga yordam beradi. Bu yo'nalishdagi ishlar bizga ekologik bilimlarni etkazadi, ammo bu bilan insoniyat cheklanib qolmaydi. Davr talabiga ko'ra, yana boshqa yo'nalishda ham ish olib borishni talab etmoqda. U ham bo'lsa **ekologik tarbiya masalasidir.**

Ekologik tarbiya albatta ekologik bilimlar asosida shakllanadi, lekin u o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ekologik tarbiya insonda tabiatga nisbatan to'g'ri, oqilona munosabatni shakllantirish masalasi ustida ish olib boradi va o'z oldiga talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishdek maqsadni qo'yadi. Ekologik tarbiyaning mazmuniga ekologik onglilik, ekologik his-tuyg'ular (tabiatga, insonlarga, hayotga nisbatan munosabatlar) kiradi. SHunday qilib, ekologik tarbiya inson hayotida, jamiyatda, vatanda muhim ahamiyat kasb qiladi.

Ekologik tarbiyaning shakllanishiga ekologik bilimlarni egallash bilan bir qatorda ekologik munosabatlarni ham shakllantirib borish zarur bo'ladi. Ekologik munosabatlarga:

1. Hayotga munosabat.
2. YAxlitlik hissini tarbiyalash.
3. Javobgarlik hissini tarbiyalash.
4. Tabiat go'zalliklarini his etish kabi komponentlarni kiritish mumkin.

Huquqiy tarbiya. Huquqiy tarbiya - bu shaxsga nisbatan huquqiy ongini, huquqiy munosabatlarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, aniq maqsadni ko'zlagan holda ifodalanishidir. Huquqiy

tarbiyani bolaning kichik yoshidan boshlab amalga oshira boshlash, huquqiy axborotlarning birinchi darajali tus olishiga erishish, shaxsning umumiy dunyoqarashi va ijtimoiy yo'naltirilganligining tarkibiy qismi tarzida huquqiy qarashlariga asoslanishi zarurdir.

O'sib kelayotgan yosh avlod huquqiy tarbiyasining xususiyatlari yangi jamiyatning o'z xarakteri, turmush tarziga asoslanadi. Ularning hammasi prinsipial jihatdan yangi, yanada murakkab muammolarni hal etish zarurligini ifoda etadi. Avvalo, huquqiy tarbiya yangi yosh avlodni kamol toptirishning samarali vositasi sanaladi.

Yuqorida qayd qilingan mulohazalar **huquqiy tarbiyaning** yaxlit tizimi quyidagilardan iborat ekanligini ifodalaydi:

Birinchidan, huquqiy tarbiya sub'ektlariga: davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari, mansabdor shaxslar va boshqalar kiradi.

Ikkinchidan, huquqiy tarbiya obyektlariga: mansabdor shaxslar, fuqarolar, ichki ishlar idoralari xodimlari kiradi.

Uchinchidan, huquqiy tarbiya mazmuniga: huquqiy ta'lim, huquqiy targ'ibot va tashviqotlar kiradi.

To'rtinchidan, huquqiy tarbiya shakllariga: ma'ruzalar, seminarlar, suhbatlar, viktorinalar kiradi.

Beshinchidan, huquqiy tarbiya metodlariga: ishontirish, rag'batlantirish, majburlash kiradi.

Oltinchidan, huquqiy tarbiya vositalariga: matbuot, radio, televidenie, adabiyot va san'at asarlari, ko'rgazmali tashviqot hamda targ'ibot vositalari kiradi.

Mustaqillik sharoitida huquqiy madaniyat bilan huquqiy tarbiyaning bog'liqligi yanada ortadi.

Estetik tarbiya. Hayotda tabiat - go'zallikning manbasidir. U estetik tuyg'ularni, bolalarning kuzatuvchanligini va tasavvurini rivojlantirish uchun juda boy material beradi. Bundan tashqari, san'at ham estetik tarbiya vositasi hisoblanadi. San'at orqali estetik tarbiyalash pedagogikada badiiy tarbiya deb ataladi. U quyidagi metodlardan foydalangan holda olib boriladi:

1. Badiiy asarlarni namoyish qilish va ijro etish.

2. Badiiy asarlarni tahlil qilish va baholash.

3. San'atshunoslik bilimlaridan xabardor qilish, talabalar san'atning har xil turlarini ifoda vositalari, tarixi va nazariyasini xarakterlovchi muayyan ma'lumotlar jamg'armasiga ega bo'lishi zarur.

4. Talabalar ijodiy va ijrochilik faoliyatini tashkil etish, talabalar badiiy faoliyatining xilma-xil shakllarida mashqlar o'tkazib, ijodiy qobiliyatlarini, voqelik predmetlarini va hodisalarini san'at vositalari yordamida mustaqil tasvirlash ko'nikmalari va malakalarini rivojlantiradi.

Jismoniy tarbiya. Jismoniy tarbiya shaxsni har tomonlama rivojlantirish tizimidagi o'z vazifasini bajarish bilan birga, u quyidagi asosiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan: salomatlikni mustahkamlash, inson oranizmini chiniqtirish va talabalarning jismoniy rivojlanishiga yordam berish; harakat ko'nikmalarini va malakalarini shakllantirish hamda takomillashtirish; o'g'il bolalarni armiya safariga tayyorlash; fizkultura va sportning mohiyati hamda ijtimoiy roli haqidagi

ma'lumotlardan xabardor qilish. Talabalarning sog'ligini himoya etish va boshqarish jismoniy tarbiyaga ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini qo'lga kiritgandan buyon davlat darajasida ahamiyat berilmoqda. Jismoniy tarbiya va sport ishlariga hukumatimiz tomonidan katta g'amxo'rlik qilinmoqda. Buning dalili sifatida Toshkent shahri va barcha viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va tumanlarda bunyod etilayotgan sport inshootlari, sport komplekslarini keltirish mumkin.

Mehnat tarbiyasi. Mehnat tarbiyasi yosh avlodni tarbiyalashda markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Xalqimiz mehnatni bosh tarbiyachi deb ataydi. Mehnat hayot demakdir, mehnat tarbiyasi esa tarbiyaning mag'zini, mehnatkashlarning tarbiyaviy faoliyati mazmunini tashkil qiladi. Hamma xalqlarning eng ilg'or an'analari mehnat jarayonida paydo bo'ladi. Xalq hayotini, yashash tarzini o'rganish uchun ham mehnat an'alarini bilish lozim.

Mehnat an'alarining tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda katta ekanligini unutmash kerak. Chunki mehnatga munosabatni qaror toptirish yosh avlod tarbiyasining asosi hisoblanadi. Mehnat an'alarining tayanchi sifatida yoshlarni hayotga, ijtimoiy mehnat faoliyatida ishtirok etishga tayyorlash ham muhim rol o'ynaydi. Chunki mehnat an'alari zahirida shaxsning axloqiy sifatleri: mehnatsevarlik, kasb-hunar egallash, erga va tabiatga muhabbat, mehnat baxt keltirishi kabilarni anglash qaror topadi.

Bolalarning mehnatga muhabbat qo'yib o'sishida avvalo oiladagi ijtimoiy muhit juda katta rol o'ynaydi. Bunda ota-onalar, oilaning barcha a'zolarining xizmati beqiyosdir. Shaxsning axloqiy shakllanishida tarbiyaning mehnatsevarlik, ongli ravishda kasb-hunar egallashga intilish, ilmga chanqoqlik, o'z xalqining an'alarini hurmat qilish, o'z Vataniga sodiqlik, jasurlik, sadoqat kabi ko'rinishlari kamol topadi.

O'zbek oilalarida bolalarning mehnat va kasb-hunarga mehr qo'yishida qadimdan kattalar namuna ko'rsatib kelganlar. Odatda qizlar uy xo'jaligida onalariga yordam berishgan, ovqat tayyorlashgan, ukalariga qaragan, uylarni saranjom-sarishta qilishib, tikish-bichishni o'rganishgan. O'g'il bolalar esa qishloq xo'jalik ekinlarini ekish, uni parvarishlash, yig'ish, yanchish, hayvonlarni boqish kabi yumushlarni bajarishgan. Eng muhimi, farzandlar ma'lum kasb-hunarni egallashga tayyorlangan.

Xalq pedagogikasida tarbiyalashning turli-tuman yo'l va usullari, vositalari, manbalari mavjud. Bunday yo'l va usullar rang-barang bo'lib, u faqat o'qituvchi-tarbiyachining qarashlariga bog'liq bo'lmasdan, balki bolalarning o'ziga xos xususiyatlariga ham asoslangandir. Bu yo'l va usullar xalq og'zaki ijodi manbalarida o'z ifodasini topgan. Azal-azaldan mehnat sohasida yaratilgan, avlodlardan avlodga o'tib umrboqiy bo'lib qolgan ilg'or an'analarni o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, xalqimizning eng yaxshi an'alaridan biri - bu bolalarni yoshligidan kasb-hunarga o'rgatib borishdir. Zero, har bir kasbni o'rganish jarayonida mashaqqatli va quvonchli mehnat yotadi. Uzlaksiz mehnat qilish va izlanish, ustozlar o'gitiga rioya etish har bir yosh avlodning birinchi galdagi vazifasi bo'lgan. Xalqimiz orasida «Bir yigitga etmish hunar oz» deb bejiz aytilmagan. Chunki bola tarbiyasida barcha insoniy fazilatlarni shakllantirish bilan birga kasb o'rgatish har bir ota-onaning birinchi galdagi vazifasi hisoblangan. Masalan, rivoyat qilishlaricha, bir kuni Hazrat Baxouddin Naqshbandiy oldiga bir odam o'z o'g'lini o'qitib berishini so'rab

kelgan. Hazrat kelgan kishidan «o`g`lingiz biror bir hunar biladimi?» deb so`ragan ekanlar. Ota esa o`g`lining hech qanday kasbdan bexabar ekanligini bayon etgan ekan. SHunda Naqshbandiy «unday bo`lsa o`g`lingizni biror bir hunarga o`rgatib so`ng olib kelasiz» deb javob qilgan ekanlar. Shuning uchun ham xalqimizda bolalarni uning harakatlariga qarab biror bir kasb egasi bo`la oladi, deb unga ko`mak berilgan.

Mehnat faoliyati jarayonida inson tabiatini o`zgartiribgina qolmay u bilan birga o`zi ham o`zgaradi. Mehnat faoliyati shaxsning axloqiy fazilatlarini shakllantirishga uning tabiat va jamiyatga qarashli tizimiga jiddiy ta`sir ko`rsatadi. Mehnat inson aqliy qobiliyati jarayonini o`z ijodiy faolligini namoyon qilib ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va takomillashtiradi. Mehnat tufayli insonning ma`naviy munosabatlari shakllanadi. Jismoniy jihatdan kamol topib o`z mehnat ko`nikmalari va malakalarini rivojlantira boradi.

Mehnat faoliyatini tashkil etishga qo`yiladigan umumiy talablarni quyidagi jadvalda keltirib o`tildi.

<i>Mehnat faoliyatini tashkil etishga qo`yiladigan talablar</i>				
Mehnat faoliyatining axloqiy asosda, ijtimoiy-g`oyaviy mazmunga egaligi.	Mehnat faoliyatini jamoa xarakteriga egaligi.	Mehnat topshiriqlarini berishda o`quvchilar imkoniyatini hisobga olish.	Mehnat faoliyatining tizimli va rejali bo`lishiga erishish.	Mehnat faoliyatining ijodiy xususiyat kasb etishi.

8-rasm. Mehnat faoliyatini tashkil etishga qo`yiladigan talablar

Ammo har qanday mehnat ham shaxsni har tomonlama tarbiyalash va kamol toptirish omili bo`lavermaydi. Ekspulatahiya va zo`ravonlikdan holi bo`lgan mehnatgina insonga hal qiluvchi va tarbiyalovchi ta`sir ko`rsatadi. Agar inson majburan mehnat qilsa bu jarayon ma`naviy rivojlanishga halaqit beradigan va ma`naviy mamnuniyat keltirmaydigan mehnatga aylanadi.

Oliy va o`rta maxsus ta`lim muassasalarida mehnat tarbiyasini rivojlantirish yo`llarini ijodiy ishlab chiqishda shaxs mehnatini tashkil etish metodikasiga jiddiy e`tibor berish kerak. Mehnatdan maqsadga muvofiq foydalanilsagina u tarbiyalanuvchilar ma`naviy kamolotini omili bo`lib qolishi mumkin. Buning uchun mehnat shaxsni qiziqtirishi, jismoniy mehnatgagina emas, balki aqliy mehnat bo`lishi lozim. Shaxs mehnat natijasini tushunishi kerak, chunki shaxs faqat o`quv muassasasidagina emas, undan tashqarida ham mehnat qilishi kerak. Mehnat tarbiyalanuvchilar uchun ularning qurbi etadigan ijodiy faoliyat bo`lishi lozim. Mehnat tarbiyasini bir qator etakchi vazifalarini ajratib ko`rsatish mumkin:

- umumfoydasi uchun mehnat qilish zarurligi;
- talabalarda jamoa mehnat faoliyatida ishtirok etish uchun zarur bo`lgan barqaror ma`naviy va irodaviy xislatlarni tarbiyalash;
- talabalarni umumiy bilim va politexnik bilimlar tizimi bilan hozirgi zamon ishlab chiqarishda qatnashish uchun zarur bo`lgan maxsus mehnat ko`nikmalari va

malakalari bilan qurollantirish;

- talabalarga bo`ljak kasbni ongli tanlashda yordam berish;
- mehnat madaniyati asoslarini tarbiyalash, tarbiyalanuvchilarning iqtisodiy tarbiyasi kabilar.

Mehnat tarbiyasining vositalari quyidagilar:

1. Ijtimoiy foydali mehnat.
2. Oilaviy mehnat.
3. Mehnat faxriylari va turli mehnat vakillari bilan uchrashuv.

Mehnat ikki xil bo`ladi: Aqliy mehnat va jismoniy mehnat.

Aqliy mehnat - shaxs uchun eng og`ir mehnatdir. Bu mehnat aqliy zo`r berishni talab qiladi, uzoq vaqt davom etadi va qunt bilan shug`ullanishni talab qiladi. Bu mehnatning murakkabligi yana shundaki, bundagi natijalarning namoyon bo`lishi qiyinroq bo`ladi, bu natijalarni shaxs deyarli tushunmaydi.

Aqliy mehnat jarayonida tarbiyalanuvchilar turli darajada murakkablikka ega bo`lgan va mustaqillikni turli darajada talab qiladigan bir qator aqliy, hamda amaliy xarakterlarni egallaydilar. Bu esa ularda bilimga qiziqishini, aqliy faoliyatning samarali turlarini shakllantiradi.

Aqliy mehnat tarbiyalanuvchilarning qurbi etadigan darajada bo`lishi kerak. Tarbiyalanuvchilarning qurbi etmaydigan mehnat inson organizmiga ziyon etkazadi. O`qishdan ko`nglini sovtishi mumkin. Shu sababli pedagoglar har bir tarbiyalanuvchining yosh xususiyatini va ta`lim olishga individual tayyorligini aniqlashi, shaxsning e`tibori va tafakkuridagi xususiyatlarini bilishi, mehnat va dam olish rejimiga rioya qilishi muhimdir. O`quv mehnatining bosh vazifasi - shaxsni o`qishga o`rgatishdan, uni o`quv mehnati metodikasi va texnikasini qurollantirishdan, o`zi bilim oladigan bo`lish imkoniyatini berishdan iborat. O`quv mehnati jarayonida ta`sir qiladigan ko`nikma va malakalar tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy, foydali va unumli mehnatda qatnashishga tayyorgarligiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Tarbiyalanuvchini bo`ljak mehnat faoliyatiga tayyorlash uchun yaxshi poydevor bo`ladi. Pedagogning o`quv muassasasi tarbiyalanuvchilarida darsliklar, kompyuter texnikasi bilan ishlash ko`nikmasini shakllantirishda mehnat tarbiyasiga doir ishi ayniqsa muhim ahamiyatga ega. O`quv mehnati jarayonida aqliy mehnat madaniyati hosil qilinadi. O`rtoqlik, xayrixohlik, intizomlilik, uyushqoqlik singari fazilatlar tarbiyalanadi. Binobarin, bularning bari mehnat tarbiyasini eng samarali hal qilish uchun xizmat qiladi.

Qisqa xulosa

Tarbiya jarayoni to`xtovsiz va tizimli davom etadigan jarayon bo`lib, unga pedagog, tarbiyachi rahnomalik qiladi va tarbiyaning ayni vaqt uchun zarur bo`lgan maqsadini, shu maqsadni hal etishga xizmat etadigan faoliyatni belgilaydi. Tarbiyalanuvchilarning ushbu faoliyatga faol ishtirok etishini ta`minlab, ular o`rtasida ijtimoiy, jamoa, o`rtoqlik aloqalari va munosabatlari uchun sharoit yaratadi. Tarbiyani yaxshi yo`lga qo`yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini, tarbiya jarayoni manbaini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir.

O`z-o`zini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Tarbiya jarayoni nima?

2. Tarbiya jarayonining murakkabligi nimada?
3. Tarbiyaning tamoyillarini sanab bering?
4. Tarbiya usullari, turlarini sanab bering?
5. Shaxs tushunchasiga ta'rif bering?
6. Muhit nima?
7. Tashqi muhitning shaxsga ta'siri nimalarda namoyon bo'ladi?
8. Tarbiya orqali insonni to'liq o'zgartirish mumkinmi?
9. Tafakkur, idrok, ilmiy dunyoqarash deganda nimani tushunasiz?

11 - mavzu. Oilada tarbiya asoslari. Hozirgi zamon o'zbek oilalaridagi tarbiyaning xususiyatlari

Reja.

- 11.1. Hozirgi zamon o'zbek oilalaridagi tarbiyaning xususiyatlari.
- 11.2. Bugungi kunda oiladagi dolzarb muammolar.
- 11.3. O'zbek mutafakkirlarining oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari.

11.1. Hozirgi zamon o'zbek oilalaridagi tarbiyaning xususiyatlari

Oila jamiyatning bir bo'lagi hisoblanadi. Shunday, ekan inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Oila tor maishiy tushuncha emas, balki u ijtimoiy jamoadir. Shu sababli oilalar birlashib jamiyatni tashkil qiladi. Farzand tarbiyasida oilaning katta o'рни bor. Shu bois mamlakatimizda oilalarning mustahkamligini ta'minlash, mahalla, Vatan, ota-ona singari muqaddas tushunchalarni yoshlar ongiga singdirish, farzand tarbiyasida otalarning mas'uliyatini oshirish, ularning bilim va malakasini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Muhimi, ushbu yo'nalishda muayyan natijalar ko'zga tashlanayotir. Ammo bugungi tezkor va murakkab zamonda shularning o'zi bilan xotirjam tortish aslo mumkin emas.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Sochida o'tkazilgan MDH a'zo davlatlari rahbarlarining sammitida nutq so'zlab, kun muhokamasiga qo'yilgan mavzulardan biri, oila instituti va an'anaviy oilaviy qadriyatlar bo'yicha bildirilgan takliflarni qo'llab-quvvatlashini bildirdi.

“Zamonaviy globallashuv sharoitida biz har bir davlatchilik asosida turgan fundamental qadriyatlar haqida unutmashimiz lozim. O'sib kelayotgan yosh avlod aynan oilada ruhiy tarbiya olib, mas'uliyatli bo'lib, atrofdagi voqealarga befarq bo'lmaslikni o'rganadi. Mana shu muhim yo'nalishda to'plangan tajribalarni almashish maqsadida kelasi yil O'zbekistonda “O'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda oila va o'zini o'zi boshqarish organlarining roli” mavzusida xalqaro konferenSiyani tashkil etishni taklif qilaman”, deb fikr bildirdi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev¹.

Respublikamizda tobora sog'lom oilaviy muhitning ijtimoiy ahamiyati ortib bormoqda. Oilalarning moddiy ehtiyojlarini to'laroq qondirish asosida bolalar

¹ Mirziyoyev Sh.M. MDH a'zo davlatlari rahbarlarining Sammitidagi nutqi. – Sochi. 11.10.2017.

tarbiyasi uchun javobgarlikni kuchaytirish jarayonini tezlashganligini kuzatish mumkin. Biz uchun esa sog'lom oilaviy muhitning mustahkamligini ta'minlovchi axloqiy, ruhiy aloqalar juda muhim. Xuddi shu aloqadorlik oilaviy munosabatlar, to'laqonli hissiy-emosional, otalik yoki onalik, oilaviy baxtni ta'minlash ehtiyojlarini qondiradi. Vaholanki, sog'lom oila muhiti - bu oila a'zolarining o'zaro yuksak axloqiy munosabatlarining yig'indisi va kattalarning ijobiy ta'sir ko'rsatish namunasi natijasi bo'lib, katta yoshdagi kishilarning har taraflama olib borgan tarbiyaviy ish natijalaridir. Oiladagi barqarorlik, totuvlik, o'zaro hurmat, mehr va muhabbat, kelishuvchanlik kabilar ota-onalar bilan farzandlar va boshqa oila a'zolari bilan o'rtasida qaror topadigan ruhiy muhit bo'lib ularning kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi.

Sog'lom oilaviy muhitning eng muhim funksiyalaridan biri avlodni davom ettirishdir. Farzandlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasida oila ma'lum darajada ijtimoiy tashkilotlar bilan jamiyat taraqqiyotiga hamohang holda faoliyat olib bormoqda. Hozirda oilaning tarbiyaviy tushunchasi oiladagi bolalar shaxsini shakllantirish hamda shaxsni yigit va qiz, ota-ona va jamiyat a'zolari sifatida oilaviy hayotga tarbiyalashdan tashkil etadi. Olib borilayotgan tadqiqotlar oilaning mazkur vazifalari bo'yicha ko'plab muammolar mavjudligini ta'kidlamokda. Bu ayniqsa, oilaviy tarbiyaning yangi qirralarini vujudga kelishi va an'anaviy urf-odatlarining mazmunan boyishida ifodalanmoqda. Binobarin, hozirgi zamon oilalari yoshlarda dunyoqarash shakllanishida, ularni ma'naviy, estetik jihatdan tarbiyalashda asosiy rol o'ynar ekan, tarbiyalashdagi mazmun, shakl va usullar jiddiy o'zgarishlarga uchramoqda.

Ma'lumki, oilaviy tarbiya deganda, ota-onalarning o'z hayotlari, turmush tarzi asosida bola shaxsida dunyoqarash asoslari, siyosiy, axloqiy, estetik va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida muntazam izchil, g'oyaviy va ma'naviy ta'sir ko'rsatish jarayoni tushuniladi. Oilaviy tarbiyaning o'ziga xosligi shundaki, u bolalarga ota-onalik, qon-qarindoshlik xislatlarini uzatib, shaxsning umumiy va hissiy rivojlanishinigina ta'minlab qolmay, balki shaxsning mavjud imkoniyatlarini va axloqiy kamolotini ham o'stiradi. Unda asosiy vazifani axloq-odobga doir yo'l-yo'riqlarni bolaga to'g'ri o'rgatish, maslahat berish, kattalar tajribasigina emas, balki oilaning yashash tarzi, muhiti, ota-onalarning kasb-hunari, oila a'zolarining ma'naviy-ruhiy munosabatlari o'ynaydi.

Oilaviy tarbiyaning murakkabligi yana shundaki, har bir oila o'ziga xos bir olam, jamiyatning o'ziga xos kichik uyushmasi bo'lib, tarbiya ishida o'ziga xos xususiyatlarni nomoyon qiladi. Ana shuning uchun ham oilaviy tarbiyaning shakl va uslublarini umumlashtirish va unga biron – bir tavsiyalar berish noqulay va qiyindir. Ota-onalar qanchalik ma'naviy boy, e'tiqodli va yuqori ma'lumotga ega bo'lsalar, shu darajada takomillashgan uslub orqali o'z farzandlarini tarbiyalaydilar.

Hozirgi zamon oilalari mavjud jamiyat bilan uzviy bog'langandir. Shaharlarning o'sishi, yashash sharoitlarining yaxshilanishi, xalqning moddiy, ma'naviy, madaniy turmush saviyasining oshishi yoshlarning barkamol inson qilib tarbiyalanishiga ta'sir qiladi.

Oilalar tarbiya usullarini qo'llash borasida bizlargacha etib kelgan tajribalardan foydalanadilar. Shu nuqtai nazardan oilalarni shartli ravishda ikkiga bo'lish mumkin,

ya'ni "qattiqqo'l" va "yumshoq" intizomli oilalar. Birinchi guruhga kiruvchi oilalar o'z faoliyatlarida talabga asoslangan uslublarga, hatto tan jazosi berish orqali tarbiyalashga asoslanadilar. Ikkinchi guruhga kiruvchi oilalar esa o'z faoliyatlari namunasida, ishontirish, yumshoq intizom, shirin, to'g'ri muomala orqali tarbiyalashga asoslanadilar. Agar "qattiqqo'l" intizom oilaning ichki munosabatlarida hukmronlik qilsa, "yumshoq" intizomlarda esa, oilalarni har tomonlama o'rganish, ularning faoliyatlarini siyosiy tahlil etish va baholash maqsadida ko'plab oilalarda tabiiy kuzatishlar olib borildi, oilaviy marosimlarda ishtirok etildi.

Ota-onalarga psixologik va pedagogik bilim berish, oilaviy tarbiya bo'yicha tajriba almashish, ularni tarbiya ishlariga qizg'in jalb qilish uchun ularni maktabga, mahalla fuqarolar yig'inlariga taklif etish maksadga muvofiqdir. Ota-onalarning bu boradagi eng muhim vazifalari bolalarining kamolotini oldindan tasavvur eta olishlari, tarbiya maqsadlarini aniqlashlaridadir. Buni amalga oshirishlari uchun esa oilaviy faoliyatni mohirlik bilan tashkil etishga bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq ushbu sohadagi ishlarning holati xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular bilan maqsadli ishlarni tashkil etish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash va sog'lomlashtirishning samarali mexanizmini yaratishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **"Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi Farmonida mavjud kamchilik va muammolar atroflicha tahlil qilingan.

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining jamiyat hayotidagi faolligini oshirish, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida qo'mita faoliyatining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalarining yangilangan tuzilmalari tasdiqlandi.

Farmon bilan 2018-yil 1-apreldan fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisi lavozimi o'rniga har bir fuqarolar yig'inida 1 tadan, oilalar soni 2000 va undan ortiq bo'lgan fuqarolar yig'inlarida esa 2 tadan xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassis lavozimi joriy etildi.

Oilaviy qadriyatlar va an'analar yo'nalishida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni olib borish maqsadida Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi negizida Vazirlar Mahkamasi huzurida alohida "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Oilaning reproduktiv salomatligi va demografik rivojlanishi, zamonaviy namunali oilaning mezonlarini belgilash, oila-nikoh munosabatlari sohasida amaliyotni o'rganish va tajriba almashish borasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshirish bilan bir qatorda **"Sog'lom oila – sog'lom jamiyat"** konseptual g'oyasi hamda **"Oila**

jamiyat va davlat himoyasida” konstituiyaviy prinsipini keng targ`ib etish va jamiyatga singdirish “Oila” markazining asosiy vazifalari qatoridan joy oldi. Shu bilan birga, Xotin-qizlar qo`mitasi hamda “Oila” markazining mas`uliyatini yanada oshirish, vakolatlari doirasini aniq belgilab olish maqsadida qo`mita hamda markaz, ularning hududiy bo`linmalari rahbariyatining xotin-qizlar va oila masalalarini hal etishdagi shaxsiy javobgarlik chegaralari belgilab qo`yildi¹.

Hayotda barcha oilalar tarbiyasi uchun mansub umumiy shakl topish mumkin emas, lekin tarbiya xususida to`plangan tajribalar asosida sog`lom oilaviy muhitning umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib kelajakda kutilishi mumkin bo`lgan tarbiya natijalarini hisobga olgan holda bir necha omillar haqida so`z aytish mumkin. Masalan:

1. Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda oila a`zolari, bolalar shaxsini ruhiy va jismoniy kamolotga etkazish uchun uni har tomonlama o`rganish, shuningdek, oilaviy tarbiya usullari va shakllariga ijodiy yondashish, uni takomillashtirishdir. Ota-onalar o`rtasida oila xususida, tarbiyaga oid bilimlarni targ`ib qilish lozim.

2. Sog`lom oilaviy turmushda va oilaviy tarbiyada ijobiy yutuqlarni qo`lga kiritgan ota-onalarning tajribalaridan foydalanish va bunda ularni mahalla, maktab, oliy va o`rta maxsus ta`lim muassasalarining kengaytirilgan majlislariga taklif etish orqali o`z tajribalari bilan o`rtoqlashishni yo`lga qo`yish nihoyatda muhim. Ulardan unumli foydalanish uchun farovon oilalar, hurmatga sazovor ota-onalari kunini joriy etish zarur.

3. Mahalla fuqarolar yig`inlari, maktab ota-onalar qo`mitalari, ta`lim muassasalari hamkorligida zamonaviy radioaloqalar tashkil etish. Bunda “Oila farovonligi mezon”, “Yoshlarni mehnatga, hayotga, turmushga tayyorlashda oilaning o`rni”, “Farzandlar ruhiy kamolotida oila maktab va mahalla hamkorligi” kabi mavzularda eshittirishlar tayyorlash muhim hisoblanadi.

Albatta, barkamol avlodni voyaga etkazishda davlat muassasalari qatorida keng jamoatchilikning, ayniqsa ota-onalar hamda mahallaning o`rni nihoyatda kattadir. O`zining chuqur ildiziga, boy ma`naviy merosiga ega bo`lgan xalqimiz pedagogikasida ham ta`lim-tarbiya ishiga umummilliy ahamiyatga molik masala sifatida hamisha jiddiy e`tibor qaratib kelingan. O`g`il-qizlarning voyaga etib, o`z munosib o`rnini topsa birinchi galda ota-onasiga, ta`lim bergan ustoz rahmat eshitgan, aks holda ta`na-dashnomga ham ular duchor bo`lishgan. Xalqimiz bejizga – “Bolani dunyoga keltirgan emas, tarbiya qilgan ona” deya ta`kidlamaydi. Mustaqillik yillarida xalqimizning bola ta`lim-tarbiyasi bilan bog`liq azaliy an`analari tiklandi, hozirgi davr talablariga mos tarzda boyib bormoqda. Jumladan, yosh avlod kamolotida muhim ahamiyat kasb etadigan oila, mahalla, ta`lim muassasasi o`rtasida o`zaro hamkorlikning yo`lga qo`yilganini buning yaqqol misoli sifatida aytish mumkin.

“Bu borada farzandlarimiz uchun zarur sharoitlar yaratish, yangi-yangi ta`lim-tarbiya, madaniyat, san`at va sport maskanlarini barpo etish, yosh oilalar uchun uy-

¹ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo`llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoni. 2018 yil 2 fevral.

joylar qurish, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish bo'yicha boshlagan ishlarimizni yangi, yuksak bosqichga ko'taramiz.

Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim.

Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar:

«Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z otalariidan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq».

Qarang, qanday bebaho, oltinga teng so'zlar”¹!

Ta'lim muassasalari va mahallalar hamkorligida “Bir bolaga etti qo'shni otana” shiori ostida “Oila – muqaddas tushuncha”, “Ota va ona – oila tayanchi”, “Oilaviy an'analar”, “Mahalla va oila ma'naviyatining mustahkamligi”, “O'zbekiston – Vatanim manim!”, “Mahalla – tarbiya maskani”, “Islom dini va uning mohiyati”, “Diniy ekstremizm va uning qiyofasi”, “Terrorizm va uning salbiy oqibatlar” kabi mavzularida tashkil etilayotgan tadbirlar o'quvchi- yoshlar ma'naviyatini oshirib, ularni doimo ogoh va xushyor bo'lib yashashga, bugungi farovon hayotimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga chorlamogda.

Bizningcha, sog'lom oilaviy muhitni yaratishda ijobiy yutuqlarga erishgan ota – onalarning tajribalaridan unumli foydalanish uchun ularni ta'lim muassasalarining kengaytirilgan yig'ilishlariga, ota-onalar qo'mitalarining majlislariga taklif etish va o'z tajribalari bilan o'rtoqlashishni yo'lga qo'yish nihoyatda muhimdir. Buning uchun esa ta'lim muassasalarida ota – onalar kunlarini joriy etish zarur deb o'ylaymiz.

11.2. Bugungi kunda oiladagi dolzarb muammolar

Ma'lumki, har bir jamiyatning dastlabki ilk ijtimoiy bo'g'ini hisoblangan oila shaxs shakllanishida eng asosiy maskandir. SHaxs kamoloti o'z navbatida oilaviy munosabatlar bilan bevosita bog'liqdir. Jamiyat oiladan boshlanadi. Oilaning sog'lomligi va oilaviy muhitning qanday darajada bo'lishi jamiyat rivojiga, undagi mavjud muammolarni hal etishga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. SHuning uchun ham oilani mustahkamlash, uni takomillashtirish va sog'lomlashtirish masalalari jamoatchilikning e'tiboridagi muhim muammolardandir.

Oila qurish inson hayotidagi eng mas'uliyatli bosqichdir. Mamlakatimizda oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, ayniqsa, yosh oilalarning huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Har bir oila mustahkam poydevorga ega bo'lishiga erishish,

¹ Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan marosimdagi ma'ruzasi. 7 dekabr 2016.

jamiyatda har bir go`dakning sog`lom tug`ilishi va yashab ketishini to`la kafolatlaydigan zarur sharoitlarni yaratishga alohida e`tibor qaratilmoqda.

Oila hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta`minlaydigan, xalqimizning muqaddas urf-odatlarini sayqal topadigan, kelajak avlodning kamolotiga bevosita ta`sir ko`rsatadigan tarbiya o`chog`idir. Asosiy qonunimizning 63-moddasida - Oila jamiyatning asosiy bo`g`inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo`lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi, - deya belgilab qo`yilgan. Mazkur tamoyil asosida mamlakatimizda oilani har tomonlama qo`llab-quvvatlash, unga moddiy va ma`naviy ko`mak berish choralari ko`rilmoqda.

Davlatimizning Mustaqillik yillarida oila va nikoh munosabatlarini mustahkamlashning ahamiyatiga alohida urg`u bergan birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o`zining **«Yuksak ma`naviyat - engilmas kuch»** kitoblarida *«... oila institutini jamiyatning boshqa muhim ijtimoiy tuzilmalari, yurtimizdagi ma`naviy o`zgarishlar bilan uyg`un tarzda rivojlantirish, uning nufuzini oshirish masalasiga davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yunalishi sifatida doimiy e`tibor berib kelmoqdamiz»*, - deb ta`kidladilar.

«Ona va bola sog`lom bo`lsa, oila baxtli, oila baxtli bo`lsa, jamiyat mustahkam bo`ladi» degan hayotbaxsh qadriyat va olijanob g`oyani jamiyatimizda teran anglash va qaror toptirish, oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, jamiyatda onalarga alohida hurmat-ehtirom muhitini mustahkamlash, barkamol avlodni tarbiyalash, oila institutini mustahkamlashda davlat hokimiyati organlari va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirishga qaratilgan kompleks chora- tadbirlar ko`zda tutilgan. Oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, xotin- qizlar manfaatlarini ta`minlash, kuchli, barqaror va farovon davlat negizi sifatida oila institutini mustahkamlashga yo`naltirilgan qonunchilik va me`yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish Davlat dasturida belgilangan muhim yo`nalishlardan biridir.

Tarixdan ma`lumki, butun dunyoda ilg`or fikrli insonlar hamisha, asrlar osha xotin-qizlar masalalariga juda katta ahamiyat qaratib kelganlar. Buning sababi, ayolning tabiatan go`zalligi, donologi, oqilaligi, bunyodkorligi, yaratuvchanligi, mehnatsevarligi, yurtparvarligi, adolatligi, mehr- shafqatligi, andishaliligi, eng muhimi, uning nozik jismiga og`ir, o`ta mas`uliyatli, shu bilan birga, sharaflig, muqaddas vazifaning – onalik vazifasining yuklatilganligida bo`lsa, ajab emas. Chunki ayol kishigagina onalik va oiladagi bosh tarbiyachilik rolini birvarakayiga olib borish, amalga oshirish tabiatan in`om etilgandir.

O`zbekiston ayollari kelajak egalari bo`lgan farzandlarini nafaqat dunyoga keltirish, balki bu farzandni barkamol etib tarbiyalashda o`z o`rni mavjud ekanligini ko`rsatmoqda. Ayol ma`naviyati, dunyoqarashi, psixologiyasini ijtimoiy hayotning yorqin ko`zgusi deyish mumkin. Chunki ayolda ham oilaviy turmush, ham iqtisodiy va siyosiy hayot o`z aksini ko`rsatadi. Ayolning oilada mehri, pokligi, jonkuyarligi oila uchun obro` va baraka bo`lsa, jamiyatga nisbatan ta`siri ham ko`pdir.

Har qanday tuzum va har qanday ijtimoiy muhitda ayollar ijtimoiy- siyosiy faolligini oshirish orqali oila farovonligiga erishiladi. Oila farovon bo`lsa, bu o`z navbatida jamiyatning ravnaqiga olib keladi. Shuning uchun xotin-qizlar masalasini

olib chiqish orqali jamiyat miqyosida tahsinga loyiq juda ko'p vazifalarni bajarish mumkindir. Ayolga xos bo'lgan ma'naviy fazilatlar uning tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o'ylab yashash, xalol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne'mat va go'zalliklaridan bahramand bo'lishida namoyon bo'ladi. Ayol ma'naviyati ijtimoiy hayotning yorqin ko'zgusidir. Chunki ayolda ham oilaviy turmush, ham iqtisodiy va siyosiy hayot o'z aksini ko'rsatadi. Ayol ma'naviyatining har bir qirrasini jamiyat ijtimoiy- siyosiy hayoti bilan uzviylashadi.

Ayolning oilada mehri, pokligi, jonkuyarligi oila uchun obro' va baraka bo'lsa, jamiyatga nisbatan ta'siri undan ham ko'pdur. Milliy qadriyatlarni saqlab qolish, milliy an'analarni davom ettirish ham ayollar zimmasidadir. Ayollar o'zlaridagi bor fazilatlarini farzandlariga singdiradilar, milliy qadriyatlar, an'analarni farzandlariga uzatib tarbiyalaydilar. Xalqimizga xos yuksak insoniy xislatlarda: Vatanparvarlik, mehnatsevarlik, sabr-toqat va chidamlilik, sadoqat va mehr-oqibat, halollik va diyonat, ilm ahliga hurmatda ham ayol ma'naviyatini; oilaga bog'liqlik, mahallaga dahldorlik, Vatanni sevish, ardoqlash, mehrli-e'tiborli bo'lish qadriyatlarida ham ayolni; o'z ma'naviyati, madaniyati, ajdodlar merosini oilaviy an'analari, rasm-rusumlar, udumlar vositasida saqlab kelish va avlodga etkazishida; muomalasi, farzandlar tarbiyasi, turmush o'rtog'iga, tanish va notanish insonlarga bo'lgan munosabatida ham ayol siymosi yaqqol namoyon bo'ladi. SHuningdek, jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi va inqirozga olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida ham oiladagi ayol ma'naviyati ta'sirining hissasi kattadir. Demak, oiladagi muhitning sog'lomligi avvalo ayolga bog'liq bo'lganidek, jamiyatdagi ma'naviy muhitning sog'lomligi bevosita oilaga va oila tarbiyasiga ma'sul bo'lgan onaga bog'liqdir.

Mustaqillik yillarida nikohga kirgan yigitlarning yosh guruhlarida ham o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, 20-24 yosh guruhida nikohga kirgan yigitlar salmog'i **15,6** foizga qisqardi. 25-29 yosh guruhidagilarda esa u deyarli 2 marotabaga ortdi. Shuningdek, 30 va undan katta yoshda oila qurgan yigitlar salmog'i ham yil sayin oshmoqda. SHunga qaramay, yana bir muammo hamon bor - bu ayrim qizlarning erta nikohga kirishlari. Chunki ajrim bo'lgan holatlarning aksariyatida kelin juda erta turmush qurganligi fakti tasdiqlanmoqda.

Respublikamizning turli hududlaridagi tug'ilish sur'atlari va sifati avvalo, xotin-qizlarning ma'lumotlilik darajasi, ularning shaharda yoki qishloqda yashashi, rasmiy nikohda bo'lish yoki bo'lmasligi ko'rsatgichlariga mosdir. SHunga ko'ra, bizda oilalarning *ko'p bolali turidan o'rtacha yoki kam bolali turiga* o'tish kuzatilmoqda.

Yana bir muammolardan biri xotin-qizlar o'rtasida o'z **joniga qasd qilish holatlariga barham** berishdir. Amaliyot shuni ko'rsatmokedaki, o'z joniga qasd qilish holatini o'rgansa va uning oldini olsa bo'ladi, chunki bu ishni qilishga undagan motiv har bir holatda individual xarakterli bo'lsa-da, uning kelib chiqishiga turtki bo'ladigan tashqi omillarda muayyan o'xshashliklar bor.

Tahlilchilarning so'zlariga qaraganda, asosan 15 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan shaxslar o'z joniga qasd qilgan ekan. SHuningdek, 70 dan oshgan qariyalar ham bu dunyodan o'z jonlariga qasd qilgan holda ketishga moyil bo'lishgan ekan.

Erkaklar ayollarga nisbatan uch barobar ko'p o'z joniga qasd qilishadi. Har to'rtidan bitta o'z joniga qasd qilish holati qashshoq va rivojlanish yo'liga o'tgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. So'nggi 45 yilda o'z joniga qasd qiluvchilar soni jahonda 60%ga oshgani aytiladi.

O'z joniga qasd qilish rasmiy tilda Suihid (lotincha. sui caedere — o'zini o'ldirmoq) deb ataladi. Mazkur muammo jahon sog'liqni saqlash tarmog'i uchun asosiy global fojia ekani ta'kidlanadi.

Har yili 10 sentyabrni Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti O'z joniga qasd qilish holatlarining oldini olish Xalqaro assotsiatsiyasi (**International Association for Suicide Prevention**) bilan hamkorlikda Jahon o'z joniga qasd qilishlarning oldini olish kuni (World Suicide Prevention Day) sifatida nishonlaydi.

Bu sana 2003 yildan beri nishonlanib kelinmoqda. Shu kuni jahonda o'z joniga qasd qilishlarni bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan ezgu ishlar sarhisob qilinadi. Tahlilchilarning so'zlariga qaraganda, hozir zamon shu qadar tez rivojlanib borayaptiki, u yoki bu hollarda kishilar o'z hayotlariga qarshi jinoyat qilishga, ya'ni jonlariga qasd qilishga majbur bo'lmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, jahonda zo'ravonlik asosida yuz bergan o'limlarning teng yarmini o'z joniga qasd qilish holati tashkil etadi.

Yana bir muammo - qarindosh-urug'lar o'rtasidagi nikohlarning yo'q bo'lmayotganligi. Chunki ushbu omil tufayli hamon ayrim oilalarda nogiron bolalar tug'ilmoqda. Ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, agar qarindosh bo'lmagan ota-onalardan nogiron bola tug'ilish havfi 2 yoki 3% bo'lsa, qarindoshlar juftligida bu raqam 4,5 - 5,0 % gacha boradi, ya'ni, ikki barobar ortiqdir.

Yurtimizdagi nikohlarning 20 foizidan ko'prog'i yaqin qon-qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar ekan. Olimlarning fikricha, qon-qarindoshlardan tashkil topgan har 100 ta oiladan 60 tasida tug'ma irsiy kasallikka chalingan farzand tug'iladi. Nosog'lom farzand tug'ilish xavfi qon-qarindoshlik qanchalik yaqin bo'lsa, shunchalik yuqori bo'ladi. Hozirgi vaqtda tibbiyotda 6 mingdan ortiq tug'ma irsiy kasalliklar mavjudligi qayd etilgan bo'lsa, shulardan 1,5 mingtasi davolab bo'lmaydigan yoki umrbod davolash kerak bo'lgan kasalliklardir. Hozir chaqaloqlarning 5 foizi irsiy kasallik bilan, 1 foizi o'lik tug'ilayotganligi, ayollar va erkaklarning bepushtligi, 1 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasidagi o'limning bir qismi irsiy omillar bilan bog'liq.

Ko'pincha joylarda tushuntirish ishlari olib borilganda, farzandlarini yaqin qarindoshlariga o'ylab qo'ygan ota-onalar, "Nevaralarimiz sog'lomku, nega hadeb bu haqda gapiraverasizlar", deya e'tiroz bildirishadi. Ammo bir avlod bo'lmasa, ikkinchi yo uchinchisida turli o'zgarishlar ro'y berishi mumkin, ya'ni irsiyat buziladi.

XX asrda ilm-fan erishgan yutuqlar natijasida irsiy belgilarni nasldan-naslga uzatuvchi tuzilma, hujayralar yadrosida joylashgan alohida oqsil tuzilma — xromosomlar ekanligi aniqlandi. Xromosomlar har bir organizmning faqat o'zigagina xos bo'lgan alohida belgilarni uzatish imkoniyatiga ega bo'lib, bu xususiyat xromosomlarning bir qismi — DNK molekulasi yoki genlar tomonidan amalga oshiriladi.

Inson salomatligi ko'p jihatdan uning genotipi bilan belgilanadi. Genotip - bu inson organizmidagi bir-biri bilan o'zaro murakkab munosabatda bo'lgan genlarning

yig'indisi. Inson genotipida hozircha 1 milllion atrofida genlar borligi aniqlangan bo'lib, ular hujayralardagi mavjud 23 juft xromosomlardagi DNKlarda joylashgan. Irsiy kasalliklar irsiy axborotlarni nasldan-naslga tashuvchi genlarning o'zgarishlari natijasida yuzaga keladi.

Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo viloyatlarining qishloq aholisi o'rtasida o'tkazilgan tekshirishlar asab tizimi, ruhiy kasalliklar, qon kasalliklari, Daun kasalligi, fenilketonuriya, tug'ma gipotireoz kabi irsiy omillar bilan bog'liq kasalliklar keng tarqalgan. Yadro pardaga bo'yalmaydigan (axromatik) ip va bo'lakchalar ko'rinishida to'r orasida joylashgan bo'yaluvchi qism (xromatin)ga yadro shirasiga (asosiy massa) va yadrochalarga ega bo'ladi. Irsiy xususiyatlar DNKdan hosil bo'lgan xromosoma bo'lakchalari (genlar) orqali o'tadi. Genlarda qoliplardagi kabi informahion RNK sintez qilinadi. RNK yadrodan hujayra sitoplazmasiga o'tib, oqsil sintezi uchun kerak bo'lgan asosiy strukturasining xususiyatlarini etkazadi. Hujayrada oqsilli strukturaga ega bo'lgan fermentlar mavjud. Har bir gen informahion RNK orqali bitta ferment sintezini boshqaradi va shu ferment orqali hujayra funksiyasiga ta'sir ko'rsatadi. SHunday qilib, hujayra funksiyasi, oqsil sintezi, irsiy belgilarning o'tishi DNK-RNK fermenti sistemasi ishtirokida bo'ladi. Hozircha, qaysi gen qanday belgilarni o'tkazishi aniq emas. Lekin genlar to'plamidagi o'zgarishlar avlodning ayrim xususiyatlari o'zgarishiga, xromosomalar tuzilishidagi ba'zi o'zgarishlar esa, tug'ma nuqsonlarning paydo bo'lishiga yoki turli kasallikka sabab bo'lishi mumkin.

Ota-onalardan birida nasldan naslga o'tadigan patologik alomatlar bo'lsa, unga dominant tipi, deyiladi. Bunda nasldan naslga qo'l yoki oyoq barmoqlarining bir-biriga yopishganligi, barmoqlarning kalta bo'lishi, eshituv asabining tug'ma atrofiyasi kasalligi ana shunday genni tashuvchi ota yoki ona nikohlanganda, avlodda yuqorida keltirilgan nuqsonlar paydo bo'lishi mumkin. SHuning uchun yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar e'tiborda bo'lishi lozim. Nasldan naslga o'tuvchi rehissiv kasallikka sababchi gen yashirin o'tishi ham mumkin. Bu hollarda yuqori labi yoki tanglayi tirtiqbola tug'ilishi mumkin. Ba'zida (erkaklarda) qonning etarlicha ivimasligi (gemofiliya) kuzatiladi. Bunday kasallikka xromosoma geni sababchi bo'ladi. Ammo gemofiliya kasalligi nasldan naslga faqat ayollar orqali o'tadi. Gemofiliya geni bo'lgan xromosomani tashuvchi ayoldan tug'ilgan o'g'il bolalarning qariyb 50 % da qon ivimaslik kasalligi kuzatiladi. Bunday kasal qizlarda bo'lmaydi. Gemofiliyali erkak bilan gemofiliya geni bo'lgan ayol o'rtasidagi (qarindoshlar o'rtasidagi) nikohdan tug'iladigan homilalar yashashga layoqatsiz bo'ladi. Ba'zida qizil va yashil ranglarni farqlay olmaydigan (daltonizm) bola tug'iladi. Daltonizm nasldan naslga o'tishi mumkin. Bulardan tashqari, tug'ma kar, soqov va ruhiy kasal bolalar ham tug'iladi.

Oilalarda irsiy kasalliklar bilan kasallangan bolalar tug'ilishi ehtimolini baholash, irsiy kasalliklarning homiladorlik davrida tashhislash, aholining tibbiy savodxonligi va madaniyatini oshirish, qon-qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida poytaxtimizda va Samarqand, Andijon, Namangan, Nukus, Buxoro, Termiz, Farg'ona, Qarshi, Navoiy, Urganch shaharlarida Skrining markazlari (tibbiy-genetik maslahatxonalari) tashkil qilinib, samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

11.3. O'zbek mutafakkirlarining oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari

Jamiyatning turli davrlarida oila masalasi olimlarning diqqat markazida bulib kelgan. Jumladan, Sharq mutafakkirlari va davlat arboblari - Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Axmad Donish, Abdurauf Fitrat va boshqalarning asarlaridagi oila-nikoh munosabatlari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, ota-onaning vazifalari, farzandlar burchi haqida g'oyatda ibratli maslahat va o'gitlar bayon etilgan.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da keltirilgan oila va shar'iy nikoh odoblari, ota-onalar va farzandlar munosabati, ularning burch va vazifalari, uylanish va kelin tanlash xususidagi g'oyatda qimmatli fikrlar bugunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shuningdek, «Avesto»da oila-nikoh munosabatlari, oilaviy burch va farzand tarbiyasi xususida bir qator fikrlar bayon qilingan. Unda qarindoshlarning o'zaro oila qurishi qat'iy man etilgan. Qavm va urug' qonini toza, avlodni benuqson saqlash uchun shunday qilingan. Unda ko'p bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash lozimligi, bir yo'la 2-3 ta tuqqan ayollar mukofot olishga sazovor ekanligi uqtiriladi.

Markaziy Osiyo xalqlarining «Alpomish», «Kuntug'mish», «Go'rug'li», «Oysuluv», «Layli va Majnun», «Yusuf va Zulayho», «Manas», «Qizjibek», «Qozi Kurpesh Bayan suluv» kabi dostonlarida erkak va ayol o'rtasidagi sof insoniy munosabatlar, muhabbat, sadoqat, yorga vafo mavzusi tarannum etilgan. Ayol doimo erkak kishiga sodiq do'st va yor, oqila, topqir, oilaviy tinchlikning posboni sifatida ulug'langan. Ayol - oilaga fayz kirituvchi farishta timsoliga aylangan.

Yuqorida sanab o'tganlarimiz - «Alpomish», «Qizjibek» va «Manas» kabi mashhur dostonlarimizda nikoh tuzishga oid odatlarda yigitning jismoniy qobiliyatlariga alohida ahamiyat berilgan. Yigitning jismoniy qobiliyati sinab ko'rilgan. Masalan, uning qizga munosib yoki nomunosib ekanligini aniqlash uchun o'zaro ot poygasi, kamondan nishonga urish, uzoqqa o'q uzish, kurash tushish kabi bellashuvlar o'tkazilgan. SHuningdek, bu tanlov «Qiz quvmoq», «Tortishmachoq», «Oltiboqan» kabi xalq o'yinlarida o'z ifodasini topgan. Bu dostonlar qadimgi davrda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash an'analari haqida bizga to'liq tasavvur va ma'lumot bera oladi.

Islom dini, uning asosiy manbalari hisoblangan Qur'oni Karim va hadislarda bo'lajak oilaning vujudga kelishiga alohida e'tibor berilgan hamda farzandlarning nasliy pok bo'lishini hisobga olib, bo'lajak qaynota va qaynonalarni tanlash zaruriyati o'ziga xos tarzda bayon etilgan. Kelin yoki kuyov qilmoqchi bo'lgan har bir ota-onaning bo'lajak qudalar naslini surishtirishlari yoxud har bir musulmon o'zining «etti pushti»ni bilishi lozim, degan talablar ham islomiy ma'naviyatdan kelib chiqqan. Qur'oni Karimning «Baqara», «Niso» suralarida oila, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiya masalalariga alohida urg'u berilgan.

Toshga o'yib yozilgan yodgorliklar ichida o'zining ta'lim-tarbiyaviy g'oyalari bilan ma'naviy meros qoldirganlardan biri - Kurkit ota o'git-nasihatlaridir. VIII-IX asrning mashhur qozoq kuychisi, musiqashunos olim-lardan biri Kurkit ota o'git-nasihatleri, aforizmlarining tarbiyaviy ahamiyati katta. Kurkit ota ota-onani hurmat qilish, qadrlash, oilaviy munosabatlar, yigit bilan qiz tarbiyasi, inson xarakterining

turli xil sifatlari xususida keyingi avlodga ibrat bo'larli pand-nasihatlar qoldirgan. Masalan, onadan ibrat olmagan qiz yomon, otadan o'rnak olmagan o'g'il yomon. Bunday farzand xalqning boshini birlashtirib, uyidan ovqat berishga ham yaramaydi, degan so'zlar kishini uyga toldirmay qo'ymaydi.

Kurkit ota ayollar xarakteriga psixologik jihatdan alohida ahamiyat qaratadi va ularni guruhlarga ajratadi. Ayollarning bir guruhi oilaning tayanchi, mehmondo'st bo'lib unib-o'sgan ayollar bo'lsa, ikkinchisi - insofsiz, sabrsiz; uchinchisi - g'iybatchi, tozalikka rioya qilmaydigan ayollar bo'ladilar. Dunyoga mashhur olim, ma'rifatparvar Abu Nasr Forobiy inson kamoloti, baxti, ta'lim va tarbiyasi, axloqi, dinga munosabati haqidagi qarashlarini mashhur «Fozil odamlar shahri» va «Baxt-saodatga erishuv haqida» asarlarida bayon etadi. Forobiy keraksiz urf-odatlardan (hozir ham oilaviy hayotda, er-xotin munosabatlarida uchraydi) voz kechish, baxt-saodatga erishish yo'llari haqida gapirib, shunday deydi: «Rahbarlar (er yoki xotin) «yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmog'i kerak. Aks holda o'tmish talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday engillik, o'zgarish va o'sish ham bo'lmaydi». Shuningdek, «Baxt saodatga erishuv yo'lida nimaiki (bilim, odob-axloq, kasb-hunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustahkamlamoq, nimaiki zararli bo'lsa, uni foydalilarsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur»ligini ta'kidlaydi.

Sharq mutafakkirlaridan yana biri - Abu Rayhon Beruniyning oilaviy munosabatlar haqidagi qarashlari ham alohida e'tiborga loyiqdir. Beruniy o'z qarashlarida, ayniqsa, xotin-kizlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratadi. U o'zining «Minerologiya» asarida oila qurayotgan qizlarga ota-onaning nasihatlarini keltirib, oiladagi tinchlik-totuvlik, baxtiyorlik ko'proq ayollar zimmasiga tushishini ta'kidlaydi va shunday yozadi: «Ey qizim! Sen o'rgangan uyingdan ketib, notanish xonadonga tushmoqdasan. Sen bo'lajak kuyovingning hamma xislatlarini bilmaysan. Sen er bo'l, u esa osmon bo'ladi. Demak, sen u bilan shunday yo'l tutki, uning oldida er kabi kamtar bo'lsang, u osmon kabi olijanob bo'ladi. Osmon shifobaxsh yomg'iri bilan erni ko'kartirgani kabi u ham o'z mehru shafqati bilan seni xushnud etadi. Yana sen unga kanizak bo'lsang, u senga xizmatchi bo'ladi. Ering sendan faqat yumshoq va shirin so'zlarga eshitsin, yaramaydigan yoki eski libosda yoki yuzlaringga oro berilmagan va sochlaring tartibga solinmagan holda uning oldida o'tirma.

Oilaviy munosabatlar masalalariga oid o'zining diqqatga sazovor qarashlari bilan ajralib turuvchi mutafakkirlardan biri - Abu Ali ibn Sinodir. Allomaning, ayniqsa, ayollar hayotda qanday bo'lishlari kerakligi haqidagi qimmatli fikrlari hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Uning «Tadbiri manzil» asaridagi «Afsofiy bextarin zanxo» bo'limida ayollarning yaxshi xulqli bo'lishi haqida so'z boradi va mazkur asarda ayollar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishlari lozimligi ta'kidlanadi:

1. Bilimli bo'lsin.
2. U dinga ishonishi kerak.
3. Uyatchan, sharm-xayoli bo'lsin.
4. Tabiatan jasur bo'lsin.
5. O'z erini qattiq sevsin.
6. Tug'ish va bola tarbiyasi haqida o'ylasin.
7. Ezma bo'lmasin.

8. O`z eriga bo`ysunsin.
9. To`g`ri, kamtar va farosatli bo`lsin.
10. U hech qachon o`z sha`niga dog` tushirmasin.
11. Eri bilan ehtiyotkor bo`lib, uning hurmatini joyiga qo`yib, xushmuomala bo`lishi shart.
12. U o`z vazifasini va burchini yaxshi bilsin.
13. Xotin oila xo`jaligidagi narsalardan to`g`ri, tejab foydalanishni bilsin.
14. U o`z tabiati va yaxshi tomonlari bilan eridagi kamchiliklarini yukotsin

Ibn Sino ayollarga ana shunday murakkab va hayotiy vazifalarni yuklaydi. Bu o`z navbatida oilani mustahkamlashga turtki bo`ladi.

Yusuf Xos Xojibning mashhur «Qutadg`u bilig» asarida ham turmush o`rtoq tanlashda uning qaysi sifat va fazilatlariga e`tibor berish zarurligi, inson shaxsiga xos sifat va fazilatlarining oilaviy hayotni boshqarishdagi roli, o`rni va ahamiyati, er-xotin o`zaro munosabatlarining me`yorlari, farovon turmush kechirishning muhim shartlari haqida qimmatli fikrlar keltiriladi.

Buyuk sarkarda Amir Temur ham oila qurish masalalariga davlat yumushlaridek juda jiddiy e`tibor bergan. Sohibqiron, xususan, kelin tanlash haqida kuyidagi fikrlarni bildirgan: «O`g`illarim, nabiralaring va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e`tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko`rdim. Kelin bo`lmishning nasl-nasabini, etti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog`lik-salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo`lmish nasl-nasabi, odob-axloqi, sog`lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan holi bo`lsagina el-yurtga katta to`y-tomosha berib, kelin tushurdim».

Buyuk alloma Alisher Navoiyning er-xotin munosabatlari, burchlari, ayollar fazilati, ularning oilada tutgan o`rni haqidagi qarashlari beqiyosdir. «Mahbub-ul-qulub» asarining «Uylanish va xotinlar to`g`risidagi» faslida mutafakkir uylanish va uning foydasi, oila odobi va oilada ayollarning fa-zilatlarini haqida ajoyib fikrlarni bayon etgan. Navoiy ayolning turmushdagi hissasiga quyidagicha to`xtaladi: «Yaxshi xotin - oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo`lsa - ko`ngil yozig`i, xushmuomala bo`lsa - jon ozig`idir. Oqila bo`lsa, ro`zg`orda tartib-intizom bo`ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi».

Jumladan, XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan Sharq mutafakkirlaridan biri Ahmad Donish o`zining «Navodir ul-vaqoe`» («Nodir voqealar») nomli asarida «Nikoh odoblari bayoni, uylanish shartlari, qaynona va kelinning xusumati» haqida batafsil bayon qilgan. Mutafakkirning fikri-cha, inson muayyan yoshga etgandan keyin unda oila qurish, uylanishga zarurat paydo bo`ladi. Albatta, bu davrda inson oila, oilaviy baxt, er-xotinlik, farzandlik, ota-onalik burchlari haqida tushunchaga ega bo`ladi. Darhaqiqat, donishmand ayolni sevmok, hurmat qilmoq har bir erkak (er)ning vazifasi ekanligini aytib o`tadi. Oilaviy baxt insonlarning orzu-istaklari, maqsadlariga etishib yashashdir. Ahmad Donish oilaviy baxt ko`prok xo-tinlarga bog`liq, chunki erkak uchun soliha xotindan ortiqroq hech bir ne`mat yo`qdir, oiladagi inoqlik, totuvlik, saranjomlik ular qo`lidadir, degan fikrlarni hamda oila qurish motivlarini kengroq yoritib beradi.

XX asr Turkiston jadidchilik harakatining ulkan namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat oila masalasiga va uning jamiyat hayotidagi tutgan o`rniga alohida e`tibor qaratadi. Allomaning «Oila yoki oila boshqarish tartiblari» asarida oila qurish zaruratidan tortib, oila a`zolarining o`zaro munosabatlari, ota-ona, farzandlarning huquq va burchlari, farzand tarbiyasi haqidagi qarashlari chuqur yoritib berilgan. Donishmand mazkur asarda uylanish va bo`lajak er-xotin, birinchi navbatda, nimalarga ahamiyat berishi lozimligi haqida qimmatli fikrlarini ilgari suradi.

Adibning «Oila» asarida esa uylanmoq zarur bo`lganda qanday xotinni tanlash lozimligi, to`y qanday bo`lishi kerakligi, er-xotinning qanday yashamoqliklari, ota-onaning haq-huquqlari va qizlarning ilm olishlari xususidagi qimmatli fikrlari diqqatga sazovordir.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda ma`nan barkamol, jismonan sog`lom, intellektual yetuk avlodni tarbiyalashga katta e`tibor berilmoqda. Bunday sharoitda oilada farzand tarbiyalash borasidagi an`analarimiz davr ruhi va ehtiyojlari bilan chambarchas bog`lanib, yanada o`z ahamiyatini yaqqolrok namoyon etmoqda. Shu sababli oilani mustahkamlash, uning ma`naviy-axloqiy tarbiya borasidagi o`rnini kuchaytirish masalasi davlatimiz siyosatining asosiy bug`inini tashkil etmoqda.

Hozirgi davrda oila, oila-nikoh munosabatlari, oiladagi psixologik muhit, ta`lim-tarbiya va uning etnopsixologik xususiyatlarini tadqiq etish muhim muammolardan biri bo`lib hisoblanadi.

Yuqoridagi allomalarimizning fikrlaridan xulosa shuki, ayollarda nafaqat tashqi va ichki go`zallik, shu bilan birga axloqiy qiyofaning barkamol bo`lishi ham maqsadga muvofiqdir. Bu o`z navbatida, bevosita oiladagi tarbiyaga bog`liq. Tarbiyaning ko`p jihatlari ota-onaning axloqiy yetukligiga, ular o`rtasidagi munosabatning ilqligiga va oiladagi psixologik muhitga ham bevosita aloqador. Chunki ota-onaning axloqiy qiyofasi tarbiyada muhim rol uynaydi.

Shuningdek, ma`naviy barkamol, jismoniy sog`lom farzandlarni voyaga etkazishda oilada amalga oshiriladigan axloq, odob tarbiyasining o`rni benihoya katta. Xalqimizning axloq va odob tarbiyasi borasidagi an`analari, qadriyatlari asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan. Islomga qadar yuzaga kelgan axloqiy qadriyatlar, islomiy an`analar, buyuk mutafakkirlarning hikmatli so`zlari, xalq og`zaki ijodida ifodalangan marosimlar, urf-odatlar, muomala va yurish-turish qoidalari oiladagi axloq, odob tarbiyasiga asos bo`lgan.

Oila jamiyatning muhim tarkibiy qismi xisoblanadi. Oilaning shakllanishi va rivojlanishi jamiyat hayotidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma`naviy munosabatlar bilan bevosita bog`liq ravishda amalga oshgan. Jamiyat hayotida bo`lib turadigan o`zgarishlar, kishilarning turmush tarzi, yashash va mehnat qilish sharoitlari, milliy axloq me`yorlari, psixologiyasi, diniy e`tiqodlari ham oilaviy munosabatlarning axloqiy, huquqiy, ijtimoiy mezonlariga ta`sir ko`rsatgan.

Qisqa xulosa

Ushbu mavzuda oilada bola tarbiyasi, hozirgi zamon oilalari mavjud jamiyat bilan uzviy bog`liqligi, shaharlarning o`sishi, yashash sharoitlarining yaxshilanishi, xalqning moddiy, ma`naviy, madaniy turmush saviyasining oshishi yoshlarning barkamol inson qilib tarbiyalanishiga ta`sir qilashi haqida fikr yuritilgan. Bundan

tashqari mavzuda oilani mustaxkamlash maqsadida «Maktab, oila va jamoatchilik konsepsiyasi»ning asosiy mohiyatlari ochib berilgan.

O`z-o`zini nazorat va muhokama uchun savollar:

- 1.Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish omillari nimalardan iborat?
- 2.Oilada ota-ona va farzand munosabatlari haqida gapiring.
- 3.Buyuk mutafakkirlarimiz oiladagi tarbiya masalalari haqida qanday fikrlar bildirganlar?
- 4.Ma'naviy merosimizdagi tarbiyaviy g'oyalar nimalardan iborat?
- 5.«Qattiqqo'l» intizomli oila muhitini tasvirlab bering.
- 6.Oila tarbiyasidagi obyektiv va sub'ektiv sabablar deganda nimani tushunasiz?
- 7.Na'munali oilalar tajribasini qanday yo'llar bilan ommalashtirish yo'llari mavjud?
8. Bugungi kunda oiladagi dolzarb muammolar deganda nimani tushunasiz?

12 - mavzu. O`smirlik davrida xarakterni individual xususiyatlari va unda tarbiyaning roli

Reja

- 12.1.O`smirlik davrining o`ziga xos xislatlari.
- 12.2.O`smirlik davrida xarakter va uning o`zgaruvchanligi.
- 12.3.Guruh rahbarini o`smirlar axloqiy tarbiyasini tashkil etishdagi o`rni.

12.1.O`smirlik davrining o`ziga xos xislatlari

Bu davr haqida izlanish olib borgan psixolog – pedagoglarning ilmiy tadqiqot natijalariga ko`ra o`smirlik davri o`g`il bolalarda 13-16 yoshlarni, qiz bolalarda 12-15 yoshlarni tashkil etadi va bu davr psixologiyada shaxs identifikatsiyasi va rollarning chalkashligi davri deb nomlanadi.

**O`smirlik davri** eng murakkab va shu bilan birga muhim taraqqiyot bosqichidir. Ilk o`smirlik 11-13 yoshni, katta o`smirlik 14-15 yoshlarni o`z ichiga oladi. Bu davrning eng muhim hislati shundan iboratki, u bolalikdan o`spirinlik, kattalikka, yoshlikdan yetuklikka o`tish davridir.

O`smirlik - organizm taraqqiyotidagi shiddat va notekislik bilan xarakterlanib, bu davrda tananing intensiv tarzda rivojlanishi va suyaklarning qotishi ro'y beradi. Yurak va qon tomirlar faoliyatida ham notekislik bo'lib, bu ham bola fe'lining o'zgaruvchan, dinamik va ba'zan noma'qulliklar va noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Bular albatta, asab tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, bola tezga achchiqlanadigan yoki tormozlanish yuz berganda anchagacha depressiya holatidan chiqolmaydigan tushkunlikda qolishi ham mumkin.

O`smirlarni nevroz holatiga olib keluvchi sabablari:

- Yaqin odamni yo`qotish kechinmasi.
- Aybdorlik hissi.
- Agressivlik.
- O`zini-o`zi baholash muammosi.

Ayni shu davrda bola mustaqil ravishda fikrlashga intila boradi. Chunki bu davrda u ko`proq o`z fikr-o`ylari dunyosida mushohada qilish, olam va uning sirlarini bilishga, nazariy bilimlarni ko`paytirishga intiladi. Buning sababi - yana o`sha

kattalikka o'tish bo'lib, bolada o'ziga xos «kattalik» hissi paydo bo'lib, bu narsa uning gapirishi va fikrlashlarida ham ifodalanadi. Shuning uchun ham maktabda berilgan mustaqillik va to'g'ri tashkil etilgan o'qish sharoitlari, samimiylik muhiti unda mustaqil fikrlashiga katta imkoniyatlar ochishi va undagi ijodiy tafakkurni rivojlantirishi mumkin. Shunga bog'liq tarzda o'smirning o'z falsafasi, o'z siyosati, baxt va muhabbat formulasi yaratiladi.

Mantiqan fikrlashga o'rganishi esa unga o'zicha aqliy operatsiyalarni amalga oshirish, tushunchalar va formulalar dunyosida harakat qilishga majbur qiladi. Bu o'ziga xos o'smirlik egosentrizmining shakllanishiga - butun olam va uning qonuniyatlari unga bo'ysunishi kerakday fikrning paydo bo'lishiga olib keladi. SHuning uchun ham aynan o'smirlik paytida bolalar o'z ota-onalari bilan hadeb tortishaveradilar. Aniq bir to'xtamga kelolmasa ham tortishish biror fikrni izhor qilish ehtiyojining o'zi unga juda yoqadi.

Shunday bo'lishiga qaramay, o'smirlik yuqorida ta'kidlanganidek, qarama - qarshiliklarga boy davrdir. Uni ba'zi olimlar «krizislar, tanazzullar» davri ham deb ataydilar. Sababi - bola ruhiyatida shunday inqiroziy holatlar ko'p bo'ladiki, u bu inqirozni bir tomondan o'zi hal qilgisi keladi, ikkinchi tomondan, uni hal qilishga imkoniyati, kuchi va aqli etishmaydi.

O'smir shaxsning takomillashuvi va shakllanishiga turtki bo'lgan omillardan biri - o'quv faoliyati motivlaridagi sifat o'zgarishidir. Kichik maktab yoshidagi boladan farqli, o'smir endi faqat bilimlar tizimiga ega bo'lish, o'qituvchining maqtovini eshitish va «5» baholarni ko'paytirish uchun emas, balki tengkurlari orasida ma'lum *ijobiy mavqeni egallash*, kelajakda yaxshi odam bo'lish uchun o'qish motivlari ustivor bo'lib boradi. Ular maktabga borgisi kelmaydi, o'qishga og'rinib kelib, salbiy emoSiyalar va xavotirlik hislarini boshdan kechiradilar (o'rtacha 20% o'quvchilar). Bu kattalarning o'smir bilan ishlashini qiyinlashtiradi.

12.2.O'smirlik davrida xarakter va uning o'zgaruvchanligi

Mashhur rus ruhshunosi A.E.Lichko fikri bo'yicha *xarakterning aksentuatsiyasi* – bu xarakterning ayrim alomatlarini g'oyatda kuchaytirish, bunda insonni psixologiyasi va xulqidagi patologiya (kasallik orqasidagi me'yordan chetga chiqishlik) bilan chegaralanuvchi me'yorlar doirasidan chetga chiqishlar kuzatiladi. Bunday akhentuahiya psixikaning vaqtincha holati sifatida o'smirlar va o'rta yoshlik yoshida kuzatiladi. A.E.Lichko taklif qilgan o'smirlar xarakterlari aksentuahiyalari tasnifi quyidagicha ko'rinadi:

1. Gipertimli tur. Ushbu turdagi o'smirlar harakatchanlik, dilkashlik, sho'xlikka moyillik bilan ajralib turadilar. Atroflarida sodir bo'layotgan voqealarga ular ko'proq shovqin-suron kiritadilar, tengdoshlarining notinch konpaniyalarini yaxshi ko'radilar. YAxshi umumiy qobiliyatlarda ularda chidamsizlik, ancha intizomlik ko'rinadi, notekis o'qiydilar. Ularning kayfiyatlari hamma vaqt yaxshi, ko'tarinki. Ularda kattalar ota-onalar va pedagoglar bilan ko'pincha janjallar vujudga keladi. Bunday yoshlar ko'pincha turli tuman qiziqishlarga ega, ammo bu qiziqishlar, qoidaga ko'ra, yuzaki va tez o'tib ketadilar. Gipertimli turdagi o'smirlar ko'pincha o'zlarining qobiliyatlarini yuqori baholaydilar, o'ziga judayam ishongan bo'ladilar, o'zlarini ko'rsatish, maqtanish va atrofdagilarda ta'surot qoldirishga harakat qiladilar.

2. Siklodli tur. Ortiqcha serjahlilik va loqaydlikka moyillik bilan ta'riflanadilar. Bu turdagi o'smirlar qaeirlardadir tengdoshlari bilan birga bo'lishdan ko'ra uyda yolg'iz bo'lishni afzal ko'radilar. Ular hatto kichik ko'ngilsizlikni ham og'ir boshdan kechiradilar, tanbehlariga g'oyatda jahl bilan javob qaytaradilar.

3. Lobilli tur. Bu turning kayfiyati judayam o'zgaruvchandir, buning ustiga ko'pincha uni oldindan aytib bo'lmaydi. Kayfiyatni to'satdan o'zgarishi uchun sabablar judayam kichik bo'lishlari mumkin, masalan, kimnidir tasodifan aytib yuborgan so'zi, kimnidir sovuq qarashi. Ularning barchasi "qandaydir jiddiy ko'ngilsizliklar va muvaffaqiyatliklar yo'qligida ham umidsizlikka tushishga va g'amgin kayfiyatda bo'lishga qodirlar". Bu o'smirlarning xulqi bir zumlik kayfiyatga bog'liq. Kayfiyatga mos keluvchi hozirgi vaqt va kelajak yo quvonchi yoki g'amgin bo'yoqlar bilan bezatish mumkin. Bunday o'smirlar, ruhsiz kayfiyatda bo'lgan holda, ularning kayfiyatlarini ko'tarish, diqqatini boshqa tomonga tortish, ruhlantirish va hursand qilishga qodir shaxslarning yordami va qo'llab quvvatlashga muhtojdirlar. Ular atroflaridagi odamlarning munosabatlarini yaxshi tushunadilar va his qiladilar.

4. Astenonevrotik tur. Bu tur ortiqcha vahimachilik va injiqlik, toliqishlik va serjahlilik bilan ta'riflanadi. Toliqishlik ayniqsa ko'proq qiyin aqliy ishni bajarishda namoyon bo'ladi.

5. Sezintivli tur. Unga hamma narsaga xafa qiluvchi narsaga ham, hursand qiluvchiga yoki qo'rqituvchiga ham ortiqcha ta'sirlilik xosdir. Bu o'smirlar katta kompaniyalar, judayam qiziqtiradigan, harakatchan sho'x o'yinlarni yoqtirmaydilar. Ular odatda begona odamlar oldida uyatchan va qo'rqqodirlar va ko'pincha odamlarga aralashmaslik tassurotini qoldiradilar. Faqat o'zlariga yaxshi tanish bo'lganlar bilan ochiq va dilkash bo'ladilar, tengdoshlari bilan muloqot qilishdan ko'ra kichkintoylar va kattalar bilan muloqotni afzal biladilar. Ular quloq solish bilan ajralib turadilar va ota-onalariga qattiqroq bog'lanadilar.

6. Shizoidli tur. Bu turning eng muhim alomati – odamlarga aralashmaslikdir. Bu o'smirlar tengdoshlariga unchalik intilmaydilar, yolg'iz, kattalar kompaniyasida bo'lishni afzal biladilar. Ular ko'pincha atroflaridagi odamlarga tashqi beparvolikni, ularga qiziqmasliklarini namoyon qiladilar, boshqa odamlarning holatini, ularning kechirmalarini yaxshi tushunmaydilar, hamdardlik bildirishni bilmaydilar. Ularning ichki dunyosi har xil fantaziyalar, qandaydir alohidagi qiziqishlarga to'la. O'zlarining hissiyotlarini tashqi namoyon qilishda ular vazmindirlar, hamma vaqt ham atrofdagilar, hammadan avval o'z tengdoshlari uchun tushunarli emaslar, qoidaga ko'ra, keyingilar ularni unchalik yaxshi ko'rmaydilar.

7. Epileptoidli tur. Bu o'smirlar ko'pincha yig'laydilar, ayniqsa erta yoshliklarida atrofdagilarni bezor qiladilar. Bunday bolalar, deb yozadi A.E.Lichko, hayvonlarni qiynash, qichiklarni g'ashiga tegish, kuchsizlar ustidan mashara qilishni yaxshi ko'radilar. Bolalar kompaniyalarida ular o'zlarini diktorlar (hukmronlar) sifatida tutadilar. Ularning tirik alomatlari – shafqatsizlik, hokimlik va o'zini o'zi sevishdir. Bunday o'smirlar o'zlari boshqarayotgan bolalar guruhida o'zlarining qattiq, deyarli terrorchilik tartiblarini o'rnatadilar, buning ustiga bunday guruhlardagi ularning shaxsiy hokimligi asosan boshqa bolalarning ixtiyoriy tobeligi yoki qo'rquvga asoslanadi. Qat'iy intizomli tartib sharoitlarida ular o'zlarini ko'pincha yuqorida deb his qiladilar, boshliqlarga yoqish, tengdoshlari oldida ayrim

afzalliklarga erishish, hokimlikni olish, atrofdagilar ustidan hukmronlikni o'rnatishga harakat qiladilar.

8. Namoyishkor (isteroid) - tan olinishga ehtiyoj qoniqtirilmaganda «kasal bo'lib olish», manmanlik, qaltis ishlarga qo'l urish bilish ifodalanadigan, o'ziga diqqatni jalb qilish uchun foydalaniladigan yolg'onchilik, fantazyorlik va mug'ambirlik, sub'ekt uchun noxush bo'lgan fakt va hodisalarni siqib chiqarish xususiyati.

9. Komformizm tur. Bunday tur har qanday guruhdagi obro'li shaxsga, ko'pchilikka o'ylamasdan, ko'pincha esa oddiygina kon'yukturali bo'ysunishni namoyon qiladilar. Bunday o'smirlar odatda moralizatorlik (nasihatgo'ylik) va konservitizm (eskilik tarafdori bo'lishlik)ka moyillar, ularni asosiy hayotiy maslaki – “Hamma kabi bo'lish”. Bu ikkiyuzlamachining turi, u o'zining shaxsiy manfatlari uchun o'rtoqni sotish, uni qiyin paytda tashlab ketishga tayyor, ammo u nima qilmasin, u o'zining qilmishiga “axloqiy” vaj topadi.

12.3. Guruh rahbarini o'smirlar axloqiy tarbiyasini tashkil etishdagi o'rni

Har bir o'smirning ehtiyoj va qiziqish darajasini o'rganish ularga o'z ehtiyojlarini jamiyat manfaatlariga, hal etilayotgan ijtimoiy vazifalarga bo'ysintirishga, o'z jamoasi sharoitida vujudga kelayotgan ehtiyojlarni ko'ra olishga va nihoyat ularning hal qilishning aniq shart-sharoiti va haqiqiy imkoniyatlarni topa olishga o'rgatish guruh rahbarining burchidir. Axloqiy tarbiya vazifalarini amalga oshirish, o'quvchilarni g'oyaviylik, baynalmilallik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash; shaxsning faol pozitsiyasini tarkib toptirish; axborotlar oqimida o'ziga to'g'ri yo'nalish olib bilishga o'rgatish; milliy g'oya uchun kurash jarayonida o'zining faol faoliyati bilan ishtirok etishga tayyorgarlik; mehnat faoliyatida axloqiy jihatdan tarbiyalashning ahamiyati tobora ortib bormoqda. O'smirlarni axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda dunyoqarashni shakllantirish asosan darsda hal qilinadi, lekin bu ish guruh rahbari faoliyatida alohida o'rin tutish kerak.¹

Ayni vaqtda guruh rahbari o'smirlarning axloqiy shakllanishi, ma'naviy dunyosining tarkib topishi uchun xam g'amxo'rlik qiladi. Xalqimiz moddiy farovonligining, madaniy darajasining, ma'naviy dunyosining o'sib borishi, mamlakatimiz ma'naviy hayotida eng ilg'or va eng insonparvar ijtimoiy munosabatlar tizimining qaror topganligi guruh rahbari amalga oshiradigan axloq tarbiyasining muvaffaqiyatini ta'minlash uchun garovdir.

O'smirlarning axloqiy shakllanishi faoliyat jarayonida ro'y beradi. Faoliyatni tashkil etish bilan guruh rahbari har bir, talaba shaxsini g'oyaviy-axloqiy jihatdan tarkib topishni ta'minlaydi. Talabalarni faoliyatning ma'lum bir turiga jalb qilish aniq maqsadga qaratilishi kerak.

O'smirlarni axloq nazariyasiga doir bilimlar bilan qurollantirish va ularni ijtimoiy hayot voqealaridan axloqiy tomonlarni ajrata olishga, axloq me'yorlariga muvofiq baholashga o'rgatish bilan guruh rahbari yigit-qizlarning o'z xulqini axloq me'yor va qoidalari nuqtai nazaridan idora qila olishlariga erishadi.

¹ M.Xakimova. “O'zbek xalq pedagogikasi”. - T.: TDIU, 2009. 62- bet.

Yoshlar bilan o'tkaziladigan odob va axloqqa oid suxbatlar ular ishtirok etadigan ijtimoiy foydali va unumli mehnat, turli xil ijod ishlari «Yoshlar ittifoqi» faoliyati bilan uzviy bog'liq tarzda borsagina, ijobiy natija beradi. Axloqqa oid suhbatlar samaradorligini ta'minlovchi muxim shartlardan biri talabalarning ongi bilan xulqi o'rtasidagi birlikni ta'minlash xisoblanadi. Axloqiy bilim berishdan maqsad, tashqi ta'sirni ongli harakat bilan bog'lovchi ichki istakka aylantirishni ta'minlashdir. Bunda u o'ziga ma'lum bo'lgan axloq me'yoriga rioya qilgan holda to'g'ri harakat qilish yo'lini tanlab olishga o'rganadi. Masalan, guruh rahbari o'z suhbatini shunday boshlaydi. «Avtobusda ketayotgan bir necha yoshlar qo'llaridagi radiopleerni baland qo'yib, allaqaysi guruh ijrosidagi sershovqin kuy tinglab borardilar. Keksa ayol ulardan ovozni pasaytirishni iltimos qilib qoldi. Bunga javoban «Eshitgingiz kelmasa qulog'ingizni berkitib oling» dedi yoshlardan biri. Ikkinchisi, esa vaziyatni yumshatish uchunmi, yoki noqulay ahvoldan chiqish uchunmi har holda «Holajon, siz zamonaviy kuylarni yomon ko'rarkansiz-da»-dedi, uchinchisi esa, «Siz bittasiz, biz esa ko'pchilikmiz. Ko'pchilikni istagini hurmat qilish kerak buvijon!»— deb qo'shib qo'ydi. Guruh rahbari talabalar bilan vujudga kelgan ushbu vaziyatni muhokama qilib, o'z fikrlarini bildirishni taklif qiladi.

Axloqiy bilim berishda guruh rahbari bilan oilaviy hamjihatlik g'oyat muhim omildir. Shuning uchun yoshlar bilan bir qatorda ota-onalar o'rtasida xam axloqiy tarbiyaga doir bilimlar tarqatish kerak. Axloqqa oid suhbatlarni bir oyda bir marta o'tkazgan ma'qul. Har bir suhbatga 7-10 kun tayyorlaniladi. Suhbat vaqti 40-45 minutdan oshmasligi kerak. Navbatdagi suhbatga tayyorlik davrida guruh rahbari hamda yoshlar turli xil faoliyatda ishtirok etadilar. Mavzu tanlashda guruh rahbari mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ro'y berayotgan voqealarga, o'quv materialining mazmuniga, o'smirlarning axloq me'yoriga doir bilimlari darajasiga asoslanadi.

Guruh rahbari suxbatlar bilan bir qatorda tushuntirish, ma'ruza, namuna-ibrat kabilardan xam keng foydalaniladi. Ana shu jarayonda u o'smirning axloqiy mulohazasini o'stirishga o'zining va boshqalarning xulqini axloq me'yorlari asosida baholay olishga qaratilgan ishlarga, ularni jalb qilishga aloxida e'tibor berish lozim. Odatda talabalar o'rtoqlarining, atrofdagi kishilarning xulqidagi ijobiy, salbiy tomonlarni baholay olganlari holda o'z xulqidagi tomonlarga u qadar e'tibor berishmaydi va ularda o'z xulqini baholash ancha kech ko'rina boshlaydi. Mana shuning uchun guruh rahbari talabalarni o'z xulqini baholash ancha kech ko'rina boshlaydi. Mana shuning uchun guruh rahbari talabalarni o'z xulqini axloq me'yor va talablari asosida quyi kurslardan boshlaboq baholashga o'rgata boshlashi maqsadga muvofiqdir.

Guruh rahbari har bir o'smirning xulqiga, xarakter xislatlariga alohida e'tibor berib borishi kerak. Guruhda pedagogik qarovsiz qolgan, tarbiyasi qiyin bolalarga ham uchraydi. Agar bu xil bolalarning xulqi o'z vaqtida tuzatilmasa, u jamiyatdagi axloq me'yorlariga xilof yo'nalish kasb etishi ham mumkin. SHuning uchun ham guruh rahbari bu xil yoshning xulqidagi salbiy yo'nalishni qancha tez aniqlasa, uni tuzatishga qanchalik tez va faol aralashsa, shuncha yaxshi ish qilgan bo'ladi.

Guruh rahbarining axloqiy tarbiyani amalga oshirishi metodik asosga ega bo'lsagina samara beradi. Buning mohiyati guruh rahbarining o'smirlarni axloqiy rivojlantirishga qay darajada ta'sir qila olishidadir, ya'ni o'smirning yoshi, guruhi, shaxsiy xususiyati hisobga olinishi kerak.

Axloqiy mavzular yuzasidan munozaralar o'tkazish o'smirlarda axloqiy e'tiqod, qarash va nuqtai nazarini shakllantirishning muhim vazifasi hisoblanadi. Munozara vaqtida guruh rahbari betaraf turishi foydalidir. Munozara oxirida guruh rahbari yakun chiqaradi. Munozara uchun yoshlarni to'liqlantirayotgan masalalar mavzu bo'ladi, masalan: «Hayotda o'z o'rnini topishning ma'nosini qanday anglaysiz?», «Yashashning ma'nosi va hayotdan maqsad», «Inson qachon baxtli bo'la oladi?», «Zamonaviy bo'lishning ma'nosi nimada?».

Guruh rahbari har bir mavzuning mazmuniga kiradigan masalalarni aniqlashda o'smirlarga yordam beradi. Masalan: «Hayotda o'z o'rnini topishning ma'nosini qanday anglaysiz?» mavzusi uchun asos qilib quyidagi masalalarni olish mumkin:

- «Hayotda o'z o'rnini topish» iborasini qanday tushunasiz?
- Qanday orzuni eskirgan deyish mumkin?
- Baxt va hayotdan lazzatlanish, ular o'rtasida farq bormi?
- SHaxsiy erkinlikni qanday tushunasiz?

Sizning g'oyangiz kabi masalalarni tavsiya qilish mumkin. «Yashashning ma'nosi va hayotdagi maqsad» mavzusiga.

1. Hayotning «ma'nosi» va «maqsadi» bir xil tushunchami?

2. Hayotimiz qo'ygan qadamimizga qanchalik va qay jihatdan bogliq bo'lish mumkin?

3. «Qanday yashash kerak», «Nima uchun yashash kerak», bu masalalarning har birini qanday anglash kerak?

4. «Yashashning ma'nosi» va «Baxt» tushunchalari o'rtasida o'zaro o'xshashlik bormi? Bo'lsa nimada, kabi masalalar asos qilib olinishi maqsadga muvofiqdir.

Munozara uchun tavsiya etilayotgan bu mavzular yoshlarning fikrini band qiladigan asosiy mavzular bo'lib, ulardan qaysi birini tanlash, qanday uyushtirish guruh o'quvchilarning ehtiyojiga, jamoadagi kayfiyat va qiziqishiga bog'liq. Bu mavzular mazmuniga kiradigan masalalar hammasi axloq, ma'naviy hayot bilan bog'liq bo'lgan bo'lib, ular yuzasidan yuritiladigan bahslar yordamida talabalar axloqiy bilimga jamiyatdagi odamlar munosabati bilan bog'liq me'yor va qoidalarga oid tushunchalarga ega bo'ladilar, asta-sekin ularda ishonch va qarashlar tarkib topa boradi.

Guruh rahbari faoliyatining mazmuniga kiradigan axloq tarbiyasi faqat yuqoridagilar bilangina hal bo'la qolmaydi. Axloqiy tarbiyani amalga oshirish murakkab jarayon bo'lib, asosiy e'tibor o'smirlarda axloqiy ong, axloqiy his, tushuncha, mulohaza kabilarga muvofiq axloqiy malaka va odatlarni shakllantirishga qaratilishi kerak.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. O'smirlarda tarbiya samaradorligini oshirish omillari nimalardan iborat?

2. O'smirlarning o'ziga xos xislatlari haqida gapiring?
3. Mashhur rus ruhshunosi A.E.Lichko xarakterning aksentuatsiyasi haqida qanday fikrlar bildirganlar?
4. A.E.Lichko o'smirlar xarakterini qanday turlarga bo'lgan?
- Gipertimli turdagi o'smirlar qanday xislatlar bilan xarakterlanadi?
6. Lobilli turdagi o'smirlar qanday xislatlar bilan xarakterlanadi?
- Sezintivli turdagi o'smirlar qanday xislatlar bilan xarakterlanadi?
8. Guruh rahbarining o'smirlar bilan axloqiy tarbiya jarayonini tashkil etishining qanday yo'llari mavjud?

13 - mavzu. Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar nazariyasi va amaliyoti

Reja:

- 13.1. Zamonaviy globallashuv sharoitida talaba- yoshlarning ma'naviy-axloqiy odatlarini tarbiyalashning vazifalari.
- 13.2. Oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ishlarning asosiy mohiyati.
- 13.3. Yoshlarni kasbga yo'naltirishda milliy istiqlol mafkurasiga asoslangan ma'naviy-axloqiy, madaniy-maishiy yo'nalishlar.
- 13.4. Talabalarda kasb madaniyatini shakllantirish.
- 13.5. Kasbiy ta'lim muassasalarida axloqiy tarbiya muammosi.
- 13.6. O'qitish jarayonini ilg'or pedagogik texnologiya va axborot texnologiyasi asosida uyushtirish.

13.1. Zamonaviy globallashuv sharoitida talaba- yoshlarning ma'naviy-axloqiy odatlarini tarbiyalashning vazifalari

Hozirgi kunda yoshlarni barkamol inson, o'z vatanining ilg'or kishisi sifatida tarbiyalash eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan yoshlar davlatimizning kelajagidir.

Mamlakatimizda chuqur, keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib etish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda etilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon o'lkaning benihoya go'zalligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib etishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.

Ma'naviyati yuksak shaxslar yurtini tanitadi. Shaxsni esa uning ma'naviy qiyofasi tanitadi. Ma'naviyat – tarbiyadan boshlanadi. Ta'lim-tarbiyasiz ma'naviyatning bo'lmasligi barchaga ayon haqiqatdir.

Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir!" degan so'zlari fikrimizga dalil bo'ladi.

Tarbiya – ma’naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o’qituvchining o’quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o’zaro amaliy va nazariy muloqotidir.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko’nikmaga aylantirib borish lozim. Bu esa, insonni mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi va mushohada qilish aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi, ong esa moddiy va ma’naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta-sekin komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas’uliyat, sharaflı mehnat va qunt, irodani talab etadi.

Jamiyat taraqqiyoti tarixi shuni ko’rsatadiki, faqat ma’naviyat-ma’rifat keng quloch yoygan, ilm-urfon taraqqiy etgan mamlakatdagina adolatli jamiyat qurish va unda bir-biriga mehr-oqibatli, kamolotli insonlar shakllanishi mumkin. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi va bunyodkorlik, yaratuvchilik ishiga, ezigulikka intilishi kuchli va jamiyat fuqarolarida sog’lom fikr, aql-idrok har doim ustuvor bo’ladi.

Mustaqillik bizga ma’rifiy, madaniy, adolatli va insonparvar jamiyat qurish imkonini berdi. Endi bu jamiyatga har bir inson o’z o’rni, mavqeiga yarasha vijdonan hissa qo’shmog’i lozim.

Insonning ma’naviyati uning odobi, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlari zahirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o’z navbatida inson ijobiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi. Fazilatlar insonning ijobiy sifatleri majmuidan iborat.

Sifat – alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir.

Fazilat – alohida shaxs, el, elat, xalq, ulusga taalluqli bo’lgan ijobiy axloqiy sifatlar majmui.

Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi odob, axloq, madaniyat, ma’naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlanganligi bilan belgilanadi. Shu o’rinda bu kategoriyalarning mohiyati ustida to’xtalib o’tish joizdir.

Odob – har bir insonning o’zi bir inson yoki jamoa bilan bo’lgan muloqotida hamda yurish-turishida o’zini tuta bilishidir.

Axloq - jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma’qullangan xulq-odob normalari majmui.

Madaniyat – jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to’plangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi.

Ma’naviyat – inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi.

Kamolotga erishgan, har tomonlama rivojlangan avlodni tarbiyalash jarayoni uning doimiy, muntazam izchil va bir tizimga kirgan shaklda bo’lishini taqoza etadi. Bu yo’lda ta’lim muassasalarida o’quv jarayonini takomillashtirish, professional fanlar singari g’oyaviy mazmuni talabalarga yangi jamiyatning har bir mutaxassisiga zarur bo’lgan ijtimoiy dunyoqarashni shakllantiruvchi tasavvurlar zahirasini hosil qilishi lozim bo’lgan ijtimoiy gumanitar fanlarni o’qitishga yangicha yondoshuv

asosida axloq malakalarini hosil qilish mumkin. Talaba yoshlarda yagona pedagogik jarayonda ma'naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalashda quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

- sho'rolar hokimiyati davrida ta'lim sohasidan o'rin olgan mafkuraviy mahdudlikdan halos bo'lish;
- o'zbek milliy mentaliteti va jahon hivilizahiyasi yutuqlariga tayanadigan ma'naviy qadriyatlar tizimini mustahkamlash;
- Sharq mutafakkirlari asarlarida ko'tarilgan komil inson g'oyasi ta'limotlariga amal qilish;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlarida ta'lim-tarbiya xususan, hozirgi zamon yoshlari qanday bo'lishi kerak degan ta'limotiga nisbatan javoblarga to'la amal qilish kabilar.

13.2. Oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ishlarning asosiy mohiyati

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, yigit-qizlarini XXI asrning talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga etkazish ishi eng dolzarb masala etib olingan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida nutq so'zlab, quyidagi fikrlarni bildirdilar, «Sizlarga yaxshi ma'lum, hozirgi vaqtda yurtimizda **«Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz»** degan shior keng tarqalib, hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Lekin O'zbekistonimizning mana shunday yorug' va farovon istiqbolini bunyod etishdek mas'uliyatli vazifani kim o'z zimmasiga oladi? Albatta, faqat zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan, doimo el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'usi bilan yashaydigan siz, aziz yoshlarimiz maydonga dadil chiqib, bugungi kunda hayotning o'zi oldimizga qo'yayotgan vazifalarni hal etishga qodirsiz»¹. Bu vazifalar, birinchi navbatda kelajakning bunyodkorlari bo'lmish yosh avlodning bilim olish, yuqori malakali kadrlar bo'lib o'z yurti va xalqiga sitqidildan mehnat qilish, ozod yurt ravnaqi va baxt-saodati uchun halol mehnat qilishga o'rgatishni nazarda tutadi. Zero, mustaqillik aynan fidoiy, o'z Vatani manfaatlariga g'oyat sadoqatli, yuqori malakali kadrlarning jamiyatni boshqarishini taqozo etadi.

Mustaqillikning o'tgan 28 yillik davri davomida milliy xo'jaligimiz iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, inqiroz holatidan chiqarildi va uning ko'pgina sohalarida barqaror iqtisodiy o'sishga erishildi. Bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirildi, hozirgi kunda esa iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni har taraflama erkinlashtirish amalga oshirilmoqda. Eng muhimi shu davr ichida milliy ma'naviyatimiz shakllanib, kishilarimiz ongiga singib bormoqda.

Bu qo'yilgan dastlabki qadamlarimiz natijasida shakllanib kelayotgan milliy iqtisodimiz yangi XXI asrda biz yashamoqchi bo'lgan umumiy uyimiz, ya'ni

¹ Mirziyoyev Sh.M. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi.01.07.2017 yil.

yangilanayotgan vatanimizning hayotiy asosini, uning kelgusidagi taraqqiyot manbaini tashkil etadi.

Oliy ta'lim muassasalari Respublika uzluksiz ta'lim tizimining etakchi bo'g'ini hisoblanadi. Hozirgi vaqtda mustaqil O'zbekistonda ro'y berayotgan ta'lim o'zgarishlarida oliy ta'limni isloh etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, oliy maktab Respublika milliy boylikning o'sishiga imkoniyat yaratuvchi, kuchli, muntazam o'sib boruvchi iqtisodiyotni bunyod etuvchi mutaxassislarni etkazib beradi.

Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasining mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, qonun ustuvorligini, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlat chegaralarining daxlsizligini, jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash yo'lidagi shaxdam harakatlariga yangi kuch bag'ishlaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi qonunlariga muvofiq O'zbekistonning ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish masalasini rivojlangan mamlakatlar darajasida hal etishga qodir, yuksak darajada ma'naviy, madaniy va axloqiy sifatlarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash oliy ta'lim tizimining vazifasi hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq zamonaviy ta'lim-kasb dasturlari asosida sifatli o'qituvni ta'minlash va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash;
- yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlarni, jumladan xorijiy ilmiy markazlarda, tayyorlash;
- mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqboli, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya, iqtisod va madaniyat zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlashning tashkil etilishi va usulini muntazam takomillashtirish;
- ta'limni individuallashtirish, masofadan o'qitishning yangi pedagogik va informatsion texnologiyalari, vositalarini joriy etish;
- mustaqillik g'oyalariga sodiqlik, Vatanga, oilaga va atrof muhitga muhabbat ruhida, milliy uyg'onish mafkurasi hamda umuminsoniy qadriyatlarni chuqur his etish asosida oliy ta'limning gumanitar yo'nalishini, yoshlar tarbiyasini ta'minlash;
- ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali uyg'unlanuvchi usullarini amaliyotga tatbiq etish;
- ta'lim xizmati ko'rsatish bozorida, raqobat muhitini yuzaga keltirish;
- oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish va mustaqilligini kengaytirish.

Oliy ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- *davlatga qarashli va davlatga aloqadorsiz oliy ta'lim muassasalari*, bular davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim-kasb dasturini amalga oshiradi;
- *ilmiy-pedagogik muassasalar*, bular oliy ta'limni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini olib boradi;
- *ta'limni boshqaruvchi davlat idoralari*, shuningdek, ular tasarrufidagi korxona, muassasa va tashkilotlar.

1993 yildan respublikaning barcha oliy o`quv yurtlariga test sinovlari orqali abituriyentlar qabul qilinmoqda. Talabalar oliy ta`lim muassasalarida ikki bosqichli ta`lim asosida bakalavr va magistr darajalarini egallashlari mumkin.

Bakalavriat – ixtisosliklar yo`nalishi bo`yicha o`qish muddati to`rt yildan kam bo`lmagan nazariy va amaliy bilim beruvchi tayanch oliy ta`lim.

Magistratura – bakalavriat asosida o`quv muddati ikki yildan kam bo`lmagan, muayyan ixtisoslik bo`yicha oliy ta`lim.

Oliy ta`lim universitetlar, institutlar va akademiyalarda amalga oshiriladi. Oliy ma`lumotli mutaxassislarni tayyorlash umumiy o`rta, kasb-hunar ta`limi muassasalarining turidan qat`i nazar, o`rta ma`lumot manbai asosida amalga oshiriladi.

Universitet: - oliy va oliy ta`lim muassasasini tugatgandan keyingi ta`lim-kasb dasturini ta`limning turli sohalar va tayyorlashning yo`nalishlari bo`yicha amalga oshiradi;

- iqtisodiyot turli sohalarining mutaxassislari, oliy ta`lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseyler pedagog xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni amalga oshiradi;

- fan turli sohalar bo`yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar olib boradi;

- fanlarning tegishli sohalarida ilmiy va metodik markaz hisoblanadi.

Akademiya: - fanning muayyan sohalar va tayyorlov yo`nalishlari bo`yicha oliy va oliy ta`lim muassasasini tugatgandan keyingi ta`lim-kasb dasturini amalga oshiradi;

- bilimning muayyan sohalar va tayyorlov yo`nalishlari bo`yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshiradi;

- fan, texnika yoki san`atning biror sohasida nazariy va amaliy tadqiqotlar olib boradi;

- o`z faoliyatini sohasida etakchi ilmiy va metodik markaz hisoblanadi.

Institut:

- oliy va oliy ta`lim muassasasini tugatgandan keyingi ta`lim-kasb dasturini, qoidaga ko`ra bilimning bir sohasidagi tayyorlov yo`nalishi bo`yicha amalga oshiradi;

- iqtisodiyotning muayyan sohalar uchun mutaxassislarni qayta tayyorlaydi va malakasini oshiradi;

- amaliy ilmiy tadqiqotlar va tajriba konstruktorlik ishlari olib boradi.

2017-yilning 1-noyabr holatiga O`zbekiston Respublikasida oliy harbiy bilim yurtlaridan tashqari 72 ta oliy ta`lim muassasasi va 19 ta filiallar mavjud bo`lib, ularning tarkibida 4 ta akademiya, 7 ta xorijiy oliy ta`lim muassasalarining filiallari, 27 ta universitetlar va 4 ta oliy diniy ta`lim muassasa hamda filiallari faoliyat yuritmoqda.

Oliy ta`lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan dastlabki ma`lumotlarga asosan, 2017/2018-o`quv yili boshiga bakalavriat bosqichiga jami 80822 nafar, shu jumladan 18439 nafari davlat grantlari asosida, 62383 nafar yoshlar esa shartnoma asosida talabalikka qabul qilingan.

2017/2018-o`quv yili boshida qabul qilingan talabalarning 71838 nafari kunduzgi, 8984 nafari 20 ta oliy ta`lim muassasasi va 1 ta filialda tashkil etilgan sirtqi kurslarda ta`lim olayotgan bo`lib, sirtqi kurslarga qabul qilinganlarning 77,8 foizini

qizlar tashkil etadi. Ma'lumot uchun, 2016/2017 o'quv yilida jami 110 nafar talaba sirtqi kurslarga qabul qilingan. Oxirgi ikki yilda oliy ta'lim muassasalariga yoshlarni qabul qilish bo'yicha qamrov 9 foizdan 15 foizga oshdi.

Bugungi kunda respublika oliy ta'lim muassasalarida 361 739 nafar bakalavrlar 276 ta ta'lim yo'nalishlarida, 11 744 nafar magistrantlar 433 ta mutaxassisliklarda tayyorlanmoqda. Jami – 373 483 nafar talaba tahsil olmoqda.

Respublikada oliy ta'lim muassasalari soni yangi tashkil etilgan mahalliy hamda nufuzli xorijiy universitetlar va filiallar hisobiga so'ngi ikki yilda 75 tadan 100 taga etdi.

Natijada oliy ta'lim muassasalariga talabalar qamrovi kengayib, joriy o'quv yilidan boshlab quyidagi universitetlarda talabalar soni 10 ming nafardan oshdi:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2019-2020 o'quv yilida mamlakatimizda bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 20 foizga etkazish yo'lida amaliy harakatlarni boshlab yubordi.

13.3.Yoshlarni kasbga yo'naltirishda milliy istiqlool mafkurasiga asoslangan ma'naviy-axloqiy, madaniy-maishiy yo'nalishlar

O'zbekiston Respublikasida chuqur keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda, zamon talablariga javob beradigan oliy ma'lumotli iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashga ixtisoslashtirishgan uzluksiz iqtisodiy ta'lim tizimini shakllantirishga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda. Ma'lumki, qaysi davlatda kadrlar tayyorlash siyosati to'g'ri va omilkorlik bilan tashkil etilsa, o'sha davlatda har doim taraqqiyot bo'ladi.

Ta'lim har bir jamiyatning ajralmas qismi, madaniyati va rivojlanishning asosiy ko'rsatkichidir. Har qanday mamlakat istiqbolli rejalar tuzar ekan, avvalo ta'limga e'tiborni kuchaytiradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada yuksaltirish, respublikaning aql zakovat salohiyatini o'stirish, davlatimiz qudratini oshirish, uning mustaqilligini mustahkamlash uchun xizmat qiladigan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi» Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ishlab chiqildi. Ta'lim tizimining moliyaviy va moddiy ta'minoti qonuniy yo'l bilan ijobiy hal etildi.

1997-yilda tashkil topgan «Umid» va boshqa jamg'armalarning ko'magida iqtidorli yoshlar rivojlangan davlatlardagi nufuzli o'quv markazlarida tahsil oldilar. Yoshlar xorij hayotini ko'rib, xalqaro hayotiy tajriba orttirib, chet tillarini mukammal egallab, zamonaviy bakalavrlarlik va magistrlik darajasiga respublikamizning turli bosqichdagi kadrlar xorijiy ta'lim markazlarida tajriba va malaka orttirib keldilar. Bunday yondashuvlar ham O'zbekiston ta'lim tizimining yorqin istiqboliga va uning mavqeini oshirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “El yurt umidi” jamg'armasi tashkil qilindi va ushbu jamg'arma xorijda yashayotgan va ishlayotgan vatandoshlarimiz, ayniqsa, katta ilmiy salohiyatga ega bo'lgan olimlar, mutaxassislar va iste'dodli yoshlar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, jahon mehnat bozorida raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Jamg`armaning moliyaviy ko`magi bilan xorijda malaka oshirib kelgan mutaxassilar, ularni tavsiya etgan muassalarda kamida 3 yil ishlab berishlari kerak bo`ladi. Magistratura yoki doktorantura dasturlari bo`yicha ta`lim olgan stipendiatlar, o`qishdan so`ng 5 yildan kam bo`lmagan muddatda, stipendiatni o`qitishga qilingan barcha harajatlar mikdori 75 ming AQSH dollaridan ortiq bo`lsa, ularga 7 yilgacha uzluksiz ishlab berish majburiyati yuklanadi.

Jamg`arma xorijdagi malakali vatandoshlarimiz hamda O`zbekistondagi kadrlar zahirasiga ehtiyoji bor vazirlik va idoralar uchun o`ziga xos ko`prik vazifasini o`taydi.

Bugungi kunda kelajagi buyuk davlatni qurish tafakkuri, dunyoqarashi zamon talablariga mos ravishda o`zgargan mutaxassislarimizga ko`p jihatdan bog`liqdir. Yangicha fikrlaydigan, yangi bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli xo`jalik yuritadigan yuksak malakali, chuqur bilimli mutaxassislarni tayyorlash davr talabi va haqiqat taqozosidir.

Zamonaviy globallashuv sharoitida iqtisodchi mutaxassislarning tayyorlashning umumiy mazmuni va o`ziga xos xususiyati shundan iboratki:²

- u bozor iqtisodiyotining fundamental asosi;
- zamonaviy ta`lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo`nalishlaridan biri;
- aholi kasb ta`limining obro`li sohasi;
- uzluksiz ta`lim tizimining muhim bo`g`inlaridan biri bo`lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash tizimini barpo etish va rivojlantirish tajribasi katta ilmiy va amaliy qiziqish uyg`otadi, chunki u zamonaviy iqtisodiy ta`limning ahvolini tahlil qilish va nazariy jihatdan izohlash, uning uzluksiz kasb ta`limi tizimi bilan uyg`unlashtirish va samarali didaktik rivojlanishni bashorat qilish vazifalarini hal etish imkonini beradi.

Prezidentimiz rahnamoligida navqiron avlodning har tomonlama barkamol ulg`ayishi, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta o`zlashtirishi, iste`dod va salohiyatini namoyon etishi uchun barcha sharoit yaratilmoqda. O`zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to`g`risida”gi qonuni bu borada muhim dasturilamal bo`lmoqda. Yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishi samarasida mahalliy hokimliklar, huquqni muhofaza qilish idoralari, jamoat tashkilotlari, mahalla va oilalar hamkorligi yanada mustahkamlanmoqda. Ayniqsa, yoshlarni o`quvchilik davridan boshlab kasb-hunarga yo`naltirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini yuksaltirishda bu muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda yoshlarimizga nisbatan bildirilayotgan chuqur ishonch va e`tibor hamda ularga yaratilayotgan imkoniyat, shart-sharoitlar ularni, foydali kasb egasi, jamiyatda o`z o`rniga ega shaxs bo`lishi uchun zamin bo`lmoqda desak mubolag`a bo`lmaydi. Mustaqil hayotga qadam qo`yayotgan yoshlar eng zamonaviy ma`lumotga, yuksak intellektual va jismoniy barkamollikka ega bo`lishi, ishlab - chiqarishning ilmiy - texnik va iqtisodiy asoslarini chuqur bilishi, mehnatga ongli ijodiy munosabatda bo`lishi zarur.

Ma`lumki, agar kasb to`g`ri tanlangan bo`lsa, inson uchun mehnat quvonch, ijodiy ilhom manbaiga aylanadi, bu esa inson uchun ham, jamiyat uchun ham

² G`ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: Sharq, 2010. 139-bet.

foydalidir. SHu o`rinda pedagoglarimiz ta`kidlaganidek, kishining o`zi xohlagan kasbni erkin tanlashi nihoyatda katta ahamiyatga ega. Inson sevgan ishi bilan shug`ullansa, u bu ishdan xursand bo`lishi, qanoat hosil qilishi, ko`p tashabbus ko`rsatishi, charchamay g`ayrat bilan ishlashi mumkin.

Yoshlarning kasb-hunarga layoqatini o`rganish uchun ularning aqliy, jismoniy qobiliyatlarini bilish, malaka va ko`nikmalarini o`rganish lozim. Kasb tanlash – jiddiy va mas`uliyatli ishdir. O`z hayot yo`lini jiddiy suratda belgilab olish – oson ish emas. Buning uchun uzoq vaqt, maxsus tayyorgarlik ko`rish talab etiladi.

Yoshlarni mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb-hunarini o`z qobiliyatlariga yarasha to`g`ri tanlashlariga erishish uchun maktab o`qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik (shuningdek, akademik, tashkilotchilik, perSeptiv va h.k.) qobiliyatlar yuksak bo`lishi, fan asoslarini turmush bilan bog`lab o`rganilishi, to`g`arak va qo`shimcha, yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb-hunar to`g`risida ma`ruzalar o`qilishi, suhbatlar, munozaralar o`qilishi, sayohatlar, uchrashuvlar, kasb-hunar fotoko`rgazmalari tashkil qilishlari zarur.

Kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish o`qituvchining pedagogik faoliyati bilan bevosita bog`liqdir. Mehnat ta`limini turmush bilan bog`lash, uyg`unlashtirish, o`quvchilarning individual-tipologik, yosh davrlari xususiyatlari, texnik qobiliyatlari, intellektual darajalari va imkoniyatlarini hisobga olish ijobiy samara beradi. Chunki har bir kasb-hunar shaxsdan irodaviy zo`r berishni, aqliy jiddiylikni va sinovlarga bardosh bera oladigan yigit - qizlarnigina mazkur tanlangan kasbga nisbatan yaroqli deb topiladi.

O`quvchini u yoki bu kasbga maqsadli yo`naltirishdan avval uning shaxsini o`rganish lozim. Buning uchun uni kuzatish (bevosita, bilvosita) o`quvchining maktabdagi, jamoat joylaridagi, oila va mehnatdagi amaliy harakatlarini tahlil qilish, so`rovnomalar o`tkazish, suhbat, test, olish mumkin. Kasb-hunar tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muhtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o`quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so`ng kasbga yo`llash lozim.

Kasbga yo`naltirishda turli kasblar, ularga qo`yiladigan talablar, bu kasbni qaerda egallashlari mumkinligi to`g`risida o`quvchilarga ma`lumot berish katta ahamiyatga ega. Kasb mahorati va insoniy tafakkurning rivojlanishi, fandagi mavjud muammolarni va ularni hal etish yo`llarini ko`ra bilish qobiliyati bularning hammasi muammoli – evristik saviyadir. Shu o`rinda o`quvchilarni kasbga yo`naltirishning nazariy va amaliy aspektlarini ko`rib chiqamiz:

- kasbga yo`naltirishning nazariy aspekti kasb faoliyatining barcha tomonlari to`g`risidagi chuqur bilimlarning shakllanishi, shu bilimlarga tayangan holda ta`lim olishni, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish va buning aksi bo`lgan amaliyotning nazariyaga ko`chirish yo`llarini o`rganishni nazarda tutadi;

- kasbga yo`naltirishning amaliy aspekti esa egallangan bilimlarni hayotiy faoliyatning ma`lum bir sohasida qo`llashni o`rganishdan iboratdir. Bu esa yoshlarni biror kasbni tanlashga ongli munosabatda bo`lishga tayyorlaydi.

O'quvchilar kasblar to'g'risidagi ma'lumotlarni, bilimlarni faqat maktabda emas, balki ommaviy axborot vositalaridan, tanishlari yoki qarindoshlaridan ham bilib oladilar.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda yoshlarni kasbga yo'naltirishda quyidagilarga e'tibor berish lozim bo'ladi:

- o'quvchilarning faolligi, havaslari, intilishlari, xohishlari, motivlari, ezgu - niyatlari xususan kasbga bo'lgan qiziqishlarini vaqtida aniqlash;
- o'quvchilarning individual tipologik xususiyatlari, yoshi va jinsini hisobga olgan holda ularning har birini oqilona kasbga yo'llash;
- kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muhtojligini nazarda tutish va shunga yarasha ularning aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqligini aniqlab, so'ng kasbga yo'llash kerak;

-ota-onalar bilan mustahkam aloqa o'rnatish;

- kasbga yo'naltirish bo'yicha maslahatlar uyushtirish lozim bo'ladi.

Umuman olganda, o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish – yoshlarga kelajakda o'z kasblarini aniqlab olish uchun yordam ko'rsatishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy-biologik va ishlab chiqarish-texnik tadbirlarning asoslangan tizimi hisoblanadi. Yoshlar mehnatining mazmuni mamlakat oldida turgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy vazifalar, viloyat va tumanlardagi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, ta'lim muassasalarining ichki imkoniyatlari va talablari asosida belgilanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda kasb ta'limi (shu jumladan oliy ta'lim)ning bosh maqsadi – raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va barcha toifadagi malakali xodimlarni tayyorlash orqali raqobatbardosh xizmat ko'rsatishdan iborat.

Zero, raqobatbardosh mutaxassislersiz raqobatbardosh iqtisodiyot bo'lishi mumkin emas.

O'zbekistonda mazkur masalani muvaffaqiyatli hal qilishda Kadrlar tayyorlash milliy modeli asos bo'lib hisoblanadi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining asosiy sub'ekti va obyekti, ta'lim xizmatini talab etuvchi hamda amalga oshiruvchi;

davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyat ko'rsatishini nazorat qilish hamda ish olib borishning boshqarishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularga talabgorlik kafolati;

uzluksiz ta'lim – o'z tarkibiga barcha ta'lim turini, davlat ta'lim standartlarini, faoliyat ko'rsatish tuzilmasi va muhitini olgan malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash asosi;

fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va talab etuvchi, ilg'or pedagogik va informatsion texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi;

ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan talabni, shuningdek ularning tayyorlanganlik va sifat darajasiga talabni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimlarini moliyalash va moddiy-texnik ta'minlash ishtirokchisi.

Kasb ta'limi muassasalarida axloqiy tarbiya muammosini amalga oshirish uchun qator muammolarni hal etishga e'tiborni qaratish kerak. Ular:

1. O'qitish jarayonini ilg'or pedagogik texnologiya va axborot texnologiyasi asosida uyushtirish;

2. Talaba va ustoz o'rtasidagi axloqiy hamda aqliy saviyani oshirishga erishish;

3. Ta'lim-tarbiya masalalarining qat'iy reja asosida olib borilishi;

4. O'quv muassasasida ijobiy emotsional sharoit yaratish;

5. Ta'lim oluvchilarning o'quv muassasasining umumiy tartib, hayot tizimiga rioya qilishga erishishni ta'minlash.

Shunday qilib, yagona ta'lim-tarbiya jarayonida axloqiy tarbiya ishini amalga oshirishda suhbat, munozara, ma'ruza kabi metodlardan, axloqiy odatlarni esa mashq, turli faoliyatni uyushtirish orqali amalga oshirish mumkin.

13.4. Talabalarda kasb madaniyatini shakllantirish

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga etkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo'lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolat bermoqda.

Joylarda, avvalambor chekka hududlarda istiqomat qilayotgan ko'p sonli yoshlarning o'z iqtidor va iste'dodini ro'yobga chiqarishlari, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun keng sharoitlar yaratish, ularni turli zararli illat va yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish kabi muhim vazifalarni hal etishda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati O'zbekiston yoshlarini buyuk maqsadlar sari birlashtiradigan va safarbar etadigan ommaviy harakatga aylana olmaganini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Shu sababli, mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi.

2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish bilan bog'liq bir qator yangi va muhim vazifalarni belgilab berganini alohida qayd etish joiz.¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 19.01.2018 y.

Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Jumladan, maktabgacha ta'limning zamonaviy tizimi, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy qilinmoqda, zamonaviy oliy ta'lim muassasalari hamda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda.

Yoshlarning bandligini ta'minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish bo'yicha ishlarni mutlaqo yangi tizim asosida tashkil etish va amalga oshirish maqsadida «Yoshlar — kelajagimiz» Davlat dasturi qabul qilindi.

Yoshlar bilan doimiy muloqot qilish mazkur sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash va hal etishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Ma'lumki, jamiyatning o'z oldiga qo'ygan maqsadini kelajakda amalga oshiradiganlar yoshlar, ya'ni bugungi kunning zamonaviy iqtisodchilaridir. Demak, jamiyatning kelajagi qanday bo'lishi ko'p jihatdan ularning intellektual va axloqiy jihatdan qay darajada kamol topishlariga bog'liq.

Jamiyatning taraqqiyot darajasi, axborotlarni haddan tashqari ko'pligi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, umuman olganda hayot tajribasi shuni ko'rsatdiki, yoshlarni yetuk, vaziyatni tezda baholay oladigan, ayni shu vaziyat uchun to'g'ri qaror qabul qila oladigan malakali mutaxassislar qilib tayyorlash bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Har qanday iqtisodchi biror ishni boshlashdan oldin, eng avvalo, u ikki muhim omilni, ya'ni:

- mazkur vaqtdagi shart-sharoitni;
- o'zining tutgan o'rni va imkoniyatini aniqlab olishi zarur.

Birinchi omil bo'yicha zamonaviy iqtisodchi o'zining ish faoliyatini firma yoki korxonaning tashqi muhitga nisbatan quvvati va kamchiligi, shuningdek, tashqi muhitdan kelib chiqadigan imkoniyatlar va tahlillarni inobatga olib belgilashi lozim.

Boshqacha qilib aytganda, birorta jiddiy ish boshlashdan oldin iqtisodchi:

- qaysi ishlab chiqarish sohasida ish yuritish;
- qancha pul sarflash;
- hozirgi sharoitda qanday sohalar boshqalardan ma'lum ustunlikka egaligi;
- talab va uning qondirilishini;
- o'zining imkoniyatlarini erinmay o'rganib chiqmog'i lozim.

Bunday tahlil firma faoliyatining holati va biznes rivojlanishining yo'nalishlarini, kelajakdagi istiqbolini baholashga imkon beradi.

Ishni boshlashning ikkinchi omili – bu zamonaviy iqtisodchining salohiyati va uning qaysi bir turdagi faoliyatni to'g'ri tanlab olish masalasidir. AQSHdagi faoliyat yo'nalishini tanlashdagi xato kishiga moddiy jihatdan ham, ma'naviy jihatdan ham bizdagiga qaraganda ancha qimmatga tushadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik va biznes xulq-atvorga, faol yo'l-yo'riqlar, qoidalar va boshqa xatti-harakatni tartibga solish qurilmalari bilan uzviy bog'liqdir. Unda erkin tanlangan hayotiy pozitsiya (holat), shaxs oldida mustaqil axloqiy tanlovning mavjudligini nazarda tutuvchi erkin tanlab olingan hayotiy vaziyat gavdalanadi. Shaxs, millat, insoniyat ma'naviyatining holati va darajasi jamiyat

taraqqiyotiga turlicha ta'sir etishi mumkinligi qadim-qadim zamonlardan beri ma'lum. Tarixiy shaxslar, buyuk allomalar, siyosiy kuchlar hayot saboqlari, tarix tajribasi va o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini e'tiborga olib ma'naviyatni kuchaytirish, rivojlantirish yoki ma'naviy buhronni chuqurlashtirish orqali jamiyat, millat taraqqiyotiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishga harakat qilganlar.¹

Jamiyat hayotidagi barcha yuksalishlar, taraqqiyot imkoniyatlari, komil inson shaxsining shakllanishi muayyan ma'naviy muhit va imkoniyatlar bilan bog'liq bo'lgan. Barcha tushkunliklar, turg'unlik holatlari, iqtisodiy, siyosiy inqirozlar esa ma'naviy buhronning natijasi bo'lgan. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotidagi tushkunliklar va yuksalishlarning sababini ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy omillardangina emas, balki kishilarning ongi, e'tiqodi, dunyoqarashi, axloqiy kamoloti darajasidan ham izlash kerak.

Mustaqillikning bosib o'tgan yillari davomida milliy xo'jaligimiz iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, inqiroz holatidan chiqarildi va uning ko'pgina sohalarida barqaror o'sishga erishildi. Bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirildi, hozirgi kunda esa iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni har taraflama erkinlashtirish amalga oshirilmoqda. Eng muhimi shu davr ichida milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasi shakllanib, kishilarimiz ongiga singib bormoqda.¹

Bugungi kunda xalqning boy zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida mutaxassislar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Ta'lim-individning jamiyat hayotining turli sohalariga jamiyatda mavjud madaniyatga tayyorlash va moslashtirish vazifasini bajaruvchi ijtimoiy institutdir,

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, har qanday sohada bo'lganidek ta'lim sohasida ham muammolar mavjud. Bu kabi muammolar mustaqil respublikamizni ham chetlab o'tgan emas. Ushbu muammolarni hal etish hamda ta'lim sohasida zaruriy islohotlarni amalga oshirish maqsadida ta'lim tizimining huquqiy asoslari yaratildi. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga ko'ra mamlakatimizda yagona uzluksiz ta'lim tizimi tashkil qilinib, ta'lim islohoti va uning istiqbollari quyidagi tamoyillar asosida belgilandi:

a) millati, dini, irqi, e'tiqodidan qat'iy nazar, barcha fuqarolar uchun ta'lim olish imkoniyati yaratilganligi.

b) ta'lim tizimining uzluksizligi, ilmiyligi, dunyoviyli va izchilligi.

v) ta'limda umummilliy, umuminsoniy, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarning ustuvorligi.

g) ta'limning insonparvarligi, demokratiyaliligi, ta'lim-tarbiya muassasalarining siyosiy partiya va boshqa ta'sirlardan holiligi.

Demak, yuqoridagi tamoyillar amalga oshirilayotgan ekan, jamiyatimizning har bir a'zosi, xoh duradgor, hisobchi, korxona rahbari yoxud mashhur siyosatchi bo'lsin, bu sohaga yuksak hurmat-e'tibor bilan munosabatda bo'lishi lozim.

¹ Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – T.: «Universitet», 1998.

¹ Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: .Moliya, 2002, 3-bet.

Kasb ta'limi muassasalarida olib borilayotgan ishlarning mohiyati – uning milliy istiqlol mafkurasiga asoslangan, ma'naviy-axloqiy, huquqiy, vatanparvarlik, fuqaroviy, mehnat, madaniy-maishiy, ekologik va shu singari yo'nalishlar bilan erishiladigan g'oyaviy a'mol va ideallarga mos holda olib borilishi maqsadga molik masaladir. Bu muammolarni amalga oshirish barcha pedagoglarning oldida turgan yuksak vazifadir.

Mustaqillik sharoitida talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda qator vazifalarni hal etish talab etiladi. Jumladan:

- Har bir ta'lim oluvchining ongida davlat mustaqilligi xalqning oliy g'oyaviy-axloqiy qadriyati ekani, o'z vatani bilan faxrlanish, uning xavfsizligini ta'minlash va O'zbekistonning ulug' tarixiy o'tmishiga, bozor munosabatlariga asoslangan yangi demokratik jamiyat qurishda tanlab olgan o'ziga xos yo'lini mustahkamlash, islom dini ruhi bilan sug'orilgan oliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni to'g'ri tushuntirish va uni e'tiqodga aylantirish;

- Ta'lim oluvchilar ongiga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, ularni zamonaviy qadriyatlar ehtiyoji - o'zini yuqori tutish va viqor saqlash, oilaviy tantanalarda o'zini ko'rsatishga urinish, xizmat vazifasidan shaxsiy maqsadlar uchun foydalanish kabi illatlarga murosasiz bo'lish ruhida tarbiyalab borish ularni yuqori axloq malakalari bilan qurollantirishning garovi bo'lib hisoblanadi.

Umuman olganda, axloqiy tarbiya tarbiyaviy ishlar kompleksida etakchi o'rin tutadi. Kasb ta'limi muassasalarida talaba-yoshlarda axloqiy tarbiyani amalga oshirishda avvalo axloqiy tushuncha va ishonch hissini yaratishdan boshlagan ma'qul. Chunki yoshlarda axloqiy tushuncha e'tiqodlarni tarkib toptirmay turib, axloqiy odatlarni, xatti-harakat bilan bog'liq malaka va odatlarni hosil qilib bo'lmaydi. Bunda asosan yoshlarga axloq-odob norma va qoidalari mazmuniga oid bilim berishga katta ahamiyat berish lozim.

13.5. Kasb ta'limi muassasalarida axloqiy tarbiya muammosi

Axloqiy tarbiya mazmunining shakllanishida o'zbek mutafakkirlarining alohida xizmatlari bor. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk mutafakkirlar tarbiya jarayoniga jiddiy qaraganlar va bu boradagi qimmatli fikrlarini dunyoga tanilgan asarlarida bayon etganlar. Ushbu asarlar nafaqat o'zbek xalqining, balki butun insoniyatning rivojlanish jarayonida muhim ahamiyat kasb etgan. Ularning ilmiy qarashlari bugungi kunda ham insoniyat uchun dasturil amal bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Abu Nasr Forobiy - mashhur mutafakkir, qadimgi YUnon ilmi va falsafasining Sharqdagi eng yirik targ'ibotchisi. O'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotiga asos solgan mutafakkir. Forobiy «Aql haqdagi risola», «Falsafadan oldin nimani o'rganish kerak», «Substanhiya haqida», «Falsafa manbalari», «Logikaga kirish», «Masalalar manbai» kabi 160 dan ortiq risolalar yaratdi¹. Alloma bu asarlarida davlat tuzilishi va uni boshqarish, turli ijtimoiy nizolarning oldini olish hamda kamolotga erishgan ijtimoiy jamoani yaratish kabi masalalar ustida fikr yuritadi. Yetuk jamoani vujudga

¹ Abu Nasr Forobiy. Risolalar. M.M.Xayrullaev. - T.: Fan, 1975 (71-72 bet).

keltirish, komil insonni yaratish muammosini hal etish bilan bog'liq ekanligini birinchi bor o'rta asr sharoitida Forobiy olg'a surdi. Uning «Ideal jamoa haqida», «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida» kabi mashhur asarlari shu masalalarga bag'ishlangan. Forobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zurligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubiyatlari haqida fikr yuritadi. Uning «Fozil odamlar shahri», «Ixso-al-ilm», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari to'g'risida» kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlar o'z ifodasini topgan.

Jamiyatda mavjud an'ana va urf-odatlarida ham axloq me'yorlari va mazmuni o'z aksini topadi. Axloqiy tarbiyaning bir kategoriyasi sifatida axloqiy qadriyatlar qabul qilingan va bu axloqiy qadriyatlar axloqiy tarbiyaning mazmunini va me'yorlarini belgilashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Umuman qadriyatlar deganda milliy va umuminsoniy qadriyatlar tushuniladi. Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qadriyatlar kishilarning turli sohadagi, avvalo, ishlab chiqarish, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar majmui bilan bog'liq holda yuzaga keladi. So'ngra asta-sekin sub'ekt faolligining orta borishi natijasida nisbiy mustaqil soha tarzida amal qila boshlaydi. Axloqiy mazmundagi qadriyatlar bolaning ongi va faoliyatini faollashtiradi, ish va so'z biriligini ta'minlashga yordam beradi. Bunday qadriyatlar jumlasiga insonparvarlik, ma'rifatparvarlik, mehr-muhabbat, poklik, kattalarga hurmat, muhabbat, xushmuomalalik, do'stlik, saxiylik, sahovat, shirinso'zlik

va boshqalar kiradi. Mazkur qadriyatlar negizida jamiyatda, oilada, maktabda bolani yuksak insoniy fazilatlarga ongli ravishda amal qilishga da'vat etish g'oyasi yotadi.

Axloqiy tarbiya jarayonining dastlabki bosqichida shaxs axloq me'yorlariga ma'lum darajada to'g'ridan-to'g'ri bo'ysungan holda ko'r-ko'rona amal qilsa, axloqiylikning yuqori darajasiga etganda, to'g'ridan-to'g'ri ko'r-ko'rona bo'ysunish ongli idrok etishga yakka shaxsning axloq me'yorlari va jamiyat axloq me'yorlari o'rtasida uyg'unlikning hosil bo'lishiga erishish lozimdir. Axloqiy madaniyatning muhim belgilaridan biri ham xuddi ana shu shaxs va jamiyat orasidagi uyg'un munosabatning, axloqiy birlikning hosil bo'lishi demakdir.

Inson axloqiy madaniyatning eng oddiy me'yorlarini ilk yoshligidan boshlab avval oilada, so'ng o'rtoqlari bilan bo'ladigan munosabatlarida egallay boshlaydi. Bu axloqiy me'yorlarga amal qilishning motivlari turlicha bo'ladi. Ota-onaga bo'lgan hurmat va muhabbat bolani axloqiy talablarga amal qilishga va shu orqali ota-onaning hayrixohligiga va mehriga sazovor bo'lishga undaydi. Bundan tashqari axloqiy me'yorlarga amal qilmaslik holatida jazolashdan foydalanish ham bolani ogoh bo'lishga undaydi. O'z tengqurlari bilan muloqotga kirishish ishtiyoqi, ichki ehtiyoj ham bolada axloqiy me'yorlarga amal qilish motivatsiyasini uyg'otadi. Bularning barchasi har bir yosh bolani axloqiy me'yorlar bilan to'qnashishiga va ularga amal qilishni o'rganishiga yordam beradi. Shuningdek, insonda axloqiy me'yorlarga amal qilish malakasini va ko'nikmasini hosil bo'lishiga olib keladi. Ammo bunday axloqiy me'yorlarga amal qilishni biz hali axloqiy onglilik darajasi deb ayta olmaymiz. Chunki bu holda axloqiy me'yorlar ichki ehtiyojdan kelib chiqqan holda emas, balki tashqi ta'sirlarning natijasi sifatida vujudga keladi.

SHunga qaramay axloqiy darajaning bu dastlabki pog'onasi juda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u boshlang'ich nuqta sifatida keyingi rivojlanish uchun xizmat qiladi. Axloqiy rivojlanishning bu bosqichida atrof-muhitdagi axloqiy madaniyat darajasi eng muhim rol o'ynaydi.

Rivojlanishning barcha bosqichlarida jamiyatda qaror topgan axloqiy bilimlar yangi axloqiy bilimlar bilan to'ldirilib birishi talab etilgan. Aytish joizki, bu qonuniy jarayondir. Demak, hozirgi vaqtda ham axloqiy bilimlarimiz qanchalik boy bo'lmasin dialektik rivojlanish qonuni ushbu axloqiy bilimlarni yanada to'ldirib borilishini talab etadi. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasida ro'y berayotgan sifat o'zgarishlar bugungi kunda axloqiy qarashlarni qaytadan talqin etishni, fan va texnikaning rivoji natijasida erishilayotgan yangi bilimlardan axloqiy tarbiya jarayonida foydalanishni taqozo etishini nazarga olsak, bu vazifaning qanchalik zarurligini his etamiz. Demak, biz axloqiy tarbiyani uchinchi vazifasini ham aniqlab oldik bu: - axloqiy bilimlarni yanada to'ldirib borish, ilm-fan erishgan yangi bilimlardan va yutuqlardan foydalanishni yo'lga qo'yishdan iborat.

13.6. O'qitish jarayonini ilg'or pedagogik texnologiya va axborot texnologiyasi asosida uyushtirish

Bugun "o'qitish texnologiyasi" tushunchasi atrofida butun dunyoda jiddiy ilmiy munozaralarning olib borilishi barcha qabul qiladigan yagona ta'rifni belgilashga imkon bermayapti. Bu tushuncha bilan bir qatorda ilmiy-metodik va ommabop adabiyotlarda "pedagogik texnologiya", "ta'limiy texnologiya", "tarbiya texnologiyasi", hatto "rivojlantirish texnologiyasi" atamaları keng qo'llanilmoqdaki, hali-hanuz ular o'rtasidagi farqli chegaralar o'rnatilgani yo'q.

Yillar davomida "texnologiya" tushunchasining o'zi mazmun jihatdan o'zgardi: zamonaviy yondashuvlar uchun birmuncha aniq qarashlar xarakterlidir. Misol uchun, pedagog-tadqiqotchilarning ko'pchiligi bu tushunchani tarbiya va rivojlantirish sohasida ishlatish maqsadga muvofiq emasligini ta'kidlaydilar. Gap shundaki, har qanday texnologiya pedagogik faoliyatda oldindan tashxisli maqsadni o'rnatish va unga erishish yo'llarini aniqlab olishni taqazo etadi. Shu nuqtai nazardan, o'qitish uchun tashxisli maqsadni aniqlash mumkin. Bunda maqsadga erishish yakuniy nazorat yordamida osongina kuzatiladi. Demak, o'qitish jarayoni texnologik asosda tashkil etilishi mumkin. Ammo tarbiya uchun bu fikrni qo'llab-quvvatlash o'ta murakkab va uning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

Birinchidan, bu holat uchun tashxisli maqsadni o'rnatish mumkin emas. Inson - ko'p omilli murakkab tizim hisoblanib, qator psixologik, psixofiziologik va alohida shaxs sifatlariga ega. Ularni tavsifiy ravishda yoritish, zarur darajada shakllantirish mumkin bo'lgan pedagogik jarayonlarni tuzishni pedagogika fanining bugungi rivojlanish darajasida amalga oshirib bo'lmaydi.

Ikkinchidan, har qanday texnologiya o'rnatilgan maqsadlarga kafolatli erishishni nazarda tutadi. Biroq, shu kunga qadar pedagogikada insonning tarbiyalanganlik, unda shakllangan ma'lum shaxs sifatleri, qadriyatli yo'nalishlar va boshqa tarbiya natijalari mezonlari bir qolipda aniqlanmagan. Bunday mezonlarning yo'qligi esa kafolatlangan pedagogik jarayonlar natijalariga erishish imkoniyatlari

haqida gap yuritishga imkon bermaydi. Sub'ektiv ekspert baholardan foydalanish esa belgilangan muammoni olib tashlashga yo'l qo'ymaydi.

Uchinchidan, kasb-hunar kollejlarda zamonaviy tarbiya konsepsiyasiga binoan hozirgi vaqtda gap talabalarda ma'lum shaxs sifatlarini shakllantirish haqida emas, balki oliy o'quv yurtlarida ularning o'z-o'zini rivojlanishi uchun eng maqbul sharoitlar yaratish haqida borishi kerak. Bunday holda tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish haqida gapirish maqsadga muvofiq emas. Agar, ta'lim o'zida o'qitish va tarbiyalashni jamuljam etgan soha sifatida qaralayotgan bo'lsa, "ta'limiy texnologiya" yoki "ta'lim texnologiyasi" atamalarini ishlatish xato ekanligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

O'qitish jarayonini texnologiyalashtirishga oid tadqiqotlar ko'lami asta-sekin kamayib, tadqiqot maydoni esa torayib bormoqda. Bu, xususan, olimlarning yakdil fikrga kelish borasidagi harakatlari oqibatida yuzaga kelmoqda. Turli yo'nalishlarda o'tkazilgan dastlabki tadqiqotlar natijalarida birmuncha umumiy fikrdan "chetlanish" ro'y beryapti. Qator mualliflar (A.F.Talzina, T.Sakomoto, Dj.Hartli) bu tushunchani ochib berishda ishchi variant sifatida aniq va batafsil yondashuvlardan foydalana boshladilar. Shu bilan birgalikda "texnologiya" tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, jamoatchilik ongiga mustahkam kirib ulgurdi hamda ilmiy va amaliy tafakkurning o'ziga xos yo'nalishi bo'lib qoldi.

Uning regulativ ta'siri shundaki, u tadqiqotchilar va amaliyotchilarni insoniy faoliyatning barcha jabhalariga, shu jumladan ta'lim sohasiga ham undaydi:

- jarayonning natijaviyligini asoslashga ro'baro' kelishi;
- fan va tajribalarning so'nggi yutuqlaridan talab qilingan natijalarni olishni kafolatlash uchun safarbar qilish;
- faoliyatni intensiv, ya'ni yuqori ilmiy asosda qurish;
- faoliyatning mumkin bo'lgan tuzatish muolajalari sonini kamaytirish uchun bashoratlash va loyihalashga asosiy diqqatni qaratish;
- yangi axborot vositalaridan foydalanish, eskirgan amallarni avtomatlashtirish.

Boshqacha qilib aytganda, texnologiyalanuvchanlik inson faoliyatining etakchi tavsifi bo'lib qoldi, u ta'limiy jarayonning samaradorligini, maqbulligini, yuqori ilmiyligini, yangi sifat darajasiga ko'tarishni anglatadi.

Umumlashgan holda texnologiya odatiy hol emas, balki zamonaviy ilmiy-amaliy tafakkur usuli, deb xulosa qilish mumkin. U insoniy faoliyatni tubdan takomillashtirishga, uning natijaviyligi, tezkorligi, texnikaviy qurollanganligini oshirishga oid amaliy tadqiqotlar yo'nalishini aks ettiradi. Texnologiya - bu predmetli sohaning obyektiv qonunlarini yuqori o'lchovda aks ettiradigan va shu boisdan muayyan sharoit uchun natijalarning o'rnatilgan maqsadlarga mos kelishini ta'minlaydigan faoliyatdir.

Texnologiya (jarayon sifatida) uchta belgi bilan tavsiflanadi:

- jarayonni o'zaro bog'liq bosqichlarga taqsimlash;
- izlanayotgan natija (o'rnatilgan maqsad)ga erishishga qaratilgan harakatlarni muvofiqli va bosqichli bajarish;
- quyilgan maqsadlarga mos natijalarga erishishning zaruriy va etakchi sharti hisoblangan texnologik muolaja va amallarni bajarishning ahamiyat kasb etishi.

O`quv jarayonida pedagog tanlagan shakl, metod va o`qitish vositalari ta`lim oluvchilar bilan o`zaro harakat tizimi yordamida aniqlanadi. Agar darhol zaruriy didaktik natijani olib bo`lmasa, unda metodikaning (masalan, birmuncha takomillashgan o`qitish vositalari, metodik usullar va boshqalarni qo`llash) ko`rsatkichlarini tuzatish va oydinlashtirish bosqichini amalga oshirish kerak bo`ladi. Bu jarayon tashxisli maqsadlarga erishish nuqtai nazaridan maqbul o`qitish metodikasining topilishi bilan tugallanadi. Agar u ko`p marta qayta takrorlansa, o`qituvchiga pedagogik amaliyotda oldindan bashoratlovchi va loyihalovchi natijalarni olish imkoniyatini beradi. U paytda metodika haqida emas, balki o`qitish texnologiyasi haqida gapirish mumkin bo`ladi.

Texnologik darajadagi o`qituvchi faoliyatining mezonlari sifatida quyidagilarni ilgari surish mumkin.

- aniq va tashxisli berilgan maqsadlarning mavjudligi, ya`ni tushunchalar va amallarni kutilayotgan o`qitish natijasi sifatida ta`lim oluvchining faoliyatidagi maqsadga erishishni tashxislash usullarining tartibli o`lchanadigan holatda ko`rsatilishi;

- o`rganilayotgan mazmunni bilish, amaliy masalalar, mo`ljalli asoslar va ularni echish usullarining tizimli ko`rinishida taqdim etilishi;

- mavzular (materiallar, kasbiy funksiyalar to`plami va h.k) ni etarlicha qat`iy ketma-ketligi, mantiqiyliqi, bosqichliligi mavjudligi;

- o`quv jarayonining har bir bosqichida ishtirokchilar o`zaro harakat usullarining ko`rsatilishi;

- o`qituvchining eng maqbul (o`quv jarayonining natijaviyligi nuqtai nazaridan) o`qitish vositalaridan foydalanishi;

- o`qituvchi va ta`lim oluvchilar faoliyatining motivahion ta`minlanishi, bu jarayonda ularning shaxsiy-kasbiy funksiyalarining namoyon bo`lishi (erkin tanlash, kreativlik, bahslashuv, hayotiy va kasbiy ma`no);

- o`qituvchining ijodiy faoliyati chegarasini andozali qoidalaridan mumkin bo`lgan chetga chiqishining ko`rsatilishi.

Zamonaviy ta`lim strategiyasini nafaqat mavjud bo`lgan ijtimoiy texnologiyalarga xizmat ko`rsatishga qodir, balki me`yoriy faoliyat chegarasidan chiqib ketishga, innovatsion jarayonlarni amalga oshira oladigan mutaxassis shaxsini rivojlantirish va o`z-o`zini rivojlantirish tashkil etadi. Bu strategiya shaxsiy-rivojlanuvchan va kasbiy yo`naltirilgan o`qitish texnologiyalari ustuvorligida o`rta maxsus kasb-hunar ta`limi o`quv jarayoni mazmuni va shakllarining jiddiy yo`nalishlarida amalga oshiriladi.

Ularning samaradorlik me`yori quyidagi savollar vositasida ifodalanadi:

1. Bu texnologiyalarda inson o`zining xilma – xil sub`ektivligi bilan nechog`liq gavdalantirilyapti?

2. Uning tavsifiy, mantiqiy va psixologik xususiyatlari qanday hisobga olinayapti?

3. Ularni rivojlantirish yoki yuksaltirish istiqbollari qanaqa?

Yuqoridagilardan kasb-hunar kollejlari o`qitish texnologiyasiga qo`yilgan talablar kelib chiqadi: ta`lim oluvchilarning shaxsiy sifatlarini hisobga olish,

maqbullik, didaktik prinsiplarga zid kelmaslik, talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishga yo`naltirilganligi.

Shunday qilib, o`qitish texnologiyasini ishlab chiqarish asosida ta`lim oluvchilarning yuqori samarali o`quv faoliyatini va o`qituvchining boshqaruv faoliyatini loyihalashtirishi yotadi.

O`z-o`zini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Respublikamizda kasb ta`limini rivojlantirish bo`yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
2. Tarbiya mazmunining mohiyatini belgilashda qanday yondashuvlar mavjud?
3. Oliy maktabda ta`lim-tarbiya ishlari qanday shakllarda amalga oshiriladi?
4. Talabalarda ma`naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?
5. Tarbiyaviy ishlar mexanizmini ta`riflab bering?
6. Kasb ta`limi muassasalarida axloqiy tarbiya muammosi qanday tartibda amalga oshiriladi?
7. Talabalarning aqliy faoliyati xususiyatlari qanday izohlanadi?
8. Madaniyat, ma`naviyat, axloq, odobga ta`rif bering?
9. Axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifasi haqida so`zlab bering?
10. Sharq mutafakkirlarining axloqiy tarbiya haqdagi qarashlaridan misollar keltiring

IV BOB

KASBIY PEDAGOGIKADA TA'LIM NAZARIYASI

Bobning qisqacha mazmuni

Kasbiy pedagogikada ta'lim jarayoni. Kasbiy pedagogikada ta'lim jarayonining mohiyati va tuzilishi. Kasbiy ta'limning tamoyillari. Pedagogik jarayonni loyihalash. Loyihalash jarayonining obyekti va muammolari. Ma'naviy-axloqiy, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish. O'quv materiallarini qabul qilish, fikrlash, egallab qolish.

Kasbiy pedagogikada ta'lim mazmuni. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti. Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida O'zbekiston Respublikasida kasb ta'limining asosiy mazmuni. Ta'lim mazmuni tuzilmasining makrodarajasi. Mikrodarajadagi o'qitish mazmunining tuzilmasi.

Kasbiy pedagogikada ta'lim metodlari. Kasbiy ta'lim metodlari va ularning umumiy tavsifnomasi. Nazariy ta'lim va ishlab chiqarish ta'lim metodlari. Ishlab chiqarish jarayonida faollik metodi. O'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish. Ta'lim metodlarini tanlash. Ta'lim oluvchilarni tanlash mezonlari.

Ta'lim jarayonida o'qitish vositalarining o'rnini. Hozirgi zamon o'quv vositalarining tavsifnomasi. O'qitish vositalari didaktikaning kategoriyasi sifatida. Ishlab chiqarishda o'qitish vositalari. Ekran va ekran – tovushlik o'qitish vositalari. O'quv ishlab chiqarishning o'qitish vositalari. Ta'lim oluvchilarning ish joyini tashkillashtirish. O'qitish vositalarining rivojlanish istiqbollari. Zamonaviy globallashtirish sharoitida o'quv jarayoniga yangi axborot texnologiyalarini kiritish. O'qitish vositalari tizimini shakllantirish texnologiyasi va ularni kompleks ishlatilishi.

14 - mavzu. Kasbiy pedagogikada ta'lim jarayoni

Reja:

- 14.1. Kasbiy pedagogikada ta'lim jarayonining mohiyati va tuzilishi.
- 14.2. Kasbiy ta'limning tamoyillari.
- 14.3. Pedagogik jarayonni loyihalash.
- 14.4. Loyihalash jarayonining obyekti va muammolari.
- 14.5. Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish.
- 14.6. O'quv materiallarini qabul qilish, fikrlash, egallab qolish va qo'llash.

14.1. Kasbiy pedagogikada ta'lim jarayonining mohiyati va tuzilishi

Ta'lim jarayoni pedagogik jarayonning ajralmas, muhim qismlaridan biri bo'lib u o'qitish, bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish masalalari bilan shug'ullanadi. Ta'lim nazariyasi "didaktika" tushunchasi bilan ham ifodalanadi. "Didaktika" so'zi grekcha "didasko" so'zidan olingan bo'lib, "o'qitish, o'rgatish" degan ma'noni bildiradi. Didaktikaning o'rganish obyekti o'quv jarayoni, o'quv jarayonining rivojlanish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari va shakllaridir. Ta'lim jarayonining asosiy mohiyati tarixan to'plangan ijtimoiy bilim va tajribani yosh avlodga etkazish, avlodlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ma'lum tizim orqali amalga oshirish bo'lib hisoblanadi.

Fan va texnikaning rivoji ham ilmiy bilimlarning hajmiga va xarakteriga ta'sir ko'rsatadi. Bularning hammasi esa o'z navbatida ta'lim tizimida o'z aksini topadi. Ta'lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish asosi bo'lib xizmat qiladi. Chunki aynan ta'lim tizimi jamiyatning har bir a'zosini ma'naviy, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida eng asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham barcha tarixiy yuksalish, yangilanish bosqichlarida aynan ta'lim tizimini isloh qilish muhim o'rin tutgan. Ta'lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish darajasidan hamda shu jamiyatning talablaridan kelib chiqqan holda shakllanadi.

O'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim jarayonida:

- Zarur bilimlar bilan qurollantiriladi.
- Kerakli malakalarga ega bo'ladi.
- Ko'nikmalar hosil qiladi.

O'quv jarayonida ta'lim oluvchilar va pedagoglar o'rtasida o'ziga xos munosabatlar o'rnatilib bu jarayon ikki tomonning birgalikdagi faoliyati natijasida boradi. Shuning uchun ham ta'lim jarayoni ikki tomonlama xarakterga ega deyiladi. Pedagoglar va talabalarining faollik darajasi ta'lim jarayonining samarasini belgilaydi. Albatta bu jarayonda pedagog yo'naltiruvchi sifatida maydonga chiqadi. Pedagog aniq maqsadni ko'zlab reja va dastur asosida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. Talabalar esa ularni faol o'zlashtirib olishlari kerak. Ta'lim jarayonida pedagog o'rgatish, bilim, malaka, ko'nikma hosil qilish vazifasini bajarsa, talabalar o'zlashtirish jarayonini o'z boshidan kechiradilar. Bu murakkab psixik jarayon bo'lib, sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabilar ishtirokida boradi. O'qish talabalarining o'zlashtirish, bilish qobiliyatlari, fikrlash operatsiyalari va harakatlarini hosil qilish jarayonidir. Bu passiv tomoshabinlik jarayoni emas, balki talabaga noma'lum bo'lgan haqiqatlarni ochib beradigan faol, ijodiy faoliyat jarayonidir.

Ta'limning asosiy vazifalaridan biri insoniyat tomonidan hozirgacha erishilgan ilmiy bilimlar va fan texnikaning yutuqlari bilan yosh avlodni qurollantirishdir. Yosh avlodda shunday bilimlar tizimini yaratish lozimki, bu bilimlar ularning keyingi rivoji uchun asos bo'lib xizmat qilsin. Hozirgi kunda bilimlar hajmi, axborotlar hajmi tobora oshib borayotgan bir davrda ta'lim tizimi talabalarga berilishi kerak bo'lgan bilimlar, malaka va ko'nikmalar hajmini belgilash hamda bu jarayonda qaysi omillarni hisobga olish kerak degan masalalarning echimini topish ustida bosh qotirmoqda. Zaruriy bilimlar hajmini belgilash va shu bilan bir qatorda o'qish muddatini aniqlash eng muhim masalalardan biri. Ta'lim jarayonida biror fan sohasidagi insoniyat tomonidan erishilgan hamma narsalarni o'rganish kerak deb o'ylash mutlaqo noto'g'ri bo'lur edi. O'quv jarayonida eng asosiy, eng muhim bilimlar - fanlarning asoslari o'rganiladi. Ammo shunga qaramay hozirda o'rganish zarur bo'lgan yangi-yangi fanlarning tarmoqlari (ekologiya, EHM, oila psixologiyasi, iqtisodiyot asoslari, ma'naviyat asoslari) vujudga kelmoqdaki ular ta'lim hajmini benihoya kengayishiga sabab bo'lmoqda. Bunday muammolar hozirda deyarli barcha davlatlarda mavjud va har bir davlat bu muammolarni o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal etishga harakat qilmoqda. Biz bu muammolarni ta'lim tamoyillarini (prinsiplarini) buzmagani holda, yosh avlodning sog'ligiga ziyon etkazmagan holda echimini topishga harakat qilmoqdamiz.

Pedagogik jarayon – bu o'qituvchi va talaba bilimlarini, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llashni o'z ichiga qamrab oladi. Kasb ta'limi jarayonida mazmun, o'qish, o'qitish, tarbiyalash asosiy bog'lovchi komponentdir.

Ta'lim bilish faoliyatining turi sifatida pedagogika fanida bir necha asosiy ma'noni anglatadi. Yani bu: talabalarda bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish; ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish; o'quvchilarning muayyan darajada o'qimishli, madaniyatli, tarbiyali chin inson bo'lishiga erishish; ularning qobiliyatlarini o'stirishdan iboratdir.

Ta'lim – insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni talabalar ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir.

Demak, pedagogik ta'lim jarayonining mazmunini bilim, ko'nikma va malakalar tashkil qiladi. Talabalar o'qish orqali bilim bilan qurollanadilar. Bunda bilimning o'zi kifoya qilmaydi. Uni hayotda ko'p unum beradigan qilib qo'llay olish lozim. Buning uchun esa talabada ko'nikma va malaka hosil qilish zarur.

Ko'nikma – mashq qilish natijasida beriladigan harakatlar yig'indisidir. Iqtidor va ko'nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi.

Bilim asosida ko'nikma va malaka hosil qilinadi. Bilim bahsda kerak bo'lsa, ko'nikma mehnatda, dunyoni o'zlashtirishda zarur bo'ladi. Shu jihatdan Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, kasb-hunar kollejlari va maktablarda bahslar, bellashuvlar, o'tkir zehnlilar mushoirasi, quvnoqlar va zukkolar bellashuvini tashkil etish foydalidir.

Ta'lim oluvchining xarakteri va faolligi rivojlangan holda uning darajalari turlichadir. Ammo shu bilan birga ta'lim oluvchilar passiv bo'lsa, o'qitish jarayonini amalga oshirib bo'lmaydi.

- Ta'lim oluvchining ilm qabul qilishi faolligi uning shaxs sifatida shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim oluvchida o'z-o'ziga, mehnatiga, boshqa shaxslarga, jamiyatga, ishlab chiqarishga, atrof-muhitga munosabati shakllanib boradi.
- Pedagogik jarayonning muhim spehifik sharoitlari. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning muhim spehifik shartlaridan biri bu amaliy o'qitishdir. Bu uning muhim tashkil etuvchi komponentidir. O'qitish jarayoni amaliyotdan tubdan farq qiladi, chunki ishlab chiqarishdagi o'qitish uslubining asosiy maqsadi, bu ta'lim oluvchini ma'lum bir kasbga yo'naltirish va shakllantirishdir.

Pedagog va ta'lim oluvchi orasidagi o'zaro birlik va aloqadorlik haqida gapirganda boshqaruvchi va o'rgatuvchi shaxs bu o'qituvchi ekanligini unutmazlik kerak. Faqat pedagogning ta'lim oluvchiga bilim bera olishi, shaxs sifatida shakllantira olishi va o'z ta'sirini ko'rsata olishi mumkin.

O'qitish jarayonining muhim komponenti

Beriladigan bilim mazmuni o'quv dasturi, davlat ta'lim standartida belgilangan bo'lib, uning tarkibiga ijtimoiy maqsadlar davlat buyurtmasi, pedagogik tizimning aniq maqsadlarini belgilaydi. Pedagogik jarayon faqat ta'lim mazmunigagina emas, balki uning qonuniyligiga ham ta'sir ko'rsatadi, ya'ni;

- Pedagogik jarayonning sharoitiga qarab mazmun belgilanmasa, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishlari qiyin kechadi, shuningdek, jarayon bilan amaliyotdagi sharoit orasidagi bog'liqlik yo'qoladi.
- guruhning shaxsiy imkoniyatidan kelib chiqib o'qituvchi dasturiga mantiqiy o'zgarishlar kiritib, shu bilan pedagogik jarayonning o'zaro bog'liqligini buzmaganda maqsadga erishiladi.

Ma'lumot berishning pedagogik jarayoni - o'qituvchilarning ilmiy, texnik va texnologik ishlab chiqarishdagi bilimlarini shakllantirishdir. Mazkur jarayonda o'qituvchi va ustaning vazifasi ta'lim oluvchida ijobiy sifatlarni rivojlantirish uchun tarbiyaviy vazifalarni maksimal qo'llashdan iborat bo'ladi. O'qituvchi ta'lim oluvchilarda jamoatchilik, do'stlik, intizomga rioya qilish, rostgo'ylik, o'z ishiga javobgarlik kabi insoniy sifatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Buning uchun o'qituvchining o'zida tarbiyalovchi sifatlar mujassam bo'lishi kerak.

Ta'lim tamoyillari o'quv yurtlari oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ular o'zaro bir-biri bilan mustahkam bog'liq holda bir tizimni tashkil etadi, har bir darsda didaktik tamoyillarning bir nechtasi ishtirok etishi mumkin. Ular ta'lim oldida turgan asosiy maqsadlarni hal etishga o'z hissasini qo'shadi. Ta'lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda o'quvchi-talabalarga mustahkam bilim berish, ularni erkin, mustaqil fikrlay oladigan insonlar qilib tarbiyalashda, ta'lim tamoyillarining mohiyatini chuqur anglash va hayotga tadbiiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv yurtlarida beriladigan bilimning ilmiy xarakterga ega bo'lishi fan-texnikaning so'nggi yutuq va kashfiyotlarini o'zida ifoda etishi lozim. Shunday ekan, o'qituvchi ilm-fandagi yangiliklardan xabardor bo'lishi zarur. O'quv fanlari ham ilm-fan asosida yaratiladi. O'qitishning ilmiylik tamoyillari ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarni hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti darajasidagi ilmiy bilimlar bilan

qurollantirish, ayniqsa ularni ilmiy-tadqiqot usullari bilan tanishtirib borishga qaratilgan.

14.2. Kasbiy ta'limning tamoyillari

Ta'lim tamoyillari pedagogning faoliyatini va talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, tegishli ko'nikma va malakalar xosil qilishning asosiy qonun va yo'l-yo'riqlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan bir vaqtda ta'lim tamoyillari har ikkala faoliyatning ya'ni pedagog va talaba tomonidan o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bir qancha talablarni ham umumlashtirib beradi. Shunga ko'ra ta'lim qoidalari o'qitishning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

Ta'lim tamoyillari deb, umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yo'nalishi talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim va malaka xosil qilishning asosiy qonun va qoidalarining yig'indisiga aytiladi.

Inson vujudga kelibdiki, o'z farzandiga bilganlarini o'rgatish, o'zi ega bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarini keyingi avlodga o'tkazish dastavval anglanmagan holda bo'lsa-da mavjud edi. Bu yashash uchun kurash qonunidan kelib chiqib, yashashning zaruriy sharti hisoblangan. Jamiyat rivojlanar ekan avloddan-avlodga o'tkazish lozim bo'lgan bilimlar hajmi ham ortib bordi. Bilimlar, egallash lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalar murakkablashib bordi. Bu jarayon olimlar tomonidan tahlil qilinib asta-sekin ma'lum qoidalar ishlab chiqildi.

Ta'lim jarayonini chuqur o'rgangan olimlardan biri qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqida shunday fikrlarni bildiradi. O'quv jarayonida pedagog quyidagi qonuniyatlarga:

- talabaning zeriktirmasligi;
- bilim berishda turlilikka asoslanishi;
- uzviylikka, izchillikka rioya qilishi kerak.

Beruniy yangi mavzularni qiziqarli, asosan ko'rgazmali bayon etish samarali natijalar berishini ham ta'kidlaydi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) bilim olishda yoshlarni o'quv muassasasida o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

- talabaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- o'qitishda jamoa bo'lib, o'quv muassasasida o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda talabalarning maylini, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Ushbu ishlab chiqilgan qoidalar ta'limda mustahkam o'rin egallay boshladi.

Shunday qilib, ta'lim tamoyillari asrlar osha sayqal topib bordi. Albatta didaktika tamoyillari har bir davrning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zgarib boradi. Chunki ta'lim tamoyillari jamiyat va davlat oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ta'lim (o'qitish) jarayoni murakkab hamda ko'p qirralidir. Unda pedagog va talabalar faol ishtirok etadilar. Bu

jarayonning muvaffaqiyatli va samarali natijasi ta'lim jarayonining qonun qoidalariga ya'ni ta'limga quyilgan didaktik talablarga qay darajada amal qilishlariga bog'liq.

Keyingi yillarda ta'lim qoidalarini o'rganish ularni tahlil qilish va mukammallashtirish ustida ish olib borilmoqda. Ta'lim qoidalarini sistemallashtirish masalasi ham doimo faol masala bo'lib kelgan.

Bugungi kunda kasbiy pedagogika fani quyidagi **ta'lim tamoyillarini** ajratib ko'rsatmoqda:

- Ta'limning ilmiy bo'lishi;
- Ta'lim-tarbiyaning birligi;
- Ta'limning tizimli va izchil bo'lishi;
- Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan bog'liq bo'lishini ta'minlash;
- Ta'limda ongliklik, faollik va mustaqillikka erishish;
- Ta'lim jarayonining ko'rsatmali va ko'rgazmali bo'lishi;
- Bilimlarni puxta va tizimli o'zlashtirib borish;
- Ta'lim jarayonida shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish;

Umumdidaktik tamoyillar bilan pedagogik jarayon qonunlari o'zaro aloqada bo'lib, u o'zining spetsifik xususiyatlariga ega. **“Kasbiy pedagogika” fanining** asosiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

- Politeknik tamoyil
- Ta'lim oluvchilarda amaliyot va nazariyani o'zaro bog'lash tamoyili
- Modellashtirish tamoyili
- Mobillik tamoyili
- Tartibli ketma-ketlik tamoyili
- Atrof-muhitni tashkil etish tamoyili
- Kompyuterlashtirilgan pedagogik jarayon tamoyili

Politeknik tamoyil – bu tamoyil zamonaviy ishlab chiqarishning ilmiy asoslari tizimini egallashni nazarda tutib, shu bilimlar asosida umumkasbiy politeknik va maxsus bilimlarni shakllantiradi.

Politeknik tamoyillarni o'qitishda quyidagi shartlarga amal qilish lozim:

- asosiy yo'nalishdagi rivojlangan texnika va ilmiy o'qitish;
- o'zaro bir-birlari bilan bog'langan o'quv materiallari tizimini tashkil qilish;
- o'qitilayotgan fanni kelajakda amaliyotda qo'llash;
- ta'lim oluvchilarning yoshlariga mo'ljallab o'qitish;
- umumta'lim bilimlariga tayanish;
- ta'lim oluvchilarning qiziqishlarini qoniqtirish;
- o'quv materialining ketma-ketligi va turg'unligiga rioya qilish.

Ta'lim oluvchilarda amaliyot va nazariyani o'zaro bog'lash tamoyili

O'quv jarayonida nazariy va amaliy bilim berish o'zaro aloqadorlik va o'quv predmetining asosiy maqsadi amaliyotda qo'llashga qaratilgan bo'lib, bu maqsad quyidagi shartlarga amal qilishga bog'liq:

- nazariy bilimlarning amaliyotda sinallishi;
- ish jarayonida sohaviy bilimlar va ularning fanda qo'llanilishi;
- mutaxassis-xodimlarni samarali o'qitish uchun kasbiy ishlab chiqarishga qarab kasbiy bilim berish.

Mutaxassis faoliyatini o`quv jarayonida modellash tirish tamoyili

Modellashtirish orqali mazmun va maqsadlarni isbotlash uchun engilliklarni oldin o`zlashtirish, o`qitish metodlarini o`quv rejasi va o`quv dasturini olish mumkin.

Mobillik tamoyili

Bu tamoyil shaxsning texnik bilimlarini tez o`zlashtirish qobiliyatiga qaratilgan. Mutaxassis-xodimning ijodiy ish xarakteri, dunyoqarashining kengligi muammolarni anglab olish, ishlab chiqarishdagi rivojlanishini ko`ra bilishdir.

Tartibli ketma-ketlik tamoyili

Bu tamoyil quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- o`quv rejasini planlashtirish;
- o`quv jarayonida ketma-ketlikka rioya qilish;
- deduktiv o`qitish metodlarini qo`llash;
- umumta`lim bilimlarini tayanch qilib olish;
- o`quv materiallarini o`zaro bog`liq holda tartibli berib borish.

Atrof-muhitni tashkil etish tamoyili

Atrof-muhit deganda avvalam bor ta`lim muassasasida o`quv qurollari bazasini ishlab chiqarish va didaktik vositalarni, texnik, texnologik, ekologik talablar, shu bilan birga mehnat muhofazasini ta`minlash va ta`lim oluvchilarning sog`lig`ini saqlash sharoitlarini yaratish lozim.

Kompyuterlashtirilgan pedagogik jarayon tamoyili

Bu tamoyil bugungi kunda o`ta dolzarb bo`lib, kompyuterlar hayotimizning turli sohalariga kirib kelmoqda. Pedagogik sohaga ham kirib kelib ta`lim oluvchilarga kompyuterlar yordamida mavzuni kengroq, qiziqarliroq va tushuntirilayotgan mavzuni amaliyotini ham ekranda ko`rsatib berish imkonini yaratadi.

14.3. Pedagogik jarayonni loyihalash

Ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida tak`lim jarayonini samarali tashkil qilish, uning izchilligi va uzluksizligini ta`minlashga erishish masalalari yetuk mutafakkirlar hamda ilg`or pedagoglarning diqqat – e`tiborini jalb etib kelgan. YOsh avlod ta`lim tarbiyasini tashkil etishning ushbu jihatlari o`z davrida Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug`bek, Yan Amos Komenskiy, D.K.Ushinskiy, Abdulla Avloniy, Hamza Xakimzoda Niyoziy va boshqalar tamonidan o`rganilgan.

Axborotlar almashinuvining globallashuvi, shuningdek, ilm–fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarida ro`y berayotgan ilmiy yangiliklarning son va sifat jihatidan keskin o`sib borishi o`z–o`zidan talabalarga ular borasida tezkor sur`atda va batafsil ma`lumotlar berishni kun tartibiga qo`ymoqda. Ushbu talabning ijobiy ravishda qondirilishi, eng avvalo ilmiy– nazariy hamda amaliy bilimlarni o`zlashtirishning qulay shakli bo`lgan ta`lim jarayonida amalga oshiriladi. Ta`lim jarayonining maqsadga muvofiq, samarali tashkil etilishi o`quv manbalari (o`quv dasturi, rejasi, darslik, qo`llanmalar) saviyasi, shuningdek pedagogning bilim darajasi va pedagogik mahoratiga bog`liqdir.

Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'quv dasturi mazmunining mukammalligi, darslik hamda o'quv qo'llanmalarining zamonaviy talablar asosida yaratilganligi, o'quv rejasi mohiyatining nazariy va amaliy jihatlariga ko'ra yagona maqsadga erishish uchun xizmat qilishi, mashg'ulotlarni samarali tashkil etish imkonini beruvchi pedagogik shart–sharoitlarning mavjudligi, pedagog va talabalar o'rtasida samimiy, ijobiy munosabatlarning qaror topishi kabi masalalar inobatga olinadi.

Muayyan o'quv mashg'uloti jarayonining loyihasini ishlab chiqish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1–bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashning dastlabki bosqichi o'quv predmetining mundarijasidan joy olgan mavzu yoki faoliyat mazmuniga doir manbalarni o'rganish, chunonchi, materiallarni yig'ish va ularni mohiyati bilan tanishib chiqish, ularda ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, turkumlashtirish hamda yaxlitlashdan iborat.

O'quv predmetining mavzusi yoki faoliyat mazmuniga doir manbalar mohiyatini o'rganib chiqish pedagog uchun talabalar e'tiboriga taqdim etilayotgan mavzu xususida ularga batafsil, mukammal ma'lumotlarni bera olish, ta'limning umumiy jarayonini tasavvur etish imkonini bera oladi.

2–bosqich. Ikkinchi bosqich o'quv predmetining mavzusi (faoliyat mazmuni) yuzasidan yagona, umumiy maqsadni aniq belgilash, umumiy maqsad doirasida kichik bo'lim (band)lar bo'yicha hal etiluvchi xususiy maqsadlarni ham belgilash, ta'lim maqsadiga erishish yo'lida ijobiy hal etilishi lozim bo'lgan vazifalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Ta'lim maqsadi va vazifalarining aniq, puxta belgilab olinishi o'qituvchi, shuningdek, talabalar faoliyatini muayyan yo'nalishga solish, ta'lim maqsadiga erishishda vaqtdan unumli foydalanish, ta'lim jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan didaktik va tarbiyaviy muammolarning oldini olish, mavjud shart–sharoitlardan oqilona foydalanishga zamin hozirlaydi. Ikkinchi bosqich natijasi o'quv predmetining mavzusi bo'yicha yagona, umumiy hamda xususiy maqsadlar, shuningdek, vazifalarni qayd etish bilan tavsiflanadi.

3–bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashning uchinchi bosqichi ta'lim maqsadi va vazifalariga tayangan holda o'quv jarayonining mazmunini ishlab chiqishdan iboratdir.

Ta'lim jarayoni o'quv materiali mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi muayyan mavzu (faoliyat mazmuni) bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuini ifoda etish imkonini beradi. Ta'lim mazmunida, shuningdek, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushuncha, ko'nikma hamda malakalarining xajmi ham o'z ifodasini topa olishi kerak. Zero, ta'lim mazmunining g'oyaviy jihatdan mukammalligi talabalar tomonidan muayyan bilim, ko'nikma hamda malakalarning o'zlashtirilish darajasi bilan belgilanadi. Uchinchi bosqich samarasi talabalar tomonidan ma'lum tushunchalarning o'zlashtirilishi, ko'nikma va malakalar shakllanishini ta'minlovchi shartlarning ishlab chiqilganligida namoyon bo'ladi.

4–bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashning eng muhim bosqichi hisoblangan bu bosqichda mashg'ulotning shakli, metod va vositalarini tanlash kabi harakatlar amalga oshiriladi.

Mazkur bosqichning muhimligi shundaki, aynan mashg'ulotning shakli, metod va vositalari ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini taminlashga olib keladi. Ular yordami bilangina o'quv predmetining mavzusi (faoliyat mazmuni) borasidagi nazariy bilimlar o'quvchilarga uzatiladi, talabalar tomonidan esa ushbu bilimlar qabul qilib olinadi. Muayyan mashg'ulot uchun eng maqbul deb topilgan shakl, metod va vositalarning belgilanishi ta'lim jarayonining 90 foizlik samaradorligini ta'minlaydi. Yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati aynan ana shu bosqichda ochib beriladi. Talabalarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi mashg'ulotlarning qiziqarli, bahs – munozaralarga boy bo'lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki bo'ladi. Mana shu holatdagina talabalar tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, o'qituvchining zimmasida esa ularning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solib yuborish, umumiy faoliyatni nazorat qilish, murakkab vaziyatlarda yo'l–yo'riq ko'rsatish, maslahatlar berish hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qoladi.

5–bosqich. Navbatdagi bosqichda talabalar tomonidan bilim, malaka, ko'nikmalarning o'zlashtirilishi uchun etarli deya belgilangan vaqt hajmi, ya'ni talabalarda muayyan mavzu (faoliyat mazmuni) yuzasidan ma'lum tushuncha, ko'nikma va malakalarning qancha vaqt oralig'ida o'zlashtirilishi mumkinligi aniqlanadi.

6–bosqich. Bu bosqichda topshiriqlar tizimi ishlab chiqiladi. Bosqich natijasi sifatida ishlab chiqilgan topshiriqlar tizimining samaradorligiga alohida e'tibor berish talabi mazkur bosqichning asosiy sharti hisoblanadi.

Mazkur bosqichda ishlab chiqilgan mashqlar tizimini quyidagi guruhlariga bo'lish maqsadga muvofiqdir:

- mashg'ulot jarayonida o'quvchilar tomonidan echilishi lozim bo'lgan mashqlar;
- darsdan tashqari sharoitlarda bajarilishi ko'zda tutilgan mashqlar (uy vazifalar).

Talabalar e'tiboriga havola etilayotgan mashqlar bir–birini to'ldirishi, o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik va eng muhimi evolyution xususiyat kasb eta olishi lozim.

7–bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashtirishning yettinchi bosqichida talabalarning umumiy faoliyatlarini nazorat qilish va test tizimini ishlab chiqish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri bo'lgan test tizimining ishlab chiqilishi talabalarning mavzu (faoliyat mazmuni) yuzasidan ma'lum tushunchalarni o'zlashtirish, shuningdek, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantira olganlik darajalarini aniq va holis aniqlay olish imkonini beradi. Test tizimini ishlab chiqishda testlarning izchil, uzviy hamda bir– birlari bilan uyg'un bo'lishlariga ahamiyat berish zarurdir.

8–bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashtirishning so'nggi bosqichi yaratilgan loyiha (andoza)ning ta'lim jarayoniga tadbqiq etilishi, ta'lim jarayonining yakuniy darajasini o'rganish bilan nihoyalanaadi.

Mazkur bosqichda ta'lim jarayonining umumiy ahvoli, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularning yuzaga kelish sabablari tahlil etiladi,

navbatdagi Mashg`ulotlar jarayonida sodir bo`lgan kamchiliklarni oldini olishga qaratilgan chora–tadbirlar belgilanadi.

14.4.Loyihalash jarayonining obyekti va muammolari

Ta`lim oluvchilarning o`zi OTMdagi o`quv-tarbiya jarayonining asosiy va yakuniy natijasi hisoblanadi: uning shaxsini, qobiliyatini rivojlantirish, vakolatlilikini va kasbiy bilim, o`quv va malakalarini ta`minlash.

O`quv-tarbiya jarayoni (O`TJ) tashkiliy tomondan ikkita asosiy bosqichga bo`linadi:

- qidiruv tadqiqoti va loyihalash;
- amalga oshirish va nazorat.

Qidiruv tadqiqoti tegishli mutaxassislarga talabni istiqboli, ularga oldindan bo`ladigan malakaviy talabni belgilash, mazkur talablarni raqobatbardoshlik darajasida amalga oshirish imkoniyatlarini o`rganishdan iboratdir. Tegishli mutaxassislarni tayyorlash zarurligi va imkoniyatlari haqdagi vakolatli ijobiy (yoki salbiy) xulosa mazkur tadqiqotlarning natijasi hisoblanadi.

O`TJni loyihalash O`TJ me`yoriy va o`quv-metodik bazasini tashkil etuvchi o`zaro bog`langan va o`zaro aloqador hujjatlar majmuini ishlab chiqishdan iboratdir. Quyidagilar shularga taalluqli:

1. DTS «Oliy ta`lim yo`nalishlari va ixtisosliklari klassifikatori». Mazkur me`yoriy huquqiy hujjatda tayyorlovning yangi yo`nalishi (yoki ixtisosligi) belgilangan tartibda beriladi. Agar tayyorlov yo`nalishi (yoki ixtisosligi) klassifikatorda ko`zda tutilgan bo`lsa, unda darhol keyingi hujjatni ishlab chiqishga kirishiladi.

2. DTS «Majburiy minimum mazmuniga va yo`nalishlar bo`yicha bakalavr (yoki ixtisoslik bo`yicha magistr) tayyorlash darajasiga bo`lgan talablar». Mutaxassisga nisbatan oldinda borayotgan rejalashtirilgan malakaviy talablarni fan, texnika va texnologiya, iqtisod, ta`lim va madaniyat zamonaviy yutuqlarini, shuningdek mamlakat va chet el tajribasini hisobga olgan holda ta`minlash uchun muqobil ta`limiy-kasbiy programma ishlab chiqiladi. Bu - o`quv fanlarining tizimli majmui bo`lib, mazmunining ko`p mehnat talabliligi va minimumiga tegishli hisoblanadi va tayyorlov yo`nalishi yoki ixtisoslikning «yuzini belgilaydi». Muqobil ta`limiy-kasbiy dastur malakaviy talablar bilan qo`shilib ko`rib chiqilayotgan me`yoriy-huquqiy hujjat - DTSni tashkil etadi.

3. Namunaviy o`quv rejasi. Bu DTSga muvofiq ishlab chiqiladigan o`quv-tarbiya jarayonining cheklovi va quyidagilarni belgilaydi:

- o`quv jarayonining jadvali;
- mutaxassis ko`p o`lchamli modelini tuzishni ta`minlovni fanlararo aloqani xisobga olgan holda semestr va kurslar bo`yicha DTSda ko`zda tutilgan o`quv fanlarining tizimli joylashuvi;
- auditoriya mashg`ulotlari bo`yicha har bir o`quv fanining, shuningdek talaba mustaqil ta`limi va mustaqil ishi sermehnatlilikini taqsimlash;
- har bir fan bo`yicha xaftalik auditoriya yuklamasi;

- institushional o'ziga xosliklar, talaba bilimini nazorat qilish va baholash, mustaqil ta'lim olishini tashkil etishni xisobga olgan holda ishchi o'quv rejasini ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar.

4. O'quv fanlari namunaviy dasturlari. Mazkur o'quv metodika hujjatlari DTS (davlat komponenti)da ko'zda tutilgan har bir muayyan o'quv fanlari bo'yicha mutaxassisga bo'lgan talab va mazmun minimumiga muvofiq shuningdek fan, texnika va texnologiya, iqtisodiyot, ta'lim va madaniyat zamonaviy jaxon yutuqlarini xisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

5. O'quv rejasidagi fanlar, malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlarini o'quv metodik ta'minoti. Bu hujjatlar tizimli majmui bo'lib, o'tkazish va (yoki) bajarish metodikasi mazmuni, shuningdek o'qituvchi va talabalar turli xil o'quv faoliyatining nazoratini belgilaydi. Quyidagilar shunday hujjatlar hisoblanadi:

- ma'ruzalar matni;
- metodik materiallar: laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlar, seminarlar, kurs loyihalari (ishlari), uy vazifalari, mustaqil ta'lim olish, malakaviy amaliyot, bitiruv malakaviy ishlar va hokazo.
- ko'rgazma qo'llanmalar va tasviriy materiallar;
- programmaviy va informatsiyaviy ta'minot: sistemani nazorat qiluvchi va ta'limni avtomatlashtiruvchi;
- tashkiliy metodik ta'minot: talabalar bilimi, uquvi va malakasini nazorat qilish hamda baholash.

6. Auditoriya mashg'ulotlarining jadvali. Bu ishchi o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladigan auditoriya mashg'ulotlarining semestr miqyosidagi cheklovi. An'anaviy tarzda mazkur cheklov butun semestr mobaynida bir necha fanlarni bir vaqtda o'rganishni ko'zda tutadi. Mazkur holda auditoriya yuklamasi uncha katta bo'lmagan fanlar uchun xaftasiga bir-ikki soat rejalashtiriladi, bu ularni o'rganish samarasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur kamchilik o'quv jarayonini modul asosida tashkil qilish bilan bartaraf etiladi. Bunda u yoki bu moduldagi fanni o'rganishga semestrda qisqaroq vaqt oralig'i ajratiladi. Natijada kam o'quv yuklamasiga ega bo'lgan fan uchun xam xaftada kamida belgilanadi, bu talabalarni faol mehnat qilishga undaydi va ular ijodiy tashabbusi rivojlanishiga ko'maklashadi.

Turli miqyosdagi qidiruv tadqiqotlari va loyihalash bosqichining natijasi bo'lib, yuqorida ko'rsatilgan hujjatlar majmui hisoblanadi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi - ta'limni-oliy ta'lim muassasasini boshqarish bo'yicha davlat vakolatli organi. Bu bosqichda mutaxassislar tayyorlash sifatiga talablar belgilanadi (loyihalanadi).

O'TJni amalga oshirish va nazorat qilish bosqichiga kelsak bunda belgilangan sifat ta'minlanadi. Buni ta'minlash sezilarli darajada UTJni boshqarishga bog'liqdir.

Har qanday muvaffaqiyatsizlikning boisi - boshqaruvdagi o'quvsizlik.

Rezyume. Qidiruv tadqiqotlari va O'TJni loyihalash O'TJ tashkil etishning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bunda O'TJ me'yoriy-huquqiy va o'quv-metodika bazasini tashkil etuvchi o'zaro bog'liq va o'zaro taalluqli hujjatlar majmui ishlab chiqiladi. Bunda mutaxassislar tayyorlash sifatiga bo'lgan talab belgilanadi.

14.5. Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish

Ta'limda yoshlarni bilim, ko'nikma hamda malakalar bilan qurollantirish, ularning qobiliyati va iste'dodlarini rivojlantirish jarayonida baholash shuningdek, bilimlarni tekshirib turish muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash ta'lim tizimida foydalanilayotgan metodlar qanchalik samarali ekanligini, talabalarning o'zlashtirish darajasini aniqlashga yordam beradi. Albatta ta'lim tizimining samarali bo'lishi pedagog kadrlarning tayyorgarlik darajasiga ham bog'liq. Pedagog birinchi galda o'z kasbini sevishi, hurmat qilishi, talabaga katta qiziqish va mehr bilan qarashi, jamiyat oldidagi o'zining katta mas'uliyatini his qila olishi shart. Pedagog har bir talabaning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay olishi hamda hisobga olishi, o'quv materiallarini to'g'ri tanlay bilishi, tahlil qila olishi, umumlashtira bilishi pedagogik mahorat uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari, vositalari va shakllarini mukammal bilishi, talabaga nisbatan talabchan bo'lishi pedagogik vaziyatga qarab ulardan o'rinli foydalana olishi, o'z faoliyatini tahlil qila olishi va xulosalar chiqara olishi kerak.

Ta'lim oluvchilarning asosiy o'quv faoliyati bilimlarni o'zlashtirishdan iborat bo'lib, mazkur faoliyat quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: o'quv materiallarini qabul qilish, fikrlash, egallab qolish va qo'llash. Bu komponentlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ular o'quv jarayonida ketma-ket qo'llanilib, butun bir o'quv jarayonini tashkil etadi.

1. Ta'lim oluvchining o'quv materialini qabul qilishi.

O'quv materialining qabul qilish o'quv jarayonining eng muhim qismidir. O'quv materialini yaxshi qabul qilinishi o'quv ishlab chiqarish faoliyatida mustahkam fundament rolini o'ynaydi.

2. O'quv materialini samarali o'zlashtirishning ichki sharoitlari.

O'quv materialini samarali o'zlashtirish uchun eng avvalo ta'lim oluvchining ichki ehtiyoji bo'lishi kerak. Ichki o'zlashtirish javob bergandan imtihongacha esda saqlanib, keyin esdan chiqadi. O'zlashtirishning muvaffaqiyati ta'lim oluvchining faoliyatiga ham bog'liq bo'ladi. Chunki ta'lim oluvchi berilayotgan materiallarga qiziqsa va o'z ustida ishlasa o'zlashtirishning eng yuqori cho'qqisiga erishishi mumkin.

O'zlashtirishning ichki faktlaridan yana biri berilayotgan materialni ta'lim oluvchi tomonidan tushunishdir. Chunki ta'lim oluvchi mavzuni tushunmasa, qancha o'z ustida ishlamasin, oldingi mavzular bilan bog'liq bo'lmasa, mavzuning o'zlashtirilishi sodir bo'lmaydi va juda sayoz bo'ladi.

3. Qabul qilishning tashqi faktorlari.

O'quv materialini qabul qilishning asosiy faktorlari asosan o'quv materialining mazmuniga bog'liq bo'ladi. Uning qiyinligi shundaki, o'quv materialida qo'llaniladigan texnik materiallar aniq va abstraktligiga, amaliyotga bog'liqligiga qarab farq qiladi.

4. Eslab qolish.

O'quv materialini qabul qilishning eng muhim komponenti bu yangi materialni eslab qolish va xohlagan vaqtda uni nazariy va amaliy qo'llay bilishdir. Ta'lim oluvchi o'quv materialini bilan faol ishlaganda uni yaxshi eslab qolib, samarali

qo'llaydi. Eslab qolishning eng asosiy samaradorligi ta'lim oluvchining irodaviy xususiyatlariga bog'liq.

5. Bilimlarni qo'llashda ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Bizga ma'lumki bilimlarni amaliy faoliyat davomida qo'llay bilish, bilimlarni egallaganlik darajasini ko'rsatadi. Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay bilish, ya'ni laboratoriya ishlarini bajarish davomida egallagan bilimlar asosida uy vazifasini bajarish, bilimlarni mustaqil egallashdan iborat. Bu jarayonda bilimlar kengayib va mukammallashib, chuqur o'zlashtirilgan bilimga aylanadi.

14.6. O'quv materiallarini qabul qilish, fikrlash, egallab qolish va qo'llash

Ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini tashkil qilishda o'z ustida mustaqil ish olib borishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsiy bilimlarni oshirish, ta'lim olishning alohida turi hisoblanib, o'z-o'zini o'qitish jarayoni ko'proq ta'lim oluvchining zimmasiga yuklatiladi. Bu jarayonda ijtimoiy-psixologik shartlar quyidagilar hisoblanadi:

- Ta'lim oluvchining shaxsiy kasbiy malakasining yuqoriligi.
- Mutaxassislarining bilim darajasi mehnatning raqobatbardoshligini ko'taradi.
- Hozirgi zamon texnologiyalari va mutaxassislar faoliyati ishsizlikni keltirib chiqarib, ishsizlarni yangi mutaxassislik turiga qayta o'qitishni taqozo etadi.
- Dunyo iqtisodiyotining rivojlanishi mutaxassis kadrlar bilimining mukammallashib borishiga olib keladi.

Kasbiy ta'limning samaradorlik mezonlari

Asosiy samaradorlik kriteriyasiga mutaxassislik kiradi:

- malakaviy faoliyatda mustaqillik hissi;
- mehnat xavfsizligiga amal qilgan holda texnik talablarni bajarish;
- ishlab chiqarishda vaqt va normalarni bajarish;
- kasbiy faoliyatda fikrlash va o'z-o'zini nazorat qilib borish;
- mehnat madaniyatiga qat'iy amal qilish;
- mehnat faoliyatiga ijodiy yondoshish;
- bajarilgan ish uchun mas'uliyatni his qilish kabilar kiradi.

Qisqa xulosa

Ushbu mavzuda ta'limda talaba yoshlarni bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish, ularning qobiliyati va iste'dodlarini rivojlantirish jarayonida baholash va bilimlarini tekshirib turish muhim ahamiyat kasb etishi, baholash ta'lim tizimida foydalanilayotgan metodlar qanchalik samarali ekanligini, talabalarning o'zlashtirish darajasini aniqlashga yordam berishi haqdagi fikrlar bayon qilingan. SHuningdek, ta'lim tizimining samarali bo'lishi pedagog kadrlarning tayyorgarlik darajasiga ham bog'liqligi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Pedagog har bir talabaning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay bilishi va hisobga olishi, o'quv materiallarini to'g'ri tanlay bilishi, pedagogik mahorat uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari, vositalari va shakllarini mukammal bilishi, talabaga nisbatan talabchan bo'lishi

pedagogik vaziyatga qarab ulardan o`rinli foydalana olishi, o`z faoliyatini tahlil qila olishi va xulosalar chiqara olishi kerak.

Ta`lim tamoyillari - umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o`qish va o`qitish jarayonlarining yo`nalishi talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o`zlashtirilishi, bilim va malaka xosil qilishning asosiy qonun va qoidalarining yig`indisidan iborat. Shu nuqtai nazardan ta`lim tamoyillari va uning turlari bo`yicha fikrlar bayon qilingan.

Kasb ta`limi jarayonining mohiyati va uning tuzilishi, kasb ta`limining tamoyillari, pedagogik jarayonni loyihalash, pedagogik rejalashning umumiy algoritmi, ta`lim oluvchilarning o`quv faoliyatini tashkil qilish jarayoni, kasb ta`limida shaxsiy malakaviy bilimlar olish kasbiy ta`limning samaradorlik kriteriyasi kabilarga alohida yondashilgan.

O`z-o`zini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Pedagogik jarayonning mohiyati va tuzilishi nimadan iborat?
2. Talabalarining o`quv faoliyati qanday tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo`ladi?
3. Pedagogik texnologiyada shaxsiy mo`ljallash deganda Siz nimani tushunsiz?
4. Kasbiy ta`limning samaradorlik mezoniga nimalar kiradi?
5. Pedagogik loyihalash – bu nima?
6. Monitoring deganda nimani tushunasiz?
7. Ta`lim texnologiyasiga nimalar kiradi?
8. Mehnat madaniyati tushunchasini asoslab bering?
9. Kasbiy ta`limning tamoyillari haqida fikr bildiring?
10. Kompyuterlashtirilgan pedagogik jarayon tamoyiliga misollar keltiring?

15 – mavzu. Kasbiy pedagogikada ta`lim mazmuni

Reja:

- 15.1. Kasb-hunar ta`limining davlat ta`lim standarti.
- 15.2. Zamonaviy globallashuv sharoitida O`zbekiston Respublikasida kasb ta`limining asosiy mazmuni.
- 15.3. Ta`lim mazmuni tuzilmasining makrodarajasi.
- 15.4. Mikrodarajadagi o`qitish mazmunining tuzilmasi.

15.1. Kasb-hunar ta`limining davlat ta`lim standarti

Davlat ta`lim standartlari ta`lim tizimining eng zarur va etarli darajasi hamda o`quv yuklamalari hajmiga qo`yiladigan asosiy davlat talablarini belgilab beradi.

Ta`lim mazmunining zaruriy o`zagi hisoblanmish ta`lim standarti vositasida mamlakat xududidagi turli o`quv muassasalarida ta`limning barqaror darajasini ta`minlash sharti amalga oshiriladi. O`quv yuklamalari me`yoriga keltiriladi, ta`lim oluvchilar bilimini baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Ta`lim oluvchi davlat belgilagan ta`lim standarti bilan cheklanishi mumkin yoki bilimlarni chuqurroq egallash maqsadida mustaqil ravishda, ya`ni kengroq, chuqurroq bilim olishga va yuqori reyting bali to`plash huquqiga ega. Natijada, qiyin yoki ta`lim oluvchi xush ko`rmaydigan predmetni o`rganishda unga standartda belgilangan me`yor bilan cheklanishga imkon beriladi. Bunda ta`lim oluvchi o`zining

qiziqishi, xohishi, qobiliyat va intilishlarini ro'yobga chiqarishga, o'zi uchun eng maqbul yo'lni ongli va mustaqil ravishda tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Davlat ta'lim standartlari o'quv-tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari uchun majburiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talablar ochiq bo'lishini nazarda tutadi. Ta'lim oluvchilar uchun shakl va mazmun jihatidan tushunarli tarzda ifoda qilingan mazkur talablar ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalariga oldindan ma'lum qilinadi.

Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib, Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti ishlab chiqiladi. Kasb-hunar ta'limi tarmoqli standarti – malaka talablariga mos holda kasbiy tavsifnoma asosida muayyan tayyorlov yo'nalishi va kasb-hunar bo'yicha ta'lim mazmunining zarur va etarli hajmi va so'nggi maqsadlarini, o'quv yuklamalari hajmini aniqlovchi hamda ta'lim sifatining standart talablariga muvofiqligini ta'minlovchi me'yoriy hujjatdir.

Kasb-hunar ta'limi dasturi kasb-hunar kolleji bitiruvchisiga egallagan kasbi bo'yicha ishni malakali bajarish imkonini berish hajmidagi ma'lum kasbga doir umumkasbiy va maxsus fanlarni hamda ishlab chiqarish ta'limi va amaliyotini o'z ichiga oladi.

Kasb-hunar ta'limi dasturini muvaffaqiyatli egallash kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini kasbi va ixtisosligi bo'yicha mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqi bilan ta'minlaydi. Kasb-hunar ta'limini standartlashtirishning maqsadi va vazifalari – kasb-hunar ta'limining yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta'minlash, sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning manfaatlarini himoya qilish, kadrlar tayyorlash sifatini, ta'lim faoliyatini baholash mezonlari va tartibini belgilashdan iboratdir.

Kasb-hunar ta'limi sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari turlariga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasb malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash tartibiga, xalqning boy merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etishdan iborat bo'ladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, o'quv-tarbiya jarayonini, pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlashga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash; kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan, ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlashdan iboratdir.

Ta'limning mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni deganda, o'quvchilarning o'qish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi.

Ta'limning mazmuni bir qator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

1. Ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur ehtiyojlar, ijtimoiy tuzimning xususiyatlari.

2. Davlatning xalq ta'limi va muayyan turdagi o'quv yurti oldiga qo'yadigan maqsad va vazifalari.

3.O`qitish qoidalaridan kelib chiqadigan va o`quvchilarning imkoniyatlarini (yosh imkoniyatlari va boshqalar) e`tiborga oluvchi didaktik talablar.

Ta`lim mazmuni o`quv rejasi, o`quv dasturi va darsliklarda ifodalangan.

**O`quv rejasi** deb, o`qitiladigan fanlar, o`qitish uchun ajratilgan soatlar va o`quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatiga aytiladi.

O`quv rejasi – barcha umumta`lim maktablarida so`zsiz amal qilinishi lozim bo`lgan davlat hujjatidir. Unda sinflar bo`yicha o`rganilishi lozim bo`lgan o`quv fanlari va o`sha fanlar uchun ajratilgan o`quv soatlari ko`rsatilgan bo`ladi.

**O`quv dasturi** – o`quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. O`quv dasturi har bir o`quv fanining o`qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g`oyaviy – siyosiy yo`nalishini aniqlab beradigan davlat hujjatidir.

O`quv dasturida o`quv yili davomida har qaysi sinfda alohida fanlar bo`yicha o`quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko`nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda har qaysi o`quv fanlarining mazmuni izchillik bilan yoritiladi va ma`lum mavzular orqali ko`rsatiladi. Ma`lum mavzu yuzasidan o`quvchi o`zlashtirishi lozim bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalar qisqacha ifodalab beriladi.

Darslik – o`quv jarayonining zarur qismidir. Ko`p vaqtlardan beri u o`qitishning eng muhim vositasi xisoblanar edi.

Har bir o`quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi. Darslik tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir.

Darsliklar bilan bir qatorda ayrim fanlardan o`quv qo`llanmalar xam tuziladi. Masalalar va mashqlar to`plami, xrestomatiyalar, atlaslar, lug`at kitoblari va shu kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

O`quvchilar darslik va o`quv qo`llanmalari bilan ham darsda, ham uy sharoitida mustaqil ish olib boradilar. Darslik materiali katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. U bilan ishlash tarbiyalanuvchilarning aqliy tarbiyasiga, ularda ilmiy dunyoqarashning, axloq-odob, nutq va tafakkurning va mustaqil fikrning rivojlanishiga yordam beradi.

15.2. Zamonaviy globallashuv sharoitida O`zbekiston Respublikasida kasb ta`limining asosiy mazmuni

O`zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishishi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o`ziga xos yo`lini tanlashi mutaxassislar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo`ydi. Shu nuqtai nazardan mamlakatimiz ta`lim tizimida qator o`zgarishlar joriy qilindi. Jumladan, “Ta`lim to`g`risida”gi qonunning joriy etilishi, yangi o`quv rejalari, dasturlar, darsliklarning ishlab chiqilishi, ta`lim muassasalarining attestasiya va akkreditasiya qilinishi, yangi tipdagi ta`lim muassasalarining tashkil qilinishi respublikamizda ta`lim tizimiga kengroq ahamiyat qaratilayotganligining hamda Prezidentimizning yosh mutaxassis kadrlar tayyorlashga alohida e`tibor berayotganligining yaqqol namunasidir.

Mehnat bozorini, eng avvalo qishloq joylarda mehnat bozorini shakllantirishning xududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limini rivojlantirishga kirishildi. Hozirgi kunda bu tizimda minglab yoshlar kasb-korlar sirlarini o`rganmoqdalar. Oliy ta`limda kadrlar tayyorlashni

markazlashtirishdan huquqiy yo`nalishga o`tkazish ishi olib borilmoqda, o`quv yurtlarining tarmog`i kengaymoqda. Bilimlarning yangi tarmoqlari bo`yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash boshlab yuborildi, oliy ta`limni ko`p bosqichli tizimga o`tkazish amalga oshirilmoqda. Abiturientlar va talabalarning bilim darajasini test va reyting asosida baholashning ilg`or usullari joriy etilmoqda.

Oliy malakali kadrlar sifatiga oshgan talablarga muvofiq aspirantura va doktoranturada kadrlar tayyorlash ishi kengaymoqda. Fan va ta`lim sohasida xalqaro aloqalar kengaymoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida yuqori malakali kadrlar bilan ta`minlashda uning hayotiy Siklining uchta asosiy bosqichlariga kompleks yondashilgan.

Birinchi bosqichda kadrlarga bo`lgan ehtiyojlarni prognozlashtirish va shaxs, jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda bozor iqtisodiyotini rivojlantirish belgilangan. Bu o`rinda kvalifikahiya darajasining o`sib borishi belgilanadi.

Ikkinchi bosqichda kadrlar tayyorlashni ta`minlash va ularning kvalifikahiya darajasini amalga oshirish.

Uchinchi bosqichda, professional faoliyat sohasida kadrlardan foydalanish, vaqti-vaqti bilan malakani oshirish va qo`shimcha professional ta`lim yoki qo`shimcha professional ta`lim doirasida kvalifikahiya darajasini ta`min etish va yangilab turish.

Milliy dasturning kompleks vazifalarida sifatli kadrlar tayyorlash qaroridan, eng muhim vazifani ishlab chiqish va professional ta`limning barcha pog`onalarida davlat ta`lim standarti tamoyillariga bag`ishlangan “raqobatbardosh va sifatli kadrlar tayyorlash” dasturi ishlab chiqilgan.

Raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni ta`minlash uchun kasbiy ta`limda standartlashtirish o`sib, yuksalib borishi zarur. Uning mohiyati yuqori va sifatli talablar bo`yicha amaliyotda erishilgan normalarga munosabati belgilanadi. Kasbiy ta`limda standartlashtirish kompleks bo`lishi kerak.

➤ Birinchidan, undagi o`zaro bog`liqlik darajasida kadrlar tayyorlash ishchi xodimdan tortib, to yuqori malakali mutaxassisgacha professional ta`limining uzluksizligi qamrab olishi zarur.

➤ Ikkinchidan, ta`lim standarti mutaxassisning hayotiy tsiklining barcha bosqichlarini qamrab olishi va ularning o`zaro aloqalarini ta`minlashi kerak.

Ta`lim muassasalarining integrasiyalashgan akademik litsey, kasb-hunar kolleji va boshqalarni tashkil qilish. Bunday ta`lim muassasalarida quyidagilar nazarda tutiladi:

➤ Professional ta`limning tashkiliy va metodik izchilligini ta`min etish;

➤ Sohalar vazifasini hal etish uchun maqsadli mutaxassislar tayyorlashni amalga oshirish;

➤ O`rta zveno mutaxassislarini tayyorlash uchun moddiy-texnika bazalaridan va oliy o`quv yurtlarining professor-o`qituvchilar tarkibidan foydalanish.

Kasb ta`limi integrasiyasining gorizontali bo`yicha – yirik texnika universitetlari, ilmiy o`quv, ilmiy ishlab chiqarish va o`quv ishlab chiqarish birlashmalarini tashkil etishdan iborat. Bundan maqsad raqobatbardosh oliy ma`lumotli mutaxassislar (bakalavr va magistrLAR), shuningdek, ishlab chiqarish birlashmalari, kasb-hunar kollejlari uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash.

Bunday integrasiya quyidagilarga ruxsat etadi:

- Birlashayotgan oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik, ilmiy va pedagogik potensialidan samarali foydalanish;
- Ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni bilan fan sohalarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash;
- Ilmiy xodimlar, o'qituvchilar va talabalarning birgalikda foydalanishlari uchun tajriba eksperimental va fundamental tadqiqot bazasini rivojlantirish;
- Kasbiy ta'limning barcha darajalarida davomli integrasion tajribani o'tkazish.

Kasb ta'limining vertikal va gorizontal ravishda integrasiyalashganligi bo'yicha turli darajadagi raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun o'quv-ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarini tashkil etish kerak.

Kasb ta'limining xalqaro integrasiyalashuv yo'llari:

1. Sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikda ta'lim muassasalarini (universitetlar, kollejlari, malaka oshirish va qayta tayyorlash markazlari) tashkil etish, bu esa bozor va xalqaro munosabatlar, yuqori texnologiya bilan bog'liq bo'lgan mutaxassislar yo'nalishi bo'yicha bo'lishi zarur.

2. Iste'dodli yoshlarni sanoati va intellektual darajasi rivojlangan mamlakatlarning ta'lim muassasalarida o'qitish.

3. Xorijiy mamlakatlar ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatish va shu bilan birga talabalar, ilmiy tadqiqotchilar, pedagoglar tajriba almashinuvini keng yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

15.3. Ta'lim mazmuni tuzilmasining makro darajasi

Ta'lim mazmunining tuzilmasini makro darajasi modulli blok yordamida amalga oshiriladi. Modulli blok yondashuv ta'lim mazmuni asosini ajratib olishga yordam beradi, hamda kasbiy ta'lim tizimini moslashuvchanligini ta'minlab beradi.

Aniq bir yo'nalish bo'yicha ta'lim mazmunini tekshirish boshlang'ich kasbiy ta'lim sohalaridan boshlanadi. Kasb ta'limi mazmuni umumiy holda umumta'lim va kasbiy tayyorgarlikni o'z ichiga oladi. Umumta'lim tayyorgarlik gumanitar va tabiiy ilmiy bloklar orqali tanishtiriladi.

Umumta'lim blokiga – nazariy va amaliy o'quv materiallari kiradi, yaqin kasblar guruhi integrasiya asosini o'taydi, tarmoqlardan ya'ni ishlab chiqarishdan ajratilgan yoki tarmoqlararo darajada bo'ladi.

Ta'limda kasbiy blok eng asosiysi hisoblanadi, kasbiy blokda o'quv materiallari, turli kasbiy faoliyatni so'ralayotgan darajada o'rganiladi. Mutaxassislik bloki – nazariy va amaliy o'quv materiallari kasbi mutaxassisligini o'rganish uchun zarur.

Umumiy mutaxassislik bloki – ayrim hollarda ko'rsatiladi, keng miqyosli texnika va texnologiyani qamrab oluvchi, mehnatning mazmuni bo'yicha nisbatan har xilligi bilan farqlanadi. Bir necha mutaxassisliklar uchun kasblar bo'yicha umumta'lim mazmunini ajratib, umumiy mutaxassislik blokiga kiritilishi mumkin. Masalan, «Tikuvchilik» kasbi uchun ta'lim mazmuni tanlanganda, yuqori qatlam bo'yicha – tikuvchilik ishlab chiqarishga to'g'ri keladi, o'rta qatlam bo'yicha kiyimlarni, yakka tartibda tikish texnologiyasi, yaqin kasblar guruhi, quyi qatlam –

«tikuvchilik» kasbi mutaxassisliklar, masalan, ayollar engil kiyimlari tikuvchisi kabilar.¹

Birinchi qatlam umumtexnik bloki ko`rinishida tikuvchilik ishlab chiqarish uchun bo`ladi (fanlar «Materialshunoslik», «Bozor iqtisodiyoti»), ikkinchi qatlam – yakka tartibda kiyimlarni tikish – yaqin kasblar guruhi umumkasbiy blok ko`rinishida («Madaniyat», «Kiyimlarni loyihalash asoslari»), uchinchi qatlam tikuvchilik kasbi uchun umumiy blok ko`rinishida («Kiyimlarni tikish texnologiyasi asoslari», «Kiyimlarni modellashtirish va konstrukhiyalash asoslari»). Ucha asosiy bloklarga mos keluvchi 3 ta mutaxassisliklar: ayollar engil kiyimi, ayollar ustki kiyimi, erkaklar kiyimi. Bu blok «Kiyim tayyorlash texnologiyasi» o`quv fani uchun tanlangan mutaxassislikka bog`liq holda aniq mazmunlar bilan to`ldiriladi.

Qo`shimcha 4 ta blokni ko`rib chiqamiz.

1. Yo`nalishni o`zgartirish bloki – egallangan kasblar asosida yangisini egallash, ishsizlarni o`qitish tizimi uchun muhimdir. Tikuvchini qayta o`qitib o`zini mutaxassisligiga mos ravishda bichuvchi mutaxassisligini berish. Bunday yo`nalishni o`zlashtirish tikuvchiga yakka faoliyatni olib borishiga yordam beradi.

2. Kasbiy ta`limni oshirish bloki – kadrlar tayyorlashning 2 tizimi bilan bog`liq. Agar 2 tizim – umumtexnik daraja va tarmoqli tayyorlashni kasbiy ta`limni o`rta darajasigacha olib borish masalasi bo`lsa u holda kasbiy ta`lim diplomlari bilan texnik diplomni ham oladilar.

3. Biznes blok – bozor iqtisodiyoti sharoitida muhimdir. Bu blok odamlarni bozorga borishga va o`z ishini ochishga yordam beradi. Blok – kasbiy tayyorgarlikdan o`tib ketuvchi bloki – o`z kasbi bo`yicha yangi texnika va texnologiyalar haqida ma`lumotlar yangi texnika va texnologiyalarda ishlashi uchun ishchi-xodimlar, mutaxassislar tayyorlashda muhimdir. Mazkur blok bo`yicha o`qitish biror firma tomonidan uning iltimosiga ko`ra o`quv dasturiga kiritilishi mumkin.

Biz asosiy va qo`shimcha bloklarni ko`rib chiqdik. Shular asosida uzluksiz kasbiy ta`limda kasbiy ta`lim mazmuni quriladi. Uzluksiz kasbiy ta`lim yaxlitligini tuzish uchun bloklarga ijtimoiy-iqtisodiy darajadagi bloklarni kiritish mumkin.

Ularga «Kompyuter asoslari», «Bozor iqtisodiyoti va kichik biznes», «Huquq asoslari» kabi bloklar asosiy tuzilma elementi hisoblanadi. Ular yordamida ta`lim mazmuni ham shakllanadi. Masalan, boshlang`ich kasbiy ta`lim mazmunidagi ko`pgina kasblarni egallash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunday mutaxassislik boshlang`ich darajada egallanadi.

Yuqori darajadagi o`qitish mazmuni tuzilgandan keyin (standart, modul-blok o`quv dasturi kasbiy ta`lim uchun ta`lim berish muassasalari yoki bo`lmasa kishilarning bandlikka o`qitish bloki modul o`quv dasturi) modulli birliklar mazmuni ochib beriladi (fan, fan doirasi, amaliy mashg`ulot turlari va mehnat).

Fandan oldin o`quv predmeti dasturini o`zlashtirish uchun kiritilgan obyektlar, hodisalar va faoliyat uslublari «o`quv elementi» degan umumiy atama bilan ifodalab olamiz. Har qanday o`quv dasturi o`quv elementlardan iborat bo`ladi. O`quv elementlari 2 guruhga taqsimlanadi.

Tolipov¹O`.Q., Barakayev M., Sharipov Sh.S. Kasbiy pedagogika. (Ma`ruzalar matni). – T.: TDIU, 2001.

Birinchi guruhda o`quv jarayonida obyekt va predmet faoliyat uslublari ko`rib chiqiladi.

Ikkinchi guruhda – hamma ko`rsatkichlar kiritilib, ular yordamida obyekt va jarayonlarning afzalliklari ochib beriladi, ular o`quv elementi deb nomlanadi.

Yirik o`quv elementi mazmuni, asosiy o`quv elementi, bo`g`inli o`quv elementi, eng asosiy o`quv elementlari orqali ochib beriladi.

15.4. Mikrodarajadagi o`qitish mazmunining tuzilmasi

**Mikrodarajadagi o`qitish mazmunining tuzilmasi uchun** «Badiiy loyihalash asoslari» fanini misol qilishimiz mumkin. Umumiy kasbiy blokka kiruvchi – yakka tartibda kiyim tikish, mavzuli rejaga mos keluvchi mavzular o`quv elementlari asoslari, ya'ni;

- figurali chizish
- siluet shakllarini tuzish
- kiyimlarni badiiy loyihalashda – kiyimlar qismlari
- jurnallarga qarab kiyim modellarini chizish
- ranglar asosi
- kostyumni badiiy loyihalash va hokazolar.

Kiyimlarni badiiy loyihalashda – kiyimlar detallari o`quv elementlari orqali ochib beriladi – taqilma turlari, yoqa turlari, adiplar turlari, eng turlari, cho`ntak turlari, ularni bezash va hokazo.

Shunday qilib, mikro darajadagi o`qitishda ichki tartibdagi modulning mazmuni amaliy ish orqali ochib beriladi. Mikrodarajadagi tuzilma o`quv kurslari mazmunini ishlab chiqishga yordam beradi.

Qisqa xulosa

Ushbu mavzuda o`quv yuklamalari hajmiga qo`yiladigan talablar, ta'lim standartlari, kasb-hunar ta'limi dasturi, kadrlar tayyorlashga qo`yiladigan talablar, pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'lim mazmuni tuzilmasining modul darajasi, mikro va makro darajadagi o`qitish kabilar bo`yicha qator ma'lumotlar berilgan. Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib, oliy va o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti ishlab chiqiladi. O`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tarmoqli standarti – malaka talablariga mos holda kasbiy tavsifnoma asosida muayyan tayyorlov yo`nalishi va kasb-hunar bo`yicha ta'lim mazmunining zarur va etarli hajmi va so`nggi maqsadlarini, o`quv yuklamalari hajmini aniqlovchi hamda ta'lim sifatining standart talablariga muvofiqligini ta'minlovchi me'yoriy hujjat hisoblanadi. SHuningdek, unda DTSga oid fikrlar bayon qilingan.

O`z-o`zini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti haqida fikr bildiring?
2. Kasb pedagogikasida ta'lim mazmuniga nimalar kiradi?
3. Ta'lim mazmuni tuzilmasini makro darajasi nima bilan izohlanadi?
4. Mikro darajadagi o`qitish mazmunining tuzilmasi nima bilan belgilanadi?
5. Kasb-hunar ta'limi dasturi haqida so`zlab bering?

6. Kasb pedagogikasining mazmuni va asosiy belgilari nimalardan iborat?
7. Kasb ta'limi mazmuniga qo'yiladigan talablarni so'zlab bering?
8. O'qitish dasturlariga nimalar kiradi?

16 –mavzu. Kasbiy pedagogikada ta'lim metodlari

Reja:

- 16.1. Kasbiy ta'lim metodlari va ularning umumiy tavsifnomasi.
- 16.2. Nazariy ta'lim va ishlab chiqarish ta'lim metodlari.
- 16.3. Ishlab chiqarish jarayonida faollik metodi.
- 16.4. O'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish.
- 16.5. Ta'lim metodlarini tanlash. Ta'lim oluvchilarni tanlash mezon.

16.1. Kasbiy ta'lim metodlari va ularning umumiy tavsifnomasi

Ta'limning asosiy maqsadi - zamonaviy ilmiy bilimlarni egallagan, mustaqil fikrlash va muammolarni echish imkoniyatiga ega bo'lgan ma'naviy jihatdan boy shaxslarni shakllantirishdir. Jamiyat rivojlanar ekan, hayotiy talablarning darajasi ham ortib boradi. Demak, ilmiy bilimlarning hajmi kengayib, ilmiylik darajasi chuqurlashib borar ekan, mantiqiy fikrlash va muammolarni tezda hal etishga bo'lgan talab ham kuchayib boradi. Bu fikrdan kelib chiqqan holda ta'lim tizimi nafaqat bugungi kun talabini balki kelajak talablarini aniqlagan va hisobga olgan holda ish olib borishi kerak degan xulosaga kelamiz. Chunki, bugungi kun talablari kelajakda jamiyatning asosiy o'zagiga aylanadi. Demak, ta'lim tizimi talabalarni bugungi kundagi hayotga emas, balki kelajakdagi hayotga tayyorlashi lozim. Bu ham ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Ta'lim – maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir. Ta'lim jarayoni o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tamonlama xarakterga ega. O'qituvchining faoliyati tufayli ta'lim puxta o'ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida olib boriladigan jarayonga aylanib, kutilgan natijani beradi. Ta'lim jarayonining mazmunini bilim, ko'nikma va malaka tashqil qiladi.

Kasb ta'limi metodlari deganda - o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning birgalikda bajaradigan faoliyat usullari tushuniladi va bu usullar ta'lim oluvchilarning texnik-texnologik bilimlarni, ko'nikma va malakalarni egallashlariga, mustaqil ravishda bilim olish va bu bilimlardan amalda foydalanish qobiliyatini oshirishga qaratilgan bo'ladi.

Xalq ta'limi vazirligi, pedagogika ilmiy tadqiqot instituti, metodist pedagoglarning, xususan pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biri - ta'lim-tarbiyadagi muammolarni, mahalliy va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqish, barcha o'quv fanlari bo'yicha yangi milliy dasturlar yaratish, ta'limni pog'onlash, dars jarayonini toifalashdan iboratdir.

Shu munosabat bilan yaqin o'tmishdagi o'zbek o'quv muassasasilari o'qitish tarixiga bir nazar tashlash ayni paytda ta'lim metodlarini o'rganishni osonlashtiradi. Shubhasiz, mazkur ta'lim metodikasi tarixiga oid manba muayyan darajada

ta'limning metodik bo'shliqlarini ma'naviy jihatdan to'ldiradi, pedagog tarbiyachilarning pedagogik meros va xalq pedagogikasiga bo'lgan katta ehtiyoj va qiziqishlarini qondiradi.

Ta'lim berishda o'qitish metodlari asosiy o'rinni egallaydi. **Metod**-yunoncha atama bo'lib, usul, yo'l degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Metodlar (usullar) har qanday axborotni (maqsadni) uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab quyidagi sinflarga ajratiladi:

- so'z orqali ifodalanadigan metod;
- ko'rgazmali metod;
- amaliy metod.

Ta'lim jarayonida talabalarni o'zlashtirish, fikrlash jarayonini tashkil etish bo'yicha esa quyidagi metodlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- o'qitishning ma'ruza (suhbat) metodi;
- o'qitishning amaliy ishlar metodi;
- laboratoriya ishlari metodi;
- mustaqil ishlar metodi;
- reproduktiv-evristik metod;
- ilmiy-tadqiqot metodi;
- o'qitishning muammoli-izlanish metodi;
- o'qitishning induktiv va diduktiv metodi.

Axborotni so'z orqali etkazish va qabul qilishga qaratilgan birinchi guruh metodlariga: Hikoya, suhbat, ma'ruza kabilarni kiritish mumkin.

Nutq madaniyatini o'stirishda hikoyaning o'qitish va fikrlarni bayon qilish metodi sifatidagi imkoniyatlari boshqa metodlarga nisbatan yuqoridir.

Hikoya qilish - pedagog tomonidan yangi o'tilayotgan mavzuga oid fakt, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon etiladi. Bu metod materiallarni bayon qilishda, obrazlarga xarakteristika berishda, tabiat hodisalari va ijtimoiy hayotdagi voqealarni tasvirlashda qo'l keladi.

Hikoya qilish davomida talabalar passiv tinglovchi bo'lib qolishlariga yo'l qo'ymaslik kerak. Talabalarning diqqatini tasvirlanayotgan obyektga qaratibgina qolmay balki xuddi shu obyekt haqida ular ongli va faol fikr yuritishlarini ham ta'minlamoq lozim.

O'quv materialini tushuntirish - pedagog tomonidan o'rganilayotgan mavzuning narsa, hodisa va voqealarning mazmunini xarakterlaydigan tushuncha, qonun va qoidalarni uqtirishdir. Bu metod ko'proq matematika, fizika, ximiya, ona tili, rus tili va shunga o'xshash fanlarni o'qitishda qo'l keladi. Pedagogning ma'lum bir fanning u yoki bu mavzuga oid qonun, qoidalarni qanchalik asosli ekanligini faktlar, misol va dalillar keltirish, shuningdek, masalalar, misollar ishlash yo'li bilan isbotlab beradi.

Bu jarayonga talabalarning faol ishtirok etishlarini ta'minlamay turib, kutilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. Ayniqsa bayon qilinayotgan materiallarini umumlashtirish va xulosalar chiqarishda talabalarning o'z mulohazalari bilan ishtirok etishlarini ta'minlash muhim.

Ma'ruza metodi. Bu metod o'quv materiali hajmining kattaligini, mantiqiy tuzilishi, obrazlari isbot va umumlashtirishning anchagina murakkabligi bilan farqlanadi. Agar hikoya darsning bir qisminigina egallasa, ma'ruza odatda ularni to'la qamrab oladi. Ma'ruza davomida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, mavzuga oid ko'rgazmali materiallarni namoyish etish, ma'ruza oxirida umumiy xulosalar chiqarish kabilar samaradorlikni oshiradi. Ma'ruza metodi keng qamrovli axborotni talabalarga etkazishda g'oyatda qo'l keladi.

Suhbat. Bu metod asosan savol-javob yo'sinida olib boriladi. Suhbatlarning ma'lum maqsadga qaratilganligi ularning xarakterini belgilaydi. Suhbat evristik, etik, instruktiv metodik xarakterda bo'lishi mumkin.

Suhbat metodi talabalarning faol ishtiroki orqali o'tkazilganligi uchun ularda ham mustaqil fikrlash, xulosalash kabi xislatlarni shakllantiradi. Mashg'ulotlarni tashkil qilish va uni olib borish jarayonida pedagog suhbat metodidan foydalanganda quyidagi shartlarga amal qilishi kerak.

O'qitishning ko'rgazmali metodlari

O'qitish jarayonida ko'rgazmalilik metodidan foydalanishning muhimligi o'rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushohada qilishga talabani undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilish va nihoyat, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgata bilishdadir.

O'qitishning amaliy ishlar metodi.

Amaliy metodlarga masalalar echish, chizmalar tayyorlash, yozma mashqlarni bajarish kabilarni kiritish mumkin. Nazariy jihatdan egallangan bilimlar amalda qo'llab ko'riladi. Grafik jadval, kartalar chizish ham tegishli ko'nikma va malakalarni hosil qilishga va ularni mustahkamlashga yordam beradi.

Laboratoriya ishlari metodi.

Laboratoriya mashqlari frontal tajribalar, laboratoriya ishlari, praktikumlar o'qitishning texnik vositalari va o'quv qurollari tipidagi boshqa asbob-uskunalar bilan mashg'ulotlar tarzida o'tkaziladi. Laboratoriya metodining boshqa o'qitish metodlaridan farqi, shundaki, bu metod bilan ish qo'rilganda har qaysi talaba nimanidir mustaqil, shaxsan tajriba qilib kuradi. Dars pedagog rahbarligida talabalarning mustaqil tajriba o'tkazishlariga qaratilgan bo'ladi. Laboratoriya mashg'ulotlarida mustaqillik, faollik, tashabbuskorlik oshadi.

Mustaqil ishlar metodi.

Keyingi davrda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishga katta e'tibor berilmoqda. Chunki bu metod talabada ijodkorlikni, mustakillikni rivojlantiradi. O'quv dasturlarida mustaqil ta'lim uchun soatlar ajratilmoqda. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda ma'lum fanning xususiyatidan kelib chiqib mustaqil ishning mazmuni, shakli va vazifalari tanlab olinadi. Topshirilgan mustaqil ishni bajarish uchun pedagog kerakli adabiyotlar va yo'l-yo'riqlarni ko'rsatishi, qisqacha tushuntirish berishi lozim. Talaba bajarishi kerak bo'lgan mustaqil ish ko'p vaqt egallamasligi va shu bilan bir qatorda talabaga rivojlantiruvchi sifatida ta'sir ko'rsatishi kerak.

Reproduktiv, evristik metod.

Reproduktiv metodlar birinchi navbatda talabalarning o'quv materialini tezroq va mustahkamroq eslab qolishlarini ta'minlash bilimdagi tipik kamchiliklarni tez

aniqlash uchun qulay. Reproduktiv metodlar ayniqsa o`quv materialining mazmuni asosan axborot xarakterida bo`lsa, murakkab va butunlay yangi bilimlar o`rganilishi lozim bo`lgan holatda samarali natija beradi. Tafakkurning reproduktivlik xarakteri pedagog yoki boshqa manba orqali xabar qilinadigan o`quv axborotlarini faolroq qilishini va eslab qolinishini nazarda tutadi. Hikoya, ma`ruza, ko`rgazmalilik va amaliy ishlar ham reproduktiv asosga qurilishi mumkin. Reproduktiv xarakterdagi amaliy ishlar shunisi bilan farq qiladiki, bu ishlarning davomida talabalar namunaga ko`ra ilgari yoki yaqindagina o`zlashtirgan faolligini oshirish maqsadida ular ko`pincha evristik ya`ni qisman izlanuvchan metod bilan qo`shib olib borilishi mumkin. Yangi mavzuni bayoni davomida o`rganilayotgan materialning ba`zi elementlari ustida talabalarga fikr yuritish imkoni beriladi. Pedagog tomonidan engil qisqa savollar tuzilib, talabalarning ishtirokida ularga javob topishga harakat qilinadi. Evristik metod talabalarning bilish darajasini aniqlashga ham yordam beradi. Demak, evristik metod yangi mavzuni idrok qilishda talabalarning ham qisman ishtirok etishini ta`minlaydi.

Ilmiy tadqiqot metodi.

Bu metod ta`lim tizimida unchalik keng tarqalmagan metod bo`lib, ma`lum tayyorgarlikni talab etadi. Pedagog rahbarligida talabalar yoki bir talaba ma`lum ilmiy tadqiqotlarni o`tkazishi va ma`lum fan uchun yangi xulosalarni yasashi mana shu metodni qo`llash jarayonida vujudga keladi. Bu metod asosan ta`lim muassasalarida qo`llaniladi. Bu metod davomida ilmiy bilish jarayoni sodir bo`ladi, ya`ni hali noma`lum bo`lgan bilimlar kashf etiladi va egallanadi. Buning uchun ilmiy tadqiqot rejasi tuziladi. Maqsad belgilanadi va tadqiqot usullari tanlab olinadi. Tadqiqot natijalari asosida xulosalar yasaladi.

O`qitishning muammoli-izlanish metodi.

Yangi mavzuni o`rganish jarayoni o`rganilayotgan materialni tayyor holda talabalarga bayon etmasdan, balki muammo sifatida taqdim etish muammo-izlanish metodini keltirib chiqaradi. Ya`ni dars davomida yasash kerak bo`lgan xulosalar pedagog tomonidan emas, balki talaba tomonidan yasalishiga harakat qilinadi. Har bir talaba qo`yilgan muammoga o`ziga xos yondashib uni hal etishga harakat qiladi va o`z fikrlarini bayon etadi. O`rtaga tashlangan fikrlar muhokama qilinadi va pedagog tomonidan yo`naltiriladi. Pedagog va talabalar birgalikda xulosalar yasashadi. Muammoli-izlanish metodi talabalarni bilish faoliyatini faollashtiradi, mustaqillikka, ijod qilishga o`rgatadi, o`qishga bo`lgan qiziqishlarini oshiradi, shaxsiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Bu metodda o`rganilayotgan masala chuqur tahlil etilishi va bilimlarning puxta bo`lishiga yordam beradi. Bu metod o`rganilayotgan masalani chuqur tahlil etishga va bilimlarning tafakkur darajasi hisobga olinishi kerak. Tanlangan mavzuni tahlil etish uchun talabalarda ma`lum bilimlar bazasi mavjud bo`lishi lozim. Shu tufayli ham bu metodni qo`llash uchun talabalar alohida axborotlar bilan qurollantiriladi. Keyingi davrlarda muammoli-izlanish metodidan foydalanishga alohida e`tibor berilmoqda.

O`qitishning induktiv va deduktiv metodi.

O`qitishning mantiqiy metodlari ikki turda: Induktiv va deduktiv metodlar bilan olib borilishi mumkin.

Darslarga tayyorlanish jarayonida o`qitishning induktiv, deduktiv kabi metodlarini tanlash zarurati ham tug`iladi. Keyingi davrlarda deduktiv o`qitishga talab va e`tibor kuchaydi. Ammo tafakkurning induktiv usullarini shakllantirmay turib faqat tabiiy-ilmiy emas, balki umum mehnat xarakteridagi tajribalar amaliy faoliyatida ham muvaffaqiyatga erishishga umid qilib bo`lmaydi. Induktiv yoki deduktiv metodlarni qo`llash o`rganilayotgan mavzu mazmunini ochishning ma`lum mantiqiy-xususiyydan umumiyga yoki umumiydan xususiyyga o`tishni tanlashni anglatadi.

Induktiv metodlar texnik qurilmalarni o`rganishda va amaliy topshiriqlarni bajarishda keng qo`llaniladi. Matematika va fizikaga doir ko`pgina masalalar, ayniqsa pedagog talabalarni ayrim umumiyroq formulalarni mustaqil egallashlariga olib kelishi zarur deb hisoblangan hollarda, induktiv metod vositasida echiladi.

Deduktiv metoddan foydalanganda pedagog va talabaning faoliyatida avval umumiy holat, formula va qonuni beriladi, so`ngra asta-sekin ayrim holatlarni chiqarib aniqroq vazifalarni hal etish nazarda tutiladi.

Deduktiv metod o`quv materialini tezroq o`tishga yordam beradi, abstrakt tafakkurni faolroq rivojlantiradi. Nazariy materialni o`rganishda, anchagina umumiyroq holatlarning ayrim oqibatlarini aniqlashni talab qiluvchi masalalarni echishda deduktiv metodni qo`llash ayniqsa foydalidir.

16.2. Nazariy ta`lim va ishlab chiqarish ta`lim metodlari

Pedagogik amaliyotda quyidagi metodlar – og`zaki metod (og`zaki bayon, tushuntirish, suhbat), kitob bilan ishlash (instruktiv materiallar), ko`rgazmali metod (ko`rgazmalar, kino, videofil`m, kuzatuv), amaliy metod (mashqlar, laboratoriya, amaliy ishlar) lardan keng foydalaniladi.

Didaktik vazifalarga bog`liq holda quyidagi metodlar qo`llaniladi – bilimlarni hosil qilish, ko`nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarni qo`llash, mustahkamlash, bilim, ko`nikma va malakalarni tekshirish.

Ta`lim oluvchilarning o`quv faoliyatiga mos ravishda ikki metod ajratiladi va ular 2 guruhga birlashtiriladi: reproduktiv va muammoli izlanish metodlari.

O`qitishning *reproduktiv va muammoli-izlanish metodlari* eng avvalo, o`quvchi-talabalarining yangi tushuncha, hodisa va qonunlarni bilishdagi ijodiy faolliklari darajasini baholash asosida qismlarga ajratiladi.

Reproduktiv metodlar birinchi navbatda, o`quvchi-talabalarining o`quv materiallarini mustahkamroq eslab qolishlarini ta`minlash, bilishga doir faoliyatni bevosita boshqarish, kamchiliklarni tez aniqlash uchun amaliy ko`nikma va malakalarni tarkib toptirish maqsadida qo`llaniladi.

Hikoya qilish usuli reproduktiv tuzilganda o`qituvchi qoidalarni, dalillarni, tushunchalarning ta`rifini tayyor holda beradi, u asosiy e`tiborini mustahkam o`zlashtirib olinishi zarur bo`lgan asosiy tomonlarga qaratadi.

Ma`ruza ham xuddi shunday tarzda tuziladi: o`qituvchi muayyan ilmiy ma`lumotlarni bayon qiladi, doskaga tegishli yozuvlarni bitadi, tinglovchilar esa ularni qisqacha yozib oladilar.

*Muammoli ta`lim deyilganda*, o`quv materialini o`quvchi-talabalar ongida ilmiy izlanishga o`xshash bilish vazifalari va muammolari paydo bo`ladigan qilib

o`rganish tushuniladi. O`quvchi-talabanning fikrlash faoliyatida mantiqiy to`g`ri, ilmiy xulosalarni izlash va o`zlashtirishga rag`batlantiradigan muammoli vaziyatlar yuzaga keladi. Paydo bo`layotgan muammoni hal qilish uchun, u o`rganilayotgan qoidalarni to`g`ri tushunib olishga intiladi.

Ta`lim metodini 3 ta asosiy guruhga bo`lishimiz mumkin:

1. O`quv bilish va o`quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodi.
2. O`quv faoliyatiga qiziqtirish va rag`batlantirish metodi.
3. Ta`lim oluvchilar o`quv faoliyati samaradorligini nazorat qilish va o`z-o`zini nazorat qilish metodi.

Metodlarning har bir turi guruhlarga bo`linadi va o`z navbatida ularning ham alohida metodlari bor, bular esa ta`lim jarayonining quroli hisoblanadi.

O`quv bilish va o`quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodiga quyidagilar – suhbat, ko`rgazmali va amaliy metod, o`qituvchi boshchiligidagi induktiv yoki deduktiv, reproduktiv yoki produktiv yo`nalishlardagi metodlar kiradi.

O`quv faoliyatiga qiziqtirish va rag`batlantirish metodiga – o`quv bilish va o`quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish hamda o`qish faoliyatiga qiziqtirish metodlari kiritilgan.

Har bir metod boshqa bir metod yordamida qo`llaniladi. Masalan, reproduktiv va muammoli izlanish metodi suhbat, ko`rgazmalar, amaliy faoliyat yordamida qo`llaniladi. Shu navbatda suhbat, ko`rgazmali va amaliy faoliyat metodlari ham reproduktiv yoki izlanish metodlari orqali qo`llanilishi mumkin.

Hayotiy o`quv jarayonida esa eng muhimi bu metodlarni turlarga bo`lish emas, balki o`qituvchining chuqur bilimga ega bo`lishi, metodlardan unumli foydalana olishi, ta`lim oluvchilarga o`quv ishlab chiqarish, o`quv faoliyatida metodlarni to`g`ri qo`llay olishga o`rgatishdir.

O`quv muassasalarida boshlang`ich kasbiy ta`limni o`qitishning nazariy qismi quyidagi fanlarni 3 ta Siklini tashkil qiladi: umumiy ta`lim, umumiy texnik ta`lim va kasbiy ta`lim.¹

Umumiy ta`lim fanlari bo`yicha ta`lim metodining umum didaktik, xususiy didaktik va xususiy metodik aspektlari pedagogik adabiyotlarda chuqur bayon qilib berilgan.

Umumtexnika va kasbiy fanlarni o`qitish metodlari ko`pincha o`ziga xos mazmunga ko`ra aniqlanadi:

- ko`p komponentli tuzilma, obyektlarni turli xil yo`nalishlarda o`rganish;
- ta`lim oluvchilarning ishlab chiqarish ta`limi bilan o`zaro bog`liqligi;
- materialning keng qamrovliligi, tajribaviy izlanish soni va sifati jihatidan, xizmat ko`rsatish usullarini amaliy o`rganish;
- o`quv materiali mazmuniga yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, mahalliy shart-sharoitni aks ettirish.

Ta`lim metodlarida bularni inobatga olish zarur.

1. *Ta`lim oluvchilarni o`quv bilish faoliyatini tashkil qilish metodi.*

¹ Tolipov O`.Q. va boshqalar. Kasbiy pedagogika (Ma`ruzalar matni). – T.: TDIU, 2001.

Suhbat metodi. Ogʻzaki bayon. Umumtexnika va kasbiy fanlarni oʻrganish jarayoni oʻquv materialini ogʻzaki bayonini gapirib berish va tushuntirish orqali amalga oshiriladi, bunda mavzu toʻliq taqqoslanadi, isbotlanib, misollar bilan tushuntiriladi.

Bayon qilinayotgan material taʼlim oluvchilarning tushunishi uchun qiyin boʻlgan, yangi maʼlumotlar xabar qilingan, mehnat usullarini bajarish yoʻllarini tushuntirib berish talab qilingan hollarda ogʻzaki bayon qilish metodidan foydalaniladi.

Umumiy talablardan quyidagilarni ajratib olamiz:

- ilmiy-texnik aniq mazmun;
- mantiqiy tuzilishi va ketma-ketligi;
- taʼlim oluvchilarga tushunarli va oson etib boradigan;
 - har bir bosqichda fikrning aniq va ravshanligi;
 - taʼlim oluvchilarning eʼtiborliligi, faolligini oshirish.

Suhbat – bu kasb taʼlimining shunday usulidirki, unda oʻqituvchi toʻgʻri qoʻyilgan savollar yordamida taʼlim oluvchilarda ilgari oʻzlashtirilgan bilimlarni hosil qilib esga tushiradi va shu asosda mustaqil ravishda yangi bilimlar hosil qilishga undaydi.

Taʼlim oluvchilarning oʻquv-bilish faoliyatini tashkil qilish va boshqarish savol-javob metodi orqali amalga oshiriladi. Bunday suhbat *evristik suhbat* deyiladi.

Umumiy oʻtkazilgan suhbatlar taʼlim oluvchilarni qiziqishini, diqqatini oshirishga, bilimlarni yaxshi egallashga olib keladi. Lekin suhbat metodi ogʻzaki bayon metodidan koʻra murakkabroqdir, yaʼni oʻqituvchidan darsga puxta tayyorlanishni talab qiladi.

Kasbiy fanlarni oʻrganishda evristik suhbatning quyidagi shartlarini koʻrsatish mumkin:

- oʻquv materialining mazmuni mantiqiy toʻgʻri tuzilgan boʻlishi shart;
- yangi oʻquv materialini oʻrganishda koʻproq texnik va texnologik hujjatlarni muhokama qilishga qaratish kerak;
- suhbatni boshqa metodlar va oʻquv ishlari turlari bilan birga oʻtkazish kerak (tushuntirish, kitob bilan ishlash, kuzatuv).

Evristik suhbatda savollar keng qamrovli tuzilgan boʻlishi lozim.

Ushbu oʻrinda quyidagi savollarni koʻrsatish mumkin:

1. Fanlarni qarama-qarshi qoʻyish (uning koʻrinishini, jarayonini, dalillarini va boshqalarni);
2. Har xil holatga tushib qolganda ham bilimlaridan foydalana olishni aniqlash;
3. Sababini tashxisli tushuntirish;
4. Isbotlash «ha» yoki «qarshi» ga dalil keltirish;
5. Fanlararo bogʻliqlikni oʻrnatish.

Suhbat oʻtkazishda uning mantiqiy rejasiga qatʼiy rioya qilish kerak, savol-javoblarning ketma-ketligi shunday tuzilgan boʻlishi kerakki, unda mavzu murakkablashib, rivojlanib borishini taʼlim oluvchi sezishi lozim. Oʻqituvchi suhbatni xulosa qilib tugatishi kerak.

Kitob bilan ishlash: tez oʻqitish, konspekt olish, reja tuzish, misollar muhokamasi, nazorat savollariga javob berish va hokazolar.

2. Ko'rgazmali metod

Insonning tashqi olamni sezishining eng muhim organi – ko'zdir. Olimlarning fikricha, 80% informatsiya ko'z orqali tushadi, 80% ish operatsiyalari ko'z orqali qilinadi. Mana shulardan ko'rishimiz mumkinki, ta'lim jarayonida ko'rgazmali metod katta ahamiyatga ega.

Umumtexnik va kasb ta'limi fanlari bo'yicha ko'rgazmali metodlar, tabiiy (asbob, dastgoh, detall, jihoz, material namunalari) va tasviriy (plakatlar, model, maket, sxema, kino-videofil'm, kino proektsiya, kompyuter, multimedia). O'qituvchi mavzuni tushuntirishda ko'rgazma sifatida yoki bir xil hollarda o'rganilayotgan fan bo'yicha aniq ko'rgazma sifatida, yangi axborotlarni berishda ko'rgazmali metodlar juda qulaydir.

3. Amaliy metod.

Mashq amaliy metodning asosi hisoblanadi. Mashq o'tkazishning asosiy maqsadi o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilar texnika va kasbiy fanlar bo'yicha egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishni o'rgatishdir. Ta'lim oluvchilarning bilimlarni mustahkamlashda ham mashqlarning o'рни kattadir. Hamma mashqlarni 3 ta asosiy tipga keltirish mumkin: reproduktiv, badiiy, izlanuvchanlik.

Reproduktiv mashq - bu tipdagi mashqlarni bajarishda ta'lim oluvchilar qurilmaning tuzilishi, materiali, asbob-uskunalar, yozma vazifalarni o'rganishadi. Reprodukativ mashqda chizmalar, sxemalar, grafiklar, diagrammalar muhokama qilinadi va ta'lim oluvchilar ularni bajarishadi. Kasbiy fanlar bo'yicha esa texnik hujjatlar, stanok pasportlarining texnologik kartalari o'rganilishi mumkin.

Badiiy mashq - bu turdagi mashqlarni bajarishda ta'lim oluvchilar egallagan bilim va malakalaridan turli xil kombinahiyalarda foydalanishadi, ya'ni oldiga qo'yilgan vazifalarning mustaqil original javoblarini topishadi. Badiiy mashq turlaridan biri produktiv masalalarni hal qilish: tanlash (asbob, ishlov berish turi, sozlovchi mexanizm), taqqoslash va baholash (ishni bajarish yo'li, asboblarning qo'llanilishi) aniqlashga bog'liq bo'lgan (texnik talab, aloqadorlik), turli xil texnik jarayonlarni tushuntirishdan iborat. Bu turdagi mashqlar orqali o'rganilayotgan mashina, mexanizm, qurilmalarning sxemalari tuziladi.

Izlanish mashqi – bu ham egallangan bilimlarni mashqlarda badiiy qo'llash bo'lib, ta'lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirishga yordam beradi.

16.3. Ishlab chiqarish jarayonida faollik metodi

Hozirgi kunda ilmiy va amaliy pedagogikada ta'lim metodlari katta ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim oluvchilarning ichki va tashqi faolligini oshirish uchun turli xil o'yinlardan foydalaniladi. Bulardan eng ko'p qo'llaniladigani – didaktik o'yinlardir.

Kasb ta'limidagi didaktik o'yinlar: «texnik diktant», kichik konkurslar, «kim epchil-u, kim chaqqon», «texnik kurashlar», «savollar», «texnik loto», «texnik domino» va hokazolar.

Ta'limning faollik metodiga seminar darslari ham kiradi. U uch bosqichdan iborat: seminar bo'yicha o'qituvchining ma'ruzasi, ta'lim oluvchilar seminar bo'yicha mustaqil uy vazifalarini tayyorlab kelishi va seminarlarni o'tkazishi. Bunda ta'lim oluvchi tayyorlab kelgan matnlari va ko'rgazmali qurollari, asboblari va jihozlardan foydalangan holda tushuntirib beradi.

Kasbiy ta'lim muassasalarida amaliy ishlarda interfaol darslar ham keng qo'llanilmoqda. Bu darslarda ikki yoki bir necha fanlarning mavzulari o'rtasidagi aloqadorlik o'rganiladi. Masalan, matematika va informatika, fizika va ximiya, kasbiy texnologiya va ishlab chiqarish ta'limi va boshqalar.

Ta'lim oluvchilarning o'quv bilish faoliyati faolligi darsdan tashqari ishlarda texnik kashfiyotchiligini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Darsdan tashqari ishlar – kasbiy ta'lim ustasi tanlovlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, rasionalizatorlar va kashfiyotchilar bilan uchrashuv, ilm-fan namoyandalari, texnik olimlar bilan uchrashuvlar, namunali ishlar ko'rgazmasi, texnik to'garaklar orqali amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish ta'limining asosiy maqsadi – ta'lim oluvchilarda aniq bir kasb, soha bo'yicha ustachilikni shakllantirishdir. Ishlab chiqarish ta'limida bu asosiy maqsadga bosqichma-bosqich erishiladi. Quyida «kasb ustasi» tushunchasini ochib beruvchi mezon ko'rsatkichlari keltirilgan:

- Bajarilayotgan ishning sifati – texnik talablarni bajarish, me'yor va ko'rsatkichlarga mos kelishi, ijobiy natijalar olish;
- Mehnatni tashkil qilish – belgilangan vaqtda bajarish, vaqtdan unumli foydalanish, ish vaqtida tejamkorlik;
- Kasbiy mustaqillik – mustaqil ish turini tanlashni bilish, ishlab chiqarishning yuqori sifatini ta'minlash, to'g'ri xulosalar chiqarish, o'z-o'zini boshqarish, mehnat madaniyatiga amal qilish, ishni rejalashtirish, yangi texnika va texnologiya bilan ishlay olish, yuqori texnologik intizom, kasbiy bilimlarni ishda qo'llay bilish, mehnat faoliyatini va ish joyini to'g'ri tashkil qilish, mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.

O'quv ishlab chiqarish ishlarida faollik, ya'ni aqliy bilim katta rol o'ynaydi. Faollik ta'lim oluvchilar mustaqilligida va maqsadli faoliyat tanlashlarida va ularni ijobiy natijalarga olib kelish, mehnatni rejalashtirish, analiz va xatoliklarga yo'l qo'ymasligida namoyon bo'ladi. Ta'lim oluvchilarning o'quv ishlab chiqarish ta'limidagi faolligi – mashinalarni, agregatlarni ishlatishdagi qobiliyati, ichki jarayonni bilishi va qilingan tahlillar asosida maqsadli echimlarga kelishlarida ko'rinadi.

Ishlab chiqarish ta'limidagi «faollik» metodiga – ishlab chiqarishdagi texnik masalalarni echish kiradi: ishlov berish, tuzatish, boshqarish me'yori hisoblash, avtomatlashtirilgan jihozlar uchun boshqaruv dasturini ishlab chiqish, jadval, diagrammalardan kerakli ma'lumotlarni topish kabilar.

Ishlab chiqarish ta'limining «faollik» metodiga mashqlar ham kiradi. Mashqlar ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan masalalarni echish uchun qo'llaniladi. Bunday mashqlar ishlab chiqarish hayotida sodir bo'ladigan jarayonlarga ta'lim oluvchilarni tayyorlaydi. Mashqlarni o'tkazish uchun jarayon hosil qilish kerak bo'ladi. Misol uchun, agregatlarni sozlash, texnologik me'yorlarni buzilganligi, ish joyida buzilish holatlarining sodir bo'lishi kabilar.

16. 4. O`qitish jarayonida ta`lim oluvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini nazorat qilish

Ta`limda nazorat qilishning 2 turi mavjud. Birinchi – ta`lim oluvchilarning o`quv faoliyatini har xil kuzatish, ikkinchisi – ta`lim oluvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini tekshirishdan iborat.

Ko`nikma deganda shaxsning bilim olishi, elementar tajriba va malakaga tayanib biron ishni muvaffaqiyatli bajarish imkoniyati tushuniladi. Orttilgan bilimlar shaxs xatti-harakatining nazariy asosi hisoblanadi. Bilimlarga asoslanib xatti-harakatlarning ketma-ketligi, alohida bosqichlari fikran xayoldan o`tkaziladi. Elementar tajriba talablarida aynan biror faoliyat haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Biron kasb yoki faoliyat haqida tasavvurga ega bo`lishda elementar tajriba bilan birga boshqalarning tajribasini tasavvur qilish ahamiyat kasb etadi. Bu erda pedagogning shaxsiy namunasi, mutaxassis kadrlarning ilg`or tajribalari, yetuk olim ijodkorlarning ish jarayoni misol bo`la oladi.

Mehnat ko`nikmalarining shakllanishi jarayonida talabalar ko`rish yoki eshitish orqali faqat harakatlarning qanday bajarilishi haqida tasavvurga ega bo`ladilar. Bu faqat namuna, bajarilishi kerak bo`lgan ish haqdagi kirish instruktati hisoblanadi. Ko`nikmaning shakllanishi uchun talaba bu harakatlarni o`zi bajarib ko`rishi shart. Ta`limning turli bosqichlarida talabalar mehnat ko`nikmalarining darajasi har xil bo`ladi. Elementar ko`nikmalar asta-sekin murakkab ko`nikmalarga aylanadi, murakkab ko`nikmalar ko`p marta qaytarilishi yoki mashq qilinishi natijasida malakalar paydo bo`ladi.

Malaka – bilimlarga asoslanib mashq yordamida aylangan faoliyatning avtomatlashgan komponenti hisoblanadi. Malaka tez va aniq bajarish bilan bog`liq bo`lgan ko`nikmalarning avtomatlashgan elementlari sanaladi. Malakalar bajarilayotgan faoliyatning faqat mahorat tomonini, ya`ni ayrim harakatlarni ifodalaydi.

Mehnat ko`nikmalarining shakllanishi uchun faqat tafakkurning yoki aqliy faoliyatning o`zigina etarli emas. Talabalarda murakkab ko`nikmalarning, umumlashgan safarbar ko`nikmalarning shakllanishi uchun ular bevosita amaliy mehnat faoliyatida, uzoq payt mashq bajarishda qatnashishlari shart.

“Kasbiy pedagogika” fanini o`rganishda nazariy ta`lim jarayonida nazorat qilishning asosiy metodlari, ta`lim oluvchilarning bilimlarini og`zaki tekshirish, hamda yozma tekshirish, nazorat ishlari «texnik diktant»lar o`tkazish, texnik hujjatlarni muhokama qilish va boshqalar qo`llaniladi. Nazariy ta`limda ta`lim oluvchilarning bilimlarini amaliyotda qo`llay olishini nazorat qilish, sxemalarni yig`ish, o`lchash, mexanizmlarni tuzatish, buzilish sabablari kabi metodlar qo`llaniladi. Bu metodga yana laboratoriya – amaliy ishlar orqali tekshirishni ham kiritish mumkin.

Ishlab chiqarish ta`limi jarayonida ta`lim oluvchilarning o`quv ishlab chiqarishda bajargan va bajarayotgan nazorat qilishning asosiy metodlari: joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar hisoblanadi.

Tashxisli nazorat turlaridan biri – test o`tkazishdir. Test ikki usulda o`tkaziladi.

Birinchi usul – tashkil qiluvchi sifatida, dasturlashtirilgan ta'lim, nazorat va qayta aloqa tizimi.

Ikkinchi usul – mustaqil nazorat qilish metodi. Ishlab chiqarish ta'limida test mustaqil o'z-o'zini nazorat qilish metodi hisoblanadi. Ishlab chiqarish ta'limining har bir bosqichida testlar o'tkazish mumkin.

Pedagog va talabaning dasturli faoliyati ta'lim jarayonidan jamiki ortiq harakatlarni yo'qotishga, yuqori hamjihatlikni ta'minlashga va pirovard natijada – ko'zlangan yakuniy natijalarni qo'lga kiritishga intilishni ifodalaydi. Didaktik jarayonni loyihalashda pedagog «texnolog» sifatida faoliyat ko'rsatadi: har bir darsda ta'lim maqsadini aniq o'rnatishi, o'tilayotgan o'quv materiallarini mazmunan saralashda talabalarning o'zlashtirish faoliyati darajalarini, fanni bayon qilishning ilmiy tilini hisobga olishi lozim. Shuningdek, tashkiliy shakllarning mosini tanlab, belgilangan vaqt doirasida samarali didaktik jarayonni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich talabiga mos holda o'quv-bilish faoliyatini amalga oshirish uchun unga oldindan alohida tayyorgarlik ko'rish kerak bo'ladi. Umuman ta'lim jarayoniga oldindan ishlov bermasdan, yakuniy natijalarining ta'lim maqsadiga mos kelishini chamalamasdan, o'qitish davomida yuzaga keladigan noqulay holatlarga bog'liq holda boshqarish imkoniyatlarini hisobga olmasdan turib ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish mumkin emas.

Baholash joriy, oraliq va yakuniy nazoratni o'z ichiga oladi. Joriy nazorat uzluksiz qayta bog'lanishni ta'minlaydi va odatda baholashsiz o'tkaziladi, shuning uchun u bilimlarni shakllantirishda ishtirok etadi. Pedagogik texnologiyada qayta bog'lanish nafaqat o'qitish jarayonini tuzatib borish uchun, balki o'quv maqsadlarini aniqlashtirish uchun ham xizmat qilishadi. Yakuniy nazoratda rejalashtirilgan o'quv maqsadlariga erishganlik darajasi baholanadi.

Reyting nazorati og'zaki, yozma va test usulida bo'lishi mumkin:

1. Og'zaki va yozma nazorat.

Og'zaki nazoratning afzalliklariga shaxsiy munosabat, o'qituvchining talaba bilan jonli muloqoti, uning fikrlarini nutq shaklida ifodalashga mashq qildirish, bilimlarni yanada chuqurroq tekshirish maqsadida pedagog tomonidan qo'shimcha savollar berish imkoniyatlari kiradi. Pedagog tomonidan qo'yilgan savolga og'zaki javob berishga tayyorlanish doimo talabaning faol fikrlashi bilan bog'langan.

Og'zaki javob yaxshi tayyorlangan talabaga o'zining iqtidorini, qo'shimcha egallagan bilimlarini namoyish etishga imkon beradi. Bevosita muloqot tufayli pedagogda savol-javob davomida talabaning bilimlari to'g'risidagi barcha gumonlarni bartaraf etish imkoni bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda og'zaki nazoratda talabalar bilimlarini baholashda ma'lum darajada pedagog shaxsiyatining aks etishi namoyon bo'ladi. Har bir pedagogda talabalarning o'zlashtirish darajalarini baholashda doimo holis va shaxsiy munosabat bir vaqtning o'zida ro'yobga chiqadi.

Umuman olganda, talabaning yozma va og'zaki nazoratda olgan bahosi ba'zan holisona bo'lmaydi. Talabaning bahosi, odatda, nafaqat uning bilimlari darajasiga bog'liq bo'ladi. Bilimlarni baholash amaliyotida pedagoglar guruhning o'rtacha darajasini mo'ljalga oladi. Shuning uchun kuchsiz guruhlarda baholar odatda ko'tarilgan, kuchli guruhlarda pasaytirilgan bo'lib chiqadi.

Yozma nazorat o'quv materialini o'zlashtirish darajasini hujjatli tarzda o'rgatish imkonini beradi, shuningdek, talabaga o'z fikrlarini qog'ozda bayon qilish imkonini beradi. Ikki-uch mustaqil ekspertlarning ishlarini tekshirish uchun jalb qilish bilan o'tkaziladigan tashqi yozma nazorat aniq mezonlar bo'lgan taqdirda obyektiv bahoga yaqin baholashga imkon beradi. Ammo bilimlarni og'zaki va yozma nazorat qilishning an'anaviy usuli ma'lum kamchiliklarga ham ega:

- yakuniy nazoratda talaba berilgan biletning 3-4 savoliga javob beradi, baho esa butun o'quv fanini bilish uchun qo'yiladi;
- farq qilish qobiliyati kuchsiz bo'lgan 5 ballik shkala ishlatilgan;
- og'zaki va yozma nazorat har doim ham bilimlarni baholashning obyektivligini, aniqligini va ishonchliligini ta'minlamaydi;
- og'zaki so'rov ko'p o'quv vaqti sarflanishini talab qiladi, yozma ishlar pedagoglarning ularni tekshirishga ko'p mehnat sarflashlari bilan bog'liq.

2. Test (inglizcha–sinash) – bu biror-bir faoliyatni bajarish uchun ma'lum darajadagi bilimni egallashga qaratilgan topshiriqlardir. Testning to'g'ri bajarilganligini o'lchash va baholash maqsadida har bir testga ekspert metodi yordamida etalon ishlab chiqiladi. O'z etaloniga ega bo'lmagan har qanday test, odatdagidek, bajarilish sifati haqida sub'ektiv mulohaza yuritish evaziga xulosa chiqaruvchi nazorat topshirig'iga aylanib qoladi.

Test nazoratlari va uning afzalliklari:

- etarli tarzda tuzilgan pedagogik test natijalari nazorat o'tkazayotgan shaxsga bog'liq bo'lmagan holis pedagogik o'lchov quroli hisoblanadi;
- test o'quv mavzularining barcha asosiy mazmunini qamrab olishi mumkin, o'qitish natijalarini test usulida o'lchash barcha tekshiriluvchilarga baravar qo'llanadigan oldindan ishlab chiqilgan mezon asosida aniq va ishonchli baho beradi;
- test nazorati texnologiyalashuvchan bo'lib, u nisbatan qisqa vaqt ichida ma'lum o'quv mavzulari o'zlashtirilishining to'la nazoratini kam kuch va vositalar sarflagan holda o'tkazish imkonini beradi.
- test nazorati kompyuterlar yordamida oson avtomatlashtiriladi. Bu pedagogik test o'tkazishning asosiy afzalliklaridan biridir.

To'g'ri tashkil qilinganda pedagogik test talabalar bilimlarini holis baholash samarasini beradi, chunki bu baho uni qo'yayotgan odamga bog'liq bo'lmaydi. U barcha tekshiriluvchilarga bir xil qo'llanadigan qilib tuzilgan mezon bo'yicha to'g'ri echilgan test topshiriqlari foizi asosida aniqlanadi. SHuning uchun pedagogik test to'la asos bilan o'qitish natijalarini aniq va ishonchli baholashga imkon beradigan pedagogik o'lchov quroli deb ataladi. Ammo bunday baholash jarayoni faqat ilmiy talablarga rioya qilingan holda tuzilgan, tekshiriluvchan va me'yoriga etkazilgan sifatli test vositasidagina amalga oshirilishi mumkin.

Ta'lim jarayonida bilim, iqtidor va ko'nikmalar shakllanganligini nazorat qilish muhim o'rin egallaydi. O'tkazilgan tajribalarga va o'quv adabiyotlarida izohlangan ilg'or uslublarga asoslanib nazoratning mezoni va bajaradigan funksiyalarini quyidagicha belgilash mumkin:

1.Nazoratning diagnostik funksiyasi. Nazorat natijasida bilim, iqtidor va ko'nikmalarning shakllanganlik darajasi aniqlanadi.

2.Nazoratning talabalarda bilim olishga ishtiyoqini o`stirish funksiyasi. Nazorat natijasida talabalarda o`z bilim, iqtidor va ko`nikmalarini yanada takomillashtirish ehtiyoji uyg`onadi.

3.Nazorat jarayonida talabalarning shaxsiy xususiyatlari shakllantiriladi va eng asosiysi rivojlantiriladi. Rivojlanish o`quv faoliyati orqali, ya`ni nutq orqali amalga oshiriladi.

4.Nazorat jarayonida talabalar o`z bilimlarini mustahkamlaydi. O`quv materiali yanada chuqur o`zlashtiriladi, hodisalar o`rtasida yangi bog`lanishlar o`rnatiladi, shu bilan aqliy faoliyat yanada takomillashadi.

5.Nazoratning tarbiyaviy funksiyasi. Nazorat jarayonida talabalarning psixologik ijobiy xislatlari shakllanib bormog`i lozim.

6.Nazoratni baholash funksiyasi. Nazorat natijasida sifat o`zgarishlarining me`yori aniqlanadi.

7.Nazorat – ko`p qirrali murakkab jarayon. Nazorat talabalarda doimo jonli qiziqish, kuyunish, ayanch, xursandchilik hislarini uyg`otib, aqliy faoliyatni faollashtiradi. Yuqorida ko`rsatilgan funksiyalar bir-biriga uzviy bog`langan holda yuz beradi.

To`g`ri tashkil qilingan o`zini o`zi nazorat o`quv materialini o`zlashtirishga ijodiy va tanqidiy yondashish imkonini beradi. Bu ayniqsa yangi predmet o`rganilayotganida talabalarning bundan oldingi o`quv predmetlarida o`zlashtirilgan bilimlarga ega bo`lishligida ko`rinadi. Talabalar mustaqil ishlab etishmaydigan bilimlarini to`ldirib borsa yaxshi, ammo o`zini o`zi nazorat qila olmaydigan talabalarning yangi mavzuni o`zlashtirish jarayoni murakkab kechadi. Shuning uchun ham oliy o`quv yurtlarida ishlaydigan pedagoglar yangi predmet va yangi mavzuni boshlashdan oldin talabalarning yangi dasturni o`zlashtirishga tayyorlik darajasini aniqlash maqsadida dastlabki nazoratni amalga oshirishlari zarur bo`ladi.

16.4.Ta`lim metodlarini tanlash. Ta`lim oluvchilarni tanlash mezonlari

Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi, pedagogika ilmiy tadqiqot instituti, metodist pedagoglarning, xususan pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biri - ta`lim-tarbiyadagi muammolarni, mahalliy va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda qayta ko`rib chiqish, barcha o`quv fanlari bo`yicha yangi milliy dasturlar yaratish, ta`limni pog`onalash, dars jarayonini toifalashdan iboratdir.

Shu munosabat bilan yaqin o`tmishdagi o`zbek ukuv muassasasilari o`qitish tarixiga bir nazar tashlash ayni paytda ta`lim metodlarini o`rganishni osonlashtiradi. Shubhasiz, mazkur ta`lim metodikasi tarixiga oid manba muayyan darajada ta`limning metodik bo`shliqlarini ma`naviy jihatdan to`ldiradi, pedagog tarbiyachilarning pedagogik meros va xalq pedagogikasiga bo`lgan katta ehtiyoj va qiziqishlarini qondiradi.

Keyingi vaqtlarda taraqqiy etgan mamlakatlarning ukuv muassasasi sohasidagi yutuq va tajribalarini o`rganishga uni bizning sharoitimizga joriy etishga e`tibor kuchaydi. Shuningdek, xalq ta`limi ko`lamiga inqilobgacha bo`lgan o`qitish tartibining turlari (litsey) ham dadil kirib kelmokda. Bunga mamlakatimizda

akademik litseylarning ochilishini misol qilib keltirish mumkin.

Ta'lim berishda o'qitish metodlari asosiy o'rinni egallaydi. Metod-yunoncha atama bo'lib, usul, yo'l degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Metodlar (usullar) har qanday axborotni (maqsadni) uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab quyidagi sinflarga ajratiladi:

- So'z orqali ifodalanadigan metod.
- Ko'rgazmali metod.
- Amaliy metod.

Axborotni so'z orqali etkazish va qabul qilishga qaratilgan birinchi guruh metodlariga: Hikoya, suhbat, ma'ruza kabilarni kiritish mumkin.

Nutq madaniyatini o'stirishda hikoyaning o'qitish va fikrlarni bayon qilish metodi sifatidagi imkoniyatlari boshqa metodlarga nisbatan yuqoridir. **Hikoya qilish** - pedagog tomonidan yangi o'tilayotgan mavzuga oid fakt, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon etiladi. Bu metod materiallarni bayon qilishdi, obrazlarga xarakteristika berishdi, tabiat hdisalari va ijtimoiy hayotdagi voqealarni tasvirlashda qo'l keladi.

Hikoya qilish davomida talabalar passiv tinglovchi bo'lib qolishlariga yo'l qo'ymaslik kerak. Talabalarning diqqatini tasvirlanayotgan obyektga qaratibgina qolmay balki xuddi shu obyekt haqida ular ongli va faol fikr yuritishlarini ham ta'minlamoq lozim.

Qisqa xulosa

Pedagogik amaliyotda qo'llaniladigan metodlar – og'zaki metod (og'zaki bayon, tushuntirish, suhbat), kitob bilan ishlash (instruktiv materiallar), ko'rgazmali metod (ko'rgazmalar, kino, videofil'm, kuzatuv), amaliy metod (mashqlar, laboratoriya, amaliy ishlar) lardan foydalanish bo'yicha qator materiallar berilgan. "Kasbiy pedagogika" fanini o'rganishda nazariy ta'lim jarayonida nazorat qilishning asosiy metodlari, ta'lim oluvchilarning bilimlarini og'zaki tekshirish, hamda yozma tekshirish, oraliq nazorat, joriy nazorat, yakuniy nazorat ishlari va testlarni o'tkazish jarayonlari yuzasidan fikrlar bayon qilingan.

Shuningdek ushbu bobda kasb ta'limi usullari, nazariy ta'lim va ishlab chiqarish ta'lim usullari, ta'lim oluvchilarni o'quv bilish faoliyatini tashkil qilish, mashqlar va mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish jarayonida faollik metodi, test, reyting, ta'lim usullarini tanlash kabilar talabalarga tushunarli tarzda bayon etilgan.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Kasb ta'limi metodlariga nimalar kiradi?
2. Ishlab chiqarish jarayonida faollik metodini izohlang?
3. Nazariy ta'lim metodi deganda nimani tushunasiz?
4. Ko'rgazmali va amaliy metodlarni izohlab bering?
5. Nima uchun ishlab chiqarishda yozma yo'riqnomadan foydalaniladi?
6. Bilim, ko'nikma va malakaga ta'rif bering?
7. Mehnat faoliyatining harakatlarini ko'rsatish metodiga nimalar kiradi?
8. Ta'lim jarayonida nazorat qilishning qanday turlari mavjud?
9. Testning afzallik tomonlari nimada?
10. Suhbat metodiga nimalar kiradi?

17 - mavzu. Ta'lim jarayonida o'qitish vositalarining o'rni

Reja:

- 17.1. Hozirgi zamon o'qitish vositalarining tavsifnomasi.
- 17.2. O'qitish vositalari didaktikaning kategoriyasi sifatida.
- 17.3. Ishlab chiqarishda o'qitish vositalari. Ekran va ekran – tovushlik o'qitish vositalari.
- 17.4. O'quv ishlab chiqarishning o'qitish vositalari. Ta'lim oluvchilarning ish joyini tashkillashtirish.
- 17.5. O'qitish vositalarining rivojlanish istiqbollari.
- 17.6. O'quv jarayoniga yangi axborot texnologiyalarini kiritish.
- 17.7. O'qitish vositalari tizimini shakllantirish texnologiyasi va ularni kompleks ishlatilishi.

17.1. Hozirgi zamon o'qitish vositalarining tavsifnomasi

Keyingi vaqtlarda «o'qitishning kompyuter texnologiyalari» tushunchasi tarqalgan bo'lib, bu kompyuterlar bazasida amalga oshirilgan o'qitish texnologiyalari bilan izohlanadi. Biroq axborot texnologiyalari tushunchasi o'qitishning kompyuter texnologiyalari tushunchasidan kengroqdir, chunki kompyuterlar axborot texnologiyalari texnik vositalarining tarkibiy qismidir.

Bugungi kunda turli optik xotirlovchi qurilmalar (videodisklar, optik disklar) keng tarqaldi. Ulardan foydalanish matnli grafik axborotni bir vaqtda birgalikda yozish imkonini beradi, shu bilan birga uni qayta tiklashda yuqori sifatli tasvir paydo bo'ladi. Magnit yozuvdan farqli o'laroq, optik disklardagi yozuv istalgan sondagi qayta tiklashlarda ham yomonlashmaydi. Kompyuterlar ishining dastur-matematik ta'minoti yuqori texnologik ishlab chiqarish taraqqiyotining muhim yo'nalishi bo'lmoqda.

Shuningdek, texnik va dasturli axborot texnologiyalari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

EHM tarmoqlari. Hozirgi vaqtda bilimlarning barcha sohalarida EHM yoki kompyuter (lokal yoki global) tarmoqlari keng tarqalgan. EHM lokal tarmoqlari uncha katta bo'lmagan fazoda amalga oshiriladi va axborot xizmati turli tarmoqlarining integratori bo'ladi. Ular tashkilotlardagi barcha axborot texnologiyalari vositalarini birlashtiradi hamda ularning samaradorligini oshiradi. EHM global tarmoqlari esa, axborotni katta masofalarga uzatilishini amalga oshirish imkonini beradi.

Yo'ldosh aloqa tizimlari ko'plab er ustidagi stanhiyalarni va er sun'iy yo'ldoshidagi retrenslyatorlarni o'z ichiga oladi. Bugungi kunga kelib, bu tizimlar kompyuterlar orasidagi aloqani amalga oshirish uchun ma'lumotlar to'plash, televidenie dasturini uzatish maqsadida ishlatilmoqda.

Sun'iy intellekt tizimlari. Sun'iy intellekt elementli EHMning odatdagi EHMdan farqi shundaki, odatdagi EHMLar faqat statistik ma'lumotlarni, sun'iy intellekt tizimlari esa bilimlarni ishlab chiqadi. Informatikaning alohida yo'nalishi sun'iy intellektdir. Odam aqliy faoliyatining ba'zi turlarini amalga oshiruvchi dasturli-texnika vositalari ishlab chiqilmoqda.

Elektron pochta. «Elektron pochta» – bu korrespondenSiyalar almashishi uchun pochtaga o`xshash axborot uzatish va ishlab chiqishning elektron usullaridan foydalanish, ya'ni bosma materiallar, jadvallar va jurnallarni uzatish hamda elektron pochta ya'ni, qog`ozsiz pochta aloqalari xizmatidan iborat bo`lib, u xabarlarini to`plash, ishlab chiqish va taqdim etish hamda ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari tizimidir.

Elektron pochta asosida aholiga elektron gazeta va jurnallar kabi axborot xizmati ko`rsatish amalga oshirilgan. So`nggi yillarda jahon bozorida elektron nashrlar soni borgan sari ko`payib bormoqda. Bu jarayon kompakt optik disklar keng tarqalishi bilan tezlashdi.

TelekonferenSiyalar. Telekonferensiyalar zamonaviy axborot texnologiyalarining amalga oshirilishiga misol bo`la oladi. Telekonferensiyalarni o`tkazish uchun quyidagi apparaturalardan foydalaniladi: terminallar, televezion kameralar, grafik displeylar, katta namoyish ekranlari. Shuningdek, telekonferensiyalar orqali dolzarb masalalar muhokamasini tezkorlik bilan tashkil etish, muhokama uchun istalgan rasmi materiallardan foydalanish, dolzarb masalalarni muhokama qilishda ishtirok etuvchi mutaxassislar doirasini kengaytirish, xalqaro ma'lumotlar banklaridagi istalgan axborotdan foydalanish kabi imkoniyatlar yuzaga keladi.

O`qitishning yangi axborot texnologiyalari o`quvchi-talabaning emas, u eng avvalo o`qituvchi (pedagog)ning texnologiyasidir. O`quvchi-talaba zamonaviy axborot texnologiyasini o`rganmaydi, balki uning mahsulotidan o`qitishning texnik vositasi sifatida foydalanadi. O`qituvchi (pedagog) zamonaviy texnologiyalarni qo`llab darsga tayyorlanadi, darsni tashkil qiladi, o`quvchi- talabalar bilimini nazorat qiladi va ta'lim mazmunini takomillashtirishda kompyuterlashtirishning eng yuqori darajasi yangi axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga olib kirishdan iborat bo`ladi.

Axborot tenologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlashni rivojlantirish omillari quyidagilar: bunda kompyuterlashtirishning har ikkala yo`nalishini ham rivojlantirib borish zaruriyati tug`iladi. Buning uchun shu sohada qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda uzluksiz ta'lim tizimini hamma bosqichlarida «kompyuterlashtirishning konsepsiyasi» yaratilishi lozim.

Kompyuterli texnologiyalar dasturli o`qitish g`oyalarini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va telekommunikaSiyalarning noyob imkoniyatlari bilan bog`liq ta'limning ham tadqiq qilinmagan yangi texnologik variantlarini ochadi. Ta'limning kompyuterli (yangi axborot) texnologiyalari – bu ta'lim oluvchiga axborotni tayyorlash va uzatish jarayoni bo`lib uni amalga oshirish vositasi kompyuterdir, ya'ni:

- o`quvchi-talabalarda axborot bilan ishlash mahoratini shakllantirish, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish;
- «axborotli jamiyat» shaxsini tayyorlash;
- ta'lim oluvchilarni o`zlashtirish imkoni darajasida etarli miqdordagi axborot bilan ta'minlash;

➤ o`quvchi-talabalarda tadqiqotchilik, optimal qarorlar qabul qilish mahoratini shakllantirish.

Kompyuterli texnologiya mazmuni bir qancha shakllantirilgan modelini qo`llashga asoslangan bo`lib, bu model kompyuter xotirasiga yozib qo`yilgan pedagogik dasturli vositalar va telekommunikasiya tarmog`ining imkoniyatlari orqali namoyon bo`ladi.

Axborot texnologiyalaridan faqat o`quv jarayonida emas, balki uzluksiz ta`lim tizimida faoliyat yuritayotgan o`qituvchilarni ilmiy-texnik va maxsus axborot bilan ta`minlaydigan axborot ishida, ta`lim tizimini boshqarishda ham foydalanish mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda axborot texnologiyalarini ta`limga joriy etishda ularning texnik vositalarini integrasiyalash asosiy yo`nalish hisoblanmoqda. SHu munosabat bilan hatto «multimedia» tushunchasi paydo bo`ldiki, u o`qitishda ko`pchilik texnik vositalardan kompleks foydalanishni bildiradi. Multimediani qo`llagan holda eng muhim narsa talabalarni kerakli axborotni tanlab olishga o`rgatishdan iborat bo`ladi. O`qituvchi (pedagog)ning vazifasi axborotni taqdim qilishdan emas, balki uni topishda yordam berishdan iborat bo`ladi, o`qituvchi (pedagog) bilimlar sohasida yo`l ko`rsatuvchi bo`ladi.

Bu kabi o`qitish vositalari kompleksidan foydalanilgan holda talabaga ta`sir ko`rsatish birgina axborot kanallari (ko`rish, eshitish va h.k.) orqali amalga oshiriladi. Bu esa ta`lim samaradorligining ortishiga olib keladi.

Ta`lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanilganda talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish shakllarini tiklash muammosi yangicha hal etilishi lozim. Agar an`anaviy ta`lim sharoitlarida bilish faoliyatini tashkil etishning eng ko`p tarqalgan shakllari individual va frontal shakllar bo`ladigan bo`lsa, axborot texnologiyalaridan foydalanishni ularning har ikkalasidan ham bir vaqtda foydalangan holda amalga oshishi mumkin.

Shuningdek, ta`lim jarayoniga axborot texnologiyalarining joriy etilishi o`qituvchi (pedagog) vazifasining o`zgarishiga sabab bo`ladi, ya`ni pedagog ta`lim-tarbiya berishdan ko`ra ko`proq tadqiqotchi, tashkilotchi, maslahatchi va dasturlovchiga aylana boradi. Bularning barchasi o`qituvchi (pedagog)larni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini o`zgartirishni talab qiladi. Tadqiqotchilarning fikriga ko`ra, o`qituvchilarning axborot madaniyati asoslari metodologik, umumta`limiy, umummadaniy xarakterga ega bo`lib, ular pedagogik xodimlarni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shuningdek, barcha o`quv fanlari kompleksini o`rganish jarayonida shakllanishi lozim.

Keyingi yillarda oliy va o`rta maxsus o`quv yurtlarini axborot texnologiyalari bilan jihozlash, ta`lim tizimi mazmuni, uni tashkil etish shakllari hamda sifatini oshirish borasida katta ijobiy o`zgarishlar ro`y beradi.

Ma`lumki, o`qituvchilarning an`anaviy o`qitish usulida laboratoriya va amaliy ishlar o`tkazilishiga ko`p vaqt ajratiladi. Bu mutaxassis tayyorlashning muhim tarkibiy qismidir. U nafaqat talabaning nazariy bilimlarini mustahkamlash, o`quv materialini o`zlashtirish samarasini oshirishga, balki muayyan sohada amaliy ko`nikmalarni hosil qilishga ham ko`mak beradi. Biroq, bunday mashg`ulotlar to`laqonli natija beradi, deya olmaymiz. Sababi – laboratoriya stendlari etarli

darajada emas hamda ko'pgina laboratoriya stendlari va o'quv xonalari zamonaviy moslama va uskunalar bilan jihozlanmagan, ularning aksariyati bugungi kun talablariga to'liq javob bermaydi. Texnologiyalar tez sur'atda rivojlanayotgan hozirgi vaqtda amaliy mashg'ulotlar uchun laboratoriya va stendlar har bir o'quv yilida takomillashtirishni talab etadi. Buning uchun esa qo'shimcha sarf-harajatlar qilish kerak bo'ladi. Boshqa yana bir muhim omil shundaki, ba'zi laboratoriya tadqiqotlaridagi ish jarayonlarining sustligi sababli ajratilgan vaqt ichida ta'lim oluvchilar takror tahlil yoxud sinovlar o'tkazishga qiynalishadi holbuki, ma'lum bir sohada etarlicha ish ko'nikmalari va tajriba orttirish uchun amaliy mashg'ulotlarni ko'p marotaba takrorlash talab etiladi. Afsuski, an'anaviy ish olib borish sharoitida laboratoriya stendlari kamligi hamda moslamalarining tez-tez buzilishi va shu bilan bog'liq ashyolarga qo'shimcha sarflar qilinishi bois har doim ham bunday qilinavermaydi.

Yuqorida aytilganlarni hisobga olib, yangi tizim mutaxassis kadrlarini tayyorlash uchun fikr muhim vazifalarni hal etishga yordam bera oladigan yangi samarali, hammabop pedagogik uslubni joriy etish zaruriyati tug'ildi, deb ayta olamiz. Buning uchun laboratoriya stendlari va o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlar barcha talabalar uchun nafaqat qiziqarli, balki qulay va oson bo'lishiga erishmoq lozim. Mashg'ulotlar o'ziga jalb eta olishi, barcha ruhiy va didaktik omillarni hisobga olishi, jarayonlarni jo'shqin tarzda namoyon etishi, mashg'ulotlar o'tkazish va o'qitilayotgan fanni o'zlashtirishni, umuman butun o'qitish samarasini oshirishi, egallangan bilimlar xususida o'ziga-o'zi baho berish imkonini ta'minlamog'i zarur. Aynan shu nuqtai nazardan zamonaviy axborot texnologiyalarining tatbiq etilishi yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni maqbul tarzda hal qilish va an'anaviy o'qitish usulining bir qator kamchiliklarini bartaraf etishga ko'mak beradi.

17.2. O'qitish vositalari didaktikaning kategoriyasi sifatida

Ta'lim maqsadini amalga oshirish yo'lida xizmat qilayotgan metodlarni muvaffaqiyatli natijaga erishishi uchun ishlatiladigan o'quv asboblari ta'lim vositalari bo'lib hisoblanadi. Ular issiqlik sig'imini o'lchash asbobi, kompyuterlar, turli xil laboratoriyada ishlatiluvchi apparat turlari, o'lchash asboblaridan tashkil topishi mumkin. Ta'lim vositalari talabalarni amaliy ishlarni bajarishida hamda malaka hosil qilishida muhim ahamiyatga ega.

O'qitish vositalari - bu moddiy va tevarak-atroflar, tabiiy obyektlar, bundan tashqari inson tomonidan o'quv-tarbiyaviy jarayonida axborot olib yuruvchi pedagog va o'qituvchilar faoliyatida ularning o'z oldiga qo'ygan o'qitish, tarbiyalash maqsadida qo'llaniladigan qurol sifatida yaratilgan sun'iy obyektlardir.

O'qitish vositalari shu bilan birga uning mazmuni, uslublari, tashkiliy shakllari o'qitish tizimini loyihalashtirilgan va o'quv-tarbiyaviy jarayonning tarkibiy bo'limlaridan biridir. Bundan tashqari har bir o'quv-tarbiyaviy muassasaning eng muhim tarkibiy qismidir. Pedagogika fani va amaliyotida qo'llaniladigan turli xil tizimlarning bo'limlarida bo'layotgan moddiy o'qitish vositalari hozirgi paytda joriy qilingan tizimlarning harakatlanishi, qayta qurilishi va bir-biri bilan bog'liqligini nazarda tutgan holda boshqa tarkibiy qismlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda ta'lim oluvchilar o'z ijodiy potensialini nazorat qilish, tabiatdan berilgan iste'dod va qobiliyatlarini rivojlantirishga yangi texnika paydo bo'lgandan beri o'qitishning yangi usul va texnologiyalarini egallashga real imkoniyatlari bor. Shunday qilib, didaktikaning kategoriya apparatida moddiy vositalar (ish qurollari) maqsad va mazmunlari, usullari, o'qitishning tashkiliy shakllari bilan birgalikda mustaqillik holatiga ega. Bundan tashqari ijtimoiy hayotning har bir sohasida texnologiyalashtirish munosabati bilan o'quv-tarbiyaviy faoliyatda o'qitish vositalarining ahamiyati ortib bormoqda, muammolarga oid tadqiqotlarda ikki asosiy yo'nalish: pedagogik va injenerlik nuqtai nazari bor.

Didaktik nuqtai nazarga atrof-muhitni tavsiflashga bag'ishlangan o'quv vositalarini tasniflash kiradi:

1. Tabiiy obyektlar – izlanish va o'rganish uchun haqiqiy real fanlarni o'z ichiga oladi: moddalarning namunalari va kollekhiyalarini, xom-ashyo, asboblari, detallar, o'simliklar, gerbariylar, hayvonlar va ularning qotirib qo'yilgan holati, mikropreparatlar va hokazolar. O'qitish vositalarining bu guruhiga yana maxsus ishlov berilgan moslamalar va ularning mexanizmlari hamda kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan o'quv ishlab chiqarish moslamalari kiradi.

2. Moddiy obyektlarni tasvirlash va aks ettirishga kiradigan guruhni quyidagilar tashkil etadi: modellar, mulyajlar, maketlar, jadvallar, ko'rgazmali qurollar (rasmlar, fotoaksli chizmalar, portretlar), ekran-tovush vositalari (diafilmlar, diapozitivlar, slaydlar), kinofilmlar, video va tovush yozuvlari, plastinkalar, radioeshittirish va teleko'rsatuvlar.

Alohida guruhga o'qitishning texnik vositalari kiradi. Bunday o'qitish vositalariga o'quv ma'lumotlarini etkazib beruvchi, uni ifodalash uchun maxsus texnik moslamalar talab qilinadi. Bu moslamalar transportlar, diafilm va kinofilmlar, videofilmlar, tovush yozish kompyuter dasturlari va boshqalardan iborat.

O'qitish vositalarini shakllantirish tizimi nafaqat o'qitish vositalarining turli xil belgilaridan aniqlab klassifikatsiya qilish emas, balki ularni funksiyalar va xususiyatlari haqida bilimlari ham taxmin qilinadi.

O'qitish vositalari quyidagicha tavsiflanadi:

1. Natural (tabiiy) obyektlar. Tabiiy obyektlarga odatda jonli va jonsiz tabiatning obyektlari kiradi, ular bilan ta'lim oluvchilar mashg'ulotlarda tarqatma yoki namoyish qilinadigan materiallar shaklida tanishadilar.

2. O'quv modellar, mulyajlar, maketlar. Modellar sun'iy yaratilgan tabiiy obyektlarning ko'rinishi ularning muhim sifatlarini, aloqalarini va munosabatlarini qayta takrorlaydigan o'quv ko'rgazmali qo'llanmalar deb qabul qilinadi.

Modellarning eng keng tarqalgan va tipik turlari bu moddiy ya'ni predmetli modellardir. Modellar hajmiga ko'ra ega va tekis modellarga bo'linadi.

Mulyaj va maketlar predmetlarning tashqi belgi va xususiyatlarini va atrof-muhit hodisalarini o'rganishda qo'llaniladi, modellar o'rganilayotgan obyektlarning ichki qurilmasi va harakatlanish tamoyili mashina va mexanizmlarning kinematikasini o'rganilayotgan hodisalarda o'rin olgan boshqa aloqalar va munosabatlar imkoniyatini beradi.

17.3. Ishlab chiqarishda o`qitish vositalari. Ekran va ekran – tovushlik o`qitish vositalari

Ekran va ekran – tovushlik o`qitish vositalari bugungi kunda keng tarqalgan. Bu o`qitish vositalariga qo`yilgan talablar eng avvalo ularning mavzuga oidligi, ikkinchidan, bu o`qitish vositalarining sifati yaxshi bo`lishi bilan ajralib turadi.

Diapozitiv – (slayd) bu harakatlanmaydigan o`qitish ekran vositasi hisoblanadi. Diapozitivdagi chizmalar va rasmlar odatda plakatdagidan yaxshi qabul qilinadi.

Diapozitiv – bu juda qulay o`qitish vositasi, chunki o`qituvchi uning bir qismini yoki bir kadrni alohida ko`rsatishi mumkin. Har bir kadr to`liq bir informatsiyaga ega. Diafilm ham harakatlanmaydigan ekran o`qitish vositasidir.

Transportlar – bu ham harakatlanmaydigan ekran qo`llanmasidir.

Transportlar proyektor yordamida ko`rsatilishi va xonani qorong`ilatish shart emasligi bu o`qitish vositasining katta yutug`idir. Transportlar sinf doskasini o`rnini bosadigan vositadir. O`qituvchi ta`lim oluvchilarga yuzlangan holatda, o`tilgan yozuvlar yoki chizmalarni ekranga proyeksiya qilib tushuntirishi mumkin.

So`nggi yillarda o`quv filmlari chiqarilmay qo`ydi. Ularning o`rnini o`quv video yozuvi informatsiyani aks ettiruvchi ekran-tovushli vositalarni o`zida mujassamlashtirgan; kino, radio, televidenie, videofilm, diapozitivlar egalladi. O`quv priborlari, moslamalari, asboblari, laboratoriya priborlari tizimining ahamiyatga ega bo`lgan qismini tashkil qiladi.

O`quv ustaxonalarida olib borilgan ishlab chiqarish qulayliklariga o`rgatish shu ustaxonalarda qulay vaziyatlarni yaratishni talab qiladi.

Moddiy texnikaviy - etarli maydonda ishlaydigan moslamalar, texnik muhofazalashni ta`minlash.

Sanitar gigienik – tabiiy va sun`iy yoritish, ustaxona sanitar gigienik shartlariga javob berishi va birinchi yordam berish vositalarini ta`minlashi.

Estetik – ustaxonaning ichki bezagi va moslamalarning ranglariga e`tibor berish, o`simlik va gullar bilan bezatish.

Texnik pedagogik – o`quv ishlab chiqarish xonalarining ishlar bajarishida bir-biri bilan bog`liqligi, ta`lim oluvchilarga mos bo`lgan ish sharoitini yaratish va shaxsiy ish joyi bilan ta`minlash va ishni ilmiy texnika asosida tashkillashtirish.

Ta`lim oluvchilarning ish joyini tashkillashtirish:

- ish joyining texnik sozligi;
- etarli darajada yoritilganligi;
- favqulodda holatda avariya signalining ishlashi yoki usta bilan bog`lanish moslamasi;
- ishlab chiqarish moslamasini tozalash, sozlash va yig`ishtirishning qulayligi.

O`qitish ustaxonasining ustasi uchun ish joyi shunday yoritilgan va tashkil qilingan bo`lishi kerak. O`qitish jarayonida usta ishini ilmiy asosda tashkillashtirishi, uni mazmuni va shaklini ta`lim oluvchilarning ish joylari bilan bog`lanishi uning pedagogik faoliyatini aniqlab beruvchi sifat bo`lishi kerak.

17.4. O`quv ishlab chiqarishning o`qitish vositalari. Ta`lim oluvchilarning ish joyini tashkillashtirish

Bugungi kunda zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalar, internetni nafaqat maktab, litsey, kollej va oliy ta`lim muassasalariga, balki har bir oilaga joriy qilish harakatlari tobora kuchayib bormoqda. Aynan zamonaviy aloqa va axborot texnologiyalari tizimini keng ko`lamda rivojlantirish mamlakatimiz va jamiyatimizning taraqqiyot darajasini ko`rsatadigan mezonlardan biri bo`lib xizmat qiladi.

Hozirda kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarni aynan muammolarni hal etishga, masalaning echimini mustaqil topishga o`rgatish dolzarb masala ekanini bilamiz. Chunki bugungi kunda fan-texnika taraqqiyoti jadal sur`atlar bilan rivojlanib borar ekan mavjud bilimlarimiz tez-tez yangilanib boradi. Bu holat bizdan faqat fundamental bilimlarni tushunib o`rganishni emas, balki fikrlash refleksini rivojlantirishni ham talab etadi. Muammoli ta`lim tizimi aynan ana shu fikrlash refleksini rivojlantirishga qaratilgan bo`lib, aqliy faoliyatni faollashtiradi.

Hozirgi kunda er yuzida integrasiya va glaballashuv jarayonlari tobora chuqurlashib, hayotning barcha jabhalarini birinchi galda ta`lim sohasini keng qamrab olayotganiga barchamiz guvoh bo`lmoqdamiz. Chunki, bizning davrimizda tom ma`nodagi ma`rifat egasi va o`z sohasi bo`yicha yetuk mutaxassis bo`lish uchun faqat o`z yurti, o`z mamlakatida olgan bilim va ma`lumotlar bilan cheklanib qolish etarli emas.

Hech shubhasiz, jahon ilm-fani va madaniyati xazinasining noyob boyliklari ta`lim tizimiga qanchalik chuqur tatbiq etilsa, inson shunchalik teran bilimga ega bo`ladi. Shuning uchun hozirgi kunda mamlakatimiz ta`lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, internet tarmog`idan keng foydalanish va ularni rivojlantirish masalasiga katta e`tibor berilmoqda. Tabiiyki, bunday texnologiyalar yoshlarimizning jahon axborot tizimiga ochiq va keng miqyosda kirib borishi, ularning aql-zakovati va professional jihatdan o`sishi uchun beqiyos imkoniyatlar yaratadi. Zero, bugungi kunda hayotning o`zi yosh mutaxassislar, ayniqsa oliy va o`rta maxsus o`quv yurtlarini bitirib chiqayotgan yigit-qizlardan jahon andozalari, yuksak ilm-fan yutuqlari asosida yaratilgan zamonaviy texnika va texnologiyalarni, ish uslublarini, o`z faoliyatida ilg`or kompyuter va axborot tizimi vositalaridan samarali foydalana bilishni taqozo qiladi.

17.5. O`qitish vositalarining rivojlanish istiqbollari

Inson faoliyatining turli sohasida axborot almashish, har qanday muammoni jamoa bo`lib muhokama qilish natijasida yangi natijalarni olish zaruriyati konferensiya, seminarlar, yig`ilishlar kabi muloqot shakllarini keltirib chiqardi. Hozirda biror bir jiddiy ishni oraliq natijalar, yakunlar, variantlar, qarorlar variantlari, opponentlarni tinglash va tegishli qarorlar qabul qilishning turli darajalarida hal qilmasdan turib amalga oshirib bo`lmaydi.

Axborotni uzatish va qayta qabul qilishning raqamli texnikasi imkoniyati telekonferensiya-yangi texnik darajada telefon va televideniening birga

qo`shilgani-telekonferensiyaning tashkil etish imkoniyatini beradi. Telekonferensiyaning o`tkazish texnologiyasi bir paytning o`zida turli masofadagi muassasalarning xodimlari o`rtasida muloqot qilish imkonini yaratadi. Ishtirokchilar bunda nafaqat bir-birini ko`rish va eshitish bilan birga yonma-yon, yuzma-yuz turgandek sharoitga ega bo`ladilar.

Telekonferensiyaning asosiy afzalliklari quyidagilar:

1. Dolzarb masalalar muhokamasini tezkor tashkil etish va hududiy jihatdan uzoqda bo`lgan, bu masalaga qiziqqan o`rtoqlarni o`z vaqgida xabardor qilib qo`yish. Bu holatda biror joyga borishga va transport harajatlariga zaruriyat qolmaydi. Mutaxassis o`z ish joyidan uzoq vaqt ketmaydi.

2. Muhokama qilish uchun ishtirok etuvchi tashkilotlardan biridagi har qanday materialdan - jadval, diagramma, matndan foydalanish mumkin. Ba`zan ayrim hisob kitoblar qilish yoki model vaziyatlarni qaytarish zarur bo`lib qoladi. Bularning barchasini telekonferensiya uchun foydalaniladigan texnika yordamida bajarish mumkin.

3. Telekonferensiya apparaturalari mavjud bo`lganda, muhokama etiladigan muammo bo`yicha qaror qabul qilish uchun qatnashishi zarur mutaxassislar doirasini kengaytirish mumkin. An`anaviy usullar orqali esa ishni amalga oshirish mushkul.

4. Telekonferensiya paytida ma`lumotlar bazasi bilan aloqa bo`lganda deyarli har qanday ma`lumotnoma axborotidan foydalanish va u bilan butun telekonferensiya ishtirokchilarini tanishtirish mumkin bo`ladi.

Telekonferensiya faksimil aloqa, televizionkamera, videomagnitofon, kompyuter, modem, displey, akustik apparatura kabi turli xil qurilmalarni jalb etishni talab qiladi. Odatda videokonferensiya o`tkazish uchun maxsus zal ajratiladi va shu erga televizion va akustik apparatura, boshqa texnikalar joylashtiriladi. Shu yerga aloqa liniyasi o`tkaziladi. Binoga katta televizion ekran o`rnatiladi.

Oliy ta`lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari va umumiy o`rta ta`lim maktablarining o`quv-moddiy bazalari bugungi kunda bir necha yo`nalishda rivojlanmoqda:

- ta`lim oluvchilarning o`quv-texnika vositalariga bimalol yondashishi, qo`llashi;
- axborot texnologiyalaridan foydalanishi;
- o`quv ko`rgazmali vositalarni qo`llashi;
- o`qitish tizimining bir-biriga bog`liqligi.

Hozirgi paytda to`rtta yo`nalishdagi yangi axborot texnologiyalarining ta`lim jarayonida qo`llanilishi:

1. Nashriyot texnologiyalarini qo`llash.
2. Telekommunikatsiya.
3. Katta maketlar va ommaviy axborot vositalari.
4. Kompyuter robototexnikasi.

Bugungi kunda texnologiyalarning qo`llanilishini yaratish haqida bir talay qarorlar qabul qilingan. Ammo ushbu texnologiyalarni ishlatishdan oldin nafaqat

pedagoglar, balki sanitariya-gigiena va psixologlar tekshiruvlaridan so'ng qo'llash tavsiya etiladi.

Turli xil yo'nalishlarga mo'ljallangan ishlatish dasturlari foydalanuvchilar oldida bilim olishning hamma sohalarida keng imkoniyatlarni yaratadi. Ta'lim oluvchi nafaqat tayyor informatsiya bilan ishlaydi, balki o'zi ham maketlar yaratish imkoniyatiga ega, matematik va iqtisodiy masalalarni ishlashi, turli xil vaziyatlarni modellashtirishi, tabiiy fanlar, iqtisodiyot, ekologik va gumanitar fanlar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borishi mumkin.

Masofaviy o'qitishning kelajagi porloqdir, chunki masofadan o'qitish kompyuter texnologiyalari asosida amalga oshiriladi. O'qitish jarayonining kompleks ravishda olib borilishiga katta ahamiyat beriladi. O'qitish jarayonlari uchta asosiy funksiyani bajaradi. *Ma'lumot beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi.* O'qitish jarayonining ko'rgazmali olib borilishida kompleksli o'qitish, pedagogik jarayonning hamma asosiy funksiyalari o'qitish vositalari orqali amalga oshiriladi. O'qitish vositalaridan kompleks foydalanishning samaradorligi ularni qo'llashda rahional jihozlashga qo'yilgan aniq talab va tavsiyalar quyidagicha:

- ko'rgazmali qurol, tarqatma material va darsda qo'llanilayotgan o'qitish vositalarini keragidan ortiqcha qo'llamaslik;
- darsda qo'llaniladigan vositalar (plakat, sxema, model, maket, mulyaj va boshqalar), har doim oldindan ko'rib chiqib tanlab olingan bo'lishi va foydalanish tartibida tayyor bo'lishi;
- texnik vositalar va boshqa ko'rgazmali qurollarni oldindan ishlatib ko'rish;
- individual qo'llash uchun tanlangan didaktik ko'rgazmali qurollar va boshqa qo'llanmalar hamma ta'lim oluvchilarga etarli bo'lishi;
- har bir didaktik materialning qo'llanish maqsadlari va o'rnini aniq rejalashtirib olish.

Masofadan o'qitish o'quv materialini oliy darajada olib borish va o'quv materialini translyahiya qilish imkoniyatini beradi. Masofadan o'qitishni tashkil qilish turlari:

- saqlab qo'yilgan o'quv mahsulotini kompyuter o'qitish vositalari yordamida uzatish:
- turli xil masofada joylashgan sinf va guruhlariga bitta mashg'ulotni uzatish:
- fan arboblari, pedagog novatorlar, metodistlarning ma'ruza va mashg'ulotlarini uzatish:
- telekonferensiyalar, munozalar:
- o'quv uslubiyot materiallarining almashinuvi.

Telekommunikatsiya tizimlari yangi pedagogik va axborot hamda turli sohalaridagi kasbiy bilimlarni eng qisqa vaqtda uzatish imkoniyatini beradi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, o'qitishning yana bir yo'nalishini, ya'ni - media o'qitishni vujudga keltiradi. Bunda ta'lim oluvchilar turli xil ommaviy axborot vositalarini (gazeta, jurnal, TV, kino, radio, video va boshqa) egallab olishga tayyorlash yo'nalishida olib boriladi.

17.6. O`quv jarayoniga yangi axborot texnologiyalarini kiritish

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamiyatimiz rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lgan. Hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan yangi texnologiyalar orasida etakchi o'rinni egallamoqda.

Axborot texnologiyasi va texnik vositalar samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy belgilaridan biridir. Milliy dasturda ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishning bu muhim vositasiga alohida urg'u berilgan. Axborotli vositalar (kompyuter, elektron aloqa, radio, televidenie)dan foydalanish darajasi ikki omil bilan aniqlanadi:

1. O`quv jarayoni uchun axborotli vositalar samara beradigan mavzular yuzasidan didaktik materiallarni ishlab chiqish.

2. Pedagoglarning o'z amaliy faoliyatlarida texnik vositalar va didaktik materiallardan metodik jihatdan to'g'ri foydalana olish tayyorgarligini tekshirish.

Axborotli ta'lim jarayoni oldindan pedagogik loyihalangandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Pedagogik jarayonni kompyuterlashtirish asosiy yo'nalishlaridan biri va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning shug'ullanishi lozim bo'lgan sohasidir.

Axborot texnologiyalari – bu odamlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo'yicha imkoniyatlarini kengaytiradigan ma'lumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish, tiklash, uzatish usullari va texnik vositalaridir. Yana shuningdek, axborot texnologiyalari deganda, ma'lum bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar zanjiridan iborat yaratuvchi faoliyat tushuniladi. Agar texnologik zanjirni tashkil etuvchi jarayonlar - ular orasidagi axborot almashinuvini tashkil etish va ularni uyg'unlashtirishda kompyuterlardan foydalanish imkoniyati yaratilsa, har qanday texnologiyaning samaradorligi ortadi. Albatta, buning uchun mazkur texnologiyani sinchiklab o'rganish, jarayonlardagi va ular o'rtasidagi axborot almashinuvini, shuningdek, jarayonlar zanjirini (ya'ni texnologiyani) boshqarishning axborot ta'minotini tahlil etish zaruriyati paydo bo'ladi.

Hozirgi zamon axborot texnologiyalarining asosini quyidagi uchta texnika yutug'i tashkil etadi:

1. Axborotning mashina o'qiydigan tushunchalarda jamlash muhitining paydo bo'lishi (magnit, lentalar, kinofilmlar, magnit disklar va h.);

2. Axborotni er sharining istalgan nuqtasiga vaqt va masofa bo'yicha muhim cheklashlarsiz etkazishini ta'minlovchi aloqa vositalarining rivojlanishi, aholining aloqa vositalari bilan keng qamrab olinishi (radio eshittirish, televidenie, ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari, yo'ldosh aloqa, telefon tarmog'i va h.);

3. Axborotni kompyuterlar yordamida berilgan algoritm bo'yicha avtomatlashtirilgan ishlab chiqish imkonini (saralash, tasniflash, kerakli shaklda ifodalash, yaratish va h.) oshirish.

Axborot texnologiyalari, birinchidan, axborotning sirkulyah tsiyasi va ishlov berish majmui, ikkinchidan, bu jarayonlarning tasviridir.

Axborot texnologiyalari ta'lim jarayonida muhim o'rin tutib, quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

- har bir odamga xos noyob fazilatlardan iborat individual qobiliyatlarni o'qitilayotgan o'quvchi va talabalarda ochish, saqlash va rivojlantirish, ularda bilish qobiliyatlarini, o'zini o'zi kamolotga etkazishga intilishni shakllantirish;
- voqea va hodisalarni kompleks o'rganishni, texnika, ijtimoiy, gumanitar fanlar va san'at orasidagi o'zaro bog'liqlikning chambarchasligini ta'minlash;
- o'quv-tarbiya jarayonlarining mazmun, shakl va metodlarini doimiy dinamik yangilash.

Ta'lim tizimi nuqtai nazaridan axborot texnologiyalarining joriy etilishi bilan birga yuzaga keladigan quyidagi muammolar muhimdir:

1. Texnik muammolar – bular ta'lim tizimida foydalaniladigan elektron hisoblash va mikroprohessor texnikasiga qo'yiladigan talablarni, uni qo'llash xususiyatlarini belgilaydi;

2. Dastur muammolari – bular ta'lim tizimida foydalanish uchun dastur ta'minotining tarkibi va turlarini, ularning qo'llanish tarkibi va xususiyatlarini belgilaydi;

3. Tayyorgarlik muammolari – bular o'qituvchi va o'quvchi, pedagog va talabalarining hisoblash texnikasidan foydalanish uquvi bilan bog'liqdir.

Bugungi kunda ta'limni axborotlashtirishda asosiy yo'nalish turli o'quv fanlari bo'yicha pedagogik dastur vositalarini yaratishdan iborat bo'lib qoldi. Ammo mavjud va ishlab chiqilayotgan kompyuter texnikasi bazasidagi pedagogik dastur vositalari o'qitish nuqtai nazaridan ta'lim sifatida muhim siljishlarga olib kelishi mumkin. Buning sabablaridan biri kompyuter texnologiyalari an'anaviy tashkil etilgan o'qitish jarayonida joriy etila boshladi. U o'zining asosiy mazmuni va metodlari bo'yicha mazkur texnologiyalarga yo'naltirilmagan va ularga ehtiyoj sezmaydi.

Umuman olganda, ta'lim texnologiyalari doimo axborotli bo'lgan, chunki ular ko'p xil axborotni saqlash, uzatish, foydalanuvchilarga etkazish bilan bog'liq edi. Kompyuter texnikasi va kommunikahiya vositalari paydo bo'lishi bilan o'qitish texnologiyalari tubdan o'zgardi. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining amalga oshirilishi quyidagilarning mavjud bo'lishini taqozo etadi:

- ta'limning texnik vositalari sifatida kompyuterlar va kommunikahiya vositalari;
- ta'lim jarayonini tashkil etish uchun unga mos tizimli va amaliy dastur ta'minoti;
- ta'lim-tarbiya jarayonida yangi o'quv texnika vositalarini tatbiq etish bo'yicha mos metodik ishlanmalar.

17.7. O'qitish vositalari tizimini shakllantirish texnologiyasi va ularni kompleks ishlatilishi

Bugungi kunda iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi innovatsion jarayonlar o'z-o'zidan ta'limda ham tubdan o'zgartirishlarni taqozo etmoqda. O'qitish va tarbiyalashning yangi texnologiyalariga sifat jihatdan tez o'tish uchun obyektiv asos yuzaga kelganligi quvonarlidir. Hech bir o'qituvchi ertami-kechmi bu jarayonga qo'shilmasdan chetda qolishi mumkin emas. O'qituvchining an'anaviy ish usullari, ta'lim,

fan va ishlab chiqarish integrasiyasi, o'qitishni kompyuterlashtirish sifatlarini o'zlashtirish zaruriyati ularni ilmiy-metodik asoslash ehtiyojining tug'ilishida obyektiv omil bo'lib qolmo³da.

O'qituvchiga albatta ta'lim amaliyotining rivojlanish istiqbollarini ongli dasturlashtirishga, yangi pedagogik texnologiyalarni asoslashga imkon beradigan ilmiy tasavvurlar tizimi kerak.

Axborot maydonining barcha tarkibiy qismlarini rivojlantirish va undagi boshqaruv sub'ektlari faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan davlat axborot siyosatini ishlab chiqish mamlakatimizda axborotlashgan jamiyat qurish yo'lidagi asosiy masalalardan bo'lib hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalari bozorini shakllantirishning obyektiv zaruriyatidan kelib chiqqan holda, milliy iqtisodning deyarli barcha tarmoqlari manfaatlariga ta'sir etuvchi keng miqyosdagi iqtisodiy, huquqiy va siyosiy echimlarni hal qilishni talab qiladigan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilingan. Unda «...Real iqtisodiyot tarmoqlarida, boshqaruv, biznes, fan va ta'lim sohalarida kompyuter va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, aholi turli qatlamlarining zamonaviy kompyuter va axborot tizimlaridan keng bahramand bo'lishlari uchun shart-sharoitlar yaratish...» belgilab qo'yilgan.

Respublikamiz kutubxona, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va vazirliklarida to'plangan katta miqdordagi axborot resurslariga ega. Biroq ushbu manbalarga integrasiyalashgan holda kirish usuli hali yo'lga qo'yilmagan. Chunki, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning yangi darajasiga o'tish, jahon axborot mahsulotlari va xizmatlariga chiqish yuqorida keltirilgan manbalarga turli aholi guruhlarining tez suratda kirib borishini tashkil qilish muammo bo'lib turibdi. Respublikamizda axborotlar sohasining rivojlanishiga boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatmoqqa, jumladan: jamiyatni axborotlashtirishning past darajadaliigi, axborot texnologiyalari rivojlanishi uchun zarur resurslarning etarli darajada emasligi, hisoblash texnikasi va aloqa vositalarining etarli darajada rivojlanmaganligi, EHM lokal va hudud tarmoqlarini qo'llash va rivojlantirish borasidagi qoloqlik, texnologik ma'lumotlar va bilimlar bazalarining sust qo'llanilishidir.

Jahon amaliyoti tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'z fuqarolarini axborotlashgan muhitda faoliyat ko'rsatishga o'rgatgan jamiyatgina vaqgdan yutadi, chunki faqat miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslangan iqtisodiyot tizimining kelajagi yo'q.

Axborot mahsulotlari va xizmatlari axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalari bozorida asosiy tovar bo'lib sanaladi, ular yordamida foydalanuvchilarga ko'proq axborot xizmatini ko'rsatish ko'zda tutilgan.

Bozor munosabatlari axborot mahsulotlarining yangiligi, ishonchligi va to'liqligi darajalariga yuqori talablar qo'yimoqda. Chunki busiz samarali marketing, moliya-kredit va investitsiya faoliyatini yuritish mumkin emas. Axborot mahsulotlarining respublikamiz hayotida tutgan o'rni va roli ijobiy tomonga o'zgarib bormoqda. Mamlakatimizda axborot kommunikatsiyalar texnologiyalari bozori industriyasini tarkib toptirish jamiyatimizda chuqur ijtimoiy o'zgarishlarga olib kelib, uni «industrialdan axborotlashgan jamiyatga» aylantirishiga ishonchimiz komil.

Bugungi kunga kelib, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida virtual stendlardan muvaffaqiyatli foydalanilmoqda. Xo'sh, virtual stend deganda nimani tushunamiz?

Virtual stend – o`quv amaliy stendi yoki o`quv-malaka ustaxonasi bo`lib, o`quvchi-talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, kompyuter dastur va texnologiyalari orqali ma`lum yo`nalishda zaruriy ko`nikmalarni hosil qilishga yordam beradi.

Virtual stendlar har bir o`quvchi-talaba uchun texnikaga o`zining kirish parametrlarini «buyurishga», o`z bilimlarini nazorat qilishga imkon beradi. Laboratoriya ishini o`tkazish, uni zarur tartibda tushunish va hokazolar bilan bog`liq vaqtdan yo`qotish esa kompyuter samarasi hisobiga kamaytiriladi.

Bunda, ayniqsa, zamonaviy jihozlar va apparatlarni harid qilish, ularni barcha ta`lim muassasalarida taqsimlash bilan bog`liq ulkan moliya zahiralarning tejab qolinishi muhimdir. Zamonaviy axborot texnologiyasi bo`lgan oddiy kompakt diskka o`nlab, ba`zan esa, yuzlab laboratoriya ishlarini joylashtirish mumkin. Endi esa bir dona shunday virtual laboratoriya stendi necha marta arzonga tushishini hisoblab chiqish qiyin emas. Bundan tashqari, ular bilan birga ta`lim muassasalarini ta`minlash mumkin. Agar ularda Internetga ulangan kompyuter tarmog`i bo`lsa, undan ham yaxshi bo`ladi. Bundan shuni ko`rish mumkinki, virtual stendlar ko`proq qo`llansa, shunday sarflarning oldini olish mumkin bo`ladi.

Internet tizimining xalqaro axborot tizimi orqali masofali usullar yordamida mutaxassis kadrlar tayyorlash va pedagogik kadrlar malakasini oshirish imkoniyati rivojlanmoqda. Tahsil olayotganlar ham, ta`lim muassasalari ham virtual stendlardan foydalanishdan manfaat ko`radilar.

Ularning joriy qilinishi natijasida, an`anaviy ta`limga qiyoslaganda, mutaxassislarni tayyorlash bo`yicha ta`lim jarayonining yanada yuqori sifati ta`minlanadi. Bunga avtomatlashtirilgan o`qituvchi (pedagog) va test o`tkazuvchi, tizimlar, test topshiriqlari va o`z-o`zini tekshirish uchun savollarni o`z ichiga olgan ixtisoslashgan o`quv-uslubiy qo`llanmalardan foydalanish, o`quv jarayonining uslubiy negizini tezkor yangilash hisobiga erishiladi. Biz o`qitishning tashkiliy shakllari, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda turli ta`lim maskanlarining o`quv imkoniga ega bo`lamiz. Bu esa ma`lum darajada turli muassasalar mutaxassislari diplomlari qadri teng bo`lishini ta`minlaydi.

Demak, ta`lim jarayonida virtual stendlardan samarali foydalanish ta`lim sifatini oshiribgina qolmay, balki ulkan moliya zaxiralarini tejashga ham imkon beradi hamda xavfsiz, ekologik toza muhitni yaratadi. Virtual stendlarning joriy etilishi ta`lim, ishlab chiqarish, boshqa davlat muassasalarining umumiy yondashuvini talab qiladi. Virtual o`qitish stendlarini, ayniqsa qimmatbaho jihozni harid qilishdan oldin diqqat bilan o`rganib chiqish zarur. Bu xodimlarni mahalliy sharoitda o`qitishga, ta`lim oluvchilarni xorij mamlakatlariga guruh-guruh bo`lib jo`nashini oldini olishga imkon yaratadi.

Shunday qilib, ta`lim jarayoniga o`qitish vositalarining joriy etilishi quyidagilarga olib keladi:

- ta`lim jarayonini, o`quvchi-talabalarning aniq tayyorgarlik darajasini, qobiliyatlari, yangi materialni o`zlashtirish sur`ati, qiziqish va mayllarini hisobga olgan holda ularga ko`proq individual ravishda yordam berish;

- o`quvchi-talabalarining bilish faoliyatlarini kuchaytirish, ularning o`zini o`zi takomillashtirish, ta`lim va kasbga qiziqishlarini shakllanishiga intilishlarini qo`llab-quvvatlash va rivojlantirish;

- ta`lim jarayonida fanlararo aloqalarni kuchaytirish, borliq hodisalarini kompleks o`rganish;

- ta`lim jarayonining moslashuvchanligi, omilkorligi, tashkil topish shakllari va usullarini takomillashtirish hisobiga uni doimiy va dinamik yangilash;

- barcha ta`lim muassasalarida o`qitishning muammoli va kompyuter vositalaridan hamda virtual stendlardan foydalanish;

- ta`lim jarayonining texnologik bazasini hozirgi zamon texnik vositalari ni joriy etish yo`li bilan takomillashtirish.

Qisqa xulosa

Jamiyat hayotining jadal tarzda rivojlanishi, taraqqiyot ehtiyojlari va imkoniyatlarining kengayishi, turli-tuman axborotlar oqimining tezlashishini hisobga olib, zamonaviy ta`limning yangi shakl, vosita va usullaridan foydalanish mexanizmini yaratishni o`z zimmasiga olmog`i talab etiladi. Bugungi kunda turli tipdagi ta`lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ta`limning o`rni va darajasini aniqlashga yo`naltirilgan tadqiqotlarda o`qitish vositalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish taqozo qilinadi. Shundagina ta`lim jarayonining natijalari fan, ishlab chiqarish, madaniyat, iqtisod hamda jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga xizmat qila oladi. Ushbu bobda o`quv vositalarining tavsifnomasi, ishlab chiqarishja o`qitish vositalari, ekran va tovushli ekran o`qitish vositalari, o`qitish vositalarining rivojlanish istiqbollari, axborot texnologiyalari xususida atroflicha fikr yuritilgan va bob bo`yicha juda ko`p axborotlar o`rin olgan.

O`z-o`zini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. O`qitish vositalariga nimalar kiradi?
2. Hozirgi zamon o`quv vositalariga misollar keltiring.
3. Tabiiy va moddiy obyektlarga nimalar kiradi?
4. Ekran va ekran tovushlik o`qitish vositalari haqida fikr bildiring.
5. Axborot texnologiyalariga ta`rif bering.
6. Masofaviy o`qitish deganda nimani tushunasiz?
7. O`qitish vositalari qachondan boshlab ishlatilyapti?
8. TelekonferenSiya deganda nimani tushunasiz?
9. Virtual stend nima va unga misol keltiring.
10. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi haqida fikr bildiring.

V BOB

KASBIY PEDAGOGIKADA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Bobning qisqacha mazmuni

Kasbiy pedagogikada innovatsion texnologiyalar. Kasbiy pedagogikada innovatsion texnologiyalar. Innovatsion texnologiyalarning mazmuni, maqsadi va vazifalari. Mamlakatni modernizasiya qilish sharoitida o`qitish texnologiyalari majmuaviy interfaol tizim sifatida. O`qitish texnologiyalarini loyihalash. Ma'naviy-axloqiy, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida pedagogik amaliyotda innovatsion texnologiyalarni qo'llash. Innovatsion texnologiyalar asosida mashg'ulotlarni tashkil qilish.

**Kasbiy fanlarni o`qitish jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.** Kasbiy fanlarni o`qitishda muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati va zarurati. «Klaster», «Aqliy hujum», «Bumerang», «Veer», «Iqtisodchi», «Iqtisodchi-rahbar» texnologiyalari va ulardan foydalanish. «Muammoli ma'ruza», «Munozarali ma'ruza», «Hamkorlikda o`qitish texnologiyasi», «Modulli ta'lim texnologiyasi». Tajriba vositasida o`qitish Sikli, rolli hamda ishbilarmon o`yinlar kabi ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida kasbiy fanlarni o`qitish.

18- mavzu. Kasbiy pedagogikada innovatsion texnologiyalar

Reja:

- 18.1. Kasbiy pedagogikada innovatsion texnologiyalar.
- 18.2. Innovatsion texnologiyalarning mazmuni, maqsadi va vazifalari.
- 18.3. O`qitish texnologiyalari majmuaviy interfaol tizim sifatida.
- 18.4. O`qitish texnologiyalarini loyihalash.
- 18.5. Pedagogik amaliyotda innovatsion texnologiyalarni qo`llash.
- 18.6. Innovatsion texnologiyalar asosida mashg`ulotlarni tashkil qilish.

18.1. Kasbiy pedagogikada innovatsion texnologiyalar

O`zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinligini kafolatlovchi jamiyatni ma'naviy yangilaydigan ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantiradigan va uni jahon hamjamiyati darajasiga ko'tarib, uzviylikni ta'minlaydigan ochiq demokratik huquqiy davlat qurmoqda.

O`zbekiston taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyoti va umuminsoniy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so`nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ilg`or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o`zlashtirish zarurligi alohida ta'kidlab o`tilgan.

Ta'limga 3 xil yondashuv

Ma'lumki pedagogikada talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan bir necha o`qitish uslublari ishlab chiqilgan; muammoli o`qitish, ish faoliyatini ifodalovchi o`yinlar, rollar bajarish, mavzuiy o`qitish va hokazo. Ammo ular xalq ta'limi tizimida keng qo`llaniladi deb bo`lmaydi. Bizning fikrimizcha, buning sababi har bir mashg`ulotga tayyorgarlik pedagogik izlanishni ko`zda tutishni, yuksak kasbiy mahoratni, ijodiy yondashuv va ko`p vaqt sarflashni talab qiladi. Odatda, har bir bunday mashg`ulot senariysi o`ziga xos xususiyatga ega va takrorlanmasdir.

Ta'limda og`zaki - ko`rgazmali yondashuv juda katta tajribaga ega va qismlarga ajratilib ishlab chiqilgan bo`lib, ta'lim tizimida ulkan xizmat ko`rsatdi, biroz bo`lsa-da, takomillashuvni davom ettirmoqda, ammo bu takomillashuv yondashuvning qonuniyatlari doirasida cheklangandir. Jadal sur'atlar bilan o`sib borayotgan fan va texnika talablari ta'lim tizimidagi islohotlar raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, shaxsni rivojlantirish, uning ma'lumot olish istaklarini qondirishga bo`lgan jamiyat ehtiyojlari hamda o`qitish uslublari o`rtasida ziddiyatlar tug`ilishiga olib keladi.

O`zbekiston pedagoglari pedagogik texnologiya bilan etarlicha tanish emaslar. Albatta bu holatni tuzatishga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Ko`p bosqichli ta'lim tizimida, yangi standartlar va dasturlar doirasidagi ta'lim jarayonini eskirgan uslubiyat bo'yicha olib borilishiga yo'l qo'yib bo`lmaydi.

Ta'lim tizimidagi keng qamrovli tarkibiy islohotlarni respublika pedagoglari ilg`or pedagogik texnologiyalarni o`zlashtirish va o`quv jarayoniga qo`llash bilan mustahkamlashlari zarur. Avval ta'kidlanganidek, buning uchun pedagoglarimizni o`quv jarayoniga texnologik yondashuvlarini o`rgatish talab etiladi, bu esa pedagogik

texnologiyadan foydalanish bilan bir qatorda uni O'zbekiston madaniyati, an'analari va tajribasi bilan boyitishga olib keladi.

Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

Maqsadga yo'naltirilganlik, oraliq natijalarni tashxisli tekshirib borish, ta'limni alohida o'qitish lavhalariga ajratish kabi usullar hozirgi kunga kelib qayta-qayta takrorlash mumkin bo'lgan ta'lim texnologiyasi g'oyasida mujassamlangan.

U asosan o'z ichiga quyidagi omillarni oladi;

- ta'limda umummaqsadning qo'yilishi;
- tuzilgan umummaqsaddan aniq maqsadga o'tish;
- o'quvchilarning bilim darajasini dastlabki (tashxisli) baholash;
- bajariladigan o'quv tadbirlari majmuasi (bu bosqichda o'quvchilar bilan muloqat asosida ta'limga joriy tuzatish) kiritilishi lozim;
- natijani baholash.

Ta'limga texnologik yondashuv

Tarbiyalash texnologiyasi - nisbatan yangi atama bo'lishiga qaramay, rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Tarbiyalash texnologiyasi yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarning g'oyasi, mazmuni, tarkibini emas, balki bu sohadagi hukumat ishlab chiqqan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Tarbiyalash texnologiyasi mo'ljallangan tarbiyaviy maqsadga samarali erishuvni ta'minlovchi vositalar majmuasini ko'rib chiqadi. Shu bois professor-o'qituvchilar uchun har tomonlama rivojlangan yuqori intellektual va ma'naviy barkamol fuqaro shaxsini shakllantirishga qaratilgan talabalarni hukumat siyosatiga muvofiq tarbiyalash texnologiyalarini egallashi dolzarbdir.

Tarbiyaviy yo'nalishlar va maqsadlar quyida keltirilgan.

1. Fuqaro tarbiyasi. Eng yuksak milliy qadriyatlar va sifatlarni tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlarni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi fuqarosining milliy o'z-o'zini anglashni rivojlantirish.

2. Kasb egallashga, shaxsiy mas'uliyatni yuqori malakali bo'lishga va kasbiy mahoratga intilishni tarbiyalash, mehnat faoliyatiga va doimiy ravishda malakani o'qitib borishga undovchi sifatlarni tarbiyalash.

3. Oilaviy hayotga tayyorlash. Ota-ona va qondosh-qarindoshlar oila oldida mas'uliyat va javobgarlik hissini tarbiyalash.

4. Talabani shaxs sifatida rivojlantirish. Betakror shaxsiy sifatlar va ijtimoiy qiyofaning har tomonlama ijodiy rivojiga ko'maklashish.

Zamonaviy tarbiyalash texnologiyasi - har tomonlama yondashuvni amalga oshiradi va quyidagi majburiy talablarga rioya qiladi:

1. Tarbiyalanuvchilarga uch yo'nalish bo'yicha ta'sir etiladi - tafakkuriga, sezgilariga va xulqiga.

2. Tarbiya (tashqi pedagogik ta'sir) va o'z-o'zini tarbiyalashning uzviyligi tufayli ijobiy natijaga erishiladi.

3. Tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi barcha vosita va tadbirlarning muvofiqlashtirilishi; ijtimoiy institutlar, birlashmalar, ommaviy axborot vositalari, adabiyot, san'at, oila, maktab, huquq targ'ibot idoralari, jamoalar - har tomonlama yondashuvning zaruriy shartidir.

4. Shaxsning ma'lum sifatleri amaldagi tarbiyaviy ishlar majmui orqali hosil qilinadi. Bu ishlar yaqqol ko'rinishda va ko'p yoqlama bo'lishi, ular bir vaqtning o'zida aqliy, jismoniy, xulqiy, estetik va mehnat tarbiyasini uzviy holda olib borishi zarur.

5. Har yoqlama yaxlit tarbiyaviy yondashuv tarbiyachining tizimli munosabatini va boshqaruvini taqozo qiladi. Boshqaruv tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi tashqi va ichki omillar va ularning o'zaro ta'siri inobatga olingandagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Shu bois, u omillar haqida aniq tasavvurga ega bo'lish zarur.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p marta takrorlanib, ularni o'quv muassasalariga olib kirish lozimligi uqtirilgan.

Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar.

O'quv-tarbiya ishlari jarayonida talaba yoshlarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda talabalarni axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan amaliy mashg'ulotlarda foydalanishi muhimdir. Bu esa talabalarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalashni, o'quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini o'rnatish bo'yicha rejalarini aniq belgilashga erishishni ularning ichki ehtiyojiga aylantirish talab etiladi.

Innovatsion texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonining bir tizimga solingan ilmiy-nazariy va metodik asoslangan yangi shakl, usul va vositalarining majmuidir. Bunda yangi mazmun, shakl, usul va vosita uyg'unligida maqsad, vazifa, faoliyat va pedagogik natija yaxlitligi ta'minlanadi hamda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

Ta'lim texnologiyasi reproduktiv dars berishga asoslangan bo'lib, undagi o'quv jarayoni talabalarga tipik holatlardagi harakatlarni egallashga yo'naltirilgan. Reproaktiv bilim berish jarayonida mashg'ulot aniq bo'laklarga bo'linib, har bir bo'lagida talabalar bilishi va o'rganishi shart bo'lgan natijalar ko'rsatiladi. O'quv materiallari mashg'ulot maqsadidan kelib chiqib, modullarga bo'lingan va talabalarning o'quv jarayonida aniq savollarga konkret javoblar topishi asosida qurilgan bo'lib, savol va javoblar o'zaro uzviy bog'liqlikda bo'lishi natijasida bir butunlikni tashkil qiladi.

Yangicha yondashuv, yangicha fikrlash asosida o'qitish jarayonida talabalar faoliyatining samarali shakl va uslublari, ularning mustaqil ishlarini tashkil qilish kerak. Bunday mustaqil topshiriqlar talabalarni o'ylashga, har tomonlama fikr

yuritishga, berilgan topshiriqlarni o'z hayotiy tajribalariga asoslanib hal etishga o'rgatadi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tish jarayonida muammoli vaziyat talabalarining qiziqishi, bilim saviyasi, fikr yuritish doirasi hisobga olingan holda tashkil qilinadi. Muammoli vaziyatni yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsadni amalga oshirish uchun vaziyatni baholashda talabalarining og'zaki va yozma javoblaridan vaqti-vaqti bilan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

18.2. Innovatsion texnologiyalarning mazmuni, maqsadi va vazifalari

Innovatsion texnologiyalar asosida bahs-munozara darslari, aqliy hujum o'yinlaridan keng ko'lamli bilim, tajriba va mustaqillikka asoslangan holda mashg'ulotlar tashkil etilsa, quyidagi natijalarga erishiladi:

- mashg'ulotlar davomida talabalarining mustaqilligi, ixtiyoriyligi va erkinligiga erishiladi;
- talabalar o'z fikr va qarashlarini himoya qilishga o'rganadilar, ularni boshqalarga etkazish mahoratini egallaydilar;
- talabalar jamoa fikriga tayanishga, uni hurmat qilishga o'rganadilar va ularda o'zaro hurmat hissi ortib boradi;
- talabalar o'quv faniga doir materiallar bilan mustaqil ishlashga, izlanishga, o'qitishning samarali shakl va uslublaridan ijodiy foydalanishga odatlanib boradi;
- talabalarda bilimlarni mustaqil egallash, ijodiy fikr yuritish va erkin fikrlash malakalari shakllanadi;
- o'quv mashg'ulotlarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga, o'zaro fikr almashishga, pedagogik faoliyatni tanqidiy tahlil qilish va taqqoslashga o'rganadilar.

Bugungi kunda tarkib topgan ta'limning eng muhim elementlari qadimdan shakllanib kelgan va o'zining ahamiyatini hozirda ham yo'qotmagan. Ta'lim maqsadi, mazmuni, shakllari, uslub va vositalari pedagogikada ta'lim jarayonlarini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan an'anaviy kategoriyalar bo'lib hisoblanadi.

Aynan shu kategoriyalar ma'lum bir predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik kategoriyalarni maqsadga muvofiq ravishda yo'naltiruvchi pedagogik va o'quv faoliyatining qonuniyat va mezonlari tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi.

Pedagogik jarayonning mohiyati – o'qituvchining ta'lim oluvchi bilan birgalikdagi faoliyatida o'z aksini topadi, bunda pedagog ta'lim oluvchiga qiyinchiliklarni engib o'tishi uchun yordam beradi. Pedagogik yordamning mohiyati pedagogik jarayonning yo'naltirilganligi va tavsifida hamda shaxsni shakllantirish va tarbiyalashda hal etiladigan vazifalar bilan ifodalanadi. *Bu vazifalar eslatgan, ko'rsatgan, tushuncha bergan, yo'naltirgan, haqqoniy lashtirgan, maslahat bergan, bartaraf etgan, hamdardlik qilgan, talabchanlikni qo'llab-quvvatlagan kabi holatlarda namoyon bo'ladi.*

Pedagogik texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, bunda ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashhis qilish, natijalash, tuzatish kiritish imkoniyatlari mavjud. Bunda ta'limdan kutilgan natijaga erishiladi, vaqt tejaladi, bu esa pedagogik

texnologiyaning samaradorligi demakdir. Pedagogik texnologiyaning tasdiqlanuvchanligi - ishlangan model boshqa pedagoglar qo'llaganda ham xuddi o'shanday samara-natija berishi kerakligini bildiradi. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim jarayoniga yangicha yondashib, ijodkorlik, bunyodkorlik tadbiriq etilsagina, ta'lim samarasi yangi bosqichga ko'tariladi, ya'ni:

- talabani talabi, moyilligi, istak xohishi, uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;
- talabani o'quv mehnatiga mas'uliyati, javobgarligi va burchi oshadi;
- bilimlarni mustaqil egallash malakalari shakllanadi;
- unda umr bo'yi o'z bilimini o'zigina boyitishi mumkinligiga ishonch paydo bo'ladi;
- erkin fikrlash malakasi shakllanadi;
- shaxs jamiyatda o'zining o'rnini tezroq topib olishiga muhit yaratadi.

Buning uchun biz talabaga «sen buni bilishing kerak» degan majburlovchi da'vatdan «menga bu zarur va men buni bilishga uni hayotda qo'llashga qodirman» degan ichki ishonch va intilishni uyg'otishga o'tishimiz kerak.

Shunday qilib, oliy o'quv yurtlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, o'quv mashg'ulotlari samaradorligini, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, o'qitishda masofaviy ta'lim va kompyuter savodxonligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

18.3. O'qitish texnologiyalari majmuaviy interfaol tizim sifatida

Zamonaviy o'qitish texnologiyalari – majmuaviy interfaol tizimlar bo'lib, ular o'z ichiga ta'lim maqsadlari bilan belgilangan kasbiy ko'nikma va malakalarning, shaxs xislatlarining o'rganuvchilar tomonidan egallanishi hamda bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan operaSiya va harakatlarning tartiblashtirilgan to'plamini qamrab oladi. Bu o'rinda ta'lim maqsadlarining belgilanishi, mazmunni tanlash va ishlab chiqishga, ta'lim jarayonlarini tashkil qilishga, ta'lim metod va vositalarining belgilanishiga, shuningdek, o'qituvchilarning malaka darajasiga, erishilgan natijalarni baholash metodiga asoslanishi lozim. Keltirilgan mezonlarning majmuaviy qo'llanilishi o'quv jarayoni mohiyatini va uning texnologiyasini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» har bir o'qituvchining oldiga dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan, uddaburon, ishning ko'zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasini qo'ydi. Bunday ulkan vazifalarni amalga oshirishda o'qitish amaliyotiga zamonaviy va jahonning eng ilg'or ta'lim texnologiyalarini qo'llashni davr taqozo etmoqda.

Ma'lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta'limni rivojlantiruvchi yangi tamoyillarga asoslangan bo'lib, u o'quvchi-talaba shaxsini shakllantirishga yo'naltirilmog'i kerak. Yangi pedagogik texnologiya markazida ta'lim jarayonining rahbari hamda shu jarayonning sub'ekti va obykti bo'lgan o'qituvchi va o'quvchi-talaba turadi. Shunday ekan, bu ikki shaxs o'rtasidagi o'zaro muloqot, hamkorlik, bir-biriga ko'rsatadigan ta'sir jarayonlari yuksak darajada, zamonaviy va milliy talablar asosida bo'lishi lozim. Buning uchun ta'lim jarayoni, o'qituvchi va ta'lim-

tarbiya jarayoni oldiga qo'yilgan talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarish tamoyillari hamda yo'llari o'quvchi-talabani aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish usullari, u bilan hamkorlik qilish, uni o'qish va o'rganishga yo'naltirish, o'quvchi-talaba shaxsiy faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ular bilan muloqotga kirishish, muammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, auditoriyada ijodiy, ishchanlik muhitini vujudga keltirish, o'quvchi-talaba faoliyatini aniq va to'g'ri baholash metodlari bilan qurollangan bo'lishi lozim.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan yana biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga etkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat etish, ular tomonidan egallangan bilim, malakalar darajasini baholash, o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni talab etadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to'planib, interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. 1996 yildan buyon mamlakatimiz ta'lim tizimi xodimlari o'rtasida interfaol metodlar va ulardan ta'lim jarayonini tashkil etishda foydalanish borasidagi nazariy va amaliy bilimlar targ'ib etib kelinmoqda.

Biz amaliyotda qo'llagan va ijobiy natija bergan texnologiyalardan biri bu - «BLIS-O`YIN» metodidir.

Ushbu texnologiya talabalarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan. Bu texnologiya davomida o'quvchilar o'zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o'tkaza oladilar.

Maqsad:

«Blis-o'yin» texnologiyasi talabalarga tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so'ngra o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir bo'la olishga yordam beradi.

O`TKAZILISH JARAYONI

1-BOSQICH.

- o'qituvchi ushbu o'yin bir necha bosqichda o'tkazilishi haqida talabalarga tushuncha beradi. Har bir bosqichdagi vazifani bajarishga aniq vaqt ajratilishi, talabalar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi;

- talabalarga alohida-alohida tarqatma material beriladi;

- o'qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifani talabalarga tushuntiradi, ya'ni tarqatma materialda berilgan harakatlarni ketma-ketligini to'g'ri belgilash, belgini esa qog'ozdagi alohida ajratilgan bo'linga raqamlar bilan ko'rsatish kerakligini tushuntiradi;

- berilgan topshiriq avval yakka tartibda bajarilishini aytadi.

2- BOSQICH

- o'qituvchi birinchi berilgan topshiriqni har bir talaba tomonidan yakka tartibda bajarilishini kuzatadi va tushunmovchiliklar yuzaga kelganda yordam ko'rsatadi;

- har bir talaba tarqatma materialdagi **«yakka baho»** bo`limiga shu erda berilgan harakatlardan o`zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma-ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi, ya'ni berilgan bir nechta harakatdan, uning fikricha qaysi biri birinchi bo`lishi, qaysi biri esa ikkinchi bo`lishini belgilaydi, o`qituvchi bu vazifani bajarish uchun talabalarga 10 daqiqa vaqt beradi.

3-BOSQICH

- o`qituvchi talabalardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etishlarini so`raydi. 3 kishilik guruhlar o`quvchilarning xohishlariga qarab yoki raqamlar bo`yicha tashkil etilishi mumkin;

- kichik guruhlardagi talabalarining har biri o`z qog`ozidagi yakka baho bo`limida belgilangan harakatlar ketma-ketligi bilan bir-birlarini tanishtiradilar, keyin 3 kishida uch xil bo`lgan ketma-ketlikni birgalashib, bir-birlari bilan tortishib, bahslashib, ta'sir o`tkazib kelishgan holda ularga tarqatilgan qog`ozdagi **«guruh bahosi»** bo`limiga raqamlar bilan belgilab chiqadilar;

- o`qituvchi kichik guruhdagi tortishuvlarda ishtirok etmaydi, faqat kichik guruhlar va har bir talaba faoliyatini kuzatadi, bu vazifani bajarish uchun 20 daqiqa vaqt beriladi.

4-BOSQICH

Barcha kichik guruhlar o`z ishlarini tugatgach, o`qituvchi harakatlar ketma-ketligi bo`yicha to`g`ri javobni beradi, ya'ni talabalarga tarqatilgan qog`ozlardan **«to`g`ri javob»** bo`limini topishni va unga o`qituvchi tomonidan aytilgan harakatlar ketma-ketligining raqamlarini yozishni so`raydi.

5-BOSQICH

O`qituvchi **«to`g`ri javob»** bo`limida berilgan raqamlarning **«yakka baho»** bo`limida berilgan raqamlarni (yoki aksincha), ya'ni kattadan-kichikni ayirgan holda **«yakka xato»** bo`limiga chiqqan farqni yozishni so`raydi. **«yakka baho»** bo`limidagi sonlarni yuqoridan pastga qarab qo`shib chiqib umumiysini hisoblashlari kerakligini uqtiradi.

6-BOSQICH

Xuddi shu tartibda **«to`g`ri javob»** va **«guruh bahosi»** o`rtasidagi farq kattadan-kichikni ayirish orqali bajariladi, chiqarilgan farqlar soni **«guruh xatosi»** bo`limiga yozilib, yuqoridan pastga qarab qo`shiladi va umumiy son keltirib chiqariladi.

7-BOSQICH

O`qituvchi yakka va guruh xatolarining umumiy soni bo`yicha tushuncha beradi, ularni alohida-alohida sharhlaydi.

IZOH: Bajarilgan vazifani baholashning yana bir turi, quyidagicha: talaba-o`quvchilarning javoblari o`qituvchi tomonidan berilgan **«to`g`ri javob»**ning yarmidan ko`piga to`g`ri kelgan bo`lsa, demak, «qoniqarli», 75%ga to`g`ri kelgan bo`lsa, «yaxshi», 100%ga to`g`ri kelgan bo`lsa «a'lo» deb belgilash mumkin.

Umuman olganda, hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalari o`qitishning asosiy vositalari bo`lib xizmat qilmoqda. Chunki ularning qo`llanilishi talabalarining o`quv jarayoniga faol jalb kilinishini ta'minlaydi. SHuning uchun ta'lim texnologiyalari bazasida kompleks o`qitish vositalari konsepsiyasi ishlab chiqilishi zarur bo`lib, mazkur konsepsiya doirasida

yangi axborot texnologiyalarini qo'llanilishi o'quv jarayonini samarali kechishiga olib keladi.

18.4. O'qitish texnologiyalarini loyihalash

O'qitish texnologiyasini loyihalashni pedagogik vazifaning qo'yilishi va uni hal etishga qurish asosida qaraymiz.

1. Pedagogik vazifaning qo'yilishi.
2. Didaktik jarayonni ishlab chiqish.

Pedagogik vazifaning belgilanishi quyidagilarni qamrab oladi:

- ta'lim maqsadlarini tahlil qilish va shu asosda o'quv predmetining mazmunini aniqlash;

- o'quv predmeti mazmunini tuzilmasini ishlab chiqish va uni o'quv elementlari tizimi ko'rinishida ifodalash;

- o'quv elementlarini o'zlashtirish darajalarini belgilash;

- ta'lim oluvchilarning dastlabki bilim darajasini aniqlash, bu ko'rsatkich o'quv predmetining mazmuni asoslanadigan o'quv materialini o'zlashtirganlik darajasidan kelib chiqadi;

- o'quv-moddiy baza hamda ta'limning tashkiliy shakllariga qo'yiladigan chegaralarni belgilash.

Pedagogik vazifalarning hal etilishini ta'minlovchi o'qitish texnologiyasini loyihalashga qaratilgan o'qituvchi faoliyati ta'limning metod, shakl va vositalarini shakllantirish bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda pedagog faoliyati uchta asosiy tashkil etuvi bilan tavsiflanadi: boshqarish turi, axborot almashinuv jarayonining turi, axborotni uzatish vositalari tiplari va bilish faoliyatini boshqarish. O'qitish jarayoniga faoliyat nuqtai nazaridan yondashish konsepsiyasiga asoslanib, uni tashkillashtirishning quyidagi mantiqiy ketma-ketligini qurish mumkin. Dastlab o'quv material mazmunining tavsifi, uni o'rganishdan ko'zlangan maqsad hamda pedagogik vazifaning qo'yilish shartlari tahlil etiladi. So'ngra o'qitishning mos ravishdagi metodlari hamda ta'lim oluvchilar bilish faoliyatini boshqarish sxemasi belgilab olinadi. Shu asosda o'qitish vositalari ro'yxati tuziladi. Ushbu usul bilan hosil qilingan metodlar va ta'lim vositalari tizimi tashkiliy shakllar bilan uyg'unlashtiriladi, ya'ni texnologiya ishlab chiqiladi.

Ta'lim jarayoni stoxastik xarakterga ega. Unda kutilgan va kutilmagan, rejalashtirilgan, favquddodda va tasodifiy hodisalar ham uchrab turadi. O'rganilgan bilimlarga ishlov berish jarayonida ham joriy nazorat natijalariga asoslanib loyihaga yangi o'zgarish, qo'shimcha va tuzatishlar kiritiladi;

- bo'lim yoki mavzu bo'yicha umumiy xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalarni murakkab o'quv holatlariga tatbiq qilish, oraliq nazorat natijalariga ko'ra mavzu yoki bo'lim bo'yicha axborot to'plash, to'plangan axborotlarga ishlov berish jarayonlarida talabalar erishgan yutuqlarni tahlil qilish, talabalarning bilim va malakasi, ijodiy faoliyat tajribasidagi kamchiliklarini ko'rsatish, guruhdagi har bir talabaga yakuniy nazoratgacha bajariladigan qo'shimcha topshiriqlarni berish, ularni o'quv materialini yanada atroflicha o'zlashtirishga rag'batlantirish;

- yakuniy nazoratning asosiy vazifasi talabalarning ma'lumot va ta'lim mazmuni elementlarini etalon darajasida o'zlashtirishlarini aniqlash, etalon

darajasidan past o'zlashtirgan o'quvchi-talabalarni ogohlantirish, qo'shimcha topshiriqlar berish kabilardan iborat.

Pedagogik texnologiya ta'lim maqsadini aniq o'rnatishdan boshlab to uning natijalarini baholashgacha bo'lgan bosqichlarning har biri uchun ijodiy faoliyatni talab etadi. Pedagog faoliyatining texnologiyalanuvchanlik darajasini prof. N.Sayidahmedov quyidagi mezonlar asosida alohida ajratib ko'rsatgan.¹

1. Tashxislanuvchan o'rnatilgan maqsad – talabalar tomonidan didaktik, jarayon mahsuli sifatida o'zlashtirilgan aniq o'lchamli tushunchalar, amallar va faoliyat turlari.

2. Ta'lim mazmunini o'quv elementlari yordamida bayon qilishda abstrakhiya pog'onalarining va axborotlarni o'zlashtirish darajasining hisobga olinishi.

3. O'quv materiallarini o'zlashtirish bosqichlarining etarlicha mantiqiy qat'ianligi – didaktik jarayon tuzilmasiga mosligi.

4. O'quv jarayoniga yangi vositalar va axborotlashtirish usullarining joriy etilishi.

5. O'qituvchining qoidabop (algoritmli) va erkin, ijodiy faoliyatidagi mumkin bo'lgan chetga chiqish chegarasining ko'rsatilishi.

6. Talaba va o'qituvchi faoliyatida shaxsiy motivlashganlikning ta'minlanishi (erkinlik, ijodiyot, kurashuvchanlik, hayotiy, kasbiy mohiyat va boshqalar).

7. O'qitish jarayonining har bir bosqichida kommunikativ munosabatlarning, axborot texnikalari bilan muomala qilishning maqsadga muvofiqligi.

Yuqorida berilgan ko'rsatkichlar loyihalangan o'quv jarayonining texnologik darajasini to'liq ifodalaydi, ularning amalda joriy etilishi esa pedagogni yuqori malakali mutaxassisga aylantiradi, talabaning nufuzini oshiradi va ijodiy faoliyatni rivojlantirishning yangi qirralarini ochadi.

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida ta'lim texnologiyasi asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlar an'anaviy pedagogik amaliyotdan qator xususiyatlariga ko'ra farq qiladi:

- mashg'ulotlar talabalarining o'quv maqsadlarini oydinlashtirishdan boshlanadi;
- ta'lim-tarbiya jarayoni oldindan qayd etilgan natijaga mo'ljallab tashkil etiladi;
- har bir talaba o'z faoliyati xususiyatlariga mos keladigan sur'atda ishlaydi;
- jamoa a'zolarining har biri o'zlari erishgan natijadan tez-tez ogohlantirib turiladi; erishilgan natija ta'limning har bir bosqichida etalonga birlashtirib turiladi;
- natija talabalarining asosiy o'quv maqsadlariga ko'ra aniqlanadi;
- o'quv materialini to'liq o'zlashtirgan talaba keyingi mavzuni o'rganishga o'tadi;
- etalondan past o'zlashtirgan talabalar uchun ta'lim o'xshash sharoitlarda takrorlanadi;
- talaba uchun o'qish-o'rganish harakatiga teng maqsadlarni amalga oshirishdan boshlanadi;

¹Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003. 30-bet.

- talaba harakatga teng maqsadlardan oraliq maqsadga – bilimlarga, undan umumiy o`quv maqsadiga qarab boradi;
- harakatga teng maqsaddan umumiy o`quv maqsadiga qarab borish o`qish-o`rganishning Siklligini ta'minlaydi;
- yakuniy (nazorat) baho o`quv kursi to`liq o`rganilgach chiqariladi.

Bugungi kunga kelib, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Demak, buning asosiy sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar esa, ularni egallayotgan bilimlarini o`zlari qidirib topishlariga, mustaqil o`rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishlariga o`rgatadi. O`qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo`naltiruvchilik funksiyalarini bajaradi. Ta'lim jarayonida o`quvchi asosiy figuraga aylanadi.¹

Pedagogik texnologiya usulining o`ziga xos xususiyati shundaki, unda ta'limning rejalashtirilgan maqsadiga erishishni kafolatlaydigan o`zlashtirish jarayoni loyihalashtiriladi.

Maqsadni ko`zlash, joriy natijalarni tekshirib borish, o`quv materialini ayrim bo`laklarga ajratish – o`quv jarayonini tashkil etishning bu belgilari - qayta ishlab chiqiladigan ya'ni takrorlanadigan ta'lim sikliga xos xususiyatlardir.

Boshqacha aytganda, takrorlanadigan ta'lim siklining asosiy qismlari quyidagilar:


- ta'lim maqsadlarini umumiy belgilash;
- umumiy maqsadni oydinlashtirib, o`quv maqsadlariga aylantirish;
- o`quv amallari majmui;
- ta'lim natijasini baholash.

O`quv jarayoni bunday takrorlanadigan shaklga ega bo'lgani uchun modul xarakterini kasb etadi, alohida qismlarga ajratiladi, ular turli mazmunga va umumiy tuzilishga ega bo'ladi.

Aslida bu, pedagogik faoliyatning siklli algoritmi bo'lib, uni ta'lim mazmunining yangi-yangi bo`limlariga, mavzulariga qo'llash mumkin.

Ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyaga binoan tashkil etish uchun loyihalashtirish bosqichida yuqori malaka talab etiladi, etakchi pedagoglar guruhi pedagogik texnologiya qoidolari va prinsiplari asosida metodik materiallarni ishlab chiqadi Bunday materiallar mavjud bo'lsa, o`qituvchining vazifasi asosan tashkiliy ishlar va maslahat berishdan iborat bo'ladi.

¹Ishmuhamedov R.J. InnovaSion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDPU, 3-bet.



9-rasm. O'quv jarayonining tuzilishi


O'quv jarayonining hamma bosqichlarida asosiy e'tibor ta'lim natijasiga erishishga qaratiladi.

Professor M.Ochilov pedagogik texnologiya usuliga quyidagilarni kiritgan:

1. Ta'limning umumiy maqsadlari, muhim masalalari tasnifi.
2. Oydinlashtirilgan maqsad (o'quv vazifa)larini ishlab chiqish.
3. Ta'limning maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga aylantirish.
4. Maqsadlarga erishish usullari.
5. Ta'lim maqsadlariga erishilganini baholash.

Bularning har biri pedagogik amallarning qulaylashtirilgan tizimidir.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan mutaxassislarning fikriga ko'ra, pedagogik texnologiya – bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan TSO, kompyuter, masofali o'qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish demakdir.



10-rasm. Pedagogik texnologiya usulining umumiy tuzilmasi

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, pedagogik texnologiyaning asosiy negizi o'qituvchi va o'quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq, ya'ni o'qitish

jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik faoliyatini tashkil etgani holda, ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi-talabalar mustaqil fikrga ega bo'lib, ijodiy faoliyat yurita olsalar, izlansalar, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi tomonidan esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yaratilsa, bularning barchasi, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Har bir dars, mavzu, o'quv predmeti o'ziga xos texnologiyaga ega, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

18.5. Pedagogik amaliyotda innovatsion texnologiyalarni qo'llash

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohotlarning quyidagi asosiy yo'nalishlarini anglab olmoq lozim:

- ta'lim mazmunini, tizimini isloh qilish;
- ta'lim-tarbiya boshqaruvini isloh qilish;
- ta'limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini yaratish;
- ota-ona, o'qituvchi-o'quvchining ta'lim jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;
- bu tub islohotlarning bosh harakatlantiruvchi kuchi-yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish-innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. «Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQSHda, 60-yillarda paydo bo'ldi. Innovatsion faoliyat F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, A.I.Shcherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan.

X.Barnet, Dj.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M.Mayez, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem ishlarida innovatsion jarayonlarni boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning «hayoti va faoliyati» uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar masalalari tahlil kilingan.

Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti amerikalik innovatik E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.

Oliy maktab o'qituvchisining innovatsion faoliyati oliy maktab pedagogikasining bosh muammolaridan biridir.

Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir.

A.I.Prigojin innovatsiya deganda, muayyan ijtimoiy birlikka-tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Tadqiqotchilar (A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o'zaro ta'sirining mikrosathi.

Birinchi yondashuvda, hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi.

Ikkinchi yondashuvda, alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashidir.

Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayonning sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.

2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.

4. Yangilikni yoyish, uni keng tatbiq etish bosqichi.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

7. V.A.Slastenin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalari bilan qondirish deb biladi.

Yangilik kiritishning tizimli konsepsiyasi mualliflari (A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy) innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar.

Birinchi shaklga, yangilik kiritishning oddiy ishlab chiqishi kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o'zlashtirgan tashkilotlarga taalluqlidir.

Ikkinchi shaklga, yangilikni keng ko'lamda ishlab chiqishga taalluqlidir.

Yangilik kiritish ham, ichki mantiq ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Pedagogik innovatsiyada «yangi» tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Shuningdek, u pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi.

Xususiy yangilik V.A.Slasteninining aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi.

Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi shartli yangilik hisoblanadi.

Mahalliy yangilik aniq obyektida yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi.

Sub'ektni yangilik ma'lum obyekt uchun obyektning o'zi yangi bo'lishi bilan belgilanadi.

Ilmiy yo`nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. Yangilik - bu vosita: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

«Innovatsiya» - bu ta'lim: ma'lum bosqichlar bo'yicha rivojlanadigan jarayon.

V.I.Zagvyazinskiy «yangi» tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi «yangi» faqatgina bu g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlar bo'lib, o'zgarib bo'lib, o'zgarib turuvchi vaziyatda va sharoitda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi.

R.N.Yusufbekova pedagogik yangilikka o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi.

Pedagogik innovatsiyada R.N.Yusufbekova innovatsion jarayon tuzilmasining uch blokini farqlaydi:

Birinchi blok - pedagogikadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning me'yorlari, uni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

Ikkinchi blok - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

Uchinchi blok – yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tatbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir. M.M.Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari kishi e'tiborini o'ziga tortadi. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

- faoliyat tuzilmasi-motiv-maqсад-vazifa-mazmun-shakl-metodlar-metodika komponentlari yig'indisi;
- sub'ektiv tuzilma-innovatsion faoliyat sub'ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;
- mazmun tuzilmasi – o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.)da yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi;
- bosqichlikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi-yangilikning paydo bo'lishi-ildam-o'sish-yetuklik-o'zlashtirish-diffuziya (singib ketish, tarqalish) – zamonaviylashtirish;
- boshqaruv tuzilmasi – boshqaruv harakatlarining to'rtta turining o'zaro aloqasi: rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik qilish, nazorat qilish;
- tashkiliy tuzilma – diagnostik, oldindan ko'ra bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tatbiq etuvchi.

Innovatsiya jarayoni, tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining 4ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

- pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemaoromlik qonuni;
- nihoyat amalga oshirish qonuni;
- pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni;
- qoliplashtirish (streotiplashtirish) qonuni;

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun oliy ta'lim muassasalari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni u pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabani dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;
- o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;
- o'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va o'quvchi-talaba o'rtasida hamkorlikdagi faoliyatining uzluksizligi ta'minlash.

O'qituvchi va o'quvchi-talabaning kutilgan natijaga erishishlari qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi-talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchi-talabaga bog'liq.

Shu bilan bir qatorda o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni,

TSOni, eng asosiysi, o`quvchi-talabanning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkitn. Qisqa qilib aytganda, o`quvchi-talabani ta`limning markaziga olib chiqish kerak.

O`qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko`ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo`lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o`qituvchiga u tomonidan bo`lajak darsning texnologik haritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik haritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o`qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o`quvchi-talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik haritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o`qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor bo`lishi, shuningdek, juda ko`p metodlar va usullarni bilishi kerak bo`ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo`lishi avvaldan puxta o`ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik haritasiga bog`liq.

O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonunining qoidalariga muvofiq tayyorlangan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da yosh avlodni ma`naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari asosida zamonaviy madaniyat va iqtisodiyotning pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etishga alohida ahamiyat berilgan.

Shu jihatdan ham umumiy o`rta ta`lim maktablarida davlat ta`lim standartlari bo`yicha ko`zda tutilgan iqtisodiy ta`lim va iqtisodiy tarbiyani takomillashtirish, uni o`quvchi-talabalar ongiga singdirib borib, iqtisodiy tafakkurni shakllantirish muammosi dolzarbdir.

Chunki har bir o`quvchi-talaba bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan bir davrda – uni o`rab turgan iqtisodiy voqelikni, unda kechayotgan jarayonni anglashi, tadqiq va tahlil qilib, xulosalar chiqarish imkoniga ega bo`lishi lozim. Bu esa har bir fuqarodan iqtisodiyot nazariyasining asoslaridan xabardor bo`lishini, uni amalda joriy qilish yo`l va vositalarini talab darajasida o`zlashtirishini taqozo etadi. Bu masalalar asosan, o`quv muassasalarida amalga oshiriladi.

Iqtisodiy tarbiyaning bosh maqsadi – yoshlarda iqtisodiy savodxonlikni, iqtisodiy ongni, iqtisodiy madaniyatni yuksaltirishdan iboratdir. Bu esa shaxsning kamol topish faoliyati vositasida aniq iqtisodga bog`liq, nazariy bilimlar tizimini, shuningdek, iqtisodiy bilim, ko`nikma va malakalar majmuasi, o`rganuvchining iqtisodiy ongiga bevosita ta`sir etishga imkon beruvchi bosqichlarni amalga oshirishdir.

O`quvchi-talabalarning bosqichma-bosqich uzluksiz ta`limi jarayonida, xususan, iqtisodiy bilim asoslarini o`rganish mobaynida ularning iqtisodiy tafakkurlari ham shakllana boradi. Ular quyidagi bilimlar majmui bo`lib xizmat qiladi: shaxsning ehtiyoj imkoniyatlarini hisobga olib, aniq reja va dasturlar tuzib, o`ziga xos uslub va metodlar asosida amalga oshirishda; shaxsning mustaqil faoliyatida samarali o`rin tutadigan aniq iqtisodiy tushunchalarni; iqtisodning siyosiy va bozor munosabatlari bilan bog`liq qonuniyat asoslari va ulardan amalda foydalanish yo`l-yo`riqlarini; mustaqil faoliyat ko`rsatishda zarur bo`ladigan barcha iqtisodiy bilim, ko`nikma va malakalar majmuini o`zlashtirishni; hayotda qaysi

sohani tanlashidan qat'i nazar, ehtiyoj darajasida iqtisodiy tayyorgarlikni o'zida shakllantirishni; iqtisodiy bilim asoslaridan to'g'ri va maqsadga muvofiq holda foydalana olish shaxs barkamolligini belgilovchi axloqiy sifatlaridan biri deb qarashni; iqtisodiy bilim asosidan xabardorlikni o'z faoliyati davomida jamiyat va davlat iqtisodiy, huquqiy siyosati asosida namoyon etadi.

Bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlari bilan bir qatorda, ma'rifat va madaniyat hamda iqtisodiy sohalarga, shu jumladan, ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiy bilimlar doirasiga ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida iqtisodiy yo'nalishdagi o'quv yurtlarida maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borishni ko'zda tutadi. Bunda eng avvalo, quyidagilarni aniqlash lozim:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish uchun ijtimoiy-pedagogik asoslar mavjudligini aniqlash;

- ta'lim majmui sifatida nimani anglatishi va qanday tarkibiy qismlardan tashkil topganligini belgilash;

- pedagogik texnologiyaning funktsional majmui jarayon sifatida nimalardan iboratligini aniqlash;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadlariga qay darajada mos kelishi va uni baholash mumkinligini ko'rsatib berish;

- pedagogik texnologiyaning majmualar nazariyasining asosiy qonuniyatlariga mosligini nazoratda tutib turish yo'l-yo'rig'ini ishlab chiqish.

Shunday qilib, bugungi kunga kelib, jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib, iqtisodiy va siyosiy mavqei kundan-kunga ortib borayotgan bo'lsa-da, biroq ijtimoiy sohada va ayniqsa, ta'lim-tarbiya jarayonida umumiy taraqqiyotdan biroz orqada qolish sezilmoqda. Bunday noxush vaziyatdan chiqib ketish yo'llaridan biri ta'lim-tarbiya jarayonini qabul qilingan davlat standartlari asosida texnologiyalashtirishdan iboratdir.

18.6. Innovatsion texnologiyalar asosida mashg'ulotlarni tashkil qilish

So'nggi yillarda respublikada mamlakatning innovatsion salohiyatini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga, ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirish va uni har tomonlama ko'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Yosh olimlar va talabalarga dunyo amaliyotidagi ilg'or ilmiy-tadqiqot usullarini va zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishlari uchun va zamonaviy innovatsion infratuzilma va qulay sharoitlarni yaratish maqsadida «Yuqori texnologiyalar o'quv-eksperimental markazi» davlat korxonasi (keyingi o'rinlarda - Yuqori texnologiyalar markazi) tashkil etildi.

O'tgan davr mobaynida Yuqori texnologiyalar markazining moddiy-texnik salohiyatini mustahkamlash va ilmiy-tadqiqot faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ko'rilmogda. Unda diagnostika to'plamlarini ishlab-

chiqishga va qimmatbaho o`simliklarning nihollarini mikroklonal usulda kuchaytirishga mo`ljallangan ikkita ishlab-chiqarish maydonchasi tashkil etildi.

Ayni vaqtda mamlakatda innovatsion faoliyat rivojlanishining hozirgi holati va asosiy yo`nalishlari samarali innovatsion texnologiyalarni qo`llash bilan bog`lik bo`lgan va jahon standartlari darajasida mahsulot ishlab chiqarishga imkon beruvchi ishlanmalarga ega, iqtisodiyotning ilmiy hajmdor tarmoqlaridagi yuqori texnologik korxonalarini har tomonlama qo`llab-quvvatlashni talab etadi.¹

Hozirgi vaqtda ilg`or pedagogik texnologiyalarni qo`llashda zamonaviy axborot texnologiyalari keng imkoniyatlar yaratmoqda. Innovatsion texnologiyalar hamda zamonaviy uslublar ta`limning sifat va samaradorligini oshirib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur innovatsiyalarning samaradorligi ko`p jihatdan ta`lim muassasasida amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyatning to`g`ri tashkil etilganligiga bog`liqdir.

O`zbekistonda ta`lim sohasidagi kuchli va izchil siyosat, bir tomondan, jahon ta`lim standartlarining yuksak darajasiga erishishga qaratilgan, ikkinchi tomondan esa xalqimizning ma`naviy-madaniy qadriyatlari va o`ziga xosligini hisobga oladi.

2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasida fan va ta`lim sohalarini rivojlantirishning eng muhim yo`nalishlari sifatida ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish belgilangan.

O`z navbatida, 2018 yilning “Faol tadbirkorlik, innovatsion g`oyalar va texnologiyalarni qo`llab-quvvatlash yili” deb e`lon qilinishi Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi hamda iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalarida innovatsion jarayonlarni jadallashtirishga katta turtki berdi.

Oliy va o`rta maxsus ta`lim tizimida ham amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli o`quv yurtlarida innovatsion faoliyat to`g`ri tashkil etilib, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash maqsadida ta`limning sifat va samaradorligini oshirishga katta e`tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ta`lim muassasalarida sifatli mutaxassislarni tayyorlashda zamonaviy o`qitish metodlari – interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o`rni va roli benihoya kattadir. Bunda pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o`quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo`lishlarini ta`minlaydi.

Bundan tashqari, o`qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o`qituvchi o`quv predmetining o`ziga xos tomonini, joy va sharoitini, eng asosiysi, o`quvchi-talabaning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina, kutilgan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, ta`lim oluvchini ta`limning markaziga olib chiqish kerak.

Pedagog tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko`ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo`lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o`qituvchi

¹ O`zbekiston Respublikasi Innovasion rivojlanish vazirligi huzurida ilg`or texnologiyalar markazini tashkil qilish to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2018 yil 19 aprely, PQ-3674-son

tomonidan bo`lajak darsning texnologik haritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o`qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o`quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Bunday texnologik haritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o`qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalardan xabardor bo`lishi, shuningdek, juda ko`p metodlar, usullarni bilishi kerak bo`ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo`lishi avvaldan puxta o`ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik haritasiga bog`liq.

Darsning texnologik haritasini qay ko`rinishda yoki shaklda tuzish bu o`qituvchining tajribasi, qo`ygan maqsadi va pedagogik mahoratiga bog`liq. Texnologik harita qanday tuzilgan bo`lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo`lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to`liq o`z ifodasini topgan bo`lishi kerak. Texnologik haritaning tuzilishi o`qituvchidan dars ishlanmasini yozish uchun asosiy vosita bo`lib hisoblanadi, chunki bunday haritada dars jarayonining barcha qirralari o`z aksini topadi.

O`qitish jarayonida o`quvchi-talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo`llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas`uliyatni sezish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o`qishga, fanga, pedagogga o`zi tanlangan kasbiga bo`lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Bunday natijaga erishish amaliyotda o`quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo`llashni taqozo etadi. Ular juda xilma-xildir. Zamonaviy metodlar, o`qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o`quvchi-talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo`lishlariga hamda mutaxassislarga kerakli bo`lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Bunday o`qitish usullarini tashkil etish uchun pedagogning innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog`liq. Unga pedagogning tayinli muloqoti, qarama-qarshi fikrlarga nisbatan munosabati, turli holatlarda rasional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi inobatga olinishi lozim.

Pedagogning innovatsion faoliyati – bu o`z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish demakdir. Ushbu rejani amalga oshirish va tahlil qilish samaradorlikka baho berishni qamrab oladi.

Umuman olganda, innovatsion faoliyatni to`g`ri tashkil etish, ta`lim jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash, muammoni hal etish usullarini shakllantirish, unga doir qaror qabul qilish hamda tanlab olingan qarorni amalga oshirish va uni baholash imkonini yaratib, tizimning alohida tarkibiy qismlaridagina emas, yaxlitlikda butun jarayonga doir muammolarni samarali hal etish imkonini beradi.

Innovatsion texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish 1976 yildan beri qo`llanilib kelinadi. Bu usul talabalarining qiziqishini va faolligini oshiradi. Bu usulga tayyorgarlik ko`rish uchun talabalar oldindan ogohlantiriladi va mavzu e`lon qilinadi.

Talabalar guruhi ikki kichik guruhchalarga bo'linadi. Ularning har biri mavzu bo'yicha savollar tayyorlab kelishi lozim. Seminar boshida talabalar musobaqa shartlari bilan tanishtiriladi. Bunda faqat javoblar uchun emas, balki savollarni to'g'ri va aniqligi uchun, qo'shimcha va tuzatishlar kiritish uchun ham ma'lum ballar belgilanadi. Guruh talabalarining barchasi faol qatnashishlari uchun esa minus ballar ham ko'rsatilishi mumkin, masalan, +3 dan -3 gacha noto'g'ri javoblar va savollar uchun ballarni ayirish usuli ishlatilishi mumkin. Musobaqa davomida doskaga to'plangan ballar yozib borilishi mumkin. Seminar oxirida g'olib guruh qatnashchilari qo'shimcha ballar bilan rag'batlanishi mumkin. Pedagog esa sinchkovlik bilan javoblarni eshitib, har bir talabaga baho qo'yib borishi lozim. Bu usul bilimlarning yanada mustahkamroq egallanishiga, nutq madaniyatining oshishiga, savollarning to'g'ri tuzilishiga, o'z fikrini bayon etishga o'rgatadi. Eng muhimi esa talabalarda mustaqil bilimlarni egallash, qidirish, mavzuga ijodiy yondashish oshadi. O'rganilayotgan mavzu har tomonlama tahlil etiladi va hayotiy jarayonlar bilan bog'lanadi.¹

Kichik guruhlar usuli

Bu usulda guruh talabalari bir necha guruhga bo'linadi, har bir guruhda 4-6 tadan talaba bo'lishi mumkin. Har bir guruhning rahbari tayinlanadi. Ularga oldindan vazifa beriladi. Guruh talabalari seminarga birgalikda tayyorlanib o'z savollarini to'liq ochib berishga harakat qilishlari kerak. Boshqa guruhlar asosiy ma'ruzachiga savollar beradilar, savollarga guruhning talabalari javob berishda yordam beradilar. Asosiy ma'ruzachi himoyasidan so'ng opponentlar savolni yanada to'liqroq izohlab berishlari kerak. Uchinchi va to'rtinchi guruh talabalari o'z fikrlarini bildirgach, tadqiqot olib borgan guruhga baho qo'yib, unga izoh berishlari kerak. Bunday usulda ish olib borish uchun guruhlarini tuzishda talabalarning bilimi teng bo'lishiga harakat qilish kerak. Guruh rahbari qilib yaxshi o'zlashtiruvchi talabalarni tanlash lozim. Bu usulda talabalarning mustaqil ishlashi, ijodiy yondashishi, jamoa bo'lib ish bajarish kabi malakalari rivojlanadi. Talabalarning o'zaro munosabati chuqurlashadi va individual xususiyatlar namoyon bo'lishi ortadi.

Ma'lum bo'limlar tugagach esa, bo'lim yuzasidan turli musobaqalar o'tkazish mumkin: ekspress metodi, KVN metodi (Slaboe zveno), bo'sh zanjirlarini topish metodi, munozara metodi, muammoli vaziyatlar metodi va boshqalar.

Iqtisodiy ta'limda masala, grafik va modellashirishning ahamiyati. Iqtisodiy ta'limda ma'ruza va seminar darslarida iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish turli masalalarni ishlash bilan birgalikda olib borilishi samaradorlikni oshiradi. Ma'ruza davomida 2-3 yillik qisqa muddatda ishlanuvchi masalalarni ishlash, seminar darslarida va uy vazifalarini rejalashtirishda esa bir oz murakkabroq masalalarning echimini topishga da'vat etiladi (Masalan: qo'shimcha qiymat qonuni). Sxema, grafiklar ayniqsa iqtisodiyotda keng qo'llanilishi zarur bo'lgan ko'rgazmali vosita hisoblanadi. Chunki ular talabalar tasavvurini shakllantirishning xotirada ma'lumotlarni aniq saqlanib qolishiga yordam beradi.

Ammo sxema va grafiklarni tuzishda o'zaro bog'liqlik, jarayonning izchilligi va eng muhim mantiqiylikka e'tibor qaratilishi kerak. Grafiklar jarayonning

¹ Xoshimova M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. (Ma'ruzalar matni). – T.: TDIU, 2005.

rivojlanishini o`zida to`g`ri aks ettirishi lozim. SHundagina ular talabga javob beradi. Sxemalar mantiqiylik va izchillik asosida tuzilishi va ish jarayonini aniq ko`rsatishi talab etiladi.

Qisqa xulosa

Bugungi kunda oliy ta`lim muassasalari va fakulstetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o`qitish metodlari-interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o`rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar o`quvchi-talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo`lishlarini ta`minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o`qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o`zgarishlar kiritish bo`lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to`liq foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo`lib fikrlash deb yuritiladi, ya`ni pedagogik ta`sir etish usullari bo`lib, ta`lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o`ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o`quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko`rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Shu o`rinda ta`kidlash joizki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, pedagogika ilmining tadqiqot obyekti sifatida, aniq fanlarni o`qitish uslubi bo`libgina qolmay, balki ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o`qitishga ham yangicha yondashuv sifatida qayd qilinishi kerak.

O`z-o`zini nazorat va muhokama uchun uchun savollar:

1. Ta`limda «innovatsion jarayonlar» termini nimani anglatadi?
2. Innovatsion faoliyatni shakllantirish shartlarini izohlab bering?
3. Pedagogik texnologiyaga ta`rif bering?
4. Pedagogik texnologiyaning tasniflarini asoslab bering?
5. Muammoli o`qitishning mohiyati nimada?
6. Siz texnologiyalarning qaysi turlarini bilasiz?
7. Interfaol metodga misol keltiring?
8. Zamonaviy o`qitish texnologiyalarining ahamiyatini tushuntiring?
9. Nima uchun pedagogik texnologiya loyihalanadi (misollar yordamida asoslab bering)?
10. “BliS-o`yin” metodi bo`yicha misol keltiring?

19- mavzu. Kasbiy fanlarni o`qitish jarayonida muammoli ta`lim texnologiyalaridan foydalanish

Reja:

19.1. Kasbiy fanlarni o`qitishda muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati va zarurati.

19.2. «Klaster», «Aqliy hujum», «Bumerang», «Veer», «Iqtisodchi», «Iqtisodchi-rahbar» texnologiyalari va ulardan foydalanish.

19.3. «Muammoli ma'ruza», «Munozarali ma'ruza», «Hamkorlikda o`qitish texnologiyasi», «Modulli ta'lim texnologiyasi».

19.4. Tajriba vositasida o`qitish Sikli, rolli hamda ishbilarmon o`yinlar kabi ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida kasbiy fanlarni o`qitish.

19.1.Kasbiy fanlarni o`qitishda muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati va zarurati

Ta'lim nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, uning samaradorligi pedagog va talaba-o`quvchi faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, mazkur jarayonning tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga, jamiyatda ilmiy kishilarga bo'lgan ehtiyojga va boshqa hali aniqlanmagan omillarga bog'liq. Jamiyat o`zining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ehtiyojlari asosida ta'lim samaradorligi yuqori bo'lishini talab etadi.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy strukturalar yaratilayotgan hozirgi kunda yuksak malakali va olgan bilimlarini amalda qo'llay oladigan shaxslarga talab kuchayib bormoqda. Bilimdon va tadbirkor, ijtimoiy faol shaxs jamiyat hayotida, mehnatda o`zining o`rnini topadi. Bunday faollik vujudga kelishi uchun bilimdon va harakatchan, milliy istiqlol g`oyasiga sodiq bo'lgan shaxsni shakllantirish kerak.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo`g`inlarini shunday tashkil etish kerakki, u bugungi kun yoshlariga chuqur va asosli ta'lim-tarbiya berish bilan birga ularni keng qamrovli fikrlashga o`rgatsin. Ta'lim jarayonida talabada mustaqil bilim olish ehtiyojining shakllanib borishi hozirgi kun talabidir.

Pedagogik amaliyot va tadqiqotlarda qator ish usullari qo'llab ko`rildi. Ta'limni muammoli tashkil etish, ta'limda o`quvchi-talabalarni faallashtirish, hamkorlik pedagogikasi, tayanch so`zlariga asoslanish, ta'limni optimallashtirish va boshqalar tajribadan o`tdi. Lekin bu pedagogik vositalar ayrim o`qituvchilarda samarali natija bersa ham, uni ommaviy yo`sinda ta'lim tizimiga kiritib bo'lmadi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati ta'limda talabalarni qiziqtirib o`qitish va bilimlarni to'liq o`zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni talabalarning aksariyat ko`pchilik qismi puxta o`zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya asosida dars o`tishda eng asosiy talab talabaning hayotiy tajribasi avval o`zlashtirgan bilimlari va qiziqishlari asosida bilim berishni ko`zda tutadi. Pedagogik texnologiya o`rganilayotgan soha bo`yicha talabalarda bilim etarlicha bo'lmagan holda ham talabada salbiy kechinmaga o`rin qoldirmaslikni, bu talabaning aybi emasligini tan olishni talab etadi. Faollik ko`rsatilsa, bilimlarni o`zlashtirib olishga talabalarda ishonch hosil qilish tavsiya etiladi.

Mavjud pedagogika fanida dars jarayoniga oid berilgan ma'lumotlarda e'tibor ko`proq yangi bilimlarni bayon etish, uni mustahkamlash va natijasini hisobga olishga qaratilgan. Bilim berishda talabaning avvalgi bilimlari, hayotiy tajribasi etarlicha hisobga olinmagan. Dars rejasida avval o`tilgan mavzuni yakunlab, yangi

mavzuga bog'lash taklif etilgan. Lekin shu yangi o'tilayotgan mavzu bo'yicha talabaning bilimini aniqlash, mavzuga xos bo'ladigan dastlabki ma'lumotlarni berish etarlicha amalga oshirilmagan.

Pedagogik texnologiya talabalarning o'rganilayotgan soha bo'yicha bilimlarini esga tushirish, jonlantirish yangi bilimni o'zlashtirishga asos bo'ladi deb ko'rsatadi. Bilimlar va tayyorgarlikni aniqlash talabani faollashtirish va bilim o'zlashtirishga ijobiy motivni keltirib chiqaradi. Mavzuni o'rganishga kirishishda uni erkin suhbat, munozara, aqliy hujum va boshqa shakllarda jonlantirish mumkin.

Pedagogik texnologiya ta'lim amaliyotida uchta darajada qo'llaniladi:

1. *Umumiy pedagogik daraja.* Umumiy pedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) texnologiya o'quv-tarbiya jarayonining yaxlit tizimliliigi, ma'lum bir mintaq, o'quv yurti tomonidan uzluksiz ta'lim tizimining muayyan bir bosqichidagi texnologiyaning umumiy qonuniyatlari, ilmiy-nazariy asoslari, tamoyillari, amaliyotda qo'llanishining umumiy xususiyatlari, shart-sharoitlarini ifodalaydi. Shu o'rinda qayd etish kerakki, uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichida ta'lim mazmuni orqali tegishli o'ziga xos maqsad va vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilganligi sababli, pedagogik texnologiya ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Bu darajada pedagogik texnologiya pedagogik tizim tushunchasiga sinonim hisoblanadi. Uning tarkibiga ta'lim-tarbiya jarayonining maqsad va vazifasi, mazmuni, vosita va metodlari, tarbiya jarayonining obyekti va sub'ekti faoliyatining algoritmlari kiradi.

2. *Xususiy metodik darajada* pedagogik texnologiyaning muayyan bir predmet, kursni o'qitish jarayonining maqsad va vazifalarini amalga oshirish maqsadida foydalaniladigan ta'lim mazmuni, o'qitish vositalari, metodlari va shakllarining majmuasi tushuniladi.

3. *Lokal (modul) darajada* o'quv-tarbiya jarayonining ma'lum bir qismining xususiy didaktik va tarbiyaviy maqsadini hal etishga qaratilgan texnologiya tushuniladi. Unda o'quvchi-talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, ular bilimini nazorat qilish, shaxsiy fazilatlarini shakllantirish kabi masalalar ko'zda tutiladi.

Pedagogik texnologiyaning yuqorida qayd etilgan uchta darajasi bir-birini to'ldiradi va taqozo etadi. O'zbekistonda pedagogik texnologiya masalalari, asosan, ta'lim doirasida o'rganilmoqda. *Ta'lim texnologiyasi deb*, o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchi maqomini o'zgartirish, yangilash yo'li bilan ma'lumot mazmunini va modellashtirish darajalari – o'quv materiali, o'quv predmetiga pedagogik ishlov berish, o'rganiladigan mavzuni o'quvchi-talabalarning real bilish imkoniyatlariga moslashtirish, ta'lim natijasini qabul qilingan etalon darajasiga ko'tarish va baholashga oid usul va vositalar, shuningdek, ta'limning tashkiliy shakllarini tushunamiz. Ta'lim texnologiyasi o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishning hozirgi etakchi prinsipi (subordinahiya) ni chegaralaydi, unda koordinahiya o'qituvchi va o'quvchi-talaba faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirishning etakchi prinsipiga aylanadi. Koordinahiya ta'limni tashkil qilish, boshqarish va nazorat qilishning bosh prinsipiga aylanganda o'quvchi-talaba ta'lim jarayonining o'qituvchi bilan teng huquqli sub'ektiga aylanadi, bunda ta'lim jarayonini o'qituvchi va o'quvchi-talaba birgalikda amalga oshiradi.

G'arb mamlakatlaridagi ta'lim texnologiyasining bosh g'oyasi dasturlashtirilgan ta'limga borib taqaladi. Dasturlashtirilgan ta'lim asoschilaridan biri Berres Frederik Skinnerning ta'kidlashicha, o'quvchi-talabalarning o'quv materiali va uni o'zlashtirishga oid xatti-harakatlari (o'quvchi-talaba faoliyati) pog'onalar (ta'lim bosqichlari)ga ajratiladi, har bir bosqichda o'quv materialining ma'lum bir qismi to'liq o'zlashtiriladi, o'quv materialining mazkur o'zlashtirilgan qismi tekshirilib, keyingi qismni o'rganishga o'tiladi. Demak, pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyili ma'lumot mazmunini to'liq o'zlashtirish taktikasidan iborat bo'lib, u dastavval dasturlashtirilgan ta'lim nazariyasi va amaliyoti negizida paydo bo'lgan edi.

Pedagogik texnologiya inson ongi, tafakkuri bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab pedagogik jarayonni ifoda etadi. Uning o'ziga xos jihati – tarbiya muammosini ham qamrab olishidir. Demak, texnologiya samaradorligi inson o'zining ko'pqirrali tomonlari bilan unda qanchalik to'liq namoyon bo'lyapti, uning psixologik-kasbiy jihatlari, ularning kelajakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga olinyapti, degan savollarning echimiga bog'liq ekan. Shu jihatdan olganda texnologiya shaxsning rivojlanish bosqichlarini loyihalashtirish, tashhislash kabi imkoniyatlarga ham ega bo'ladi. Bu esa pedagogning texnologik jarayon bilan ishlash qobiliyatiga bog'liq.

Pedagogning belgilangan o'quv-tarbiya vazifalarini me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan talablar asosida yo'l qo'yiladigan chegaraviy ko'rsatkichlar doirasida bajarish holati ishlash qobiliyati deb atalishi mumkin. Demak, u yoki bu fan o'qituvchisining mahoratini aniqlashda uning faoliyati davlat ta'lim standartlari talablariga va pedagogik shartlarga nechog'lik mos kelishi nazarda tutiladi.

Pedagogik nashrlarda pedagog faoliyatini baholash uchun qator ko'rsatkichlar tavsiya etiladi, jumladan:


- pedagogik natijaviylik – pedagog guruhida fan bo'yicha o'zlashtirishning o'rtacha qiymati;
- o'qitishning ilmiylik darajasi – pedagogning o'quv elementlarini fan abstrakhtiyasi pog'onalari bo'yicha tushuntirishi;
- ta'lim mazmunini metodik tayyorlash – umumiyliigi, izchilligi, harakatdaligi, ortiqcha emasligi kabi talablarning e'tiborga olinishi;
- ta'limda u yoki bu natijani qo'lga kiritish yo'llaridan samarali foydalanish – ekstensiv yoki intensiv sharoitda va hokazo.

Umuman olganda, pedagog uchun asosiy kasbiy-me'yoriy ko'rsatkich – bu birinchi navbatda o'z holatini pedagogik jarayonda bunyodkor sifatida his etishi va anglab etishidir. Pedagog o'zining ish faoliyatiga xususiy kasbiy yaroqliligini, pedagogik voqelikdagi o'z o'rnini baholay olmas ekan, undan hech qachon ijodkorlikni talab qilib bo'lmaydi. Demak, pedagogik faoliyatga kirib kelayotgan har bir inson o'zining unga moslanuvchanligini, shu kasbga layoqati, qiziqishi borligini to'liq tasavvur etishi kerak.

Ta'lim texnologiyasining asosiy maqsadi ham, o'quv predmetlarini to'liq o'zlashtirishga mos keladigan ta'lim loyihasini yaratishdir. Bunday loyiha hozirgi zamon psixologiyasi, didaktikasi va pedagogik amaliyotining asosiy va ilg'or g'oyalariga tayangan holdagina yaratiladi.

Ta'lim – boshqariladigan jarayon bo'lib, uning natijasi, ko'p jihatdan, tayyorlangan didaktik loyihaga bog'liq. Didaktik loyiha esa ta'lim texnologiyasining mahsulidir. O'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini didaktik loyihaga ko'ra boshqarish ta'lim texnologiyasining pedagogik asosi sanaladi.

Har qanday jarayonning boshlanishi va yakuni mavjud bo'lganidek, didaktik loyihani amalga oshirishning ham kirish va chiqish nuqtalari bor. Ikki nuqta orasiga juda ko'p nuqtalarni joylashtirish mumkin bo'lganidek, didaktik loyihani amalga oshirish ibtidosi bilan intihosigacha bo'lgan masofada ta'limning samarali usullari, vositalari ko'p topiladi. Bu erda ta'lim texnologiyasi eng samarali usul bo'lib, ta'limning samarali shaklini tanlashda o'qituvchiga yordamga keladi. Didaktik loyihani tayyorlash va uni amalga oshirish jarayonlari 11-rasmda keltirilgan.



11-rasm. Didaktik loyihani tayyorlash va uni amalga oshirish jarayonlari

Demak, chizmadan ko'rinadiki, maqsaddan etalonga etib kelguncha o'qituvchi va talaba ongi juda ko'p hodisalar bilan uchrashadi. Ta'limga texnologik yondashish – bu ma'lumot va ta'lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo'li bilan o'quv-tarbiya jarayonining umumiy, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o'qituvchi va talaba maqsadlarining uchrashgan nuqtalarida (o'qitish maqsadi, o'qish maqsadi) ta'limning didaktik maqsadini belgilash asosida ta'limni loyihalash va amalga oshirish yo'llari bilan mo'ljaldagi etalonga erishishdir.¹ Umuman, ta'lim texnologiyasi haqida gap ketganda o'zaro daxldor quyidagi hodisalarni bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug'iladi: ta'limni didaktik loyihalash; loyihani amalga oshirish; ta'limning joriy va oraliq natijasiga ko'ra didaktik loyihaga tuzatish va o'zgartirishlar kiritish; ta'limni takrorlash va yakuniy nazoratdan iborat. Bu hodisalarning birinchi va ikkinchisi an'anaviy ta'lim tajribasida ham uchraydi. Ta'lim texnologiyasining an'anaviy ta'lim tizimidan farqi shundaki, ta'lim natijasi va uning etalon darajasida bo'lishi doimo o'qituvchi hamda o'quvchi-talabaning diqqat markazida turadi. O'qituvchi ta'lim natijasini tez-tez tekshirib, o'quvchi-talabalarni o'zlari erishgan yutuqlardan ogoh qilib turadi va talabalar o'zlari erishgan yutuq va kamchiliklarni anglab, yutuqlarini yanada ko'paytirishga, kamchiliklarini esa bartaraf etishga harakat qiladi. Talabalar

¹Roziqov O., Og'ae S. va boshqalar. Ta'lim texnologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1999. 11-bet.

ta'limning zaruriyligini, ular ta'lim jarayonining haqiqiy sub'ektiga aylangan paytida sezishadi.

Demak, maqsaddan etalonga etib kelguncha o'qituvchi va o'quvchi-talaba ongi juda ko'p hodisalar bilan uchrashadi. Ta'limga texnologik yondashish – bu ma'lumot va ta'lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo'li bilan o'quv-tarbiya jarayonining umumiy, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o'qituvchi va o'quvchi-talaba maqsadlarining uchrashgan nuqtalarida (o'qitish maqsadi, o'qish maqsadi) ta'limning didaktik maqsadini belgilash asosida ta'limni loyihalash va amalga oshirish yo'llari bilan mo'ljaldagi etalonga erishishdir. Umuman, ta'lim texnologiyasi haqida gap ketganda o'zaro daxldor quyidagi hodisalarni bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug'iladi: ta'limni didaktik loyihalash; loyihani amalga oshirish; ta'limning joriy va oraliq natijasiga ko'ra didaktik loyihaga tuzatish va o'zgartirishlar kiritish; ta'limni takrorlash va yakuniy nazoratdan iborat. Bu hodisalarning birinchi va ikkinchisi an'anaviy ta'lim tajribasida ham uchraydi.

Ta'lim texnologiyasining an'anaviy ta'lim tizimidan farqi shundaki, ta'lim natijasi va uning etalon darajasida bo'lishi doimo o'qituvchi hamda o'quvchi-talabaning diqqat markazida turadi. O'qituvchi ta'lim natijasini tez-tez tekshirib, o'quvchi-talabalarni o'zlari erishgan yutuqlardan ogoh qilib turadi va o'quvchi-talabalar o'zlari erishgan yutuq va kamchiliklarni anglab, yutuqlarini yanada ko'paytirishga, kamchiliklarini esa bartaraf etishga harakat qiladi. O'quvchi-talabalar ta'limning zaruriyligini, ular ta'lim jarayonining haqiqiy sub'ektiga aylangan paytida sezishadi.

Ta'lim texnologiyasi bo'yicha qilinadigan ishlar ikki qismdan iborat: ta'lim loyihasini tayyorlash va loyihani amalga oshirish.

1. Ta'lim loyihasini tayyorlash. Loyiha o'qituvchi yoki ekspert a'zolari tuza olish faoliyatining mahsuli bo'lib, qator umumiy xususiyatlarga ega. Loyiha asosida o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning kelajakda birgalikda amalga oshiradigan faoliyati yotadi.

Ta'lim loyihasi ma'lumot mazmunini davlat standartlari talablari asosida tahlil etishdan boshlanadi. Tahlil ma'lumot mazmuni elementlari (bilimlar, ko'nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar) dasturlarda qanday berilganligi, darsliklarda qanday aks ettirilganligiga qaratiladi. Keyin ta'lim mazmuni o'rganiladi, u yoki bu mavzuni o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad, ta'limning didaktik maqsadi, o'qituvchi va o'quvchi-talabalar maqsadi, maqsadlarni amalga oshirish va hisobga olish varaqalari, beriladigan uy vazifalari miqdori, mavzular bo'yicha o'tkaziladigan test savollari, reyting nazorati bosqichlari, etalon darajasida o'zlashtirish usuli oldindan belgilab qo'yiladi. Bu ishlarning barchasi ongda ta'lim modelini yaratishga olib keladi.

2. Ta'lim loyihasini amalga oshirish. Ta'lim loyihasi bevosita ta'lim sharoitida amalga oshiriladi. Bu jarayonda quyidagilarga alohida e'tibor qaratiladi:

- o'rganilayotgan mavzu bo'yicha maqsad, vazifalar bilan o'quvchi-talabalarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, uy vazifalari, mustaqil bajariladigan ishlarni, ularni bajarish tartibi, paytini e'lon qilish, mavzuni to'liq o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berish, o'zlashtirish me'yorlarini aytib berish;

- o'quvchi-talabalarni faol, mustaqil faoliyatga rag'batlantirish, ular diqqatini bo'lim yoki mavzu mazmuniga tortish, uni qanday o'rganish zarurligini aytib berish, bilishga qiziqish uyg'otish, o'qish-o'rganishga havas, muammolarni bajarishga ehtiyoj uyg'otish, emotsiyalar, tafakkur hodisalari, bilimlarni o'quv holatlariga tatbiq etish yo'llari orqali mavzu bo'yicha ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to'liq o'zlashtirishga oid o'zgarish, qo'shimcha, tuzatishlarni belgilash;

- bo'lim yoki mavzu bo'yicha to'plangan bilimlarga ishlov berish.

Ta'lim jarayoni stoxastik xarakterga ega. Unda kutilgan va kutilmagan, rejalashtirilgan, favquddolda va tasodifiy hodisalar ham uchraydi. O'rganilgan bilimlarga ishlov berish jarayonida ham joriy nazorat natijalariga asoslanib loyihaga yangi o'zgarish, qo'shimcha va tuzatishlar kiritiladi;

- bo'lim yoki mavzu bo'yicha umumiy xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalarni murakkab o'quv holatlariga tatbiq qilish, oraliq nazorat natijalariga ko'ra mavzu yoki bo'lim bo'yicha axborot to'plash, to'plangan axborotlarga ishlov berish jarayonlarida o'quvchi-talabalar erishgan yutuqlarni tahlil qilish, o'quvchi-talabalarning bilim va malakasi, ijodiy faoliyat tajribasidagi kamchiliklarini ko'rsatish, guruhdagi har bir o'quvchi-talabaga yakuniy nazoratgacha bajariladigan qo'shimcha topshiriqlarni berish, ularni o'quv materialini yanada atroflicha o'zlashtirishga rag'batlantirish;

- yakuniy nazoratning asosiy vazifasi o'quvchi-talabalarning ma'lumot va ta'lim mazmuni elementlarini etalon darajasida o'zlashtirishlarini aniqlash, etalon darajasidan past o'zlashtirgan o'quvchi-talabalarni ogohlantirish, qo'shimcha topshiriqlar berish kabilardan iborat.

Zamonaviy pedagogik texnologiya ta'lim maqsadini aniq o'rnatishdan boshlab to uning natijalarini baholashgacha bo'lgan bosqichlarning har biri uchun ijodiy faoliyatni talab etadi. Pedagog faoliyatining texnologiyalanuvchanlik darajasini prof. N.Sayidahmedov quyidagi mezonlar asosida alohida ajratib ko'rsatgan.¹

1. Tashxislanuvchan o'rnatilgan maqsad – o'quvchi-talaba tomonidan didaktik, jarayon mahsuli sifatida o'zlashtirilgan aniq o'lchamli tushunchalar, amallar va faoliyat turlari.

2. Ta'lim mazmunini o'quv elementlari yordamida bayon qilishda abstrakhiya pog'onalarining va axborotlarni o'zlashtirish darajasining hisobga olinishi.

3. O'quv materiallarini o'zlashtirish bosqichlarining didaktik jarayon tuzilmasiga mosligi.

4. O'quv jarayoniga yangi vositalar va axborotlashtirish usullarining joriy etilishi.

5. O'qituvchining qoidabop (algoritmli) va erkin, ijodiy faoliyatidagi mumkin bo'lgan chetga chiqish chegarasining ko'rsatilishi.

6. O'quvchi-talaba va o'qituvchi faoliyatida shaxsiy motivlashganlikning ta'minlanishi (erkinlik, ijodiyot, kurashuvchanlik, hayotiy, kasbiy mohiyat va boshqalar).

¹ N.Sayidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2011.

7. O`qitish jarayonining har bir bosqichida kommunikativ munosabatlarning, axborot texnikalari bilan muomala qilishning maqsadga muvofiqligi.

Shunday qilib, yuqorida berilgan ko`rsatkichlar loyihalangan o`quv jarayonining texnologik darajasini to`liq ifodalaydi, amalda joriy etilishi esa pedagogni yuqori malakali mutaxassisga aylantiradi, o`quvchi-talabaning nufuzini ham birmuncha oshiradi va ijodiy faoliyatni rivojlantirishning yangi qirralarini ochadi.

Oliy o`quv yurtlarida o`quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning muhim sharti mazkur jarayonga tizimli yondashuv sanaladi va o`qituvchilarga quyidagi dars turlari tavsiya etiladi:

1.Ma`ruza (kirish ma`ruzasi, mavzuli ma`ruza, umumlashtiruvchi ma`ruza) mashg`ulotlari.

2.Seminar (bilimlarni mustahkamlovchi, yangi bilimlarni mustaqil egallashga mo`ljallangan) darslari.

3. Modulli dars.

4. Muammoli (aqliy hujum) darslar.

5. Munozarali (ilmiy munozara va erkin fikrlash) darslar.

6.Didaktik-o`yinli (syujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, konferenSiyalar, o`yin mashqlar) darslar.

7.Sinov (didaktik kartochkalar, test topshiriqlari, o`zaro nazorat varag`i yordamida EHM nazorat dasturlari vositasida o`tkaziladigan) darslari.

Mazkur darslarning o`ziga xos jihati dars davomida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarga asoslanadi.

**Muammoli ta`lim deyilganda**, o`qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o`quvchi-talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko`nikma va malakalarni ijodiy o`zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta`lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi. SHuningdek, muammoli o`qitishning mohiyatini o`qituvchi tomonidan o`quvchi-talabalarning o`quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o`quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o`zlashtirish bo`yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o`zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Muammoli ta`limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog`liq:

1. O`quv materialini muammolashtirish;

2. O`quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish;

3. Ta`lim jarayonini o`yin, mehnat faoliyati bilan uyg`unlashtirish;

4. O`qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o`z o`rnida samarali foydalanish ko`nikmasiga ega bo`lish;

5. Muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o`quvchi-talabalarga bayon etish.

Muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o`quvchi-talabalarning muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida obyekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko`nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi hamda o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. O'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikir yo'lidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas, balki u bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog'liq bo'lmasa, ya'ni yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo'lmaydi. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda o'quvchi-talaba mashaqqat talab qilgan tushuncha yoki faktning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab etadi.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilardir:

- o'quvchi-talabaga notanish bo'lgan faktning mavjud bo'lishi;
- vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli vaziyatlarni hal etishda o'qituvchi o'quvchi-talabalar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operaSiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi.

Muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda foydalanish mumkin. Muammoli vaziyatlar tizimi muvaffaqiyatli yaratilgan hollarda mazkur mavzuni muammoli dars shaklida o'tish tavsiya etiladi. O'qitish jarayoniga muammoli darslarni qo'llash uchun o'qituvchi quyidagi masalalarni hal qilishi kerak bo'ladi:

- o'quv dasturi bo'yicha qaysi mavzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini;
- mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, sistemalilik, mantiqiylik, ketma-ketlik, izchillik prinsiplariga amal qilishi;
- o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta'minlaydigan vosita va usullarni aniqlashi, ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanish yo'llarini belgilashi zarur.

O'qituvchi o'rganilayotgan bob va mavzularning didaktik maqsadi, ta'lim mazmunidan kelib chiqqan holda yuqori samara beradigan mashg'ulot turini belgilaydi, o'quv yili boshidan taqvim mavzularni rejalashtiradi.

Oliy o'quv yurtlarida zamonaviy ta'lim texnologiyasi – bu muammoli o'qitish, tadqiq etib, muammoni hal etishdir. Ta'lim texnologiyasi esa, rivojlanayotgan ta'lim jarayonini, muammoli o'qitish vazifasini faol o'rganish jarayonini rag'batlantirish, tadqiqot ishlarini olib borish va tafakkur etish usulini tarbiyalashdan iboratdir. Muammoli o'qitish jarayoni shaxsning ijodiy faoliyatini tarbiyalash maqsadlariga mos oliy o'quv yurtlari ish amaliyotida muammoli o'qitish bilan birgalikda illyustrahiyali tushuntirish texnologiyasi, axborot-ma'lumot texnologiyasi va dasturlashgan ta'lim texnologiyasi kabilardan keng foydalaniladi.

Muammoli o`qitish jarayonida o`quvchi-talabanning mustaqillik roli reproduktiv o`quv usullariga solishtirib qaraganda ancha samarali bo`ladi. Muammoli o`qitishning maqsadi o`quvchi-talabalar bilan ishlash jarayonida ta`lim-tarbiya masalalari, muammo va savollariga javob qidirish, ularni hal etish yo`llari bilan yangi bilimlarni o`zlashtirishni, o`quvchi-talabalar o`quv faoliyatida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va hal etish bo`yicha o`qituvchi (pedagog)lar ularda qiziqish uyg`ota olishdan iborat.

Professor N.N.Azizxo`jaeva muammoli vaziyatning ma`nosini quyidagicha ta`riflagan, ya`ni muammoli vaziyat o`quvchi-talabalarga ma`lumotlar, bilimlar bilan yangi dalillar, hodisalar, vaziyatlar orasidagi dialektik qarama-qarshiliklar bo`lib, ularni tushunib olish uchun ilgari olgan bilimlarining etishmasligidir. Bu qarama-qarshiliklar (tushunmovchiliklar) ijodiy bilimlarni o`zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuch bo`lib xizmat qiladi.¹

Ta`lim jarayonida muammoli vaziyat xususiyati quyidagilardan iborat:

- o`quvchi-talabalar uchun noma`lum yangilikning mavjudligi;
- muammolarni o`zlari hal etishlari;
- shaxsiy qiziqish va ehtiyojlari yuzaga kelgan tushunmovchiliklarni o`zlari o`rganishga harakat qilishlari;
- nima noma`lum ekanligini bilib, ma`nosini tushunib, uni hal etishga intilish kabilar.

Yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilib fikr yuritish, o`quvchi-talabalarning mustaqil aqliy faoliyatini rivojlantirishning muhim talablaridandir. Bunday fikr yuritish o`quvchi-talabani shu narsani anglay olmaganligini tushunib etib, bu gapning ma`nosiga jiddiy ravishda e`tibor berishga qaratadi.

Muammoli ta`limni tashkil etish va olib borishda o`qituvchi o`zining ta`lim-tarbiya berishdagi faoliyatini aniq tushunib, etishi ham muhim ahamiyatga ega. O`qituvchi o`quvchi-talabalarga tayyor fikr bermay, balki ularning izlanishiga to`g`ri yo`nalish berishi lozim. O`quvchi-talabalar mashg`ulotlarda va kundalik hayotda uchraydigan voqea, xabar, hodisa va turli dalillarni o`zlari tahlil qilib, mustaqil fikrga ega bo`lishni maqsad qilib qo`yishlari kerak. SHuningdek, oliy va o`rta maxsus o`quv yurtlaridagi muammoli ta`lim o`quvchi-talabalarning izlanish faoliyati, bilim va malakalarni chuqur egallab olishini, tevarak-atrofdagi o`zgarishlarga bo`ladigan qarashiga katta ijobiy ta`sir ko`rsatish imkoniyatini ham yaratib beradi.

O`qituvchi muammoli ta`lim tizimida o`quvchi-talabalar o`quv-izlanish faoliyatini shunday tashkil etadiki, ularning diqqat-e`tibori yuzaga kelgan qiyinchilik va kamchiliklarni hal etishga, turli axborotlarni mustaqil tahlil qilishga, echimini topish, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga, olgan bilim va malakalarini keyingi duch keladigan vaziyatlarda qo`llay olishga qaratilgan bo`lishi lozim. Demak, buning natijasida o`quvchi-talabalarda mustaqil fikr yuritish, bilim olish, yangidan-yangi maqsadlarni oldiga qo`yish, yangicha fikrlash yo`llariga o`rganish hamda tafakkurining rivojlanish qobiliyatining shakllanishiga imkon beradi. O`quvchi-talabalar muammoli ta`lim jarayonida o`quv materiallarini o`rganishlari, tegishli ma`lumotlarni mustaqil tahlil qilishlari, berilgan o`quv masalalarini farazlarini

¹ Azizxo`jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2003.

oldinga surib, ularni isbot qilish yo'llari bilan echishlari, ta'lim jarayonini o'zlashtirishga aql bilan harakat qilishlari ularning intellektual faoliyatlarini oshiradi.

Shunday qilib, muammoli ta'lim o'quvchi-talabalar bilim tizimlari va aqliy hamda amaliy faoliyatlarida samarali o'zlashtirishga yordam beradi, o'zlashtirgan yangi bilimlaridan kelajakdagi vaziyatlarda unumli foydalana olishni, ta'lim muammolarini echa bilish, mustaqil izlanishga o'rgatish, ijodiy tajribaga ega bo'lish va uni rivojlantirish, ta'lim jarayonining vazifalarini tahlil qilish, muammoli ta'limni aniqlash imkoniyatlarini ochib beradi.

19.2. «Klaster», «Aqliy hujum», «Bumerang», «Veer», «Iqtisodchi», «Iqtisodchi-rahbar» texnologiyalari va ulardan foydalanish

Hozirgi kunda juda ko'p metodist va pedagog olimlar «Yangi pedagogik texnologiya»lar talabalarga ta'lim-tarbiya berishda ko'zlangan maqsadga erishishni to'la kafolatlaydi» deb, qaramoqda. To'g'ri yangi zamonaviy texnologiyalar yordamida ishlab chiqarishda boshqaruvchidan katta kuch talab qilinmaydi. Maxsus texnologiyani o'zi qo'yilgan maqsadga to'la erishishni kafolaydi. Lekin, bu nazariyani pedagogik texnologiyada to'laligicha qabul qilib bo'lmaydi, chunki bunda obyekt shaxs bo'lib, uning ongi taklif qilinayotgan texnologiyani to'laligicha qabul qila olmaydi, aksincha uni inkor qilishi mumkin. SHuning uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga kiritishda uning boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchi ko'zlangan maqsadga erishishning bosh kafolatchisi bo'ladi. Agar shu nuqtai nazardan kelib chiqib qaraydigan bo'lsak, yangi pedagogik texnologiyalarni uning asosiy negizi bo'lgan axborotlar texnologiyasini ta'lim tizimiga joriy etishda uning boshqaruvchisi bo'lmish o'qituvchining tayyorgarlik darajasini birinchi navbatda hal qilish ham bugungi kun «Pedagogika» fanining eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi.

«Klaster usuli»

Klasterlarga ajratish-talabalarga biror-bir mavzu to'g'risida erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu usul ko'p variantli fikrlashni o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea)lar o'rtasida aloqa o'rnatish malakalarini rivojlantiradi. «Klaster» so'zi hujm, bog'lam ma'nosini anglatadi. Klasterlarga ajratishni da'vat, anglash va mulohaza qilish bosqichlariga fikrlashni rag'batlantirish uchun qo'llash mumkin. U asosan yangi fikrlarni uyg'otish, mavjud bilimlarga etib borish strategiyasi bo'lib, muayyan mavzu bo'yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi. Biror mavzu bo'yicha klasterlar tuzishdan bu mavzuni mukammal o'rganmasdan oldin foydalanish maqsadga muvofiqdir.

«Klaster usuli»ni tuzish ketma-ketligi:

1. Qog'ozning o'rtasiga yoki sinf doskasiga yohud yozish uchun foydalanish mumkin bo'lgan sathga «kalit» so'z yoki gap yoziladi.
2. Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va hayolga kelgan so'z va gaplar yoziladi.
3. Fikrlar paydo bo'lganda va ularni yozganda fikrlar o'rtasida mumkin bo'lgan bog'lanishlarni belgilash.

4. Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo'lguncha hayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi;

5. Keltirilgan so'z va fikrlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.

«Aqliy hujum» usuli

«Aqliy hujum» - g'oyalarni generahiya qilish usuli. qatnashchilar birlashgan holda qiyin muammoni echishga harakat qiladilar: uni echish uchun shaxsiy g'oyalarini ilgari suradilar (generahiya qiladi). U ishtirokchilarni o'z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga rag'batlantiradi.

«Aqliy hujum»ning vazifasi kichik guruhlar yordamida yangi-yangi g'oyalarni yaratishdan iborat. Bu usul muammoni hal qilayotgan talabalarning ko'proq aql bovar qilmaydigan va hatto fantastik g'oyalarni yaratishga undaydi. G'oyalar qancha ko'p bo'lsa, shunchalik yaxshi hisoblanadi. Ularning hech bo'lmaganda bittasi ayni maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin.

«Aqliy hujum» metodining qoidalari:

Birinchi qoida. Fikr va g'oyalar hech qanday cheklanmagan holda iloji boricha baralla aytilishi lozim.

Ikkinchi qoida. Bildirilgan fikr va g'oyalar takliflar berish to'xtatilmaguncha muhokama qilinmaydi, baholanmaydi.

Uchinchi qoida. Bildirilgan har qanday g'oya va fikrlar hisobga olinadi.

To'rtinchi qoida. Qancha ko'p g'oya va fikrlar bildirilsa shuncha yaxshi.

Beshinchi qoida. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va kengaytirish mumkin.

Oltinchi qoida. Barcha aytilgan takliflar yozib boriladi.

Ettinchi qoida. Takliflarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi.

Bu usul barcha funksiyalarni bajaradi, lekin uning asosiy vazifasi muammoni mustaqil tushunish va echishga ta'lim oluvchilarning motivaSiyasini uyg'otishdan iboratdir.

«Bumerang» texnologiyasi

Bu texnologiya bir mashg'ulot davomida uquv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib etish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi. Har bir mashg'ulot davomida talabalarning turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan uqituvchi yoki talaba, iqtisodchi yoki tadbirkor rolda bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat yaratadi.

«Bumerang» texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi hamda g'oya va fikrlarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi, ya'ni; bo'lajak iqtisodchilarda jamoa bilan ishlash mahorati, muomalalik, xushfe'llik, o'zgalar fikriga hurmat, rahbarlik sifatlarini shakllantirish, ishga ijodiy yondashish, o'z faoliyatini samarali bo'lishiga qiziqish, o'zini holis baholash kabilar.

«Veer» texnologiyasi

Bu texnologiya murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot beriladi va ularning har biri alohida muhokama etiladi. «Veer» texnologiyasi tanqidiy, tahliliy, aniq va mantiqiy fikrlarni rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari va fikrlarini yozma va og'zaki shaklda bayon etish hamda himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

«Iqtisodchi-rahbar» texnologiyasi

Masalan, «O'z-o'zini boshqarish», yoki «Rahbarning tashkilotchilik qobiliyatlari», «Zamonaviy tadbirkor shaxsi» degan mavzular yakunida biz «Iqtisodchi-rahbar» degan yangi usuldan foydalanamiz. Har bir talabaga varaqlar tarqatiladi, ularda, «Men tashkilot direktori», yoki «Men tadbirkor», «Siz bankir» va ishlarga yaqin mazmundagi savol-harakatlar yozilgan. Har bir talaba o'ziga tushgan faoliyatni ta'riflab beradi, mazmunini ochib beradi, qanday kiyinishigacha gapirib beradi. Javob beruvchi talabaga savollar 5-7 tadan oshmasligi shart. Oxirida tahlil qilingan obrazining ish mazmuni sharoitlari, harakatlari mavjud bo'ladi.

Shunday qilib, o'qitish texnologiyasini ishlab chiqarish asosida ta'lim oluvchilarning yuqori samarali o'quv faoliyatini va o'qituvchining boshqaruv faoliyatini loyihalashtirishi yotadi.

19.3. «Muammoli ma'ruza», «Munozarali ma'ruza», «Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi», «Modulli ta'lim texnologiyasi»

«Muammoli ma'ruza»larda o'qituvchining faoliyati, avvalo mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv muammolarini aniqlash, muammoli vaziyatlar tizimini yaratish, o'quvchi-talabalar oldiga o'quv muammolarini yuqori ilmiy va metodik saviyada qo'yish, darsda mazkur o'quv muammolaridan samarali foydalanishga erishish, o'quvchi-talabalar faoliyatini muammolarni hal etishga yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

O'quvchi-talabalarning faoliyati muammoli vaziyatlarni idrok etish, hal qilish usullarini izlash, muammoni tahlil qilib, taxminlarni ilgari surish, taxminlarni ilmiy, mantiqiy nuqtai nazardan asoslash, taxminlarni tekshirish va xulosa chiqarishdan iborat bo'ladi.

Hozirgi zamon «Muammoli ma'ruza»larning didaktik maqsadi quyidagilardan iborat:

- O'quv muammolarini hal etishda o'quvchi-talabalar tomonidan avval o'zlashtirgan bilimlarini ijodiy qo'llab, yangi bilimlarni egallash ko'nikmalarini;
- Bilimlarni ijodiy o'zlashtirish va amalda qo'llash malakalarini;
- Izlanuvchanligi, qiziqishi, motivlari, mantiqiy tafakkuri, ijodiy faoliyati, aqliy kamoloti, zakovatini rivojlantirishdan iborat.

«Muammoli ma'ruza»da muammoli vaziyat bo'lishi nazarda tutiladi va u an'anaviy darsning hamma bosqichlarini o'z ichiga oladi: uy vazifasini tekshirish, maxsus og'zaki mashqlar, o'quvchi-talabalar oldiga dars maqsadini qo'yish, yangi o'quv materialini tayyorlash va uni o'rganish, yangi va ilgari o'rganilgan materialni bog'lab mustahkamlash, mashg'ulotni yakunlab, uyga vazifa berish kabilar. Muammoli mashg'ulotlarda yangi o'rganilayotgan qonun-qoidaga oid faktlar

to'plash, ularni bir-biri bilan taqqoslash va tahlil qilish, bilimlarni o'rganish va mustahkamlash jarayoni parallel ravishda olib boriladi.

Ta'limda «Muammoli ma'ruza»ning uch sharti mavjud:

1. Muammoli ta'limni tashkil etishda o'quv materiallarini tizimli, tartib bilan rivojlantirish.

2. Vazifa berilganda uni echish usullarini tanlash imkoniyatini berish.

3. O'quvchi-talaba bilim olishni maqsad qilib qo'yishi va maqsadiga erishishi uchun o'z bilimini to'g'ri baholay olishi.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatni yuzaga keltirishda bir qator didaktik maqsadlar ham ko'zda tutiladi, ya'ni;

- o'quvchi-talabalar diqqati o'quv materialiga tortiladi;
- o'quvchi-talabalarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otish;
- ularni o'zlashtirish faoliyatini jonlantirish;
- ularning oldiga aqliy faoliyatni rivojlantiruvchi masalalarni qo'yish;
- o'quvchi-talabalar o'rganishi zarur bo'lgan bilimlar etarli darajada emasligini dalillarga asoslangan holda ko'rsatish;
- o'quv materiallarini tahlil etishga o'rgatish;
- o'qitishdagi muammolarni hal etishning yo'l-yo'riqlarini topishda ularga ko'mak berish.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar bir necha turga bo'linadi:

1. O'quvchi-talabalar o'z oldilarida turgan masalaning echimini topa olmaydi, muammoli savol yuzaga kelganda unga o'z vaqtida javob bera olmaydi, yangi mavzuni tushunishda qiyinchiliklarga duch keladi.

2. O'quvchi-talabalar oldin egallagan bilimlarini yangi sharoit va vaziyat yuzaga kelganda qo'llay olmaydi.

3. Ularning muammoni nazariy yo'l bilan hal etish va bu tanlangan usulni amalga oshirishi o'rtasida qarama-qarshiliklar vujudga keladi.

4. O'quvchi-talabalar amalda bajargan topshiriq natijalari bilan o'zlarining nazariy jihatdan tushunib etishlari o'rtasida bilimlarining etishmasligi ham muammoli vaziyatlar yuzaga kelishiga olib keladi.

Ta'lim jarayonida «Muammoli ma'ruza» samarali, maqsadga muvofiq bo'lishi uchun uni o'quv jarayoni, o'quv-tarbiya ishlari asosining bir qismiga aylantirish zarur. Muammoli ta'lim yordamida talabalarda o'quv muammolari va mutaxassislik masalalarini echishga tadqiqiy yondashish, mustaqil tarzda o'rganish mahoratini shakllantirishni tarbiyalaydi.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi turli mamlakatlardagi, jumladan, Amerikadagi J.Xonkins universiteti professori- R.Slavin (1990), Minnesot universiteti professorlari – R.Jonson, D.Jonson (1987), Kaliforniya universiteti professori – J.Aronson (1978), Isroildagi Tel-Aviv universiteti professori – SH.Sharan (1988) tomonidan ishlab chiqilgan.

Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlikda o'qitish, asosan talabalarni DTS va fan dasturida qayd etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, Isroil va Yevropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o'qitish, yuqorida qayd etilganidek, ko'proq talabalar tomonidan o'quv materialini

qayta ishlash, loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o`quv bahsi va munozaralar o`tkazishni nazarda tutadi.

Mazkur g`oyalar bir-birini to`ldiradi, didaktik jihatdan boyitadi va bir-birini taqozo etadi.

Hamkorlikda o`qitish g`oyasi didaktikada 1970-yillarda paydo bo`lgan Hamkorlikda o`qitish texnologiyasi Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya Federativ Respublikasi, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil mamlakatlari ta`lim muassasalarida keng qo`llanila boshlangan.

Hamkorlikda o`qitishning asosiy g`oyasi – o`quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o`qish-o`rganishdir.

Hamkorlikda o`qitish har bir talabani kundalik qizg`in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o`rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir talabada shaxsiy qadr-qimmat tuyg`usini vujudga keltirish, o`z kuchi va qobiliyatiga bo`lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas`uliyat hissini shakllantirishni ko`zda tutadi.

Hamkorlikda o`qitish texnologiyasi har bir talabaning ta`lim olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o`quv topshiriqlarini to`liq va sifatli bajarishga, o`quv materialini puxta o`zlashtirishga, o`rtoqlariga hamkor bo`lib, o`zaro yordam uyushtirishga zamin tayyorlaydi.

Hamkorlikda o`qitish texnologiyasida talabalarni hamkorlikda o`qitishni tashkil etishning bir necha metodlari mavjud:

1. Komandada o`qitish.
2. Kichik guruhlarda hamkorlikda o`qitish.
3. Hamkorlikda o`qitishni «zigzag yoki arra» metodi.
4. Hamkorlikda o`qitishning «birgalikda o`qiymiz» metodi.
5. Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi.

**1. Komandada o`qitish** (R.Slavin)da talabalar teng sonli ikkita komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a`zolari o`quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir talaba mavzudan ko`zda tutilgan bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirishiga e`tiborni qaratadi.

Hamkorlikda o`qitish texnologiyasi muvaffaqiyatlaridan biri bo`lgan R.Slavinning ta`kidlashicha, talabalarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko`rsatma berilishi etarli emas. Talabalar o`rtasida tom ma`nodagi hamkorlik, har bir talabaning qo`lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada talabalarining bilimlarni o`zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir talabaning kundalik natijasi avval qo`lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina talabalar o`zining mashg`ulot davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas`uliyatni his qilib, ko`proq izlanishga, bilim, ko`nikma va malakalarni puxta o`zlashtirishga intiladi.

O`qituvchi komandalar uchun o`quv topshiriqlarini mavzu bo`yicha talabalarining o`zlashtirgan bilimlarini aniqlash uchun test savollarini tuzib bo`lgandan so`ng, mazkur mashg`ulotning borishini loyihalashtirishi kerak.

2. Kichik guruhlarda hamkorlikda o`qitish (R.Slavin, 1986).

Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta talabadan tashkil topadi. O`qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so`ngra talabalarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. Talabalarga berilgan o`quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir talaba topshiriqning ma`lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir talaba o`zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o`rtoqlarini o`qitadi, so`ngra guruh a`zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O`qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

Talabalarning kichik guruhlardagi o`quv faoliyati o`yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

O`qituvchi yangi mavzuni tushuntirib bo`lganidan so`ng, talabalarni kichik guruhlariga ajratib, ularga quyidagi topshiriqlarni bajarishni tavsiya etadi.

Shuni qayd etish kerakki, kichik guruhlar o`quv materiali yuzasidan tuzilgan yagona topshiriqni bajaradilar. Kichik guruh a`zolari o`quv topshiriqlarini o`zaro bo`lib oladilar.

3. Hamkorlikda o`qitishni «zigzag yoki arra» metodi yordamida tashkil etish (E.Aronson, 1978).

«Arra» metodida kichik guruhlar 6-8 ta talabadan tashkil topadi. Mashg`ulot davomida o`rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan qism (blok yoki modul) larga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan talabalar bajarishi lozim bo`lgan o`quv topshiriqlari tuziladi. Talabalar guruhi mazkur topshiriqlarning bittasini bajaradi va shu qism bo`yicha «mutaxassis»ga aylanadi. So`ngra guruhlar qayta tashkil etiladi. Bu guruhlarda har bir qism (blok yoki modul) «mutaxassisi» bo`lishi shart, mazkur mutaxassislar o`zlari egallagan bilimlarni xuddi «arra» tishlari ketma-ket kelganidek navbat bilan boshqalarga bayon qiladi. Mazkur guruhlarda o`quv materiali mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi.

1986-yili R.Slavin «arra-2» metodini yaratgan. Mazkur metodga ko`ra kichik guruh 4-5 talabadan tashkil topadi. Barcha guruh a`zolari ma`ruza materiali yuzasidan tuzilgan yagona topshiriq ustida ishlaydi. Guruh ichida talabalar topshiriqlarni qismlarga ajratib, bo`lib oladilar. Har bir talaba o`ziga tegishli qismini puxta o`zlashtirib «mutaxassis»ga aylanadi. Mashg`ulot oxirida har bir kichik guruhdagi «mutaxassis»lar uchrashuvi qayta tashkil etilgan guruhlarda o`tkaziladi. Talabalar bilimi test savollari yordamida individual tarzda o`tkazilib nazorat qilinadi va o`zlashtirish darajasi baholanadi hamda guruh a`zolarining to`plagan ballari jamlanadi, eng yuqori ball to`plagan guruh g`olib sanaladi.

4. Hamkorlikda o`qitishning «Birgalikda o`qiyamiz» metodi

1987-yili Minnesot universiteti professorlari D.Jonson, R.Jonsonlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Guruh talabalari 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh mashg`ulotda bajarishi lozim bo`lgan topshiriqning ma`lum qismini bajaradi. Guruhlar topshiriqni to`liq bajarishi natijasida o`quv materialining yaxlit o`zlashtirilishiga erishiladi. Mazkur metodning asosiy prinsiplari – komandani taqdirlash, talabalarga individual yondashish, muvaffaqiyatlarga erishish uchun bir xil imkoniyatlarni vujudga keltirish.

5. Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi.

1976-yili Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda ko'proq talabalarning mustaqil va ijodiy ishiga e'tibor qaratiladi.

Talabalar alohida-alohida yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda mashg'ulotda o'rganish lozim bo'lgan o'quv materialini kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir talabaga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir talaba umumiy topshiriqning bajarilishiga o'z hissasini qo'shadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o'tkaziladi. Guruh a'zolari birgalikda ma'ruza tayyorlaydi va guruh talabalari o'rtasida o'z ijodiy izlanishlari natijasini e'lon qiladi. Kichik guruhlar o'rtasida o'tkazilgan o'quv bahsi, munozara talabalar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni sanaladi. Hamkorlikda ishlash natijasida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar guruh jamoasidagi har bir talabaning muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarini, umuman guruh jamoasini jipslashtirishga, avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi va kutilmagan vaziyatlarda qo'lanib, yangi bilimlarning o'zlashtirilishiga bog'liq bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan barcha metodlarning o'ziga xos xususiyati, maqsad vazifalarining umumiyliigi, talabalarning tahsil olish va muloqotdagi shaxsiy mas'uliyatini taqozo etishi, shuningdek, muvaffaqiyat qozonishga bir xil imkoniyatlarning mavjudligidir. Hamkorlikda o'qitish negizida musobaqa emas, balki hamkorlikda aqliy mehnat qilib, ta'lim olish jarayoni yotadi.

O'qituvchi ta'lim jarayonida hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- qaysi mavzularni hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanib o'rganishni aniqlaydi va mazkur mashg'ulotni taqvim-rejada belgilaydi;

- ushbu mavzu bo'yicha talabalarga tavsiya etiladigan o'quv topshiriqlari va ularni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar tayyorlaydi;

- hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanib o'tiladigan mashg'ulot turi, tuzilishi va borishini loyihalashtiradi;

- yangi mavzu yuzasidan talabalar bilimini nazorat qilish uchun test savol-topshiriqlarini tuzadi.

1-guruh «mutaxassislar» tayyorlash guruhi.

Mazkur mavzu bo'yicha o'quv materialini 4 qismdan iborat bo'lganligi sababli mashg'ulotda qatnashayotgan 24 ta talaba mashg'ulot boshlanishidan oldin 4 xil rangdagi kartochkalar yordamida teng sonli to'rtta, 6 ta talabadan iborat «mutaxassislar» guruhiga ajratiladi. Ular o'zlariga tegishli o'quv topshiriqlarini bajaradi va shu qism bo'yicha «mutaxassislar»ga aylanadi.

Ikkinchi guruh «mutaxassislar» uchrashuvi guruhi. Rangli kartochkalarning har birining orqa tomonida 1 dan 8 gacha raqamlar yozilgan bo'lib, barcha rangli kartochkalardagi raqamlar yig'indisi guruhdagi talabalar soniga teng bo'lishi lozim.

«Mutaxassislar» uchrashuvi kartochkalarning orqa tomonidagi raqamlar asosida 8ta guruh tashkil etilib, bu guruhlar tarkibiga bir xil raqamli 4 xil rangdagi

kartochkalarga ega bo'lgan 4 ta talaba kiradi. Shuni qayd etish kerakki, bu guruhlarda har bir qism (blok yoki modul) «mutaxassisi» bo'lishi shart.

Mazkur uchrashuvda «mutaxassislar» o'zlari egallagan bilimlarni navbat bilan o'rtoqlariga bayon qiladi. Ushbu guruhlarda o'quv materialining 4ta qismi mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi. So'ngra o'quv materialini yuzasidan tuzilgan topshiriqlar yaxlit holatga keltirilib, guruhlar o'rtasida savol-javob, munozara o'tkaziladi.

«Munozarali ma'ruza» - talabalarni muammoli masalalar bilan to'qnashtirish o'zlarining fikrlarini bayon ettirish uchun (o'quv) pedagogdan katta mahorat talab etiladi.

«Modulli ma'ruza»ning mohiyati shundan iboratki, bunda talabalar modul dasturlari ustida mustaqil yoki o'qituvchi rahbarligida ishlab o'quv-bilish faoliyati orqali belgilangan maqsadga erishadilar.

Modulli ta'lim texnologiyalari asosida modulli dastur turadi. Modul dasturlari o'zida mavzuning ilmiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadidan kelib chiqadigan didaktik maqsadni, talabalar dars davomida bajaradigan topshiriqlarni, mazkur topshiriqlarni bajarish bo'yicha berilgan ko'rsatmalarni mujassamlashtiradi.

Modulli ta'lim o'qitish mazmuni va mohiyatiga ko'ra quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

1. O'quv materialini modulli rejalashtirish.
2. Modulli dars.
3. Modulli dasturlar.

Pedagog o'quv yili boshida qaysi mavzularni modulli ta'limdan foydalanib o'tishni taqvim-mavzu rejalarida belgilaydi. Modulli dasturlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra:

1. Talabalarining individual ishlashi uchun mo'ljallangan modul dasturlari.
2. Ikkita talaba hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturlari.
3. Talabalarining kichik guruhlarida hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturlariga bo'linadi.

Modulli dasturlar o'qituvchilar tomonidan tuzilib, unda modulning didaktik maqsadlari, mavzuni o'rganish bosqichlari, talabalar tomonidan bajariladigan o'quv faoliyati elementlari, talabalar bilimni nazorat qilish yo'llari ketma-ket yoziladi.

Modul dasturini tuzishda o'qituvchi e'tiborini quyidagilarga qaratishi zarur:

1. Modul dasturidan ko'zda tutilgan maqsadni aniq belgilash.
2. O'quv materialini o'rganishning mantiqiy yo'nalishini aniqlash. Modulli ta'lim tamoyillarini hisobga olgan holda o'quv materialini mazmunan tugallangan, mantiqiy ketma-ketlikda kichik bo'laklarga taqsimlash.
3. Talabalarining o'quv materialini o'zlashtirishi uchun tashkil etiladigan o'quv faoliyati usullarini belgilash.
4. O'quv faoliyati usullariga bog'liq holda modul dasturidan o'rin olishi lozim bo'lgan o'quv elementlarini va ularning ketma-ketligini aniqlash.
5. O'quvchilar bilimni aniqlash va nazorat qilish bo'yicha dastlabki joriy nazorat, axborot to'plami, talabalar bilimidagi tipik kamchilik va xatolarni bartaraf etish yo'llarini belgilash.
6. O'quvchilar uchun asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni tanlash.

7. O`quvchilar modul dasturi yordamida o`quv materialini mustaqil va ijodiy o`rganish jarayoni mazkur mavzuni o`zlashtirish uchun dasturda belgilangan vaqt doirasida amalga oshirilishiga erishish lozim.

19.4. Tajriba vositasida o`qitish sikli, rolli hamda ishbilarmon o`yinlar kabi ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida kasbiy fanlarni o`qitish

Bugungi kunda birinchi navbatda ta`lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, bu mazmunga nafaqat bilim, ko`nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi – ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak-atrofga munosabatlarni ham kiritish g`oyasi kun tartibiga ko`ndalang qilib qo`yildi.

Bizningcha, bu g`oyani ijtimoiy hayotning quyidagi komponentlari orqali ro`yobga chiqarish mumkin:

- faoliyat turlari (moddiy, amaliy ijtimoiy, ma`naviy);
- ijtimoiy ong shakllari (axloq, san`at, siyosat, falsafa, fan va boshqalar);
- ijtimoiy munosabatlar tizimi (moddiy va mafkuraviy);
- moddiy, ijtimoiy va tabiiy borliq (keyingi avlodlarga meros qilib qoldirilgan boyliklar).

Ta`lim mazmuni, uning komponentlari, tarkibi, vazifalari haqida so`z ketganda dalillar bilan qonuniyatlar, yaqqollik bilan mavhumlik, bilimlar bilan haqiqatni mustaqil bilish metodlari o`rtasidagi maqbul keladigan munosabatlarni aniqlash zarur.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta`kidlanganidek, «Zamonaviy iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratish mamlakatni taraqqiy ettirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Tizimning amal qilishi kadrlarning istiqbolga mo`ljallangan vazifalarini hisobga olish va hal etish qobiliyatiga yuksak umumiy va kasbiy madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faolikka, ijtimoiy siyosiy hayotda mustaqil ravishda yo`nalish ola bilish mahoratiga ega bo`lgan yangi avlodni shakllantirishni ta`minlaydi».

Kadrlar tayyorlash sohasida hozirga qadar amalga oshirilayotgan o`zgarishlar faqat mavjud ta`lim tizimini isloh qilishga qaratilgan edi. U shaxs, jamiyat va davlatning ehtiyojlari bilan kasbiy tayyorgarlikning amaldagi tizimi o`rtasidagi tafovutlarni bartaraf etishni ta`minlamas edi. Xalqaro tajribani, mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ahvoli va muammolarini tahlil qilish asosida uning prinsip jihatidan yangi modeli ishlab chiqildi.

Kadrlar tayyorlash tizimi yangi modelining mohiyati va o`ziga xos xususiyati unga asosiy tarkibiy qismlari sifatida quyidagi komponentlar kiritilganligidadir:

- shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub`ekti, ta`limga oid xizmatlarning iste`molchisi va ularning yaratuvchisi;
- uzluksiz ta`lim – kadrlar tayyorlashning poydevori asosi;
- fan – yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlovchi va ularning iste`molchisi;
- ishlab chiqarish – kadrlarga bo`lgan ehtiyojning istiqbolini belgilashni, ularning tayyorgarlik darajasi sifatini baholashni, shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimini qisman moliyaviy va moddiy-texnikaviy ta`minlashni amalga oshiruvchi asosiy buyurtmachi;

- davlat va jamiyat – kadrlarning tayyorgarligi sifatini nazorat qilish va baholashni amalga oshiruvchi, kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning bosh kafillari.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» umumiy madaniyatni shakllantirish, jamiyatdagi hayotga moslashtirish, kasb-korga va ta'limga oid dasturlarni ongli ravishda tanlash hamda keyinchalik ro'yobga chiqarish uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, psixologik-pedagogik va boshqa shart-sharoitlarni yaratishni, oila va jamiyat, davlat oldidagi o'z mas'uliyatini anglovchi barkamol insonni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga jadal sur'atlar bilan kirib borish jarayoni respublikamiz aholisi uchun ta'lim darajasini oshiruvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu birinchi navbatda bozor munosabatlarining rivojlanishiga bog'liq bo'lib, u jarayon bilim darajasiga, iqtisodiyot va ekologiya, kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalar ustuvor bo'lgan va iqtisodiyotning rivojlangan tarmoqlariga, ta'lim tizimining takomillashuvi va kadrlar tayyorlashga bog'liq bo'ladi.

Kadrlar tayyorlash muammosining samarali echimi birinchi navbatda bugungi kun talablariga javob bera oladigan psixologiya, pedagogika, iqtisodiyot, ekologiya, madaniyat, huquqshunoslik va shunga o'xshash boshqa fanlarning bilim asoslarini chuqur biladigan professional malakaga, har tomonlama chuhur bilimga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar tayyorlanishi bilan bog'liqdir.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonida quyidagilar hal qiluvchi ahamiyat kasb etar ekan:

1. Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro samarali aloqadorligi.
2. Ta'lim korxonalari va professional ta'lim dasturlari turlarining xilma-xilligi, ularning fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari, iqtisodiyot va texnologiyalarning eng yuqori andozalari va ko'rinishlaridan foydalanish.
3. Professional ta'lim tizimini ustuvor va foyda keltiruvchi iqtisodiy tarmoqqa aylantirish.
4. Ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash va ularning moddiy-texnik bazasini yaratish hamda ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini mustahkamlash.
5. Professional ta'lim tizimiga eng yuqori malakali o'qituvchilarni va mutaxassislarni jalb ettirish.
6. O'quv jarayonini axborotlashtirish va kompyuterlashtirish.
7. Kadrlar tayyorlashning sifat bahosini va obyektiv nazorat tizimini qo'llash.
8. Shaxsning rivojlanishi, o'lchovi, sifat va xulqini, qobiliyat intellektini baholash va kasbiy mahorati muammolariga bag'ishlangan psixologik-pedagogik izlanishlarni bajarish.
9. O'qituvchilarni yuqori darajada moddiy rag'batlantirish va ularni ijtimoiy himoya qilish.

Bu holatlarning barchasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'z aksini topgan. Bugungi kunning mutaxassisi har tomonlama rivojlangan yuqori darajadagi intellektga ega bo'lgan, fan asoslarini chuqur o'rgangan bilimdon, zukko, dono,

fidoiy, ma'rifatli va ma'naviyatli inson bo'lishi kerak. U o'z mutaxassisligidan tashqari, xorijiy tillardan birini egallagan bo'lishi hamda kompyuter texnikasidan foydalana olishi shart.

Oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish usullari va o'qitiladigan fanlar bo'yicha sifatli bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishni ta'minlovchi pedagogik usullarni qo'llay bilishi lozim. U zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati, maqsadi va vazifalarini o'rganib chiqib, ular haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar, amaliy yo'llanmalar ishlab chiqishi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirganidan so'ng, uni ta'lim tizimiga joriy eta olishi zarur.

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayoni, jamiyatning tez o'zgarib borayotgan turmush sharoiti, ta'lim tizimiga ta'sirchanlik va tezkorlik xossalarining berilishini, ya'ni ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot talablariga javob berish, shaxs qobiliyati va iste'dodini hisobga olish imkoniyat va shart-sharoitlarini yaratishni taqozo etadi.

O'quv-tarbiya dasturlarining ta'sirchanligi va tezkorligini ta'minlash ta'lim jarayonini differenziyalash muammosi bilan uzviy bog'liq. Hozirgi sharoitda, so'zda emas, ishda uzluksiz ta'lim tizimiga ta'limni differenziyalash prinsip va mexanizmlarini joriy etish kerak.

Ta'limni differenziyalash zamonaviy ta'lim tizimining asosiy xususiyatlaridan biridir. U o'quvchi-talabalarning shaxsiy ehtiyojlari, layoqati, imkoniyatlari, qiziqishlari, kasb tanlashidan kelib chiqqan holda turli ko'rinishda bilim olish imkoniyatini beradi.

O'quv-tarbiya jarayonida qatnashuvchi barcha sub'ektlarning o'zaro samarali ta'sirini ta'minlovchi mexanizmlar va shart-sharoitlarni yuzaga keltirish zarur. Umuman olganda, ushbu tizimning barcha tarkibiy qismlari – oila, uzluksiz ta'lim, mahalla, jamoat birlashmalari, jamg'armalar mavjud. Biroq, birinchidan, ularning o'z ichidagi samaradorlik faoliyatini ko'tarish, ikkinchidan, samarali ta'sirchanlik, ya'ni uzviyligi, bir-biriga chambarchas bog'liqligidan kelib chiqib ularning faoliyatini takomillashtirish lozim.

Ta'lim muassasalarining faoliyatini ijtimoiy institutlar sifatida tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Bunda, maktab, litsey, kollej, institutlarni nafaqat ilm-fan maskani, balki haqiqiy madaniy-ma'rifiy markazlarga aylantirish kerak. Ular mahalla, oila, jamoat birlashmalari bilan yaqindan aloqada bo'lishlari shart. Ushbu maskanlarda ijod qilish ruhi, ijtimoiy faollik, shaxsiy ishtirok, o'zaro hamkorlik muhitining yaratilishi, bir tarafdin, mustaqil fikr yurituvchi shaxsni tarbiyalashga, ikkinchi tarafdin, yangi ijtimoiy muhit, tafakkurning shakllanishiga olib keladi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonida modulli ta'lim texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, didaktik o'yinli texnologiyalar, muammoli ta'lim texnologiyalaridan, loyiha metodidan foydalanish, keys-stadilar ishlab chiqilyapti.

Talabalarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalaniladi. Modulli ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos jihati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha talabalarning mustaqil va ijodiy ishlashiga

imkon beradigan modulli dastur tuziladi. Talabalar modul dasturi yordamida mustaqil va ijodiy ishlab, mashg'ulotlardan ko'zlangan maqsadga erishadilar.

Modul dasturlari o'rganilayotgan mavzu yuzasidan talabalar bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar, topshiriqlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalarni o'zida mujassamlashtiradi. Ishlab chiqilgan dasturlar mazmun va mohiyatiga ko'ra, talabalarning individual, ikkita talaba birgalikda va kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturlariga ajratiladi. Modul dasturlarning didaktik maqsadidan kelib chiqib, o'quv-tarbiya jarayonidan o'z o'rnida foydalanish yuqori samara beradi.

O'quv-tarbiya jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyasi metodlaridan foydalanish har bir talabani kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, talabada shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, ta'lim olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir talabaning ta'lim olishdai muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, berilgan topshiriqlarni sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Oliy o'quv yurtlarida olib boriladigan mashg'ulotlarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining guruhlarda o'qitish, zigzag yoki arra, kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodlaridan foydalanish uchun pedagog har bir metodning didaktik maqsadini anglagan holda o'quv topshiriqlarini tuzadi va ulardan o'z o'rnida foydalanish yo'llarini belgilaydi.

Hozirgi kunda juda ko'p metodist va pedagog olimlar «Zamonaviy pedagogik texnologiyalar» talaba-o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ko'zlangan maqsadga erishishni to'la kafolatlaydi, deb qaralmoqda. To'g'ri, zamonaviy texnologiyalar yordamida ishlab chiqarishda boshqaruvchidan katta kuch talab qilinmaydi. Maxsus texnologiyaning o'zi qo'yilgan maqsadga to'la erishishni kafolatlaydi. Ammo bu nazariyani pedagogik texnologiyada to'laligicha qabul qilib bo'lmaydi, chunki bunda obyekt shaxs bo'lib, uning ongi taklif qilinayotgan texnologiyani to'laligicha qabul qila olmaydi, aksincha uni inkor qilishi mumkin. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga kiritishda uning boshqaruvchisi bo'lgan pedagog ko'zlangan maqsadga erishishning bosh kafolatchisi hisoblanadi. Demak, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uning asosiy negizi bo'lgan axborotlar texnologiyasini ta'lim tizimiga joriy etishda uning boshqaruvchisi bo'lmish pedagogning tayyorgarlik darajasini birinchi o'rinda hal qilish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi.

Oliy ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish ko'lamini kengaytirish, mazkur yo'nalishda ilg'or pedagogik tajribalarni tatbiq etish, har bir fan bo'yicha bu sohada aniq rejalarni tuzish va amalga oshirish; darslik, o'quv qo'llanma, dastur, ma'ruza matnlarini tayyorlash, ilmiy-metodik ishlarda, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etishni rivojlantirish, ularni axborot vositalari bilan ta'minlash hamda kommunikation tarmoqlarga bog'lash muhim vazifa hisoblanadi.

Umuman olganda, oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan har bir pedagog quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, ya'ni:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari;
- pedagogik texnologiyalar konsepsiyasining rivojlanish tarixi;
- ta'lim jarayoniga texnologik yondashish haqida tasavvurga ega bo'lish;
- pedagogik texnologiyalarning didaktik qonuniyatlarini;
- o'qitiladigan fanga tegishli ilg'or o'qitish texnologiyalarini;
- didaktik jarayonni ma'lum vaqt chegarasida loyihalanishi;
- o'qitishning faol metodlarini bilish va qo'llay olish;
- uy vazifalarini maqsadli, tashhisli va aniq o'quv element turi tarzida berish, texnologiya loyihalarining mantiqiy tuzilmasi, korreksiyasi;
- o'quv maqsadlari tavsianomasini ishlab chiqish;
- test topshiriqlarini talaba faoliyat darajalariga mos holda tuzish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish sharti;
- internet kompyuter tarmog'idan foydalanish;
- o'quv jarayoniga elektron pochtdan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish;
- reyting nazorati va talabalarning bilimlarini obyektiv baholashni bilishi kerak.

Bugungi kunda respublikamizda oliy ta'lim tizimi yangi rivojlanish pog'onasiga ko'tarildi: ikki bosqichli ta'lim – bakalavriat va magistratura faoliyat ko'rsata boshladi; davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi; talabalarning mustaqil ta'lim olishini yakka tartibda amalga oshirish joriy etilyapti, ta'lim mazmunida fan va ishlab chiqarish integrasiyasi o'z aksini tobora ko'proq topmoqda; professor-o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga e'tibor kuchaytirilganligi ayniqsa quvonarlidir.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonni rivojlangan davlatlar tajribalari asosida takomillashtirish, uning ishtirokchilari – o'qituvchi va talaba-magistr faoliyatini «sub'ekt-sub'ekt» imkoniyatlari asosida tashkil etish zarurati bugun barcha oliy o'quv yurtlarida pedagogika va psixologiya fanlarini o'quv rejasiga kiritish lozimligini isbotladi. Endigi vazifa esa, bu fanlarni o'qitishga alohida e'tibor qaratish, pedagogik faoliyatning siru-sinoatlarini tadqiq qilish asosida amaliy xulosalarni qo'lga kiritishdir.

Shunday qilib, mamlakatimizda shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi e'tirof etilgan bir davrda pedagogika fani erkin shaxsni shakllantirish qonuniyatlari, yoshlar shaxsini hayotga moslashtirishning shakl va metodlari, mazmuni va prinsiplarini o'rganadi. Endilikda pedagogika o'z predmeti, fanlar bilan aloqasi, pedagogik bilimlar tizimi va ularning mantiqiy tuzilmasi, nazariy pedagogik bilimlarni tarbiyaga, ta'lim amaliyotiga qo'llash masalalariga doir muammolarni qaytadan yangicha talqinda ko'ndalang qo'ymoqda. Demak, pedagogikada tadqiqotlarning dolzarbligi, bir tomondan, jamiyat ehtiyoji – o'quv-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish bilan, boshqa tomondan esa, pedagogik bilimlarning yangilanish va rivojlanish darajasi bilan belgilanar ekan.

Qisqa xulosa

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'limdagi yondashuvlar, tarkibi o'zgarmoqda va boshqacha munosabatlar, pedagogik mentalitetlar o'rnatilmoqda.

Ta'lim tarkibi yangi prosessual mahoratlar, axborotlar bilan ishlash qobiliyatining rivojlanishi, ilmiy muammo va bozor amaliyotining ijodiy echimining ta'lim dasturlarini individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda.

Axborotning an'anaviy usullari-og'zaki va yozma nutq, telefon va global masshtabli telekommunikatsiyalarni ishlatish bilan almashtirilmoqda.

Pedagogik jarayonning muhim tarkibi bo'lib, talaba bilan o'qituvchining shaxsga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlari hisoblanadi. Ijtimoiy bilimga teng bo'lgan pedagogik texnologiyalarning tashkil topishida fanning roli ortib bormoqda.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda ushbu bobda mavzu bo'yicha qator ma'lumotlar keltirilgan va eng asosiysi talabalarga tushunarli tarzda bayon etilgan.

O'z-o'zini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Bugungi kunda ta'lim tizimidagi yangiliklar haqida so'zlab bering?
2. Ta'lim texnologiyasi va uning rivojlanishi haqida fikr bildiring?
3. Ta'limda texnologik yondashish variantlari deganda nimani tushunasiz?
4. Axborot texnologiyalariga nimalar kiradi?
5. Rivojlangan jamiyatda axborot texnologiyalarining o'rni qanday?
6. Pedagogik texnologiyaga berilgan ta'riflarni izohlab bering?
7. Muammoli ta'lim texnologiyasi haqida fikringiz qanday?
8. Modulli ta'lim texnologiyasiga misol keltiring?
9. "Texnologiya", "Innovatsiya" tushunchalarining mohiyatini izohlab bering?
10. "Internet", "Elektron pochta", "Multimediya" ga misollar keltiring?

VI BOB

KASB-HUNAR TA'LIMI TIZIMI BOSHQARUVI FAOLIYATINI TASHKIL QILISH SHART-SHAROITLARI, TAMOYILLARI VA USULLARI

Bobning qisqacha mazmuni

Kasb-hunar ta'limi tizimi boshqaruvi faoliyatini tashkil qilish shart – sharoitlari, tamoyillari va usullari. Kasb-hunar ta'limi tizimida boshqaruv faoliyatini tashkil qilish yo'llari. Ta'lim tizimida boshqaruv faoliyati tamoyillari. Kasb-hunar ta'limi tizimida boshqaruv faoliyatini tashkil qilish usullari.

O'zbekiston Respublikasining globallashuv sharoitida kasb ta'limi muassasasini boshqarish. Globallashuv sharoitida o'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish. Pedagogik jamoa – o'quv muassasi boshqarishning obyekti. Pedagogik faoliyatni faollashtirish. Ta'lim muassasini boshqarish konsepsiyasi. Pedagogik faoliyatni boshqarish dasturi. Ta'lim muassasi boshqaruvining pedagogik yo'naltirilganligi. Zamonaviy globallashuv sharoitida rahbar va uning shaxsi. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing.

20 - mavzu. Kasb-hunar ta'limi tizimida boshqaruv faoliyatini tashkil qilish shart -sharoitlari, tamoyillari va usullari


Reja:

- 20.1. Kasb-hunar ta'limi tizimida boshqaruv faoliyatini tashkil qilish yo'llari
- 20.2. Kasb-hunar ta'lim tizimida boshqaruv faoliyatining tamoyillari
- 20.3. Boshqaruv faoliyatini tashkil qilish usullari

20.1. Kasb-hunar ta'limi tizimida boshqaruv faoliyatini tashkil qilish yo'llari

Boshqaruv taraqqiyotning har qanday bosqichida jamiyatga xos bo'lgan ichki xususiyatdir. Bu xususiyat umumiy xarakterga ega. Boshqaruv xalq manfaatini ko'zlagan holda demokratik uslub negizida amalga oshiriladi. O'z-o'zidan ravshanki, bunday boshqaruv jarayonida inson omiliga, xususan, millat manfaati va milliy qadriyatlarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Biz 12-rasm orqali boshqaruv modelining tarkibiy elementlarini yoritib o'tamiz.



12-rasm. Boshqaruv modelining tarkibiy elementlari

Yuqoridagi rasmda boshqaruv modelining tarkibiy elementlari sifatida motiv, maqsad, rejalashtirish, qaror qabul qilish kabilar ko'rsatib o'tilgan.

Ta'lim tizimi hayot bilan, davlatimiz siyosati bilan bog'lash prinsipi O'zbekiston ta'lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari oldida turgan barcha nazariy va amaliy vazifalarni hal etishda asosiy prinsip bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi.

O'rta maxsus ta'lim tizimini boshqarishga siyosiy yondashish ta'lim-tarbiya ishlaridagi hodisa, fakt va jarayonlarga mustaqil O'zbekiston Respublikasi manfaatlari nuqtai nazaridan turib munosabatda bo'lish demakdir.

Mamlakatimizda ta'limning keng yoyilishi, miqdor va sifati jihatidan jadal o'sishi, turli xildagi ta'lim tizimi va ta'lim muassasalaridan tashqari o'quv-tarbiya maskanlarining ishlab turishi, ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarishning juda

zarurligini taqozo etadi. Ijtimoiy boshqarish masalalari ilmiy bilimning maxsus sohasi qilib ajratiladi. Pedagogik jarayonlarni, hodisalarni va obyektlarni boshqarishda pedagogika qonuniyatlarini hisobga olish zarur. Bu holda pedagogik boshqarish tushunchasi qo'llaniladi.

Barcha tipdagi o'quv yurtlari, o'quv muassasasidan tashqari muassasalar, xalq ta'limi bo'limlari va boshqalar asosiy boshqarish obyektlariga kiradi. Ta'lim-tarbiyani tashkil qilish va boshqarishga doir ishlarning hammasi pirovard natijada yagona asosiy maqsadga erishishga, ma'lum darajada umumiy ma'lumot darajasi va kasbiy tayyorgarligiga ega bo'lgan har tomonlama rivojlangan va imon-e'tiqodli qilib tarbiyalangan kishini tarkib toptirishga qaratilgandir. Ta'lim tizimini boshqarish pedagogika fanining muhim tarmog'i bo'lib, O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim tizimi organlari va ularning vazifalari, ish faoliyatining mazmuni va metodlarini belgilab beradi, shuningdek, ta'lim muassasalariga rahbarlik qilish tizimini asoslaydi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini boshqarishga umumiy rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi olib boradi.

Respublikada ta'lim tizimini boshqarishda bir qator davlat organlari -tegishli vazirliklar - chunonchi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi shuningdek, markazlar, xususan, Respublika ta'lim markazi, boshqarma, viloyat, shahar va tuman xalq ta'limi bo'limlari ham ishtirok etadilar.

N.Boymurodovning fikricha, - "Boshqaruv inson miyasiga taqqoslanadi, bunda shaxsning yaratuvchilik imkoniyatlari mujassamlangan, undan uning ijodiy qobiliyati namoyon etilishiga ko'rsatma beriladi. Insoniyat tomonidan fan-texnika, iqtisodiyot va ijtimoiy muvafaqqiyatlar tobora oshirilib borishiga ko'ra boshqaruv faoliyatining ilmga bo'lgan talabi ham to'xtovsiz o'sib boradi. Bunday ilmiy yondashish ehtiyojini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, boshqaruvning nodir xususiyati: biror yo'qdan muayyan nimanidir qilish, tarqoq unsurlardan tizim tuzish.

Ikkinchidan, rahbar tasarrufida bo'lgan yoki u javobgar hisoblangan qadriyatlar ko'lamining jadal oshishi.

Uchinchidan, insonlar kuch-g'ayratiga asoslangan boshqaruvning yaratuvchilik samarasi rahbariyatdan har tomonlama ma'lumotlilik, o'z kasbini ustasi bo'lishlik va tizimli yondashishni talab qiladi".

Har bir rahbarning hokimlik imkoniyati uning lavozim vakolatiga ko'ra belgilanadi, bu ular xizmat vazifasini bajarish uchun zarur. Oldindan ko'ra bilish, rejalashtirish, uyg'unlashtirish, nazorat qilish, rag'batlantirish, o'qitish, ijtimoiy aqlni tuzish rahbarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Eng yuqori hokimlik imkoniyatiga "birinchi shaxslar" – tuzilmaga boshchilik qiluvchilar (OTM rektori va b.lar) egadir. Ular tashkilot hayotiy faoliyati Istiqbol dasturini belgilab beradi, kadrlar siyosatini amalga oshiradi. Ancha quyi darajadagi rahbar ("ikkinchi" va "uchinchi" darajali shaxs)lar birinchi shaxslar ularga bergan vakolat doirasida ish yuritadi.

Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquqlari doirasiga quyidagilar kiradi.

1. Ta'lim sohasidagi yagona davlat siyosatini ruyobga chiqarish;

2. Ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalarida ularga rahbarlik qilish;

3. DTS, mutaxassislarining bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo'lgan talablarining bajarilishini ta'minlash;

4. O'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish;

5. O'quv va o'quv uslubiy adabiyotlarini yaratish va nashr etishni tashkil qilish;

6. Ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi Nizomlarni tasdiqlash;

7. Davlat oliy ta'lim muassasalarining rektorlarini tayinlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

8. Pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

Respublika ta'lim tizimini boshqarishda mahalliy davlat hokimiyati organlari ham ishtirok etadi. Ularning Respublika ta'lim tizimini boshqarishdagi o'рни va roli quyidagilar bilan belgilanadi:

- ta'lim muassasalari faoliyatining mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydilar;

- ta'lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar (Respublika tasarrufida bo'lgan muassasalar bundan mustasno), ularning ustavlarini ro'yxatga oladilar;

- o'z xududlaridagi ta'lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorlarini va imtiyozlarini belgilaydilar;

- ta'lim sifati va darajasiga, shuningdek, pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo'lgan davlat talablariga rioya etishni ta'minlaydilar shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

O'rta maxsus ta'lim tizimini boshqarish sohasida ta'lim muassasasi faoliyatini boshqarish ishlarini tashkil etishga ham alohida e'tibor beradilar. Ta'lim muassasasi uning rahbari (direktori yoki rektor) tomonidan boshqariladi.

Kasb-hunar ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan rahbar o'quvchilarni ma'naviy barkamol, jismonan sog'lom bo'lishlari, fan asoslarini puxta o'zlashtirishlari uchun, umuman, ta'lim muassasalarining butun faoliyatini uchun javobgar shaxs sanaladi. Tashkilotchi, oliy ma'lumotli kamida uch yillik pedagogik ish stajiga ega bo'lgan eng yaxshi pedagog tuman xalq ta'limi bo'limi tavsiyasiga binoan viloyat xalq ta'limi (Toshkent shahrida-shahar xalq ta'limi) bo'limi tomonidan direktor etib tayinlanadi, bir o'quv muassasasidan ikkinchi o'quv muassasasiga ko'chiriladi.

O'rta maxsus ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan rahbar buyrug'ini ta'lim muassasi xodimlari bajarishlari shart. Rahbarlarning ta'lim muassasasidagi vazifalari asosan quyidagilardan iborat: o'quv muassasasining pedagogik jamoasiga rahbarlik qilish, mutaxassislarni to'g'ri tanlash, joy-joyiga qo'yish, xodimlarning ijtimoiy-g'oyaviy saviyasi va malakasini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, talabalarning bilim va tarbiyasi sifatli bo'lishini ta'minlash, ta'lim muassasasidan tashqari ishlarning tashkil etilishiga rahbarlik qilish va tegishli nazorat o'rnatish,

talabalarning to'g'ri kasb tanlashini ta'minlashni yo'lga qo'yish, ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan ishlarni tashkil etish, o'quv muassasasida ichki tartib-intizom, sanitariya-gigiena, umumiy rejim, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etishni ta'minlash va hokazolar.

Kasb-hunar ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan rahbar pedagog va yordamchi xodimlarni ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi, xodimlar va pedagoglarni rag'batlantiradi, shuningdek, o'rinli holatlarda ularni jazolaydi, alohida o'rnak ko'rsatgan pedagog va xodimlarni davlat mukofotlariga tavsiya etadi. Rahbar muayyan masalalarni hal etishda pedagogik jamoa fikr-mulohazalarini inobatga oladi. Ta'lim muassasasi faoliyati yuzasidan tegishli muassasalar davlat oldida javob beradi.

Ta'lim tizimida ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etishda rahbarga o'quv hamda tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosarlar ko'maklashadilar.

Kasb-hunar ta'limi tizimida o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari ta'lim muassasasining o'quv ishlari bo'yicha mas'uli bo'lib hisoblanadi. U o'quv ishlariga bevosita rahbarlik qiladi. Oliy ma'lumotli, kamida uch yillik pedagogik stajga ega bo'lgan eng yaxshi pedagoglarga mazkur lavozimda ishlashlari mumkin. Uning nomzodini ta'lim muassasi rahbari tavsiya etadi, tuman (shahar) Kasb-hunar ta'limi boshqarmasi tasdiqlaydi.¹

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari o'quv muassasasidagi ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, o'quv dasturlari talablarini bajarilishi dars mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etilish hamda o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirishlari uchun javobgar bo'lib, ta'lim ishlarining yo'lga qo'yilishi o'quvchilar bilim darajasining o'sishi ustidan nazorat olib boradi. Pedagoglarga metodik yo'riqlar ko'rsatadi, ta'lim ishlarining uyushtirilishini rejalashtiradi, metod birlashmalarining ishlariga rahbarlik qiladi.

Kasb-hunar ta'limi tizimida ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari ta'lim muassasalarining tarbiyaviy ishlariga bevosita rahbarlik qiluvchi mas'ul shaxsdir. Oliy ma'lumotli, kamida uch yillik pedagogik malakaga ega bo'lgan eng yaxshi pedagoglarga mazkur lavozimda ishlay olishlari mumkin. Uning nomzodini ta'lim muassasasi rahbari tavsiya etadi, tuman (shahar) Kasb-hunar ta'limi boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadi.

Ta'lim muassasalarida ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari ta'lim muassasasida tarbiyaviy jarayonning to'g'ri tashkil etilishi, tarbiyaviy ishlarining yillik rejasini ishlab chiqish va uning bajarilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, tadbirlarning bajarilishi ustidan nazoratni o'rnatish, ichki tartib qoidalariga rioya etilishini ta'minlash, talaba, pedagog va xodimlarning ma'naviy qiyofasini shakllantirish, ularning xulq-atvorlari ustidan nazoratni tashkil etish kabi ishlarni olib boradi.

Kasb-hunar ta'limi tizimida moliyaviy-xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari - ta'lim muassasasining moliyaviy-xo'jalik ishlarini yuritish ishiga mas'ul sanalgan shaxsdir. Ushbu lavozimga nomzodni ta'lim muassasasi rahbari tavsiya

¹ Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Мищенко А.И., Шиянов Е.Н. Педагогика.- М.: Школьная пресса, 2004. 261с.

etadi va tuman (shahar) Kasb-hunar ta'limi boshqarmasi tasdiqlaydi. Uning asosiy vazifasi - moliyaviy mablag` bilan o`quv muassasasining ta'minlanishi, qo'shimcha daromad manbalarini yaratish borasidagi takliflar bilan chiqish, ta'lim muassasasining o`quv jihozlar bilan ta'minlanishi, binoning joriy hamda to'la ta'mirlanishiga erishish kabi masalalarini hal etishdan iboratdir.

Kasb-hunar ta'limi muassasasining pedagogik Kengashi (oliy o`quv yurtlarida ilmiy Kengash) ta'lim muassasasi rahbari huzuridagi maslahat organi bo`lib, uning qarorlari jamoaning yagona va umumiy fikrini aks ettiradi. Pedagogik Kengash (ilmiy Kengash) qabul qilgan ayrim qarorlar ta'lim muassasasi jamoasi uchun ham, rahbar uchun ham majburiy hisoblanadi. Chunonchi, ta'lim-tarbiya ishlarining holati, yutuq va kamchiliklari, pedagog-xodimlarni davlat mukofotlariga tavsiya etish (o`quv muassasalarida o`quvchilarni guruhdan-guruhga ko`chirish, o`quvchini o`quv muassasasidan haydash), kabi masalalar pedagogik (Ilmiy) Kengash yig`ilishlarida Respublika hukumati qarorlari, Prezident Farmonlari, yuqori organlarning ko`rsatmalari (masalan, XTV va Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirliklarining)ni amalga oshirishga doir tadbirlarini belgilash, ta'lim jarayonini amalga oshirish, ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, innovatsion va axborotlar texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish, ilg`or ish tajribalarini o`rganish hamda ommalashtirish, oila, jamoatchilik bilan ta'lim muassasasi o`rtasidagi hamkorlikni yuzaga keltirish uni mustahkamlash va hakozo masalalarni ko`rib chiqadi.

Kengashning har bir a'zosi ta'lim-tarbiya ishiga oid masalani o`z tashabbusi bilan Kengash yig`ilishi muhokamasiga olib chiqish huquqiga ega. Kengash qarori ta'lim muassasasi rahbari tomonidan tasdiqlangandan so`ng kuchga kiradi va jamoaning har bir a'zosi uchun majburiy hisoblanadi.

X.Ibragimovning fikricha, - "O`rta maxsus ta'lim tizimi muassasalarida metodik ishlar ta'lim-tarbiya ishlarining sifatini oshiruvchi eng muhim vositalaridan biri sanaladi. Metodik ishlarni tashkil etishdan ko`zlanadigan maqsad-pedagoglarning ijtimoiy-g`oyaviy dunyoqarashini kengaytirish va pedagogik, uslubiy mahoratini oshirishdan iboratdir"¹.

Metodik birlashmalarga tajribali pedagoglar boshchilik qiladilar, ular birlashma yig`ilishida saylanadilar.

Kasb-hunar ta'limi tizimida metodik ishlar asosan ta'lim va tarbiya ishining sifatini yaxshilashga qaratiladi va u turli shakllarda olib boriladi. Metodik birlashmalar yig`ilishlarida ochiq darslar va o`zaro darslarga kirishni o`tkazish tartibi, ularning o`tkazilish holatlari ham muhokama qilinadi. Pedagoglarning o`zaro dars kuzatishlari ham metodik ishlarning muhim shakli sanaladi. Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan metodik ishlar umumiy rejada o`z ifodasini topadi.

Ta'lim tizimi boshqaruvida rahbarlar lavozim vakolati katta-kichikligiga qaramay, ular uchun quyidagi tamoyillarga ko`ra boshqaruv axloqining umumiy negizi xosdir:

- vakolatlilik – lozim vakolatini malakali bajarish uchun zarur bilim, tajriba va uquvga ega bo`lish;

¹ Ibragimov X. Pedagogika nazariyasi. -T.: Fan, 2011 .9 – 10 betlar.

- insonparvarlik – xizmat xulqidagi insonni sevish va ezgu axloqiy xislat, odamlardagi eng yaxshi shaxsiy ishga qobillik sifatlarini ochishga intilish;

- innovatsiyaviylik - yangilikni izlash, unga intilish ishtiyoqi, asosli tavakkal qila bilish qobiliyati;

- pragmatika – natijalarga ko`ra ishlash, ish vaqtdan samarali foydalanish, faol investihya faoliyati;

- ortobiotiklik - o`z hayotini qadrlay bilishni anglash, kelajakka bo`lgan barqaror ishonch, atrof-muhitga g`amhurlik bilan munosabatda bo`lish.

Ta`lim tizimini boshqarishning o`ziga xos muhim belgilari, afzalliklari va kamchiliklari ham mavjud. Quyidagi 1–jadvalda biz ularni izohlab o`tamiz.

1 – jadval

Ta`limni boshqarish tizimining muhim belgilari, afzalliklari va kamchiliklari

Boshqaruv tizimi	
Markazlashgan tizim	Markazlashmagan tizim
Markazlashtirilgan rahbariyat ta`lim muassasalarida uzoqda (to`g`ri va ko`chma ma`noda).	Rahbarlik hokimiyati boshqaruvning mahalliy idoralari va ta`lim muassasalari taqsimlangan.
Ta`lim siyosati markazlashtirilgan va bevosita bajaruvchilar bilan kamdan – kam holda kelishib qabul qilinadi.	Ta`lim siyosati mintaqqa, jamiyat va o`quv muassasasining rivojlanishini qanoatlantiruvchi umumiy qaror asosida qabul qilinadi.
Ta`lim siyosati hamisha “rahbar har doim haq va bizga farmoyish berishi kerak” qabilida ish olib boriladi.	Ta`lim siyosati mahalliy miqyosdagi siyosat bo`lganligi uchun mahalliy hokimiyat tomonidan qo`llab – quvvatlanishi tufayli o`z tadbiqini topadi.
Bo`ysunuvchi tashabbus ko`rsatishdan qo`rqadi, boisi “gapirdim boshimga tegdi tayoq”.	Tashabbus va eksperimentlar mahalliy miqyosda keng qo`llab – quvvatlanadi va rag`batlantiriladi.
Rahbar uslubi avtokratik – yuqoridan pastga	Rahbarlik uslubi demokratik vakolatning bir qismi xodimlarga qaror qabul qilishda berib qo`yiladi.
Samarasiz ish	Qaror qabul qilishda qatnashgan xodim mas`uliyatni o`z zimmasiga olishga samarali ishlashga tayyor.
KommunikaSiyaning asosiy turi, yuqoridan pastga, qoidaga ko`ra, rahbar monologi	Ko`pyoqlama aloqa, kasb burchi va samarali muhokama
Hatti–harakatning tajovuzkor, qing`irlik va sustkashlik turi keng tarqalgan. Ko`pchilik bo`ysunuvchilar o`z xuquqini himoya qilishdan qo`rqadilar.	Bo`ysunuvchilarning o`zini dadil tutishi. Inson huquqlarini hurmat qilishga zarurat sifatida qarashi.
Hokimiyatning bitta qo`lda to`planishi bo`ysunuvchilarga nisbatan	Hokimiyatning taqsimlanishi inson huquqlarini himoya qilish va bir xil

adolatsizlikka, mahalliychilik va o'zboshimchilikka, lavozimni suiiste'mol qilishga olib keladi.	imkoniyatlar berish rahbariyat tomonidan adolatsizlik, lavozimni suiiste'mol qilishlikni bartaraf etadi.
Boshqaruv vazifalarini hal qilishda yagona ko'rsatma.	Boshqaruv vazifasini hal qilish bo'yicha takliflarning turli tumanligi va ulardan eng ma'qulini tanlab olish.

Yuqoridagi jadvalda markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan ta'lim jarayonida sodir bo'ladigan muammolar yoritilgan.

Kasb-hunar ta'limi muassasalarida olib borilayotgan faoliyat yuzasidan ish yuritish hujjatlarida qayd etiladigan hisobotlar muhim ahamiyatga ega. Hisobot ishlari davlat tomonidan belgilangan va tasdiqlangan shakllarda olib boriladi. Buning uchun ta'lim muassasasi hujjatlari, ish yuritish va hisob-kitob yaxshi yo'lga qo'yilishi kerak. Bunday muhim hujjatlar sirasiga o'quvchilarni hisobga olish bo'yicha yuritilayotgan hujjat kiradi, unda:

a) o'quvchilar ro'yxati (alfavit asosida);

b) o'quvchilarning shaxsiy ishlari;

v) o'quvchilarning sinflar bo'yicha (talabalarning kurslar bo'yicha) ro'yxati va boshqalar mavjud bo'ladi.

Kasb-hunar ta'limi muassasalarida ish yuritish hujjatlari quyidagi tartibda joylashtiriladi:

1. Rahbar organlarning ko'rsatmalari;

2. Tashkiliy masalalarga oid hujjatlar;

3. O'quv masalalarga oid hujjatlar;

4. Tarbiyaviy masalalarga oid hujjatlar;

5. Kadrlarga oid hujjatlar;

6. Jamoatchilik bilan olib boriladigan hamkorlik, ta'lim muassasasining, ommaviy ishlariga oid hujjatlar;

7. Moliya, xo'jalik ishlariga moddiy ta'minot va ta'mirlash ishlariga oid hujjatlar;

8. Ta'lim muassasasidan yuborilgan va unga kelgan hujjatlar qayd etadigan daftar va boshqalar.

Mazkur hujjatlarning yuritilishi ta'lim muassasi faoliyatiga to'la baho berish, mavjud kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi.

Uzluksiz ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo'li bilan boshqarilib boriladi. Barcha darajadagi ta'lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari «Ta'lim to'g'risida»gi qonunga muvofiq belgilanadi. Ta'limning me'yoriy-huquqiy bazasi ri-vojlantiriladi. Moliya-xo'jalik faoliyatini olib borish hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta'minlanadi. Ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkaziladi hamda akkreditaSiyalanadi. AkkreditaSiya yakunlariga ko'ra ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatish huquqi beriladi.

Muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarning, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiylarning vakillarini o'z

ichiga oluvchi vasiylik va kuzatuv kengashlari tuzish orqali ta'lim muassasalarining samarali jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

20.2. Kasb-hunar ta'limi tizimida boshqaruv faoliyati tamoyillari

Kasb-hunar ta'limi tizimida samarali boshqaruv bo'lmasa, rejalashtirish, tashkil qilish, tarbiyalash, mohiyatlash va nazorat qilish vazifasini samarali bajarish mumkin emas.

Boshqarish samarali bo'lishi uchun o'quv-tarbiya jarayoni barcha ishtirokchilarining-talabalar, professor-o'qituvchilar tarkibi, o'quv-yordamchi soha va ma'muriyat xodimlari va boshqalarning manfaatlari rang-barangligi, tabiiyki, ularni boshqarishning tegishli tamoyillarini tanlashni talab qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda 2-jadvalda keltirilgan boshqarishning sakkizta asosiy tamoyilidan foydalaniladi.

2-jadval

Ta'limni boshqarishning asosiy tamoyillari

№	Topshiriqni bajarishga qaratilgan
1	Muammoni yechishga ijodiy yondashuv (o'zgarishlarga moslashish uchun tafakkurning barcha imkoniyatlaridan foydalanish)
2	Sifat o'zgarishlarga erishish uchun muntazam rejalashtirish (siyosat-rejalashtirish-amalga oshirish-monitoring ishlab chiqish)
3	Vaziyatdan kelib chiqadigan rahbariyat uslubi (vaziyat va bo'ysunuvchilarga moslashuv qobiliyatini oshirish)
4	O'zaro hamkorlik va idealga bir xil munosabat (aniq kutishlik, foydali qayta aloqa)
	<i>Amalga oshiruvchilarga qaratilgan</i>
5	Guruh va kommunikaSiya a'zolarining hamkorligi
6	Buyurtmachiga qaratilgan (buyurtmachi, manfaatdor shaxs talablarini bajarish bo'yicha xizmatlarni bajarish)
7	Ijodiy fikrlash, qulay muhit va o'zaro aloqa (hamkasblarni qadrlash va hurmat qila bilish)
8	Vakolatni berish va xodimlar kasbiy malakasi oshuviga ko'maklashish (vakolatni berish va kasbiy o'sish uchun sharoit yaratish)

2- jadvalda aks ettirilgan 1-4 tamoyillar topshiriqni bajarishga-buyurtmachilar (mehnat bozori, fan, xizmat ko'rsatish sohasi, tibbiyot va h.k.) ning muvofiq malakali mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Keyingi to'rt tamoyil mutaxassislar tayyorlash jarayonini amalga oshiruvchilar-professor-o'qituvchilar tarkibi, kasb-hunar ta'limi tizimida o'quv-yordamchi soha va ma'muriyat xodimlari va boshqalarga qaratilgan.

Ijodiy yondashish tamoyili, odatda o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda qo'llaniladi. *V.I.Kuznesovning fikricha*, - «Ijodiy yondashish tamoyilini qo'llash zaruriyati quyidagi shartlarni talab qiladi:

Birinchidan, o'quv faoliyati turining xilma-xilligi: ma'ruzalar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, seminarlar, mustaqil o'rganish, malakaviy amaliyot, kurs loyihalari (ishlari) va x.k. Bularning maqsad va vazifasi turlichadir.

Ikkinchidan, maqsad va vazifasi, tuzilishi va mazmuniga ko'ra o'qitiladigan fanlar va kurslarning turli-tumanligi.

Uchinchidan, o'qitilayotgan shaxslar individualligi»¹.

Ko'rsatilgan o'ziga xosliklarni hisobga olish uchun xam ta'lim oluvchilar, xam ta'lim beruvchilar fikrlash imkoniyatidan unumli foydalanish zarur. Bu o'quv-tarbiya jarayonini o'tkazish turli unsurlarni va shartlarni moslashishga imkon beradi.

Faoliyatni muntazam rejalashtirish tamoyili ham ta'lim muassasasalari turli bo'linmalarda, ham o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirishda keng qo'llaniladi. Bu faoliyat samarador rejasini ishlab chiqarish, ularni bajarishni tashkil etish, olingan natijalarni baholashni ko'zda tutadi. O'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda bu tamoyil ijodiy yondashish vositasi hisoblanadi. O'qituvchi, u yoki bu o'quv faoliyat turini bajarishga ijodiy yondashib, o'zining va ta'lim oluvchilarning harakatini rejalashtirish, buni yuqori saviyada bajarish, natijalarini nazorat qilish va baholash, agar zarurat paydo bo'lsa, o'zining va talabalarning faoliyatini o'zgartirish bo'yicha xulosa chiqarish.

Rahbariyat uslubining moslashuvchanlik tamoyilidan tez-tez o'zgarib turadigan vaziyatda ishlovchi ko'pchilik rahbarlar foydalanadi. Bunday vaziyat ayniqsa, o'quv-tarbiya jarayoniga xos. V.Karimovanning fikricha, - «O'quv faoliyatining turi har xilligi, fanlar va kurslar turli-tumanligi, shaxslar individual xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Bularga qo'shimcha qilib, yana ta'kidlash mumkinki, ayni bir o'qituvchi turli guruh yoki kichik guruhlarda dars o'tishi natijasida boshqariladigan jamoa ko'pincha o'zgarib turadi, ustiga-ustak bu o'zgarishlar turli kurs yoki fakul'tetlarda, bir necha yo'nalish va ixtisosliklarni qamrab oladi. Bunday sharoitda o'qituvchi har safar faqat tegishli rahbarlik uslubinigina emas, balki ta'lim va tarbiya usullarini ham tanlash lozim bo'ladi»².

Bir-birini tushunish va hamfikrlik boshqaruv g'oyasini belgilaydi. Bu tamoyildan ayniqsa, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda foydalanish muhimdir. Ushbu vaziyatda o'qituvchilar va talabalar quyidagilarning mohiyatini anglashda hamfikir bo'lmoqlari lozim:

- ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar;
- mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi yo'nalish yoki ixtisoslik;
- ham kasbiy, ham ma'naviy ma'noda shaxsni shakllantiruvchi kurs yoki fan;
- kurs yoki fanning maqsad va vazifasi.

Bir-birini tushunish va hamfikrlik darajasi hamkorlik munosabatini belgilaydi va o'quv-tarbiya jarayonida foydali qayta aloqa hisoblanadi.

Guruh (jamoa) hamkorlik tamoyilidan, odatda kasb-hunar ta'limi tizimida kafedra, laboratoriya, fakul'tet, ta'lim tizimini ilmiy va boshqa bo'linmalarni boshqarishda foydalaniladi. Bu tamoyil turlicha faol guruhliy usullar ("oqilona fikrlash") ni ko'zda tutadi, hamkorlar tengligi va o'z fikrini erkin mustaqil bayon qilish bularga xos xususiyat hisoblanadi. Bunday holda rahbar nimasi bilandir dirijyorni eslatadi.

¹ Кузнецов В.И. Управления персоналом. -М: МГЭ, статистика и информатика, 2005.

² Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. - T.: Fan va texnologiya, 2012. 68 – bet.

Buyurtmachini nazarda tutish tamoyilidan kasb-hunar ta'limi tizimida o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda, ayniqsa, buyurtmachining talabiga muvofiq mutaxassislarni ixtisoslashtirishda foydalaniladi. Fanlarni tanlash bo'yicha talabalar ham buyurtmachi hisoblanadi. Mazkur tamoyil turli shartnomaviy ishlar (amaliy ITI, tajriba-konstruktorlik ishlari va h.k.) ni bajarishda keng qo'llanadi.

Ijobyi fikrlash va qulay muhit tamoyilidan hamisha boshqaruvning boshqa tamoyillarini ham qo'shgan holda foydalaniladi. Bu tamoyil o'rta maxsus ta'lim tizimida hamkasblarni qadrlash va hurmat qilish, ta'lim oluvchilar bilan hamkorlik munosabatini o'rnatishga asoslanadi.

Vakolatni berish tamoyilidan, odatda, ta'lim tizimida xodimlari kasbiy mukammallashuviga ko'maklashish maqsadida foydalaniladi. Bu tamoyildan yana "aylanib qolish" usulini amalga oshirishda, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda qo'llanadi (tarbiya o'qituvchi vazifasini bajaradi).

Ta'lim tizimini boshqarishda barcha usullar o'zaro uzviy bog'lik bo'lib, ular bir birini to'ldiradi. Boshqaruv muvaffaqiyatining muhim omili rahbarlik uslubi hisoblanadi.

Odamlar bilan ishlay bilishlik rahbarning asosiy kasbiy da'vati hisoblanadi.

N.Boymurodovning fikricha, - «Rahbar uslubi rahbarning quyidagilarga qanchalik moyilligiga bog'liq:

- boshqa rahbarlar bilan hokimiyatni bo'lisha olishligiga;
- o'ziga bo'ysunuvchilar tadbirkorligiga va tashabbuskorligidan foydalana olishiga;
- rahbarligidagilarga harakat rejasini ishlab chiqarish va amalga oshirishlikni ishonib topshirishga».

Bularga bog'liq tarzda rahbarning to'rt xil uslubini ko'zatish mumkin:

- avtokratik;
- byurokratik;
- demokratik;
- aristokratik.

Mak Gregor nazariyasi bo'yicha rahbarning to'rt turi bo'lishi mumkin:

-buyruqdor-xodimlar nima qilishi to'g'risida farmoyish beradi (avtokrat uslubi);

-ma'lum qiluvchi-sabablarni ko'rsatib, xodimlarga buyruq beradi (byurokratik uslub);

-konsultant – qaror qabul qilguncha yoki reja ishlab chiqquncha xodimlar maslahatiga quloq soladi (demokratik uslub);

-hamkor-xodimlar harakat rejasi ishlab chiqish va amalga oshirishni ishonib topshiradi (demokratik uslub).

A.Holliqovning fikricha, - "Avtokrat (yoki avtoritar) uslub shu bilan tavsiflanadiki, rahbar o'zining shaxsiy (yoki, ba'zi bir kim tomonidan majburlangan) g'oya, reja, tavsiya va h.k.ni, bularni jamoa a'zolari u yoqda tursin, o'z muovinlari bilan ham mutlaqo maslahatlashmay amalga oshiradi. Rahbarning nuqtai nazari boshqalarga taalluqli fikrlar majmuiga asoslanadi, ammo u o'z shaxsiy fikri qilib olinib, bayon etiladi (ya'ni raxbar boshqalar fikrini o'ziniki qilib oladi). Muammoni guruh bo'lib muhokama qilishda u o'z fikrini qaror sifatida ta'kidlaydi, uni

muhokama ishtirokchilari buyruq sifatida qabul qiladilar. Bunday rahbarlar ijrochilar bilan to`g`ridan-to`g`ri, ularning bevosita rahbarlarini chetlab, faoliyat yuritadilar”.¹

Boshqaruvning avtokrat uslubida, agar rahbar o`z xodimlariga ishonmasa, yaxshi natijaga erishib bo`lmaydi. U qattiq nazorat o`rnatadi va ular mufassal tekshiradi, bu bilan xodimlar tashabbusini bo`g`adi.

Byurokratik uslub boshqarishga rasmiy yondashishga asoslanadi va “me`yor doirasi”da amalga oshiriladi. Bu usul faqat ijrochilarning emas, balki rahbarlarning ham tashabbusini turli yo`riqnomalar, ko`rsatma va h.k. lar yordamida bo`g`ib qo`yadi.

Demokratik uslub rahbarning boshqaruv faoliyati va jamoa o`z-o`zini boshqaruvining eng samarali tarzda nisbatiga asoslanadi. Harakat rejasini muhokama qilish, qabul qilish va amalga oshirishda ijrochilarning faol va ongli ishtiroki uning asosiy jihati hisoblanadi. YUqori samaraga rahbarning ko`tarinki ruhi va bo`ysunuvchilarga ishonchi tufayli erishiladi.

Umumiy jipslik, umum muvaffaqiyatidan g`ururlanish, bir-birini qo`llab-quvvatlash va hamfikrlik-samarali ishlash garovi.

Yuqorida ta`kidlangandek boshqaruvning biror uslubini mutlaqlashtirish maqsadga muvofiq emas. Muhimi muayyan vaziyatlarga muvofiq boshqaruv faoliyatida ularni qo`shib olib bora bilish. Masalan, boshqaruvning demokratik uslubi o`quv-tarbiya jarayonini amalga oshirishda yaxshi natija beradi, avtokrat uslubi yuqori tashkilotlar farmoyishlarini amalga oshirishda, byurokratik usul esa-hisob-kitob va hisobotda.

a) *Rahbar va hokimiyat*

Hokimiyat - boshqalar xulq-atvoriga ta`sir etish imkoni. Hokimiyat rahbarga xizmat vakolatiga qo`shimcha tarzda kerak, u o`z guruhi doirasidagi va undan tashqaridagi odamlar bilan bog`liqdir. Buni mashhur tadqiqotchi Jon Kotter rahbar hokimiyatni kuchaytirish kerak “...chunki, u hamisha o`ziga bo`ysunmaydiganlarga bog`liqdir, ikkinchidan, shuning uchunki, hozirgi tashkilotlarda, amalda, deyarli hech kim uning uzluksiz buyruqlari oqimiga to`la itoat etmaydi, faqat u boshliq bo`lgani uchun ham”, deb ta`kidlaydi.

Hokimiyat, ta`sir o`tkazish vositasi, French va Reyven (boshqaruv va etakchilik soxasi tadqiqotchilari) tasnifi bo`yicha beshta asosiy shaklga ega:

1. Majburlashga asoslangan hokimiyat-qo`rqituv orqali ta`sir etish: ishdan ajrab qolishdan qo`rqish, xizmat lavozimi pasayishidan qo`rqish, mukofotdan mahrum bo`lishdan qo`rqish va x.k. Ko`pchilik rahbarlar qo`rqitish orqali ta`sir o`tkazib ijobiy natijaga erishadi, lekin ma`lum chegarada. SHu bilan birga, odatda salbiy natijaga ham ega bo`ladi: tortinchoqlik, qo`rquv, o`ch, nafrat, bo`ysunuvchilarning yovlashuvi, bular Fred Lugans ta`kidlashicha, “...mehnat unumdorligi pasayishiga, o`z ishidan norozilikka, aldashga va bo`ysunuvchi tomonidan ayyorlik qilishga olib keladi”. Natijada tarozining pallasidagi salbiy tomon bosib ketadi. Oliy ta`lim muassasalarida, ularning ko`pchiligida ko`pincha qo`rqitish orqali ta`sir etishga harakat qilinadi, o`z maqsadi - yuksak axloq,

¹ Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.: Iqtisod Moliya, 2012. 51- bet.

madaniyat, ma'naviyatga ega bo'lgan raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashga erishishda bunday holda erishish mumkinligiga aql bovar qilmaydi.

2. Mukofotga asoslangan hokimiyat - bo'ysunuvchilar ehtiyojini qondirish bilan ta'sir etish, rag'bat va mohiyatning birgalikdagi harakati. Hokimiyatning bu shakli bo'ysunuvchilar faolligi va aytganini qilishlariga erishishda yordam beradi. Bundan menejerlar, ko'pincha, kasbiy sportda foydalanadilar. Bunday hokimiyat oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashda samara beradi. Muammo shundaki, bajarilgan ish uchun aynan mos keladigan rag'bat va mohiyatni qanday (rahbar fikricha emas, balki bajaruvchi fikricha) topish kerak? Bunda shuni xam e'tiborga olish kerakki ta'lim muassasasi rahbariyati moddiy rag'batlantirish uchun cheklangan resurslarga egadirlar.

3. Ekspert hokimiyat - bo'ysunuvchilarning rahbarga ongli ravishdagi itoati. Bu rahbar xodimlar fikricha yuqori malaka va vakolatga, bilim va muvaffaqiyatga ega bo'lsa mumkindir. Ijrochilar yuqoridagi sifatlarga ega rahbarga ishonadilar, chunki u muammo yoki masalani hal etishning yagona to'g'ri yo'lini tanlay oladi (mutaxassis hokimiyati). Davolovchi vrach va bemor munosabati shunday hokimiyatning yorqin misoli bo'la oladi. Ekspert hokimiyati o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirishdagi o'qituvchi va talabalar munosabatiga xam taalluqlidir. Talabalar o'z o'qituvchilari yuqori malaka va vakolat egasi ekanligi, katta bilim va tajribasi borligiga ishonsalar uning tavsiyalari, maslahati, ko'rsatmalari va h.k.ga biror muammoni o'rganishda unga ongli ravishda yondashadilar.

4. Etalon hokimiyat (namuna hokimiyat) - rahbar shaxsiy xususiyatlari, uning etakchilik qobiliyati asosiga qurilgan ta'sir etish. Bunday ta'sir etish asosida ijrochilarning rahbarga bo'lgan qiziqishi, hurmat, ishonchi va kuchli yoqtirishi, shuningdek, uningdek bo'lish va unga o'xshashlik ishtiyoqi yotadi. Amerikalik tadqiqotchi T.L. Xadson shunday ta'kidlaydi: "Odamlar ko'pincha o'zlarini o'z xususiyati bilan dong qoldiruvchilar ta'sirini his etadilar va kimni o'z idealidagi deb bilsalar, o'shanga o'xshagan bo'lishni orzu qiladilar". SHunday hokimiyatda rahbarning g'ayriodatiy qarorini ham ijrochilar zo'r qoniqish bilan qabul qiladilar.

Biroq har qanday rahbar ham tabiatan shunday etakchi bo'lavermaydi. Ular nima qilsin? quyidagi maslahatga amal qilsinlar:

- doimo yodda tuting, butun jamoaning diqqat-e'tibori Sizga qaratilgan;
- o'zingizda etakchilik salohiyatini rivojlantiring;
- zararli odatlardan qutilishga harakat qiling;
- o'z nutqingizni nazorat qiling;
- o'z tashqi qiyofangizga parvosiz bo'lmang;
- bo'ysunuvchilarni o'zingizga moyil qilishga harakat qiling.

Bu maslahatlar aqliy faoliyat muassasalarining rahbarlari uchun ayniqsa muhimdir, oliy ta'lim muassasalari shunday muassasa hisoblanadi.

5. Qonuniy (yoki an'anaviy) hokimiyat boshliqqa bo'ysunish an'anasiga asoslangan, chunki, shunday qabul qilingan va bu munosabatlarning tarixan shakllangan ko'rinishidir. *N.Boymurodovning fikricha*, - "Hokimiyatning mazkur shakliga muvofiq ijrochi inson (ekspert va etalon hokimiyat) ga emas, balki lavozimga e'tibor qaratadi. Bu rahbarning bo'ysunuvchilarga ta'sir o'tkazishning qulay shaklidir (agar ular ushbu an'anaga ongli ravishda amal qilsalar), chunki bu

undan ko'p kuch-g'ayrat sarf etishni talab qilmaydi: hammasi lavozim darajasi (subordinaSiya-past lavozimdagilarning yuqori lavozimdagilarga itoat etishi)ga asoslangan. Biroq ana shunday "toptalgan so'qmoq" dan o'zgarishlar va yangiliklar tomon burilish qiyin" [46].

Keltirilgan hokimiyat shakllari-nazariy asos, oliy ta'lim muassasasiga rahbarlik amalda shularga asoslanadi. Hokimiyatning shaklini tanlash asosiy mezon, ko'pincha ular majmui, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga rahbarlik samaradorligi hisoblanadi.

b) Rahbar va vaqt

Rahbar vaqt ustidan xukmron emas, lekin undan samarali foydalanishi mumkin.

Har qanday darajadagi rahbarning oldida turgan savol quyidagicha: qanday qilib ishni samarali tashkil etish va eng yaxshi natijaga erishish mumkin? Avvalo o'z ish vaqtini oqilona taqsimlash zarur.

O'z ish vaqtini rektor, prorektor, ta'lim muassasalari bo'linmalarining rahbarlari, dekanlari, kafedra mudirlari, o'qituvchilar va talabalar taqsimlashi lozim.

Talaba quyidagilar bilan bog'liq o'z xatti-harakatining rahbari hisoblanadi.

-mustaqil ta'lim - o'qituvchi rahbarligi ostida bilim, uquv va malakani mustaqil egallash.

-mustaqil ishlash - olingan bilim, uquv, malakani mustaqil qo'llash va mustahkamlash.

Rahbarning ish vaqtini shartli ravishda ikki qismga bo'lish mumkin:

-direktiv vaqt-yuqori rahbar (yoki rahbarlar) tomonidan rejalashtirilgan turli boshqaruv bilan bog'liq xatti-harakatlarga sarf bo'ladigan vaqt; yig'ilish, kengash, planerka, ilmiy kengash majlisi, kafedra yig'ilishi va h.k.;

-subdirektiv vaqt o'zining boshqaruv xatti-harakatini ishlab chiqish va amalga oshirishga sarflanadigan vaqt.

Agar rahbarning direktiv vaqtini uning boshlig'i rejalashtirsa, subdirektiv vaqt rahbarning o'zi tomonidan rejalashtirilishi va foydalanishi mumkin. Bu muhim va shu bilan birga murakkab masala. Uni oqilona hal etish uchun quyidagi amaliy tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Vaqtdan foydalanish rejasini turli vaqt birliklari-yil, uch oylik, oy, xaftada erishish belgilangan aniq maqsad va tadbirlar har birini alohida e'tiborga olib tuzish zarur;

2. Yil, uch oylik, oy, hafta, kun bo'yicha ish tartibini o'zi uchun belgilash va vaqtdan foydalanish rejasini amalga oshirishda undan ongli tarzda foydalanish;

3. Vaqtdan foydalanish aniq rejasini juda bo'lmaganda uch oylik qilib tuzish lozim. Biroq, jamoa vaqtining 60%ini rejalashtirish kerak, chunki ko'zda tutilmagan tadbirlar chiqib qolsa, ular uchun ham muhlat qolishi lozim;

4. Vaqtning bir haftasidan foydalanish rejasida uning yakuniy natijasini aniqlash va zarur ishlarni quyidagicha ularning ahamiyatliligi tartibida belgilash lozim;

-yakuniy natijaga erishish nuqtai nazaridan zarur ishlar;

-agar vaqt etsa, bajarish kerak bo'lgan ishlar;

-albatta qilish kerak bo'lgan ishlar;

5. O'zingizning vaqt byudjetingizni muntazam o'rganing va nazorat qiling. O'z ishingiz mazmuni, boshlanishi va tugashini muayyan shaklda qayd etib boring. O'z ishingizni aks ettiruvchi jadval, vaqt haritasi, grafik va h.k lar o'ylab toping va ulardan foydalaning; ularni ko'rinadigan joyga osib qo'ying yoki kompyuter xotirasiga kiriting.

6. Kengash, majlis, planerka va h.k. larni kamroq o'tkazing, ammo har bir tadbirni puxta tayyorlang.¹

Vaqtни oqilona rejalashtirish va foydalanish uchun faqat yuqoridagi tavsiyalardan foydalanibgina qolmay, balki ajdodlarning vaqtga bo'lgan munosabat xususidagi umumiy tajribalaridan ham xabardor bo'lish lozim. Bu tajriba "Rahbar va vaqt" eslatmasida keltirildi.

"Rahbar va vaqt" eslatmasi.

1. O'zi va boshqalarni uyushtirish -demak, vaqtни tasarruf etishni bilish.
2. Hammasini o'z vaqtida bajarish-turmush va ishdagi ulkan qadriyat.
3. Siz vaqtga qanday munosabat ko'rsatsangiz, undan ham xuddi shunday munosabat qaytadi.
4. Rahbar vaqtdan unumli foydalanishga va boshqalarni ham shunga o'rgatishga majbur tashkilotchi.
5. Nimadir o'z vaqtida qilinmasa, o'zi bajarilishi uchun ancha ko'p kuch va vaqt talab etadi.
6. Faqat vaqt kam paytdagina emas, balki vaqt ko'pida ham ishlay bilish lozim.
7. Rahbar vaqt ustidan hukmronlik qila olmaydi, ammo undan unumli foydalanishga qodir.
8. Har qanday vaqt ichida kerakli va foydali nimadir qilsa bo'ladi.
9. Hozir va shu bugun qilish mumkin bo'lgan ishni, yaxshisi keyinga yoki ertaga qoldirmaslik kerak.
10. Rahbarning buyukligi vaqt kam yoki mutlaqo yo'q paytda uni topa bilishda.
11. Eng qimmat to'lov qo'ldan ketgan yoki chiqarilgan vaqt uchun to'lovdir.
12. Eng ko'p tarqalgan jinoyat vaqtни o'g'irlash, samarasiz sarflash va uvol qilishdir.
13. Vaqtdan foydalanishni o'rganish - maqsad sari yo'l tutish.

Bizningcha, bugungi kunda ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan rahbar kadrlarni zamon talabi darajasida tayyorlash uchun maxsus reja, dastur, uslubiy vositalar, maxsus jihojlangan zamonaviy laboratoriyalari mavjud bo'lgan fakul'tet ochish maqsadga muvofiq. Bu yerda monitor tizimini amalga oshirish, milliy mentalitetning ifodalanishi, g'oyalar bankiga ega bo'lish imkoniyati mavjuddir. Faqat mana shu yo'l bilan konstitutsiyaga xiyonat- bu vatanga, xalqqa xiyonat ekanligini har bir rahbar ongiga singdirish mumkin.

¹ Kuznesov V.I. Upravleniya personalom. -M: MGU Ekonomiki, statistika i informatika. 2005.19- s.

Yuqoridagilarga xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, rahbarning asosiy kasbiy fazilati - odamlar bilan ishlay olish. Bu tanlangan tamoyillar va boshqaruv uslubiga, shuningdek, boshqalar xulqiga uning ta'siri, tavsifini belgilovchi rahbarning hokimlik shakliga bog'liqlik bo'lishini uddalay olishidir. Rahbarning vaqtni oqilona rejalashtirishi va undan foydalana bilishi samarali boshqaruvning muhim shartidir.

20.3. Kasbiy ta'lim tizimini boshqarish usullari va ularning ahamiyati

Rahbar psixologiyasi, boshqaruv qobiliyati, uslubi, muomala maromi, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy treninglar, ishbilarmonlik o'yinlari, fikrlar jangi bo'yicha rahbar kadrlarga umumiy tushuncha, shuningdek, amaliy ko'rsatma berish zarurati bir talay ehtiyojlar negizidan kelib chiqadi.

Rahbarlik lavozimiga mukammal shaxsiy fazilatlarga, mustahkam milliy xarakterga, boshqaruvchilik qobiliyatiga, muayyan muomala maromiga g'oyaviy-siyosiy e'tiqodga, milliy qiyofa, milliy his-tuyg'ular, an'analar, rasm-rusmlarni o'zlashtirishga ega bo'lgan mutaxassislar o'tirishlari lozim. Toki ijtimoiy taraqqiyot ularning izmida ekanligini tushunib etsinlar.

1. Ishontirish boshqarishning asosi sifatida.

Boshqaruv - aniq maqsadga yo'naltirilgan ishonchsiz tasavvur ham etib bo'lmaydigan odamlar bilan ishlash.

Kasb-hunar ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan zamonaviy rahbar oldiga qo'ygan vazifalarga erishish maqsadida bo'ysunuvchilarga o'z ta'sirini o'tkazish uchun ishontirish vositasidan foydalana olishi lozim. Ishontirish vositasi bajaruvchi ongiga, shunday qilsa, ya'ni rahbar xohlagandek, u o'z shaxsiy manfaatini ham qanoatlantirgan bo'lishini etkazdi, bugun bajaruvchi manfaatdor shaxsga aylanadi. Bu haqda obrazli qilib M. Mekson shunday degan edi: «Bajaruvchiga nima qilish kerakligini aytmaydigan, ishontirish yo'li bilan ta'sir etadigan rahbar unga nima qilish zarurligini «sotadi». SHunda bajaruvchi nimanidir g'oyasi o'ziga ham tegishliligini his etadi».¹

Ishontirish usuli ta'sir etishning to'rt turini o'z ichiga oladi: *ma'lum qilish, tushuntirish, isbotlash va rad etish*.

Ma'lum qilish-bajaruvchi nima uchun harakat qilishi lozim bo'lsa, shuni unga bildirish. Bunday xabardor qilish bajaruvchi, avvalo, ishga kirishishdan oldin nima qilish lozim-u, u shuni uddalaydimi, ishonch hosil qilish uchun zarur.

Agar harakat qilish arziydi yoki arzimaydi yoki mumkin emas deb hisoblasa, hech kim harakatni boshlamaydi.

Ishontirish jarayonida ma'lum qilish ko'pincha hikoya tarzida amalga oshiriladi, u ikki xil tuziladi:

- induktiv, bunda ayrim omillardan umumlashgan tomonga boriladi;
- deduktiv, umumiy qoidalardan ayrim omillar tomonga boriladi.

Induktiv bayon etishda hikoya boshida, qoidaga ko'ra, savol qo'yiladi, hikoyaning butun keyingi qismi bunga javob bo'ladi. Bunday holda asosiy ma'lumot

¹ www.ZiyoNet.uz

ancha faol qabul qilinadi. Deduktiv yo`lida barchasi aksincha-savol asosiy fikr bayon etib bo`lingandan so`ng qo`yiladi.

Shuni ta`kidlash joizki, temperamentning holerik turida ma`lumot berishda (unga ruhiy faoliyatning tezkor sur`ati xos) bayon qilishning deduktiv usulidan foydalanish maqsadga muvofiq, flegmatikka esa (ruhiy faoliyatning sust sur`ati xos) – induktiv usul qo`l keladi.

Hamma toifadagi rahbar uchun tushuntirish, ma`lum qilish kabilar muhim ahamiyatga ega. **Yo`riqlov tushuntirish usuli** - qandaydir yo`riqni o`zlashtirishga undovchi bajaruvchi faoliyatini «ipidan ignasigacha» birma-bir uqdirish. Bunday holda tinglovchining xotirasi ishga tushadi. Tushuntirishning bunday turi ijodiy fikrlovchi va badiiyatiga moyil shaxslarga juda ham yoqavermaydi.

Bayoniy tushuntirish usuli - jonli tarzda omillarni mantiqiy ketma-ketlikda (xuddi hikoyadagidek) izhor etish, bu muayyan xulosaga olib keladi. Bunday tushuntirishda rahbar ovoz, imo-ishora, yuz ifodasidan mohirona foydalanishi lozim.

Mulohazaviy tushuntirish usuli - rahbar bajaruvchilar oldiga bir vaqtning o`zida «tarafdorlar», «qarshilar» degan savolni ko`ndalang qilib qo`yadi, bu bajaruvchilarni fikrlashga (majbur etmagan holda) undaydi. Mazkur vaziyatda bajaruvchilar u yoki bu masalani hal etishda o`zlarining o`rni borligi va bunda ishtirokchilarini his etadilar. Tushuntirishning bunday usulidan ijodchi toifadagilar bilan ishlashda foydalangan ma`qul.

Isbotlash usuli - mantiq qonuniyatlari - ayniyat, ziddiyat, uchinchisini istisno qilish, etarlicha asoslash - asosiga quriladigan ishontirishda ta`sir o`tkazish turi. Bunday ta`sir etishda, odatda, biror tezis (fikr yoki qoida) ilgari suriladi, uning haqiqatligi isbotlanishi kerak, shuning uchun isbot, dalil va (yoki) tezisni isbotlash uchun asos izlashga to`g`ri keladi. Bu ta`sir odatda namoyish etish deyiladi.

Rad etish usuli - bu ham isbotlashga o`xshagan mantiqiy tarzdagi ta`sir etish turi. Biroq ruhiy jihatdan olganda bular o`rtasida katta farq bor. Rad etish, isbotlashdan farqli o`laroq, odamlar xulq-atvoridagi qotib qolgan qarash va odatlarni tanqid qilish, eskilarini yo`qotish va yangilarini shakllantirish bilan bog`liq. Bu tarafkashlarda kuchli qarshilik uyg`otadi. SHuning uchun eskining tarafdorlarini ishontirish va yangini qabul qildirish uchun kuchli dalil, isbot va (yoki) da`vo kerak bo`ladi. Burchakka tiqib qo`yilgan tarafkash kurashdan voz kechishi mumkin.

Bajaruvchilarni ishontirishga asoslangan yuqorida ko`rib o`tilgan to`rt usulda ta`sir etib turish amalda tegishli yo`sinlar bilan to`ldiriladi. Keyingilar vaziyat va bajaruvchilar shaxsiga bog`liq holda belgilanadi.

Bajaruvchilarga ta`sir etish yo`li bilan samarali ta`sir etish uchun quyidagi tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Bajaruvchi ehtiyojini aniq belgilashga harakat qilish va unga hamdamlik qilish.
2. Suhbatni shunday fikr bilan boshlangki, u bajaruvchining ko`ngliga mos tushsin.
3. Katta ishonch va xotirjamlik tuyg`usini uyg`otadigan obraz yaratishga harakat qiling va do`stona munosabat ko`rsating.
4. Xodim o`z fikrini aytib olishiga yo`l bering.

5. Dialogingizni shunday tuzingki, xodim boshdanoq «ha» deb javob berishga majbur bo'lsin.

6. Shunday qilingki, xodim g'oya o'ziga taalluqliligini his qilsin.

7. O'z manfaatingizni ko'zlab emas, balki xodimlar manfaati nuqtai nazarini fahmlab gapiring.

8. Bir necha xil fikr aytilganidan so'ng, keyin gapirishga harakat qiling; sizning dalillaringiz tinglovchilarga ta'siri bo'yicha ko'proq imkoniyatga ega bo'ladi.

9. O'z g'oyangizga ko'rgazmalilik bashx eting, uni namoyish qiling.

Tavsiyalarga yana qo'shimcha qilish mumkin; bajaruvchi (ta'sirlanuvchi):

- ta'sirga qandaydir ehtiyojni qoniqishlik yoki qoniqmaslik manbai sifatida qarashi kerak;

- bajarish ehtiyojni qondirish yoki qondirmaslikka olib kelish ehtimoli yuqori darajada deb hisoblashi;

- kuch - g'ayratining rahbar kutganini oqlash imkoni yuqori darajada deb hisoblashi.

2) Bo'ysunuvchilar bilan o'zaro munosabat. Har bir bajaruvchining shaxsiy qadr - qimmatini rahbar uchun daxlsizdir.

O'zaro munosabatlarda bo'ysunuvchilar shaxsiyatiga biron-bir ehtiyojsizlikka yo'l qo'yish, uning fuqarolik huquqini cheklash mumkin emas. Qadr - o'z insonlik sha'ni tan olish.

V.A.Petrovskiyning fikricha, - "Rahbar va bo'ysunuvchilar o'rtasidagi rasmiy va norasmiy munosabatlarning mustahkamligi jamoa a'zolarining birgalikdagi mehnat faoliyatidan qanchalik ma'naviy qoniqish hosil qilishlariga bog'liq. Agar ular o'ziga nisbatan adolatli va to'g'ri munosabat mavjudligiga ishonqiramasalar, unda bu ularning o'zaro munosabatlari salbiy ta'sir etadi. Natijada rahbar o'z faoliyatida muvaffaqiyatga erisha olmaydi va nizolar, kelishmovchiliklardan chetlab o'ta olmaydi".

Bo'ysunuvchilar bilan o'zaro munosabat ijobiy bo'lishi uchun har qanday rahbar, shu jumladan, kasb-hunar ta'limi tizimi sohasidagi, boshqaruvning jahon tajribasi asosidagi tavsiyalarga amal qilishi maqsadga muvofiqdir.

1. Har bir ishda adolatli bo'ling. Sizni mukofot haddan ziyod yaxshi bo'lganligi yoki jazodan qo'rqqanlik uchun emas, balki har ikkisi ham adolatli taqsimlangani uchun hurmat qiladilar.

2. Xodimlarga e'tiborli bo'ling. Ular bilan samimiy munosabatda bo'ling. Ular haqida iloji boricha ko'proq bilishga harakat qiling: oilasi, qiziqishi, muammolari va h.k. qiyin daqiqalarda ularga yordam qo'lini cho'zing, qo'llab-quvvatlang.

3. Bo'ysunuvchilar bilan muloqotda voizlik qilishdan saqlaning. Sabrli tinglovchi bo'ling. Boshqalarni o'zi haqida so'zlashga rag'batlantiring. Sodda tuting, inson uchun o'z nomining yangrashi inson nutqi tovushlari ichida eng yoqimli va muhim sadodir.

4. Sertabassum bo'ling. Sizning jiddiyligingiz atrofdagilarni xavotirga soladi va nari itaradi.

5. Tanqidda juda xushyor bo'ling. Bo'ysunuvchining dilini og'ritmang. Tanqid qilishdan oldin unga o'z kamchiligingizni aytishdan tortinmang. Odamlar e'tiborini o'z xatolariga jalb etishda pardali qilib, muloyimlik bilan munosabatda bo'ling.


6. Insonni har safar, garchi ozgina yutuqqa erishgan bo'lsa-da, tez-tez maqtab turing. Bo'ysunuvchining xatosi va adashishiligini ta'kidlashga to'g'ri kelgan hollarda, siz uning yutuqlarini ko'rsatishdan va afzalliklarini samimiy tan olishdan boshlang.

7. Hech kimga buyruq oxangi yoqmaydi, buni doimo esda tuting. Buyruq berish o'rniga savol berish usulidan foydalaning. Masalan, «Shunday qiling» o'rniga «Siz nima deb o'ylaysiz, shunday qilsa yaxshi bo'lsa kerak?»

8. Ko'pincha o'zingizni bo'ysunuvchining o'rniga qo'yib ko'ring. Muammo va topshiriqqa uning nuqtai nazari bilan qarashga harakat qiling, xodimlar nuqtai nazari va fikr-mulohazasiga hurmat bilan munosabatda bo'ling. SHunday qilingki, bo'ysunuvchi uchun siz aytganingizni bajarish malol kelmasin.

3) *Motivlash*. Faoliyatning samaradorligi motivlash darajasiga bog'liq.

Motivlash usuli - muayyan maqsadga erishishga yo'naltirilgan biror shaxs (ayrim shaxs yoki shaxslar guruhi)ning faoliyatiga rag'batlantirish jarayoni. Asarda ta'kidlanishicha, rag'batlantirish kishilarda mehnatga iqtisodiy, idroklash va axloqiy qiziqish uyg'otishga qaratilgandir, bu ularni moddiy ta'minlash omili va o'zlarini hamda o'z munosabatlarini ishchanlikni ta'minlovchi ijtimoiy aql borasida «gumanitarlashni» ta'minlash sifatida namoyon bo'ladi. Biz 13-rasm orqali motivlash tarzini yoritib o'tamiz.



13-rasm. Motivlash asoslari

Yuqoridagi rasmda motivlar ichki, tashqi va jamoani emoSionallashtiruvchi bo'lishi keltirilgan. O'z-o'zini namoyon etish, intizomlik va o'zini o'zi boshqarishlik ichki motivlar hisoblanadi.

Tashqi motivlar - bular:

-moddiy rag'batlantirish (toifasini oshirish, shaxsiy qo'shimcha qilish, mukofot va sh. k.);

-xizmat lavozimi bo'yicha yuqorilash;

-ma'naviy rag'batlantirish (minnatdorchilik e'lon qilish, taqdirlash va h. k.);

-majburiy choralar (muntazam nazorat, mehnat qonunchiligiga muvofiq jazolash).

Jamoani emoSionallashtirish quyidagilarni belgilaydi:

- ✓ oshkoralik va xabardorlik;
- ✓ majburiyatlarni aniq va asoslangan holda taqsimlash;
- ✓ jamoaning barcha a'zosi maqsadni aniq tushunishi;
- ✓ barchaning rejalashtirishda ishtirok etishi;
- ✓ yaxshi mehnat hamisha rag'batlantirilishini tushunish;
- ✓ rahbarlar tomonidan aniq tashkil etish va boqarish va boshqalar.

Motivlash juda murakkab jarayon, chunki u turli tuman ruhiy, axloqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va b. omillarga bog'liq. Bundan tashqari har bir inson o'ziga xos motivaSiya tuzilishiga ega. Shuning uchun insonni faol ishlashga rag'batlantirishning yagona vositasi yo'q.

Biroq, kishilar xulq - atvorini belgilovchi ba'zi umumiy qonuniyatlar tajriba yordamida aniqlangan. Har bir rahbar mazkur qonuniyatlarni yaxshi bilishi va o'z boshqaruv faoliyatlarida ulardan oqilona foydalanishi lozim.

Boshqaruv faoliyati amaliyotni rejalashtirishdan va ularni bajarish uchun shart-sharoit yaratishdan boshlanadi. Shu ma'noda motivlash bilan bog'liq quyidagi tavsiyalar rahbar uchun foydadan holi emas.

1. Tashkilotning maqsad va imkoniyatlari munosib bo'lishi kerak.
2. Yakuniy natijaga faqat aniq maqsadgina olib keladi.
3. Faoliyat chuqur o'ylangan bo'lishi lozim.

4. Jamoa o'rtasida majburiyatlar va burchlar aniq belgilanishi, mehnat me'yorlarinishi va chegaralanishi zarur.

5. Jamoada har bir kishi o'zini ko'rsata bilishi va imkoniyatlarini yuzaga chiqarishi uchun aqliy muhit, sharoit bunyod etilishi kerak, yaxshi mehnat sharoiti, ishdan qoniqishlik darkor.

6. Intilib va sifatli ishlayotgan xodimga uni rag'batlantirmay turib, boshqalar bajarmagan ishni qo'shimcha qilib topshirmaslik kerak. Bu uni tez va sifatli ishlashga bo'lgan ishtiyoqini so'ndiradi, boshqasida esa boqimandachilik kayfiyatini uyg'otadi.

7. "Bildim dedim tutildim..." tamoyiliga amal qilmagan ma'qul.

Bajaruvchilarning ishini tashkil qilar ekan, rahbar bularning ahamiyatini ta'kidlashi lozim, xususan:

-bajaruvchi o'zi kerakligini, g'oyasi va takliflari e'tiborga olinishini xis etmog'i kerak;

-mehnat natijasi egasiz qolmasligi lozim, chunki ko'pchilik o'zining qadr-qimmatini isbotlashni xohlaydi va o'z mehnatining oqibati uchun javob berishga tayyor turadi.

O'ziga bo'ysunuvchilar yuqori mehnat samarasiga erishishlari uchun rahbar motivlash bo'yicha quyidagi tavsiyalarga amal qilishi lozim:

-bajaruvchilar malakasini muntazam oshirish uchun sharoit yaratish, mamlakatdagi va xalqaro tajribani o'rganish, konferenSiya va seminarlarda ishtirok etish;

-ish jarayonida bajaruvchilar yangi bilimlarni egallashlarini ta'minlash.

Nihoyat, rahbar mehnatni to'g'ridan-to'g'ri rag'batlantirishdan unumli foydalanishi kerak-bu quyidagilardan iborat:

-moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tarzida bajaruvchilar xizmatini tan olish;

-tashabbusni ragʻbatlantirish. Agar biror xodimning taklifi joiz boʻlmasada, uni maʼqullab qoʻying. Aks holda u umuman hech qanday taklifni oʻrtaga tashlamaydigan boʻlib qoladi.

Motivlash majburiy choralarni ham oʻz ichiga oladi, ular orasida muntazam nazorat yuqori natijali hisoblanadi.

4) *Nazorat*. *Nazorat* - boshqaruvning muhim vositasi, u yuzaga chiqadigan muammolarni ular hali jiddiylashib ulgurmasidanoq aniqlash va hal etishi uchun zarurdir.

Muntazam nazorat - «rahbar-jamoa» tizimidagi oʻziga xos «qaytar aloqa». U avtomatik boshqaruv sistemalaridagi qayta aloqa singari umuman jamoa yoki uning ayrim aʼzosining muayyan vazifani hal etishdan ogohlanganligini oʻz vaqtida aniqlanishi kerak. Shundan keyin rahbar faoliyatning amaldagi ahvolini rejalashtirilgani («taqqoslash qurilmasi») bilan qiyoslaydi va boshqarish uchun qanday harakat qilishni belgilaydi. Bu nazorat funksiyasini «mexanik» tasavvur etishdir. Amalda esa nazorat tufayli faqat faoliyatdagi chetga chiqishlik emas, balki bunday chetga chiqishlikni sababi, ularni bartaraf etish yoʻllari belgilanadi.

Nazorat yuqorida qayd etilgan funksiyalarni amalga oshira olishi uchun, u quyidagi talablarga javob berishi lozim:

1. ***Strategik yoʻnalish*** – tashkilot yoki uning boʻlinmalari ustuvorligi va maqsadlarini aks ettiradi, ularni qoʻllab-quvvatlashni bildiradi. Mayda-chuyda narsalar ustidan nazoratni oʻrnatish maqsadga muvofiq emas.

2. ***Natijalarni moʻljallash*** - tashkilot oldidagi aniq maqsad va vazifalarni hal etish.

3. ***Nazoratning oʻz mohiyatiga muvofiqligi*** - tashkilot ishi muhim koʻrsatkichlarini obyektiv oʻlchash va haqqoniy baholash.

4. ***Oʻz vaqtidagi nazorat*** - tashkilot faoliyatini tekshirishning vaqt oraligʻi natijaviyligi nuqtai nazaridan samaradorligini belgilash.

5. ***Nazoratning moslashuvchanligi*** - tashkilot faoliyatidagi sodir boʻlayotgan muhim oʻzgarishlarga moslasha olishlik.

6. ***Nazoratning soddaligi*** - nazoratni tekshiruvchilar tomonidan tushunilishi.

Kasb-hunar taʼlimi muassasasidagi muntazam nazorat uning professor-oʻqituvchilar tarkibining oʻquv-tarbiyaviy jarayon, ilmiy-metodik va ilmiy tadqiqot ishlari kabi faoliyat turlarini oʻz ichiga olishi lozim.

Oʻquv-tarbiyaviy jarayon nazoratining oʻziga xos tomoni boʻlib, uni rejalashtirish va oʻquv-metodik taʼminlash hisoblanadi.

N.Fayzullaevaning fikricha, - “Rivojlangan mamlakatlarda taʼlim tizimini boshqarishda oʻz-oʻzini (yoki baholash) muhim oʻrin tutadi, bu oʻz-oʻzini attestatsiyadan oʻtkazish doirasida amalga oshiriladi. Bu taʼlim tizimi faoliyati turli sohalari boʻyicha ixtiyoriy «qayta aloqa»dir. U koʻp yoʻnalishli boʻlib oʻz ichiga ham ishlab chiqaruvchilar (ilmiy-pedagogik va pedagogik kadrlar)ni, ham isteʼmolchilar (talabalar, ularning ota-onalari, kadrlar buyurtmachilari)ni oladi”.¹

Rahbar xodim ishi samarasini kamaytiruvchi omillar. Rahbar xodim ishi samarasi birinchidan oʻziga bogʻliq boʻlsa, ikkinchidan, uning yordamchilariga

¹ Fayzullaeva N. Taʼlim menejmenti va iqtisodiyoti. Maʼruzalar matni. T.TDIU.2012.72 – bet.

bogʻliq. Quyida rahbar xodim ishi samaradorligini kamaytiruvchi ayrim faktorlarni keltirib oʻtamiz.

Shunday qilib rahbar xodim:

1. Oʻzini ham, jamoani ham ish rejasini tuzmaydi.
2. Avvalo oʻziga yoqadigan va tanish boʻlgan ishni bajaradi.
3. Oʻz yordamchilariga ishonmaydi, ularning ishini ham oʻzi bajaradi.
4. Ish uchun oʻz ishchilaridan foydalanishni bilmaydi.
5. Xodimlar ishini mayda-chuydasigacha oʻzi bajarishga intiladi, umumiy maqsad va masalalarni aniqlash bilan shugʻullanmaydi.
6. Yordamchilari oʻrniga oʻzi qarorlar qabul qilib, ularni mahkam ushlab turishga harakat qiladi, amalda yordamchilar oʻsishiga tusqinlik qiladi va oʻzini ortiqcha ish bilan qiynaydi.
7. Oʻz yordamchilarini yaxshi bilmaydi, ularni ishi bilan qiziqmaydi.
8. Oʻz yordamchilari bilan ochiq - oydin gaplashishni bilmaydi yoki gaplasha olmaydi.
9. Oʻz xodimlarini qobiliyatiga ishonmaydi.
10. Oʻz ishlarini muhim darajasini aniqlab chiqa olmaydi va ish kuni tartibini belgilab chiqa olmaydi.

Rahbar xodim ish samarasining uning yordamchilari sababli kamaytirish faktorlari

1. Oʻz rahbariga murojaat qilish uchun tayyorlangan masalani har tomonlama tayyorlamay, rahbarning ishiga halaqit beradi, bekorga vaqtini isrof qiladi.
2. Oʻzi qaror qabul qilishga qoʻrqib doimo rahbarga murojaat etadi.
3. Oʻz ishi vaqtidan toʻgʻri foydalanishni oʻylamaydi, topshirilgan topshiriqlarni oʻz vaqtida bajarmaydi va shu tariqa rahbarning rejali ishlariga toʻsqinlik qiladi.
4. Oʻz ish faoliyatini, haq - xuquqlarini aniq bilmaydi.
5. Oʻzi bajara olmaydigan ish bilan band boʻlib, aniq topshirilgan topshiriqni bajarish bilan shugʻullanmaydi.
6. Oʻz rahbari bilan ish sohasida suhbatlashish qobiliyati yoʻq.
7. Olingan topshiriqlarni chuqur tahlil qilishga oʻrganmagan, har doim tayyor, aniq topshiriq va yoʻriqnoma asosida ishlashga oʻrgangan.
8. Oʻz hayotida nimaga intilayotganini bilmaydi.

Bugungi kunda kasb taʼlimi tizimini boshqarishda oʻz-oʻzini baholash usuli muhim oʻrin tutadi, bu oʻz-oʻzini attestatsiyadan oʻtkazish doirasida amalga oshiriladi. Bu taʼlim tizimi faoliyati turli sohalari boʻyicha ixtiyoriy «qaytar aloqa»dir. U koʻp yoʻnalishli boʻlib oʻz ichiga ham ishlab chiqaruvchilarni, ham isteʼmolchilar (talabalar, ularning ota-onalari, kadrlar buyurtmachilari)ni oladi.

Qisqa xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, taʼlim tizimi hayot bilan, davlatimiz siyosati bilan bogʻlash prinsipi mamlakatimiz taʼlim muassasalari, kasb-hunar kollejlari oldida turgan barcha nazariy va amaliy vazifalarni hal etishda asosiy prinsip boʻlib keldi va shunday boʻlib qoladi.

Kasb-hunar taʼlimi tizimida boshqarish samarali boʻlishi uchun oʻquv-tarbiya jarayoni barcha ishtirokchilarning – oʻquvchi-talabalar, professor-oʻqituvchilar

tarkibi, o`quv-yordamchi soha va ma'muriyat xodimlari va boshqalarning manfaatlari bunday rang-barangligi, tabiiyki, ularni boshqarishning tegishli tamoyillarini tanlash murim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tizimini boshqarishda ishonitirish, motivlash va nazorat boshqaruvning ta'sirchan usuli hisoblanadi. Ishonitirish usuli rahbarga bajaruvchini u yoki bu masalani hal etishdan manfaatdor qilishda ko'maklashadi. Xodim faoliyatining samaradorligi ichki va tashqi motivlar, jamoani emotsionallashtirish bilan belgilanadigan motivlashtirish kuchiga bog'liqdir. Nazorat usuli rahbarga bajaruvchi (yoki jamoa) faoliyatidagi chetga chiqishlarni o'z vaqtida aniqlashga va boshqaruvda tegishli qaror qabul qilishga imkon beradi. Rahbarning xodimlar bilan o'zaro munosabatining tavsifi boshqaruv usulini «silliqlashtiruvchi» hisoblanishi aniqlandi.

21- mavzu. O'zbekiston Respublikasining globallashtirish sharoitida kasb ta'limi muassasasini boshqarish

Reja:

21.1. Zamonaviy globallashtirish sharoitida o`quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish.

21.2. Pedagogik jamoa – o`quv muassasasini boshqarishning obyekti.

21.3. Pedagogik faoliyatni faollashtirish.

21.4. Ta'lim muassasasini boshqarish konsepsiyasi.

21.5. Pedagogik faoliyatni boshqarish dasturi.

21.6. Ta'lim muassasasi boshqaruvining pedagogik yo'naltirilganligi.

21.7. Zamonaviy rahbar va uning shaxsi.

21.8. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing.

21.1. Zamonaviy globallashtirish sharoitida o`quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish

Mamlakatimiz amaliyotida qo'llanayotgan qomusimizda belgilab berilgan qonunlarimizdan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash lozimki, har tomonlama kamolga etgan barkamol inson uchun zarur bo'lgan ma'naviyat qirralari - imon, e'tiqod, mehr, vatanparvarlik, insonga cheksiz muhabbat, do'stlik, muruvvatlilik, qanoatlilik va sabr-toqatlilik, saxiylik, milliy g'urur kabi fazilatlarni shakllantirish zarurdir.

Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad, har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Shunga ko'ra tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari va usullari aynan ana shu maqsadga erishishni taqozo etadi.

Sivilizatsiya rivojlangan sari insoniyat tafakkurida texnokratik yondashuv yaqqol ko'zga tashlandi va gumanistik g'oyalarning himoyaga muhtojligi sezilmoqda. Globallashtirish tufayli inson koinot va tabiat bilan yaxlit ekanini yanada kuchliroq his etdi. Dunyo hamjamiyatini qiynab turgan global muammolar sifatida ochlik, qashshoqlik, chuchuk suv tanqisligi, pandemik kasalliklar bilan birga ma'naviy xatarlar - gumanizm, tolerantlik, ijtimoiy intellektning susaygani, insonlar bilan o'zaro munosabatda hurmat, kengfe'llik, kechirimlilik, sabr, oqibat tuyg'ularining yo'qola boshlagani tilga olinmoqda.

YUNESKOning “XXI asr ta’limi” bo’yicha xalqaro qo’mitasi dasturida insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalar qatorida ***birgalikda yashashni o’rganish*** hamda ***shaxs sifatida noyob, yagona, takrorlanmas bo’lishni o’rganish*** kabilar alohida ta’kidlab o’tilgani bejiz emas.

Uchinchi mingyillikning ijtimoiy-madaniy voqeligi - *globallashuv, informatizatsiya, fan-texnika taraqqiyoti, insoniyatning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini qayta ko’rib chiqishga intilishi, fuqarolik jamiyatlarining tarkib topishi* – ta’lim-tarbiya metodologiyasini o’zgartirishni, yangicha estetik dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etdi.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayoniga yuqori intellektual texnologiyalar, ilm-fanning eng ilg’or yutuqlarini tatbiq etish, ta’limning ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirishga kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishda muhim omil sifatida qaralmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-martdagi 230-sonli “Oila institutini mustahkamlash sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo’yicha maxsus o’quv kurslari tashkil etish” to’g’risidagi Qarori bilan “Oila” markazi qoshida tashkil etilayotgan o’quv kurslarini tashkil etishda ham ushbu omillar hisobga olinmoqda.

Ta’limni demokratlashtirish o’quv jarayonini tashkil etishda o’qituvchi va ta’lim oluvchining teng huquqligini ta’minlashdir. Shuningdek, bunda o’z fikrini himoya etish, munozarada faol ishtirok etish, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, topshiriqlarni mustaqil bajarish kabilar hisobga olinadi.

Pedagogik texnologiyalarni qo’llashdan erishilgan eng muhim yutuqlar - o’quv-tarbiya jarayonini optimallashtirish, shaxsning individual qobiliyatlarini rivojlantirish, samarali rejalashtirish, ta’lim jarayoni sub’ektlari o’rtasida funksiyalarni raSional taqsimlash, nazorat, baholash va yakuniy tahlilning puxta mexanizmini ishlab chiqish.

Tarbiyaviy ish ma’lum maqsadni ko’zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Ko’pincha bir necha maqsad va vazifa birdaniga bajariladi, bu esa o’quvchilar jamoasining aqliy va axloqiy o’sishini ta’minlaydi.

Quyida o’quv-tarbiya jarayonining qonun-qoidalarini ko’rib chiqamiz.

1. Tarbiyaning ma’lum bir maqsadga qaratilganligi qoidasi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollari ko’ra bilishga yordam beradi. Har bir tarbiyaviy tadbir oldindan puxta o’ylangan, muayyan maqsadni amalga oshirishga bo’ysundirilgan bo’lsa, uning g’oyaviy-siyosiy darajasini ko’taradi, tanlangan usul va vositalar maqsadga muvofiq keladi, ularning tarbiyaviy ta’siri yuqori bo’ladi.

Tarbiya maqsadini belgilashda jamiyat talablari, davr nafasi, milliy xususiyatlar asos qilib olinadi. Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama kamol topgan - mukammal inson shaxsini voyaga etkazishdan iboratdir.

O’qituvchilar jamoasi va har bir o’qituvchi ana shu maqsadlardan kelib chiqib, tarbiyaviy ishlarning vazifalarini belgilaydi, uning mazmunini aniqlaydi hamda maktab ish sharoitlarini hisobga olgan holda yosh yigit-qizlarni tarbiyalashning shakl va uslublarini tanlaydi.

2. Tarbiyaning insonparvarlik va demokratik qoidasi; Umumiy ta’lim maktabida yangi pedagogik tafakkur egasi, munosib shaxs, o’z ishining ustasi

bo'lgan o'qituvchiga ehtiyoj tug'iladi. Zero o'qituvchining bilim saviyasi, ma'naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotga eltuvchi etakchi omillardan biridir. O'qituvchi o'zining insoniy fazilatlari, yurish-turishi, xatti-harakati, kiyinishi, odob-axloqi va muomalasi bilan o'quvchi qalbiga kirishi, uni ezgulik sari yo'naltirishi zarur.

Bir butun pedagogik jarayonda ta'lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, unga tayyorlanishdek mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyaning vazifalari ko'p qirralidir. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchi-talabalarni bilimlar bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiyada o'quvchi-talabaning jamiyatimizda qabul qilingan axloq-odob qoidalariga mos keladigan e'tiqodini, axloqiy malaka va ko'nikmalarini, ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirish muhimdir.

Hamma davrlarning ilg'or kishilari tarbiyaga yukori baho berganlar. Xalq donishmandlari va mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O'tar, Hamza, Abdulla Avloniy inson kamolotini ilm-fan va tarbiyada deb bildilar.

O'quv jarayonini boshqarish nisbatan oson, uning natijalari darhol namoyon bo'ladi. Tarbiyaviy jarayon esa g'oyatda murakkab.

Shunisi quvonarliki, tarbiyaviy ishlarga yangicha munosabat mustaqillik ma'naviyat negizi asosida hukumat qarorlarida, xalq ta'limi islohotlarida, olimlar va ijodkor o'qituvchilarning izlanishlarida o'z aksini topmoqda. O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha o'quv muassasalari yosh avlod ongida milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, ma'naviyatni milliy merosimiz bilan boyitish, yosh vatanparvarlarni tarbiyalashda yangicha ish uslublari asosida ijodiy yondashmoqdalar.

Ma'lumki, o'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish pedagogik jamoa faoliyatini tashkillashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli o'quv muassasasini boshqarishning asosiy obyekti pedagogik jamoa hisoblanadi.

Ijtimoiy boshqaruvning asosiy mohiyati quyidagi ikki asosiy masalani yechishga qaratiladi:

1. Pedagoglar faoliyatini yo'naltirish.
2. Pedagoglar faoliyatini faollashtirish.

Birinchi masalani hal qilish uchun boshqaruv sub'ekti xodimlar faoliyatini talab etiladigan yo'nalishga soluvchi ma'lum dasturni ishlab chiqishga zarurat tug'iladi. Ikkinchi masalani amalga oshirish uchun esa shaxsning hissiy-ehtiyoj sohasidagi talablarini (moddiy va ma'naviy, jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash, mehnatni tashkillashtirishning samarali yo'llarini ishlab chiqish) rag'batlantirishni qondiruvchi imtiyozli sharoitlar yaratish taqozo etiladi.

Pedagogik faoliyatni faollashtirishda boshqaruv dasturining sifati, ya'ni aniqligi, real sharoitga asoslanganligi, pirovardida yuqori natija berishi, ishlanganlik darajasi ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Har bir sohaga oid dasturlar alohida xususiyatlarga ega bo'ladi, biroq ularning barchasida quyidagi qonuniyatlar kuzatiladi: bajariladigan ish qay darajada ko'proq ijodiy mehnatni talab qilsa, jamiyat shu darajada insonparvarlashib va demokratlashib boradi, cheklashlar qay darajada kam bo'lsa tashabbus bilan ishlash darajasi shuncha ortib boradi.

21.2. Pedagogik jamoa – o'quv muassasasini boshqarishning obyekti

Respublikamiz hukumati tomonidan ta'lim sohasida o'rta qo'yilayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan pedagogik jamoaga bog'liq. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tish sharoitida ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish vazifasi asosan pedagogik jamoa zimmasiga yuklatilgan. Bu o'z navbatida o'quv muassasasini boshqaradigan rahbarning faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Qaysi o'quv muassasasida ichki va tashqi nazorat yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, o'sha ta'lim maskanida ta'lim-tarbiya ishlari ham izchil bo'ladi. Pedagoglar jamoasi ishini sistemali nazorat qilish bir tomondan har bir pedagogning o'z ishi uchun mas'uliyatini oshiradi hamda o'z faoliyatida uchraydigan kamchiliklarni vaqtida aniqlash va tuzatish imkonini beradi.

Ta'lim muassasasi ishini har jihatdan to'g'ri tashkil qilish, uning samaradorligi natijasi garovidir. Bu esa jamoa mehnati jarayonlarini oqilona yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Binobarin, yoshlarni tarbiyalash ko'plab kishilarning umumiy mehnati jarayonida hal qilinar ekan, demak bu mehnatning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning kuchlari qanchalik to'g'ri yo'naltirilganligiga, maqsadlar birligi va harakatlar muvofiqligi qanday ta'minlanayotganligiga bog'liqdir. Aks holda birgalikda qilinayotgan jamoa mehnatining samaradorligi pasayib ketishi mumkin. Umum maqsadlarga erishish yo'lida o'qituvchi-pedagoglar o'rtasida hamjihatlikni ta'minlash, o'zaro hamkorlik aloqalarini izchil yo'lga qo'yish, maktabni boshqarishning muhim vazifasi bo'lib, bu vazifaning pirovard natijasi asosan rahbarning faoliyatiga bog'liq.

Ta'lim muassasasini boshqarishda rahbar:

1. Tizimni tashkil etishni ishlab chiqishi, tadqiqot, loyihalash ishlarini yo'lga qo'yib ish tartibini belgilashi, shoshma-shosharlikka yo'l qo'yilmasligi.

2. Amaliy ish bajarishning belgilangan tartibda va tizimga muvofiq bajarilayotganini tekshirish.

3. Ish me'yoring buzilishiga yo'l qo'ymaslikni, qiyinchilik va to'siqlarni o'z vaqtida bartaraf etilishini kuzatishi va shu singari boshqa muhim ishlarni amalga oshirishi lozim.

Demak, ta'lim muassasasi rahbari ish faoliyatini 4 bosqichga ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Olingan axborot asosida qaror qabul qilish. Ishning vazifalarini va yo'nalishlarini belgilash. Ma'lum obyektiv ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish. Yaqin istiqbolli rejalarini belgilash. Ishning mavjud haqiqiy ahvolini belgilash, ularni taqqoslash, imkoniyat darajalarini hisobga olish, variantlarni tanlash, muassasaning rivojlanish yo'lini belgilash va boshqalar.

2. Tegishli yangi qarorlarning asosiy g'oyalarini ularni ijro qiluvchilarga tushuntirishi, olingan ma'lumotlarga asosan ishni ko'rib chiqib, kamchiliklarni tuzatishi, bu vazifalarni amalga oshirishda o'quv-tarbiyaga oid tadbirlarni amalga oshirishi, kadrlar tanlashdan to'g'ri foydalanishi va hokazolar.

3. Ta'lim-tarbiya jarayonining haqiqiy ahvoli to'g'risida doimiy ishonchli ma'lumotlar olib turishi, davlat dasturlarining bajarilishini, talabalarda yagonalikka erishilishini nazorat qilishi, o'qituvchilar va butun jamoaning hisobotlarini eshitib borishi va boshqalar.

4. Favqulodda yuzaga kelgan kamchilik va nuqsonlar hamda to'siqlarni bartaraf etishi, intizomga oid suhbatlar tashkil qilishi, shikoyat va iltimos bilan kelgan otalarni qabul qilishi, muassasani boshqarishning asosiy vazifalaridan chalg'itmaydigan ishlar va topshiriqlarni bajarishi va hokazolar.

Har o'quv yilining oxirida pedagoglar jamoasi faoliyati yakunlari muayyan shaklda aniqlanadi va baholanadi. Mazkur jarayon bundan keyingi ishlarning tashkil etuvchisi va boshlanishi bo'lib xizmat qiladi. Pedagog o'quv yili oxirida qilingan barcha ishlardan olingan natijalarni solishtirib u yoki bu metodlarning qanchalik muhim ekanligiga baho berishi va shu asosda tajriba to'plashi, o'z ishini takomillashtirib borishi mumkin.

Yil davomida pedagoglar jamoasida muhokama qilish uchun barcha pedagoglarning bir xildagi tushunishi mumkin bo'lgan prinsipial masalalarni qo'yib borish ham yaxshi natija beradi. Jamoa rahbari ma'naviyat-ma'rifat borasidagi ishlarning haqiqiy ahvolini, mashg'ulotlarga, suhbatlarga, majlislarga, turli mavzulardagi yig'ilishlarda muntazam qatnashish hamda otalalar, talabalar, pedagoglar bilan doimiy suhbatlar o'tkazish orqali o'rganib boradi va ayrim juz'iy kamchiliklarni yo'l-yo'lakay tuzatib boradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, demak, jamoa rahbari va jamoa a'zolarining faolligisiz, ta'lim-tarbiya ishlarida samarali natijalarga erishib bo'lmaydi. Shu sababli ta'lim muassasasi rahbari doimo ularning kuchiga tayangan holda ish yuritishi va ular bilan muntazam ravishda aloqada bo'lib turishi zarur.

21.3. Pedagogik faoliyatni faollashtirish

O'quv-tarbiya ishlari jarayonida eng yuksak natijalarga erishib faoliyatning yuksak darajada baholanishi va hamma tomondan tan olinishini istamaydigan pedagog topilmasa kerak. Bunga erishishni, ana shu xil orzuning ushaliyini pedagogik mahorat deymiz. Xo'sh pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimadan iborat? Unga qanday erishsa bo'ladi? Hozirgi zamon pedagogika va psixologiya sohasidagi maktablarda «Pedagogik mahorat» tushunchasi turlicha izohlarga duch kelamiz. Bu tushunchaning mohiyatini bir muncha to'laroq aniqroq ta'rifini «Pedagogik ensiklopediya»da berilgan Bizningcha, boshqalarga nisbatan bu ta'rif pedagogik mahorat mazmunini va mohiyatini bir muncha to'g'ri yoritadi.

«Tarbiya va o'qitish yuqori darajaga erishishi va uni doimo takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi san'at bo'lib, talabaga mehr qo'ygan va o'z kasbini sevgan har bir pedagogning qiladigan ishi. O'z ishining mohir ustasi bo'lgan pedagog – bu yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, fanning yoki san'atning tegishli sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyotini mukammal egallagan mutaxassisdir».

Bu ta'rifni yaxshi tushunib, uning uning ma'no mohiyatini tahlil etadigan bo'lsak, Ushbu ta'rifda pedagogik mahorat tushunchasi mazmunga kiradigan quyidagi masalalarni ajratish mumkin bo'ladi:

1. Umumiy madaniyatning yuqori darajasi va bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatgichi;
2. O'zining o'qitayotgan faniga doir keng va chuqur bilim sohibi;

3. Pedagogika, umumiy va pedagogik psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlar bilan qurollanganlik, ularda o`qitish va tarbiyalash ishlari tajribasida erkin va ustalik bilan foydalana bilish;

4. O`quv-tarbiya ishlari metodikasini mukammal egallanganlik.

Pedagogik mahoratning mazmunida quyidagi o`zaro bog`lik bo`lgan asosiy qismlarni ajratish mumkin:

- pedagogik insonparvarlik yo`nalishi;
- ixtisoslik, mutaxassislikka doir bilimlar;
- pedagogik qobiliyat;
- pedagogik texnika (ko`nikma-iqtidor).

Pedagoglik dunyodagi eng qadimgi kasblardan biridir. Uning ijtimoiy ahamiyati hech qachon kamaymaydi, so`nmaydi. Pedagoglik kasbi bir qator muhim talablarga javob berishi kerak

Hozirgi davrda, biz mustaqil demokratik huquqiy davlatda faoliyat ko`rsatadigan pedagog qanday bo`lishi kerak? Hozirgi zamon pedagogining shaxsi uchun eng muhimi – bu insonparvarlik yo`nalishidir. Pedagog juda yuksak darajada umumiy madaniyatga ega shaxs bulishi lozim. U juda ko`p narsani bilishi kerak, hozirgi zamonda o`zi o`qiyotgan fan sohasidagi yutuqlardan, yangiliklardan xabardor bo`lishi kerak, o`z o`quvchilarini har kuni o`qishga o`rgatib borishi uchun o`zi muntazam o`qib o`rganib, o`z bilimini to`ldirib, chuqurlashtirib borishi kerak.

Demak, pedagog pedagogik mahoratning asosi o`z ustida ishlab borishi – mustaqil o`qishdir.

Fan va madaniyat rivojlanishi ta`lim-tarbiya ishlarining qay yo`sinda olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo`lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. O`zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ta`lim-tarbiya sohasida, milliy axloq-odobni qayta tiklash borasida, milliy urf-odatlar, turli-tuman an`analarni joyga qo`yish, milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burilishlar bo`lgani barchaga ayondir. Davlatning buyuk kelajagi, albatta yoshlarni chuqur bilimli va pokiza odob-axloqli qalb ekanini yoddan chiqarmaslik lozim. Bu katta muammoda mahoratli, bilimli pedagoglarni o`rni muhim va pedagogik mahorat fanining roli ulkan.

21.4. Ta`lim muassasasini boshqarish konsepsiyasi

Respublikamiz mustaqilligi sharoitida ta`lim boshqaruvini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish ta`lim taraqqiyotini hal qiluvchi omil hisoblanadi. SHuning uchun boshqaruvni demokratik, adolatli, izchil, tahliliy olib borish diqqat markazida turadi.

O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuniga muvofiq oliy ta`limni boshqarishni quyidagi bosqichlari ko`zda tutilgan.

1. **O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**, uning vakolati quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- oliy ta`lim sohasida yagona davlat siyosatini olib boradi;
- ta`limni boshqarish bo`yicha vakolatlangan davlat idoralariga, shu jumladan oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi (OO`MTV)ga rahbarlik qilish;
- ta`limni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- ta'lim muassasalarini barpo etish, qayta tuzish, tugatish tartibini belgilash;
- ta'lim muassasalarini akkreditaSiyalash, pedagog va ilmiy xodimlarni attestaSiyalash tartibini belgilash;
- O'zbekiston Respublikasidagi boshqa davlatlar ta'lim muassasalariga ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini olishi uchun ruxsat berish;
- chet davlatlarning ta'lim standartlarini tasdiqlash;
- ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;
- davlat granti miqdorini va ta'lim muassasalariga qabul tartibini belgilash;
- davlat oliy ta'lim muassasalari rektorlarini tayinlash;
- ta'lim olayotganlarni akkreditaSiyalangan bir ta'lim muassasasidan boshqasiga ko'chirish tartibini belgilash;
- qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlar.

2. Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat idorasi (OO'MTV), uning vakolatiga quyidagilar kiradi:

- ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- ta'lim va boshqa muassasalarga metodik rahbarlikni amalga oshirish va rahbarlik qilish;
- davlat ta'lim standartlari talablari, ta'lim darajasi va mutaxassislarni kasbiy tayyorlash sifatiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;
- o'quv jarayoniga o'qitishning ilg'or shakllarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitishning informahion vositalarini joriy etish;
- o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar yaratish va nashr etishni tashkil etish;
- ta'lim olayotganlarning yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi va ta'lim muassasasidagi eksternet to'g'risidagi nizomlarni ishlab chiqish;
- pedagog xodimlar tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etish;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga davlat oliy ta'lim muassasasiga rektor tayinlash to'g'risida taklif kiritish;
- qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlar.

Oliy ta'lim sohasidagi boshqaruv bilan shug'ullanuvchi shaxslarga yuksak darajadagi ma'suliyatlilik, vakolatlilik hamda tartib, ma'muriy qoidalarni ichki va tashqi vositalar yordamida muntazam samarali baholash qobiliyati xos bo'lishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalari. Davlat OTM bevosita O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadigan rektor tomonidan boshqariladi. Davlatga aloqadorsiz OTMda rektor ta'sischi (mulk egasi) tomonidan tayinlanadi.

Rektor "Oliy ta'lim to'g'risida"gi Nizomga muvofiq ta'lim muassasasining ish natijalari uchun mas'uldir. U O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ta'lim muassasasi nomidan faoliyat ko'rsatadi, *barcha idoralar, muassasalar va korxonalar bilan uni namoyon etadi, mulkni tasarruf etadi, shartnomalar tuzadi, ishonchnoma beradi, bankda ta'lim muassasaning hisob raqamini ochadi, kreditlarni taqsim qiluvchi hisoblanadi.*

Rektor o'z vakolati doirasida quyidagilarni amalga oshiradi:

- barcha xodimlar, talabalar va boshqa ta'lim oluvchilar uchun buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

- bosh muhosibni ishga tayinlaydi va undan bo'shatadi;
- ilmiy-tadqiqot, tajriba-eksperiment va boshqa ta'lim muassasasi tarkibiga kiruvchi tashkilotlar, bo'linmalar vakolatini belgilaydi;
- ishchi, xizmatchilar, shuningdek ilmiy-pedagog xodimlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan va mehnat qonunchiligida belgilangan tartibda ishga qabul qilish va ishdan bo'shatishni amalga oshiradi;
- ta'lim muassasasi xodimlari lavozim maoshiga ustama va qo'shimchalar belgilaydi;
- ichki tartib qoidalarini kasaba uyushmasi yoki boshqa vakolatli organ xodimlari bilan kelishib tasdiqlaydi;
- qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarini amalga oshiradi.

Ta'lim muassasasi faoliyati asosiy masalalarini ko'rib chiqish uchun unda Kengash tuziladi. Uning tarkibi, vakolati, shakllantirish tartibi va faoliyati ta'limni boshqarish bo'yicha davlat vakolatli idorasi - OO'MTV tasdiqlangan "Ilmiy kengash to'g'risida"gi Nizomda belgilanadi.

OTMda, jamoatchilik boshqaruvi organi bo'lmish Murabbiylik kengashi tuziladi. Uning takibiga ta'sischi, hokimiyat mahalliy organining, ishbilarmonlar doirasining, boshqa ta'lim muassasalarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning, homiylarning vakillari kiradi.

Talabalar va ilmiy-pedagog xodimlar manfaatini yoqlash, ularni himoya qilishni ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi amalga oshiradi.

Oliy ta'lim sohasidagi rahbarlik vazifasi jiddiy ijtimoiy ma'suliyatdir. Uning ahamiyati shu sohadagi barcha hamkorlar, shu jumladan o'qituvchi va ta'lim olayotganlar barchasi bilan erkin muloqot yo'li bilan sezilarli darajada oshirilishi mumkin.

Umumiy manfaatlar, o'zaro hurmat va ishonch asosidagi hamkorlik oliy ta'limni yangilanishning asosiy usulidir. Hamkorlik ta'lim siyosatini milliy va tuzilmaviy miqyosda ishlab chiqish hamda joriy etishda ma'sul shaxslar o'rtasida, professor-o'qituvchilar va talabalar, OTM ma'muriyati texnik xodimlar, mehnat sohasi, OTMlar, jamoatchi guruhlar o'rtasida mavjud bo'lishi mumkin.

21.5. Pedagogik faoliyatni boshqarish dasturi

Ushbu qonuniyat o'qituvchilardan tashabbusni, mustaqil qaror chiqara olishni, o'z vazifasiga ijodiy yondoshuvni talab qiluvchi pedagogik faoliyatga ham tom ma'noda taalluqlidir. SHu sababli bu sohada bajarilishi qat'iy talab etiladigan direktiv dasturlarning kamroq qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, bunday dasturlarda ish tartibi, hujjatlarni yuritish va mehnat faoliyatining oxirgi natijasiga aniq talablarni belgilash bilan cheklanish mumkin. Ta'lim natijasiga belgilanadigan talab qat'iy belgilanadi va u Davlat ta'lim standartlarida rasmiylashtiriladi. Pedagogik faoliyatning sifat ko'rsatkichi esa, mos ravishda ta'lim oluvchilarning ushbu talablar darajasiga muvofiqligida o'z aksini topadi. Demak, direktiv boshqaruv dasturlaridan voz kechish pedagoglarga cheklanmagan erkinlik berilishini anglatmaydi. Ushbu yo'nalish e'tiborini ta'lim jarayoni usullari va mazmunidan uning yakuniy natijasiga ko'chirilishiga qaratilgan.

Bajarilishining majburiyligi nuqtai nazaridan boshqaruv dasturlarini informativ va direktiv turlarga ajratish mumkin. Jumladan, matbuotda nashr etilayotgan turli ilmiy-metodik tavsiyalar informativ dasturlar hisoblanadi va ularning bajarilishi majburiy deb belgilanmaydi. Pedagoglar ulardan faqat o'zi uchun zarur deb bilgan qismini bajarish huquqiga ega. Informativ dasturlarni bajarish to'la-liligicha pedagogning xohishi, uning ehtiyoj va istaklaridan kelib chiqib belgilanadi. Direktiv hujjatlarning bajarilishi majburiy bo'lib, u tegishli tartibda nazorat qilinadi. Jamiyatimizning demokratlashib borishi natijasida informativ dasturlarga bo'lgan ehtiyoj ortib borishi kuzatilmoqda.

Ta'lim muassasasini boshqarish konseptsiyasini ko'plab boshqaruv g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan tashkiliy model sifatida tasavvur qilish mumkin.

Faoliyat nuqtai nazaridan yondashilganda, boshqaruv modelida quyidagi tarkibiy elementlarni uchratish mumkin: motiv, maqsad, rejalashtirish, joriy axborotlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish, harakat, natijalarni baholash va tizimga tegishli tuzatishlar kiritish.

Boshqaruv jarayoni davriy xarakterga ega bo'lib, mazkur davrlarning har biri o'z davomiyligi, tatbiq etilish sohasi, vazifalari va echimiga ega. Boshqaruvning alohida olingan davrini quyidagi jarayonlarni qamrab olgan bo'g'in sifatida tasavvur qilish mumkin:

1. Axborotlarni qabul qilish va ularning tahlili.
2. Boshqaruv qarorining qabul qilinishi.
3. Ta'lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish.
4. Rejani bajarish uchun ishni tashkil qilish.
5. Hisob-kitob, nazorat ishlari va natijalarini tahlil qilish.

21.6. Ta'lim muassasasi boshqaruvining pedagogik yo'naltirilganligi

O'qituvchi - ta'lim miqyosida rahbar, u fanlarni o'rganishda yo'nalishlarni ko'rsatadi va ta'lim oluvchilarni tarbiyalaydi.

Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur maqsad va vazifalarni hal etish birinchi galda quyidagi talablarni qo'yadi:

- oliy ta'lim tizimidagi o'qituvchilar, ilmiy kadrlar, xodimlar, kasbiy-malakaviy, madaniy-ta'limiy, iqtisodiy va huquqiy darajasini oshirish;
- davlat va ijtimoiy muxofazasini takomillashtirish, shuningdek tarbiyachi, O'qituvchi va ilmiy xodim kasbi obro'sini ko'tarish.

O'qituvchi mehnatining ustivorligi uch «nuqtaga tayanadi»:

- birinchisi - o'qituvchining malakasi, madaniy va ma'naviy darajasi;
- ikkinchisi - ta'lim oluvchilar savodliligi va kasbiy malakasi uchun o'qituvchilarning ma'naviy javobgarligi;
- uchinchisi - *moddiy va ijtimoiy ta'minot*, kelgusi avlodni garmonik rivojlanishga tayyorlashda o'qituvchi mehnatining ahamiyati, malakali kadrlar tayyorlash orqali iqtisodiyotni ko'tarishdagi o'rni.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida mujassam talablar qo'yiladi, bular zamonaviy o'qituvchi modelini umumiy tarzda tashkil etadi.

Quyidagilar asosiy talablar hisoblanadi:

- o'qituvchi uddasidan chiqish;

-tarbiyalashning uddasidan chiqish;

-shaxsiy sifatlar;;

-ta'lim oluvchilar bilimini obyektiv baholash va nazorat qilishning uddasidan chiqish;

O'qituvchining uddalay olishiga o'z navbatida ko'pgina muhim omillar ta'sir etadi:

-o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlash va uning muhiti;

-o'qituvchilarning ruhiy-pedagogik tayyorgarligi;

-kasbiy ma'lumot manbai sifatida chet tillarini bilish;

-fanni chuqur bilish, kasbiy vakolatlilik va iqtidor;

-yangi pedagogik texnologiyalardan xabardorlik;

-ilmiy-metodik va ilmiy-tadqiqot ishlari yangi metodik va bilimlar manbai sifatida;

-o'z ishini takomillashtirishga muntazam intilish;

-uzluksiz ta'lim tizimi me'yoriy hujjatlarini yaxshi bilish;

-kompyuter texnologiyasini egallagan bo'lishi;

-informatsiya bazasi va resurslar.

Tarbiyalashning uddasidan chiqish o'qituvchining madaniyati va ma'naviyati), uning shaxsiy xulq-atvori va obro'siga, vatanparvarlik va burchni xis etishiga yuqori darajasiga tayanadi. Ta'lim oluvchilarda yaxlit olam qiyofasini, yuqori madaniyat, ma'naviyat va jaxon miqiyosida fikrlashni shakllantirish uchun o'qituvchi keng gumanitar va insonparvarona tayyorgarlikka, shuningdek o'quv tarbiya ishini tashkil qilish malakasiga ega bo'lishi lozim.

Shaxsiy sifatlar bo'lib, o'qituvchidagi *talabchanlik* va *adolatlilik* va *xayrixohlik*, *mulozamatlilik* va *mutoyibani xis etish hisoblanadi*. Bu sifatlar ta'lim oluvchilar uchun o'qituvchining *referentligi* (qadriligi)ni belgilaydi.

Obyektiv baholashning uddasidan chiqish ta'lim oluvchilarning bilimi ruhiy – pedagogik ma'noda o'qita bilishlik va tarbiyalay olishlik bilan chambarchas bog'liqdir.

Obyektiv baholash vositalariga nimaiki taalluqli bo'lsa, o'qituvchi ularni bilishi shart va a'lo darajada foydalanishi lozim.

Bu yakuniy nazorat, standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqish va qo'llashni uddalay olish va b.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqadigan o'qituvchining umumlashma modeli shundan iborat. Mazkur model oliy ta'lim o'qituvchilariga mos kelishi kerak.

Ana shu muvofiqlikka erishish uchun, avvalo, «O'qituvchi kim bo'lishi kerak?» degan savolga javob berishi zarur. Shundan keyin malaka oshirish yoki o'qituvchilarni, ya'ni mazkur muvofiqlikni ta'minlovchi qayta tayyorlashning zarur hajmi va mazmuni belgilanadi.

21.7. Zamonaviy rahbar va uning shaxsi

«Rahbarlik qilish» so'ziga izohli lug'atda boshqarish, maslahat berish, kuzatish, yo'naltirish, ko'rsatma berish kabi ta'riflar berilgan. Bundan ko'rinib

turibdiki, hozirgi davrda rahbarlar zimmasiga yuklatilgan talablar juda ko'pdir. Ularni quyidagi besh yirik guruhga bo'lish mumkin.

1. Ma'naviy yetuklik.

- siyosiy, huquqiy va axloqiy yetuklik;
- ma'rifatlilik va madaniyatlilik;
- xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qodirlik;
- topshirilgan ish uchun shaxsiy javobgarlikni his qilish, halollik, vijdonlilik.
- tashabbus va ilg'orlikni qo'llab-quvvatlash qobiliyati.

2. Intizom va mehnatga bo'lgan munosabati.

- mehnatsevarlik; jamoa o'rtasida intizomni yo'lga qo'ya bilish;
- atrofdagilarda mehnatsevarlik fazilatlarini tarbiyalay bilish;
- ishni rejali olib borish.

3. Bilim darajasi.

- iqtisodiyotni, texnika va texnologiyani bilishi;
- boshqarish ilmini, funksiyalari va tuzilishini bilishi;
- istiqbolni bilishga qodirligi.

4. Tashkilotchilik qobiliyati.

- xodimlarni tanlay bilish va ulardan samarali foydalanishni uddalay bilish;
- qo'l ostidagilarni mehnatga o'rgatish va tarbiyalash salohiyatiga ega bo'lish;
- jipslashgan jamoani vujudga keltira olish;

5. Boshqarish samaradorligini ta'minlay olish.

- boshqarishni kollegial tarzda tashkil qila olish qobiliyati;
- ish haqida qisqa va aniq gapirish qobiliyatiga ega bo'lish;
- turli manbalardan ish uchun zarur axborotlarni olish qobiliyati;
- boshqaruv organi qarorlarini bajarish ustidan nazoratni ta'minlay bilish.

Har bir rahbar psixologik bilimlar bilan bir qatorda muayyan pedagogik bilimlarga ham ega bo'lishi kerak. Aynan shu bilimlar yordamida yordamida u xodimlarga ularni tarbiyalash va mukammallashtirishlariga yanada samarali ta'sir ko'rsatuvchi shakl hamda usullarni topish mumkin.

Rahbar quyidagi muammolarni hal etishi kerak:

- aqliy rivojlanish (xodimlarning umumiy va kasbiy ma'lumoti);
- ma'naviy boyish (madaniy tadbirlar tashkil etish, etik muammolarni echish);
- muomala madaniyatini yuksak darajaga ko'tarish.

Bunda quyidagi tamoyillarga rioya qilish lozim:

- ezgu ideallar bilan mashg'ul bo'lish;
- shaxsiy xislatlarni takomillashtirish.

Tarbiyaviy ta'sir rahbarning quyidagi omillarni bilishiga bog'liq:

- xodim madaniyati va ma'lumot darajasi, uning axloqiy kasbiy va hayot tajribasining qay darajada rivojlanganligi;
- jismonan sog'lomligi, ma'naviy barkamolligi;
- individual, ijtimoiy-ruhiy sifatleri;
- mehnat jamoasidagi ijtimoiy-ruhiy muhit;
- axloqiy-ma'muriy choraga xodimning munosabati.

Tabiiyki, tarbiyaviy ta'sir umumiy va qotib qolgan bo'lmasligi lozim, chunki yuqorida qayd etilgan omillar orqali har bir muayyan shaxs uchun o'ziga

xosyondashuvni talab qiladi. Shuning uchun tarbiyaviy ta'sir har bir shaxsning o'ziga qaratilgan bo'lishi kerak, bu esa rahbar tarbiyaning turli-tuman usullaridan xabardor bo'lishini taqozo etadi.

Rahbar tarbiyaviy ta'sirni amalga oshirishining quyidagi ta'bir joiz bo'lsa, «texnologik tamoyillari» mavjud:

1. Ruhiy o'ziga xoslik, ya'ni shaxsga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishdan oldin uning individual, ijtimoiy-ruhiy sifatlarini anglash lozim;

2. Ma'naviy motivlar – o'ziga bo'ysunuvchilar oldida yuqori darajadagi xulq-atvor egasi ekanligini shaxsan namoyon etish;

3. Yakka tartibda yondashish, bu – har bir shaxsning o'ziga xos bo'lgan «a'lo» tomonini izlash;

4. Mehnat faoliyatining talablariga moslashish, bu – xodim aqliy imkoniyatini aniqlash va undan samarali foydalanish bo'yicha muammoni hal etish;

5. Shaxsiy mo'ljal. Bu – xodimda noyob qobiliyat kurtaklarini o'stirish va ularni rivojlantirish.

Umuman olganda, rahbar xodimga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatar ekan, G.Salening quyidagi so'zlarini yodda tutishi foydadan holi emas: «Shuni unutmangki, hamma uchun mos andoza yo'q. Biz, hammamiz – turli toifadamiz va muammolarimiz ham turlicha».

21.8. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing

Bugungi kunda ta'lim muassasalari ham bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida faoliyat ko'rsatishi va ta'lim oluvchilarni raqobatbardosh qilib tayyorlashi talab etiladi. Bunda ta'lim muassasasining marketing xizmati muhim o'rin tutadi. Marketing tadqiqotlari keng sohadagi bir qancha masalalarni o'z ichiga qamrab oladi:

- qisqa (1 yilgacha) muddatli ijtimoiy-pedagogik prognozlar;
- uzoq (1 yildan ortiq) muddatli ijtimoiy-pedagogik prognozlar;
- bozorning joriy va istiqbol potentsialini o'rganish;
- bitiruvchilarning ishga joylashuv statistikasi tahlili;
- yangi sohalar mutaxassislarining ish o'rinlarini o'rganish;
- yangi ish o'rinlarini yaratishning yo'nalishlarini tadqiq qilish;
- bozor narxlarining belgilanish xarakterini o'rganish;
- ta'lim muassasasi ish faoliyatining samaradorligini belgilash.

Ta'lim muassasasi boshqaruvining pedagogik yo'nalishi barcha imkoniyatlarni asosiy maqsad - yosh avlodni ijtimoiy ishlab chiqarish sohasiga muvaffaqiyatli kirib borishini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. Ta'lim muassasasi rahbari tomonidan olg'a suriladigan rejalar va muhim tadbirlar jamoada muhokama qilinishi hamda muvofiqlashtirilishi lozim. Rahbarning bu boradagi harakatlari qo'yilgan vazifani amalga oshirishga izchil va qat'iy yondashib borilganda doimo qabul qilinadi va qo'llab-quvatlanadi. O'quv yurti rahbari jamoada o'z ishini o'zaro hurmat va talabchanlik asosida tashkil etishi lozim.

Rahbarlik qiluvchining shaxs o'z xatti-harakatlari bilan jamoaga ibrat ko'rsata olishi amalga oshiriladigan qat'iy choralarining tushunilishi va ijobiy samarasini ta'minlaydi.

Agar rahbar o`z sohasining bilimdoni, deylik u yaxshi bir pedagog bo`lishi mumkin yoki bo`lmasa u ajoyib insoniy fazilatlari bilan odamlarning hurmat-e`tiborini qozongan, ularni nimagadir og`dirish, nimagadir ishontirish, nimagadir undash yoki nimagadir ergashtirishni qoyilmaqom qilib uddalay oladigan bo`lsin. Lekin u kundalik tashvishlaridan ortib, o`z ustida ishlamasa, bugungi kunning dolzarb muammolari, dunyo miqyosida ro`y berayotgan o`zgarishlar haqida hech qanday tasavvurga ega bo`lmasa, bunday rahbar o`zi istamagan holda tuzatilmas xatoga yo`l qo`yishi hech gap emas. YUrtboshimiz ta`kidlab o`tganidek "...bugungi hayot shiddati, voqealar rivoji shu qadar jo`shqinki, biz ma`naviyat va mafkura borasida qanchalik muhim va zarur ishlarni amalga oshirayotgan bo`lsak-da, ba`zi o`rinlarda afsuski kech qolyapmiz".

Jamiyat hayotining turli sohalarida global o`zgartirishlarni amalga oshirishning eng muhim muammolaridan biri boshqaruvchi kadrlar muammosidir. Ta`lim ham jamiyatning tarkibiy qismi sifatida hozirgi zamon sharoitida o`quv yurti ishida boshqarish nazariyasidan foydalanish muammolarining yanada rivojlantirilishiga ehtiyoj sezadi.

Rahbarlar-rahbar-menejer jamoasini shakllantirish murakkab masaladir. Hayotning o`zi, bozor iqtisodiyoti va tadbirkorlik amaliyoti bu masala uning hal etilishiga ko`maklashadi. Biroq ko`p narsa kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, boshqaruvning ilg`or tajribasini o`rganish va yoyish, boshqaruv fani yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish bo`yicha maqsadga yo`natirilgan ishga ham bog`liq.

Bozor iqtisodiyoti tizimiga o`tishning aniq yo`llaridan biri bozor sharoitida bir necha yuz yildan beri yashab kelayotgan ilg`or mamlakatlar tajribasini o`rganishdan iborat. XXI asrda bunday tajribaning juda qimmatli aspektlaridan biri keng hajmli "menejment" tushunchasi bilan qamrab olinadigan faoliyat va bilim sohasidir. Bunda "menejment" tushunchasiboshqarish vazifasini kasb sifatida amalga oshiruvchi odamlar-menejerlarni ham anglatadi.

Boshqaruvni hali juda yosh, fanlararo rang-barang yutuqlariga tayanadigan ilmiy va amaliy bilimning kasbi sifatida anglab etish hozirgi zamon hivilizahiyasida mustahkam o`rin tutmoqda. Bular XX asr boshida F.Teylorning "Ilmiy boshqaruv", M.Veberning "Ideal byurokratiya", A.Fayolyaning "Ma`muriyat fani" kabi asarlarda o`zining aniq ifodasini topgan. Bu bilim sohasi dastlab boshqaruvda qat`iy va yagona rahionalizm (amaliylik) yo`lidan bordi. Biroq bu menejmentda rahionalizmning barcha afzalliklariga qaramasdan, ko`pchilik hollarda yangi iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarda o`quv yurtlarining ish samaradorligini oshirishda eng yaxshi yo`l ham emas ekan.

Boshqarish bilimlari tizimida boshqarish raSionalizmining cheklanganlikdan ta`sirlanishi sifatida boshqa fe`l-atvoriy yo`nalish mustahkam qaror topdiki, bu tashkilotlarda boshqarishning real mohiyatini tushunishni chuqurlashtirish uchun psixologiya, soSiologiya, madaniy antropologiya yutuqlarini keng jalb qilishga asoslangan. Bu yo`nalish asosida "odamlar orasidagi munosabatlarni takomillashtirish", "inson omilini" ishga solish, muhandis-pedagog, iqqisodchi-pedagog va boshqa xodimlarning boshqaruv jarayoni ixtirosini rivojlantirish, peshqadamlik samaradorligini oshirish bo`yicha tavsiyalar amalga oshirila boshlandi.

Boshqaruv tafakkuri uchun nazariy va amaliy jihatdan bugungi kunda eng xos narsa nima? Adabiy manbalarni tahlil etishning ko'rsatishicha ikkita yangi oqim eng ko'p ko'zga ko'rinmoqda.¹

1. Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, jahon iqtisodiyotida raqobat va o'zaro bog'liqlikning o'sishi, transmilliy korporatsiyalarning rivojlanishi, xalqaro axborot tizimlarining yaratilishi, integrasiya xususiyatli boshqa tuzilmalar munosabati bilan yuzaga kelgan yangi voqeliklarni jamoaviy tafakkur qilish.

Boshqarish bo'yicha ko'plab adabiyotlarning chop etilishi, millionlab odamlarga tushunarli bo'lgan menejment bo'yicha dasturlarning tarqalishi, turli mamlakatlarning boshqarish tajribasini tekshirish orqali umumlashtirish, holatlarni ishlab chiqish, olimlar va amaliyotchilarning xalqaro keng aloqalari vositasi orqali «boshqarish» fani unga ehtiyoj sezayotgan barcha kishilarning mulkiga aylanmoqda.

2. So'nggi yillarning xususiyati shundaki, boshqarishning og'ir yukini o'z zimmasiga olayotgan yoki shu yo'lga qadam qo'yayotgan rahbarlarning tushunishlari va foydalanishlari uchun kuchlari etadigan bo'lgan, yaxshi o'zlashtiriladigan reseptlarga hamda haqiqatlarga murojaat qilinmoqda. Menejment fan sifatida o'zining butun serqirraliligi bilan o'z yo'li bo'yicha rivojlanmoqda va ulkan istiqbolga erishmoqda.

Shu bilan birga hozirgi vaqtda aholining keng qatlamlari ham boshqarish g'oyalariga va samarali boshqarish reseptlariga astoydil qiziqmoqdalar. Mazkur mavzu bo'yicha D.Karnegi, U.Ouchi, T.Piter, R.Uotermen kabi mualliflarning qiziqarli va jonli til bilan yozilgan kitoblari, L.Yakokki, G.Ford, A. Morit kabi bir qator yirik shaxslarning memuar asarlarining dunyo yuzini ko'rganligi fikrimizning dalilidir. Hatto maqsadlar bo'yicha «boshqarish», «og'ishlar bo'yicha boshqarish» atamalariga o'xshash «bestselle bo'yicha boshqarish» atamasi paydo bo'ldi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, hozirgi vaqtda menejerlarning sifati va ularni tayyorlash usullarigagina emas, balki menejerlarni kasbiy tayyorlashda rahbarning o'zini roli ham jiddiy munozaralarga mavzu bo'lib qolmoqda. U maxsus ta'limga ega bo'lgan (ko'pincha muhandislik, huquqiy, iqtisodiy va shunga o'xshash bilimlarga qo'shimcha), professional boshqaruvni kasb qilib olgan.

Qisqa xulosa

Ta'lim-tarbiya ishlariga yangicha munosabat mustaqillik, ma'naviyat negizi asosida hukumat qarorlarida ta'lim islohotlarida olimlar va ijodkor o'qituvchilarning izlanishlarida o'z aksini topmoqda.

O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha ta'lim muassasalari yosh avlodni shakllantirishda, ma'naviyatni milliy merosimiz bilan boyitishda, yosh vatanparvarlarni tarbiyalashda yangicha ish uslublari asosida ijodiy yondashmoqdalar. O'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish pedagogik jamoa faoliyatini tashkillashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli o'quv muassasasini boshqarishning asosiy obyekti pedagogik jamoa hisoblanadi.

¹G'ulomov S.S. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. - T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2000.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, ushbu bobda o`quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish, pedagogik jamoa-o`quv muassasasi boshqarishning obyekti, pedagogik faoliyatni faollashtirish yo`llari, ta`lim muassasasini boshqarish konsepsiyasi, pedagogik faoliyatni boshqarish dasturi, rahbar va uning shaxsi kabilar ko`plab misollar asosida bayon qilingan.

O`z-o`zini nazorat va muhokama uchun savollar:

1. O`quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish qanday amalga oshiriladi?
2. Pedagogik jamoaga ta`rif bering?
3. Marketing – nima?
4. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing tizimi haqida so`zlab bering?
5. Boshqaruv dasturi qanday amalga oshiriladi?
6. Shaxs rivojlanishining asosiy psixologik va pedagogik omillari haqida so`zlab bering?
7. Shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi qanday kuchlar mavjud?
8. O`quv yurtlarida ta`lim jarayoni qanday shakllarda amalga oshiriladi?
9. Menejment – nima?
10. Rahbar shaxsiga qo`yiladigan talablar sizningcha bugungi kun rahbari qanday xislatlarga ega bo`lishi kerak?

GLOSSARIY

Aksiologiya - qadriyatlar to'g'risidagi falsafiy ta'limot, aksiologik qadriyatlar mohiyati.

Aksiologik yondashuv – insonparvarlik pedagogikasiga xos bo'lgan xususiyat, bunda inson omiliga ijtimoiy qadriyat va jamiyat rivojlanishining pirovard maqsadi sifatida qaraladi. Aksiologik tafakkur o'zaro aloqadagi ham o'zaro harakatdagi dunyo konsepsiyasiga asoslanadi.

Anketalashtirish – anketa yordamida ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, psixologik, pedagogik va boshqa tadqiqotlar uchun dastlabki materiallarni yig'ish jarayoni.

Axborotli malaka – ta'lim-tarbiya masalalariga axborotlarni moslashtirish va talqin qilish malakasi.

Axloq - shaxsning jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me'yorlar tizimi, ma'naviy xulq qoidalari, u ijtimoiy ong shakllaridan biri.

Boshqarish – tashkil etish, qaror qabul qilishga qaratilgan faoliyat, obyektni o'z xizmat vazifasi doirasida nazorat qilish, tartibga solish, ishonchli axborotlar asosida tahlil qilish va yakun yasash.

Vazifa – maqsad va uni amalga oshirish bosqichlarining oydinlashtirilishi.

Davlat ta'lim standarti – uzluksiz ta'limning muayyan bosqichida shaxs (mutaxassis)ning tayyorgarlik darajasi va mazmuniga qo'yiladigan minimum talablar.

Didaktika – ta'lim va o'qitish nazariyasi hamda o'qitish jarayonida tarbiyalash mazmunini ifodalovchi pedagogikaning tarkibiy qismi.

Izohlash, tushuntirish – og'zaki izoh, yoritilishi lozim bo'lgan turli materiallarni izohlash, isbotlash, tahlil qilish.

Ilmiy muammo – fan orqali hal qilinadigan asosiy ziddiyatlar.

Istiqbolni belgilash malakasi – ijtimoiy va bilish jarayonlarini rejalashtirish va boshqarish.

Kasbiy – pedagogik muloqot – pedagog va talabaning o'zaro zich ijtimoiy-psixologik aloqasi tizimi bo'lib, uning mazmuni axborotlar ayriboshlash, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, kommunikativ vositalar yordamida o'zaro munosabatlarini tashkil etish hisoblanadi.

Kasbiy tayyorgarlik – bo'lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarligi.

Kasbiy bilimdonlik – pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy tayyorgarlik birligi.

Kuzatish – biror pedagogik hodisa bo'yicha aniq faktik material olish maqsadini ko'zlagan idrok etishning o'ziga xos shakli.

Ko'nikma – o'rganish natijasida qo'lga kiritilgan, beixtiyor, avtomatik tarzda bajariladigan harakat. Ko'nikmalar biror harakatni nazoratsiz, avtomatik tarzda bajarish qobiliyatidir.

Laboratoriya ishi – asbob-uskunalar va boshqa texnik moslamalardan foydalangan holda talabalar bilan tajribalar o'tkazish, biror hodisani maxsus jihozlar yordamida o'rganish.

Ma'ruza – odatda ta'lim muassasalarida biror fan mazmunini og'zaki bayon qilishga asoslangan o'quv jarayoni, metodi.

Malaka – shaxsning oʻzi egallagan bilimlari asosida ularning yangi sharoitdagi yangiliklar bilan birga, maʼlum bir faoliyatni samarali bajarish qobiliyatidir.

Mafkura - gʻoya va qarashlar tizimi.

Metod – 1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli; 2) harakat qilish usuli, tarzi.

Motiv – maʼlum ehtiyojlarni qondirish uchun asos boʻladigan kishining ichki faoliyat mazmuni.

Muammoli oʻqitish – oʻquv mashgʻulotini tashkil etish shakli boʻlib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi va uning hal qilinishida taʼlim oluvchilar faol mustaqil harakat qiladilar.

Pedagogik jarayon – taʼlim masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va talabalarning maqsadli oʻzaro munosabatlari.

Pedagogik malaka – muayyan toifadagi vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega boʻlgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.

Pedagogik texnologiya – 1) oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotga rejali va bir maromda tatbiq etish yoki pedagogik masalani echishga qaratilgan pedagogning uzluksiz oʻzaro bogʻlangan harakatlari tizimidir; 2) taʼlim-tarbiya metodlarini u yoki bu toʻplamini qoʻllash bilan bogʻliq boʻlgan pedagogning uzluksiz, oʻzaro shartlangan harakatlari tizimidir; 3) taʼlim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan, texnika hamda inson omillari, uning oʻzaro hamkorligi asosida oʻqitish jarayoni va bilimlarni egallash, yaratish, qoʻllash hamda belgilashning tizimli metodidir.

Pedagogik faoliyat – taʼlim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

Faoliyat – 1) ongli maqsad bilan boshqariladigan kishining ichki (ruhiy), tashqi (jismoniy) faolligi; 2) atrof-muhitning kishilar tomonidan maqsadga muvofiq qayta bunyod etilishi.

Shaxs – 1) kishilarning ijtimoiy xulqi, insonlar orasida oʻzini tutishini aks ettiradigan ruhiy sifatleri majmuini bildiruvchi tushuncha;

2) turli-tuman sifatler tizimidagi kishining ruhiy, maʼnaviy mohiyati;

3) ijtimoiy mohiyat kasb etgan va oʻz-oʻzini anglash qobiliyatiga ega boʻlgan kishi.

Oʻz-oʻzini baholash – shaxsning oʻz psixologik sifatleri, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmati, kamchiliklarini baholay olishi.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1. Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 19.02.2018- y. PF-5349
2. Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 27.04.2018- y. PQ-3682
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - Sharq. 2001. Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlari.
4. Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 25.01.2018- y. PF-5313
5. Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyati qo'llab-quvvatlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 05.07.2017- y.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent Sharq, 2001.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzurida ta'lim muassasalarida elektron ta'limni joriy etish markazini tashkil etish to'g'risida. O'zR Vazirlar Mahkamasining qarori. 2012- yil 25- iyul.
8. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 14.03.2017- y. PQ-2829
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi №PF-4947 sonli Farmoni. //Xalq so'zi. 2017- yil 8- fevral.
10. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to'g'risida 22.01.2018-y. PF-5308.
11. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. –Toshkent 2018- yil 5- iyun.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017- yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O'zbekiston Respublikasini 2018- yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan murojaatnomasi. 2017- yil 22- dekabr.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

14. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016. -56 b.
15. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. -104 b.
16. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O'zbekiston, 2017. -48 b.
17. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017. -488 b.

Asosiy adabiyotlar

18. Azizxujayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.- T., TDPU. 2003.
19. Бордовская В. Педагогика: Учебное пособие. СПб.: - Питер, 2008.
20. Fayzullayeva N. Ijtimoiy pedagogika. -T.: TDIU, 2012.
21. Hakimova M. Kasb pedagogikasi. -T.: Fan va texnologiya, 2008.
22. Hakimova M. va boshq. Pedagogik texnologiyalar -T.: Fan va texnologiya, 2008.
23. Hakimova M. Yulchieva G. Zamonaviy iqtisodchining shaxsi -T.: Fan va texnologiya, 2014.
24. Ibragimov X. Pedagogika nazariyasi. - T.: Fan, 2011.
25. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - T.: Iste'dod, 2008.
26. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. -T.: O'zbekiston. 2015.
27. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat. 2008.
28. Кузнецов В.И. Управления персоналом. М: МГЭ, статистика и информатика, 2005.
29. Karimova V., Hayitov O, Djalolova S. Boshqaruv psixologiyasi. O'quv qo'llanma. - T., 2008.
30. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. - T.: Fan va texnologiya, 2012.
31. Mavlonova R. Pedagogika. - T.: O'qituvchi. 2010.
32. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. O'quv qo'llanma.- T.: 2006.
33. Musaxanova G.M. Umumiy pedagogika. (Ma'ruzalar matni). -T.: TDIU, 2012.
34. Петровский В.А. и др. Личностно-развивающее взаимодействие.- Ростов на Дону, 2002.
35. Подласый И.П. Педагогика. - М.: Владос, 2007.
36. Перегудов Л.В., Саидов М.Х. Олий таълим менежменти ва иқтисодиёти. - T.: Молия, 2007.
37. Слостенин В.А., Исаев И.Ф., Мищенко А.И., Шиянов Е.Н. Педагогика.- М.: Школьная пресса, 2004.
38. Saidov M.X. Ta'lim krediti: mexanizmi, xususiyati va amaliyoti. Ta'lim muammolari. №2. 2006 yil.
39. Sultonova G. Pedagogik mahorat.-T.: TDPU, 2005.

- 40.Xodiyev B.YU., Golish L.V. Mustaqil o`quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari (birinchi bosqich talabalariga yordam tariqasida): O`quv-uslubiy qo`llanma – T.: TDIU, 2010.
- 41.Xasanboyev J. Pedagogika. - T.: TDPU.2011.
- 42.Xoshimov K. va boshqalar. Pedagogika tarixi. - T.: O`qituvchi, 2003.
- 43.Xoshimov K. va boshqalar. O`zbek pedagogikasi antologiyasi. –T.:O`qituvchi, 2010.

Qo`shimcha adabiyotlar

- 44.Avliyoqulov N. Pedagogik texnologiya.- T., 2012.
- 45.Fayzullaeva N. Ta`lim menejmenti va iqtisodiyoti. (Ma`ruzalar matni). -T.: TDIU, 2012.
- 46.Holliqov A. Pedagogik mahorat.- T.: Iqtisod Moliya, 2012.
- 47.Inomov I. Iqtisodiy tarbiya nazariyasi.-T.,TDIU.2009.
- 48.Muftaydinov Q. Sharq iqtisodiy ta`limotlar tarixi. - T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti , 2002.
- 49.Tojiboeva D. Maxsus fanlarni o`qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2007.

Davriy nashrlar. Statistika to`plam va hisobotlar

- 50.Iqtisodiyot va ta`lim. Jurnal. 1-6 son. 2014-2019- yy.
- 51.Pedagogika. Jurnal. 1-6 son. 2014-2019- yy.
- 52.Ta`lim va tarbiya. Jurnal. 1-6 son. 2014-2019- yy.

Internet saytlari

- 53.old.ziynet.uz
- 54.pedagogika-rao.ru
- 55.pedagogy.ru
- 56.paidagogos.com
- 57.uchebnikionline.ru
- 58.ebagermania.narod.ru
- 59.www.pedagogika-cultura.narod.ru
- 60.www.myshared.ru
- 61.www.batu.edu.by
- 62.www.krotov.info
- 63.68www.gumer.info
- 64.www.gumannaja-pedagogika.ru
- 65.www.koob.ru/pedagogics/www.pedpro.ru
- 66.www.economics.ru

**Hakimova Muhabbat Fayziyevna, Musaxanova
Gulnora Mavlyanovna**

KASBIY PEDAGOGIKA

Oliy o`quv yurtlari talabalari uchun darslik

“IQTISODIYOT” - 2019

Муҳаррир

Мирҳидоятова Д.М.

Мусаҳҳиҳ

Ходжаев И.

Litsenziya raqami AI №M 163. 09.11.2008. Bosishga 2019-yil 18-avgustda ruxsat etildi. Bichimi 60x84¹/₁₆. Ofset qog‘ozi. Tays garniturası. Shartli bosma tabog‘i 13,26. Nashr tabog‘i 16,65. Adadi 500 nusxa. Shartnoma № 88-2017. Buvurtma №756. Bahosi kelishilgan narxda.

“IQTISODIYOT” нашриёти ДУКнинг матбаа бўлимида чоп этилди.

100003. Тошкент шаҳри Ислон Каримов кўчаси, 49-уй.

0000

Kasbiy pedagogika: Ўқув қўлланма. /
Hakimova M.F., Mysaxanova G.M.
. – Т.: IQTISODIYOT, 2019. – 284 б.

1. Hakimova M.F.,
2. Mysaxanova G.M.

ISBN 978-9943-5185-1-3

УЎК:0000

КБК:0000